

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TAHRIRIYAT HAY’ATI

Bosh muharrir: prof. Nabiyev D.H.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.

Mas’ul kotib: dots. Ne’matova Y.O.

Tahririyat hay’ati a’zolari:

prof. Bahridinova B.M.

prof. Yoziyev L.Y.

prof. Jabborov A.M.

prof. Jabborov X.J.

f.-m.f.d. Imomov A.A.

prof. Kamolov L.S.

prof. Normurodov M.T.

prof. Nurillayeva Sh.N.

p.f.d. Oripova N.X.

prof. Korotkov A.S.

prof. Ochilov A.O.

prof. Tojiyeva G.N.

prof. To‘rayev D.T.

prof. Umirzakov B.YE.

prof. Xayriddinov B.X.

prof. Xolmurodov A.E.

prof. Choriyev S.A.

prof. Shodiyev R.D.

prof. Shodmonov N.N.

prof. Erkayev A.P.

prof. Ernazarova G.X.

prof. Eshov B.J.

prof. Qo‘yliyev B.T.

prof. Bekmurodova G.H.

prof. Imanova G.T.

prof. Bobonazarov G‘.Y.

prof. Shukurov O.M.

prof. Yusupova A.SH.

f.f.d. Imomova G.M.

dots. Ro‘ziyev B.X.

dots. Eshqorayeva N.G‘.

dots. Hamrayeva Y.N.

dots. Rizayev B.X.

dots. Nashirova Sh.B.

f.f.f.d. Musayeva D.T.

prof. Tashatov A.K.

prof. Nabiyev G‘.A.

t.f.d. Qurbonov M.

prof. Diyorova M.

prof. Xurramov J.

dots. Rahmatullayev Y.

dots. Jabborov O.

2026
2(1)

QarDU xabarлари

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Muassis: Qarshi davlat universiteti
Jurnal Qashqadaryo viloyati
Matbuot va axborot boshqarmasi
tomonidan 2010.17.09 da
№ 14–061 raqamli guvohnoma
bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.

Musahhihlar:

Shodmonova D.E.

Tursunboyev B.N.

Pardayeva D.R.

Sahifalovchi:

Yuldoshev D.N.

Texnik muharrir:

Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining
qarorlari bilan fizika-matematika,
kimyo, biologiya, tarix, falsafa,
siyosatshunoslik, filologiya,
pedagogika-psixologiya va iqtisod
fanlari bo‘yicha doktorlik
dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal 2009-yilda
tashkil etilgan.

Yiliga 4 marta
chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili: 180003, Qarshi,
Ko‘chabog‘, 17. Qarshi davlat universiteti,
Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.

Telefon: 97-222-10-80

TelegramID:

https://t.me/Qardu_Xabarлари2024

Elektron pochta: qardu_xabarлари@mail.ru

Veb-sayt:

<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

Ijtimoiy-gumanitar
fanlar

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU
xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola
berilishi shart. Mualliflardan kelgan
materiallar egalariga qaytarilmaydi.

MUNDARIJA

TARIX

Safarov T.T. Zarafshon vohasi etnik tarkibiga doir ayrim mulohazalar (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	4
Payzullayev B.B. Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi asosiy savdo yo‘nalishlari.....	8
Mirxakimova F.X. Tarixiy shaxslar yubileylarining uy muzeylari faoliyatidagi o‘rni (Tamaraxonim uy-muzeyi misolida).....	15
Norto‘rayev S.E. Qashqadaryo televideniyesi tarixi: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	20
Hamdamov A.T. O‘zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosatining tarixiy tahlili va yoshlarning ishtiroki.....	23
Hamdamova A.Sh. Davlat siyosatida yosh oilaga munosabatning tarixiy aks etishi.....	26
Achilov A.T. Buyuk ipak yo‘lidagi janubiy sug‘dning iqtisodiy-madaniy aloqalardagi roli	29
Eshov B.J., O‘ralov G‘.A. Mang‘itlar sulolasi vakillarining harbiy munosabatlar faoliyati tarixidan.....	33
Xatamova R.Z. O‘zbekistonda gilamdo‘zlik tarixining manbashunosligi.....	37

FALSAFA

Do‘lanov A. Yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda huquqiy ongning o‘rni.....	44
G‘afurov D.O. Tasavvufiy meros asosida oila va nikoh munosabatlarini mustahkamlashning falsafiy-tarixiy tahlili.....	48
Худойбердиев Д. Понятие экологических проблем и их классификация.....	54
Nazarov R.N. Ijtimoiy tarmoqlarda “Haqiqat” fenomeni: falsafiy yondashuv.....	58
Boymatov R. Shaxs siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni qonuniyatlari.....	61
Aliyev B., Bayaliyev Dj. Sun‘iy intellekt asosida “Aqlli shahar”larni rivojlantirish: global tajriba va O‘zbekiston uchun institutsional chaqiriqlar.....	66
Aliyev B., Bayaliyev Dj. Ijtimoiy-iqtisodiy globallasuv sharoitida muloqotning o‘rni va roli.....	71
Sagdullayeva D.Sh. Jamiyat demokratlashuvi sharoitida huquqiy madaniyat takomillashuvining motivlari.....	77
Isaxova Sh.M. Jamiyatda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini oshirishda xalq tabobatining ahamiyati.....	83
Bekmurodova G.X. Ma‘naviy destruktiv tendensiyalar: sabablari va oqibatlari.....	88
Safarov N.A. Jinoyatchilikning jamiyat hayoti sohalariga ziddiyatli ta‘siri va uning oqibatlari.....	92

FILOLOGIYA

Hamidova M.H. O‘zbek tili tuproqshunoslik terminlarining affiksatsiya usuli bilan yasalishi.....	97
Arzimurodova E.B. Ingliz va o‘zbek tillarida mobil aloqa terminlarining sinonimik va variantlilik xususiyatlari.....	101
Аликулова М. Языковая вариативность как фактор развития литературной нормы..	106
Tursunboyev B.N. O‘zbek va ingliz tillarida fitonimik komponentli frazeologik birliklarning tarjima usullari va muammolari.....	110
Tojiyeva Sh.O. Badiiy matnlarda hurmat semali leksemalarining lingvokulturologik talqini.....	115
Xolova M.B. Lingvomadaniy kodlarning matn interpretatsiyasi va dekodlanishidagi lingvosemiotik roli.....	119

Karimova M.S. Omon Matjon ijodida tabiat va inson uyg'unligi g'oyasining badiiy talqini.....	122
Marziyayev J.K. Qoraqalpoq adabiyotida ekologiya mavzusining yoritilishi.....	127
Naraliyeva Sh. Ekologik diskurs matnlarini tipologizatsiyalashning metodologik asoslari	132
Nashirova Sh.B. Ikki tilli o'quv lug'atlarida maqollar talqini.....	136
Yarmatov I. "Mahbub ul- qulub" asarining psixoanalitik tahlili	140
Muminova S.A. Rauf Parfi va Faxriyor she'rlarida mentallik va irratsionallik xususiyatlari.....	145
Shomurodova D.H. O'zbek adabiyotida havvo obrazining badiiy talqinlari.....	149
Akramov Sh.X. Mahmatmurot baxshi – terma va dostonchilik an'alarining davomchisi	153
Rizayev B.X. Said Ahmad hajviyotida Abdulla Qahhor satirasi an'alarining davom ettirilishi.....	158

PEDAGOGIKA

Salimjonova N. Legal education in a globalized context: normativity, professional formation, and language competence.....	163
Usmonov S.D. Pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining kengayishi va ularning moddiy bazasini yaratish muammolari.....	168
Kudratov K.K. Tyutorlar boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda menejment paradigmalari: an'anaviy va innovatsion yondashuvlar tahlili.....	173
Umarova Z.N. A stage-based model for developing sociocultural competence through ai tools in foreign language lessons.....	178
Баймуратова И.В. Трехмерная таксономия блума при создании новых образовательных технологий.....	181
Qurbonov G'.G'. Talabalarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda majburiy fanlarning o'rni	185
Radjabova Kh.A. Pedagogical modelling of lexical-collocational competence development in corpus-informed digital efl learning environments.....	190
Boqiyev G'.O. Muammoli ta'lim orqali talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish...	195

**ZARAFSHON VOHASI ETNIK TARKIBIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR
(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI)****Safarov Tolib Todjiyevich**

Buxoro davlat texnika universiteti

ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasida dotsenti

Safarvtolib407@gmail.com

ORCID 0009-005-1337-2975

UDK 950(575.1)

Annotatsiya. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistondagi mustaqil xonliklarga nisbatan amalga oshirilgan bosqinchilik yurishlari natijasida Buxoro amirligi va Xiva xonligining vassalga aylantirilishi hamda Qo‘qon xonligining tugatilishi mintqa tarixi, tabiati, etnografiyasi va etno-siyosiy tarixi bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni o‘rganishni kun tartibiga chiqargan. Rossiya imperatori huzuridagi Rus geografiya jamiyati statistika bo‘limi “yozuvlar”ning to‘rtinchi jildi to‘liq ravishda Rossiya imperiyasi tomonidan Samarqandning egallanishi natijasida tashkil etilgan Zarafshon okrugining statistik jihatdan tasvirlashga bag‘ishlangan. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligining Samarqandgacha bo‘lgan hududlarining bosib olinishi natijasida tashkil etilgan Zarafshon okrugi hamda uning tarkibiga kirgan hududlarda istiqomat qilib kelayotgan tub joy aholining etnik tarkibi, nufuzi, soni, xo‘jaligi, kasb-kori hamda aholi qatlaminin turli-tumanligi bilan bog‘liq ma‘lumotlar hamda vohadagi yevropalik va mahalliy aholining umumiy soni to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: L.N.Sobolev, Zarafshon vohasi, etnik tarkib, qatlam, urug‘, o‘zbek, tojik, sart, eroniy, arab, xo‘ja, yevropalik.

**SOME CONSIDERATIONS REGARDING THE ETHNIC COMPOSITION OF THE
ZARAFSHAN OASIS
(SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY)**

Abstract. As a result of the conquests carried out by the Russian Empire against the independent khanates of Turkestan, the Bukhara Emirate and the Khiva Khanate became vassals, and the liquidation of the Kokand Khanate brought to the forefront the study of many issues related to the history, nature, ethnography, and ethno-political history of the region. The fourth volume of the "records" of the statistical department of the Russian Geographical Society under the Russian Emperor is entirely devoted to the statistical description of the Zarafshan district, created as a result of the occupation of Samarkand by the Russian Empire. This article provides information on the ethnic composition, population size, economy, occupation, and population diversity of the indigenous population residing in the Zarafshan district and its constituent territories, formed as a result of the Russian Empire's conquest of the territories of the Bukhara Emirate up to Samarkand, as well as reflections on the total number of European and local population in the oasis.

Key words: L.N.Sobolev, Zarafshan Valley, ethnic composition, stratum, clan, Uzbek, Tajik, Sart, Iranian, Arab, Khoja, European.

Kirish. O‘rta Osiyo tarixi bilan bog‘liq turli-tuman voqealar Rossiya ilmiy jamoatchiligining doimiy diqqat markazida bo‘lgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistondagi mustaqil xonliklarga nisbatan amalga oshirilgan bosqinchilik yurishlari natijasida Buxoro amirligi va Xiva xonligining vassalga aylantirilishi hamda Qo‘qon xonligining tugatilishi mintqa tarixi, tabiati, etnografiyasi va etno-siyosiy tarixi bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni o‘rganishni kun tartibiga chiqargan. Rossiya imperatori huzuridagi Rus geografiya jamiyati statistika bo‘limi “yozuvlar”ning to‘rtinchi jildi to‘liq ravishda Rossiya imperiyasi tomonidan Samarqandning egallanishi natijasida tashkil etilgan Zarafshon okrugini statistik jihatdan tasvirlashga bag‘ishlangan.

Adabiyotlar tahlili. Rossiya imperatori huzuridagi Rus geografik jamiyatining haqiqiy a‘zosi L.N. Sobolevning mazkur voha tavsifiga bag‘ishlangan tadqiqoti bu hudud geografiyasi, etnik tarixini o‘rganish uchun nihoyatda qimmatli va boy materiallarni, shuningdek, uning o‘sha davrdagi holati bilan tanishish imkonini beradi. L.N. Sobolev okrugni tashkil etishda va unda yangi tartiblarni joriy etishda bevosita qatnashgan shaxslardan biri bo‘lgan. Bu holat uning taqdim etgan ma‘lumotlariga yanada katta qiziqish va ahamiyat bag‘ishlaydi[1]. L.N. Sobolev tomonidan tuzilgan Zarafshon vohasi tarkibiga kiruvchi hududlar tavsifi qamrovi va mukammalligi jihatidan nihoyatda puxta bo‘lib, hatto Yevropa Rossiyasida ham bu darajada batafsil o‘rganilgan hududlar kam topiladi. Uning maqolasiga ilova qilingan “Zarafshon okrugidagi aholi yashash manzillari ro‘yxati” esa O‘rta Osiyoning

ushbu qismi tarixiy geografiyasi hamda aholining etnik tarkibiga oid ko'plab masalalarga oydinlik kiritadi. Mazkur maqolada L.N. Sobolev tomonidan o'rganilgan Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi bilan bog'liq statistik ma'lumotlarning ayrim jihatlarini yoritishni lozim topdik.

Tadqiqot usullari. Zarafshon vohasi aholisi xilma-xil etnik tarkibga ega bo'lib, bu yerda asosan o'zbeklar, tojiklar aholining asosiy qismini tashkil qilgan holda boshqa etnik guruhlar ham istiqomat qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Muallif voha etnik tarkibini o'rganishda o'zbek urug'larining umumiy nomlanishi va sonini N. Xanikov va N. Xoroshxin ma'lumotlari bilan taqqoslab ular o'rtasida ma'lum tafovutlar borligiga e'tibor qaratib, Zarafshon vohasida 89 nomdagi o'zbek urug'lari nomlarini keltirib o'tadi[2]. Aholi manzillari va u yerda yashayotgan urug'larning nomlanishini tahlil qilish natijasida N. Xanikov asarida keltirilgan g'alcha (tog'lik tojik) va arablar singari urug' nomlari noto'g'ri talqin qilinganini ta'kidlab, g'alchalarni forsiy kelib chiqishga ega bo'lgan tog'lik tojiklar ekanligini, arablarni esa Arab xalifaligining Movarounnahrda bosqinlari natijasida vohada qolib ketgan Arab avlodlarining davomchilari ekanligini e'tirof etadi. Shunday qilib, muallif, o'zbek urug'larining tasnifi uning nazarida hali aniqlanmaganligini, urug'larning ko'pgina nomlari, masalan, Uxum, Auchi, Kartau, Mitan va boshqalar yashash joyiga qarab nomlanganligi, ularni mayda qabilalar ekanligi hamda yashash joyining o'zgarishi bilan o'z nomlarini o'zgartirganligini ta'kidlaydi[3]. Mang'itlar, minglar, qipchoqlar, naymanlar, turkmanlar, yuzlar, qoraqalpoqlar, kenagaslar va boshqa ba'zi yirik urug'lar esa nufuz va son jihatidan ustun bo'lganligi uchun o'z nomlarini ancha mustahkam saqlab qolganliklarini qayd etadi. Biroq o'zbek Osiyo fотиhi sifatida o'zini kamdan kam hollarda boshqa qabilalar qatoriga qo'shgan. O'zbek har doim o'zbekligicha qoladi, faqat shaharlarda tojiklar aholisi ustun bo'lgan joylarda u aholi biroz o'zgarib, "sart"ga aylanganligini ta'kidlaydi. L.N. Sobolevning fikricha "sart" alohida bir qabila emas, garchi ko'pchilik shunday deb isbotlashga uringan bo'lsa ham. "Sart" deb shaharda yashab, savdo bilan shug'ullanuvchi o'zbek ham, tojik ham atalgan[4]. Bu bir turdagi shahar tabaqasi mulkdor-savdogar qatlam, ammo qabila emas. Zarafshon vohasidagi aholi manzillarining tahlili shuni ko'rsatganki, o'zbeklar asosan vodiyni markaziy va g'arbiy qismlarida hamda Kattaqo'rg'on hududlarida nisbatan ko'pchilikni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalari. Bu xilmaxillik asosan ikki siyosiy sababga bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyo mintaqasi qadim zamonlardan beri turli jangovar xalqlar tomonidan ishg'ol qilib kelingan, bundan tashqari, u sharqdan g'arbga osiyodan yevropaga ko'chib o'tish yo'lida joylashgan edi. Bu asosiy sabab. Ikkinchi sabab esa doimiy ichki urushlarda nafaqat mustaqil xonliklar o'rtasida, balki xonliklarning o'z ichida turli qabilalar o'rtasida ham bo'lib turgan nizolarda edi. Ko'plab xalqlar O'rta Osiyo hududlari orqali o'tib uni talon-taroj qilgan, biroq o'zlaridan sezilarli yodgorliklar qoldirmagan[5]. Fikrimizcha, ular Osiyoning bu qismini yurishlarining maqsadi sifatida emas, balki yo'l ustida joylashgani uchun kesib o'tganlar.

O'rganilayotgan davrda Zarafshon vohasida yashayotgan barcha xalqlar ichida tojiklar, shubhasiz, eng qadimgi xalq hisoblangan. Bu daryo vodiysida eroniyalar joylashishidan avval joy nomlari bilan ataluvchi hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari yashaganligi shubhasiz. Tarixiy ma'lumotlar asosida fikr yuritadigan bo'lsak, O'rta Osiyo bizning eramizdan ancha ilgari ham Fors (Eron) hukumronligining bir qismi bo'lgan. Eron bilan doimiy siyosiy aloqalar, Amudaryo, Zarafshon vohasi va Sirdaryoning yuqori oqimi eroniy qabilalar tomonidan o'zlashtirilishiga sabab bo'lgan, keyinchalik tojiklar ana shu qabilalardan kelib chiqqan. Voha tojiklari uch xil nom bilan atalgan bo'lib, "tojik" umumiy nom sifatida e'tirof etilgan. Marvdan chiqqanlar uchun xususiy ravishda "tojik", shuningdek, "sart" Sirdaryo va Zarafshon vodiylarida yashovchi barcha tojiklar uchun qo'llanadigan umumiy nom[6]. Mahalliy aholi "tojik" so'zini "toj" va "ik" (ya'ni "tojli", "toj kiygan") so'zlaridan kelib chiqqan deb hisoblagan, bu esa nomning qadimiyligini bildirgan. Grebenkinning "Tojiklar" asarida o'zbeklarning quyidagi so'zlari keltiriladi: "Biz tojikni u bilan birga bo'lsak tojik deymiz, agar uni koyisak sart deymiz"[7].

Tojiklar "sart" nomini ularga ruslar va ruslarga qaram qirg'izlar bergan, deb ta'kidlaganlar, biroq o'zlari zarafshonliklar bu nomni tan olmaganlar. Sobolevning fikriga

ko'ra, "sart" degan g'alati laqab asosan qirg'izlar ko'chib yuradigan joylarda tarqalgan. Turkiston, Chimkent, Toshkent va Turkiston o'lkasining boshqa shaharlarini ko'chmanchilar o'rab turgan bo'lib, bu shaharlarda "sart" so'zi quloqqa odatiy eshitilgan. Tog'li shaharlar va qishloqlarda esa, ya'ni qirg'iz va o'zbeklar umuman yo'q yoki juda kam bo'lgan joylarda, masalan, Qurama, Xo'jand va Jizzax uyezdlarida hamda Samarqandning ayrim hududlarida "sart" nomi umuman ishlatilmagan yoki juda kam qo'llanilgan. Umuman olganda, Sirdaryo bo'ylaridan janubga uzoqlashgan sari "sart" atamasi tobora kamroq uchragan va Shahrisabz tomonlarda deyarli qo'llanilmagan[8]. Tojiklar vohada asosan sharq va janubi-sharqda, shuningdek, quyidagi shaharlarda joylashgan: Panjikent, Urgut, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Payshanba. Panjikent va Samarqand bo'limlaridagi aholi maskanlari ro'yxatidan ko'rish mumkinki, tojiklar bo'limning janubi-sharqiy tumanlarida ko'proq yashaganlar, shimoliy tumanlarda esa ancha kam, ayrimlarida esa umuman yo'q. Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi, Samarqand shahridan sharq va janubi-sharqda joylashgan hududlarda aholi maskanlarining katta qismi tojiklardan iborat bo'lib, ayniqsa, sharqiy qismlarda ular ustunlik qilgan. Bundan tashqari tog'li hududlarda yashaydigan tojiklar g'alcha (tog'lik) deb atalgan[9].

Vohada istiqomat qilib kelayotgan yana bir xalq eroniylar bo'lib, hali bu yerdagi boshqa xalqlar bilan aralashib ketmagan, shu bois ular tojiklardan farqlangan. Ularning katta qismi Shimoliy eronning turli hududlaridan kelib chiqqan bo'lib, u yerdan turkmanlar tomonidan asir olinib, Buxoro bozorlarida sotilgan. Shuningdek, o'z ixtiyori bilan Zarafshon vohasiga ko'chib kelgan bir necha fors oilalari ham bo'lgan. Vohadagi forslar soni to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Eroniylar qatoriga Marv shahridan kelganlar ham kiritilgan. Marvliklar asosan Samarqandning g'arbiy qismida shaharga yaqin joylarda istiqomat qilganlar. Ularning katta qismi bu yerga amir Nasrullo davrida joylashtirilgan[10]. Savodxonlik darajasi jihatidan bu qabila vohadagi boshqa tub aholidan birmuncha ajralib turgan. Shuning uchun bo'lsa kerak ular Buxoro amirligi saroyida ko'pincha yuqori lavozimlarda faoliyat yuritganlar. Samarqand bo'limidagi aholi punktlari ro'yxatidagi ma'lumotlarga ko'ra Samarqand yaqinidagi Angor tumanida ularning umumiy soni 2130 nafarni tashkil etgan. Vohadagi arablar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etmagan, biroq ular o'z qiyofasini saqlab qolgan va boshqa xalqlar bilan deyarli qiyin aralashgan. Samarqand bo'limidagi ma'lumotlarga ko'ra arablar Angor tumanining bir qismida yashagan umumiy sonda 1200 nafardan ortiq deb hisoblangan. Shu bo'limning Afarinkent tumani, Arabxona deb ataluvchi qishloqda 245 nafar arab istiqomat qilgan. Bundan tashqari, ular Yangiqo'rg'on tumanida 45 nafarni, Kattaqo'rg'on shahrining o'zida Arabxona mahallasida 145 nafar, hamda ayrim atrof qishloqlarda yashaganlar[11].

Vohaning deyarli barcha savdo rivojlangan shaharlarida hindlarni uchratish mumkin bo'lgan. Ular asosan pul muomalasi va savdo bilan shug'ullanganlar. Ularning soni boshqa xalqlarga nisbatan kam bo'lib, savdo ishlarida ularning ta'siri ancha kuchli bo'lgan. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra vohada savdo aloqalari bilan mashg'ul hindlar Hindistonning Peshovar, Bombay, Lahor va Shakarpurdan kelib chiqqan kishilardir. Hindlarning ayrimlari garchi bu yerda kam uchrasa ham, yerga egalik qilib, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Samarqand shahrida esa ular 6 ta karvonsaroyga egalik qilib, savdo-sotiq ishlarini olib borganlar[12]. Samarqand shahrida butun boshli yahudiylar mahallasi mavjud bo'lib, bundan tashqari ular vohaning boshqa shaharlarida ham yashaganlar. Ularning asosiy mashg'uloti savdo-sotiq va yuqori foiz evaziga qarz berib sudxo'rlik bilan mashg'ul bo'lganlar. 1860 yillarda yahudiylarning Samarqandga kelishi ko'paygan. Ular asosan Buxorodan ko'chib kelgan. Buxoroga esa Erondan kelishgan. Ularning so'zlashish tili forsiy bo'lib, dini yahudiy, ya'ni Muso qonuniga e'tiqod qilganlar[13]. Lo'lilarning vohadagi umumiy soni 500 nafargacha yetgan. Ular asosan chodirlarda ko'chib yurib, ot savdosi va mayda-chuyda savdo bilan shug'ullanganlar, ayollari esa fol ochish, tabiblik va kichik savdo bilan mashg'ul bo'lganlar. Mazanglar vohada taxminan 200 nafarni tashkil etgan. Ular o'troq yashab, dehqonchilik va mayda savdo bilan shug'ullanganlar. Ularning kelib chiqishi noma'lum bo'lib, vohadagi boshqa xalqlar bilan aralashmaganlar. Shuningdek, vohadagi jo'gilarning umumiy soni noma'lum bo'lib, ular o'zlarini Hisor va Kofarnixon tomondan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanib butun voha maishiy turmushi

uchun zarur buyumlar, jumladan, yog'ochdan qoshiq, temirdan chelak, tog'ora, sanchqi, belkurak yasaganlar, shuningdek, aravalari uchun gardish egib, o'g'ir-dastalar yo'nganlar hamda ayrim bosh va bel taqinchoqlarini tayyorlaganlar[14].

Vohada sanab o'tilgan xalqlardan tashqari alohida bir tabaqa ham mavjud bo'lib, ular xo'ja deb atalgan va o'zlarini Muhammad payg'ambar naslidan, ayol tomoni orqali kelib chiqqan deb bilganlar. Ularning qaysi millatga, ya'ni arab, tojik yoki o'zbeklarga mansubligini aniqlash mushkul bo'lib, xo'jalarning quyidagi guruhlar mavjud bo'lgan. Oqsuyak xo'ja (xo'ja aslzodalari). Ular o'zlarini Hazrat Ali Imom Muhammad Xalifaning avlodlari deb hisoblaganlar va Xo'janddan chiqqanliklarini e'tirof etganlar; Oqsuyak (xo'ja-qozoq). Ularning aytishlaricha, qabri Avliyootada joylashgan bir avliyodan tarqalgan; Xo'ja baxshash (chechakka qarshi emlovchilar). Ular o'z kelib chiqishlarini avliyo Xurosonotadan deb bilganlar, o'z avlodlariga chechakka qarshi emlashni o'rgatganliklarini da'vo qilganlar; Xo'jalar. Ular o'zlarini Xo'ja Ahmad Yassaviyning, ya'ni Hazrat Turkiston sultonining avlodlari deb e'zozlaganlar; Shayxlar. Ular Buxoro xonligi, xususan, Xatirchi bekligidan kelib chiqqanliklarini e'tirof etganlar[15].

Vohadagi yevropalik aholi asosan to'rtta aholi maskanida, ya'ni Samarqand, Kattaqo'rg'on, Panjikent va Toshko'prik istehkomida yashagan. Voha boshqaruv markazi bo'lgan Samarqandda ularning soni ko'pchilikni tashkil qilgan. Ularning katta qismi harbiy tabaqaga mansub bo'lib, bu yerda 3 ta saf batalyoni, piyodalar batareyasi, otliq artilleriya divizioni, 4 ta kazak yuzligi va qal'a artilleriyasi jamoasi joylashtirilgan. 1872-yilgacha bu shaharda ruslar qal'a ichida yashaganlar. Keyinchalik yevropaliklar uchun qal'aning g'arb tomonida keng hudud ajratilib ular uchun uy-joylar qurilishi boshlangan[16]. 1871-yilning kuzidayoq ushbu maydonning g'arbiy chekkasida ikki oy ichida xom g'ishtdan 100 dan ortiq uy qurilgan. Bu uylar oilali harbiy xizmatchilar uchun turar joy sifatida xizmat qilgan. 1872-yil davomida yangi shahar bunyod etish rejalashtirilib, qurilish uchun yer uchastkalari taqsimlab berilgan. Ko'chalarning bir qismi yo'laklarga ajratilib, bog' barpo etilgan, ko'chalar daraxtlar bilan bezatilgan va suv uchun kanallar o'tkazilgan. Kattaqo'rg'onida bir saf batalyoni, bir kazak yuzligi va kichik qal'a artilleriyasi jamoasi joylashtirilgan. Askarlar manzilgohi uchun alohida joy ajratilgan. Harakatdagi harbiy qo'shinlardan muddatli xizmatdan bo'shatilganlar va fuqarolik boshqaruvida xizmat qiluvchi shaxslardan tashqari, Zarafshon vohasida, asosan Samarqandda, fuqarolik xizmati idorasiga mansub shaxslar, savdogarlar, meshchanlar – shaharliklar va boshqalar ham bo'lgan. Samarqandning ruslar yashaydigan qismida pravoslav aholi soni 5000 nafarni tashkil etgan. Ma'lumotlarda vohadagi yevropaliklarning aniq soni qayd etilmagan, biroq ularning soni 7000 nafar atrofida bo'lganligi taxmin qilingan[17].

Xulosa. Zarafshon vohasi aholisining etnik tarkibi haqida qisqacha bayondan ko'rinib turibdiki, vohada son va nufuz jihatidan asosiy etnos, shubhasiz, o'zbeklar bo'lgan. Nufuz jihatidan ulardan keyingi o'rinni tojiklar egallagan. O'zbeklar asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan bo'lsa, Samarqand va Kattaqo'rg'onida yashovchi tojiklar esa savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lib, ular ham dehqonchilik bilan bajonidil shug'ullanganlar. Zarafshonning yuqori qismida yashovchi tojiklar esa savdo bilan shug'ullanmaganlar, ular chorvadorlik bilan bir qatorda turli ekinlar ekib dehqonchilik orqali umrguzaronlik qilganlar. Umuman olganda, tojikni savdogar deb tavsiflash juda qiyin, sababi Matchoh, Fan, Yag'nob va Falgar hududlarida birorta ham bozor bo'lmagan. Tojiklarning ajralib turadigan yana bir xususiyati tinchliksevarlikdir. Aynan shu sababdan bo'lsa kerak, ular shaharlar bo'ylab tarqalib yashaganlar. Vohada yashayotgan xalqlarning umumiy tavsifi, tarkibi, nufuzi hamda sonidan kelib chiqiladigan bo'lsa, vohaning 280 950 nafar aholisidan qariyb 200 ming nafari, ya'ni 71 foizi o'zbeklar hissasiga to'g'ri kelgan[18].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населённых мест округа. Записки императорского общества по отделению статистики. Том четвёртый. - Туркестанский сборник. Составляемый В.И. Межовым Том 90. С-Петербург. 1873. - С. 277-292.

2. Гребенкин А.Д. Мелкие народности Зеравшанского округа. - «Русский Туркестан», вып. 2.

Туркестанский сборник. Составляемый В.И. Межовым Том 57. С-Петербургъ. 1873. - С. 110-119.

3. Гребенкин А.Д. Таджики. - «Русский Туркестан», вып. 2. Туркестанский сборник. Составляемый В.И. Межовым Том 57. С-Петербургъ. 1873. - С. 1-150.

4. Гребенкин А.Д. Узбеки. - «Русский Туркестан», вып. 2. Туркестанский сборник. Составляемый В.И. Межовым, Том 57. С-Петербургъ. 1873. - С. 51-109.

5. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – Сборник сведений о Средней Азии и русском Туркестане. – СПб. 1843. – С. 183.

6. Хорошхин А.П. Народы Средней Азии. - Историко-этнографические этюды. – Туркестанский сборник. Том 116, стр. 487-516 и Том 95, стр. 303-330. С.-Петербургъ. Типография и хромолитография А. Траншеля, стремянная, № 12.

7. Галкин М.Н. Этнографические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. - «Записки Геогр. Общ.», по отд. Этногр. Т. I. Туркестанский Сборник. 1867. Составляемый В.И. Межовым Том 4. С-Петербургъ. 1869. - С. 1-250.

8. Галкин М.Н. Этнографические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. - СПб.1869. «Отеч.Записки» 1869. №6. Туркестанский Сборник. 1869. Составляемый В.И. Межовым Том 23. С-Петербургъ. 1870. - С. 96-104.

9. Численность населения Самаркандской области. - (Прав. Вест.1896. № 245). Туркестанский Сборник. Том 433. - С. 21. Статьи и заметки из русских и иностранных газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генераль-Губернатора генерала отъ инфантери Н.И.Гродекова. – Ташкентъ, 1907.

10. Количество населения в Самаркандской области. - (Прав. Вест.1898. № 219). Туркестанский Сборник. Том 432, стр. 148. Статьи и заметки из русских и иностранных газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генераль-Губернатора генерала отъ инфантери Н.И.Гродекова. – Ташкентъ, 1907.

BUXORO AMIRLIGI VA QO‘QON XONLIGI O‘RTASIDAGI ASOSIY SAVDO YO‘NALISHLARI

Payzullayev Bekzod Boxodir o‘g‘li

Qarshi xalqaro universiteti Ijtimoiy

bekzodfayzullayev406@gmail.com

Gumanitar fanlar kafedrası assistenti.

ORCID 0009-0003-1839-8926

UDK 94(575.171)(072)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyodagi asosiy savdo yo‘nalishlari, ularning geografik joylashuvi hamda karvonsaroylar va yo‘l bo‘yi bekatlarining ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda, ayniqsa, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi davridagi savdo aloqalari, karvon yo‘llarining yo‘nalishlari va ular orqali amalga oshirilgan iqtisodiy munosabatlar keng yoritilgan. Muallif savdo yo‘llarining ichki va tashqi siyosat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib, ularning davlat rivojidadagi o‘rnini ochib beradi. Shuningdek, maqolada karvonsaroylar, rabotlar va boshqa infratuzilma obyektlarining qurilishi, ularning savdo xavfsizligini ta‘minlashdagi roli alohida ta‘kidlangan. Karvonlarning harakatlanish jarayonida duch kelgan tabiiy va ijtimoiy xavflar, jumladan, iqlim sharoiti, yo‘l qiyinchiliklari va talonchilik holatlari ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, savdo yo‘llari bo‘ylab barpo etilgan infratuzilma nafaqat iqtisodiy almashinuvni, balki madaniy aloqalarni ham rivojlantirgan. Maqola Markaziy Osiyoda savdo tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: savdo yo‘llari, karvon yo‘llari, karvonsaroylar, rabotlar, savdo infratuzilmasi, Markaziy Osiyo savdosi, Qo‘qon xonligi.

MAIN TRADE ROUTES BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKAND KHANATE

Abstract. This article provides a scholarly examination of the principal trade routes in Central Asia, focusing on their geographical positioning as well as the functional role of caravanserais and roadside stations. Particular attention is given to the commercial interactions between the Kokand Khanate and the Bukhara Emirate, including the structure of caravan routes and the nature of economic exchanges conducted along them. The study highlights the interdependence between trade networks and both domestic and foreign policy, emphasizing their significance in shaping regional development. Furthermore, the paper explores the construction and operation of caravanserais, rabats, and related infrastructural facilities, underlining their importance in maintaining the safety and continuity of trade activities. It also evaluates various environmental and social challenges encountered by caravans, such as harsh climatic conditions, difficult terrain, and the risk of attacks. The findings suggest that the infrastructure established along these routes not

only facilitated economic transactions but also promoted cultural interaction across regions. Overall, the article contributes to a deeper academic understanding of the formation and evolution of trade systems in Central Asia.

Key words: trade routes, caravan routes, caravanserais, rabats, trade infrastructure, Central Asian trade, Kokand Khanate.

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim hududlardan biri sifatida jahon savdo tizimida alohida o'rin egallagan. Ushbu mintaqa orqali o'tgan savdo yo'llari nafaqat iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan, balki turli xalqlar o'rtasida madaniy, ilmiy va ijtimoiy almashinuvni ham ta'minlagan. Ayniqsa, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi davrida savdo yo'llarining shakllanishi va rivojlanishi davlatlararo munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilgan. Mazkur davrda savdo aloqalari karvonlar orqali amalga oshirilib, ular aniq yo'nalishlar bo'ylab harakatlangan hamda maxsus infratuzilma – karvonsaroylar, rabotlar va bekatlar bilan ta'minlangan. Bu obyektlar savdogarlar va sayohatchilar uchun nafaqat dam olish joyi, balki xavfsizlikni ta'minlovchi muhim maskan sifatida ham faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, savdo yo'llarining barqaror ishlashi davlat siyosati, boj tizimi va harbiy himoya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi savdo yo'nalishlari o'zining geografik murakkabligi va strategik ahamiyati bilan ajralib turgan. Ushbu yo'llar orqali nafaqat ichki hududlar o'zaro bog'langan, balki Eron, Afg'oniston, Hindiston hamda Rossiya kabi davlatlar bilan ham iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yilgan. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi asosiy savdo yo'nalishlarini, ularning geografik xususiyatlarini hamda savdo infratuzilmasining shakllanish jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, tadqiqotda savdo xavfsizligi, karvon harakati va yo'l bo'yi inshootlarining ahamiyati ham yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketmaketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamo-yillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Barchaga ma'lumki, har qanday davlatning, taraqqiy etishi shu mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan belgilanadi. Aksariyat davlat yetakchilari xohish-istaklariga qaramasdan mamlakatdagi iqtisodiy o'sish, uning imkoniyatlarini bevosita savdo bilan bog'lanadi. Xususan, savdoni taraqqiy ettirish va uni rivojlantirish davlat siyosatining asosiy vazifalardan biri hisoblangan. Ayniqsa, markazlashgan davlatlarda kuchli salohiyatni belgilashdagi asosiy omil uning iqtisodiyoti ravnaq topgan bo'lishi, yangi bozor qurilganligi, mavjudlari esa kengaytirilganligi, savdo do'konlari, karvonsaroylar ularning xavfsizligi va boshqa savdo inshootlarining barpo etilganligi bilan belgilangan.

Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'zlarining tashqi savdosini karvonlarda tovar olib borish va olib kelish yo'li bilan amalga oshirgan. Lekin ba'zida Buxoro-Qo'qon munosabatlarida siyosiy keskinliklar ham bo'lib turgan. Xususan, 1821-yilda taxtga kelgan Madalixon hali yosh bo'lib, uning hukmronligi 1842-yilda Buxoro amiri Nasrulloxon tomonidan Qo'qon shahrining bosib olinishi bilan yakunlangan. Uning davrida O'ratepa va Xo'jand uchun bo'lgan an'anaviy raqobatdan tashqari, xonlikning tashqi siyosati yanada keng hududlarni qamrab olgan.

Shunday bo'lsa-da, har ikkala davlatning savdo munosabatlari, boj tizimi tartibga solinib, ularning nazorati kuchaytirilgan. Xonliklarning savdo karvonlari qatnovi quyidagi yo'nalishlar bo'ylab yo'lga qo'yilgan:

Savdo yo'llari	Savdo yo'lining asosiy yo'nalishlari
Qo'qon – Buxoro savdo yo'li	Bu yo'l ikki yo'nalishda markaziy shaharlarni kesib o'tgan. Ularning birinchisi, Qo'qon – Beshariq – Mahram – Xo'jand – O'ratepa – Jom (Ėm) – Rabot – Jizzax – Samarqand – Yangiqo'rg'on orqali, ikkinchisi, Qo'qon – Beshariq – Mahram – Xo'jand – O'ratepa – Zomin – Jizzax – Samarqand orqali o'tgan va savdo karvonlari 20-22 kunda Buxoroga yetib borgan[1].

Qo'qon – Toshkent savdo yo'lining uchta yirik yo'nalishlari bo'lib, birinchi yo'nalish	Tilav va Kandir dovoni orqali o'tib, Tilovda ikki shaxobchaga bo'linib ketgan. Biri Ohangaronning chap tomonidan o'tib, Kurd orqali Beshkent, To'ytepa va Toshkentga borgan. Ikkinchisi esa Tilav yonida Ohangaronidan o'tib, Qoraxitoy qishlog'ida ikkiga ayrilgan: biri To'ytepaga ketgan, ikkinchisi Qovardan Niyozbek orqali Toshkentga kelgan. Bu yo'l eng uzun hisoblangan va undan faqat suv toshqinlari vaqtida, ya'ni To'ytepadan Toshkentga yurib bo'lmagan vaqtlarda foydalanilgan.
Ikkinchi yo'nalish:	Qo'qondagi Uchtog'i orqali Rabot (Uralsk stansiyasi) da ikki shoxobchaga bo'lingan. Biri – Bishkent va To'ytepaga, ikkinchisi chaproq yurib, Bo'ka, Jafon, Zangi ota qishlog'i orqali Toshkentga kelgan.
Uchinchi yo'nalish:	Qo'qon va Namangandan Tirs orqali o'tgan yo'l. U Chotqoldan yuqori ko'tarilib, Qorabura darasidan o'tib, Avliyo otaga borgan. Uning bir shoxobchasi chapga yo'nalib Chimkent orqali Yettisuv tog'i, Oqjar va Qoplonbek bilan Toshkentga kelgan. Bu yo'ldan faqat yozda foydalanilgan. Ikkinchi shoxobchasi Sayram vodiysidan Tilav orqali tog'dan o'tib, Qo'qonga borgan. Aniqrog'i bu Sayram – Qo'qon yo'li bo'lib, u Sayram vodiysidan boshlanib, Yettisuv – Oqjar – Darbesikqopqa dovoni – Aleksandrovsk tog'lari – Xo'jand ko'prigi orqali Chirchiq daryosidan o'tib – Kuchqo'rg'on – Xitoytepa – Qanjig'alidan o'tib Tilavga borgan va katta Qo'qon yo'li bilan shaharga kirgan. Bu yo'l orqali asosan qo'y podalari Avliyo otadan Qo'qonga olib kelingan[2]. Toshkentdan Qo'qongacha yo'l 10 kunlik bo'lgan[3].

Qo'qon – Xiva savdo yo'lining bir tarmog'i Buxoro orqali o'tgan. Ikkinchi tarmog'i Sirdaryo bo'ylari bilan borgan. Qo'qondan Xivagacha karvon yozda bir - bir yarim oy yo'l yurgan.

Qo'qon – Pomir savdo yo'li Ko'lob va Qorateginga va u yerdan Pomir tumanlariga borgan. Yo'l dovonlar orqali o'tgan va yoz mavsumida amal qilgan.

Qo'qon savdo karvonlari Afg'onistonga Buxoro amirligi hududlari, ya'ni Termiz orqali bir - bir yarim oyda yetib borgan

Qo'qon – Eron karvon savdosi asosan Termiz va Hirot orqali Mashhadga o'tish yo'li bilan amalga oshirilgan. Shu yo'l orqali Turkiyaga safarga tinch va osoyishtalik holatlarida ikki oy vaqt ketgan.

Qo'qon xonligida karvonsaroylar joylashgan shaharlar asosan Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh, Xo'jand kabilar edi. Ushbu shaharlar Buyuk Ipak yo'lining tarmoqlari ustida joylashgan savdo markazlari hisoblangan.

Qo'qon savdo karvonlari Qashg'arga G'ulja orqali bir oy davomida yo'l bosgan. Shuningdek, Qo'qon xonligi Qashqar orqali Hindiston bilan ham savdo-sotiq munosabatlarini amalga oshirgan. H.Bobobekova, M.D.Skobelev ma'lumotlariga tayanib Qo'qon xonligining Qashg'ar bilan savdo-sotig'i yiliga 30-40 ming tilloga teng bo'lganligini eslab o'tadi. Qo'qondan Qashg'arga ipak, uy-rang bo'yoq va ayniqsa bo'z olib borilgan. Qashg'ardan Qo'qonga esa gilam, nashatir, choy va kigiz keltirilgan. Qo'qon-Qashg'ar savdo aloqalari yo'l qiyinchiligiga qaramay (yo'l tog'dan o'tardi) yaxshi bo'lib karvonlar tez-tez borib turgan. Bu karvon yo'llari xavfli bo'lmay osoyishta edi. Bu esa karvonlarning har hafta safarga chiqishida asosiy omil bo'lib hisoblangan. Aksincha, Rusiya karvonlari uchun esa qaroqchilardan xavfli edi [4].

Qo'qon xonligida Olimxondan keyin hokimiyatni egallagan Umarxon muayyan darajada oldingi hukmdor tomonidan yaratilgan siyosiy asoslardan foydalangan. U ham taxtni saqlab qolish uchun ayrim raqiblarini bartaraf etishga majbur bo'lgan bo'lsa-da, davlat tashqi siyosatda diplomatik aloqalar va haj safarlari kabi usullardan ham foydalangan. Umarxonning harbiy yurishlari asosan shimoli-g'arbiy dashtlarda yashovchi qozoq yarim ko'chmanchi qabilalariga qarshi qaratilgan bo'lib, shu bilan birga Qashg'arga olib boruvchi janubiy karvon yo'lini himoya qilishga ham xizmat qilgan [5].

Qo'qon – Dashti Qipchoq bilan Toshkent, Sayram va Yettisuv orqali savdo qilgan. 1831-yilda Qo'qon-Xitoy shartnomasi tuziladi. Unga ko'ra Qo'qon xoni Qashg'arda savdogarlardan boj yig'ish huquqini qo'lga kiritadi. Buning evaziga qo'qonliklar savdogarlarni yo'l qaroqchilaridan himoya qilishgan. Karvon uchun yo'l qiyinchiliklari deganda faqat qaroqchilar hujumi emas, tabiat va uning ba'zi injiqliklariga ham bardosh

berishi kerak edi. Xususan, dovonlar oshish, jazirama issiq va qishning sovug'i yuk tashuvchi hayvonlarni toliqtirib yuborar eidi. Ba'zida qiyinchilik sababli ot va tuyalar juda ozib ketadi va ko'plarining tuyoqlari yorilib ketgan. Har kuni bir yoki ikkita hayvon nobud bo'lgan. Bundan tashqari karvonlar dasht ko'chmanchilaridan aziyat chekib kelgan. Bunga misol qilib Qo'qon xonligi orqali Buxoro va Xiva xonliklariga o'tuvchi Terak dovoni yo'lida Qashg'ar karvonlarining talanishi edi. Asosiy talonchilar cho'nbag'ish urug'idan Ateke ko'chmanchilari bo'lib, hattoki ular Xitoy qo'riqchilari ko'z oldida Oqsuv-Qashg'ar katta yo'lida ularning karvonlarini talon-toroj qiladi. Ushbu voqealardan so'ng qo'qonliklar karvonboshining iltimosiga ko'ra karvon va undagi savdo mollarini himoya qilish uchun bir nechta askarlar yuborishadi.

Ko'chmanchi qozoqlar qo'qonlik karvonlarga xavf tug'dirmagan, chunki ular Qo'qon xonligi hokimiyatini tan olishgan. Shuning uchun ham ular qo'qonlik karvonlarga deyarli hujum qilmas edilar[6].

Qo'qon – Rossiya savdo yo'llari Dashti Qipchoqdan o'tib, Omsk, Tomsk, Orenburgga borgan va qulay iqlim sharoitida olti oy vaqt sarflagan[7]. Qo'qon savdogarlari XIX asrning yarmida Rossiya yarmarkalarida bo'lib, xonlikka ko'p mollarni sotib olib kelardilar. Xonlik bozorlarida har xil rastalar, timlar, do'kon-u saroylar bo'lardi. XIX asrning 60-yillarida Toshkent bozorlarida 16 ta karvonsaroy, 2400 do'kon bo'lib, 30 ga yaqin rastalari bor edi. Xo'qand bozorida 5 ta karvonsaroy, O'ratepada 3ta, Qo'qon bozorida 1841-yili 6 ta karvonsaroy o'z do'konlari bilan faoliyat ko'rsatardi. Toshkent voha va Dashti qipchoqning poytaxti sifatida katta mavqega ega bo'lib, Dashti qipchoq va Rossiyaga boradigan karvon yo'llari shu shahar orqali o'tgan[8].

Shuningdek, XIX asrning o'rtalaridan boshlab Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga kirib kelishi xonlik uchun jiddiy siyosiy xavfga aylangan. Qo'qon va Buxoro o'rtasidagi raqobat esa ularning umumiy tashqi tahdidga qarshi birlashishiga to'sqinlik qilgan. Natijada Rossiya qo'shinlari mintaqada bosqichma-bosqich harbiy ustunlikka erishib, bir qator shaharlarni egallay boshlagan. 1866-yilga kelib Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent, O'ratepa va Xo'jand shaharlari Rossiya qo'shinlari qo'lga o'tgan. Bu esa Farg'ona vodiysini Buxoro amirligidan ajratib qo'ygan va Qo'qon xonligining siyosiy mavqeyini yanada zaiflashtirgan[9].

Mamlakatning Qo'qon shahridan keyingi muhim siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy strategik markazlaridan biri Toshkent shahri edi. XIX asrning 50-yillarida Toshkentda 15 ta karvonsaroy bo'lgan. Qo'qon bozorida 1841 -yili 6 ta karvonsaroy mavjud bo'lgan bo'lsa, XIX asrning 60-yillarida Qo'qon bozorida 5 ta karvonsaroy, O'ratepada 3 ta karvonsaroy o'z do'konlari bilan faoliyat ko'rsatardi. 1801–1876-yillarda Qo'qon xonligida ma'muriy va jamoat binolari, jumladan, saroylar, masjidlar, ko'priklar, karvonsaroylar, yo'llar va bekatlar qurilishiga katta e'tibor berilgan va xususiy uylar qurilishi ham ancha rivojlangan. Markaziy yo'llar, ularning shoxobchalari doimo nazoratda bo'lib, qo'riqlangan. Xonlik hududlarida (Dashti qipchoqdan tashqari) karvonlar, tijoratchilar va ularning mollarining xavfsizligi to'la ta'minlangan[10].

Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy nizolar savdo aloqalarining ma'lum muddat susayishiga olib kelgan bo'lsa-da, o'zaro savdo munosabatlar to'xtab qolmagan.

O'.Mavlonovning ma'lumotlarida mintaqaning muhim savdo yo'llari kesishgan chorrahada joylashgan Jizzaxda Farg'ona vodiysi va Xo'janddan O'ratepa orqali keluvchi karvon yo'li Toshkentdan Mirzacho'l orqali kelgan yo'lga qo'shib, bu yerdan Samarqandga va Nurota tog'ining shimolidagi tekislik bo'ylab Hurotaga boruvchi yo'l boshlangan. Jizzaxdan Samarqandga asosiy yo'l Ilono'tdi darasi orqali o'tilgani ma'lum. Ushby yo'l Farg'ona va Toshkentdan Samarqandga aravalar bilan borishga imkon bergan yagona yo'nalish bo'lgani bois, bu daraning ahamiyati nihoyatda katta edi [11].

Buxoro amirligi xalqaro savdo aloqalari uchun qulay geografik hudud va kesishgan chorraha yo'llarda joylashganligi tufayli shimolga mahsulotlarini yuborgan, janubiy chegaradagi davlatlar uchun ishonchli omborxonaga vazifasini ham o'tagan. Amirlik hududi bir tomondan Eron va Afg'oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan Qozoq

juzlari va to'rtinchi tomondan Qo'qon xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Shuningdek, Qo'qon savdogarlarining Shimoliy Hindiston shaharlariga faqat Buxoro va Samarqand orqaligina emas, balki ba'zi Markaziy Osiyoda hind aholisi yashaydigan mahallalar orqali ham aloqa qilish imkoniyati mavjud edi.

Mir Izzatulloning "Ma'sir-i Buxoro" ("Buxoroga sayohat") asarida Qo'qondan Xo'jand, O'ratepa va Jizzax orqali Samarqandga keluvchi yo'l tafsilotlari haqida ma'lumotlar qayd etiladi. Unga ko'ra, Jizzaxdan keyin Ilono'tdi darasidan o'tilib Yangiqo'rg'on, Mullabuloq, Qo'shko'prik va Qoraqalpoq kabi yirik qishloqlar orqali Samarqandga borilgan. Samarqandga borishda Jizzax bekligiga tegishli Yangiqo'rg'onida to'xtagan Mir Izzatullo, uning yaqinida eski bir qo'rg'on xarobasi mavjudligini, Mullabuloq (Buloqi Mulla) esa o'zining bulog'i bilan mashhurligini yozadi. Shuningdek, sayyohning hisobotda Samarqanddan Buxoroga bo'lgan savdo yo'li Kattaqo'rg'on va Karmana orqali o'tishi qayd etilib, Buxoro amirligining ikki yirik poytaxt shahri bo'lgan Samarqand va Buxoro oralig'ida joylashgan boshqa katta va kichik qishloqlar hamda yo'l bo'yi inshootlar (Xonrabot, Raboti Abdullaxon va boshqalar) haqida ham ma'lumotlar keltiradi[12].

Savdo markazlari hisoblangan Buxoro, Samarqand, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, G'uzor, Sherobod, Termiz va Denov kabi yirik shaharlarda yil davomida qizg'in savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgan. Aynan, Buxoro, Samarqand va Qarshi bozorlarida narx-navo hamda pul birligi qiymati belgilangan. Bu yerdan qo'shni Xiva va Qo'qon xonliklari, Afg'oniston, Eron, Hindiston hamda Rossiya davlatlari bilan ham xonliklar hamkorligida katta miqdordagi yuklar ortilgan yirik savdo karvonlari almashinib turilgan. Bunda Buxoro amirligining katta qismi quruqlik va ayrimlari suv kechuvlari orqali o'tgan savdo yo'llari alohida ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Buxoro-Samarqand, Buxoro-Qarshi hamda Buxoroni sharqiy hududlar bilan bog'lovchi quruqlikdagi karvon yo'llari amirlikning ichki savdosida muhim o'rin tutgan. Jumladan, Buxoro-Qarshi karvon yo'llari bir nechta tarmoqqa bo'linib, shaharda savdo karvonlari 3-4 kun dam olgan. Keyingi safarlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va ulov uchun arpa xarid qilgan.

B.Aminovning ma'lumotlarida Qarshi shahriga tashrif buyurgan savdogar, elchi va sayyohlar G'uzor – Oqrabot – Termiz yo'nalishidagi karvon yo'llari yoki Amudaryoning o'rta oqimida joylashgan Karki kechuvidagi suv yo'li orqali Balxga o'tib ketishgan. Shuningdek, Qarshi orqali ikkinchi yo'l – Qoratepa – Karkinchak – Qizquduq – Sho'rquduq – Sardoba yo'nalishi orqali Kelif kechuvidan Hayraton va Chorbog'i Sayyidon qishloqlaridan Balxga o'tishlari ham mumkin edi. Ba'zida suv kechuvlaridan o'tishga to'g'ri kelgan. Buning uchun qayiqlar xizmati tashkil etilgan.

Amirlik savdo karvonlari Samarqanddan Qarshiga ikki yo'nalish orqali borishi haqida Shtab kapitani (rossiyalik) Yevreynovning ma'lumotlarida quyidagicha izoh berib o'tiladi. Ya'ni, birinchi yo'nalish Ajirim – Sho'rbozor – Ayritom – Qo'ng'irtog'ning g'arbiy qismidagi qishloqlar orqali, ikkinchisi esa Jom – Sho'rquduq – Qoratikon qudug'i Qo'ng'irtog'ning janubiy-sharqiy yon bag'irlari bo'ylab o'tgan[15]. N.Xanikov ma'lumotlarida esa XIX asrdan boshlab, Qarshi shahri yo'nalishidagi Qorovulbozor – Xo'ja Muborak – Buxoro – Qarshi – Karki karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash vazifasini bajaruvchi qo'riqchi guruhlar uchun yo'l bo'ylarida rabotlar qayta barpo etilganligi ta'kidlangan[16]. Amirlikning yana bir savdo yo'li – Buxoro – Qorako'l tarmog'i mavjud bo'lib, u Zarafshonning ikkinchi oqimi bo'ylab Chandir qishlog'idan o'tib, Qorako'ldan 40 verst uzoqlikdagi qumliklar, to'qayzorlar, Bitik va Farob qishloqlari orqali yana 533 kilometr masofada yo'l davom etib, Amudaryoga chiqilgan hamda Chorjo'y kechuvidan qayiq'larga o'tilgan". Amirlikning sharqiy hududlarida ham ichki ahamiyatga ega bo'lgan karvon yo'llaridan keng foydalanilgan. Xususan, Hisor tog' tizmasining janubiy yonbag'irlari bo'ylab, Boysun – Mirshodi – Denov – Sarijuy – Dashtobod – Qoratog' yo'li, Kofirnihon vohasidan Bobotog'dagi Chorraha dovoni orqali Surxon vohasiga o'tuvchi yo'li, Denovdan Surxondaryoning chap qirg'og'i bo'ylab Qumqo'rg'on orqali Pattakesarga chiquvchi yo'llar mavjud edi[17].

Buxoro hududidagi karvon yo'llari tizimida ko'rsatilgan xizmatlar orasida yo'l bo'yi inshootlari alohida o'rin egallagan. Savdo munosabatlarining rivojidan manfaatdor bo'lgan

hukmdorlar yo‘l bo‘yi infratuzilmasini barpo etishda muhim o‘rin tutgan. Ushbu davrda xonlikning sahro va cho‘l hududlarida karvonsaroylar, rabotlar, ko‘priklar, quduqlar, hovuzlar hamda sardobalar barpo etish davlat siyosatidagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblangan. Ayniqsa, mazkur davr manbalarida “rabot” atamasi ko‘p hollarda “karvonsaroy” tushunchasi bilan mazmun jihatdan uyg‘unlashib, bir-birining o‘rnida qo‘llanila boshlagani kuzatiladi. Karvonsaroylar va boshqa yo‘l bo‘yi inshootlarini qurish ishlari faqat davlat xazinasini hisobiga emas, balki mahalliy boylar, savdogarlar hamda amaldorlar mablag‘lari hisobidan ham amalga oshirilgan. Bunday inshootlar, ayniqsa, Islom sivilizatsiyasi hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, turli mintaqalarda va davrlarda ular xon (khan), funduq, vikala kabi nomlar bilan ham atalgan. Bu inshootlar, avvalo, savdo karvonlari, elchilar, maktub tashuvchilar, sayohatchilar, shuningdek, davlat xizmat vazifasini ado etayotgan amaldorlar uchun vaqtinchalik to‘xtash va dam olish joyi vazifasini bajargan[18] Qishloq hududlarida barpo etilgan karvonsaroylar odatda muhim savdo yo‘llari bo‘ylab bir kunlik yo‘l masofasiga teng oraliqlarda qurilgan. Bu esa karvonlarning xavfsiz harakatini ta‘minlash, sayohatchilarni dam oldirish hamda yo‘l davomida zarur ehtiyojlarni qondirish imkonini yaratgan. Bu haqida nemis tadqiqotchisi Florian Shvars ham Jo‘ybor xojalari xo‘jaliklari va ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyati haqida ilmiy mulohazalar bildirgan[19].

Buxoroda karvonsaroylar qurilishiga ayniqsa Jo‘ybor shayxlari davrida e‘tibor katta bo‘lgan. Xususan, Jo‘ybor xojalari Buxoro – Qarshi va Amudaryo tomon yo‘nalgan karvon yo‘llari bo‘ylab ko‘plab sardobalar va suv inshootlari barpo etgan. Shahar hududlaridagi karvonsaroylar esa iqtisodiy va savdo hayotining muhim markazlaridan biri sifatida faoliyat yuritgan. Bunday majmualar mehmonxona vazifasini bajarish bilan birga, savdo mahsulotlarini vaqtincha saqlash, ombor sifatida foydalanish hamda savdo bitimlari tuziladigan joy sifatida ham xizmat qilgan. Shu bilan birga, majmua tarkibida otlar, tuyalar va boshqa yuk tashuvchi hayvonlar uchun joylar, shuningdek savdo mollari saqlanadigan omborxonalar va yordamchi xonalar ham mavjud bo‘lgan. Ko‘pchilik karvonsaroylar XVIII–XIX asrlarda xususiy savdogarlar yoki amirlik amaldorlari tomonidan qurilgan va ularning aniq sanasi faqat ayrimlarida ma‘lum.

O‘rta asrlarda barpo etilgan karvonsaroylar me‘moriy tuzilishi jihatidan o‘xshash bo‘lib, ularning markazida ko‘pincha to‘rtburchak shaklidagi ichki hovli joylashgan va atrofida yashash xonalari qurilgan. Yirik karvonsaroylarda ichki hovli bo‘ylab ayvonlar barpo etilgani ma‘lum. Ayrim katta karvonsaroylarda esa musulmon savdogarlar uchun masjidlar ham qurilgan. Shu bilan birga, shaharlardagi karvonsaroylar karvon yo‘llari bo‘ylab qurilgan rabot va karvonsaroylardan hajmi, me‘moriy bezagi va ayrim funksiyalari bilan farq qilgan. Savdo yo‘llari bo‘ylab joylashgan karvonsaroy va rabotlarda otxonalar maxsus tarzda binoga kiritilgan bo‘lsa, yirik shaharlarda tozalikni saqlash maqsadida hayvonlar uchun mo‘ljallangan joylar ko‘pincha karvonsaroy tashqarisida, ba‘zan hatto shahar devorlari tashqarisida joylashtirilgan[20]. Karvonsaroylarning vazifasi faqat sayohatchilar va savdo karvonlari uchun vaqtinchalik turar joy bo‘lib xizmat qilish bilan cheklanmagan. Ayrim hollarda muayyan turdagi hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi ustalar ham karvonsaroylarda yashab, o‘z faoliyatini shu yerda amalga oshirgan.

Qo‘qon xonligi shaharlarida “vaqf” deb atalgan karvonsaroylar ham mavjud bo‘lib, ularda do‘konlar, omborxonalar va boshqa savdo joylari ijaraga berilgan. Qo‘qon bozori o‘zining kengligi va qulay tuzilishi bilan ajralib turgan. Xonlikning ikkinchi markazi Toshkent shahrining o‘zida 420 ta do‘kon, shuningdek, 15 ta yirik va bir necha kichik karvonsaroylar ham faoliyat ko‘rsatgan. Har bir millat vakillari o‘z karvonsaroylariga ega bo‘lib, u yerda to‘xtab, mol-mulkklarini saqlagan va savdo ishlarini amalga oshirgan[21]

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, Buxoro xonligi hududida savdo karvonlari harakatlangan yo‘llar bo‘ylab turli ijtimoiy-maishiy va diniy inshootlar barpo etilgan. Jumladan, madrasalar, masjidlar, maqbaralar, qabristonlar, karvonsaroylar, suv saqlash inshootlari, quduqlar, hammomlar, tahoratxonalar, ko‘priklar, yo‘ldan o‘tish joylari hamda hovuzlar qurilgan. Savdo-iqtisodiy munosabatlar kengaygan sari karvonsaroylar soni ham ortib borgan. Bu holatni mintaqa shaharlari misolida kuzatish mumkin. Ayniqsa Buxoro, Qarshi, Shahrisabz kabi shaharlarda karvonsaroylar ko‘plab qurilgan. Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolalari davrida barpo etilgan karvonsaroylarning ko‘pchiligi hatto XX asr boshlarigacha o‘z faoliyatini davom ettirgan. Markaziy Osiyo shaharlarining tashqi savdodagi ahamiyati XVI asrdayoq yuqori bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobobekov X. Qo‘qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 120.
2. Терентев М.А. Статистические очерки. – Санкт-Петербург: 1874. – С. 113
3. Петровский Н. Очерки Кокандского ханства. // Вестник Европы. // Т.С. – № 76. – С. 729-730.
4. Бобобеков X. Кўкон тарихи. – Б. 114
5. Turkestan in the nineteenth century. A Brief History of the Khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. Issued by the Central Asian Research Centre in association with St. Antony's College (Oxford) Soviet Affairs Study Group. Price: Fifteen Shillings 1959. – Б.6.
6. Бобобеков X. Кўкон тарихи. – Б. 115.
7. Худойқулов Т. XIX асрда Кўкон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти: Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: 2009. – Б. 66-96;
8. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligi tarixi. (Qo‘qon xonligi tarixi manbalarida) 1 jild (qo‘lyozma huquqida). – Panjakent, 2014. – Б. 30-55-58.
9. Turkestan in the nineteenth century. A Brief History of the Khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. Issued by the Central Asian Research Centre in association with St. Antony's College (Oxford) Soviet Affairs Study Group. Price: Fifteen Shillings 1959. – Б.6-8.
10. Вохидов Ш. Кўкон хонлиги тарихи. (Кўкон хонлиги тарихи манбаларда. ... – Б. 57
11. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 202.
12. Мир Иззатуллонинг “Ма’сир-и Бухоро” (“Бухорога саёҳат”) асари инглиз тилида “Travels in Central Asia in the years 1812–1813” номи билан ҳам нашр қилинган. Асар 1872 йилда Калькуттада инглиз тилига таржима қилиниб босилган. <https://archive.org/details/in.gov.ignca.21243/page/n13/mode/2up>.
13. Давурова Ш.Х. Бухоро амирлиги карвон йўлларининг халқаро савдо муносабатларидаги ўрни (1756-1868 йй.). INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE SILK ROAD: COOPERATION THROUGH THE PRISM OF TOURISM” OCTOBER 10-11, 2024. – Б. 726.
14. Аминов Б. Труд Мирза Иззатуллы «Масир-и Бухоро» как важный источник по истории Средней Азии начала XIX в. / Великий Шелковый путь. Культура и традиции. Материалы научно-теоретической конференции. – Ташкент: 2006. – С. 114-115.
15. Л.Д.Евреинов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на Гузар и на Карши 1887 г. / Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. – СПб.: 1888. – С. 115-118.
16. Хаников Н. Описание Бухарского ханства. – СПб.: 1843. – С. 106-108-175.
17. Давурова Ш.Х. Бухоро амирлиги карвон йўлларининг халқаро савдо муносабатларидаги ўрни (1756-1868 йй.). – Б. 727.
18. Ergashev Jakhongir. Caravanserais and their importance on caravan routes. E3S Web of Conferences 458, 07002 (2023) EMMFT-2023 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345807002>
19. Schwarz F. Historical cultural heritage of Bukhara 6 (1998)
20. N.B. Nemtsova, On the caravan roads of the Bukhara steppe, The Great Silk Road. Culture and traditions. Past and Present: Proceedings of the International Scientific and Theoretical Conference (Tashkent, 2006).
21. Yusupov Aminjon. ECONOMIC RELATIONS WITH THE NEIGHBORING REGIONS IN THE FIRST HALF OF THE XXth CENTURY IN CENTRAL ASIA (EXEMPLIFIED BY THE CITY OF KOKAND). NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 10, ISSUE 5, May – 2024. – P. 29.

TARIXIY SHAXSLAR YUBILEYLARINING UY MUZEYLARI FAOLIYATIDAGI O'RNI**(Tamaraxonim uy-muzeyi misolida)****Mirxakimova Feruza Xoldorjon qizi**

University of Business and Science,

Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b. dotsenti,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

mirhakimovaferuza7@gmail.com

ORCID:0009-0004-4333-8295

UDK 792.8:069(575):929

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tamaraxonim hayoti va serqirra ijodiy faoliyati hamda uning nomi bilan bog'liq Tamaraxonim uy-muzeyi faoliyati orqali uning tavallud kunlari yubileyi keng miqyosda nishonlanganligi keng tahlil qilinadi. Unda san'atkorning o'zbek milliy raqs san'atini professional sahna darajasiga olib chiqishdagi xizmatlari, jahon sahnalaridagi muvaffaqiyatlari, 60 dan ortiq mamlakatlardagi gastrol safarlari va turli xalqlar qo'shiq hamda raqslarini mahorat bilan ijro etgani yoritiladi. Shuningdek, muzeyning tashkil topish tarixi, ekspozitsion tuzilishi, memorial xonalari, noyob sahna kostyumlari, taqinchoqlar kolleksiyasi hamda fond eksponatlarining madaniy-tarixiy ahamiyati ochib beriladi. Yubiley tadbirlarining ilmiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati asoslab, uy-muzeyning milliy merosni asrash va targ'ib etishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tamaraxonim, uy-muzey, o'zbek raqs san'ati, milliy liboslar, sahna kostyumlari, memorial muzey, xalq raqslari, jahon madaniyati, san'at merosi, ekspozitsiya.

THE ROLE OF ANNIVERSARIES OF HISTORICAL PERSONS IN THE ACTIVITIES OF HOUSE MUSEUMS**(on the example of the Tamarakhanim house museum)**

Abstract. This article analyzes the life and rich creative activity of Tamara Khanum, as well as the wide celebration of her birthday through the activities of the Tamara Khanum House-Museum associated with her name. It highlights the artist's services in bringing the Uzbek national dance art to the professional stage level, her successes on world stages, tours in more than 60 countries, and her skillful performance of songs and dances of different peoples. It also reveals the history of the museum's establishment, its exposition structure, memorial rooms, unique stage costumes, jewelry collection, and the cultural and historical significance of the fund's exhibits. The scientific, spiritual, and educational significance of the anniversary events is substantiated, and the role of the house-museum in preserving and promoting the national heritage is highlighted based on scientific sources.

Keywords: Tamaraxonim, house-museum, Uzbek dance art, national costumes, stage costumes, memorial museum, folk dances, world culture, artistic heritage, exhibition.

Kirish. O'zbek milliy raqs san'ati taraqqiyotida beqiyos iz qoldirgan buyuk san'atkor Tamaraxonim tavallud sanalarini keng nishonlash milliy madaniyatimiz tarixida muhim o'rin tutadi. Uning yubileylari nafaqat bir san'atkor xotirasini yod etish, balki o'zbek milliy raqs san'ati shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini qayta tahlil qilish, boy madaniy merosni keng targ'ib etish imkonini beradi. Tamaraxonim XX asr o'zbek sahna san'atining yorqin namoyandasi sifatida milliy raqsni professional sahna darajasiga olib chiqdi. U bolalik davridan san'atga mehr qo'yib, ustoz san'atkorlar qo'lida tahsil oldi. Ayniqsa, mashhur qiziqchi va san'at arbobi Yusufjon qiziq Shakarjonov uning iste'dodini kashf etib, sahnaga olib chiqqan ustoz sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Muhiddin Qori Yoqubov, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov kabi ustozlardan ta'lim olishi uning ijodiy shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Adabiyotlar tahlili. Tamaraxonimning hayoti va ijodiy faoliyati bo'yicha qimmatli ma'lumotlar O'zbekiston milliy arxivida saqlanadi. Xususan, arxiv fondlari R-2296, R-2487 va M-7 jamg'armalarida san'atkorning shaxsiy hujjatlari, ijodiy ishlari va raqs san'atidagi faoliyatiga oid noyob materiallar mavjud. Ushbu arxiv manbalari ilmiy tadqiqotlarda Tamaraxonim ijodini chuqur o'rganish va tarixiy kontekstda tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, S. Levitina ilmiy ishlari orqali Tamaraxonimning sahnadagi faoliyati, xalqaro gastrol safarlari va raqs san'atiga qo'shgan hissasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Levitina asarlari san'atkor ijodini nafaqat tarixiy, balki pedagogik va metodik nuqtayi nazardan ham yoritadi.

O'zbek raqs san'atining rivojlanishi va unga hissa qo'shgan san'atkorlarni yoritishda E.Saitova va N.Abraykulovanning "*Xoreografiya va raqs san'ati asoslari*" nomli kitobi muhim o'rin tutadi. Ushbu manbada Tamaraxonim ijodiga alohida e'tibor qaratilib, uning sahnadagi liboslari, repertuaridagi raqs va qo'shiqlari ham tahlil qilinadi.

Tavallud yubileyleri kontekstida san'atkorning merosini o'rganish jarayonida A.Rahimovning "*Kamtarlik – ulug'lar fazilati*" maqolasi aynan Tamaraxonimning 100-yilligi munosabati bilan O'zbekiston san'ati va madaniyati gazetasida nashr etilgan bo'lib, uning hayotiy va ijodiy faoliyatini yuksak baholaydi. Maqola san'atkorning shaxsiy va professional fazilatlarini o'rganishda ilmiy manba sifatida e'tiborga loyiq.

Umuman olganda, mazkur manbalar bo'lib, yubiley tadbirlarini tadqiq etishda Tamaraxonim hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishda nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ham keng qo'llanilishi mumkin. Ular san'atkorning shaxsiy va ijodiy merosini, milliy raqs san'ati rivojiga qo'shgan hissasini, shuningdek, uning jahon sahnasidagi obro'sini chuqur tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tarixiylik, qiyosiy-tahliliy yondashuv, davriylik va xolislik tamoyillariga asoslangan. Tadqiqot jarayonida arxiv materiallari, ilmiy adabiyotlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, o'zbek raqs san'ati asoschilaridan biri Tamaraxonimning hayoti, ijodiy faoliyati, uy-muzeyining ekspozitsiyasi va raqqosaning yubiley yillarining nishonlanish jarayonlari ochib berilgan.

Natija va muhokama. O'zbek raqs san'atini rivojlantirish va shakllantirishda Tamaraxonimning alohida o'rni mavjud. Otasi Artyom Petrosev 1905-yilgi revolyutsiyadan so'ng Turkistonga surgun qilingan va Farg'ona muzofotining Gorchakovo stansiyasiga kelib ishchi bo'lib ishlagan [1; 34].

Tamaraxonim shu yerda Marg'ilonning Gorchakovo temir yo'l bekati yonidagi "Pichoqchi" mahallasida dunyoga kelgan. Oilada 5 qiz bo'lib, ularning uchtasi Tamaraxonim, Gavharxonim, Lizaxonim san'atkor bo'lib yetishdilar. Tamaraxonim va singillarini dastlab sahnaga olib chiqqan ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov bo'ldi. U 1926-yilda Marg'ilonida tashkil etilgan o'zbek davlat etnografik ansambliga jalb qilinib, u yerda Muhiddin Qori Yoqubov, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov singari ustozlaridan ta'lim oldi [1; 34]. 1925-yilda Parijda jahon festivalida qatnashdilar. Shu tariqa jahon bo'ylab Tamaraxonimning gastrol konsertlari boshlandi [3; 13]. U 60 dan ortiq davlatlarda bo'ldi, 70 dan ortiq tilda qo'shiq kuylab, raqsga tushdi. Tamaraxonim lapar janriga asos solgan raqqosadir. O'sha davrda jahon xalqlarini larzaga solgan Anna Pavlova, Aysedora Duncan, Feodor shalyapin, Konstantin Stanislavskiy Tamaraxonimni san'atini ko'rib "Afonaviy Tamara deb olqishlagan" [4; 5]. 1935-yilda Londonda I xalqaro festivalda Angliya qirolichasi tomonidan oltin medalga sazovor bo'ldi.

Har bir raqs uchun tiktilgan kostyumning o'z tarixi va raqqosa uchun alohida qiymati, qadri bor edi. U kostyumlarini asrab-avaylashi natijasida yaxlit bir galereya yuzaga kelgandi. Biroq muzey yaratish fikri hech qachon bo'lmagan.

1980-yillarda Moskva televideniyesi, raqqosaga kostyumlari haqida to'rt daqiqalik ko'rsatuv olish taklifini beradi. Ko'rsatuv jarayonida Tamaraxonimda kostyumlarining keyingi taqdiri va saqlanishi uchun ko'rgazma tashkil etish fikri tug'iladi. 1982-yil dunyo xalqlari kinofestivali kunlarida birinchi bo'lib, ekspozitsiya mehmoni taniqli hind kino rejissyori Raj Kapur bo'lgan.

Tamaraxonim yubiley sanalari – 90 yilligi (1996), 100 yilligi (2006), 110 yilligi (2016) va 113-yilligi (2019) respublika miqyosida keng nishonlandi. Mazkur tadbirlarda ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, xotira kechalari, gala-konsertlar, ko'rgazmalar tashkil etildi. Ushbu tadbirlar doirasida uning hayoti va ijodiga oid arxiv materiallari, sahna liboslari, fotosuratlar, qo'lyozmalar keng jamoatchilikka taqdim etildi.

Yubiley tadbirlarining markaziy maskanlaridan biri – Tamaraxonim uy-muzeyi hisoblanadi. Ushbu memorial maskan san'atkor hayotlik davridayoq tashkil etilgan kostyumlar ko'rgazmasi asosida shakllangan. 1980-yillarda uning noyob sahna liboslari to'plami asosida ko'rgazma ochilgan bo'lib, keyinchalik u memorial muzeyga aylantirilgan. Muzey bugungi kunda san'atkor merosini asrash, ilmiy o'rganish va targ'ib etishda muhim

markaz sifatida faoliyat yuritmoqda.

Yubiley tadbirlarining ma'naviy ahamiyati bir necha jihatlarida namoyon bo'ladi. Avvalo, ular tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, yosh avlodni milliy san'atga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Uchinchidan, o'zbek san'atining jahon madaniyatidagi o'rnini namoyon etadi. Tamaraxonim timsolida milliy madaniyatning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, yubiley tadbirlari ilmiy izlanishlar uchun ham muhim manba hisoblanadi. San'atshunoslar, tarixchilar va madaniyatshunoslar tomonidan uning ijodiy merosi qayta o'rganilib, yangi ilmiy xulosalar ilgari suriladi. Bu esa milliy raqs san'ati tarixini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tarixda hech kim hayotligida muzey ochilmagan. Ba'zi rassomlar yoki kartinalar galereyasini inobatga olmaganda, ushbu ko'rgazma O'zbekistonda birinchi kostyum galereyasi hisoblanadi. Natijada 200 dan ortiq kostyum galereyasi yuzaga kelib, har birining o'z qadri va xotirasi mavjud edi. Bugungi kunda uning 26 ta kostyumi ekspozitsiyaga qo'yilgan.

Tamaraxonim Pushkin-Pishpek ko'chasi xodimlari uchun qurilayotganligini eshitgach, ko'rgazma zaliga alohida xona ajratishni iltimos qilgan edi. Uning talabi, o'sha vaqtlardagi O'zbekiston KP-birinchi sekretari Sh.Rashidov qo'lga yetib borgandi, ajoyib kostyumlar kolleksiyasi fotosuratlarini ko'rgan Sh.Rashidov haqiqatda ko'rgazma zali zarurati mavjudligini tasdiqlagan.

1984-yil 24-fevralda o'zbek milliy san'ati rivojiga, dunyo xalqlari qo'shiqlari va raqslarini targ'ibot etishga qo'shgan hissasi uchun Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Tamaraxonim ko'chasi (sobiq Pushkin – Pishpek ko'chasi) 1-uy, 41-xonadonda ko'rgazma zali uchun ajratildi [5; 83].

Muzeyshunoslik bo'limiga yuqori badiiy-g'oyaviy darajada ekspozitsiya tashkillashtirish topshirilgan edi, ommaga taqdim etish, raqqosaning 80 yillik tantanasini yuqori saviyada o'tkazish rejalashtirildi [6; 72].

Ko'rgazma Tamaraxonim xonadoni va ushbu zal alohida ko'p qavatli turar joyning birinchi qavatida tashkil etilgan va ko'rgazma bilan Tamaraxonimning o'zi tanishtirgan. 1985-yilning iyun oyidan SSSR xalqlar do'stligi muzeyining filiali sifatida faoliyat olib borgan [7; 4]. O'zbekiston SSR Madaniyat Vazirligining 1986-yil 16-yanvardagi "Tamaraxonimning liboslari doimiy ko'rgazmasini tashkil etish haqida" gi 6-sonli buyruq qabul qildi. [8; 2]. Tamaraxonim hayoti davomida muzeyning birinchi ko'rgazmasi paydo bo'ldi, ko'rgazmada uning dunyo xalqlarining liboslari to'plami mavjud edi. [9; 23].

Dastlabki faoliyatini statistikasiga nazar tashlansa, 1986-yil sentyabrdan 1987-yilning iyun oyigacha ko'rgazmaga 10332 nafar kishi tashrif buyurgan.[10 ; 72] San'atkorning hayoti davomida uyda uning liboslari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Tamaraxonimning vafotidan keyin o'zbek milliy san'atini shakllantirish va rivojlantirish, jahon xalqlari qo'shiq va raqslarini targ'ib etishdagi beqiyos xizmatlari inobatga olinib ko'rgazmani memorial muzeyga aylantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 1992-yil 28-apreldagi doimiy faoliyat yuritib kelayotgan ko'rgazmani memorial muzeyga aylantirish haqidagi 01-12/1984-sonli xati [11; 3] va Toshkent shahar hokimining 1992-yil 13-iyuldagi 237 R-sonli buyrug'i [12; 4.] ga asosan 1994-yilda 14-iyundan memorial muzey faoliyat yurita boshladi [13; 46].

Uy muzeyning umumiy maydoni – 237 metr kv, ko'rgazma maydoni –59 metr kv ni tashkil etadi. Uy muzey ikki qismdan: ko'rgazma zallari va yodgorlik qismdan iborat. Muzeyning ko'rgazma qismini 2 ta zal va 2 ta dahliz tashkil etsa, yodgorlik qismida esa san'atkor yashagan uyning mehmonxona, yotoqxona, oshxonasi qismlari kiradi. Ko'rgazma zalining katta qismini egallagan shaxsiy liboslar kolleksiyasidan tashqari, uy-muzeyda raqqosa yashagan xonalarining interyeri, fotosuratlar, plakatlar to'plami, audio yozuvlar va xonanda she'rlarining qo'lyozmalari, portretlari qo'yilgan.

Muzey Tamaraxonim yashagan davr muhiti, ayniqsa, ko'rgazmaning bir qismini tashkil etuvchi turar joy binosi, eksponatlarning holati yaxshi saqlanganligi Tamaraxonim umrining so'nggi kunlarigacha yashagan xonadonga tashrif buyuruvchilarning e'tiborini

tortadi. Har bir xonada, hatto oshxona va yotoqxonaga katta oynalar o'rnatilgan, uning aksessuarlari saqlanib qolgan, katta dumaloq oyna, Tamaraxonim bilan sayohat qilgan chamadon va devordagi so'zana, mehmonxonada ko'plab esdalik sovg'alari, uning nomi va rimunk bilan bo'yalgan to'plamlar, taniqli odamlar tomonidan sovg'a qilingan portretlar mavjud. Balkonda kichkinagina kutubxonaning mavjudligi uning kibobsevarligidan dalolat beradi. Muzeyning jami eksponatlar soni – 6738 tani tashkil etadi [15; 4]. Shundan numizmatika – 51 ta, haykaltaroshlik – 1 ta, amaliy san'at – 550 ta, foto va negativlar – 2906 ta, tasviriy san'at – 35 ta, yozma hujjatlar – 241 ta, mato buyumlar – 277 ta, grafika – 235 ta, etnografiya – 121 tani tashkil etadi [16; 2]. Eksponatlar orasida raqqosalarning ajoyib liboslari bo'lib, ularning soni 70 dan ortiq bo'lib, turkman, lo'li, chuvash, xitoy, gruzin, moldavan, o'zbek va boshqa xalqlarning liboslaridir.

Har bir kostyumning o'z hikoyasi bor. Misol uchun, Misr Prezidenti Tamaraxonimga o'z mamlakatining milliy libosini sovg'a qildi. U kumush bilan tikilgan, vazni besh kilogrammdan oshadi. Qizig'i shundaki, afg'onistonlik ayollarning o'z raqsi yo'q edi, ammo erkaklarning raqsi bor edi. Shuning uchun Tamaraxonimning afg'on libosi va raqsi erkaklarga xos edi. Kostyumlar qo'lda tikilgan, kashtado'zlik bilan bezatilgan, shlyapa va poyabzal bilan birga keladi. Muzeyda zargarlik buyumlari kolleksiyasi ham mavjud bo'lib, ularning aksariyati Tamaraxonimning o'zi tomonidan yaratilgan. Zallarning devorlari raqqosaning qizi Vanzettaxon tomonidan chizilgan portretlari bilan bezatilgan.

Uning repertuariga dunyo xalqlarining 86 dan ortiq qo'shiq va raqslari kiritilgan [17; 5]. "Mening hayotim" kitobida shunday voqealarning ayrimlari haqida so'z yuritilgan. Chexoslovakiyada gastrolda bo'lganida ijro etish uchun biror qo'shiq topolmaydi. Praga shoir va bastakorlari olib kelgan yangi qo'shiqlar-u bir nechta musiqiy sahifalardan xalq ruhini his etmaydi. To'satdan to'ydan kelayotganlar kuylayotgan chex polkasini eshitib qoladi va uni kuylashga qaror qiladi. Ertasi kuni bu qo'shiqni "butun Praga kuylaydi". Moskvadagi xalqaro festival konsertida Tamaraxonim ijrosidagi arabcha qo'shiq hammani hayratga soladi. Toshkentga qaytgach, Misr elchisi Muhammad al-Kuni xonimga sovg'a topshirar ekan: "Sizning chiqishingiz bizga Misrning deyarli unutilgan san'atini eslatdi", – deydi. U mo'g'ul qo'shig'ini kuylaganida mo'g'ul tomoshabinlari: "Tamaraxonim mo'g'ul qo'shig'ini kuylagan birinchi xorijlik san'atkor", deya e'tirof etishgan. "Tamaraxonimning raqs va qo'shiqlari haqida cheksiz gapirish mumkin, chunki uning repertuarida ular yuzlab. Aftidan, san'atkor hech narsani kashf qilmagan, u faqat xalq qo'shiqlarini kuylab, raqsga tushgan. Tamaraxonim bir vaqtning o'zida qo'shiqchi va raqqosa edi. Ammo bunda yangilik yo'q – butun o'zbek yallachilari ham bir vaqtda kuylab, raqsga tushadi. Masalan, hindlarda ham shunday, so'nggi o'n yilliklardagi deyarli barcha estrada yulduzlari ham qo'shiq kuylab, raqsga tushadi. Ammo ularning hammasi ham tomoshabinni hayratda qoldirmaydi. Farqi shundaki, O'zbekiston va dunyoning ko'plab mamlakatlarida tomoshabinlar xonimning san'atini mast qiluvchi dori sifatida emas, balki ma'naviy ozuqa sifatida qabul qilgan, – deb yozadi xonim haqidagi avtobiografik asar muallifi Lyubov Avdeyeva [18; 18].

Shu bois uy-muзейda turkman, gruzin, yapon, koreys, ozarbayjon, lo'li, afg'on, rus, ukrain, polyak va boshqa milliy liboslarni ko'rish mumkin. Memorial xona, u istiqomat qilgan joy bo'lib, muzey tashkil etilgandan so'ng ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan. Mehmonxona sodda va did bilan bezatilgan bo'lib, mehmon stoli va stullar, chap tomonga divan qo'yilgan. Shu o'rinda Raj Kapur tomonidan hadya qilingan mongoliya budda haykalchasi, ozarbayjon millatiga mansub shakar-qandlar kabi barcha buyumlarga qo'yilgan. Mexmonxonadan balkon va undan oshxonaga o'tilgan. Bu yerda ham san'atkorning hayotlik chog'ida ishlatgan mebellari va idishlari o'z holicha saqlanmoqda. Tamaraxonim yotoqxonasining bezatilishiga ham katta ahamiyat qaratilgan. Kirishda o'rtada yotoq krovati va uning tepasiga palak osilgan, katta hajmdagi kiyim javoni ham uning kundalik liboslariga to'la. Ushbu xonadagi Tamaraxonim muzeyi dastlabki reja asosida jihozlanganiga qaramay unda ko'proq kostyumlar ko'rgazmasi g'oyasi birinchi rejaga chiqqan.

"Tamaraxonimning raqs va qo'shiqlari haqida uzoq so'z yuritish mumkin, chunki uning repertuarida yuzlab asarlar mavjud. Bir qarashda, san'atkor yangi bir yo'nalish yaratmagandek tuyuladi: u xalq qo'shiqlarini ijro etgan va raqsga tushgan. Darhaqiqat,

Tamaraxonim bir vaqtning o'zida ham xonanda, ham raqqosa edi. Biroq bu holatning o'zi yangilik emas, chunki o'zbek yallachilari ham kuylash va raqsni uyg'un holda ijro etadilar. Xuddi shunday an'ana hind san'atida ham uchraydi, zamonaviy estrada yulduzlarining aksariyati ham qo'shiq kuylash bilan birga raqs ijro etadilar. Ammo ularning barchasi ham tomoshabinda chuqur taassurot qoldira olmaydi. Farq shundaki, O'zbekiston va dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi tomoshabinlar Tamaraxonim san'atini shunchaki ko'ngilochar vosita sifatida emas, balki ma'naviy ozuqa manbasi sifatida qabul qilganlar. Bu haqda Tamaraxonimga bag'ishlangan avtobiografik asar muallifi Lyubov Avdeyeva shunday yozadi [18; 18].

Shu bois uy-muzey ekspozitsiyasida turkman, gruzin, yapon, koreys, ozarbayjon, lo'li, afg'on, rus, ukrain, polyak va boshqa xalqlarning milliy liboslarini ko'rish mumkin. Memorial xona san'atkor istiqomat qilgan joy bo'lib, muzey tashkil etilgach, unda ayrim o'zgartirishlar amalga oshirilgan. Mehmonxona sodda, ammo did bilan jihozlangan: unda mehmon stoli va stullar, chap tomonda esa divan joylashtirilgan. Xonada Raj Kapur tomonidan sovg'a qilingan mo'g'ul budda haykalchasi, Ozarbayjondan keltirilgan shakar-qandlar hamda boshqa qimmatli buyumlar saqlanadi.

Mehmonxonadan balkon orqali oshxonaga o'tiladi. Bu yerda ham san'atkor hayotlik davrida foydalangan mebellar va idish-ovoqlar asl holicha saqlab qolingan. Tamaraxonim yotoqxonasining bezatilishiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xonaga kirishda markazda yotoq joylashgan bo'lib, uning tepasiga palak osilgan. Katta kiyim javoni esa san'atkorning kundalik liboslari bilan to'ldirilgan. Muzey dastlabki loyiha asosida jihozlangan bo'lsa-da, ushbu xonada kostyumlar ko'rgazmasi g'oyasi yetakchi o'rin egallaydi.

Xulosa va takliflar. Tamaraxonim uy-muzeyi nafaqat mashhur raqqosa va xonandaning shaxsiy hayoti hamda ijodiy faoliyatini yorituvchi maskan, balki o'zbek milliy raqs san'ati va xalqaro madaniy aloqalarning yorqin timsoli hamdir. Muzey fondida jamlangan boy kostyumlar to'plami, fotosuratlar, hujjatlar va shaxsiy buyumlar Tamaraxonimning serqirra ijodiy merosini chuqur o'rganish imkonini beradi. Ushbu memorial maskan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, o'zbek san'atining jahon madaniyatidagi o'rnini namoyish etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli uy-muzey ekspozitsiyasini yangi eksponatlar bilan boyitish, ilmiy-ommabop sharhlar va zamonaviy ekspozitsion texnologiyalar asosida takomillashtirish Tamaraxonim merosini keng jamoatchilikka yanada samarali yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саитова Э., Абрайкулова Н. Хореография ва рақс санъати асослари. – Тошкент: Фан ва технология, 2015. – Б.150
2. Андреева Л. Балет Узбекистана. – Т.: Издательство литературы и искусства, 1973. – С.150
3. Левитина С. Тамара Ханум. – Т.: Государственное издательство Узбекской ССР.1956. – С.100
4. Рахимов А. Камтарлик улуглар фазилати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2006 йил 3 март, № 9 (3838). – Б. 6
5. О'з МА. R – 2296 – jamg'armasi, 7 – ro'yxat, 305 – ish, 83 – varaq.
6. О'з МА. R – 2296 – jamg'armasi, 7 – ro'yxat, 449 – ish, 72 – varaq.
7. О'з МА. M – 7 – jamg'armasi, 1 – ro'yxat, 292 – ish, 4 – varaq.
8. О'з МА. R – 2296 – jamg'armasi, 7 – ro'yxat, 489 – ish, 2 – varaq
9. Широкий Ю. В. Тамара Ханум. Л.– М., 1941. – С.23
10. О'з МА. R – 2296 – jamg'armasi, 7 – ro'yxat, 449 – ish, 72 – varaq.
11. О'з МА. M – 7 – jamg'armasi, 1 – ro'yxat, 292 – ish, 3 – varaq.
12. О'з МА. M – 7 – jamg'armasi, 1 – ro'yxat, 292 – ish, 4 – varaq.
13. О'з МА. M – 7 – jamg'armasi, 1 – ro'yxat, 739 – ish, 46 – varaq.
14. О'з МА. R – 2296 – jamg'armasi, 7 – ro'yxat, 489 – ish, 2 – varaq.
15. Tamaraxonim uy muzeyining 2022-yil yillik xisobotidan. – Toshkent: 2023. – B. 25.
16. Tamaraxonim uy muzeyining ma'lumotnomasidan (Murojaat sanasi: 17.06.2022).
17. Широкая О. Тамара ханум. – Ташкент, 1976. – С. 96.
18. Авдиева Л. Народная артистка союза ССР Тамара Ханум. – Москва, 1959. – С.150

QASHQADARYO TELEVIDENIYESI TARIXI: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.**Norto'rayev Suxrob Erkin o'g'li**

Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktoranti

ORCID 0009-0007-3621-2944

UDK 117:004-2:102.4(111:07)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida televideniye tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixi atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda hududiy televideniye tashkil etilishi va ilk faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan, shuningdek, texnik jihatdan zamonaviy uskunalar bilan jihozlanishi, efirni tashkil etish mexanizmlari, dastlabki efir loyihalari va teledasturlar rivoji bosqichlari tarkibiy tarzda yoritilgan. Tadqiqotda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, televideniye tizimida liberallashtirish va zamonaviy texnik standartlarga integratsiya jarayonlari tarixiy nuqtayi nazardan bayon etilgan. Shu bilan birga, mahalliy televideniye hududiy axborot makonini shakllantirishdagi ijtimoiy va madaniy ahamiyati, aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishdagi roli, mahalliy ijodiy va jurnalistik ishlar orqali viloyat madaniy muhiti va jamiyat hayotini rivojlantirishdagi ta'siri ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo televideniyesi, hududiy televideniye, media rivoji, televideniye tarixi, efir dasturlari, texnik rivojlanish, tashkiliy rivojlanish, mahalliy axborot makoni, jurnalistika, madaniy ahamiyat.

HISTORY OF KASHKADARYO TELEVISION: STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT

Abstract. This article presents a comprehensive analysis of the history and development of the television system in the Kashkadarya region. Particular attention is given to the establishment and early activities of regional television, and a structural examination is given of the stages of its acquisition of modern technical equipment, broadcasting mechanisms, initial broadcasting projects, and television program development. The study provides a historical perspective on the reforms implemented during the years of independence, the liberalization of the television system, and its integration with modern technical standards. It also analyzes the socio-cultural significance of local television in shaping the regional information space, its role in satisfying the information needs of the population, and its influence on the development of the regional cultural environment and public life through local creative and journalistic activities.

Keywords: Kashkadarya television, territorial television, media development, tarihi television, Aether dastructor, development technician, development organization, local neighborhood news, journalism, cultural signaling.

Kirish. Televideniye jamiyatda axborot tarqatish, ijtimoiy jarayonlarni yoritish va madaniy-ma'rifiy g'oyalarni targ'ib etishda muhim o'ringa ega bo'lgan ommaviy axborot vositalaridan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab televideniye dunyo mamlakatlarida keng tarqaldi va jamiyat hayotining muhim qismiga aylandi. O'zbekistonda televideniye tizimi 1950–1960-yillarda shakllana boshladi. Respublikada markaziy televideniye bilan bir qatorda hududiy telestudiyalarni tashkil etish orqali aholini mahalliy axborot bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratildi. Shu jarayonda Qashqadaryo viloyatida ham televideniye tizimi bosqichma-bosqich shakllandi. Qashqadaryo viloyati televideniyesi mahalliy aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini yoritishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qildi. Uning tarixi nafaqat ommaviy axborot vositalari rivoji bilan, balki viloyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyoti bilan ham uzviy bog'liqdir.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixiga oid umumiy ma'lumotlar A. Karimov, M. Masharipov, E.B. Mahmudov, V.Z. Zuparov, O.A. Xolmatov, M. Ro'ziyev, X.Jo'rayev, T.A. Axmedov, I.S. Yusupovlarning risola va kitoblarida ma'lumotlar aks ettirilgan bo'lsa-da, Qashqadaryo viloyati telekanali faoliyatiga yetarli o'rin ajratilmagan. Shu bilan bir qatorda, hududiy telekanallarning rivojlanish yo'nalishlari haqida ma'lumot bergan gazeta, jurnal va veb saytlarda mavzuga oid berilgan maqolalarni ilmiy muomalaga kiritish va ilmiy xulosalar chiqarish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tarixiy tahlil, xronologik, ketmaketlik, qiyosiy tahlil va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalariga oid materiallar asosiy manba sifatida xizmat qildi. Tadqiqotda televideniye tizimining rivojlanish bosqichlari tarixi nuqtayi nazardan tahlil

qilindi.

Natijalar va muhokama. Televideniye paydo bo'lishi tarixi, tadqiqotchilar tomonidan bir necha bosqichlarga ajratib o'rganilgan. Televideniye yaratish g'oyalari XX asr boshlarida shakllana boshlagan bo'lib, uning rivojlanish jarayoni shartli ravishda bir nechta davrlarga bo'linadi. Jumladan, 1920–1935-yillarda mexanik televideniye faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa, 1936–1966-yillarda elektron oq-qora televideniye keng tarqaldi[1]. 1967-yildan boshlab, elektron rangli televideniye rivojlandi, 2000-yillardan boshlab esa raqamli televideniye texnologiyalari joriy etila boshlandi. So'nggi yillarda vakuumsiz uzatkichlar va zamonaviy tasvirlash moslamalari, shuningdek, tasvir va tovush signallarini raqamli shaklga o'tkazuvchi texnologiyalardan foydalanish natijasida yuqori sifatli televizion tasvirga erishildi. Buning asosida raqamli TV, qattiq diskli TV, stereo rangli TV paydo bo'ldi. O'zbekistonda televizion ko'rsatuvlar rasman 1956-yil 5-noyabrda Toshkent shahrida yo'lga qo'yildi. Shu yili Toshkent televizion studiyasi tashkil etildi[2]. Ushbu studiyadan tayyorlangan ko'rsatuvlar balandligi 180 metr bo'lgan Toshkent televizion minorasi orqali efirga uzatildi. 1973-yil 1-yanvardan O'zbekiston televideniyesi ko'rsatuvlari ham rangli tasvirda berila boshlandi[3].

1992-yil 7-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi televideniye va radioeshittirish Davlat komiteti O'zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni chiqdi[2]. Ushbu Farmonga asosan mamlakatda teleradioeshittirish tashkilotini rivojlantirish, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, o'z navbatida xorijiy davlatlarning teleradio tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashini muvofiqlashtirish, soha faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

1994-yil 28-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Davlat televideniye va radioeshittirish kompaniyasining ko'rsatuv va eshittirishlari hajmini ko'paytirish, uning moddiy texnika negizini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi[3]. Unga asosan 3 ta davlat telekanali uzluksiz ishlashi ta'minlandi. Ko'rsatuvlar hajmi 16,5 soatga va bunda televideniye o'z ijodiy mahsulotlari hajmi 10 soatga yetkazildi[4].

Mustaqillik yillarida mamlakatda ommaviy axborot vositalari tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida hududiy televideniye tarmoqlari ham shakllana boshladi.

Qashqadaryo viloyatida televideniye tizimining shakllanishi va rivojlanish tarixini ham ilmiy jihatdan uch bosqichga ajratib tahlil qilish mumkin. Bu tasnif esa hududiy televideniye tashkil topishi, institutsional rivojlanishi va zamonaviy bosqichini izchil yoritish imkonini beradi. Uning birinchi bosqichi 1970–1995-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr Qashqadaryo televideniyesi infratuzilmasining shakllanish davri hisoblanadi. Mazkur davrda Qashqadaryo viloyatida mustaqil televideniye tashkil etilmagan bo'lsa-da, infratuzilmaning shakllanishi kuzatiladi. Jumladan, bu davrda, respublika televideniyesi dasturlarini hududlarda qabul qilish va tarqatish maqsadida retranslyatsiya stansiyalari barpo etildi. Natijada viloyat aholisi Toshkent televideniyesi efir dasturlarini tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati hududida radioaloqa va telekommunikatsiya sohasida texnik baza bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Bu davrda mahalliy kadrlarni tayyorlash, jurnalistlar va muxbirlarning respublika ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish ishlari yo'lga qo'yildi. Mazkur holatlar keyinchalik viloyatda mustaqil televideniye tashkil etilishi uchun muhim tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qildi.

Keyingi bosqich 1995–2005-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Qashqadaryo viloyat televideniyesi tashkil etildi va institutsional rivojlanish davri bo'ldi. 1995-yil 23-yanvarda Qashqadaryo viloyati televideniyesini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Mazkur qaror asosida viloyat televideniyesi uchun zamonaviy uskunalar olib kelish maqsadida 200 ming AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi. Ushbu mablag' evaziga xorijdan zamonaviy asbob-uskunalar keltirildi. Shu yilning 24 avgust kuni soat 17:00 da Qashqadaryo televideniyesining birinchi ko'rsatuv efirga uzatildi. Ilk efir dasturlari cheklangan vaqtda efirga uzatilgan bo'lsa-da, keyinchalik efir hajmi kengayib bordi. Bu davrda mahalliy jurnalistlar, operatorlar va rejissyorlardan iborat ijodiy jamoa shakllanib, viloyat hayotiga

bag'ishlangan axborot va madaniy-ma'rifiy ko'rsatuvlar tayyorlana boshladi. Shu tariqa Qashqadaryo televideniyesi hududiy axborot makonini shakllantirishda muhim omilga aylandi.

1997-yil 25-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston teleradiokompaniyasi tizimini texnika bilan kompleks qayta jihozlash to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi[5]. Qarorga asosan 1998–2006-yillar davomida "Respublika teleradiomarkazi" davlat unitar korxonasi, "O'zbekiston telefilm" davlat unitar korxonasi bilan birga Namangan, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari teleradiokompaniyalari ham Avstriyaning "Simens AG" va Germaniyaning "BFE AG" firmalarida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy texnikalari bilan jihozlandi.

2000-yillardan boshlab Qashqadaryo viloyati televideniyesi faoliyatida yangi bosqich boshlandi. Bu davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi televideniye sohasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Telestudiyada zamonaviy texnik jihozlar joriy etildi, raqamli efir tizimiga o'tish ishlari amalga oshirildi. Bu esa teledasturlar sifatini oshirish va efir imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, televideniye orqali viloyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tezkor yoritish imkoniyati kengaydi. Mahalliy aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda televideniye muhim vositaga aylandi.

2001–yil 27-dekabrda Qashqadaryo teleradiokompaniyasi uchun yangi bino qurilib, foydalanishga topshirildi [6]. Zamon talablariga mos ravishda jihozlangan telemarkaz tomonidan o'sha paytda haftada 3 kun, ya'ni chorshanba, juma, yakshanba kunlari 30 daqiqadan axborot-informatsion va qisman ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni efirga uzatish yo'lga qo'yildi[7]. 2002-yilga kelib, viloyat teleradiokompaniyasi uchun ikki dona "SONY BETAKAM SP" telekameralari hamda ikki jamlanma "SONY BETAKAM SP" oddiy chiziqli montaj stoli keltirilib o'rnatildi. 2003- yilga kelib, viloyat teleradiokompaniyasiga "BFE SIEMENS" firmasi (Germaniya) ning uch kamerali studiya jihozlari o'rnatildi[8]. Natijada viloyat televideniyesining efir soatlari 6 soatga uzaytirilib, dushanbadan tashqari har kuni efirga chiqish imkoniyati vujudga keldi.

Uchinchi bosqich 2005-yildan boshlanib, mazkur davr televideniye sohasida modernizatsiya ishlarining kuchayishi hamda raqamli texnologiyalar asosida rivojlanish jarayonlari bilan tavsiflanadi. 2007-yildan boshlab, viloyat televideniyesining efir soati 8 soatga uzaytirildi. 2008-yilning aprel oyidan boshlab, viloyat televideniyesining teleko'rsatuvlari alohida kanal orqali namoyish etilishi natijasida, efir soatlari yanada kengaytirildi.

Xulosa va takliflar. Xulosada shuni aytish mumkinki, Qashqadaryo viloyati televideniyesi tarixi bir necha bosqichlarda shakllandi. Sovet davrida televideniye infratuzilmasining yaratilishi va telestudiya faoliyatining boshlanishi mazkur sohaning asosini tashkil etdi. 1970–1980-yillarda televideniye dasturlari mazmunan boyidi va mahalliy jurnalistika kadrlari shakllana boshladi. Bu jarayon keyinchalik mustaqil televideniye tashkil etilishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

1995-yilda Qashqadaryo viloyati televideniyesining tashkil etilishi hududiy ommaviy axborot vositalari rivojida muhim bosqichni boshlab berdi. Dastlab cheklangan texnik imkoniyatlar va efir vaqtiga qaramasdan, televideniye jamoasi tomonidan mahalliy aholi hayotini yorituvchi dasturlar tayyorlana boshlandi. 2000-yillardan boshlab televideniye tizimida modernizatsiya jarayonlari kuchayib, texnik baza yangilandi, efir sifat jihatidan takomillashdi va dasturlar ko'lamini kengaytdi. Natijada Qashqadaryo televideniyesi hududiy axborot makonini shakllantirishda muhim o'rin egalladi hamda jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Qashqadaryo televideniyesi tarixi bo'yicha arxiv hujjatlarini tizimli ravishda o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish, mahalliy jurnalistlar va televideniye xodimlari faoliyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов А. Телевидение в Узбекистане. – Ташкент: УзКПКМ, 1964. – С. 11.
2. Курбонов Ш. *Оммавий axborot vositalari tarixi*. – Тошкент: Университет, 2010.–180 б.
3. Бахриев К.Х. *Сўз эркинлиги хақида сўз*. – Тошкент: Oltin meros press, 2023. – 180 б.

4. Maxammetov M., Atamuradova Sh. Televideniye va radio rejessurasi. Toshkent: "NISO POLICRAT" 2017. – B. 18.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 28 мартдаги 167-сон қарори // *Xalq so'zi*, 1994 йил. 26 март. 2-variant.
6. Utepbergenova A. Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasi faoliyatining shakllanishi. // *Vuxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*. 2024 yil, №12. – B.72.
7. "Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорлари тўплами. 1997 йил. № 4. – B.64.
8. О'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi materiallari. 19.09.2021.
9. Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi rasmiy ma'lumotlari. 1-variant.
10. Yusupov I. O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi. // *Ijtimoiy gumanitar fanlar*. 2022-yil, № 4. – B.64.

O'ZBEKISTONDA SPORTNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY TAHLILI VA YOSHLARNING ISHTIROKI

Hamdamov Alisher Tohir o'g'li

mustaqil tadqiqotchi

ORCID 0009-0001-9366-3799

a_hamdammov96@mail.ru

UDK 94(575.1):796/799(045)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mazkur maqolada O'zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosatining shakllanishi va tarixiy bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilgan islohotlar, qonunchilik asoslari hamda davlat dasturlarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, Islom Karimov davrida sportni rivojlantirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar va "sog'lom avlod" g'oyasining ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Maqolada Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan zamonaviy islohotlar, sport infratuzilmasini rivojlantirish, ommaviy sportni keng targ'ib etish va yoshlarning sportdagi ishtirokini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil etilgan. Yoshlarning jismoniy faolligi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sportning o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, yoshlarning ushbu jarayondagi faol ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar: O'zbekiston, davlat siyosati, sportni rivojlantirish, jismoniy tarbiya, yoshlar siyosati, ommaviy sport, sog'lom turmush tarzi, sport infratuzilmasi, sport islohotlari, yoshlar ishtiroki, bolalar va o'smirlar sporti, milliy sport tizimi, sport boshqaruvi, ijtimoiy faollik, sog'lom avlod konsepsiyasi.

HISTORICAL ANALYSIS OF STATE POLICY ON SPORTS DEVELOPMENT AND YOUTH PARTICIPATION IN UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the formation and historical stages of state policy for the development of sports in Uzbekistan. In particular, it highlights the reforms implemented during the years of independence in the field of physical education and sports, as well as the essence and significance of legislative frameworks and state programs. It also examines conceptual approaches to sports development during the leadership of Islom Karimov and the importance of the "healthy generation" concept.

The article further analyzes modern reforms carried out under the leadership of Shavkat Mirziyoyev, including measures aimed at developing sports infrastructure, promoting mass sports, and increasing youth participation in sports activities. The role and importance of sports in shaping youth physical activity and a healthy lifestyle are scientifically substantiated.

The research findings indicate that the development of sports is one of the key priorities of state policy in Uzbekistan, and the active participation of youth in this process is an important factor in societal development.

Key concepts: Uzbekistan, state policy, sports development, physical education, youth policy, mass sports, healthy lifestyle, sports infrastructure, sports reforms, youth participation, youth sports, national sports system, sports management, social activity, healthy generation concept.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng jismoniy tarbiya va sport sohasini milliy asosda qayta tashkil etish dolzarb vazifaga aylandi. Bu jarayon, avvalo, huquqiy baza yaratishdan boshlandi. 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunda quyidagicha ta'kidlanadi. "Jismoniy tarbiya va sport inson salomatligini mustahkamlash, uning jismoniy va ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi[2]".

O‘zbekistonda ham sportni rivojlantirish tadbirlariga alohida e‘tibor qaratilib, bu borada davlat byudjetidan katta mablag‘lar ajratilmoqda. Ayniqsa, yoshlar sportini rivojlantirish tadbirlariga sog‘lom avlod tarbiyasining alohida ajralmas bir bo‘lagi sifatida qaralishi asnosida sportni ommalashtirish chora-tadbirlari kuchaytirildi. Keyingi yillarda sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha federatsiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi faoliyatini kuchaytirish kun tartibidagi eng dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Shuningdek, O‘zbekistonda 2019–2023-yillarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasining e‘lon qilinishi sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarning yanada kuchayishiga xizmat qildi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “...bugungi kunda sport va sog‘lomlashtirish jarayonlarining natijadorligi Yangi O‘zbekistonni barpo etish vazifalari bilan uzviy bog‘liq ekanini anglagan holda mas‘uliyat bilan harakat qilishimiz lozim”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4956-sonli Farmoni, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-sonli “Sport-ta‘lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 14-martdagi PQ-163-sonli “Gimnastika bo‘yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda sohani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur hujjat yoshlarni sportga jalb etishni davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilab berdi. Bu davrda sportni rivojlantirish milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda amalga oshirildi. Ayniqsa, milliy sport turlariga e‘tibor kuchaydi. A.Abdullayev ta‘kidlaganidek: “Mustaqillikning dastlabki yillarida sport sohasi milliy o‘zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi”[5].

Respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasi faoliyatining keng huquqiy asoslari yaratildi. 1992-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi[15]. 2000-yil 26-mayda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning ikkinchi yangi tahriri, 2015-yil 5-sentyabrda esa Qonunning uchinchi yangi tahrir qabul qilindi. Qonun 8 ta bob va 47 moddadan iborat[16]. Mazkur hujjat yoshlarni sportga jalb etish, sportni davlat tomonidan yanada kengroq qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini kuchaytirishni hozirgi zamon talablariga chiqarish, murabbiylar tayyorlash sohasini mustahkamlash, sportning zamonaviy infratuzilmasini vujudga keltirish, xalq o‘yinlari sport turini targ‘ib etish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar ko‘lamini kengaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, sport sohasini samarali boshqarish, sport bilan shug‘ullanuvchilarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashning kafolatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qonunda “sportchi” tushunchasiga aniq ta‘rif berilishi, sportchilarni ijtimoiy himoyalashga alohida e‘tibor berildi[12].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosati, uning tarixiy bosqichlari va yoshlarning ushbu jarayondagi ishtiroki masalalari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Avvalo, mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning huquqiy asoslari shakllantirilishiga bag‘ishlangan ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni hamda davlat dasturlari tahlilida sportni ommalashtirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish va yoshlarni sportga jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida ko‘rsatilgan.

Mazkur sohada Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan “sog‘lom avlod” g‘oyasi sportni rivojlantirishda konseptual asos bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu yondashuvda yoshlarning jismoniy barkamolligi mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etilgan.

Keyingi bosqichda Shavkat Mirziyoyev rahbarligida sport sohasini tubdan isloh qilish, infratuzilmani rivojlantirish va yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etish bo‘yicha

qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon “sportni modernizatsiya qilish bosqichi” sifatida baholanadi.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar (R.Abdullayev, Sh. Xo‘jayev, B.Tursunov va boshqalar) o‘z ishlarida O‘zbekistonda sport tizimining institutsional rivojlanishi, bolalar va o‘smirlar sport maktablarining ahamiyati hamda yoshlarning sportdagi ijtimoiy faolligini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, sport nafaqat jismoniy tarbiya vositasi, balki yoshlarni vatanparvarlik, intizom va jamoaviylik ruhida tarbiyalashning muhim mexanizmi hisoblanadi.

Xorijiy olimlar (J.Xoul, E.Guttman va boshqalar) sport siyosati va uning jamiyatdagi rolga bag‘ishlangan tadqiqotlarida sportni ijtimoiy institut sifatida ko‘rib, davlatning bu sohadagi ishtiroki yoshlarning ijtimoiylashuviga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydilar. Ular sportni “soft power” va milliy identifikatsiya vositasi sifatida ham baholaydilar.

So‘nggi yillarda ilmiy maqolalarda raqamli texnologiyalar, ommaviy sport tadbirlari va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish orqali yoshlarning sportga qiziqishini oshirish masalalari ham keng yoritilmoqda. Ayniqsa, Olimpiya harakati doirasidagi tadqiqotlarda yoshlarning sportdagi ishtiroki global tendensiyalar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosati izchil ravishda takomillashib bormoqda va bu jarayonda yoshlarning ishtiroki markaziy o‘rin egallaydi. Biroq ayrim tadqiqotlarda hududlar kesimida sport infratuzilmasi teng rivojlanmaganligi va yoshlarning sportga jalb etilishidagi muammolar yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda “O‘zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosatining tarixiy tahlili va yoshlarning ishtiroki” mavzusidagi maqolaning tadqiqot metodologiyasi odatda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlarga asoslandi: birinchidan, tarixiy metod bunda sport sohasining O‘zbekistonda shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini davrlar kesimida tahlil qilish uchun qo‘llanildi. Mustaqillikdan oldingi va keyingi davrlar solishtirib o‘rganiladi. Ikkinchidan, tizimli (sistemali) tahlil metodi bunda, sportni rivojlantirish davlat siyosatini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqib, uning tarkibiy qismlari (institutlar, qonunchilik, dasturlar, yoshlar siyosati) o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Uchinchidan, taqqoslash (komparativ) metodi bunda turli davrlar yoki boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirish orqali O‘zbekistondagi sport siyosatining o‘ziga xos jihatlari aniqlandi. Shuningdek, statistik tahlil metodi bunda, yoshlarning sportdagi ishtiroki, sport infratuzilmasi, musobaqalar natijalari kabi ko‘rsatkichlar raqamlar asosida tahlil qilindi. Analiz va sintez metodida, mavzuga oid ma‘lumotlar alohida qismlarga ajratilib (analiz), keyin umumiy xulosaga keltirib o‘tildi. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va sotsiologik yondashuv (agar qo‘llangan bo‘lsa) metodlarida davlat siyosatini o‘rganishda qonunlar, farmonlar, qarorlar va dasturlar mazmuni tahlil qilindi hamda yoshlarning sportga munosabati, ishtiroki va motivatsiyasini aniqlash uchun so‘rovnoma yoki kuzatuv usullari ishlatilishi ilmiy tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. 2017-yildan boshlab sport sohasida yangi islohotlar bosqichi boshlandi. Bu jarayon davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Sport va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim shartlaridan biridir”[4].

Shuningdek, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli farmonda quyidagi vazifalar belgilangan: “Aholini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish davlat organlarining muhim vazifasi hisoblanadi”. Tadqiqotchilarning fikri asoslab ifoda etadigan bo‘lsak, “zamonaviy bosqichda sport sohasi ijtimoiy siyosatning ajralmas qismiga aylanib, yoshlar tarbiyasida strategik ahamiyat kasb etmoqda”[7].

Tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning sportdagi ishtiroki bosqichma-bosqich o‘tib borgan. Statistik ma‘lumotlarda qayd etilishicha, “1990-yillarda yoshlarning sport bilan qamrovi past bo‘lgan bo‘lsa, 2010-yillarga kelib bu ko‘rsatkich bir necha barobarga oshdi” [11]. Bu esa, N.Ibragimov fikriga asosan, “sport infratuzilmasining kengayishi yoshlarning muntazam sport bilan shug‘ullanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi” [8].

O‘zbekistonda sport yoshlar tarbiyasining muhim vositasi sifatida shakllandi. Bu

holat ilmiy adabiyotlarda ham o‘z aksini topgan: Xususan, M.Yusupov ifoda etganidek, “sport yoshlarda intizom, iroda va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ijtimoiy institut hisoblanadi” [8]. Shuningdek, Q.Saidov ta’kidlaganidek, “yoshlarning sportdagi faol ishtiroki jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirishga xizmat qiladi” [10].

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak, tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosati izchil ravishda shakllanib, taraqqiy etgan. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida davlat va jamiyatning turli yo‘nalishlarida shiddat bilan davom etayotgan islohotlar o‘z o‘rnida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirishni kun tartibiga dolzarb qilib qo‘ydi. Natijada yoshlar sportni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish tadbirlari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Yoshlar sportini rivojlantirishning huquqiy asoslari mustahkamlab borildi. Shuningdek, sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha musobaqalar tashkil etishda muayyan natijalarga erishildi. Har bir bosqichda yoshlarni sportga jalb etish masalasi ustuvor vazifa sifatida qaralgan. Bu esa sportning nafaqat jismoniy tarbiya vositasi, balki yoshlar siyosatida muhim ijtimoiy institutga aylanganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: O‘zbekiston: NMIU, 2021. - B.223.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1992, 2000, 2015.
3. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
4. Abdullayev A. O‘zbekistonda sport tarixi. – Toshkent, 2005. B.122.
5. Karimov B. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari. - Toshkent, 2012. – B.209.
6. Raxmonov Sh. Sport siyosati va yoshlar. – Toshkent, 2021. B.120.
7. Ibragimov N. Sport infratuzilmasi tahlili. – Toshkent, 2018. B.143.
8. Yusupov M. Yoshlar tarbiyasida sportning o‘rni. – Toshkent, 2019. B.247.
9. Saidov Q. Ommaviy sport va jamiyat. – Toshkent, 2020. B.162.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni, 2015-yil 5-sentyabr.
11. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining 100 yilligiga bag‘ishlangan Respublika anjumani. Ma‘ruzalar to‘plami. – Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti. 1994. - 211 b.
12. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. – T.: Sharq, 2008. - B.206.
13. O‘zR Oliy Kengashining Axborotnomasi. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni, 1992 y., - №3, 160 modda.
14. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015, 36 son, 473-modda.

DAVLAT SIYOSATIDA YOSH OILAGA MUNOSABATNING TARIXIY AKS ETISHI

Hamdamova Aziza Sharif qizi
mustaqil tadqiqotchi
ORCID 0009-0002-7437-0111
a_hamdamaova_96@mail.ru
UDK 94 (575.1):392.3(045)

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat siyosatida yosh oilaga munosabatning shakllanishi va uning tarixiy bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, sobiq Sovet Ittifoqi davrida oila institutiga bo‘lgan yondashuvlar, mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlar asosida oila siyosatining rivojlanishi hamda zamonaviy bosqichda amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.

Maqolada Islom Karimov davrida “sog‘lom avlod” konsepsiyasi doirasida yosh oilalarni ma‘naviy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan zamonaviy davlat siyosati, jumladan, yosh oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, uy-joy bilan ta‘minlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yosh oilalarga bo‘lgan davlat munosabati tarixiy jihatdan bosqichma-bosqich takomillashib borgan bo‘lib, bu jarayon jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar: yosh oila, davlat siyosati, oila instituti, tarixiy tahlil, ijtimoiy himoya, oilaviy qadriyatlar, sog‘lom avlod konsepsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, yoshlar siyosati, oila

barqarorligi, demografik rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy adaptatsiya, davlat dasturlari.

HISTORICAL REFLECTION OF ATTITUDE TOWARDS YOUNG FAMILIES IN STATE POLICY

Abstract. This article analyzes the formation and historical stages of the state's approach to young families within public policy. In particular, it examines approaches to the family institution during the period of the Soviet Union, the development of family policy based on national values after independence, and modern reforms in this area.

The article explores issues of spiritual and social support for young families within the framework of the "healthy generation" concept during the leadership of Islom Karimov. It also analyzes contemporary state policy measures implemented under the leadership of Shavkat Mirziyoyev, including socio-economic support for young families, housing provision, and the development of entrepreneurship.

The findings indicate that the state's approach to young families has evolved historically in stages and serves as an important factor in ensuring social stability and societal development.

Keywords: young family, state policy, family institution, historical analysis, social protection, family values, healthy generation concept, socio-economic support, youth policy, family stability, demographic development, social relations, family adaptation, state programs.

Kirish. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi[1]. Ayniqsa, yosh oilalar jamiyatning demografik, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu boisdan, davlat siyosatida yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash masalasi doimiy ravishda ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan.

Yosh oila tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ilmiy qarashlarga ko'ra, er va xotinning yoshi 30 yoshdan oshmagan yoki oila qurganiga 10 yildan oshmagan bo'lsa, bunday oila yosh oila sifatida qaraladi. Shu bilan birga, oilaning shakllanish davrida ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarning mavjudligi uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Davlat siyosatida yosh oilaga munosabatni o'rganish masalasi sotsiologiya, demografiya, psixologiya va davlat boshqaruvi sohalarida keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda yosh oila tushunchasi, uning ijtimoiy vazifalari va davlat siyosatidagi o'rni turlicha yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Avvalo, yosh oila tushunchasiga berilgan ta'riflar turli olimlar ishlarida farqlanadi. Ayrim tadqiqotlarda yosh oila er-xotinning yoshi va birgalikda yashash muddati bilan belgilanadi. Masalan, zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda yosh oila oilaviy hayotning dastlabki bosqichi sifatida qaralib, unda ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik muammolar ko'proq namoyon bo'lishi ta'kidlanadi[2]. Shuningdek, ba'zi ilmiy manbalarda yosh oila 10 yilgacha birga yashagan juftlik sifatida tavsiflanadi.

Ilmiy adabiyotlarda yosh oila masalasi ko'pincha "oilaviy hayot sikli" nazariyasi doirasida ko'rib chiqiladi. Unga ko'ra, oilaning ilk bosqichi eng murakkab davr hisoblanib, bu davrda er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy moslashuv jarayonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xorijiy tadqiqotlarda oila institutining tarixiy o'zgarishi va uning davlat siyosati bilan bog'liqligiga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, oila jamiyatning dinamik tizimi sifatida qaralib, uning shakllanishi vaqt o'tishi bilan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida o'zgarib borishi ta'kidlanadi. Bu esa davlat siyosatida oilaga munosabat ham tarixiy jihatdan o'zgarib borishini anglatadi.

So'nggi yillarda oila va yoshlar siyosatiga oid tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshgan. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1980-yillardan keyin "family-friendly policy" (oilaga do'stona siyosat) tushunchasi keng rivojlangan va bu sohadagi tadqiqotlar izchil ravishda ortib bormoqda. Bu holat davlatlarning yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan e'tibori kuchayganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda yosh oilaning ijtimoiy ahamiyatiga alohida urg'u beriladi. Yosh oila jamiyatda alohida ijtimoiy guruh sifatida qaralib, uning moliyaviy, ijtimoiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlanishi zarurligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston misolida esa yosh oilalar davlat oila siyosati va yoshlar siyosati doirasida muhim obyekt sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash

orqali jamiyat barqarorligini ta'minlash, demografik o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy muammolarni kamaytirish mumkinligi asoslab berilgan.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh oila masalasi ko'p qirrali bo'lib, uning davlat siyosatidagi o'rni tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Biroq ayrim tadqiqotlarda yosh oilalarning mintaqaviy xususiyatlari, madaniy omillar va zamonaviy global o'zgarishlar ta'siri yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Bu esa kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda "Davlat siyosatida yosh oilaga munosabatning tarixiy aks etishi" mavzusidagi maqolaning tadqiqot metodologiyasi odatda quyidagi asosiy ilmiy metodlarga tayanadi: birinchidan, tarixiy metod bunda, yosh oilaga bo'lgan davlat siyosatining turli davrlardagi (masalan, sovet davri va mustaqillikdan keyingi bosqichlar) rivojlanishini izchil o'rganildi. Ikkinchidan, tarixiy-qiyosiy (komparativ) metod bu metodda, turli tarixiy davrlarda yosh oilaga nisbatan yondashuvlarni o'zaro taqqoslash, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Uchinchidan, tizimli (sistemali) tahlil metodida, davlat siyosatini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqib, undagi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy omillarni o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. To'rtinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili metodida qonunlar, farmonlar, davlat dasturlari va qarorlar orqali yosh oilani qo'llab-quvvatlash siyosatining mazmuni va evolyutsiyasi o'rganildi. Shuningdek, analiz va sintez metodlari va mantiqiy tahlil metodida mavzuga oid ma'lumotlar alohida jihatlarga ajratilib tahlil qilinadi va umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi. Davlat siyosatidagi o'zgarishlar va ularning sabab-oqibat bog'liqligi izchil ravishda tushuntirildi. Sotsiologik yondashuv (zarur hollarda) metodida, yosh oilalarning ehtiyojlari, muammolari va davlat siyosatiga munosabatini o'rganishda qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh oilaga bo'lgan munosabat davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tarixiy jihatdan bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Xususan, sovet davrida yosh oilalar ko'proq umumiy ijtimoiy siyosat doirasida ko'rib chiqilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyingi davrda ular alohida ijtimoiy qatlam sifatida e'tirof etila boshladi.

Mustaqillik yillarida yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganligi kuzatildi[3]. Bu jarayonda ularning ijtimoiy himoyasi, uy-joy bilan ta'minlash, bandlik darajasini oshirish va ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar yosh oilalarning barqaror rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yurtimizda yosh oila manfaatlarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish yo'nalishida Yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish boyicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish" vazifasi qo'yildi. Ushbu vazifalarni bosqichma-bosqich bajarilishi tufayli yosh oilalarning maishiy turmush sharoitini yaxshilash, kam ta'minlangan oila farzandlarining nikohdan otishi va to'y marosimlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishni xohlaganlar uchun, uy-joy qurilishi, ta'mirlash va sotib olish uchun, uy xo'jaligini yo'lga qo'yish, mebel va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan hayotiy zarur tovarlar bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bir yilda yosh oilalarning barpo bo'lish miqdorini keltiradigan bo'lsak, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekistonda jami nikohlar soni 283,8 mingta, nikohdan ajralishlar soni esa – 49,2 mingta[11]. Bu raqamlarda kam miqdorda bo'lsa ham, yoshi kattalarning ikkinchi bor turmush qurishi ham aks etgan.

Umumiy oilalar miqdoriga nisbatan yosh oilalarning salmog'i qariyb 40 foizni tashkil qiladi. Demak, oila sonining ko'pligi ular orasida moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtojlari ham bo'lishi tabiiy ekanligini ko'rsatadi va hukumatimiz va davlar rahbarining bu boradagi siyosati aynan yosh oilaning manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi sa'yi-harakatlardan biridir. Albatta, yosh oila borasidagi eng muhim masalalardan

biri – yoshlarning o‘zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko‘nikishi masalasidir. Chunki romantik sevgi, bir-birini yoqtirish bosqichidan o‘tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishiga muayyan qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy. Yigit-ku o‘z uyida, ota-onasi yaratib bergan sharoitda yashaydi. Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarning eng og‘iri kelinchakning bo‘yniga tushadi. U boshdan kechiradigan muammolardan biri esa – yangi oila a‘zolari bilan muomala maromlarini to‘g‘ri o‘rnatishdir. Bunda kuyovning onasi, ya‘ni qaynonaning va boshqa yaqin qarindoshlarning kelinni qo‘llab-quvvatlashi kelinga yangi sharoitga moslashishga yordam berishi kerak.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlangan. Jumladan, yosh oilalarning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash, ularni doimiy ish bilan band qilish, uy-joy masalasini hal etish hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayrim hollarda mavjud imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanish mexanizmlarining yetarlicha samarali ishlamayotgani kuzatiladi.

Muhokama jarayonida shuni ta‘kidlash lozimki, yosh oilaga nisbatan davlat siyosati nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki demografik va ma‘naviy rivojlanish omili sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh oilalar jamiyatning asosiy tayanchi bo‘lib, ularning farovonligi mamlakatning barqaror taraqqiyotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kelgusida yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ayniqsa ularning iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlikka jalb etish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish muhim vazifa bo‘lib qoladi. Shu asosda davlat siyosatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish zarur.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yosh oilalarga davlat munosabati tarixan bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida bu sohada:

- psixologik xizmatlarni kengaytirish;
- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch*. - Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. - 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 56 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023. - 80 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari to‘plami. - Toshkent, 2020. - 200 b.
5. Abdurahmonov Q. X. *Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi*. - Toshkent: Fan, 2019. - 300 b.
6. Giddens A. *Sotsiologiya*. - Toshkent: Sharq, 2002. - 800 b.
7. Parsons T. *The Social Structure of the Family*. - New York, 1955. - 120 b.
8. Cherlin A. *Public and Private Families*. - New York: McGraw-Hill, 2010. - 560 b.
9. United Nations. *Family Policies and Programmes*. - New York, 2015. - 150 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. - <https://stat.uz>
11. <https://daryo.uz/k/2024/02/09/ozbekistondagi-jami-nikohlar-vanikoh-dan-ajralishlar-soni-malum-boldi/>

BUYUK IPAK YO‘LIDAGI JANUBIY SUG‘DNING IQTISODIY-MADANIY ALOQALARDAGI ROLI

Achilov Anvar Tuychiyevich

Qarshi davlat universiteti dotsenti

anvarochilov1@mail.ru

ORCID 0009-0004-7336-1867.

UDK930.7

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubiy Sug‘dning Buyuk ipak yo‘li tizimida tutgan iqtisodiy va madaniy o‘rni tarixiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlar asosida batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot davomida arxeologik topilmalar, yozma manbalar va zamonaviy ilmiy izlanishlar qiyosiy o‘rganilib, mazkur hududning Buyuk ipak yo‘lidagi muhim tranzit va madaniy markazlardan biri sifatida faoliyat yuritgani asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotda xronologik ketmaketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan foydalanildi. Janubiy Sug‘d orqali amalga oshirilgan savdo

aloqalari, madaniy almashinuvlar va diplomatik munosabatlar mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti hamda xalqaro aloqalar rivojida muhim ahamiyat kasb etgani yoritilgan. Bundan tashqari, hududning Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy integratsiya jarayonidagi o'rni ham alohida ta'kidlangan.

Tayanch so'z va iboralar: Janubiy Sug'd, Buyuk ipak yo'li, antik davr, ilk o'rta asrlar, iqtisodiy aloqalar, madaniy almashinuv, savdo yo'llari.

THE ROLE OF SOUTHERN SUGHD ON THE GREAT SILK ROAD IN ECONOMIC AND CULTURAL TIES

Abstract. This article provides a detailed analysis of the economic and cultural role of Southern Sughd in the system of the Great Silk Road based on historical sources and scientific literature. During the study, archaeological finds, written sources and modern scientific research were comparatively studied, and it was substantiated that this region acted as one of the important transit and cultural centers on the Great Silk Road. The study also used methods such as chronological sequence, comparative analysis, historicity, systematic approach, and the principle of objectivity. It is highlighted that trade relations, cultural exchanges, and diplomatic relations carried out through Southern Sughd played an important role in the economic development of the region and the development of international relations. In addition, the role of the region in the process of cultural integration between the East and the West is also emphasized.

Key words: Southern Sogd, Great Silk Road, antiquity, early Middle Ages, economic relations, cultural exchange, trade routes.

Kirish. Markaziy Osiyo miloddan avvalgi IV asrdan-milodiy IV asrgacha bo'lgan davrda, shaharlar paydo bo'ldi va rivojlandi. Shaharlar odatda qadimiy sug'orma dehqonchilik hududlarida, tabiiy vohalarda va savdo yo'llari kesishgan nuqtalarda shakllangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketmaketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Sug'd vohasi ushbu savdo yo'lining har ikkala tarmog'i – Shimoliy va Janubiy yo'nalish oralig'ida o'rin olgan bo'lsa, ikkinchisi – qo'shni Toxariston esa ko'proq ikkinchi yo'nalishdagi asosiy manzillardan biri edi. Shimoliy Afrika, Old Osiyo o'lkalari va Yevropa savdo karvonlari O'rta Yer dengizi qirg'oqlaridan yo'lga chiqib, Suriya, Iroq, Sosoniylar Eroni orqali Xurosonga kelgan savdo karvonlari ikki yo'nalishda - Amudaryoning yuqori havzalari bo'ylab, Badaxshondan Sharqiy Turkiston (Xutan)ga yoki Hindistonga, u yerlardan esa Xitoy va Tibetga borsa, Hindiston va Fors ko'rfazidan shimolga qarab yo'lga chiqqan tijoratchilar karvoni Toxariston orqali Sug'dga borib, bu yerdan shimol, shimoli-g'arb va shimoli-sharqqa - Yevrosiyo dashtliklari: Sharqiy Yevropa, Qora dengizning shimoli, Shimoliy Kavkaz, Volga-Ural bo'ylari, Yettisuv, Sharqiy Turkiston (Koshg'ar, Turfon) orqali Oltoy, Janubiy Sibir, Xitoy va Uzoq Sharq o'lkalariga yetib borishar edi [1].

Ushbu tarixiy yo'lining bu ikkita tarmog'i qadimgi davrlar davomida o'zaro bir-biri bilan aloqada bo'lib, turli xalqlarning madaniy hamkorligini ta'minlashi bilan birga antik davr davomida Janubiy tarmoqning mavqeyi yuqori bo'lib kelgan bo'lsa, Turk xoqonligi davriga kelib Shimoliy tarmoqda rivojlanish jadallashgani kuzatiladi. Ayniqsa, quyi Sirdaryoning va uning o'rta havzalarida o'nlab yirik manzilgo'harlar va shaharlar tashkil topgani, O'tror, Choch, Ustrushona, Sug'd va Yettisuvda iqtisodiy taraqqiyot kuzatilib, bu holat xoqonlikning boshqaruv markazlari asosan Suyob (Yettisuv) va Choch vohasida va Sug'dda joylashgani bilan izohlanadi [2].

Ma'lumki, antik davrdan boshlab Buyuk Ipak yo'lining Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi tarixiy viloyatlardan o'tgan yo'nalishlari orasida G'arbiy Sug'dning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin egallagan Samarqand – Buxoro yo'nalishi va uning tarmoqlarining ahamiyati ancha ortadi. Bu tarmoq asosan Zarafshon daryosi va uning irmoqlari havzalaridan o'tib, ilk o'rta asrlar davri yozma manbalarida "Shohroh" ("Shoh yo'li", "Bosh yo'l") nomi bilan eslatilgan. Hunarmand aholi va atrofi yashil bog'larga o'rangan o'nlab o'troq shahar va qishloqlardan o'tuvchi bu yo'nalish Samarkanddan Janubiy Sug'd - Qashqadaryo vohasi orqali Amudaryoning o'rta oqimidagi Termiz kechuvlaridan o'tib, Toxaristonga eltuvchi eski yo'nalishga nisbatan ancha qulay va samarali edi.

629-yilda Toxaristonga kelgan xitoy rohibi Syuan Szan bu yerni quyidagicha ta'riflaydi: "Tiye-men (Temir darvoza)ning o'ng va so'l tomoni tog'ga tutashgan. Tog' benihoya yuksak va tik qoyalardan iborat. Tor bir joy bo'lishiga qaramay (bu yerdan) o'tish

qiyin va tahlikali. (Darvoza)ning ikki tomonidagi devor kabi qoya ham temir rangidadir. (Bu yerga) taxtadan qilingan temir darvoza joylashtirilgan va (bu darvozalar) temir qismlar bilan bir-biriga jipslashtirilib, mustahkamlangandir. Darvozalarning tepalarida anchagina qo'ng'iroqchalar osilgan. (Bu yer) oshib o'tish qiyin va juda yaxshi qo'riqlangani uchun ushbu joy shunday nomlangan".

Eng qadimdan to ilk o'rta asrlargacha O'rta Osiyoning janubiy sarhadlari ko'p sonli elatlarni o'ziga tortishining asosida bir qator faktorlar yotib, ular orasida iqtisodiy sabablar yetakchilik qilgan. Avvalo, Buyuk Ipak yo'lining janubiy tarmog'i ancha rivojlangan hududlarda joylashib, iqtisodiy imkoniyatlarga boy edi. Shuningdek, milodiy III-IV asrlarda Yevrosiyo dashtlarida yuz bergan "Buyuk ko'chishlar" ushbu o'lkalarni ham chetlab o'tmagan. Ushbu ko'chishlar davrida Yevrosiyoning janubiga siljigan Xioniylar va Kidariylar bu yerning siyosiy tarixida ma'lum darajada o'z izini qoldirgan bo'lsa ham, aholining demografik tarkibiga unchalik katta ta'sir ko'rsatmadi. Ammo Eftaliylar va Turk xoqonligi bu masalada alohida o'rin tutgan etnomadaniy jarayonlarni boshlab berganlar. [3]

Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida Toxaristonning shimoliy qismlari, Badaxshon va Pomir adirlari va tog'lari orasidagi manzillar, shuningdek, Amudaryoning yuqori oqimi - Vaxsh va Panj daryolari havzalarida tukyuye (turk), xalaj, kanjina, kumed, qarluq kabi turkiy urug'lar yashashi haqidagi xitoy, arab, fors manbalarida ma'lumotlar uchrashini shimoli-sharqiy xududlardan bo'lgan migratsiya jarayonlarining navbatdagi oqimi, deb hisoblash mumkin. Ulardan bir qismi Eftaliylar bilan bog'lansa, bir qismi esa Turk xoqonligi bilan bevosita aloqador xalqlar bo'lib, Abu Abdullox al-Xorazmiy o'zining "Mafotix al-ulum" asarida xaytal (eftal)larni bir vaqtlar Sug'd va Toxaristonni boshqargani, xalaj va kanjina deb ataladigan turklar esa ularning keyingi avlodlari ekanligi [4], deb urg'u berib o'tishi bunga misol bo'la oladi [5].

Ba'zi manbalarida Toxariston o'lkasining markaziy hukmdorliklaridan biri – Balx atroflaridagi Eftaliylarning boshqaruv markazlaridan biri – Varvaliz shahri to'g'risidagi ma'lumotlar kam bo'lsa-da, uchraydi. Bu shaharning nomi xitoy yilnomalarida turli ko'rinishlarda uchrasa-da, ularning mahalliy shakli tiklanganda avar etnonimining izlarini ko'rsa bo'ladi. Turk xoqonligi davrida ham Janubdagi Badgis hokimligini kelib chiqishi Eftaliylarga borib taqaluvchi sulola boshqarib, bu sulola vakillaridan biri Nizak Tarxon hoqonlik noibi sifatida arablarga qarshi kurash harakatlarini olib boradi [6].

G'arb tadqiqotchilari al-Xorazmiyning "Mafotix al-ulum" (X asr) asarida "Xalajlar haytallarning qoldiqlaridir", deb keltirilgan ma'lumotga suyanib, xalajlarning kelib chiqishini mo'g'ul yoki turk-mo'g'ul urug'lar bilan bog'laydilar. O'z davrida 1900-yillarda xalajlarning kelib chiqishi haqida to'xtalgan Y. Markvart al-Xorazmiy keltirgan ushbu ma'lumot Eftaliylarning kelib chiqishini hind-eroniy, deb hisoblaydigan olimlarni o'yantirib qo'yishini ta'kidlagan edi. Eronshunos olim N.Sims-Villyams yaqin yillarda 2 ta baqtriycha hujjat nashr ettirgan va ularda Amudaryoning janubida yashagan xalajlar to'g'risida so'z yuritilgan. Ulardan biri – kushon erasi bo'yicha 446-yil (669 y.)da yozilgan hujjatda "xalaj"lardan bo'lgan qul va ikkinchisi – 478-yil (700 y.) yozilganida esa xalajlardan bo'lgan malika "bilga-sebuk" tilga olinadi [7]. Ushbu ma'lumotlar Hindiqushning shimoli - Amudaryoning janubida yashagan xalajlar borasida xitoy, hind, arab va fors manbalarida keltirilgan ma'lumotlarni tasdiqlaydi [8].

Yoqut Xamaviy ular to'g'risida "Xalajlar qadimdan Qobulda, Hindiston va Seiston orasida, Furning narigi yonida yashardilar" deb xabar bersa, Ibn Xavqal bu o'lkalarda yashaydigan "Xalajlar turklarning bir bo'g'imi bo'lib, kiyim-kechaklari va tili turkchadir" deb yozadi. Hindiston va Afg'onistonda yashagan xalajlarning ko'pchiligi keyinchalik o'z tillarini unutib, afg'onlashib ketadilar [9].

Xioniylar, Eftaliylar va Toxariston Yabg'ulari kabi sulolalarning o'z hududlarini Shimoliy Hindiston, Afg'oniston va Xuroson tomonlarga kengaytirishga intilishiga sabab bo'ladi.

Antik va ilk o'rta asrlardagi migratsiya jarayonlari O'rta Osiyo hududlarining shimoli-sharqidan janubi g'arbga siljishlar misolida qanchalik o'z ifodasiga ega bo'lsa, xuddi shu holat mintaqaning janubi-g'arbidan shimoli-sharqi misolida ham kuzatiladi. Ayniqsa, bu

hududlardagi migratsiya jarayonlarida sug'diylarning roli katta bo'ldi. Choch vohasining shimoliy qismi, Sirdaryoning o'rta havzalaridagi aholi vohalarida qadimdan ko'chib kelib, bu yerlarda o'z shahar va qishloqlarini barpo qilgan sug'diylar tashkil qilgan bo'lsa-da, turkiy tilning nufuzi yuqori bo'lganini asoslaydigan ba'zi faktlar mavjud. Chunonchi, 630-yillarda bu hududlarda bo'lgan xitoy rohibi Syuan Szan Chje-shi (Choch)ning shimoliy sarhadlaridagi qishloqlar orasida xitoyliklar asos solgan aholi maskani borligi haqida yozib, bu yerning aholisi bo'lgan xitoyliklar, garchi o'z tillarini saqlagan bo'lsa-da, kiyim-kechagi va boshqa odatlari turklarnikiga o'xshab qolganini haqida xabar beradi [10].

Ushbu holat ularning siyosiy hukmron va lisoniy jihatdan ustun turkiy muhitda turklasha boshlaganini ko'rsatadi. Mahmud Qoshg'ariy ham aynan Chochning shimolidagi Isfijob (Sayram)dan to Taroz va Balosog'un (Yettisuv)gacha bo'lgan hududda yashovchi aholining ham sug'diycha, ham turkcha, ya'ni ikki tilda so'zlashishi haqida gapirib, ularning Samarqand va Buxoro tomonlardan ko'chib kelganliklarini ta'kidlaydi [11]. Ushbu ma'lumot ancha keyingi davrga – XI asrga oid bo'lsa ham, sug'diylarning kuchli turkiy doiraga tushib qolib, turklashuv jarayoniga kirib kelishi davri ilk o'rta asrlarga, asosan, Turk xoqonligi davriga to'g'ri kelishi hisobga olinsa, Qoshg'ariy keltirgan dalillar aynan shu davrlarga oid bo'lishi ham mumkin. Sug'diylarda turklashuv jarayonining kuchayishi aynan ilk o'rta asrlarga to'g'ri kelishini tasdiqlaydigan ma'lumotlar ba'zi xitoy yilnomalarida ham uchraydi [12].

Xulosa va takliflar. Buyuk Ipak yo'li va uning tarmoqlari orqali mintaqaning janubiy hududlarida sharqiy eroniy, turkiy hamda hind madaniy an'analari va urf-odatlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos etnik xilmaxillik shakllangan. Ushbu jarayonning ta'siri bugungi kungacha ma'lum darajada saqlanib kelayotgani uning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyoning janubiy hududlari – Pomir, Badaxshon, Hisor, Hindikush va Himolay tog'lari etaklarida tojik, tog'li badaxshonliklar, pushtunlar kabi sharqiy eroniy xalqlar bilan bir qatorda o'zbek, turkman va qirg'iz kabi turkiy xalqlarning yonma-yon yashab kelayotgani ham aynan o'sha tarixiy etnomadaniy jarayonlarning natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyorov F. Farbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi: Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: UzR FA SHI, 2012. - B. 19-20, 38-41
2. Xatamova M. Turk hoqonlarining Chochdagi qarorgohlari: Jabgukat va Xotunka't // O'zbekiston tarixi, – №1, 2009. - B. 3-13.
3. Grenet F. Regional interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarite and Hephthalite periods // Indo-Iranian languages and peoples. Proceedings of the British Academy 116, 2002. - P. 206-207.
4. Баходиров Р. История Востока в “Ключах наук” // Шаршунослик. - Тошкент, 2009, № 14. - С. 114.
5. Bosworth C.E., Clauson G. Al-Xwarazmi on the Peoples of Central Asia // The Turks in the Early Islamic World / Ed. by C.E. Bosworth, Ashgate Variorum, 2007. - P. 174.
6. История ат-Табари. Избранные отрывки (Пер. с араб. В.И. Беляева. Допол. к пер. О.Г. Большакова и А.Б. Халидова). - Ташкент, 1987. - С. 127, 129, 256-258.
7. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan, I: Legal and Economic Documents. - Oxford University Press, 2000. - P. 74, 82, 88.
8. Джуманиязова Ф. Тюрки Тохаристана в VI - VIII вв.: Карлуки или Халаджи? / Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Вып. 3. Древность. Средние века. Новая время / Под редакцией Ш.С. Камолиддина. - Saarbrücken: LAP - Lambert Academic Publishing RU, 2016. - С. 69.
9. Konukcu E. Akhunlulann Kalintisi Olarak Kalaclar (Halaclar) // Turkler. Cilt I. - Ankara, 2002. - S. 845-849.
10. Ekrem E. Hsuan-Tsang Seyahetnamesi'ne gore Turkistan. Basilmamis doktora tezi. Hacettepe Universitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. - Ankara, 2003. - S. 117.
11. Koshg'ariy, Mahmud. Turkiy so'zlar devoni / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 tomlik. - T.: Fan, 1960. I- jild. - B. 66.
12. Xujayev A. Xitoy manbalarida sug'dlarga oid ayrim ma'lumotlar // O'zbekiston tarixi, 2004, №1. - B. 52-61.

**MANG'ITLAR SULOLASI VAKILLARINING HARBIY MUNOSABATLAR
FAOLIYATI TARIXIDAN****Eshov Boxodir Jo'rayevich**

Qarshi davlat universiteti

"O'zbekiston tarixi" kafedrası professori.

Tarix fanlari doktori.

eshovbakhodir@gmail.com

ORCID 0009-0003-6865-8765

UDK: 94(575.171)(072)

O'ralov G'aybulla Aliqulovich

Qarshi davlat universiteti

"O'zbekiston tarixi" kafedrası katta o'qituvchisi.

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.

oralovgaybulla@gmail.com

ORCID 0009-0006-2827-331X

UDK 950:796.5-05(021)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr boshlarida Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasidagi tortishuvli hudud Marv vohasi bo'lgan. Aynan shu davrda Buxoro amirligining Qo'qon xonligi bilan O'ratepa va Xo'jand mulklari uchun kurash davom etar edi. XIX asr boshlariga kelib Buxoro amirligi Jizzaxni, Qo'qon xonligi esa Xo'jandni egallab oladi. O'ratepa va Xo'jand shaharlarining xonliklar o'rtasida talash hududga aylanishining asosiy sababini quyidagicha izohlash mumkin. Xususan, O'ratepa shahri va uning atrofi geografik va strategik jihatdan juda mustahkam hudud bo'lib, amirlik tomonidan O'ratepa egallansa, amir Qo'qon xonligining janubiy chegaralari, ayniqsa, Xo'jand mulkini o'z ta'siri ostida saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Qo'qon xonligi esa Xo'jand mulkini o'z ta'siri ostida saqlab kelishi Buxoro amiri tomonidan egallab olingan Jizzax hududiga doimo tahdid solib turilgan. Shuning uchun O'ratepa shahri doimo ikkala xonlikning talash hududi bo'lib goh u xonlikka goh bu xonlik tasarrufida bo'lganligi haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: Buxoro, Xiva, O'ratepa, Xo'jand, Zarafshon, Dashti Qipchoq, Badaxshon, Qobul, Shahrisabz bekligi, Marv, Chorjo'y, Toshkent, Turkiston, qo'shin, Markaziy Osiyo, yimroli voqeasi, Rossiya, Britaniya, Afg'oniston, Savdo munosabatlari va Tehron.

**FROM THE HISTORY OF MILITARY RELATIONS ACTIVITY OF THE
REPRESENTATIVES OF THE MANGIT DYNASTY**

Abstract. In this article, the Merv oasis was a disputed territory between the Bukhara and Khiva khanates at the beginning of the 19th century. At that time, the Bukhara emirate was in a struggle with the Kokand Khanate for the possessions of Uratapa and Khujand. By the beginning of the 19th century, the Bukhara emirate had captured Jizzakh, and the Kokand Khanate had captured Khujand. The main reason why the cities of Uratapa and Khujand became disputed territories between the khanates can be explained as follows. In particular, the city of Uratapa and its surroundings were a very strong geographical and strategic area, and if the emirate had captured Uratapa, the emir would have had the opportunity to keep the southern borders of the Kokand Khanate, especially the Khujand possessions, under its influence. The Kokand Khanate, in turn, had kept the Khujand possessions under its influence, which constantly threatened the territory of Jizzakh, which was occupied by the Bukhara emir. Therefore, it is said that the city of Uratapa was always a disputed territory between the two khanates, sometimes under the control of one khanate and sometimes under the control of the other.

Key words: Bukhara, Khiva, Uratapa, Khujand, Zarafshan, Dashti Kipchak, Badakhshan, Kabul, Shahrisabz Begiki, Marv, Chorjoi, Tashkent, Turkestan, army, Central Asia, Yimroli incident, . Russia, Britain, Afghanistan, Trade relations and Tehran.

Kirish. XVIII asr oxiriga kelib O'ratepa aholisining bir qismi Buxoro amirligi hududiga ko'chirilgani ham ma'lum. Bundan tashqari, O'ratepa Zarafshon vohasi iqtisodiyotining muhim obyektı ham hisoblangan. Nisbatan iqtisodiy imkoniyatlari boy bo'lgan Matcha va Falg'ar (Zarafshon vohasidagi) mulklari bunga misol bo'la oladi. XIX asr boshlariga kelib Matcha va Falg'ar mulklari Buxoro amirlari ta'siriga o'tgan bo'lsa-da, 1830 yildagi Qo'qon va Buxoro o'rtasida tuzilgan shartnomaga qadar Qo'qon xonligi ma'lum jihatdan bu yerlarda ham o'z ta'sirini saqlab qolgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketmaketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan

unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. XIX asr boshlarida Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasidagi tortishuvli hudud Marv vohasi bo'lgan. Aynan shu davrda Buxoro amirligining Qo'qon xonligi bilan O'ratepa va Xo'jand mulklari uchun kurash davom etar edi. XIX asr boshlariga kelib Buxoro amirligi Jizzaxni, Qo'qon xonligi esa Xo'jandni egallab oladi. O'ratepa va Xo'jand shaharlarining xonliklar o'rtasida talash hududga aylanishining asosiy sababini quyidagicha izohlash mumkin. Xususan, O'ratepa shahri va uning atrofi geografik va strategik jihatdan juda mustahkam hudud bo'lib, amirlik tomonidan O'ratepa egallansa, amir Qo'qon xonligining janubiy chegaralari ayniqsa, Xo'jand mulkini o'z ta'siri ostida saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Qo'qon xonligi esa Xo'jand mulkini o'z ta'siri ostida saqlab kelishi Buxoro amiri tomonidan egallab olingan Jizzax hududiga doimo tahdid solib turilgan. Shuning uchun O'ratepa shahri doimo ikkala xonlikning talash hududi bo'lib goh u xonlikka goh bu xonlik tasarrufida bo'lgan. XVIII asr oxiriga kelib O'ratepa aholisining bir qismi Buxoro amirligi hududiga ko'chirilgani ham ma'lum.

Muhammad Alixon davrida amirlik bilan munosabatlar iliq bo'lmaydi. Xususan, Buxoro amiri Nasrulloxon (1827–1860) bilan tuzilgan tinchlik sulhi uzoq davom etmagan. Muhammad Alixon Buxoro amiriga vassal bo'lishni rad etadi. Chunki tashqi munosabatlarda Buxoro amiri Usmonli turk sultoniga murojaat qilib, o'zini Markaziy Osiyo davlatlari ustidan ustuvorligini tasdiqlatishga harakat qilar edi. Shu o'rinda Qo'qon xonligi amirlikka vassal bo'lishi zarur edi. Aksincha, Qo'qon xoni Muhammad Alixon esa o'zini mustaqil davlat ekanligi va uni himoya qilish maqsadida harbiy imkoniyatlarni oshirish maqsadida 1837-yil bahorida o'z elchisi Zohid Xo'jani Istanbulga yuborib, xonlikka harbiy mutaxassislar tayyorlash uchun mutaxassislar yuborishda yordam so'ragan[1].

Shundan so'ng Muhammad Alixonning Usmonli turk sultonidan yordam so'rashi natijasida Buxoro bilan mavjud "abadiy sulh" buzilib, ikki davlat o'rtasida ochiq dushmanlik va harbiy to'qnashuvlar avj olib ketadi. Jumladan, xonliklar o'rtasida talash hudud bo'lgan O'ratepani Muhammad Alixon Qo'qonda hukmronlikni boshlagan paytdanoq egallashni maqsad qilgan edi[2]. Aslida O'ratepa shahrini doimiy nazoratda ushlab turish Buxoro amiri Haydar davridanoq e'tiborga olingan bo'lib, xavfsizlik nuqtayi nazardan ayrim chegaraviy qal'alar nazorati otaliq Muhammad Rahimga topshirilgan edi. Albatta kelgusida ham ushbu vazifani siyosiy ahamiyat kasb etilishi uning vorisi amir Nasrulloxon davrida ham kuzatiladi. Amir Nasrulloxon bu hududlardan, ayniqsa Jizzaxni, yanada mustahkamlash ishlarini davom ettirgan. Bu vaqtda Qo'qon xoni Muhammad Alixon O'ratepaga harbiy yurish boshlab uni egallaydi. Lekin uzoq davom etgan kurashlar va ba'zi ichki bosh-boshdoqliklar natijasida Nasrulloxon 1828/29 yil oralig'ida Jizzaxni qaytarib oladi[3].

Voqealar rivojini kuzatib turgan Muhammad Alixon O'ratepa qo'ldan ketganidan so'ng, Buxoro bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi mojarolardan xavotirda bo'lib, Buxoro amiri huzuriga elchi yuboradi. Muzokaralar natijasida amir Nasrulloxon sulh tuzishga rozi bo'ladi. Amir Nasrulloxonning bunday qarorga kelishiga Buxorodagi ichki siyosiy voqealar, Shahrisabz bekligidagi ayirmachilik harakatlarini oldini olish hamda Marv va Chorjo'y uchun Xiva bilan bo'layotgan urushlar sabab bo'ladi. Natijada 1830-yilda Qo'qon va Buxoro o'rtasida sulh tuzilib, u 1840 yilgacha amalda bo'lgan[4].

XIX asrning 40 – 50-yillariga kelib Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi munosabatlari yana keskinlashdi. Buning asosiy sababi Amirlik Qo'qon xoni Muhammad Alixonning akasi – sulton Mahmudni panohiga olib, Muhammad Alixonni haqoratlab maktub yo'llaydi va tez orada Jizzaxga xujum qiladi. Undan keyin Pishagar qamal qilinib, butunlay vayron qilinadi. Noiloj qolgan Muhammad Alixon amirdan tinchlik sulhini so'raydi va amir Nasrulloxon sulhga rozi bo'lib vaziyatdan unumli foydalanmoqchi bo'ladi. Ya'ni Muhammad Alixonning akasi sulton Mahmudni unga qarshi qo'yish orqali ba'zi rejalarini amalga oshirmoqchi bo'ladi. Buning uchun Sulton Mahmudni O'ratepa yaqinidagi Urmiton viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Shu orqali Qo'qon xonligini o'z vassaliga aylantirishni maqsad qiladi. Oradan bir yil o'tib (1842/43-yilda) amir Qo'qonga qarshi qo'shin to'playdi va qayta Jizzaxga yurish boshlaydi. Muhammad Alixon vaziyatni yumshatish maqsadida amirni Qo'qonga taklif qilsa-da, ammo muzokaralar natijasiz tugaydi. Shu orada amir qo'shinlari Zomin qal'asiga

borib, uni uch kun qamal qiladi va Xo‘jandni zabt etish uchun qo‘shin yig‘adi. Muhammad Alixon esa Qo‘qonga qaytishga majbur bo‘ladi. Natijada Xo‘jand qarshiliksiz Buxoro amirligi tasarrufiga o‘tadi.

Muhammad Alixon Qo‘qonga yetib kelgach, o‘z amakisini amir huzuriga yuboradi. Xonning amakisi amirga shunday xabar yetkazadi: Muhammad Alixon amirga Xo‘jand, Toshkent va Turkistonni topshirishga, shuningdek, Farg‘ona viloyatining yillik daromadini to‘lab turishga tayyor ekanligini bildirdi. U shuningdek, xutbada amir nomi tilga olinishini ham va‘da qiladi.

Umuman olganda, amir Nasrulloxon tashqi siyosatini asosiy ikki yo‘nalishga bo‘lish mumkin. Xususan, birinchisi – Shahrisabz hududini Buxoroga bo‘ysundirish[5], ikkinchisi esa Qo‘qon xonligini to‘liq amirlik tasarrufiga o‘tkazish edi. Buni arxiv ma‘lumotlaridan ham ko‘rish mumkin. Jumladan, 1853-yil may oyida Buxoro amiri 18 ta to‘p va otliq qo‘shin bilan Shahrisabzga yurish qiladi.

Shuningdek, amir Qo‘qon xoniga Muhammad Alining o‘g‘li Muzaffarni taxtga o‘tqazishni taklif ham qiladi. Bu taklifdan haqoratlangan Xudoyorxon amir elchisining qulog‘i va burnini kesishni buyurgan. Amir o‘z elchisiga nisbatan qilingan bunday munosabatga nisbatan Xudoyorxonga qarshi harbiy yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Shu orada Xudoyorxon Perovsk (sobiq Oqmasjid) qal‘asini qaytarib olish uchun amir bilan yarashish va uning yordamini olishga urinib ko‘rdi. Biroq amir “elchi voqealari” sababli xonning taklifini rad etadi. Boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra, amir xonning so‘roviga rozilik bildirmagan bo‘lsa-da, Qo‘qon qo‘shinlarining ikki marta mag‘lub bo‘lgani haqidagi ma‘lumotlarni aniqlik kiritish maqsadida o‘z odamlaridan birini Xiva xonining Quvondaryo qirg‘og‘idagi Xo‘janiyoz qal‘asiga yuboradi. Bu qal‘a Rossiya chegarasi yaqinida joylashgan edi[6].

Qayd etish joizki, bu davrda Xorazmdagi deyarli barcha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Buxoro amirligining bevosita ishtiroki va ta‘sirini kuzatish mumkin. Birgina misol qilib tadqiqotchi olim N. Allayeva tomonidan “Firdavs ul-iqbol” asariga tayanib bergan ba‘zi ma‘lumotlaridan bilib olish mumkinki, xususan, “Firdavs ul-iqbol” asarida “... shoyad, musofirchilikda ko‘rgan g‘am-tashvishlardan xulosa chiqarib, qilgan ayblaridan pushaymon bo‘lib, tavba-tazarru qilar degan umidda Buxorog‘a uzotilgan va Buxorog‘a faroriy bo‘lg‘on (qochgan) yoki yurtdin ovora bo‘lib, Buxorog‘a borg‘on Xorazmning isyonkor amaldorlari” haqida juda ko‘p ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Muhammad Amin inoqdan keyin hokimiyatga kelgan Avazbiy inoq (1790 – 1804) qo‘shni xonliklar bilan do‘stona aloqalarni olib borish siyosatini davom ettirgan bo‘lsa-da, afg‘on shahzodasi borasida Buxoro amiri bilan ziddiyat yuzaga keladi. 1797–1798-yillarda Ahmadshoh Afg‘oniyning nabirasi shahzoda Mahmud hokimiyat uchun bo‘lgan ichki kurashlar jarayonida yordam so‘rab Buxoro xoni huzuriga kelganligi va uning Xorazmda boshidan kechirganlari ham “Firdavs ul-iqbol” asarida bayon etilib, manbada ma‘lum qilinishicha, Buxoro amiri Shohmurod shahzodaga nafaqat “qadr-u martabasiga ko‘ra izzat va ehtirom qilmay, “tutsoq” (tutqinlikda) sifatida ushlab turgan. Shahzoda Mahmud bunday muomalani ko‘rib haj ziyorati bahonasida 1799-yilda Buxorodan chiqib, Xorazmga qarab yo‘l oladi. Avaz inoq yuqori martabali amirlarini shahzodaga peshvoz chiqarib, uni katta hurmat-u ehtirom bilan kutib olgan. Shahzoda munosib manzilga joylashtirilib, har kunlik xarajati va ehtiyoji uchun yetarli mablag‘ ajratilgan hamda shohona ziyofatlardan bahramand bo‘ladi. Shu orada afg‘on sultonlaridan Shohzamon Buxoroga elchi yuborib, o‘zining raqibi bo‘lmish shahzoda Mahmudni qatl etish yoki tutib uning huzuriga yuborishni so‘raydi. Shu jihatdan, Buxoro amiri Shohmurodbiy o‘z elchisi Mullo Boltani Xorazmga yuborib, Avaz inoqdan shahzodani Buxoroga qaytarib jo‘natishlarini so‘ragan. Ammo Xiva xoni unga rad javobini berib, Buxoro elchisini achchiq gaplar bilan qaytargan. Bu holatdan ogoh bo‘lgan shahzoda Avazbiy inoqdan ruxsat olib Eron shohining huzuriga ketadi. Xiva xoni shahzodaga safar uchun lozim bo‘lgan barcha asbob-u anjomlarni berib, ma‘lum bir masofagacha kuzattirib qo‘ygan. Tehronga borib, izzat-u mehribonlik ko‘rgan shahzoda Mahmud 1800-yilda Eron shohining ko‘magida saltanat taxtini qo‘lga olishga erishgandi[7].

Shuningdek, Buxoro amiri Amir Haydarning ba‘zi ishonchsiz harakatlari Xorazm bilan munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘lgan. “Firdas ul-iqbol” asarida buni “yimroli

voqeasi” deb keltiriladi. Ya’ni Avazbiy inoq vafot etgan vaqtda katta qiymatga ega mollar olib ketayotgan Buxoro karvonining Xiva xonligi tobeligidagi bir guruh turkmanlar tomonidan talanishi edi. Ushbu hodisadan ogoh bo’lgan Buxoro hukmdori Amir Haydar o’zining elchilari Abdullohbek va Podshoh Aziz sadrni Xorazmga yuborgan. Elchilar, avvalo, Avaz inoqning vafoti munosabati bilan fothaxonlig’, ya’ni ta’ziya bildirishadi. Shundan so’ng, buxorolik tujjorlarning mollarini qaytartinishni so’rash uchun tashrif buyurishganini yashirib o’rtirmaydi. Xiva xoni, elchilarning arzlarini eshitib darhol turkman yo’lto’sarlaridan mollarni egalariga qaytarishni buyuradi. Lekin yo’lto’sarlar xonning topshirig’ini bajarishdan bosh tortsa-da, Xiva xoni mollarni egalariga qaytarishga muvaffaq bo’ladi. Afsuski, Buxoro amiri ushbu holatga qanoat qilmay Xiva xoniga o’z elchilaridan Mirzo Abdulxoliqni yuborib dahshatli so’zlar bitilgan maktub bilan xonni haqoratlaydi[8]. “Yimroli voqeasi”ga javoban Xorazm karvonining Buxoro xoniga tobe’ bo’lgan solur turkmanlari tomonidan talon-toroj qilinishi ikki o’rtadagi munosabatlarning buzilishiga olib kelgan.

Buxoro va Xiva xonlari o’rtasidagi adovat va harbiy to’qnashuvlarning asosiy kuchayishi Amir Haydar davrida kuzatiladi. Buning bir qator sabablari bo’lgan. Jumladan, unga muxolif bo’lgan ukasi, Marvda hokimlik qilib turgan Din Nosir to’ra bilan Eltuzarxon o’rtasida do’stlik va hamjihatlik aloqalarining o’rnatilishi edi. Bu haqdagi muhim ma’lumotlar ham “Firdavs ul-iqbol”da keltiriladi. Xususan, asarda bayon qilinishicha, Buxoro hukmdori Amir Haydar ba’zi fitnachilarning ig’vosiga uchib ukasi Din Nosir to’rani Marv hokimligidan olib tashlash uchun o’zining ikki mulozimini yuboradi. Bu voqealardan xabardaor bo’lgan Din Nosir to’ra mulozimlarni darhol qatl ettiradi. Albatta mulozimlarning qatl ettirilishi Amir Haydarning g’azabini keltirar edi. Buni oldindan bilgan Din Nosir to’ra asarda tavsiflanganidek, “Eltuzarxonning salobati va mahobati ovozasidan unga g’oyibona ixloskash bo’lib” Xorazmga elchi yuborgan[9]. Xiva xonining himoyasiga umid bog’lagan Din Nosir to’ra elchi yuborar ekan, 1806-yilda Marvda Eltuzarxon nomiga xutba o’qitib, tanga zarb ettirganini xabar qilgan. Shu tariqa Din Nosir to’ra Xiva xoni bilan do’stlik aloqalarini o’rnatib, elchilar yuborib, o’rtada borish-kelishni yo’lga qo’ygan edi. Ushbu voqealar natijasiga ko’ra Amir Haydarning Xiva xonligiga nisbatan dushmanlik kayfiyati yanada oshadi.

Afg’oniston bilan Buxoro amirligi o’rtasidagi asosiy munosabatlar XVIII asrdan faollashganligi kuzatiladi. Xususan bu vaqtda Afg’onistonda hokimiyatni rasmiy (1747-yili ta’sis etilgan) Durroniylar sulolasi idora qilar edi. Buxoro amirligi esa Durroniylar bilan 1753-yildan boshlab Mang’itlar sulolasi hokimiyatga kelishi bilan munosabatlarni o’rnatadi. Dastlab har ikki mamlakat o’rtasidagi munosabatlarning muhim jihatlari savdodan boshlanib, keyinchalik siyosiy jihatdan ham munosabatlar yo’lga qo’yilib borgan.

Buxoro amirligi Afg’oniston davlatlari o’rtasida o’zaro siyosiy ittifoqlar nikoh orqali ham mustahkamlanib borgan. Xususan, Do’stmuhammadxon o’zining katta o’g’li Afzalxonni Turkistonning janubiy qismiga hokim qilib yuborib, u mahalliy aholi bilan til topishishga harakat qilar ekan, shu maqsadda Do’stmuhammadxon o’z qizini Buxoro amiriga turmushga beradi. O’z o’g’lini esa Buxoro amirining qiziga uylantirib qo’ygan[10].

Amirlik va Afg’oniston o’rtasida ba’zi yerlar ustidan kelishmovchiliklar ham bo’lib turgan. Xususan, bir safar amir o’z elchisi Xoja Eshon Uronni Buxorodan Afg’onistonga yuborib, u Afg’oniston hududidagi sobiq Buxoro yerlarini qaytarishni talab qilgan. Ba’zi manbalarda bu tortishuvlar ikki davlat o’rtasida to’qnashuvlarni sodir qilgan bo’lsa-da, biroq ular o’rtasidagi ehtimoliy urush Rossiya va Britaniya talabiga ko’ra to’xtatilgan. Rossiya tashabbusi bilan Buxoroda boshlangan muzokaralar (1869-yil) natijasida ikki davlat o’rtasidagi chegara Amudaryo bo’ylab belgilab qo’yilgan[11].

Xulosa. Puslar bosqini davrida Buxoro amirligi va Afg’oniston davlati o’rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlar ularni ittifoq tuzishga olib keladi. Buning sababi shunda ediki, har ikki davlat ham buyuk imperiyalar o’rtasida kechgan “Katta o’yin”ning oddiy ishtirokchisiga aylandi. Shu bois Buxoro ham, Afg’oniston ham ikki imperiya Rossiya va Britaniya ta’siriga tushib, ularga muayyan darajada bog’liq bo’lib qoladi.

Buxoro amirligining Qo’qon, Xiva va Afg’oniston bilan bo’lgan harbiy munosabatlari va mojarolari XIX asrdagi Markaziy Osiyo siyosiy hayotining eng murakkab va ziddiyatli

jihataridan biri hisoblanadi. Qo‘qon xonligi bilan munosabatlarda asosiy tortishuv hududiy da‘volar, ayniqsa, Jizzax, O‘ratepa va Xo‘jand atroflaridagi yerlar uchun bo‘lgan. Bu mojarolar ayni paytda ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy raqobatni kuchaytirib, ba‘zi vaqtlarda ochiq harbiy to‘qnashuvlarga aylanib ketgan. Xiva xonligi bilan bo‘lgan munosabatlar ham ko‘p hollarda dushmanlik tusini olgan. Bu ikki davlat o‘rtasida Amudaryo havzasi, savdo yo‘llari va chegara hududlariga oid nizolar tez-tez yuz berib turgan. Afg‘oniston bilan munosabatlar esa o‘ziga xos geosiyosiy xususiyatga ega bo‘lib, asosan “Katta o‘yin” davrida Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi raqobat ta‘sirida shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mert O. Buhara emirinin elcisi Muhammed Parsa efendinin Istanbuldagi faaliyati. – Ankara, 1976. – S. 70; Saray M. Rus isqali devrinda Osmanli devleti ila Turkistan hanliklari arasindaki ilsiliklar. – Ankara, 1994. Say. – S.30; Турсунов Б.Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва кўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари (XIX асрнинг 70-йилларигача): Тарих фанлари номзоди ... дисс. –Тошкент: Ўз. Рес.ШИ, 2005. – Б. 21.
2. Muhammad Khakim – khan. Muntakhab al-tawarikh. Selected history. Vol.II. Y. Kawahara, K. Haneda (tls). Tokio, 2006. J.5266-527a.
3. Мухтаров А.Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в... – С. 31-32.
4. Ўз. МА, Ф.И-715, 1-жилд. – №103-дело, л.280а;
6. Ўз. МА, Ф.И-715, 1-жилд. – №103-дело, л.220а.
7. Аллаева Н. Хива хонлиги дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI-XIX асрлар). Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 169.
8. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Таржимон Ш.Воҳидов. Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б.192.
9. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол ... - Б.224.
10. Шерали и его отношения к Англии//Туркестанский сборник. Том. 296. - С.233-290.
11. Туркестанский сборник. Том 41. – С. 213. Русско-Индийский вопрос//Туркестанский сборник. Том. 33. - С.189-256.

O‘ZBEKISTONDA GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI

Xatamova Ra‘no Zafarjon qizi

O‘zbekiston FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi bo‘lim mudiri, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

xatamovar16@gmail.com

ORCID 0009-0001-2017-3481

UDK 930.2:391(093)

Annotatsiya Ushbu maqolada O‘zbekistonda gilamdo‘zlik tarixining manbashunoslik asoslari tahlil qilingan bo‘lib, gilamdo‘zlikka oid yozma, arxeologik va etnografik manbalar tizimli ravishda guruhlanib, ular ilmiy tahlil qilingan. Xususan, o‘rta asr mualliflarining asarlari, jumladan, Al-Muqaddasiy va Ibn Battuta kabi sayyoh va geograflar ma‘lumotlari, shuningdek, Abu Bakr Narshaxiyning tarixiy asarlarida uchraydigan ma‘lumotlar manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

Shu bilan birga, arxeologik topilmalar, muzey fondlari materiallari hamda XIX–XX asrga oid arxiv hisobotlari gilamdo‘zlikning hududiy xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlarini yoritishda muhim manba sifatida ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘z: gilam, to‘qimachilik, madaniy, jun, hunarmand, qimmat, naqsh.

SOURCE RESEARCH OF THE HISTORY OF CARPET WEAVING IN UZBEKISTAN.

Annotation This article analyzes sources on the history of carpet weaving in Uzbekistan, systematically grouping written, archaeological, and ethnographic sources on carpet weaving and conducting a scholarly analysis. Specifically, the source material includes works by medieval authors, including accounts by travelers and geographers such as Al-Muqaddasi and Ibn Battuta, as well as information found in the historical works of Abu Bakr Narshaxi. Archaeological finds, materials from museum collections, and archival reports from the 19th and 20th centuries are considered important sources shedding light on the territorial characteristics and stages of carpet weaving development.

Key words: carpet, textile, cultural, wool, craftsman, expensive, pattern.

Kirish. O‘rta Osiyo, jumladan hozirgi O‘zbekiston hududi qadimdan turli sivilizatsiyalar kesishgan, rivojlangan moddiy va ma‘naviy madaniyatga ega bo‘lgan hudud hisoblanadi. Xalqlarning turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati va hunarmandchilik an‘analari

tabiiy-geografik sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanib borgan.

Qadimgi yunon va rim tarixchilari asarlari O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, hunarmandchilik mashg'ulotlari va jun mahsulotlaridan foydalanish amaliyoti haqida ilk yozma ma'lumotlarni beradi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda gilamdo'zlik tarixining manbashunoslik asoslari shartli ravishda uchta davr doirasida o'rganib kelinmoqda. Birinchi guruhga ilk va o'rta asrlarga oid xitoy, arab hamda temuriylar davri yozma manbalari (Ibn Battuta, Sharafuddin Ali Yazdiy asarlari) kirs, ikkinchi guruhni XIX asr oxiri va XX asrda yashab ijod qilgan A. Felkerzam, S. Dudin hamda o'zbek qabilaviy gilamlarini tizimlashtirgan V. Moshkova kabi tadqiqotchilarning etnografik ishlari tashkil etadi. Zamonaviy bosqichda esa akademik E. Rtveldze, san'atshunoslar N.Sodiqova va M.Ashrafi kabi olimlar gilamdo'zlikni arxeologik topilmalar hamda miniatyura san'ati kesimida manbashunoslik predmeti sifatida tadqiq etishgan. Biroq, ushbu manbalarni yagona tizimga solish va naqshlardagi etnik kodlarni xronologik ketma-ketlikda tahlil qilish hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur muammoni hal etishda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga tayanildi hamda o'zaro bog'liq bir qator ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, tarixiy-qiyosiy tahlil metodi orqali turli davrlarga oid yozma manbalar solishtirilib, hududiy gilamdo'zlik maktablarining rivojlanish dinamikasi aniqlangan bo'lsa, semantik va ikonografik tahlil metodi yordamida gilamlardagi naqshlarning ramziy ma'nolari ochib berildi. Shuningdek, muzey fondlaridagi eksponatlarni o'rganishda manbashunoslik ekspertizasi hamda Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax an'anaviy markazlaridan jonli ma'lumotlar to'plashda etnografik dala tadqiqotlari metodlaridan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. O'zbekistonda shakllangan gilamdo'zlik tarixini o'rganishda manba, xisobot, esdalik, geografik sayyoxatnoma va arxiv ma'lumotlaridan olish mumkin. Shunga ko'ra manba va adabiyotlarni qo'yidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Qadimgi manbalar. Gilamdo'zlik tarixini o'rganishda eng muhim manbalardan biri qadimgi yozma manbalardir. Qadimgi mualliflar asarlarida "gilam" atamasi to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmagan bo'lsa-da, jun, to'qimachilik va maishiy yopqich buyumlarga oid tavsiflar orqali gilamdo'zlikning ilk shakllari va vazifalarini aniqlash mumkin.

Qadimgi manbalar guruhi, avvalo, antik davr tarixchilari va geografлари asarlarini qamrab oladi. Ularning asarlarida O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, jun mahsulotlaridan foydalanish va hunarmandchilik faoliyati haqida ma'lumotlar uchraydi. Ushbu manbalarda keltirilgan ma'lumotlar gilamdo'zlikning dastlab maishiy va amaliy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda shakllanganini, keyinchalik esa madaniy va estetik ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. Shu bois qadimgi yozma manbalar gilamdo'zlik tarixini ilmiy jihatdan tiklashda asosiy manbalar guruhini tashkil etadi.

O'zbekiston hududida qadimda yashagan xalqlar, ularning turmush tarzi haqida xikoya qiluvchi dastlabki manbalardan bu Gerodotning "Tarix" [1] asari xisoblanadi. Asar O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, turmush tarzi, madaniyati, o'zaro aloqalari bo'yicha muhim manbadir. Aynan Gerodotning "Tarix" asarida O'rta Osiyo halqlarining turmush tarzi va ularning mashg'uloti keng yoritib berilgan. Ayniqsa, kitobning IV qismida saklar va skiflar haqida tarixiy, etnografik ma'lumotlar keltirilib, ularning hunarmandchilik faoliyati, jumladan to'qimachilik va jun mahsulotlarini ishlab chiqarishga oid ma'lumotlar uchraydi [1;76-81]. Bundan ko'rinadiki asar gilamdo'zlik tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Gerodot o'z asarida sak va massagetlarni ko'chmanchi, asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar sifatida tasvirlasa-da, ular jun va jun mahsulotlarini qayta ishlashga asoslangan hunarmandchilik sohasi keng tarqalganligini ta'kidlaydi. Kiyim-kechak, chodir anjomlari, yerga to'shaladigan yopqichlar jundan tayyorlangan bo'lib, bu esa to'qimachilikning ilk namunalari ekanligini ko'rsatadi.

Gilamdo'zlik namunalari dastlab maishiy va xavfsizlik vazifasini bajarganini, keyinchalik esa estetik darajaga ko'tarilganini ko'rsatadi. Aynan Paziriq manzilgohidan topilgan gilam namunalari Gerodot o'z asarida tasvirlagan to'qimachilik mahsulotiga o'xshashdir.

Gerodotning "Tarix" asari O'rta Osiyo xalqlarida hunarmandchilik va gilamdo'zlik

tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda keltirilgan tarixiy-etnografik ma'lumotlar gilamdo'zlik sohasi O'rta Osiyo moddiy madaniyati taraqqiyotida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Ya'na bir O'rta Osiyo halqlari haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalardan Strabonning "Geografiya" [2] asari hisoblanadi. U asarida O'rta Osiyo hududida joylashgan Baqtriya, Sog'diyona, Marg'iyona, Xorazm davlatlari va undagi halqlarning turmush tarzi, an'analari haqida ma'lumot berib o'tadi.

Uning ma'lumotlariga ko'ra, bu hududlarda sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Buning natijasida esa aholi barqaror turmush tarzi va iqtisodiy mustaqil davlatlar bo'lgan [2;484]. Ana shu iqtisodiy barqarorlik hunarmandchilikning, jumladan to'qimachilik va gilamdo'zlikning taraqqiyotiga asos bo'lgan.

Strabonning asarida turli hil hunarmandchilik sohalari haqida ma'lumotlar uchraydi. Shular orasida to'qimachilik, kiyimlarga turli rang va bezak berish kabi sohalar mavjudligini ko'rishimiz mumkin [1;485-486]. Bundan ko'rinadiki gilamdo'zlik sohasini rivojlanishi uchun aynan shu sohalari zamin yaratib bergan.

Strabon asarida gilamdo'zlik sohasini to'g'ridan-to'g'ri keltirmaydi. Ammo uning ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, gilamdo'zlikning dastlabki namunalari bor bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, u mahalliy aholining kiyim-kechagi, uy-joy madaniyati va turmush tarziga to'xtalar ekan, mato va jun mahsulotlaridan keng foydalanilganini ko'rsatadi. Bu esa gilamdo'zlikning rivojlanish bosqichi hisoblanadi.

O'rta Osiyo iqlimi ya'ni qishning sovug'i, yozning issiq bo'lishi uy-joylarda issiqlik beruvchi va saqlovchi buyumlarga ehtiyojni oshirgan. Shundan bilishimiz mumkinki dastlab gilamlar faqat bezak emas, balki maishiy ahamiyatga ega buyum sifatida ishlatilgan.

Strabon ya'na savdo yo'llarida O'rta Osiyo to'qimachilik buyumlari ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydi. So'g'diyona orqali o'tgan savdo yo'li to'qimachilik mahsulotlarining tashqi bozorga chiqishini ta'minlagan [1;488]. Bu esa gilamdo'zlik mahsulotlarining nafaqat maxalliy xalq ehtiyoji, balki eksport ahamiyatiga ega bo'lganini anglash mumkin.

Arrianning "Aleksandrning yurishlari" [3] asari Aleksandr yurishlarini, xarbiy mahorati, askarlari va diplomatik aloqalari haqida keltirilgan. Aleksandr Makedonskiyning Baqtriya va So'g'diyonadagi harbiy yurishlarini bayon etar ekan, bu hududlarni rivojlangan shahar madaniyatiga ega o'lka deb keltiradi [3].

U Moraqand, Baqtriya, Navtaka kabi shaharlarni mustahkam qal'alar bilan o'ralgan, aholisi ko'p va rivojlangan markaz deb keltiradi. U Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlar davomida askarlarni qishloq hududlarida joylashgan mahalliy aholi uylariga yashaganligi haqida ma'lumot beradi. Mahalliy aholining turmush tarzi, harbiylar va zodagonlarning yashash muhiti keltirib o'tadi. Uning ma'lumotiga ko'ra uy-joylar ichi to'shama va yopqich buyumlar bilan jihozlanganligini va asosan tabiiy jun mahsulotlari keng qo'llanganligini bayon qiladi.

Shuningdek, u harbiy yurishlar davomida qo'lga keritilgan o'lja va boyliklar orasida jun, mato va qimmatbaho buyumlarning mavjudligini aytib o'tadi.

Bundan ko'rinadiki O'rta Osiyoda gilamdo'zlik namunalari Aleksandr davridan oldin ham mavjud bo'lga. Xarbiy yurishlar esa bu sohaning keng tarqalishiga sharoit yaratgan.

2.O'rta asrlar tarixiga oid manbalar. O'rta asr yozma manbalari gilamdo'zlik tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, shahar madaniyati va hunarmandchilik an'analari haqida ma'lumot beradi.

O'rta asr manbalar guruhi, avvalo, arab va musulmon geograflari hamda tarixchilari asarlarini qamrab oladi. Ularning asarlarida Movarounnahr va Xuroson shaharlarida to'qimachilik, jun va ipak mahsulotlari ishlab chiqarish, bozorlar va savdo munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Bundan ko'rinadiki gilamdo'zlik sohasi uzluksiz rivojlanib borgan.

Saroy hayoti, bayram va marosimlarda qo'llanilgan nafis gilamlar, shuningdek, savdo yo'llari orqali tarqalgan to'qimachilik mahsulotlari gilamdo'zlikni O'rta Osiyo moddiy madaniyati taraqqiyotining muhim sohasi ekanligini namoyon qiladi.

IX — X asrlarda Arab xalifaligida, umuman, islom dinini qabul qilgan turli xalqlar orasida ilm-fan, savdo aloqalari, madaniy aloqalar gurkirab rivojlangan edi. Ayni shu davrda islom dunyosida tavsifiy geografiya yunalishida arab tilida kuplab asarlar yozildi. Bu asarlarni yozishdan asosiy maqsad islom dunyosining iqlimlari, ya'ni turli qismlarining geografik xaritalarini tuzish va ularni tavsif qilish edi.

Aynan o'rta asrlarda ya'ni X asrda yashab ijod qilgan Al-Istaxriy mashhur musulmon geograflaridan biridir [4;12]. U "Kitob al-masolik val-mamolik"[5] asarida Movarounnahr va Xuroson shaharlarini hususan, Buxoro, Samarqand, Choch, Farg'ona, Xorazm shaharlarini iqtisodiy-madaniy markazlar sifatida ta'riflaydi. O'z asarida shahar mahallalari, axoli turmush tarzi, hunarmandchilik maskanlari, bozorlari va mahsulot turlari haqida bayon qiladi. Shahar iqtisodiyotining asosiy tayanchi sifatida hunarmandchilik, to'qimachilik, jun va ipak mahsulotlari ko'rsatiladi.

Al-Istaxriy asarida Movarounnahr shaharlari hunarmandchilik mahsulotlari bilan tashqi savdoda faol bo'lganligini aytib o'tadi. Bular orasida to'qimachilik jun va ipak mahsulotlari borligini xam keltiradi. Bu ma'lumotlar gilamdo'zlik sohasini o'rta asrlarda ham uzluksiz rivojlanib borganini ko'rsatadi.

Ya'na bir o'rta asrlar tarixi xaqida ma'lumot beruvchi arab olimi Al-Muqaddasiy «Axsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim» asarida Buxoro, Samarqand, Marg'ilon [6;147], Termiz [7;137] kabi shaharlar haqida ma'lumot berib o'tadi. Bu shaharlar Movarounnahrning yirik hunarmandchilik markazlari bo'lganligini aytib o'tadi. Muallif ushbu shaharlarda sifatli to'qima buyumlar, jumladan gilamlar ishlab chiqarilganini qayd etadi. Uning ma'lumotiga ko'ra, Chag'oniyon shahrida chiroyli va usti yopiq bozor bo'lgan [7;132]. Bu yerda esa turli hunarmandchilik mahsulotlari sotilgan.

Ibn Havqalning «Surat al-arz» asari butun musulmon davlatlari tarixiga oid manbadir. Aynan Movarounah hududida joylashgan davlatlar haqida xikoya qiluvchi qismi Sh.S.Kamoliddinov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, unda keltirilishicha Ibn Havqal X asrda yashab ijod qilgan. Asarda turli viloyatlarning aholisi, tabiiy boyliklari, dehqonchilik mahsulotlari, chorvachiligi, ishlab chidarish va savdo-sotiq mollari xaqida ma'lumotlar bor [8;6]. Movarounah shaharlarining joylashuvi, aholisining turmush tarzi va madaniyati kent yoritib berilgan.

Asarda Movarounah aholisi haqida umumiy ta'rif berar ekan "kiyimlar ko'p. Ularda o'z extiyojlaridan ortik darajada jun, ipak, paxta tolasidan kilingan nafis karbos matolari va buz matolari mavjud" ekanligini ketiradi [8;16]. Bu esa gilamdo'zlik sohasini rivojlanib borishiga sharoit yaratib bergan

Ibn Havqal ma'lumotlari arxeologik va etnografik tadqiqotlar bilan uyg'un holda, O'rta Osiyo moddiy madaniyati tarixini tiklashda juda muhim ahamiyatga ega.

Ya'na bir o'rta asrlar tarixi haqida xikoya qiluvchi manbalardan Al-Muqaddasiyning "Axsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim" [9] asari bo'lib, asar 985-yil yozilgan. Unda Movarounnahr shaharlari - Buxoro, Samarqand, Marg'ilon, Termiz kabi markazlar keltiriladi. U bu shaharlarda hunarmandchilik, ayniqsa to'qimachilik sohasi shahar iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lganini ta'kidlaydi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan jun va mato mahsulotlari sifat jihatidan yuqori bo'lganligi va savdo sotiq aloqalarida muhim o'rin tutganligini ta'kidlaydi.

Al-Muqaddasiy asarida O'rta Osiyo shaharlarining ichki va tashqi savdoda faol ishtirok etgani ta'kidlanadi. Ayrim shaharlarda ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari boshqa hududlardan topilganini aytib o'tadi. Bu esa gilamdo'zlik mahsulotlarining faqat mahalliy ehtiyoj uchun emas, balki savdo mahsuloti sifatida ham qimmatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Demak, Al-Muqaddasiy ma'lumotlariga ko'ra gilamdo'zlik sohasi o'rta asrlarda barqaror rivojlanganligi va iqtisodiy ahamiyatga ega hunarmandchilik sohasi bo'lganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo xalqlari haqida yana muhim manbalardan Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" [10] asari hisoblanadi. Bu asarda xalqlarni turmush tarzi, bayramlari, kun va oylar ta'rifi va yil fasllari bilan bog'lik qishloq xo'jalik ishlari ya'ni jun olish, paxta terish, ipakchilik haqida bayon etadi. Shu bilan birga bayramlar va qabul marosilari xaqida bayon qilganda

marosim bezaklariga ham to'xtaladi. Mehrjon bayrami haqada shunday keltiradi: "Mehrjonda odamlar bir-birlariga muattar hidli narsalar va zardo'zi bezaklar sovg'a qilardilar. Saroylarda esa bu bayram munosabati bilan eng sara va nafis to'qilgan poyandozlar to'shalar edi" [10;254]. Bayram kunlari hukumdorlar oldida qimmatbaxo to'qimachilik buyumlari to'shalganligi aks ettiradi. Bu hukumdorlarning mavqeni bildirib, davlatni farovonligini ko'rsatgan [10;214]. Aynan jun va to'qimachilik mahsulotlari haqida ma'lumot beradi.

Beruniy o'z asarida Markaziy Osiyo va Eron halqlarida jun va paxta maishiy xayotda ko'p ishlatilishini va ulardan to'qimachilik buyumlari tayyorlanishini aytib o'tadi [10;214-215]. U ya'na qadimgi halqlar haqida ma'lumot berganda to'qimachilik mahsulotlarini naqshlari va bezaklariga ham to'xtalib o'tadi. Ular shunchaki naqsh emas balki halqlarning ma'naviy dunyo qarashi deb keltiradi [10;201]. Xorazmiylar va so'g'diylarning gilam namunalari to'xtalar ekan, ularda qizil va sariq ranglar ko'p qo'llanishini aytib o'tadi. Bu esa quyosh va olovga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan [10;248].

Umuman olganda Beruniy qadimgi halqlarni o'rgangan holda gilamdo'zlik shunchaki buyum emas, halqlar ma'naviyati maxsul ekanligi aytadi.

O'rta asrga oid ya'na bir muhim manbalardan yuri bu Abu Ja'far Narshaxiyning «Buxoro tarixi» (X asr) asaridir. Markaziy Osiyoda, xususan, Buxoroda to'qimachilik va gilamdo'zlik san'ati yuksalganligi haqida ma'lumot beradi. U o'z asarida "Baytut-tiroz" ya'ni davlat to'qimachilik ustaxonasiga keng to'xtalib o'tadi. Bu yerda to'qimachilik mahsulotlari chiqazilar edi. Uning aytishicha "Baytut-tiroz"da tayyorlangan mahsulotlar mashhur bo'lgan. "Bu kiyimlikka ega bo'lmagan birorta ham podshoh, amir, rais yoki boshqa mansab egasi yo'q edi" [11].

Hattoki "Baytut-tiroz"da tayyorlangan mato, kiyim, parda, to'qimachilik mahsulotlari shunchalar betakror bo'lganligidan Bag'dod xalifalariga hiroj o'rniga yuborilgan [12;13].

"Buxoro qishloqlarida to'qilgan mato va gilamlarning shuhrati Shom (Suriya) va Misrgacha yoyilgan edi. Boshqa shaharlarda ularga o'xshatib to'qishsa-da, Buxoronikidek sifatli chiqmasdi" [12;13].

Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari Beruniyning «Osor ul-boqiya» asarini to'ldiradi. Beruniy bayramlar va ramzlarning ma'naviy tomonini yoritgan bo'lsa, Narshaxiy esa gilamdo'zlikning amaliy va iqtisodiy tomonlarni rivojlanib borganini yoritib berdi.

XIV asr shaharlari va xalqlarining turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi ya'na bir manba Ibn Batutaning «Sayyohatnoma» [13] asari bo'lib, unda o'sha davr muhiti, saroy hayoti, turli bayram va marosimlar haqida ma'lumotlar uchraydi.

Ibn Batuta o'z asarida hukumdorlarning hayoti xaqida so'z yuritir ekan, ularning saroyi va qabul marosimlariga to'htaladi. Saroydagi o'ziga hos gilamlar va to'qimachilik buyumlariga alohida to'xtaladi [14;81]. Bu saroy bezaklari hukumdorlarning nufuzi va boyligi xaqida ma'lumot beradi [13;145-147].

U o'z sayyohati davomida hunarmandchilik mahsulotlari, jumladan to'qimachilik buyumlarini juda yuqori baholaydi [13;201-204]. Shu sababdan ham to'qimachilik mahsulotlari savdoda muhim ahamiyatga ega bo'lgan [15;312-315].

Marko Poloning "Sayohatlar kitobi" [16] xam Osiyo davlatlari tarixi, madaniyati va turmush tarzi haqida so'zlovchi manbalardandir. U o'z asarida Osiyo xalqlari haqida bayon qila turib, ularni "hashamatli" bezaklari deb aytib o'tadi [16;XIV] xattoki salib yurishida qatnashgan risarlar ilk marotaba bunday hashamatli bezaklarga ega gilamlarni ko'rganini bayon qiladi [16;XV].

Marko Polo sayohati davomida ko'rganlarini so'zlar ekan, saroylar, boy uylar va hukmdor qarorgohlarining ichki ko'rinishini o'zgacha did va hashamat bilan bezak berilganini, nafis va qimmatbaho buyumlar saroy bezagida muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.

Saroydagi nafis gilamlar faqat maishiy buyum emas, balki hukumdorlarning nufuz, boylik va hokimiyatini belgilagan. Gilamlar faqat saroy bezagi sifatida emas, marosimlarda, elchilik aloqalarida sovg'a sifatida ham taqdim etilgan.

Turkman gilamlariga alohida to'xtaladi. "Bu yerda eng yahshi va eng chiroyli gilamlar, shuningdek qizil va boshqa rangdagi ajoyib matolar va boshqa ko'plab matolar to'qilgan" [16;18].

3. Rasmiy hujjatlar. (O'zbekiston milliy arxivi xujjatlari). O'zbekiston gilamdo'zlik tarixi manbashunosligida rasmiy hujjatlar ishonchli manbalardan hisoblanadi. Ularda gilamdo'zlikning an'anaviy uy-hunarmandchilik shaklidan ma'muriy tartibga solinadigan, keyinchalik esa kooperativ va sanoat tarmog'iga aylanish jarayoni bosqichma-bosqich aks etgan. Qarorlar, farmoyishlar, raportlar, smeta va statistik hisobotlar orqali sohaning tashkil etilishi, xomashyo ta'minoti, ishlab chiqarish hajmi va eksport yo'nalishi haqida aniq ma'lumot olish mumkin.

O'zbekiston Milliy arxivida (keyingi o'rinlarda O'zMA) saqlanayotgan Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi, viloyat boshqarmalari va shahar ma'muriyatlariga oid raport, protokol va telegrammalar gilamdo'zlikning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi holatini hujjatli tarzda yoritadi. Ularda ustaxonalar tashkil etish tashabbuslari, mahalliy bozorda narx-navo o'zgarishi, xomashyo ta'minoti va ko'rgazmalar haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu manbalar gilamchilikning uy-sharoitidagi ishlab chiqarishdan ma'muriy tartibga solinayotgan tarmoqqa aylanish jarayonini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular rasmiy idora nuqtai nazarini aks ettirgani uchun tanqidiy tahlil talab qiladi.

Masalan, O'zMA arxiv xujjatlarining I-18 fondida Turkiston general-gubernatorligi Kanselyariyasida gilam ishlab chiqarishni yaxshilash va rivojlantirish masalasi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish bayonnomasi (protokol) berilgan. Unda general-mayor V.A. Mustafin raisligida mahalliy ma'murlar, mutaxassislar va mahalliy savdogarlar ishtirok etganligi haqida xujjat mavjud. Shuningdek, I-19 fondidagi manba Farg'ona viloyati harbiy gubernatori tomonidan Turkiston general-gubernatori kanselyariyasiga yuborilgan rasmiy yozishma hisoblanadi (1910 yil iyun'). Unda Turkistonda gilam ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlanadi. Gilamchilik jahon bozorida talabga ega ekani va mahalliy aholi uchun asosiy daromad manbai ekani ko'rsatiladi.

Qo'llab-quvvatlash choralari sifatida hududiy ko'rgazmalar o'tkazish, eng yaxshi gilamlarga pul mukofoti berish hamda jun va o'simlik bo'yoqlari omborlarini tashkil etish taklif qilingan.

Ya'na bir qimmatli hujjatlar turkumiga kiruvchi I-22 fondida Samarqand viloyatiga qarashli Katta-Qo'rg'on uezdi boshlig'ining rasmiy raporti hisoblanadi. Unda uezd hududida gilam to'qish asosan mahalliy aholi tomonidan shaxsiy ehtiyoj uchun amalga oshirilishi qayd etilgan.

Uch turdagi gilam ishlab chiqarilishi, ishlab chiqarish hajmi va ayollarning (taxminan 25 foizi) yakka tartibda shu hunar bilan shug'ullanishi ko'rsatilgan.

Gilamchilikni qo'llab-quvvatlash uchun arzon jun va bo'yoqlar bilan ta'minlash, har bir volost'da nazoratchilar tayinlash va mahalliy naqshlarni saqlagan holda ishni takomillashtirish taklif qilingan.

O'zMAning R-3 fondida O'rta Osiyo respublikalarida gilam sanoatining sovet davridagi holati bayon qilingan. 1917 yildan keyin gilamchilik sohasida yangi bosqich boshlangani, ayniqsa kustar-hunarmandchilik artel'lari tashkil etilishi orqali tarmoq tiklangani ta'kidlanadi. Gilamchilikning rivojlanishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, xususan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot bilan bog'liq ekani ko'rsatiladi. O'rta Osiyo xalqlarida gilamchilik qadimiy an'anaga ega bo'lib, turkman gilamlari sifat jihatidan alohida e'tirof etilgan.

O'zMAning R-91 fondida O'zbekiston SSRda gilamchilikni davlat tashabbusi bilan rivojlantirish choralari bayon etilgan. Asosiy masala sifatida kustarlarni xom ashyo bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni rejalashtirish va gilam-palaslarni eksport qilishni yo'lga qo'yish ko'rib chiqiladi. 1920–1980-yillarga oid qarorlar, farmoyishlar, smeta va hisobotlar gilamdo'zlikning kooperativ-artel tizimiga o'tkazilishi, fabrikalar tashkil etilishi va eksport rejaları belgilab borilganini tasdiqlaydi. Gosplan, Mahalliy sanoat vazirligi va Savdo organlari materiallari orqali xomashyo kvotalari, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy hisob-kitoblar aniq ko'riladi. Bu hujjatlar gilamdo'zlikning an'anaviy hunarmandchilikdan rejali iqtisodiyot sharoitidagi sanoat tarmog'iga aylanishini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. O'zMAning R-837 fondida 1974 yil Olmaliq shahrida gilam ishlab chiqarish fabrikasi qurish bo'yicha loyiha tasdiqlanganligi to'g'risidav farmoyish uchraydi. Fabrika qurilishi uchun belgilangan

smeta xarajatlari va tegishli tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgani keltirilgan.

Shuningdek, avval qurilayotgan elektr o'yinchoqlar zavodi direksiyasi gilam fabrikasi direksiyasiga aylantirilishi belgilangan.

Milliy arxiv fondlarida saqlanayotgan yillik hisobotlar, ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotlar statistik tahlil qilish uchun muhim manbadir. O'zbekiston Milliy arxivi manbalari gilamdo'zlik tarixini ma'muriy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'rganish uchun ilmiy asos bo'la oladi.

Xulosa va takliflar. Gilamdo'zlik tarixi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu hunarmandchilik sohasi insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan uzviy bog'liq holda shakllangan va rivojlangan. Gilamdo'zlik sohasi uzluksiz rivojlanib borganligi, uning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Manbalarning turli davr va turli yo'nalishga mansubligi ushbu sohani keng tadqiq etishni taqozo qiladi. Shu bois gilamdo'zlik tarixi oid manbalarini shakllantirish va yangi arxiv materiallarini ilmiy muomalaga kiritish kelgusidagi tadqiqotlar uchun dolzarb vazifa xisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Геродот. Тарих. - М.: Наука, 1972.
2. Страбон. География. - М.: Мысль, 1964.
3. Арриан. Походы Александра. - М.: Наука, 1981.
4. Р.Т.Худайбергенов// Истахрийнинг «Китаб ал-масалик вал-мамалик» асари (илмий-изоҳли таржима ва тадқиқот)//- автореферат, Т.2020.
5. Ал-Истахрий. Китоаб ал-масолик вал-мамолик. — Лейден, 1870.
6. А.Р. Муҳаммаджонов/ Марғилон-Марғинон номининг маъноси ҳақида/ Марғилон шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари Тошкент. Фан. 2007.
7. С.Н.Турсунов (ва бошқалар)/.Сурхондарё воҳасида моддий маданият тарихи //- Тошкент: "Muharrir" нашриёти, 2013.
8. Ибн Ҳавқал, Мовароуннахр/ араб тилидан тарж., изоҳуар муаллифи Ш.С.Камолиддин. Т. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011.
9. Ал-Муқаддасий "Ахсан ат-тақосим фи маърифат ал-ақолим".
10. Беруний А.Р. Осор ул-боқия. – Тошкент: Ўзбекистон, 1968.
11. Наршахийнинг «Бухоро тарихи» Форс тилидан А. Расулев таржимаси Масъул муҳаррир А. Ўринбоев.
12. Ишанова М. Ўзбекистон музейларининг маданий маърифий фаолияти
13. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. — Тошкент: Фан, 1966.
14. Ибн Батута. Сайёҳатнома (Рихла). — Тошкент: Фан, 1993.
15. Дехқонов Ж. Франция Ўзбекистон санъати билан танишмоқда // Халқ сўзи, 1998-йил 7-февраль.
16. The Travels of Ibn Battuta, Translated with notes by H. A. R. Gibb, Cambridge, 1958–1961.
17. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. — Москва, 1963.
18. Марко Поло. Саёҳатлар китоби. — М.: Географгиз, 1955.
19. Ўзбекистон Миллий архиви.

**YOSHLARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY
ONGNING O'RNI****Abbos Do'lanov**

Qarshi davlat universiteti dotsenti

falsafa fanlari nomzodi

dulanovabbos184@gmail.com

ORCID 0009-0000-8596-2935

UDK 37.013.75

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning muhim jihatlari to'g'risida mulohaza yuritilib, bu jarayonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning muhim ahamiyat kasb etishi atroflicha tahlil qilingan. Yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda huquqiy ong asosiy poydevor vazifasini o'tashi, shu bois huquqiy ongni shakllantirish zamonaviy ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalaridan sanalishiga e'tibor qaratilgan. Zero, huquqiy ongi shakllangan yoshlar buzg'unchi kuchlarning ta'siriga tushib qolmaydilar, o'z harakatlarining qonuniy oqibatlarini tushunib yetadi, shuningdek, har qanday axborotni shunchaki qabul qilmasdan, balki uni qonuniylik va adolat mezonlari asosida tahlil qila oladi. Huquqiy ongi baland shaxs ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaydi va ularga o'z mustaqil munosabatini bildiradi. Maqolada yoshlarda huquqiy ongni yuksaltirish orqali ularning jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan erkin shaxsni tarbiyalash mumkinligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, shaxs mustaqilligi, demokratik jamiyat, hokimiyat, adolat, mas'uliyat, erkinlik, Konstitutsiya talablari, qonun, inson huquqlari, huquqiy kamolot.

**THE ROLE OF LEGAL AWARENESS IN FORMING INDEPENDENT THINKING
IN YOUNG PEOPLE**

Abstract. This article offers a thoughtful reflection on the key aspects of fostering independent thinking among young people, with particular emphasis on the crucial role of legal awareness and legal culture in this process. It provides a comprehensive analysis of how legal consciousness serves as a foundational pillar in shaping independent thought, highlighting that cultivating such awareness is one of the central objectives of modern education and upbringing. Indeed, young individuals with a well-developed sense of legal awareness are less susceptible to destructive influences. They are capable of understanding the legal consequences of their actions and, importantly, do not accept information uncritically; instead, they evaluate it through the principles of legality and justice. A person with a high level of legal consciousness does not remain indifferent to social issues and is able to express an independent and reasoned stance on them. The article ultimately argues that by enhancing legal awareness among youth, it is possible to nurture free, self-reliant individuals who can confidently find their place in society.

Key words: legal consciousness, legal culture, personal independence, democratic society, authority, justice, responsibility, freedom, requirements of the Constitution, law, human rights, legal maturity.

Kirish. Yangi O'zbekistonda huquqiy davlat, insonparvar demokratik jamiyat qurish yo'lida katta o'zgarishlar, salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi jamiyatning mustahkam poydevori barpo etilmoqda. Ayniqsa, mamlakat kelajagining bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni har jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunda ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, qonun ustuvor bo'lgan demokratik jamiyatni mustaqil tafakkurga ega bo'lgan shaxslar barpo etadi. Shaxs mustaqilligini ifodalovchi muhim alomatlardan biri huquqiy kamolotdir. Inson huquqiy kamolotga yetmog'i uchun esa o'z haq-huquqlarini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Bunda ularning "huquq" va "qonun" tushunchalarining mazmun va mohiyatini, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'ziga xoslikni tushunib olmog'i muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, avvalambor, tarbiya va muhit bilan bevosita bog'liqdir"[1;].

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi. Yoshlarda mustaqil fikrni shakllantirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois ushbu masala yuzasidan xorijiy mamlakatlarda va yurtimiz olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, risola va maqolalar nashr qilingan. Shunday bo'lsa-da, ushbu masala mohiyati to'lig'icha o'z yechimini topgani yo'q. Bu muammoning o'ziga xos jihatlari to'g'risida mulohaza yuritish mamlakat taqdiriga befarq bo'lmagan har bir tadqiqotchining vazifasidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618- sonli Farmoni metodologik asos vazifasini bajaradi.[2; 253-b].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizni dunyoning rivojlangan davlatlaridan biriga aylantirish, xalqimiz turmushini yanada farovonlashtirish eng oliy maqsad sifatida belgilangan ekan, bu maqsadga erishishning asosiy vositalaridan biri – bu yoshlarga alohida e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga yuksak darajada ta‘lim-tarbiya berishdir. Ayniqsa, yoshlarda mustaqil fikrlash salohiyatini yuksaltirish, ulardagi erkin fikrni rag‘batlantirish ota-onalar, ustoz-murabbiylar zimmasidagi eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Zero, yurt koriga hamisha o‘z fikriga ega bo‘lgan, qat‘iyatli, jasur insonlar yaran va bundan keyin ham shunday bo‘ladi. Fikr erkin bo‘lmas ekan, mustaqil mushohada yuritilmas ekan, har qanday maqsadning ro‘yobga chiqishi dargumon. “Fikriy yakranglik har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun xatarli holatdir”.[10;6-b]

Ayniqsa demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi islohotlar izchil davom ettirilayotgan yurtimizda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “bugungi kunda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni huquqiy jihatdan xabardor etish, qonun ustuvorligini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan”.[4; 126-b.] Huquqiy ongning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri muayyan jamiyatdagi huquq me‘yorlarni bilish va ularning mazmun-mohiyatini tushunishdan iborat. Tushunish murakkab fikrlash jarayoni bo‘lib, u ma‘lum darajada axborotni qayta ishlashni talab etadi. Tushuncha hosil qilish uchun tafakkurda taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish, mavhumlashtirish kabi mantiqiy amallar bajariladi. Esda saqlash va tushunish tanqidiy fikrlashning zaruriy shartidir.

Mustaqil va tanqidiy fikrlash tushunarli bo‘lgan g‘oyalarni tekshirish, tahlil qilish, baholash, rivojlantirish va tatbiq etish jarayonida vujudga keladi. Huquqiy tafakkur voqelikni umumlashtirib, tushuncha, hukm va xulosa shakllarida aks ettirish qobiliyatidir. Fikrlash jaryonida hosil bo‘layotgan tushunchalar, hukmlar va xulosalar o‘rtasida muayyan mantiqiy bog‘lanishlar yuzaga keladiki, tafakkur madaniyati ana shu qonun-qoidalariga amal qilishni taqozo etadi.[8;46-b]

Tanqidiy tafakkur har doim mustaqildir. Har bir kishi o‘ziga xos tarzda fikrlaydi. Shuning uchun ham tanqidiy tafakkur individual xarakterga ega. Mustaqil fikrlovchi yoshlar har qanday ma‘lumotni tahlil qiladi va unga tanqidiy yondashadi. “Bizning erkinligimizning birinchi tamoyili – bu mustaqil qaror qabul qilish erkinligidir”.[7; - S. 235.] – deydi italiyalik mutafakkir Dante Aligyeri. Ana shunday yoshlar safining tobora kengayib borishi, bir tomondan, islohotlar natijasini ko‘rsatsa, boshqa tomondan, bu o‘zgarishlar samaradorligiga mustahkam zamin yaratadi.

Yoshlar – davlatning intellektual va siyosiy salohiyatini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. Agar ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, demokratik jamiyatni barpo etish, qonun ustuvorligini ta‘minlash va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash qiyin bo‘ladi. Jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish har bir fuqarodan, ayniqsa yoshlardan huquqiy savodxonlikni talab etadi. Shu bois, yoshlar ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish zamonaviy taraqqiyot talabidir.

Yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda huquqiy ong poydevor vazifasini o‘taydi. Mustaqil fikr nafaqat shaxsiy qarash, balki mas‘uliyat va qonun ustuvorligini anglash bilan uzviy bog‘liqdir. Huquqiy ong – intellektual erkinlikning asosidir. Huquqiy ongi va madaniyati shakllangan shaxsgina erkinlik – bu xohlagan ishni qilish emas, balki qonun doirasida harakat qilish ekanini anglab yetadi. Huquqiy bilimga ega bo‘lgan yoshlarda mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati kuchli bo‘ladi. Ular jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarga shunchaki tomoshabin emas, balki ularga huquqiy jihatdan baho beruvchi subyekt, ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisidir. Huquqiy ong qanchalik yuqori bo‘lsa, shaxs boshqalarning fikriga ko‘r-ko‘rona ergashishdan

shunchalik yiroq bo'ladi. Eng muhimi, o'z haq-huquqlarini bilgan kishi tashqi ta'sirlarga berilmaydi, turli manipulyatsiyalarga aldanmaydi. Har qanday masala yuzasidan o'zining mustahkam shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'ladi. Ayniqsa bugungi axborot xuruji avj olgan zamonda huquqiy ong o'ziga xos "immunitet" vazifasini o'taydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni huquqiy va axloqiy jihatdan saralay oladi.

Huquqiy ongi shakllangan shaxs qaror qabul qilganda huquqiy oqibatlarini oldindan ko'ra biladi. Muammolarga yechim izlashda hissiyotlarga berilmasdan, qonuniy asoslarga tayanadi.

Huquq jamiyat a'zolarining erkinliklarini ro'yobga chiqarishning muhim shartidir. Agar inson o'zi yashayotgan, o'zi ishlayotgan jamiyatda erkin faoliyat ko'rsatishni istasa, u o'z erkinligini boshqalarning ham erkin bo'lishi uchun ma'lum ma'noda chegaralashi darkor. Xuddi shu holat huquqiy munosabatlarning namoyon bo'lishidir. Huquq shuning uchun ham muqaddaski, u erkinlikning zohir bo'lishidir. Ya'ni, erkinlik huquqda o'z ifodasini topsa, tartib-intizom qonunda rasmiylashtiriladi. Shuning uchun ham qayerda erkinlik chinakamiga reallikka aylangan bo'lsa, o'sha yerda inson huquqlari kafolatlangan bo'ladi. Faqatgina chinakam huquq insonning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun real imkoniyatni vujudga keltiradi, o'z navbatida, chinakam huquq oddiy fuqarodan tortib oliy darajadagi boshliqlargacha har xil tazyiqlardan himoya qiladi, Boshqacha aytganda, chinakam huquq amalga oshishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni o'ziga o'zi yaratadi, har qanday o'zboshimchaliklardan, zo'ravonliklardan o'zini o'zi himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Turli bosh-boshdoqliklardan o'zini o'zi eson-omon saqlab qoladi.

Huquq mas'uliyatsiz, mas'uliyat esa huquqsiz yashay olmaydi, bularni birini ikkinchisidan ajratish mumkin emas. Chunki huquqsiz mas'uliyat qullik, tobelik bo'lsa, mas'uliyatsiz huquq esa boshboshdoqlikdir. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, mas'uliyat huquqqa tayanmog'i lozim. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kimki hech qanday huquqqa ega bo'lmasa, unda hech qanday mas'uliyat bo'lmaydi va aksincha. Deylik, kimningdir ota bo'lish oila a'zolari oldidagi mas'uliyatdir. Ushbu mas'uliyat nafaqat bolalarni tinglashni, balki ularni erkin kishilar qilib tarbiyalash huquqi otada mavjud ekanligidan ham dalolat beradi. Har qanday jamiyat, har qanday davlat o'zining huquqiy normalariga ega bo'ladi. Tabiiyki, bunday normalarga hokimiyatning ta'siri sezilib turadi va jamiyatda tartib-intizom o'rnatishga qaratilgan bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganidek, jamiyatda tartib-intizom o'rnatishga qaratilgan munosabatlar turli qonunlarda o'z ifodasini topadi. Ushbu qonunlarda nimani qilish, nimani qilmaslik, nimaga aralashmaslik zarurligi ko'rsatib beriladi. Qonunsiz hech qayerda, hech qanday jamiyatda, hech qanday davlatda tartib-intizom bo'lmaydi. Bu barchaga ayon haqiqatdir.

Huquqan kamolotga yetgan kishi qonunlarning ma'no-mazmunini chuqur, har tomonlama tushunib yetmog'i lozim. Xo'sh, shunday ekan, qonun nima? Qonun – ma'lum bir kishiga qaratilmagan, yakka shaxsning fikr-mulohazasi yoki istak-xohishiga bog'liq bo'lmagan, lekin barcha tomonidan e'tirof etilgan huquqiy qoidalar yoki ta'riflardir. U ma'lum bir sharoitdagi, ma'lum bir munosabatlardagi majburiyat tushunchasidir. Umumiylik manfaati bilan xususiy erkinlik o'rtasidagi muvozanatdir.

Qonun voqealar o'rtasidagi zaruriy munosabatlarning barqaror takrorlanib turishi, zamonda ro'y bergan o'zgarish inson turmush tarzining ayrim jabhasiga taalluqlilarning tartibi va yo'nalishining ifodasidir. Qonunlar o'ziga xos, maxsus yoki barcha sferasiga taalluqli, umumiy bo'lishi mumkin. U Konstitutsiya asosida qabul qilingan, davlat hokimiyati oliy organining me'yoriy hujjatlaridir. Qabul qilingan me'yoriy qonunlar Konstitutsiya talablariga mos bo'lgandagina huquqiy kuchga ega bo'ladi. Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan qabul qilingan barcha qarorlar esa qonun doirasida bo'lishi shart.

Ma'lumki, "huquq" va "davlat" g'oyalari biri ikkinchisi bilan uzviy aloqadordir. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyotning guvohlik berishicha, "huquq" – g'ayriinsoniy mayllar va istaklarni cheklash, o'zboshimchalik va zo'ravonlikka bo'lgan norozilik belgisi, ularga qarshi kurash zaruriyati tufayli vujudga keldi. Huquq ijtimoiy norma bo'lib, inson yashayotgan jamiyat, davlat doirasidagi uning xatti-harakatining me'yori, chegarasining xarakterini belgilab beradi. Xuddi shuning uchun ham, mashhur olmon faylasufi G.Gegel

“huquqning asl mohiyati ta’qiqdir”, [6; 159-b.] degan edi.

Mashhur faylasuf Sitseron aytganidek, “Inson ko‘proq erkin faoliyat ko‘rsatishi uchun qonunlarning quli bo‘lmog‘i darkor”. Chunki qayerda qonun o‘z ta’sirini yo‘qotsa, o‘sha yerda boshboshdoqlik, o‘zboshimchalik, zo‘ravonlik avj oladi. Qonun talablariga bo‘ysunmaslik, uni nazar-pisand qilmaslik, o‘zini himoya qilishdan voz kechish demakdir. Chunki qonunlar kishining nafakat boshqa birovlardan, balki o‘zini o‘zidan ham himoya qiladi. Shuningdek, qonunni bilmaslik, uni bajarmaslik, unga rioya qilmaslik uchun asos bo‘la olmaydi.

Har qanday qonun ham o‘zidan o‘zi turmushga tatbiq etilavermaydi. Uning ro‘yobga chiqishini o‘zlarining individual xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turgan kishilar ta‘minlaydi, O‘z navbatida, qonun talablarining bajarilishi fuqarolar uni qay darajada tushunishi, uni qanday qabul qilishiga, o‘sha hujjat ularning e‘tiqodiga aylanganligi yoki aylanmaganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, uning samaradorligi, ta’sirchanligi, xalq tomonidan tan olinganligi va qonunlar tizimiga bo‘lgan ishonchiga uning bajarilishining davlat tomonidan nazorat qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Qonunlarning bajarilishi davlat tomonidan nazorat qilinmasa, bunday hujjatlar o‘lik harflar yig‘indisiga aylanib qoladi, xolos. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, inson haq-huquqlari turli e‘tiqodga, millatga, elatga, irqqa mansub jahondagi barcha kishilarning orzu-umidlari, istak-xohishlarini o‘zida mujassamlashtirgan keng qamrovli falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchadir. Boshqacha aytganda, inson haq-huquqlari insonning insondek yashashi va faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va fuqaroviy huquqlarni ifodalovchi tushunchalar majmuasidir. “Insonning haq-huquqlari” tushunchasi 1789-yilda qabul qilingan “Inson va fuqarolik huquqlari Deklaratsiyasi”da birinchi marotaba ishlatilgan edi. Ushbu Deklaratsiyada ta’kidlanganidek, hokimiyat va xalq bir-birlariga nisbatan asrlar davomida tushunib kelingan “janob” va “qul” emas, balki teng huquq va mas’uliyatga ega kishilardir.

Insonning huquqlari hech bir to‘siq bilan cheklanmasligi zarur bo‘lgan buyuk insoniy qadriyatdir. “Inson huquqlari muammosi – hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridandir. Inson huquqlari – bu jamiyatning eng oliy qadriyati, himmatidir. Inson huquqlari – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir”. [9; 6-b.] Xuddi shuning uchun ham inson huquqlari hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy kafolatlar insonning tinch-osoyishta, hur va erkin, munosib va bexavotir yashashi, ishlashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qildi va qilmog‘da. Tajriba shundan dalolat bermokdiki, insoniyat bosib o‘tgan tarixiy taraqqiyot jarayonida inson huquqlarining qamrov doirasi uzluksiz kengayib bordi. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib insonning yashash huquqi, ishlayotgan tabiiy muhit musaffoligini ta‘minlash, ya’ni ekologiyasi musaffo tabiiy-ijtimoiy muhitni barpo etish kafolatlana boshladi.

Inson haq-huquqlarini kengaytirish, uni himoya qilish XX asrning eng dolzarb, umumbashariy muammolariga aylanib qoldi. Inson haq-huquqlarini himoya qilishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning tuzilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning ustavida inson huquqlarini himoyalash va hurmat qilish tashkilotning asosiy maqsadi ekanligi alohida ko‘rsatilgan. BMT Bosh Assambleyasi 1948-yilning 10-dekabrida “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ni qabul qildi. Bunday hujjatning qabul qilinishi chinakam tarixiy ahamiyatga ega edi. Xuddi shu hujjatda tarixda birinchi marta jahonning barcha davlatlari tomonidan tan olinishi va rioya qilinishi lozim bo‘lgan inson huquqlarining ro‘yxati belgilab berildi. Eng avvalo, bu xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi, vijdon erkinligi, qonun oldida hammaning tengligi va hokazolar. O‘shandan buyon jahonning barcha davlatlari qabul qilgan qonunlarida “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning asosiy talablari o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda inson haq-huquqlari nafaqat qonunlar doirasida, balki fuqarolarning insoniy qadr-qimmatini, or-nomusi, sha’nini anglashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta‘minlash yo‘li bilan uzluksiz mustahkamlanmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda inson haq-huquqlarini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq tadbirlar huquqan yetuk kishilarning kamol topishiga imkoniyat yaratmoqda. Prezidentimiz

Sh.Mirziyoyev haqli ravishda ta'kidlaganlaridek: "Inson huquqlari sohasida ham holat tubdan o'zgardi. Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani qabul qildik. O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylangani olib borayotgan siyosatimizning yuksak xalqaro e'tirofidir".[3;48-b.]

Quvonarlisi shundaki, mamlaktimizda huquqiy ongi va madaniyati yuksak bo'lgan yoshlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Ko'pchilik yoshlar o'zlarining insoniy haq-huquqlarini tanii boshladilar. Zero, O'zbekistonda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish – bu nafaqat huquqiy davlat qurishning asosi, balki mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun eng muhim strategik yo'nalishlardan biridir. Bu jarayon yoshlarning o'z huquqlarini bilishi, majburiyatlarini his qilishi va qonunlarga hurmat ruhida yashashini ta'minlashning zaruriy shartidir. Shu bois yurtimizda yoshlarning huquqiy tarbiyasi tizimli ravishda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Ayniqsa, yoshlarimizga Asosiy qonunimizning mazmun-mohiyatini chuqur o'rgatish, ularni konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida yuksak ongli va vatanparvar fuqarolar, siyosiy tafakkur va huquqiy madaniyat egalari etib tarbiyalash oldimizda turgan g'oyat muhim vazifadir".[2;1-b.]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun huquqiy ta'lim va tarbiyani tizimli ravishda olib borish zarur. Huquqiy ong – bu shunchaki qonunlarni bilish emas, balki ularga amal qilishni ichki ehtiyojga aylantirish va o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lish demakdir. Shundagina yoshlar jamiyatning chinakam tayanchiga, islohotlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Darhaqiqat, "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, sog'lom hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi"[5; 257-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2018-yil 8-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan bayram tabrigidan. – Toshkent, "Ma'naviy hayot", 2025, №4, 1-bet
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021, 48-bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston – inson qadri uchun". Prezident nutqlari to'plami. – T.: O'zbekiston, 2022, 126-b.
5. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. 257-b.
6. Гегель Г.В., Философия права. М.: 1990, 159-бет.
7. Данте Алигери. Монархия. Книга первая // Антология мировой политической мысли в 5-ти томах. – М., 1997. Т.1. –С. 235.
8. "Falsafa va huquq" jurnali. 2005- yil, – № 2, 46-bet.
9. A.Saidov. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va inson huquqlari. –Toshkent: Adolat, 1998. 6-bet.
10. Qozoqboy Yo'ldoshev. Fikr parvoz istaydi. // "Tafakkur", 2015. – №2, 6-bet.

TASAVVUFIIY MEROS ASOSIDA OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASHNING FALSAFIY-TARIXIY TAHLILI

G'afurov Doniyor Orifovich

Buxoro innovatsiyalar universiteti dotsenti

gafurovdoniyor@gmail.com

ORCID 0009-0004-6656-5458

UDK 1:141.319.8:28-584:316.356.2

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy O'zbekiston jamiyatida oilaviy va nikoh munosabatlarini mustahkamlashda klassik tasavvufiy merosning aksiologik resurs sifatidagi konseptual roli hamda metodologik salohiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida "fano-ba'qo" dialektikasining oilaviy munosabatlarga proyeksiyasi, halol luqma doktrinasining Boyazid Bistomiy, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband va Abdulqodir Jiloniy ta'limotlaridagi konseptual rivoji izchil yoritilgan. Shuningdek, nafs tarbiyasi va qalb pokligi konsepsiyalarining "halollik vaksinasi" modeli doirasida aktualizatsiyasi tizimli asosda o'rganilgan. Burhoniddin Marg'inoniy qalamiga mansub "Hidoya"

asarida bayon etilgan nikoh huquqi va mahr institutining ijtimoiy-aksiologik mohiyati hermenevtik yondashuv asosida tahlil etilgan. Shu bilan birga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning sakkiz vektorli etnopedagogik strategiyasi tasavvufiy meros kontekstida ilmiy jihatdan konseptuallashtirilgan.

Tayanch soʻzlar: klassik tasavvufiy meros, aksiologik resurs, fano-baqa dialektikasi, halol luqma doktrinasi, nafs tarbiyasi, qalb pokligi, halollik vaksinasi.

PHILOSOPHICAL-HISTORICAL ANALYSIS OF STRENGTHENING FAMILY AND MARRIAGE RELATIONSHIPS ON THE BASIS OF SUFISTIC HERITAGE

Abstract. The article provides an in-depth socio-philosophical analysis of the conceptual role and methodological potential of classical Sufi heritage as an axiological resource in strengthening family and marital relations in contemporary Uzbek society. The study systematically examines the projection of the “fana–baqa” dialectic onto family relations, as well as the conceptual development of the doctrine of lawful sustenance (halal livelihood) in the teachings of Bayazid Bistami, Imam al-Ghazali, Bahauddin Naqshband, and Abdulqadir Gilani. Furthermore, the actualization of the concepts of self-discipline (nafs training) and purification of the heart is explored within the framework of the “honesty vaccine” conceptual model. A hermeneutic analysis is conducted on the socio-axiological essence of marital law and the institution of mahr as presented in Burhanuddin Margʻinani’s work *Hidaya*. Additionally, an eight-vector ethnopedagogical strategy for preparing youth for family life is scientifically conceptualized within the context of Sufi heritage.

Key words: classical Sufi heritage, axiological resource, fana-baqa dialectic, halal sustenance doctrine, nafs education, heart purity, honesty vaccine.

Kirish. Postmodern globallashuv epoxida oila va nikoh institutlari fundamental aksiologik krizislarni boshidan kechirayotgan davrda klassik tasavvufiy merosshunoslik shunchaki tarixiy-arxeologik qiziqish obyekti emas, balki real metodologik resurs sifatida konseptual aktualizatsiya talab qilmoqda. Tasavvuf taʼlimoti – islom intellektual traditsiyasining maʼnaviy-axloqiy fundamental yoʻnalishi sifatida – insoniy munosabatlar, ayniqsa oila va nikoh sohasidagi murakkab ekzistensial-aksiologik muammolarning yechimi uchun yaxlit konseptual paradigmani taklif etadi. Mazkur paradigma koʻp qatlamli, multikomponent, integral arxitekturaga ega boʻlib, u oʻzaro hurmat, ishonch va mehr-muhabbatga asoslangan oilaviy munosabatlarni shakllantirishning chuqur falsafiy zaminini tashkil etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagi epistemologik vaziyat bilan asoslanadi: globalizatsion turbulentslik sharoitida zamonaviy yoshlar oilaviy munosabatlarning aksiologik substansiyasini tushinishda jiddiy konseptual qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar [1]. Mafkuraviy tahdidlarning kuchayishi, isteʼmolchilar madaniyatining ekspansiyasi, raqamli mediatizatsiyaning destruktiv aspektlari va aksiologik plyuralizmning chalkashlik effektlari yoshlarning oilaviy farovonlikka oid kompetensiyasini destabilizatsiya qilmoqda. Shu kontekstda klassik tasavvufiy merosshunoslik bunyodkor kontrresurs sifatida oʻziga xos epistemologik vazifani bajarishi mumkin: u maʼnaviy boʻshliqning toʻldirilishini, ekzistensial qutqaruvni va aksiologik integratsiyani taʼminlovchi konseptual platforma sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi tasavvufiy meros asosida oila va nikoh munosabatlarini mustahkamlash muammosini chuqur va kompleks yoritishga qaratilgan boʻlib, unda bir qator ilmiy metodlar uygʻun qoʻllanildi. Avvalo, tizimli yondashuv asosida oila va nikoh institutlari ijtimoiy, maʼnaviy va axloqiy tizim sifatida oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilindi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida tasavvufiy taʼlimotlarda oila va nikoh masalalarining turli davrlardagi evolyutsiyasi, mutafakkirlar qarashlari oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Hermenevtik metod asosida tasavvufiy manbalar – klassik asarlar, diniy-falsafiy matnlar mazmunan talqin qilinib, ulardagi gʻoyalar zamonaviy ijtimoiy kontekstda qayta anglandi. Induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali alohida nazariy qarashlardan umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi hamda umumiy tamoyillar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, analiz va sintez metodlari orqali oila va nikohga oid tushunchalar tarkibiy qismlarga ajratilib, keyinchalik yaxlit tizim sifatida umumlashtirildi. Mavzuning ijtimoiy ahamiyatini ochib berishda sotsiologik tahlil elementlari, jumladan, mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik maʼlumotlar va zamonaviy tadqiqot natijalari oʻrganildi. Mazkur metodlar uygʻunligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, mantiqiy izchilligi va amaliy

ahamiyatini ta'minlab, tasavvufiy merosning oila va nikoh munosabatlarini mustahkamlashdagi o'rni va imkoniyatlarini har tomonlama ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Klassik tasavvufiy merosshunoslik aksiologik resurs maqomida quyidagi konstitutiv parametrlarga ega: birinchidan, ontologik chuqurlik - tasavvuf insoniy mavjudlikning eng chuqur metafizik o'lchamlarini qamrab oladi, bu esa zamonaviy reduksionistik yondashuvlar bilan kontrastlikda yuksak konseptual potentsialni ta'minlaydi; ikkinchidan, etnopoetik konkretlik – tasavvuf nafaqat mavhum nazariy konstruktsiya, balki kundalik amaliyot uchun konkret etopedagogik dasturlarni ishlab chiqadi; uchinchidan, transgenerasion-uzilmas tabiat - tasavvufiy paradigma asrlar davomida sayqallashtirilib, ko'plab avlodlarning ekzistensial tajribasini sintezlashtiradi; to'rtinchidan, multifunksionallik – tasavvuf bir vaqtning o'zida individual psixoterapevtik, oilaviy-pedagogik, ijtimoiy-konstruktiv va madaniy-translyatsion vazifalarni bajaradi.

Mazkur paradigmanning konseptual yangiliklaridan biri – tasavvufiy aksiosfera tushunchasidir. Tasavvufiy aksiosfera – bu axloqiy-aksiologik konstantalar, etnopoetik prinsiplar va metafizik mezon-baholash o'lchovlarining yaxlit sistemasi bo'lib, u oilaviy munosabatlarning konstitutiv-strukturaviy fundamentini tashkil etadi[2]. Mazkur aksiosfera doirasida shakllangan asosiy konseptual elementlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: muhabbat metafizikasi (sevgi-qadriyatining ontologik talqini), sabr etopoetikasi (chidamlilikning ekzistensial-konstruktiv talqini), kechirimlilik praktsiologiyasi (kechirishning oilaviy reabilitatsion mexanizmi), shukronalik gnoseologiyasi (minnatdorchilikning bilim-aksiologik tabiati), va halollik aksiologiyasi (e'tiqod-aksiologik konstantasi).

Klassik tasavvuf falsafasidagi konseptual cho'qqilardan biri – “fano” (egoning yo'q bo'lishi) va “baqo” (haqiqiy mavjudlikda davom etish) tushunchalari dialektikasidir. Mazkur dialektik tushuncha juftligi tasavvufiy ruhiy yetuklikning eng yuqori bosqichlarini ifoda etadi va o'zining metafizik chuqurligi bilan zamonaviy fenomenologik antropologiya (M.Sheler, M.Merlo-Ponti, M. Anri) hamda ekzistensial falsafa (M.Xaydegger, K.Yaspers, G.Marsel) ning fundamental konsepsiyalari bilan paradigmal yaqinlikka ega. Yangi O'zbekiston aksiologik makonida “fano-baqo” dialektikasi oila va nikoh munosabatlariga konkret konseptual proyeksiya qilinishi mumkin: oilaviy hayot – bu individual egoizmning sintez-transsendentatsiya orqali kollektiv-aksiologik yaxlitlikka aylanish jarayoni sifatida talqin etiladi [3].

Mazkur konseptual model asosida shakllantiriladigan “yangi antropomadaniy paradigma” quyidagi konstitutiv prinsiplarga tayanadi. Birinchidan, kommunikativ-aksiologik birlik prinsipi: er-xotin munosabatlari ikki avtonom shaxsiyatning mexanik koeksistensiyasi emas, balki yagona aksiologik subyektivlikning konstitutiv elementlari sifatida talqin qilinadi. Ikkinchidan, transsendental-yo'nalganlik prinsipi: oilaviy munosabatlar shunchaki gorizonta-immanent makonda emas, balki transsendental-vertikal o'lchamga proyeksiyalanadi. Uchinchidan, eksistensial-pedagogik integratsiya prinsipi: oilaviy hayot bir vaqtning o'zida ham makon-vaqt makon, ham ekzistensial-tarbiya laboratoriyasi sifatida xizmat qiladi. To'rtinchidan, gnoseologik-muvofiqlik prinsipi: oila a'zolari o'zaro intellektual-aksiologik almashinuvni amalga oshirib, kollektiv epistemologik o'sishni ta'minlaydilar [4].

Tasavvufiy “fano-baqo” konsepsiyasining oilaviy munosabatlarga proyeksiyasi zamonaviy psixologiya va sotsiologiyaning bir qator konstitutiv konsepsiyalari bilan paradigmal yaqinlikka ega. Xususan, K.Yungning analitik psixologiyasidagi sizigiya (anima-animus dialektik birligi), V.Franklning logoterapiyasidagi ekzistensial yo'naltirilganlik, V.Sutichning transpersonal psixologiyasidagi self-aktualizatsiya konsepsiyalari tasavvufiy fano-baqo paradigmasi bilan o'ziga xos konseptual rezonansga ega. Bu fakt klassik tasavvuf ta'limotining universal antropologik salohiyatini tasdiqlaydi va uning postsekulyar zamonaviy diskurs uchun aktual epistemologik resurs ekanligini namoyon etadi [5].

Klassik tasavvuf ta'limotidagi yetakchi konseptual fokuslardan biri – halol luqma doktrinasidir. Mazkur doktrina to'rt yirik mutafakkir – Boyazid Bistomiy, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband va Abdulqodir Jiloniy – ta'limotida turli aksiologik aksentlar bilan rivojlantirilgan [6]. Boyazid Bistomiy (804-874) aforizmik formulasi – “Kimning ovqati halol bo'lsa, so'zlari nurli bo'ladi” – halol luqmaning epistemologik-kogerent ta'sirini namoyon

etadi: moddiy-fizik ozuqaning sifati intellektual-kommunikativ aktning sifati bevosita determinatsiyalaydi. Bu konseptual yondashuv zamonaviy psixonevrologiya va nutritsion psixiatriya kashf etgan gut-brain axis (ichak-miya o'qi) konsepsiyasi bilan o'ziga xos paradigmal yaqinlikka ega.

Imom Abu Homid al-G'azzoliy (1058-1111) o'zining monumental "Ithou ulumiddin" asarida halol luqma doktrinasini sistemali falsafiy darajaga olib chiqdi. Muallifning konseptual formulasiga muvofiq, halol rizq so'rashning o'zi ibodat darajasidagi aktdir, ammo haromdan saqlanish – taqvoning konstitutiv markaziy kategoriyasidir [7]. G'azzoliyning konseptual yangiligi shundaki, u inson qalbining pokligi va halol luqmaning iste'mol qilinishi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri korrelyatsion bog'lanishni asoslab beradi. Mazkur konsepsiya zamonaviy bioetika va aksiologik tibbiyot uchun fundamental konseptual zamin sifatida xizmat qila oladi: oziqlanish – bu nafaqat fizio-energetik akt, balki etopoetik-aksiologik praktikadir.

Naqshbandiya silsilasining eponim-asoschisi Bahouddin Naqshband (1318-1389) o'zining ramziy "Dast ba kor, dil ba yor" (Qo'l ishda, dil yorda) doktrinasini orqali halol luqma konsepsiyasini ijtimoiy-iqtisodiy etika maydoniga olib chiqdi. Muallifning konseptual yondashuviga ko'ra, halol mehnat – bu shunchaki iqtisodiy faoliyat emas, balki tariqatning konstitutiv ruhiy amaliyotidir. Aynan shu jihatdan Naqshbandiya silsilasi shogirdlari orasida dehqonlar, hunarmandlar va chorvachilar dominant guruhni tashkil etganlar. Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy faollik hech qachon ma'naviy-aksiologik yo'nalganlikning destruktiv distraksiyasi sifatida tushunilmagan, balki uning konkret amaliy ifodasi sifatida idrok etilgan [8].

Qodiriya silsilasining asoschisi Sayyid Muhyiddin Abdulqodir al-Jiloniy (1077-1166) halol luqma doktrinasini transsendental-eskatologik o'lchamga olib chiqdi. Muallifning radikal aksiologik tezisiga muvofiq, halol luqma iste'mol qilmagan murid haqiqiy ma'rifatga yeta olmaydi. Bu konseptual postulat halol luqmani shunchaki etik norma maqomidan epistemologik-konstitutiv shart maqomiga ko'taradi: ya'ni haqiqiy gnostik bilim olishning birlamchi metodologik sharti – moddiy-jismoniy ozuqaning aksiologik tozaligidir. Bu yondashuv zamonaviy biosemiotika va embodied cognition (jismoniy lashgan idrok) nazariyalari bilan o'ziga xos paradigmal yaqinlikka ega [9].

Klassik tasavvuf antropologiyasining konseptual yadrosini nafs tarbiyasi (tarbiyat un-nafs) doktrinasini tashkil etadi. Tasavvufiy traditsiyada nafs – bu shunchaki moddiy-instinktual hodisa emas, balki insoniy mavjudlikning murakkab psixoenergetik substansidir, u bir vaqtning o'zida ham destruktiv-egoistik impulslarning manbai, ham ma'naviy-konstruktiv kamolot uchun resurs sifatida xizmat qiladi. Mazkur dialektik tabiat tasavvufda nafs ettita rivojlanish bosqichi (ammora, lavvama, mulhima, mutmainna, raziyya, marziyya, kamila) doirasida talqin etiladi va har bir bosqich uchun konkret etopedagogik amaliyotlar ishlab chiqilgan.

Nafs tarbiyasining metodologik instrumentariumi to'rt asosiy komponentdan iborat. Birinchidan, qalbn poklash (tasfiyat ul-qalb): qalb – insoniy ichki dunyoning markaziy organi sifatida nafsiy impulslarning destruktiv ta'siridan tozalanishi shart. Ikkinchidan, ixtiyor-sabr dialektikasi: nafsning destruktiv impulslari ratsional-irodaviy nazoratga olinadi va sabr (chidam) etopoetik amaliyotining empirik aktualizatsiyasi orqali yumshatiladi. Uchinchidan, zikr amaliyoti: muqaddas kategoriyalarning ritmik-meditativ takrorlanishi orqali ong va ostonglik darajasidagi destruktiv patternlar transsendental rekonfiguratsiyaga olinadi. To'rtinchidan, halol oziqlanish: moddiy-fizik ozuqaning aksiologik selektiv iste'mol qilinishi nafs tarbiyasining biosemiotik fundamentini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "halollik vaksinasi" konsepsiyasi – bu klassik tasavvuf nafs tarbiyasi paradigmasi va zamonaviy davlat boshqaruvi metodologiyasining konseptual sintezini ifoda etuvchi noyob institutsional yangilikdir. Mazkur konsepsiya doirasida halollik (e'tiqod-aksiologik konstantasi) shunchaki individual etik norma maqomidan ijtimoiy-immunitet konstantasi maqomiga ko'tariladi. Falsafiy-aksiologik nuqtayi nazardan, mazkur konsepsiya ijtimoiy organizmga maxsus aksiologik vaksinatsiyani amalga oshiradi: korrupsiya, ostentativ iste'mol, riyokorlik kabi destruktiv ijtimoiy patologiyalarning oldini olishning konstruktiv mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Burhonuddin al-Margʻinoniy (1123-1197) Movarounnahrlik fiqh maktabining korifeylaridan boʻlib, uning monumental “Al-Hidoya” (“Hidoyat”) asari hanafiy mazhabidagi normativ-huquqiy fundamentni tashkil etadi. Muallifning konseptual yondashuvda nikoh fenomeni koʻp qatlamli huquqiy-aksiologik tahlilga ega boʻlib, alohida diqqat ayolning epistemologik-huquqiy mavqeyi masalasiga qaratilgan. Margʻinoniyning tezisiga muvofiq, nikohning konstitutiv-asl mohiyati toʻgʻrisida ilm boʻlishi shart – chunki qiz bola faqat ilm boʻlgandagina huquqiy-axloqiy tasarruf eta oladi. Mazkur tezis ayolning subyekt-pravosubyektlilik maqomini falsafiy-konseptual darajada asoslab beradi va oʻziga xos paradigmal jasur yondashuvni namoyon etadi.

Mahr instituti islom huquqshunosligida nikohning konstitutiv-aksiologik elementi sifatida eʼtirof etiladi. Falsafiy-aksiologik nuqtayi nazardan, mahr – bu shunchaki moddiy-iqtisodiy transaksiya emas, balki ayolning subyekt-shaxsiy mavqeyini huquqiy-konstitutsion darajada fiksatsiya qiluvchi simvolik-aksiologik aktdir. Qurʻoni Karim oyatlari (“Niso” surasi 4, 20-21, 24-25-oyatlari, “Ahzob” surasi 50-oyati, “Mumtahana” surasi 10-oyati) mahrning huquqiy-aksiologik mohiyatini sistemali tarzda fiksatsiya qiladi. “Hidoya” asaridagi formulaga muvofiq, mahrning eng oz miqdori oʻn dirhamdir – bu mahrning real-iqtisodiy kontentliligini taʼminlaydigan minimal koʻrsatkichdir.

Mahr institutining zamonaviy aktualizatsiyasi quyidagi konseptual nuqtayi nazardan istiqbolli: birinchidan, gender-aksiologik tenglik prinsipini tarixiy-huquqiy traditsiyada chuqurlashtirish; ikkinchidan, oilaviy iqtisodiy munosabatlarda ayolning institutsional himoyasini taʼminlash; uchinchidan, nikoh aktining sodir boʻlishida moddiy-masʼuliyatli komponentni saqlash. Biroq muallifning empirik kuzatuvchanligi shunisida koʻrinadiki, ayrim oilalarda “qalin puli” instituti destruktiv aktualizatsiyaga uchrab, yosh oilalarning iqtisodiy destabilizatsiyasining manbasiga aylanmoqda. Bu vaziyat klassik tasavvuf-fiqh traditsiyasiga konseptual qaytishni va asl aksiologik mazmuni tiklashni taqozo etadi.

Klassik tasavvufiy merosshunoslik kontekstida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning yaxlit etopedagogik strategiyasini sakkiz konstitutiv vektor boʻyicha taklif etish mumkin. Birinchi vektor – yigit va qizlar oʻrtasidagi axloqiy munosabatlarni konstruktiv shakllantirish: bu vektor doirasida tasavvufiy odob va hayo konsepsiyalari konkret pedagogik amaliyotlar darajasida aktualizatsiya qilinadi. Ikkinchi vektor – oʻzaro hurmat, doʻstlik, samimiy hamkorlik kabi etopedagogik fazilatlarini rivojlantirish: bu vektor Naqshbandiya silsilasidagi suhbat falsafasi prinsiplari bilan organik birlikda amalga oshiriladi. Uchinchi vektor – biologik-ijtimoiy axloq tarbiyasining ilmiy-empirik fundamentini taʼminlash: bu vektor zamonaviy ilmiy bilimlar va klassik tasavvuf antropologiyasining konseptual sintezini taqozo etadi [10].

Toʻrtinchi vektor – yoshlarning jismoniy, madaniy, aksiologik-irodaviy yetukligini taʼminlash: bu vektor Saxliya tariqatidagi mujohada-riyozat doktrinasi bilan paradigmal yaqinlikka ega. Beshinchi vektor – turmush quvonchlari va qiyinchiliklarini realistik tasavvur qilish va konstruktiv pozitsion strategiyalarni shakllantirish: bu vektor Gʻazzoliy oila falsafasidagi nikohning fazilat va ofat-tahlikalarning dialektik tahlili konsepsiyasi bilan organik birlikda mavjud boʻladi. Oltinchi vektor – maʼnaviy-ruhiy yetuklik va milliy aksiologik xususiyatlarni oʻzlashtirish: bu vektor Yassaviy va Naqshband taʼlimotlarining etnopedagogik salohiyati orqali amalga oshiriladi.

Yettinchi vektor – er-xotin, qaynота-qaynona, qarindoshlik munosabatlari sohasidagi burchlar va majburiyatlar tizimini anglash: bu vektor klassik islom huquqshunosligi (Margʻinoniyning “Hidoya” si) va tasavvufiy etika (Maxdumi Aʼzamning “Asror un-nikoh” risolasi) ning konseptual sintezi orqali realizatsiya qilinadi. Sakkizinchi vektor - yangi oilaviy shart-sharoitga konstruktiv adaptatsiya, etnomadaniy traditsiyalarning organik integratsiyasi va innovatsion praktikalarning konseptual qabul qilinishi. Mazkur sakkizlik vektor sistemasi bu yaxlit etopedagogik strategiya boʻlib, uning aktualizatsiyasi Yangi Oʻzbekiston maʼnaviy makonidagi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning unikal modelini taklif etadi.

Zamonaviy globalizatsion turbulentlik sharoitida oilaviy va nikoh munosabatlarining konkret destruktiv tendensiyalari quyidagi konseptual klasterlarga klasterlanadi: nikoh institutining destabilizatsiyasi (ajralishlar dinamikasining keskin oʻsishi), reproduktiv-

demografik krizislar (tug‘ilish darajasining pasayishi), gender-rolli identifikatsiya muammolari, multikulturalizm sharoitidagi etnomadaniy aksiologik bifurkatsiyalar, raqamli mediatizatsiyaning destruktiv aspektlari (virtual flirt, virtual xiyonat, ostentativ ijtimoiy-tarmoq amaliyotlari), ekonomik-aksiologik konfliktlar (oilaviy iqtisodiy stress, korrupsion praktikalar). Mazkur kompleks problematika oldida klassik tasavvufiy merosshunoslik o‘ziga xos kontrresurs sifatida xizmat qiladi.

Mazkur kontrresursning operativ aktualizatsiyasi quyidagi konseptual yo‘nalishlarda samara berishi mumkin. Birinchidan, halol luqma doktrinasi ekonomik-aksiologik konfliktlarning fundamental yechimini taklif etadi: oilaviy iqtisodiy faoliyatning aksiologik selektivligi va etopoetik fundamenti orqali ekonomik destruktivlik bartaraf qilinadi. Ikkinchidan, nafs tarbiyasi metodologiyasi raqamli mediatizatsiyaning destruktiv aspektlariga muqobil javobni taqdim etadi: muroqaba va muxosaba praktikalari raqamli muhitda autentik shaxsiyatni saqlash uchun real instrument sifatida xizmat qiladi. Uchinchidan, sabr etopoetikasi nikoh institutining destabilizatsiyasiga muqobil aksiologik strategiyani taklif etadi: sabr – bu shunchaki passiv chidam emas, balki aktiv ekzistensial-konstruktiv pozitsiyadir.

To‘rtinchidan, jadidchilik harakati (Behbudiy, Munavvarxari, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy, Usmon Nosir) tomonidan aktualizatsiya qilingan klassik tasavvuf-jadid sintezi modeli zamonaviy O‘zbekiston modelining tarixiy-konseptual zamini sifatida xizmat qiladi [11]. Jadid mutafakkirlarining intellektual hissasi – bu klassik tasavvuf-fiqh traditsiyasini modernlashtirish va milliy uyg‘onish kontekstiga ko‘chirishning paradigmal misoli edi. Yangi O‘zbekiston modelida mazkur klassik-jadid traditsiyasining organik davom ettirilishi konstruktiv strategik yo‘nalish sifatida talqin qilinishi mumkin: tasavvufiy merosshunoslik shunchaki tarixiy-arxeologik resurs emas, balki aktual zamonaviy aksiologik fond sifatida xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Klassik tasavvufiy merosshunoslik zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida oilaviy va nikoh munosabatlarini mustahkamlashning unikal aksiologik resursi sifatida konseptual aktualizatsiya talab qiluvchi metodologik fond hisoblanadi. “Fano-ba‘qo” dialektikasining oilaviy munosabatlarga proyeksiyasi, halol luqma doktrinasining Bistomiy-G‘azzoliy-Naqshband-Jiloniy ta‘limotlaridagi konseptual rivojlanishi, nafs tarbiyasi va qalb pokligi konsepsiyalarining “halollik vaksinasi” modelidagi institutsional aktualizatsiyasi, mahr institutining huquqiy-aksiologik salohiyati va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning sakkiz vektorli etopedagogik strategiyasi yaxlit holda tasavvufiy merosshunoslikning konstitutiv konseptual paradigmasini tashkil etadi.

Mazkur paradigmaning konstitutiv xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, ko‘p qatlamli arxitektura (ontologik, etopoetik, gnoseologik, praksiologik o‘lchamlarning organik birligi); ikkinchidan, transgeneratsion uzilmaslik (asrlar davomida sayqallashtirilgan ekzistensial tajriba); uchinchidan, multifunksionallik (individual psixoterapevtik, oilaviy-pedagogik, ijtimoiy-konstruktiv, madaniy-translyatsion vazifalarning sintezi); to‘rtinchidan, aktualizatsion salohiyat (zamonaviy globallashtirish krizislari sharoitidagi konstruktiv applikativlik). Bu xususiyatlar tasavvufiy merosshunoslikning unikal akademik-praktik fondini tashkil etadi.

Keyingi tadqiqotlar tasavvufiy merosshunoslikning konkret fragmentlarini chuqurroq matn-falsafiy tahlil qilish, mazkur merosning zamonaviy oilashunoslik fanlari (sotsiologiya, psixologiya, etopedagogika, oilaviy iqtisodiyot) bilan konseptual integratsiyasi mexanizmlarini ishlab chiqish va konkret oilaviy konsultatsion praktikalarda aktualizatsiya qilish modellarini ishlab chiqishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq. Klassik tasavvufiy meros va zamonaviy ijtimoiy fan o‘rtasida konstruktiv dialogning rivojlantirilishi - bu O‘zbekiston Respublikasining oila institutini mustahkamlash strategiyasidagi strategik istiqbolli yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 416 b.
2. Al-G‘azzoliy Abu Homid Muhammad. Ihyou ulumiddin. - Beyrut: Dor al-Ma‘rifa, 1982. - 4 jild.

3. al-Margʻinoniy Burhonuddin. Al-Hidoya / Tarjima va izohlar: A.Mansurov. - Toshkent: Movarounnahr, 2017. - 3 jild.
4. al-Bistomiy Boyazid. Maqolot va hikoyot / Tarjima va izohlar. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. - 144 b.
5. al-Jiloniy Abdulqodir. Futuh ul-gʻayb / Tarjima va izohlar. - Toshkent: Sharq, 2018. - 256 b.
6. Fitrat A. Rahbari najot. - Toshkent: Sharq, 2000. - 192 b.
7. Navroʻzova G. Naqshbandiya tariqati taʼlimoti. - Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. - 244 b.
8. Namozov B. Tasavvuf falsafasida ijtimoiy munosabatlar.-Toshkent: Akademnashr, 2020.-256 b.
9. Frankl V.E. Man's Search for Meaning. - Boston: Beacon Press, 2006. - 192 p.
10. Heidegger M. Being and Time. - Albany: SUNY Press, 2010. - 482 p.
11. Erikson E.H. Identity and the Life Cycle. - New York: W.W. Norton, 1994. - 192 p.

ПОНЯТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Худойбердиев Дилшод

Каршинский государственный университет,

декан факультета истории, доцент

Khudoyberdiyev.85@mail.ru

ORCID 0009-0008-1816-3197

УДК 94:577.4(045) X 87

Аннотация. В статье всесторонне проанализирована сущность экологических проблем, возникающих в результате взаимодействия общества и природы. Освещены теоретические основы понятия экологической проблемы, а также приведена их подробная классификация по основным признакам – масштабу (локальные, региональные, глобальные), характеру воздействия и источникам происхождения. Особое внимание уделено современным экологическим вызовам, связанным с антропогенной деятельностью, ухудшением состояния окружающей среды и истощением природных ресурсов. Рассмотрены факторы, влияющие на формирование экологических кризисов, а также их социально-экономические последствия. Кроме того, обоснована важность системной оценки и классификации экологических рисков при разработке эффективных стратегий охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов, а также повышения экологической ответственности общества и формирования экологической культуры населения.

Ключевые слова и выражения: экологические проблемы, классификация, антропогенное воздействие, биосфера, глобальные проблемы, экосистема, охрана окружающей среды, экологический кризис, природные ресурсы.

THE CONCEPT OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND THEIR CLASSIFICATION

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the essence of environmental problems arising from the interaction between society and nature. The theoretical foundations of the concept of environmental problems are discussed, and their detailed classification is presented based on key criteria—scale (local, regional, global), nature of impact, and sources of origin. Special attention is given to modern environmental challenges related to anthropogenic activities, environmental degradation, and the depletion of natural resources. The factors influencing the formation of environmental crises, as well as their socio-economic consequences, are examined. In addition, the importance of systematic assessment and classification of environmental risks in developing effective strategies for environmental protection and the rational use of natural resources is substantiated, along with the need to enhance environmental responsibility in society and to promote the development of ecological culture among the population.

Keywords: Environmental problems, classification, anthropogenic impact, biosphere, global issues, ecosystem, environmental protection, ecological crisis, natural resources.

Введение. В современных условиях глобализации экологические проблемы выступают как одни из наиболее значимых угроз развитию человечества. Загрязнение окружающей среды, изменение климата, сокращение биологического разнообразия, истощение природных ресурсов, ухудшение качества воды и воздуха представляют серьезную опасность не только для отдельных государств, но и для будущего всего человечества. В связи с этим научное изучение тенденций, направленных на решение экологических проблем, а также разработка механизмов их совершенствования являются одной из актуальных научно-практических задач.

Экологические проблемы в основном возникают вследствие нерационального

отношения человека к природе, чрезмерного использования ресурсов и развития промышленной деятельности. Они нарушают природное равновесие. По сравнению с прошлым веком образ жизни человечества изменился настолько существенно, что в истории цивилизации наблюдаются ранее не встречавшиеся явления: глобальное потепление, беспрецедентное сокращение морских и наземных экосистем, а также учащение таких негативных процессов, как засухи и наводнения в различных регионах мира. Иными словами, степень вмешательства человека в природу достигла критически высокого уровня.

Методология исследования. В данном исследовании для изучения понятия экологических проблем и их классификации был применён комплексный подход. В процессе исследования были использованы как теоретические, так и практические методы, что позволило всесторонне проанализировать сущность экологических проблем.

Прежде всего, с помощью методов анализа и синтеза были изучены научные источники, статьи, монографии и нормативно-правовые документы, посвящённые экологической тематике. Данный подход позволил обобщить различные научные взгляды и сформировать единое представление о рассматриваемом понятии.

Также был применён метод классификации, в рамках которого экологические проблемы были систематизированы по основным критериям – масштабу (локальные, региональные, глобальные), источникам происхождения (природные и антропогенные), а также степени воздействия. Это обеспечило их более глубокое и структурированное изучение.

В ходе исследования широко использовался сравнительный метод, позволивший сопоставить экологические проблемы, характерные для различных регионов, и выявить их сходства и различия.

Кроме того, на основе системного подхода экологические проблемы рассматривались как результат сложного взаимодействия общества и природы. Данный подход способствовал комплексной оценке причин возникновения, динамики развития и последствий экологических проблем.

Для обеспечения достоверности результатов исследования соблюдались принципы объективности, последовательности и системности при отборе и анализе научных источников.

В странах СНГ и в регионе Центральной Азии экологические проблемы в основном изучаются через призму вопросов, связанных с использованием водных ресурсов, опустыниванием, засолением почв, промышленными отходами и загрязнением атмосферы. Особое место занимает проблема Аральского моря, которая стала важным объектом научных исследований как на региональном, так и на глобальном уровнях. В данном направлении существует значительное количество монографий и научных статей отечественных и зарубежных учёных, в которых на научной основе проанализированы причины, последствия экологической катастрофы и пути её смягчения.

Учёными Узбекистана также уделяется большое внимание вопросам решения экологических проблем. В частности, выполнен ряд научных исследований в области экологического права, экологической экономики, рационального использования природных ресурсов, управления водным хозяйством и развития систем переработки отходов. В этих работах особо подчёркивается необходимость совершенствования экологической политики, усиления механизмов государственного управления и расширения участия общественности [9].

В последние десятилетия в мировом масштабе наблюдается резкое увеличение масштабов и сложности экологических проблем. Интенсификация промышленного производства, ускорение процессов урбанизации, рост количества транспортных средств, широкое внедрение интенсивных технологий в сельском хозяйстве оказывают значительное давление на окружающую среду. В результате усиливаются такие проблемы, как загрязнение атмосферного воздуха, деградация почв, истощение и

загрязнение водных ресурсов, а также процессы опустынивания.

Экологические проблемы оказывают прямое влияние не только на природную среду, но и на социально-экономическое развитие общества. Ухудшение здоровья населения, нарушение продовольственной безопасности, рост экономических потерь являются одними из наиболее серьёзных последствий экологических проблем. В связи с этим их решение рассматривается как одно из приоритетных направлений современной государственной политики [1].

Экологические проблемы являются неотъемлемой частью развития современного общества и отражают сложные и многогранные процессы, возникающие вследствие нарушения баланса между природой и деятельностью человека. Несмотря на разнообразие определений понятия «экологическая проблема» в научной литературе, все они сходятся в том, что данное явление связано с несоответствием между естественным состоянием окружающей среды и возможностями удовлетворения потребностей человека.

Под экологическими проблемами понимаются такие состояния, при которых компоненты природы (воздух, вода, почва, растительный и животный мир) изменяются, нарушаются или деградируют под воздействием человеческой деятельности, оказывая негативное влияние на развитие общества [7]. Эти проблемы наносят ущерб не только окружающей среде, но и представляют серьёзную угрозу здоровью человека, экономической стабильности, социальной безопасности и условиям жизни будущих поколений.

По своей сущности экологические проблемы подразделяются на две основные группы: проблемы, возникающие в результате природных факторов, и антропогенные проблемы, обусловленные деятельностью человека. Природные экологические проблемы связаны с такими процессами, как геологические явления, изменения климата, извержения вулканов, засухи, наводнения, опустынивание, тогда как антропогенные проблемы формируются в результате промышленной, сельскохозяйственной, транспортной, энергетической деятельности и процессов урбанизации [3]. В настоящее время основная часть экологических проблем связана именно с деятельностью человека, что приводит к углублению экологического кризиса.

Результаты и обсуждение. В результате проведённого исследования были уточнены теоретические подходы к определению сущности экологических проблем и их классификации. Установлено, что экологические проблемы представляют собой сложное и многогранное явление, возникающее в процессе взаимодействия общества и природы и имеющее как природный, так и антропогенный характер.

Проведённый анализ показал, что классификация экологических проблем по масштабу (локальные, региональные, глобальные), источникам происхождения и характеру воздействия позволяет более глубоко понять их природу и особенности проявления. Выявлено, что на современном этапе особую значимость приобретают глобальные экологические проблемы, связанные с изменением климата, загрязнением окружающей среды и истощением природных ресурсов.

В ходе исследования также было установлено, что антропогенный фактор играет ключевую роль в обострении большинства современных экологических проблем. Усиление хозяйственной деятельности человека приводит к нарушению экологического равновесия и возникновению новых рисков.

В рамках обсуждения подчёркивается, что эффективное решение экологических проблем требует системного подхода, включающего научно обоснованную классификацию, оценку экологических рисков и разработку комплексных мер по охране окружающей среды. Также отмечается необходимость повышения экологической культуры и ответственности общества как важного условия устойчивого развития.

Классификация экологических проблем служит важной методологической основой для их системного изучения, оценки и разработки эффективных решений. В научной литературе экологические проблемы классифицируются по различным

критериям.

Во-первых, по масштабу экологические проблемы подразделяются на глобальные, региональные и локальные [2]. Глобальные экологические проблемы затрагивают интересы всего человечества и включают такие явления, как изменение климата, разрушение озонового слоя, сокращение биологического разнообразия, загрязнение мирового океана, расширение процессов опустынивания. Решение этих проблем требует не только усилий отдельных государств, но и международного сотрудничества. Региональные экологические проблемы проявляются в пределах определённого региона или территории. Например, в Центральной Азии к ним относятся проблема Аральского моря, дефицит водных ресурсов, засоление почв и процессы опустынивания. Локальные экологические проблемы характерны для отдельных городов, районов или промышленных зон и проявляются в виде загрязнения атмосферы, проблем сбора и утилизации отходов, низкого качества питьевой воды.

Во-вторых, по сфере воздействия экологические проблемы классифицируются следующим образом: проблемы, связанные с атмосферой; гидросферой; литосферой (почвой); биосферой [4]. К атмосферным проблемам относятся загрязнение воздуха промышленными выбросами, транспортными газами и парниковыми газами, кислотные дожди, смог. Эти явления приводят к изменению климата, ухудшению здоровья населения и нарушению экосистем. Проблемы гидросферы выражаются в сокращении водных ресурсов, загрязнении рек и озёр, ухудшении качества питьевой воды, загрязнении морей и океанов пластиковыми отходами. Водные проблемы являются одними из наиболее значимых экологических вызовов для жизни человека и экономической деятельности. Проблемы литосферы характеризуются эрозией почв, их засолением, деградацией, химическим загрязнением и снижением плодородия. Особенно в сельском хозяйстве неправильное орошение и чрезмерное применение удобрений усиливают деградацию почв. Проблемы биосферы проявляются в сокращении биологического разнообразия, исчезновении редких видов растений и животных, разрушении природных экосистем, что нарушает экологическое равновесие и угрожает устойчивости биосферы [8].

В-третьих, по причинам возникновения экологические проблемы подразделяются на связанные с промышленной деятельностью; сельским хозяйством; транспортом; энергетикой; урбанизацией и плотностью населения [5]. Промышленные экологические проблемы обусловлены выбросами отходов, токсичных веществ и тяжёлых металлов в окружающую среду. В сельском хозяйстве чрезмерное использование пестицидов и минеральных удобрений усиливает экологические риски. Транспорт является одним из основных источников загрязнения воздуха.

В-четвёртых, по степени опасности экологические проблемы можно разделить на критические, опасные, средней степени и низкой степени. Критические экологические проблемы представляют непосредственную угрозу жизни человека и устойчивости общества (например, радиационное загрязнение, дефицит питьевой воды, сильное загрязнение воздуха). Такая системная классификация экологических проблем служит надёжной методологической основой для их фундаментального изучения, определения стратегических приоритетов их решения и принятия эффективных управленческих решений в сфере охраны окружающей среды.

Проведённые исследования и анализ показывают, что современные экологические проблемы являются чрезвычайно сложным и многогранным явлением по своему масштабу, причинам возникновения и воздействию на окружающую среду. Системная классификация экологических проблем позволяет сделать следующие выводы: экологические проблемы (атмосферы, гидросферы, литосферы и биосферы) проявляются не изолированно, а в тесной взаимосвязи. Негативные изменения в одной сфере (например, загрязнение воздуха) через механизмы изменения климата могут привести к сокращению водных ресурсов и снижению биологического разнообразия.

Для региона Центральной Азии такие проблемы, как высыхание Аральского моря, дефицит водных ресурсов и засоление почв, имеют приоритетное значение,

поскольку они представляют серьёзную угрозу не только для природной среды, но и для социально-экономической стабильности. Это требует учёта региональных факторов при планировании экологических мероприятий. Основным источником современных экологических кризисов является техногенная деятельность, связанная с интенсивным развитием промышленности, транспорта и сельского хозяйства. В связи с этим наиболее эффективным путём решения данных проблем является экологизация производства и внедрение принципов «зелёной экономики» [2].

Классификация экологических проблем по степени их опасности позволяет государству и обществу правильно определять стратегии охраны окружающей среды и направлять ресурсы на решение наиболее актуальных задач.

Заключение. Таким образом, научно обоснованная классификация экологических проблем имеет не только теоретическое, но и важное практическое значение. Она способствует достижению целей устойчивого развития, сохранению природных ресурсов для будущих поколений и обеспечению экологической безопасности человечества. Восстановление баланса между природой и обществом требует усиления сотрудничества как на локальном, так и на глобальном уровнях, что является одной из неотложных задач современности. Достижение экологической устойчивости в мировом масштабе и кардинальное улучшение состояния окружающей среды невозможно без развития международного сотрудничества, ужесточения ответственности за нарушение экологического законодательства, повышения уровня экологического сознания и культуры населения, а также формирования чувства ответственности у каждого человека.

Как справедливо отмечал Франклин Делано Рузвельт, народ, разрушающий природные богатства, подрывает собственные корни, и это высказывание, несомненно, призывает человечество к осознанию своей ответственности за сохранение окружающей среды.

Список использованной литературы

1. Эргашев А., Эргашев Т. Экология, биосфера и охрана природы. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. – 448 с.
2. Нигматов А.Н. Экология: теория, понятия и принципы. – Т.: «Ношир», 2013. – 164 с.
3. Miller G.T., Spoolman S. Living in the Environment. – 19-е изд. – Cengage Learning, 2018. – 832 p.
4. Шодиметов Ю. Введение в социальную экологию. – Ташкент: O‘qituvchi, 1994. – 158 с.
5. Рафиков В.А. Проблемы геоэкологии. – Т.: Фан, 2012. – 128 с.
6. Эргашев А., Юлчиева М.Т., Ахмедов О.А., Абзалов А. Экология. – Т., 2018.-257 с.
7. Мустафаев С. Общая экология. – Т.: Фан, -187с.
8. Буриев С.С. Экология и охрана окружающей среды. – Т.: «Ношир»,2019.-321 с.
9. Султанов П.С. Основы экологии и охраны окружающей среды. – Т., 2007.-209 с.
10. Abduqayumov S., Norboyeva U. Dolzarb ekologik muammolar: sabablari, oqibatlarini va yechimlar. Modern Science and Research. 11– 2025. -138 p
11. Axmadjonova G. “Hozirgi kundagi dolzarb ekologik muammolar”. – Educational Research in Universal Sciences (ERUS). 2023; Vol. 2, No. 16 SPECIAL -95 p

IJTIMOY TARMOQLARDA “HAQIQAT” FENOMENI: FALSAFIY YONDASHUV

Nazarov Ravshan Nazarovich

Qarshi davlat universiteti

Falsafa va sotsiologiya kafedrası o‘qituvchisi

ravshannazarov34@gmail.com

ORCID 0009-0004-5497-8298

UDK 101:316.77

Аннотация. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda “haqiqat” fenomenining falsafiy mohiyati chuqur va tizimli ravishda tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, nafaqat axborot almashish, balki dunyoqarash va ijtimoiy ongni shakllantirish vositasiga ham aylangan. Shu nuqtayi nazardan, maqolada axborot oqimining tezlashuvi, subyektiv fikrlarning kengayishi va manipulyativ ta’sirlar natijasida

haqiqat tushunchasining transformatsiyasi yoritiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda haqiqat ko‘pincha obyektivlikdan uzoqlashib, nisbiy, ko‘p qatlamli va kontekstual tus olishi asoslab beriladi. Shuningdek, algoritmlar orqali shakllanuvchi “axborot pufagi” fenomeni va uning inson tafakkuriga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada klassik va zamonaviy falsafiy qarashlar uyg‘unligida haqiqatning yangi talqinlari ko‘rib chiqiladi. Tanqidiy tafakkur, media savodxonlik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining dolzarbligi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: haqiqat, ijtimoiy tarmoqlar, axborot, falsafiy tahlil, subyektivlik, manipulyatsiya, tanqidiy tafakkur, axborot makoni.

THE PHENOMENON OF "TRUTH" IN SOCIAL MEDIA: A PHILOSOPHICAL APPROACH

Abstract. This article presents an in-depth philosophical analysis of the phenomenon of “truth” in social media. In the context of globalization and the rapid development of digital technologies, social networks have become not only a means of communication but also a powerful tool for shaping public consciousness and individual worldviews. The study explores the transformation of the concept of truth under the influence of accelerated information flow, the expansion of subjective opinions, and intentional manipulative practices. It argues that within digital environments, truth increasingly loses its traditional objectivity and becomes relative, multilayered, and context-dependent. Special attention is paid to the “filter bubble” phenomenon created by algorithms, which restricts exposure to diverse perspectives and reinforces existing beliefs. The article examines both classical and contemporary philosophical approaches to truth. It emphasizes the importance of critical thinking, media literacy, and independent evaluation of information.

Keywords: truth, social media, information, philosophical analysis, subjectivity, manipulation, critical thinking, information space

Kirish. Globallashuv jarayonida axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot vositasi, balki axborot tarqatish, fikr shakllantirish va dunyoqarashni belgilash maydoni sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarda “haqiqat” fenomeni falsafiy jihatdan alohida tahlilni talab qiladi.

Falsafada haqiqat tushunchasi qadimdan bahsli masalalardan biri bo‘lib kelgan. An’anaviy qarashlarga ko‘ra, haqiqat – bu borliqning inson ongida to‘g‘ri aks etishidir. Ammo ijtimoiy tarmoqlar paydo bo‘lishi bilan haqiqatning talqini murakkablashdi. Chunki bu virtual makonda axborot tez, filtrlarsiz va ko‘pincha tekshirilmadan tarqaladi. Natijada haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi chegaralar xiralashadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy raqamli jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar haqiqatni anglash va uni talqin qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy falsafada haqiqat masalasi turlicha talqin etilgan bo‘lib, bugungi kunda bu qarashlar yangi media muhitida qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Qadimgi yunon faylasufi Platon haqiqatni g‘oyalar olamiga bog‘lab, sezgi orqali idrok etiladigan dunyoni esa soya sifatida talqin qilgan.[1] Ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar ham ko‘pincha real voqelikning aks etgan, ammo to‘liq bo‘lmagan “soyasi” sifatida namoyon bo‘ladi.

Aristotel esa haqiqatni “narsalar qanday bo‘lsa, shunday deyish” deb ta’riflagan [2]. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda axborot ko‘pincha subyektiv talqin qilinadi va bu Aristotelning obyektiv haqiqat mezoniga zid keladi.

Yangi davr faylasufi Rene Dekart shubha metodini ilgari surib, faqat aniq va ravshan bilimni haqiqat deb tan olgan[3]. Bugungi kunda esa ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan axborotlar ko‘pincha tekshirilmagan bo‘lib, Dekart yondashuvi asosida ularga tanqidiy qarash zarur.

Immanuel Kant fikricha, inson haqiqatni to‘liq emas, balki o‘z ongining kategoriyalari orqali idrok etadi[4].

Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda har bir foydalanuvchi haqiqatni o‘z dunyoqarashi asosida talqin qilishini tushuntiradi. Zamonaviy falsafada Mishel Fuko haqiqatni ijtimoiy diskurs va hokimiyat bilan bog‘laydi [5]. Ijtimoiy tarmoqlarda ham kim axborotni nazorat qilsa, u “haqiqat”ni shakllantirish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, Jan Bodriyar “simulyakrlar” nazariyasida zamonaviy jamiyatda haqiqat o‘rnini belgilar va tasvirlar egallaganini ta’kidlaydi.[6] Ijtimoiy tarmoqlar aynan shu simulyatsiya makoni bo‘lib, unda haqiqiylik va sun’iylik chegarasi yo‘qolib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dialektik yondashuv orqali haqiqat tushunchasining tarixiy rivojlanishi va uning zamonaviy ijtimoiy tarmoqlardagi o'zgaruvchan tabiati tahlil qilindi. Bilish jarayonini o'rganishda, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va talqin qilish mexanizmlari tahlil qilindi. Ijtimoiy tarmoqlarda haqiqat qanday shakllanishini o'rganishda diskurs tahlili muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi real misollarni o'rganishda kontent-tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari, maqsadlari o'xshash bo'lgan odamlar o'rtasida axborot almashish, tanishish, turli ijtimoiy munosabatlarga kirishish, turli ko'ngilochar hamda turli xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan onlayn platforma.

Ijtimoiy tarmoqlarda “haqiqat” fenomeni zamonaviy falsafiy muhokamalarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Klassik falsafada haqiqat obyektiv va universal tushuncha sifatida talqin etilgan bo'lsa, bugungi raqamli makonda u ko'pincha subyektiv va kontekstual shaklga ega. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan axborotlar tezligi va hajmi haqiqatni aniqlashni murakkablashtiradi, natijada “ko'rinadigan haqiqat” yoki “qabul qilingan haqiqat” tushunchalari yuzaga keladi.[7]

Falsafiy jihatdan bu jarayon konstruktivistik yondashuv orqali izohlanadi. Unga ko'ra, haqiqat insonlarning ijtimoiy faoliyati natijasida shakllanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar ma'lumotni tanlab, qayta talqin qilib va tarqatib, haqiqatni fragmentlarga ajratadi.[8] Shu bilan birga, post-haqiqat davri konsepsiyasi ham muhim o'rin tutadi. Bu holatda faktlardan ko'ra hissiyotlar va shaxsiy qarashlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.[9]

Algoritmlar ham haqiqatni shakllantirishda sezilarli rol o'ynaydi. Ular foydalanuvchining qiziqishlariga mos kontentni taklif etib, “axborot pufagi”ni yuzaga keltiradi. Bu esa turli nuqtayi nazarlarni qabul qilish imkoniyatini cheklaydi va jamiyatda fikriy bo'linishni kuchaytiradi.[10] Natijada har bir guruh o'z haqiqatini mutlaq deb qabul qilishga moyil bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda haqiqat ko'p qatlamli va o'zgaruvchan hodisadir. U ko'pincha obyektiv dalillarga emas, balki ijtimoiy tasdiqqa – layklar, izohlar va ulashishlarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy xususiyati – bu subyektivlikdir. Har bir ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi o'z fikrini erkin bildirish imkoniga ega. Bu esa haqiqatning ko'plab talqinlari paydo bo'lishiga olib keladi. Bir voqea turli insonlar tomonidan turlicha talqin qilinadi va natijada yagona obyektiv haqiqat o'rnini ko'p qirrali “haqiqatlar” egallaydi. Bu holat falsafada relativizmga yaqin bo'lib, unda haqiqat mutlaq emas, balki nisbiy deb qaraladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiya va axborot bilan boshqarish holatlari ham keng tarqalgan. Ayrim kuchlar yoki shaxslar ma'lum bir maqsadga erishish uchun yolg'on yoki buzib ko'rsatilgan axborotni ataylab tarqatadi. Bu esa foydalanuvchilarning ongiga ta'sir qilib, ularning haqiqat haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. Shu nuqtayi nazardan, haqiqat endi faqat bilish masalasi emas, balki ijtimoiy va siyosiy vositaga ham aylanadi.

Yana bir muhim jihat – algoritmlar ta'siridir. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchiga uning qiziqishlariga mos axborotni ko'proq ko'rsatadi. Natijada inson faqat o'z qarashlariga mos keladigan ma'lumotlar bilan o'ralib qoladi. Bu holat “axborot pufagi” (filter bubble) deb ataladi. Bunday sharoitda inson muqobil fikrlarni kamroq ko'radi va o'z qarashlarini yagona haqiqat deb qabul qila boshlaydi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar haqiqatni izlash uchun ham imkoniyat yaratadi. Turli manbalar, fikrlar va qarashlarni solishtirish orqali inson yanada chuqurroq xulosa chiqarishi mumkin. Biroq bu imkoniyatdan samarali foydalanish uchun tanqidiy tafakkur zarur. Inson har bir axborotni tekshirishi, uning manbasini tahlil qilishi va xolis baholashi lozim.

Falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy tarmoqlarda haqiqat – bu statik va o'zgarimas tushuncha emas, balki doimiy ravishda shakllanib boruvchi jarayondir. U insonlar o'rtasidagi muloqot, bahs va fikr almashinuvi orqali yuzaga keladi. Shu sababli haqiqatni

anglashda faqat tayyor axborotga tayanish emas, balki mustaqil fikrlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy tarmoqlarda “haqiqat” fenomeni an’anaviy obyektiv tushunchadan farqli ravishda nisbiy, o’zgaruvchan va ko’p qatlamli xarakterga ega bo’lib bormoqda. Axborotning tezkor tarqalishi, foydalanuvchilarning subyektiv yondashuvi hamda algoritmik tanlov mexanizmlari haqiqatni qayta shakllantiradi. Natijada haqiqat ko’pincha faktlarga emas, balki ijtimoiy tasdiq va auditoriya reaksiyasiga bog’liq holda qabul qilinadi. Bu esa jamiyatda noto’g’ri tasavvurlar, axborot manipulyatsiyasi va fikriy polarizatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda haqiqatni anglash masalasi nafaqat falsafiy, balki ijtimoiy va axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Foydalanuvchilarda media savodxonlikni oshirish orqali axborotni tanqidiy tahlil qilish ko’nikmalarini shakllantirish zarur.

Har qanday ma’lumotni qabul qilishdan oldin uning manbasini tekshirish va solishtirish odatini rivojlantirish lozim.

Ijtimoiy tarmoq platformalari tomonidan algoritmlar shaffofligini oshirish va soxta axborotga qarshi samarali mexanizmlar joriy etilishi kerak.

Ta’lim tizimida raqamli madaniyat va axborot etikasi bo’yicha maxsus fanlarni keng joriy qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanuvchilarni turli nuqtayi nazarlarni o’rganishga undash orqali “axborot pufagi” ta’sirini kamaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Platon. The Republic. – Oxford University Press, 1998. – B. 514–520
2. Aristotle. Metaphysics. – Penguin Classics, 1998. – B. 1011–1013
3. René Dekart. Meditations on First Philosophy. – Cambridge University Press, 1996. – B. 17–24
4. Immanuel Kant. Critique of Pure Reason. – Cambridge University Press, 1998. – B.115–120
5. Michel Foucault. The Archaeology of Knowledge. – Routledge, 2002. – B. 45–50
6. Jean Baudrillard. Simulacra and Simulation. – University of Michigan Press, 1994. – B. 1–7
7. Berger, P., Luckmann, T. The Social Construction of Reality. – Anchor Books, 1966. –B. 34–41
8. Foucault, M. Power/Knowledge. – Pantheon Books, 1980. – B. 131–133
9. Keyes, R. The Post-Truth Era. – St. Martin’s Press, 2004. – B. 3–10
10. Pariser, E. The Filter Bubble. – Penguin Press, 2011. – B. 9–15

SHAXS SIYOSIY IJTIMOYILASHUV JARAYONI QONUNIYATLARI

Rustam Boymatov

Qarshi davlat universiteti

Falsafa va sotsiologiya kafedrasida o’qituvchisi

rustamboymatov71@gmail.com

ORCID 0009-0002-1228-9932

UDK 32:316.614

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs siyosiy ijtimoiylashuvi – bu insonning jamiyat siyosiy hayotiga kirib borishi, siyosiy bilimlar, qadriyatlar va ko’nikmalarni o’zlashtirishdek murakkab va ko’p qirrali, ko’p bosqichli jarayon ekanligi to’g’risida mulohaza yuritilgan. Ayniqsa bu jarayonda siyosiy ijtimoiylashuv qonuniyatlar muhim ahamiyat kasb etish, shu tufayli ushbu qonuniyatlar mohiyatini o’rganish orqali shaxs siyosiy ijtimoiylashuvi mexanizmini tushunish mumkinligi maqolada o’z ifodasini topgan. Ushbu qonuniyatlar mohiyatini anglash orqali shaxs siyosiy xulq-atvorning shakllanish mexanizmlarini tushunib yetish mumkinligi atroflicha tahlil qilingan. Ushbu qonuniyatlarda siyosiy ijtimoiylashuv jarayonining uzluksiz davom etishi, avlodlar o’rtasida siyosiy qadriyatlar va an’analarning o’zlashtirilishi, jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy muhitga bog’liqligi, shuningdek, siyosiy ijtimoiylashuvning samaradorligi shaxsdan siyosiy faollikni talab qilishiga e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, bu jarayonda siyosiy rejim, shaxsning siyosiy ongi va madaniyatining darajasi muhim ahamiyat kasb etishi maqolada o’z ifodasini topgan.

Kalit so’zlar: siyosiy ijtimoiylashuv, siyosiy jarayonlar, siyosiy faollik, siyosiy ijtimoiylashuv qonuniyatlari, vorisiylik qonuni, ijtimoiylashuv agentlarining ta’siri qonuni, muhit va madaniyatning ta’siri qonuni, o’zaro ta’sir va faollik qonuni, zamon va tarixiy voqealarning ta’siri qonuni, geosiyosat va globallashuv jarayonining ta’siri qonuni.

LAWS OF THE PROCESS OF POLITICAL SOCIALIZATION OF THE PERSON

Abstract. This article reflects on political socialization as a complex, multifaceted, and multi-stage process through which an individual becomes integrated into the political life of society, acquiring political knowledge, values, and skills. Particular emphasis is placed on the significant role of the laws (patterns) of political socialization, noting that an in-depth understanding of their essence makes it possible to comprehend the underlying mechanisms of an individual's political socialization. The article further provides a detailed analysis demonstrating that, by grasping these patterns, one can better understand the processes shaping political behavior. It highlights that these patterns encompass the continuity of political socialization, the intergenerational transmission of political values and traditions, and their dependence on the socio-economic and political environment. Moreover, the effectiveness of political socialization is shown to require active political engagement from the individual. Special attention is also given to the importance of the political regime, as well as the level of an individual's political consciousness and political culture, as key factors influencing this process.

Keywords: political socialization, political processes, political activity, laws of political socialization, law of succession, law of influence of agents of socialization, law of influence of environment and culture, law of interaction and activity, law of influence of time and historical events, law of influence of geopolitics and globalization process.

Kirish. Aholining turmush farovonligini oshirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash insonparvar, demokratik jamiyat qurish talabidir. Demokratik jamiyat barpo etish yo'ldan borayotgan mamlakatimizda ham siyosiy islohotlar izchil davom ettirilmogda, demokratik o'zgarishlarga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish choralari ko'rilmogda. Siyosiy institutlar faoliyatini kuchaytirish, fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularning siyosiy faolligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmogda. Zero, demokratik o'zgarishlar samaradorligi shaxs siyosiy ongi va madaniyatining yuksalishini taqozo etadi. Yoshlarning siyosiy yetuk shaxs sifatida shakllanishi, ya'ni ularning siyosiy ijtimoiylashuvi o'ta murakkab, ko'pqirrali jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'plab jihatlarga bog'liqdir. Xususan, siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni bir qator qonuniyatlarga asoslanadiki, ushbu qonunlarning mohiyatini, shaxs siyosiy ijtimoiylashuviga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash, tahlil qilish hamisha muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi. Shaxs siyosiy ijtimoiylashuvi jarayoni qonuniyatlari Almond G., Verba S., Glazunin R. V., Robert Dal [2;3;4] kabi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, analiz va sintez, mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hech kimda siyosiy bilim tug'ma bo'lmaydi va u birdaniga paydo bo'lib ham qolmaydi. Siyosiy tuzum, davlat va uning tuzilishi, hokimiyat tuzilmalarining vazifalari, siyosiy jarayonlar mohiyati bosqichma-bosqich anglab yetiladi. Shaxsning siyosat subyekti sifatida shakllanishi, ya'ni siyosiy ijtimoiylashuvi umr bo'yi davom etadigan jarayondir.

Faqat o'ziga xos layoqat, qobiliyat, imkoniyatga ega bo'lgan har bir shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi ham turlicha bo'ladi. Har bir shaxs siyosiy sistemani, uning o'ziga xos jihatlarni o'zining fahm-farosati, qiziqishi, bilim va qobiliyati darajasida angelaydi.

“Siyosiy ijtimoiylashuv – bu insonning siyosat dunyosiga kirish jarayonidir; siyosiy tasavvurlarining, qarashlarining, mo'ljallarining shakllanishidir; tajriba, siyosiy madaniyat an'analari va normalarini o'zlashtirishidir”[5;S-371]. Siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u bir qator qonuniyatlarga asoslanadi. Ular asosan quyidagilardan iborat:

Uzluksizlik: Siyosiy ijtimoiylashuv inson hayoti davomida uzluksiz ravishda davom etadi. Bolalikdan to umrning oxirigacha individlar siyosiy bilim, qadriyat va munosabatlarni o'zlashtirib boradilar. Uzluksizlik – bu shunchaki eski qarashlarni ko'chirib olish emas, balki o'tmishdagi ijobiy siyosiy tajribalarni hozirgi zamon talablariga moslashtirishdir. Shaxs o'z xalqining davlatchilik an'alarini anglash orqali o'zini shu siyosiy tizimning bir qismi deb hisoblaydi. Vatanparvarlik, erkinlik va adolat kabi tushunchalar vorisiylik orqali shaxs ongiga singdiriladi.

Ijtimoiylashuv agentlarining ta'siri: Siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida turli xil agentlar (oila, maktab, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, siyosiy voqealar, nodavlat tashkilotlar va boshqalar) muhim rol o'ynaydi. Bolalikdan boshlab har bir insonning xatti-harakati oilada, mahallada, maktabda, do'stlar davrasida doimo nazoratda bo'ladi. Har bir agent individning siyosiy qarashlari, ishtiroki va munosabatlari shakllanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa bunda oilaning o'rni beqiyosdir. Individning ruhiy olami, xarakteri asosan bolalik davrida shakllanadi. Bolalar o'zining qiliqlari, xarakteri, temperamentini asosan otalaridan o'zlashtiradi. Ilmiy xulosalarga ko'ra, 3 - 13 yoshgacha bo'lgan davrda ko'rsatilgan ta'sir bolaning xotirasida o'chmas iz qoldiradi. Bu davrda esa bola ta'lim va tarbiyasi deyarli to'liq oila nazoratidadir.

Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvida ta'lim tizimi asosiy tizimli bo'g'in hisoblanadi. Ta'lim muassasalari shaxsga davlat tuzilishi, konstitutsiyaviy huquqlar va majburiyatlar haqida ilk fundamental bilimlarni beradi. Shuningdek, shaxsni kelajakning faol siyosiy subyekti sifatida tarbiyalaydi.

Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvida tengdoshlar guruhi ham muhim rol o'ynaydi. Deyarli hammaning o'smirlik yillari tengdoshlar davrasida o'tadi. "...tengdoshlar guruhi, ya'ni taxminan bir xil yoshdagi bolalarning do'stona kampaniyasi. "Tengdosh" so'zi "teng" ma'nosini anglatib, bolalar o'rtasida vujudga keladigan do'stlik munosabatlari mo'tadil xususiyatga ega"[6;100-b.]. Ushbu guruhlar o'spirinda o'ziga o'xshaganlar bilan yaqinlik, o'zining ma'lum guruhga mansubligi, yolg'iz emasligi kabi tuyg'ularni uyg'otadi. Bu esa uning kayfiyatiga, mo'ljal va maqsadlarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, uning siyosiy qarashlarining shakllanishiga ham tengdoshlar davrasidagi suhbatlar, bahslardan tug'ilgan taassurotlar o'z izini qoldiradi.

Umuman olganda, tengdoshlar guruhi shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvida ko'p qirrali rol o'ynaydi. U nafaqat siyosiy bilim va qadriyatlarni o'rgatishda, balki siyosiy jarayonlarda ishtirok etish uchun ko'nikmalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Shaxs siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonida ayniqsa ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu jarayonda OAV asosiy axborot manbayi va ta'sir etuvchi kuch sifatida maydonga chiqadi. Taniqli siyosatshunos A.Mol ta'kidlaganidek: "mass-medianing vujudga kelishi bilan jamiyat hamda individning avvalgi madaniy qadriyatlari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Hattoki ta'lim tizimi ham jamiyatda oldingidek rol o'ynamay qo'ydi".[7;S-176.]

Ommaviy axborot vositalarining shaxs siyosiy ijtimoiylashuvidagi ta'siri juda keng qamrovlidir. OAV, eng avvalo, keng jamoatchilikni siyosiy jarayonlar, voqealar, siyosatchilar va ularning faoliyati haqida xabardor qiladi. Bu esa fuqarolarning siyosiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

OAV nafaqat axborot yetkazib beradi, balki uni chuqur tahlil va talqin qilish orqali jamoatchilikning siyosiy qarashlari va qadriyatlariga ta'sir o'tkazadi. Siyosiy voqea yoki shaxs haqidagi xabarga beriladigan baho va tahlillar natijasida siyosiy fikr shakllanadi. Bunda ayniqsa siyosiy materiallarning sifati, siyosiy sharhlovchilarning dunyoqarashi, bilimi, saviyasi, obyektivligi muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillardagi demokratik o'zgarishlar natijasida "Fuqarolik jamiyatining muhim instituti – OAV va jurnalistlar ijtimoiy-siyosiy hayot haqida xolis materiallar bera boshladi, korrupsiya va rahbar xodimlarning mansabini suiiste'mol qilishiga oid surishtiruvlar e'lon qildi. Ijtimoiy tarmoqlar bahs-munozara, qizg'in tortishuvlar maydoniga aylandi, erkin fikrli blogerlar guruhi shakllandi"[8;22-b].

Shu bois so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda faollik ko'rsatayotgan Kamoliddin Rabbimov, Hamid Sodiq, Farhod Karimov, Bektosh Berdiyev, Shuhrat Rasulovlarning siyosiy sharhlari ko'pchilikda qiziqish uyg'otmoqda.

Xullas, bugun OAV nafaqat odamlarni axborotlar bilan ta'minlayapti, balki uning dunyoqarashi, ijtimoiy va siyosiy qiyofasining shakllanishida katta ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, "Keyingi yillarda jamiyatimiz hayotida ro'y bergan eng katta o'zgarish odamlarga o'z fikrini aytish imkoni berilgani bo'ldi"[10;12-b.].

Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonida mehnat jamoalarining roli ham e'tiborga molikdir. Mehnat jamoalari, shaxs hayotida muhim o'rin tutib, uning siyosiy qarashlari,

qadriyatlari va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Har bir inson umrining ko'p qismini kasbiga bag'ishlaydi, uni ish joyida o'tkazadi. Kasb taqozosi bilan qaysidir jamoadagi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisiga aylanadi. Har bir mehnat jamoasining o'z qadriyatlari, normalari va qoidalari mavjud. Shaxs ushbu norma va qadriyatlarni qabul qiladi. Deylik, jamoada adolat, ochiqlik va mas'uliyat qadrlansa, bu xodimlarning siyosiy adolatga bo'lgan talablariga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, mehnat jamoalari siyosiy axborot almashish va munozaralar uchun platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xodimlar o'zaro siyosiy yangiliklarni, fikrlarni va qarashlarni muhokama qilib, bir-birlarining dunyoqarashlariga ta'sir ko'rsatadilar. Bu jarayon ularning siyosiy bilimlarini oshiradi va muayyan siyosiy pozitsiyalarni shakllantirishga yordam beradi. "Kishidagi bilim va malakalar, mehnatdagi mohirlik, etik va estetik ideallar, axloqiy qarashlar, xulq-atvorning hammasi xuddi shu jamoada shakllanadi va rivojlanadi"[11;27-b.].

Muhit va madaniyatning ta'siri: Siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni individ yashayotgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Mavjud siyosiy tizim, ijtimoiy normalar, qadriyatlar va madaniyat individlarning siyosiy bilimlarini o'zlashtirish usullariga, siyosiy institutlarga bo'lgan munosabatlariga va siyosiy faoliyatning shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inson qanday siyosiy qarashga ega bo'lishi uning kimlar bilan muloqot qilishi va qaysi jamiyatda yashashiga bevosita bog'liq. Ijtimoiy muhitdagi diniy e'tiqod, milliy an'analar va tarixiy xotira shaxsning siyosiy tanlovini belgilaydi. "Odamzod, garchi jismoniy jihatdan sog'lom bo'lsa-da, uning yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida muayyan ijtimoiy muhit, insonlar bilan muloqotda yashash juda muhim ekani allaqachon isbotlangan".[9;14-b.].

Siyosiy faollikning ta'siri: Siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning passiv kuzatuvchidan siyosiy hayotning faol ishtirokchisiga aylanishini anglatadi. Siyosiy ijtimoiylashuv ikki tomonlama harakatdir. Bir tomondan jamiyat shaxsga ta'sir o'tkazsa, ikkinchi tomondan shaxs jamiyatga ta'sir qiladi. Shaxs siyosiy muhit bilan o'zaro aloqada bo'lib, yangi ma'lumotlarni izlaydi, muhokamalarda ishtirok etadi va o'z siyosiy qarashlarini shakllantiradi.

Faollik – shaxs siyosiy ijtimoiylashuvning yuqori bosqichidir. Faol shaxsgina jamiyatdagi o'z o'rnini anglab, ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsata oladi. Shuningdek, jamiyatdagi muammolarning hal qilinishida o'zida mas'uliyatni his qiladi. Bunday shaxs o'z siyosiy qarashlari va prinsiplariga ega bo'ladi. O'z haq-huquqlarini qonuniy yo'l bilan himoya qilish madaniyati shakllangan bo'ladi.

Zamon va tarixiy jarayonlar ta'siri: Muayyan tarixiy voqealar, siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar siyosiy ijtimoiylashuv jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Har bir avlod o'z davrining tajribasiga asoslangan holda siyosiy voqelikni qabul qiladi va bu ularning siyosiy qarashlari va xulq-atvorida iz qoldiradi. Qaysi davrda yashayotgani va qanday tarixiy burilishlar guvohi bo'layotgani shaxsning siyosiy dunyoqarashini shakllantiradi. Zero, tinchlik va iqtisodiy o'sish davrida ijtimoiylashgan shaxslar tizimga ishonch bilan qaraydi va evolyutsion islohotlar tarafdori bo'ladi. Siyosiy buhronlar yoki iqtisodiy krizis davrida voyaga yetganlar siyosiy faol, radikallashuvga moyil yoki aksincha, siyosatdan butunlay ko'ngillari qolgan bo'lishi mumkin.

Geosiyosat va globallashuv jarayonining ta'siri: Bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlari va xalqaro aloqalar ham shaxs siyosiy ijtimoiylashuvga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xorijiy ommaviy axborot vositalari, xalqaro tashkilotlar va global siyosiy tendensiyalar individlarning siyosiy qarashlari va qadriyatlari shakllanishiga ko'rsatayotgan ta'sirini hech kim inkor qilolmaydi. Agar ilgari inson faqat o'z qishlog'i yoki davlati doirasidagi voqealar ta'sirida shakllangan bo'lsa, hozirda deyarli hamma global jarayonlar "qozonida qaynayapti".

Shuning natijasida shaxs tanlovga duch keldi, ya'ni dunyodagi yirik kuch markazlari (AQSH, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi) o'rtasidagi raqobat shaxsning siyosiy ongiga bevosita ta'sir qilmoqda. Geosiyosiy to'qnashuvlar shaxsni muayyan bir tomonni tanlashga yoki neytral pozitsiyada qolishga majbur qilmoqda. Globallashuv tufayli siyosiy qadriyatlar va modellar chegara bilmay tarqalmoqda. Bu jarayon shaxs ijtimoiylashuvida bir tomondan,

demokratiya, inson huquqlari, gender tengligi va ekologik mas'uliyat kabi global standartlarni qabul qilishga undasa, boshqa tomondan, global ta'sirga javoban milliy o'zlikni, diniy va madaniy qadriyatlarini himoya qilish instinktining kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Sirasini aytganda, shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi endilikda faqat ichki milliy omillar bilan emas, balki tashqi global vaziyat bilan belgilanmoqda. Inson o'zini kichik bir jamiyat a'zosi sifatida emas, balki katta geosiyosiy o'yinning bilvosita ishtirokchisi sifatida his qila boshladi.

Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonini takomillashtirish – bu davlat boshqaruvining barqarorligi va demokratik islohotlarning samaradorligini ta'minlovchi strategik vazifadir. Ushbu jarayonni rivojlantirish quyidagi mexanizmlarni joriy etishni taqozo etadi:

1. Talabalar oliy ta'lim tizimida siyosatshunoslik ilmidan chuqurroq xabardor bo'lishi kerak. Jahon maydonida siyosiy kurashlar, siyosiy manipulyatsiya avj olgan hozirgi kunda bu juda muhim.

2. Siyosiy institutlar, ayniqsa siyosiy partiyalar faoliyati takomillashtirilib, ular fuqarolarning siyosiy manfaatlarini to'la ifoda eta olishlari kerak.

3. Hozirgi paytda yoshlarning siyosiy ongining shakllanishida, ularni boshqarishda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri tobora ortib bormoqda. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarning ta'sir mexanizmini siyosiy ijtimoiylashish sari yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

4. Shaxs siyosiy ijtimoiylashuvini takomillashtirishning eng samarali yo'li – bu demokratik islohotlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ushbu qonuniyatlar siyosiy ijtimoiylashuv jarayonining murakkabligi va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa globallashuv va axborotlar oqimi kuchayib borayotgan bugungi davrda siyosiy ijtimoiylashuv qonuniyatlari ham o'zgarib, yangicha xarakter kasb etmoqda. Shu bois bugungi kunda milliy va global demokratik standartlar o'rtasidagi muvozanatni topish shaxs ijtimoiylashuvining eng murakkab nuqtasiga aylanmoqda. Ularni o'rganish siyosiy xulq-atvorning shakllanish mexanizmlarini tushunish va samarali siyosiy ta'lim va tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Shulardan kelib chiqib, siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni samaradorligini oshirish uchun quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

✓ ta'lim muassasalarida nazariy siyosiy bilim berish bilan bir qatorda “Debat klublari”, “Yoshlar parlamenti” kabi amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish orqali shaxsda yoshligidanoq qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish;

✓ yoshlarda siyosiy axborotlarni saralash va manipulyatsiyalarga aldanib qolmaslik ko'nikmalarini rivojlantirish;

✓ milliy manfaatlariga mos keladigan, zamonaviy siyosiy media-mahsulotlarni ko'paytirish.

✓ fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada jonlantirish.

Umuman olganda, shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi faqat davlatning vazifasi emas, balki oila, ta'lim tizimi va fuqarolik jamiyatining uyg'un harakati natijasidir. Shaxs qanchalik erta siyosiy jarayonlarga jalb qilinsa, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlar shunchalik samarali bo'ladi. Bu esa yangi jamiyat qurishdek ulkan maqsadlarning tezroq amalga oshishi garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Алмонд Г., Верба С. Гражданская культура: политические установки и демократия пяти странах. – Москва: Мысль, 2014. – 500 с.

3. Глазунин Р. В. Социализация как трансформация общественного сознания // Полис. 2005. № 2. С.18.

4. Роберт Дал. Демократия и её критики. – М.: РОССПЕН, 2003. С– 576.

5. Желтов В.В. Политология: Учебное пособие. – Ростов н/Д: Феникс, 2004, С-371.

6. Entoni Giddens. Sotsiologiya. T.:2002, 100-b.

7. Mol A. Sotsiadinamika kulturi. – M.,1993. – 176 s.

8. Muqimjon Qirg'izboyev, Yangi O'zbekiston me'mori. // Tafakkur, 2023. –№3, 22-bet.

9. Barno Hamroqulova. Tarbiya – jamiyat ishi // Tafakkur, 2008, –№2.
10. Alisher Nazar. Orzudagi parlament. // Tafakkur, 2021, – №1, 12-bet.
11. To‘lenov J.T., G‘afurov Z.G‘. Kollektiv – qudratli kuch. –Toshkent: O‘zbekiston, 1984. 27-b.

SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA “AQLLI SHAHAR”LARNI RIVOJLANTIRISH: GLOBAL TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN INSTITUTSIONAL CHAQIRIQLAR

Bekdavat Aliyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Falsafa fanlari doktori, professor

Djaxongir Bayaliyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Jahangir2015@yandex.ru

ORCID 0000-0002-32-35-1206)

UDK 004.8

Annotatsiya. Ushbu maqolada global texnologik raqobat sharoitida sun‘iy intellekt (SI)ning strategik resurs sifatidagi ahamiyati hamda uni “aqlii shahar”lar boshqaruv tizimiga joriy etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro tajriba (Singapur, Seul, Dubay, Germaniya) qiyosiy o‘rganilib, muvaffaqiyatli raqamli shahar modellarining asosiy xususiyatlari – yagona ma‘lumotlar arxitekturasi, idoralararo integratsiya va standartlashtirish ekani aniqlandi. Shuningdek, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston sharoitida SI loyihalarining ko‘proq fragmentlangan, nuqtaviy xarakterga ega ekani ko‘rsatildi.

Tahlil natijasida O‘zbekistonda “aqlii shahar”larni rivojlantirishdagi asosiy to‘siqlar – texnologik tarqoqlik, pilot loyihalarni masshtablashtirish muammosi, kiberxavfsizlik va maxfiylik risklari, kadrlar tanqisligi hamda institutsional muvofiqlashtirishning yetarli emasligi ekani asoslab berildi. Maqolada SIni samarali joriy etish uchun yagona shahar ma‘lumotlar platformasi, milliy standartlar va kadrlar tayyorlash ekotizimini shakllantirish zarurligi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt, aqlii shahar, raqamli transformatsiya, shahar boshqaruvi, katta ma‘lumotlar, raqamli egizak, integratsiyalashgan platformalar, kiberxavfsizlik, shahar infratuzilmasi, innovatsion rivojlanish.

DEVELOPMENT OF “SMART CITIES” BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE: GLOBAL EXPERIENCE AND INSTITUTIONAL CHALLENGES FOR UZBEKISTAN

Abstract. This article examines the role of artificial intelligence (AI) as a strategic resource in the context of intensifying global technological competition and explores its application in smart city governance systems. Based on a comparative analysis of international experience (Singapore, Seoul, Dubai, and Germany), the study identifies key success factors of advanced digital urban models, including unified data architecture, interagency integration, and standardization. It is shown that in Central Asian countries, including Uzbekistan, AI initiatives in urban environments remain largely fragmented and project-based.

The research highlights major barriers to smart city development in Uzbekistan, such as technological fragmentation, challenges in scaling pilot projects, cybersecurity and privacy risks, shortage of qualified specialists, and insufficient institutional coordination. The study concludes that effective AI implementation in urban governance requires the establishment of a unified city data platform, development of national technical standards, and creation of a sustainable talent development ecosystem.

Keywords: artificial intelligence, smart city, digital transformation, urban governance, big data, digital twin, data integration, cybersecurity, urban infrastructure, innovation development.

Kirish. Global texnologik raqobat kuchayib borayotgan bugungi davrda sun‘iy intellekt (SI) davlatlarning strategik rivojlanish omiliga aylanmoqda. Jahon siyosatida ishonchsizlik muhiti ortib, iqtisodiy va texnologik ustunlik milliy xavfsizlik darajasiga ko‘tarilgan sharoitda raqamli transformatsiya, ayniqsa shahar boshqaruvida SIDan foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

SI bugun shunchaki innovatsion texnologiya emas, balki iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, resurslar samaradorligini oshiruvchi va davlat boshqaruvini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiquvchi strategik resurs sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda ham mazkur tendensiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib, “aqlii shahar” konsepsiyasi amaliyotga joriy etilmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – “aqli shahar”larda SI ni joriy etishning institutsional, texnologik va boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish, xalqaro tajribani o‘rganish va O‘zbekiston sharoitida mavjud to‘siqlar hamda rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot nazariy va ilmiy jihatdan bir qator yetakchi manbalarga tayanadi, jumladan, Carlo Ratti tomonidan ilgari surilgan shaharlarni ma’lumotlar asosida boshqarish konsepsiyasi, Anthony Townsendning “Smart Cities: Big Data, Civic Hackers, and the Quest for a New Utopia” asari, United Nations tomonidan ishlab chiqilgan barqaror shaharlar va SDG 11 konsepsiyasi hamda World Bankning raqamli transformatsiya va shahar boshqaruvi bo‘yicha tahlillari muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Stuart Russell va Peter Norvingning “Artificial Intelligence: A Modern Approach” asari, OECD tomonidan ishlab chiqilgan AI Governance Principles, World Economic Forumning Global AI Governance Reports hujjatlari, Douglass Northning institutsional o‘zgarishlar nazariyasi hamda Daron Acemoglu tomonidan asoslangan institutlar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlar tadqiqotning ilmiy asosini mustahkamlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot bir qator ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi: xususan, qiyosiy tahlil yordamida Singapur, Janubiy Koreya, BAA va Germaniyadagi “aqli shahar” modellari o‘rganildi, tizimli yondashuv orqali esa shahar ekotizimi ma’lumotlar, infratuzilma va boshqaruv elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, institutsional tahlil doirasida me’yoriy baza, standartlashtirish jarayonlari hamda davlat boshqaruvi mexanizmlari baholandi, keys-tahlil asosida esa O‘zbekistondagi Safe City, Smart Tashkent kabi mahalliy loyihalar misolida amaliy tajriba ko‘rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “aqli shahar” ekotizimi bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular sensorlar va IoT qurilmalari, yuqori tezlikdagi aloqa infratuzilmasi, katta ma’lumotlar ombori, analitik platformalar hamda sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish tizimlarini o‘z ichiga oladi. Sun’iy intellekt esa shahar boshqaruvida muhim funksiyalarni bajarib, anomaliya va tendensiyalarni aniqlash, talab va xavflarni prognoz qilish hamda qarorlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektni shahar darajasida samarali joriy etgan davlatlarda umumiy yondashuv mavjud bo‘lib, masalan, Singapurda “Virtual Singapore” loyihasi doirasida yagona 3D raqamli egizak va milliy ma’lumotlar arxitekturasi yaratilgan, Seulda raqamli egizak texnologiyasi transport va favqulodda vaziyatlarni modellashtirishda qo‘llanilmoqda, Dubayda markazlashgan transport sun’iy intellekti orqali trafik dinamik boshqarilmoqda, Germaniyada esa munitsipal platformalar uchun yagona arxitektura asosida milliy standartlashtirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu davlatlarda muvaffaqiyatning asosiy omillari sifatida integratsiyalashgan ma’lumotlar platformasi, idoralararo hamkorlik va yagona texnik standartlar muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo va xususan, O‘zbekiston tajribasida esa sun’iy intellekt asosan nuqtaviy, ya’ni fragmentlangan tarzda joriy etilayotgani kuzatiladi: mamlakatda “Safe City” loyihasi xavfsizlik va videotahlilga, “Smart Tashkent” transport boshqaruviga, “Smart Samarqand” esa kommunal xizmatlarni raqamlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, ushbu tizimlar hali yagona shahar ma’lumotlar platformasiga to‘liq integratsiya qilinmagan.

Global texnologik raqobatning kundan kun kuchayib borayotganiga jahon siyosatida yuz berayotgan so‘nggi voqea-hodisalarga yaqindan nazar tashlagan kishi SI bo‘yicha siyosatning naqadar to‘g‘ri, o‘z vaqtida amalga oshirilayotganini tushunib yetadi. Zero, dunyo siyosatida mamlakatlar o‘rtasida tobora ishonchsizlik hissi ortib borayotgan, global hamkorlikdan ko‘ra raqobat muhiti hukmron, texnologik raqobat darajasi mamlakatlarning hayot-mamotiga aylangan bir paytda texnologik yuksalish masalasiga e’tibor har qanday davlat rivojida favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ayni mana shu jarayonlarni bugun teran anglab yetmoqda. SI shunchaki texnologiya emas, iqtisodiyotni harakatga keltiradigan, haqiqiy foyda olib keluvchi strategik resurs sifatida qaralmoqda. Fikrlarimiz Prezident Murojaatnomasida to‘liq o‘z tasdig‘ini topgan. Davlat rahbari o‘z nutqida xizmatlar sohasida AT, sun’iy intellekt, fintex kabi katta daromad keltiradigan

servislarni ko'paytirish iqtisodiyot hajmini oshirish, uni kelgusi besh yilda 240 milliard dollardan oshirishda muhim o'ringa ega ekanligini alohida ta'kidlagan edi [1]. 2025-yil 4-dekabrda prezident "aqli shahar" yaratish bo'yicha Urganch tajribasini O'zbekiston bo'ylab joriy etishni buyurdi. SI va loyihalashtirish ekspertlari Gazeta uchun obzorda bunday shahar turli mamlakatlarda qanday ko'rinishda bo'lishi, nimadan iboratligi va uning quruvchilari oldida qanday muammolar turganini aytib o'tdi[2].

"Aqli shahar" o'zi nima?

Aqli shahar ekosistemi ko'plab elementlardan iborat. Ular:

- sensorlar (trafik, ob-havo, suv datchiklari, aqli kameralar);
- ma'lumotlar manbalari;
- aloqa manbalari (optika, 4G/5G);
- analitika (prognozlash, optimallashtirish, raqamli egizaklar) va boshqalar[3] iborat.

Sun'iy intellekt vositalarning uchta muhim toifasini qo'shadi. U anomalialar va tendensiyalarni aniqlash, talab va xavflarni bashorat qilish, inson ishtirokidagi yoki ishtirokisiz qarorlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Shaharlarni raqamlashtirish va butun dunyo bo'ylab kuzatilayotgan sun'iy intellektni joriy etish ikkita parallel jarayon tufayli mumkin bo'ldi.

Birinchidan, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash infratuzilmasi taraqqiy etdi: datchiklar arzonlashdi, aloqa tarmoqlarining o'tkazuvchanlik qobiliyati yuqoriladi (5G 4G dan ancha tezroq), chiplarning hisoblash qobiliyati va samaradorligi oshdi. Bularning barchasi birgalikda real vaqt rejimida shahardagi turli vaziyatlarni tahlil etish va qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda. Masalan, svetoforlar, nasos uzellari va yoritish ustunlari shunday boshqariladi[4].

Ikkinchidan, standartlarni belgilovchi me'yoriy asos yetarli darajada shakllandi. Masalan, Amerikada sun'iy intellekt xavfini baholash tizimi mavjud, Yevropa Ittifoqida esa Sun'iy intellekt to'g'risidagi akti bajarish majburiydir. Ushbu hujjatlar sun'iy intellektni qo'llash eng xavfli bo'lgan sohalarni, shuningdek, uni nazorat qilish rejimlarini belgilaydi. Shahar sharoitida ikkala hujjat ham shaffoflik va oldindan ayta olish uchun qulaylik beradi. Bu, ayniqsa, shahar hayotining muhim tizimlari haqida gap ketganda foydalidir[5].

Amalda tartibga soluvchi hujjatlar texnik topshiriqni shakllantirishni osonlashtiradi. Uni tuzishda bir qator mezonlarni aniqlash uchun mavjud standartlardan foydalanish mumkin. Qaysi tizimlar yuqori xavfli tizimlarga kiradi – videokuzatuv, transport oqimlarini optimallashtirish, kommunal resurslarni taqsimlash yoki yuqoridagilarning hech biri? Ushbu tizimlarga ma'lumotlar sifati bo'yicha, shuningdek, qarorlarni jurnallashtirish va nazorat qilish bo'yicha qanday talablar qo'yilishi kerak? Buzilishlar uchun aynan kim javobgar bo'lishi lozim?

Natijada sun'iy intellektni joriy etish yanada boshqariladigan bo'ladi va ishlab chiqilgan xalqaro tajribalarni o'zlashtirish imkonini beradi. Bundan aholi ham, tadbirkorlar ham, hokimiyat ham manfaatdor bo'ladi. Shahar aholisi uchun yangi yechimlarni ayta olish, xavfsizlik va ishonch darajasi oshadi. Hokimiyat va investorlar esa sun'iy intellekt tufayli tartibga solish va reputatsion xatarlarni kamaytirishlari mumkin.

Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, shahar darajasida sun'iy intellektni joriy etish aniq ma'lumotlar arxitekturasi va idoralararo integratsiya mavjud bo'lgan mamlakatlarda eng muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Masalan, **Singapurda** Virtual Singapore loyihasi qurilish, transport, insolyatsiya va iqlim haqidagi ma'lumotlarni yagona 3D platformada birlashtirdi. Bu loyihalashtirish boshlanishidan oldin kelajakdagi qurilish va energiya sarfi ssenariylarini tahlil qilish imkonini berdi[6].

Seulda favqulodda vaziyatlarni modellashtirish va trafikni optimallashtirish uchun foydalaniladigan Yo'ldo orolining raqamli egizagi yaratilmoqda[7]. **Dubayda** sun'iy intellektga asoslangan markazlashtirilgan svetoforlarni boshqarish tizimining joriy etilishi chorrahalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini 16–37% ga oshirdi[8].

Germaniya butun mamlakat uchun yechimlarni standartlashtirmoqda va ko'plab munitsipalitetlar uchun yagona platforma yaratmoqda. Mamlakatda "Aqli shaharlar pilot

loyihalari» federal dasturi doirasida 70 dan ortiq munitsipal loyihalar tarmog'i joriy etilgan. Raqamli rivojlanish strategiyalari va pilotlar aniq yerlarning vazifalariga mos ravishda tanlanadi. Masalan, avtomobil trafigi ma'lumotlarini almashish tamoyillari, svetofor rejimini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilish va ushbu qarorlarni svetofor dasturiy ta'minoti bilan integratsiyalash standartlari umumiy bo'lib qolmoqda. Ya'ni ma'lumotlarga yondashuvlar va sun'iy intellekt algoritmlarini vositalar bilan birlashtirish GFR uchun yagonadir[9].

Gamburgda o'nlab manbalar ma'lumotlarini birlashtirgan yagona shahar ma'lumotlar platformasidan foydalaniladi: transport oqimlari, shahar xaritalari va topografiyasi, atrof-muhit monitoringi ma'lumotlari, shahar infratuzilmasi va kommunal tarmoqlar, qurilish ma'lumotlari, shaharning 3D modeli. Ushbu platformadan aholiga xizmat ko'rsatuvchi turli tor yo'nalishdagi servislardan foydalanadi. Masalan, transport ilovalari platformadan trafik haqidagi dolzarb ma'lumotlarni oladi va ulardan svetoforlarning ishlashini tahlil qilish va fazalarni optimallashtirish uchun foydalanadi. Ekologik xizmatlar yashil maydonlar xaritalarini, suv toshqini ehtimoli bo'lgan hududlarni va suv sifati ko'rsatkichlarini olmoqda[10].

Turli sohalaridagi ma'lumotlar bitta raqamli muhitda birlashtirilgani sababli har qanday yangi shahar loyihasi o'z ma'lumotlar modelini ishlab chiqish va noldan integratsiyani chetlab o'tib, tizimga ulanadi. Bu moliyaviy va vaqt xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi va muvaffaqiyatli yechimlarni shaharlar o'rtasida ulashish imkonini beradi.

Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoning rivojlanayotgan iqtisodiyotlarida sun'iy intellektga yondashuv amaliylik bilan belgilanadi. Mintaqa shaharlarida SIni integratsiyalashgan emas, balki ko'proq nuqtalarga e'tibor qaratgan holda joriy etish kuzatilmoqda. Boshqacha aytganda, yechimlar yagona platformani qurish va mavjud standartlardan qayta foydalanishga tayanmaydi. Buning o'rniga, individual qarorlar qabul qilinadi. Masalan, O'zbekistonda Safe City respublika dasturi mavjud. U videokameralar tarmog'i, yuzni aniqlash va situatsion markazlar atrofida qurilgan. Alohida munitsipal loyihalar ham bor. Smart Tashkent yo'l harakatini boshqarish, moslashuvchan svetoforlar va trafik tahlilga e'tibor qaratadi. Smart City Samarkand bo'lsa – uy joy kommunal xo'jaligi uchun hisob-kitoblarni raqamlashtirish va suv ta'minotini raqamli modernizatsiya qilishga qaratilgan. Buxoro uchun turizmga e'tibor qaratilgan o'zining nuqtaviy yechimi bor.

Bu "nuqtaviylik"dir. Turli idoralar alohida quyi tizimlarda (xavfsizlik, transport, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, turizm) parallel sinovlarni olib bormoqda. Ularning barchasi hozircha bir-biri bilan qisman bog'langan va Gamburg yoki Singapur kabi xizmatlarni to'liq qamrab olgan yagona, standartlashtirilgan shahar platformasini tashkil etmaydi.

Buni Yevropa Ittifoqi va BMTTDning O'zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikdagi analizi ham tasdiqlaydi. Ishda AT tizimlarining bo'lak-bo'lak ekani va ularning zaif integratsiyalashganlik darajasi aniqlandi[11].

Qozog'iston, masalan, yo'l harakati xavfsizligi videotahlilini ("Sergek" tizimi) kengaytirdi va kun-u tun ishlaydigan iKomek-109 murojaatlarni ko'rib chiqish markazini qurdi.

Ozarbayjon Call markazlarni avtomatlashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanmoqda, shuningdek, OpenData.az va ASAN doirasida yagona ochiq ma'lumotlar portalini yaratyapti. Ikkala mamlakatda ham texnologik yechimlar hali ham ma'muriy mexanizmlarga kiritilmoqda, mavjud amaliyotlar avtomatlashtirilmoqda va to'ldirilmoqda.

Bunday egizakning dastlabki versiyasi, masalan, Toshkentda allaqachon mavjud. Hozirda bu shaharsozlikni rejalashtirish uchun 3D modeli va GIS yadrosidir. Singapur yoki Germaniyadagi "egizaklar"da bo'lgani kabi tizimga turli datchiklar, tarmoqlararo modellashtirish va barcha shahar xizmatlari uchun yagona platforma keng joriy etilmagan[12].

O'zbekistonning boshqa shaharlari ko'proq fragment holiday nuqtaviy modellardan foydalanadi. Garchi ular Toshkentda sinovdan o'tgan yechimlarni moslashtirishi va to'ldirishi mumkin bo'lsa ham. Bunday yondashuv xavflarni kamaytiradi va biz yuqorida ta'riflagan yagona dasturlar, standartlar va aqlli shahar texnologiyalarini yaratish uchun zarur bo'lgan tajribani to'plash imkonini beradi[13].

Biz sun'iy intellektni joriy etishdan foyda olish yo'lida bir nechta to'siqlarni

ko'ryapmiz.

Birinchisi – fragmentatsiya va ma'lumotlarni ajratib olishning murakkabligi, yillar davomida “nuqtaviy” xaridlar ortidan munitsipalitetlarda o'nlab bir-biriga mos kelmaydigan tizimlar to'planib bormoqda: turli avlod svetofor kontrollerlari, yopiq formatli videoplatformalar, ko'plab yetkazib beruvchilarning suv hisobligichlari.

Bunday vaziyatda hatto mukammal model, to'g'ri tuzilgan tizim ham integratsiya va huquqiy to'siqlarga borib taqaladi. Masalan, vazirliklar har bir qaror uchun ma'lumotlar almashinuvini aniq kelishib olishlari kerak. Foydalanish bo'yicha umumiy kelishuv o'rniga, har bir yangi qarorni qayta muvofiqlashtirish va qaysi ma'lumotlardan va qanday hajmda foydalanish mumkinligini aniqlash kerak.

Texnik tarqoqlik quyidagicha hal qilinadi: bo'sag'ada umumiy talablar qo'yiladi – yagona API, integratsiyaning yagona qoidalari va muhim ma'lumotlarni umumiy platformaga uzatish majburiyati. Barcha ta'minotchilar ushbu talablarga rioya qilishlari kerak. Shunda pilot loyihalari “№ 17 chorrahada” chiroyli demo sifatida qoldirishdan ko'ra, butun shahar bo'ylab kengaytirish oson kechadi.

PMtech Group Yevropaning qator mamlakatlarida infratuzilmani loyihalashda xuddi shunday muammoga duch kelmoqda. Muhandislik tizimlari, tarmoqlari va binolari haqidagi ma'lumotlar ko'pincha tarqoq bo'ladi. BIM va sun'iy intellektdan foydalanish loyiha ma'lumotlarining yagona omborlarini yaratish imkonini beradi. Ularda har bir ishtirokchi obyektning dolzarb raqamli modeliga ega bo'lib, bu xatolar xavfini kamaytiradi va kelishuvlarni tezlashtiradi.

Ikkinchi to'siq – pilotdan masshtablashtirishga o'tish. Bir xizmatning qarori qo'shni xizmatlarning yukini darhol o'zgartiradigan shahar tizimi o'zgarishlarni boshqarishni talab etadi. Buning uchun quyidagilar zarur:

- xizmatlar o'rtasida kelishilgan operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari (yo'ldagi vaqt, jamoat transportining ishonchligi, hisobga olinmagan suvlar ulushi, murojaatlarni ko'rib chiqishning o'rtacha vaqti);
- kapital va operatsion harajatlarning uzluksiz rejasi;
- kiberxavfsizlik rejasi;
- ma'lumotlar va vositalardan foydalanish reglamenti.

Xalqaro amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, shaharlarda sun'iy intellekt effektiga pilotlar tomonidan emas, balki ma'lumotlarga asoslangan operatsion boshqaruv orqali erishiladi. Aynan shuning uchun bir qator mamlakatlarda ma'lumotlarni muvofiqlashtirish milliy markazlari va shahar infratuzilmasini kundalik monitoring qilish markazlari tashkil etilmoqda.

Uchinchi to'siq – xavflarni boshqarish va ishonch. Shahar sferasida risklarning noaniqligi va ularni yetarlicha yumshatmaslik halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Sun'iy intellekt yo'l harakati xavfsizligiga, kommunal xizmatlarga va harakatlanish yoki xizmatlar iste'moli haqidagi shaxsiy ma'lumotlarga ta'sir qiladi.

Bu yerda biz maqola boshida aytib o'tgan normativ ramkalar zarur. Bunday mo'ljallsiz shahar sun'iy intellekt amaliy tizimlarining bashorat qilinishi va boshqarilishi haqida gapirish mumkin emas. Shahar tizimlari shaffof bo'lmasa, ularga idoralar ham, fuqarolar ham ishonmaydi. Yoki ular yumshatishning oqilona rejasi mavjud bo'lmagan ilk hodisa yuz berguncha ishonishadi, xolos.

To'rtinchi to'siq – maxfiylik va xavfsizlik. Shaharlar muqarrar ravishda aholining yo'nalishlarini, tashrif vaqtlarini, shahar xizmatlaridan, jumladan, suv va elektr energiyasidan foydalanish xususiyatlarini tiklash mumkin bo'lgan ma'lumotlar bilan ishlaydi. Bu yerda yechim ma'lumotlarni yagona markazga birlashtirish emas. Aksincha, ular turli tizimlar va xizmatlarda qolishi kerak. Bunda tahlilning bir qismi umumiy xotirada emas, balki lokal qurilmalarda o'tkazilishi lozim. Bunday yondashuvda hatto ma'lumotlarning alohida qismidagi zaiflik ham ma'lumotlarning oz miqdorda sizib chiqishiga olib keladi.

Beshinchi to'siq – talant defitsiti. Shahardagi sun'iy intellekt – “neyrotarmoqni joriy etish” emas, balki tahlilchilar, muhandislar va ma'lumotlar arxitektoralari, tadqiqotchilar va kibermutaxassislarning tartibli ishidir. Bunday odamlarni topish qiyin, samaradorlikni minimal yo'qotishlar bilan tashkil etish va oshirish esa yanada qiyinroq. Kengaytirish usuli –

mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha maqsadli dasturlar, xususiy biznes bilan hamkorlik, startaplar va integratorlar uchun "qumdonlar"[14].

Xulosa. Xulosa shuki, Prezident qarorlari, texnologiyalarni rivojlantirishdagi faol markazlashgan yondashuv O'zbekistonda SIni joriy qilishni tezlashtirishga qaratilgan kuchli siyosiy iroda mavjudligidan dalolat beradi. Nihoyat, "inson omili" va kutilmalarni boshqarish. Shahar – rejalashtirish muddati uzoq va mas'uliyat darajasi yuqori bo'lgan eng konservativ sohalaridan biridir. Agar shahar ma'lumotlar platformasi barcha tomonlarning manfaatlarini bilan bog'liq bo'lsa va cheklangan foydaga ega nazariy ambitsiyalarga emas, balki umumiy qiymatga e'tibor qaratilsa, manfaatdor tomonlarni jalb qilish osonlashadi.

Bunday markazlashgan strategik rivojlantirish boshqa mamlakatlarda kuzatilayotgan fragmental yondashuvdan farqli ravishda, sohadagi siyosatni tezkorlik bilan amalga oshirishga va resurslarni taqsimlashga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida, O'zbekistonning SIga tayyorgarlik masalasida katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi O'zbekiston va sun'iy intellekt // Hurriyat. 2026-yil 21 yanvar, 3-bet.
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2025/12/04/smart-city/>.
3. Townsend A. Smart Cities: Big Data, Civic Hackers, and the Quest for a New Utopia. – New York: W.W. Norton & Company, 2013, P. 384
4. Batty M. The New Science of Cities. – MIT Press, 2018, P. 282
5. United Nations. World Urbanization Prospects. – UN DESA Reports, 2013, P. 584
6. European Union. Artificial Intelligence Act (EU AI Act). – Brussels, 2024, 2013, P. 380
7. Singapore Land Authority. Virtual Singapore Project Overview. – Government of Singapore publications, 2013, P. 389
8. Seoul Metropolitan Government. Digital Twin Seoul Policy Report, 2013, P. 560
9. Dubai Smart City Office. AI and Smart Mobility Strategy Reports, 2013, P. 350
10. Federal Ministry for Housing, Urban Development and Building (Germany). Smart Cities Model Projects Programme, 2013, P. 370
11. OECD. Artificial Intelligence in Cities and Regions. – OECD Digital Economy Papers, 2013, P. 340
12. World Bank. Data-Driven Cities: Digital Transformation in Urban Governance, 2013, P. 390
13. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.
14. <https://www.gazeta.uz/uz/2025/12/04/smart-city/>

IJTIMOYIY-IQTISODIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA MULOQOTNING O'RNINI VA ROLI

Bekdavlat Aliyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Falsafa fanlari doktori, professor

Djaxongir Bayaliyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Jahangir2015@yandex.ru

ORCID 0000-0002-32-35-1206)

UDK 130.3

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv sharoitida muloqotning mohiyati, shakllari va jamiyat taraqqiyotidagi roli ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonining zamonaviy bosqichi davlatlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirib, muloqotni obyektiv ijtimoiy zaruratga aylantirgani asoslab beriladi. Shu bilan birga, globallashuv natijasida yuzaga kelayotgan iqtisodiy nomutanosiblik, ma'naviy inqiroz va madaniy standartlashuv xavflari ko'rsatib o'tiladi. Muloqotning shaxslararo, millatlararo, dinlararo va sivilizatsiyalararo darajalari ochib berilib, uning ziddiyatlarni kuchaytirish yoki yumshatish imkoniyati tahlil qilinadi. Muallif samarali muloqotning asosiy shartlari sifatida o'zaro hurmat, tenglik, ma'naviy yetuklik va umuminsoniy manfaatlar ustuvorligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, konstruktiv muloqot globallashuvning salbiy oqibatlarini kamaytirish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim omilidir.

Kalit so'zlar: globallashuv, muloqot, sivilizatsiyalararo munosabatlar, madaniyatlararo aloqa, ma'naviyat, barqaror taraqqiyot, global ziddiyatlar.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF COMMUNICATION IN THE CONTEXT OF SOCIO-ECONOMIC GLOBALIZATION

Abstract. This article provides a socio-philosophical analysis of the essence, forms, and role of dialogue in the context of socio-economic globalization. It argues that the current stage of globalization has intensified interdependence among states, cultures, and civilizations, transforming dialogue into an objective social necessity. At the same time, the paper highlights such consequences of globalization as growing economic inequality, spiritual crisis, and cultural standardization. Interpersonal, interethnic, interreligious, and intercivilizational levels of dialogue are examined, as well as its potential both to intensify and to mitigate conflicts. The author identifies mutual respect, equality, spiritual maturity, and the priority of universal human interests as key conditions for constructive dialogue. It is concluded that constructive dialogue is a crucial factor in reducing the negative effects of globalization and ensuring sustainable development.

Keywords: globalization, dialogue, intercivilizational relations, intercultural communication, spirituality, sustainable development, global conflicts.

Kirish. XX asrning so'nggi choragidan boshlab globallashuv jarayoni jahon taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biriga aylandi. Yangi transport tizimlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi natijasida makon "qisqardi", ijtimoiy vaqt tezlashdi, davlatlar, jamiyatlar va madaniyatlar o'rtasidagi bog'liqlik mislsiz darajada kuchaydi. Shu bilan birga, globallashuv faqat iqtisodiy integratsiya emas, balki qadriyatlar, dunyoqarashlar va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi jarayoni hamdir.

Zamonaviy bosqichda globallashuvning eng murakkab jihati – bu uning notenglikni kuchaytiruvchi, madaniy standartlashuvga olib keluvchi va ma'naviy inqiroz xavfini yuzaga chiqaruvchi ta'sirlidir. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi texnologik va iqtisodiy tafovut, transmilliy korporatsiyalar ta'sirining ortishi, iste'molchilik falsafasining ustuvorlashuvi global tizimda jiddiy nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bunday sharoitda turli sivilizatsiyalar, millatlar, dinlar va madaniyatlar o'rtasidagi muloqot nafaqat ijtimoiy zarurat, balki global barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omilga aylanmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi – ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv sharoitida muloqotning mohiyati, shakllari va jamiyat taraqqiyotidagi rolini falsafiy-ijtimoiy tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv va sivilizatsiyalararo muloqot muammosi so'nggi o'n yilliklarda turli fanlar kesimida faol o'rganilmoqda. Globallashuvning ijtimoiy tabiati va uning madaniy jarayonlarga ta'siri R. Robertson tomonidan global madaniyat va "globallashuv" tushunchalari orqali tahlil qilingan [1]. U global jarayonlar lokal madaniyatlarni yo'qotmasdan, balki ular bilan o'zaro ta'sirda rivojlanishini ta'kidlaydi.

I. Vallersteynning dunyo tizimi nazariyasi global iqtisodiy munosabatlarni markaz va periferiya o'rtasidagi noteng almashuv tizimi sifatida izohlaydi [2]. Bu yondashuv globallashuv sharoitida iqtisodiy nomutanosibliklar kuchayishini tushuntirishga xizmat qiladi. J. Stiglis esa global iqtisodiy institutlar siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatgan [3].

Globallashuvning insoniy taraqqiyotga ta'siri BMT Taraqqiyot dasturi hisobotlarida keng yoritilgan bo'lib, unda global integratsiya inson manfaatlariga xizmat qilishi kerakligi asoslanadi [4]. Bu yondashuv mazkur tadqiqotdagi "umuminsoniy manfaatlar ustuvorligi" g'oyasi bilan uyg'un.

Sivilizatsiyalararo munosabatlar masalasi S. Xantington tomonidan "sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasi orqali talqin qilingan [5]. U global siyosat madaniy-sivilizatsion farqlar asosida shakllanishini ta'kidlaydi. Biroq, ushbu qarash dialog imkoniyatlarini cheklangan holda ko'radi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola ziddiyat emas, balki muloqotni ustuvor omil sifatida ko'ruvchi yondashuvni ilgari suradi.

Madaniyatlar muloqoti falsafasi V. Mejuyev ishlarida ham muhim o'rin tutadi. U dialogni sivilizatsiyalararo tushunishning asosiy shakli sifatida ko'rsatadi, biroq ayrim madaniy an'analarda muloqot imkoniyatlari cheklanganligini qayd etadi [6]. Mazkur tadqiqot esa Sharq jamiyatlarida ham muloqot an'analari mavjudligini asoslashga harakat qiladi.

Ma'naviyat va jamiyat barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik masalasi milliy ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Xususan, I. Karimov ma'naviyatni global tahdidlarga qarshi turishning asosiy omili sifatida baholaydi [7]. Bu g'oya maqolada muloqot samaradorligining ma'naviy asoslarini ochib berishda nazariy poydevor vazifasini o'taydi.

Shuningdek, ekologik va barqaror taraqqiyot konsepsiyalari doirasida M. Jeykobs global iqtisodiy rivojlanishni qadriyatlar transformatsiyasi bilan bog'laydi [8]. Bu esa iqtisodiy globallashuvni faqat bozor emas, balki ma'naviy tanlovlar bilan ham bog'liq jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy yondashuvlardan kompleks tarzda foydalanildi: xususan, falsafiy-dialektik usul orqali globallashuv va muloqot o'zaro bog'liq, ichki ziddiyatlarga ega hamda uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida tahlil qilindi. Shu bilan birga, tizimli yondashuv asosida globallashuv iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy omillarning uzviy birligi sifatida ko'rib chiqildi. Qiyosiy tahlil yordamida esa turli madaniyat va sivilizatsiyalardagi muloqot an'analari o'zaro taqqoslanib o'rganildi. Bundan tashqari, ijtimoiy-falsafiy interpretatsiya orqali muloqot jarayonining qadriyatlar transformatsiyasiga hamda ma'naviy xavfsizlikka ko'rsatadigan ta'siri chuqur izohlandi. Manba sifatida globallashuv nazariyalari, sivilizatsiyalararo munosabatlar konsepsiyalari, shuningdek, milliy ma'naviyat va tarbiya masalalariga oid ilmiy va falsafiy qarashlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mantiqiy, tarkibiy va sosio-metrik tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, induksiya va deduksiya kabi mantiqiy usul va ulublardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tahlillar natijasida globallashuv sharoitida muloqotning ahamiyati va xususiyatlariga oid bir qator muhim xulosalar aniqlandi. Avvalo, globallashuv muloqotni obyektiv zaruratga aylantirgani kuzatildi, chunki iqtisodiy integratsiya, xalqaro bozorlarning kengayishi, mehnat migratsiyasi, ta'lim va turizm oqimlarining ortishi turli madaniyat va dunyoqarash vakillari o'rtasidagi bevosita aloqalarni kuchaytirdi. Natijada muloqot endilikda ixtiyoriy jarayon emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim va tabiiy shartiga aylandi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda muloqot yangi shakl va darajalarda namoyon bo'layotgani, ya'ni shaxslararo, millatlararo, dinlararo, madaniyatlararo va sivilizatsiyalararo ko'rinishlarda amalga oshayotgani aniqlandi, raqamli makon esa uning virtual, transmilliy va uzluksiz xarakterini yanada kuchaytirmoqda. Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, muloqot bir vaqtning o'zida ham ziddiyat manbayi, ham ularni bartaraf etish vositasi bo'lishi mumkin bo'lib, uning samaradorligi ishtirokchilarning dunyoqarashi, bag'rikengligi va ma'naviy saviyasiga bevosita bog'liq. Xususan, dogmatik va mutlaq haqiqatga da'vo qiluvchi yondashuvlar muloqotni cheklab, konfliktlarni kuchaytirsas, o'zaro hurmat va tenglikka asoslangan muloqot aksincha ziddiyatlarni yumshatadi. Bundan tashqari, iqtisodiy globallashuv bilan bog'liq tahdidlarni kamaytirishda ham muloqotning o'rni beqiyos ekani ta'kidlandi, chunki adolatli xalqaro iqtisodiy munosabatlar, texnologiyalar almashinuvi va barqaror taraqqiyot strategiyalari davlatlar hamda sivilizatsiyalar o'rtasidagi konstruktiv muloqot asosida shakllanadi. Nihoyat, ma'naviy omil samarali muloqotning asosiy sharti sifatida e'tirof etilib, shaxsning mustahkam e'tiqodi, milliy o'zligini anglash darajasi hamda boshqa qadriyatlarga hurmat bilan yondashuvi muloqotni bir tomonlama ta'sir vositasidan o'zaro boyish jarayoniga aylantirishi qayd etildi.

Globallashuv atamasi o'tgan asrning 80 yillaridan keng qo'llanila boshalandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlarini to'g'risida xilma xil fikrlar shunchalik ko'pki, natijada ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ta'rif mavjud emas. Har bir muallif o'zining mafkuraviy qarashlariga ko'ra va o'z fanining predmetidan kelib chiqib, o'z qarashini, tushunchasini ifoda qiladi.

Globallashuv tushunchasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatsak, uning qonuniy, obyektiv jarayon ekanligi, hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikatsiya, axborot vositalari va texnologiyalarini qo'llash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, ma'lum maqsadlarini amalga oshirish uchun jug'rofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benihoyat tezlashganligini qayd qilish zarur.

Globalashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum e'tirof etilgan, shubhasiz, fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol nomoyon bo'lishi tushunarli.

Nima bo'lganda ham globalashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olganligini inkor etib bo'lmaydi. Bugungi kunda uning ta'siridan xoli zamonaviy hayot, taraqqiyot bo'lishi aslo mumkin emas. Bu obyektiv jarayon dunyodagi hodisalarning, qadriyatlarining mohiyatiga o'z ta'sirini o'tkazayotganligi va shuningdek, taraqqiyotning o'ziga xos muhitini shakllantirayotganligi ravshan bo'lib bormoqda. Globalashuv jarayoni hamda undan kelib chiqadigan oqibatlarga, imkoniyatlarga falsafiy baho berish, insoniyat istiqbolining aqlga muvofiq, samarali yo'llarini belgilab olmoq zarur bo'lib bormoqda. Boshqacha aytganda, globalashuv jarayoni ming yillar davomida insoniyat erishgan milliy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlariga tahdidini bartaraf qilgan holda hozirgi zamon jamiyatini moddiy va ma'naviy yuksaltirish uchun yangicha dunyoqarash, yangicha falsafa, yangicha tafakkurga ehtiyoj tug'ilmogda. Dunyoqarashning, tafakkurning yangi shakliga o'tilmas ekan, globalashuv jarayonining jamiyat taraqqiyotiga tahdidini bartaraf etib bo'lmaydi. Bu fikr iqtisodiy tafakkurning yangicha shaklini ham o'z ichiga oladi. Hozirgacha bo'lgan butun jamiyat tarixida iqtisodiy manfaatlar, ko'proq moddiy boylikni qo'lga kiritish istagi hukmron bo'lib keldi va hozirga qadar ham shunday bo'lib qolmogda. Holbuki hozirgi davr globalashuv jarayoni, uning afzalliklari va tahdidlari va jamiyat istiqbolini ta'minlashga qodir zamonaviy tafakkurni taqozo qilmogda.

Globalashuv jarayonining hozirgi bosqichdagi mutlaqo yangi xususiyatlarini, omillarini qisqacha bir eslab o'taylik. Jahon xo'jaligi o'zini-o'zi taminlaydigan tizimga aylandi. Endilikda iqtisodiy ishlab chiqarish hissasi milliy mamlakat darajasida emas, balki xalqaro darajada belgilanmogda. Cheksiz boylik va kuchli hokimiyatni o'zida birlashtirgan kuchli monopoliyalar, kuchli hokimiyatni o'zida birlashtirgan yirik monopoliyalar va transmilliy korporatsiyalar faoliyat yuritmogda. Ular ishlab chiqarishning ma'lum sohalarida yakka hukmronlik qilib, butun yer yuzini o'z ta'sir doirasiga olmogdalar. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi texnologik tafovut bir tomonning o'ta boyib ketishiga, ikkinchi tomonning esa qashshoqlanishiga olib kelmogda. Rivojlangan mamlakatlar zamonaviy tovar va xizmatlarni (kompyuterlar, dasturlar, uyali telefonlar, kosmik xizmatlar kabilari) eksport qilib, rivojlanayotgan mamlakatlardan noteng almashuv asosida tabiiy resurslarni, boyliklarni so'rib olmogda. Qaror topgan bunday iqtisodiy tartib qoloq mamlakatlar uchun rivojlangan mamlakatlar darajasiga o'sib o'tishi imkoniyatlarini barbod qilmogda yoki haddan tashqari murakkablashtirmogda. G'arbning rivojlangan boy mamlakatlari va janubning kambag'al mamlakatlari o'rtasidagi notenglik haqida o'tgan asrning 70-yillaridayoq "Rim kulubi" ma'ruzalarida va BMT uchun "Brand Komissiyasi" ma'ruzalarida bayon etilgan edi. U paytda bu tafovut 1:13 nisbatda edi. O'tgan asrning 80-yillarida bu farq 1:61 ga, 90-yillarida 1:74 ga yetdi. XX asrning 70-80-yillarida global boylikning bor yo'g'i 22 foizi dunyo aholisining 80 foizini tashkil qilgan rivojlanayotgan mamlakatlar tasarrufida edi. 1991-yilda 85 foiz dunyo aholisi faqat 15 foiz dunyo boyligiga egalik qilgan[9].

Bu holat bir tomonlama iqtisodiy o'sishda iste'molchilik falsafasining kuchayishida namoyon bo'lmogda. J.Kramer va K.L. Jonsonlarning ma'lumotlariga ko'ra, jahon aholisining 4,7 foizini tashkil qilgan AQSh 25 foiz jahon resursini iste'mol qiladi. M.Jeykabs ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisining 15 foizi jahon resursi va energiyasining 86 foizini iste'mol qiladi, AQSh iste'mol qilinayotgan neftning 70 foizini import qiladi va uni keyingi 5-10 yilda 100 foiz hajmga yetkazishni mo'ljallanmogda[10].

Yana shuni ta'kidlash zarurki, globalashuv tahdidlari turli sohalarda o'zicha kechadigan jarayon emas va unga qarshi kurash ham umumiy ma'naviyatni yuksaltirish asosida bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bunday deb yozgan edi: "Globalashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi

muqarrar”[10]. I.Karimov davom etib yana shunday deydi: “Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o’rgangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berishimiz mumkin”[12].

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida globallashuv jarayonining mohiyati, oqibatlari haqida: “...hayot jarayonlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”, deb baho berilgandi. Shunday ekan, o’zgarib borayotgan hayot talablariga moslashish, shu bilan bir qatorda har bir inson, millat o’zligini saqlab qolish uchun o’zining mustahkam e’tiqodiga, nuqtayi nazariga ega bo’lmog’i, boshqalarning e’tiqodi va nuqtayi nazarini hurmat qilmog’i lozim. Mabodo turli e’tiqodlar va nuqtayi nazarlar birdek qadrlanmas ekan, birini kuchsizlantirish hisobiga ikkinchisi kuchayadi, hayotning mohiyati, go’zalligining o’ziga xos ifoda shakli bo’lgan rang-baranglik, takrorlanmaslik inkor qilinishga olib kelmoqda. Rivojlangan g’arb davlatlari tomonidan dunyoni ekspansiya qilish boshlanganidan beri ana shunday nuqtayi nazar, tamoyil ustuvor bo’lib kelgan. Buning qanday oqibatlarga olib kelganligini jamiyatning barcha sohalarida yaqqol ko’rishimiz mumkin.

Globallashuv jarayonining o’ziga xos tomoni shundaki, u turli subyektlar o’rtasidagi muloqotni beqiyos darajada kuchaytiradi, muloqotning yangi shakllarini, ko’rinishlarini, turlarini vujudga keltirib chiqaradi. Muloqot “Tanishuv”, “fikr almashuv”, “bir-birini o’rganish” tushunchalariga hamohang bo’lib, o’zaro munosabatlarini oydinlashtirish, bir-birini o’rganish va baholash, umumiy manfaatlarni anglab olish vositasi. U shakl jihatidan bevosita va bilvosita, shaxslararo, millatlararo, dinlararo, madaniyatlararo, tamaddunlararo va hokazo bo’lishi mumkin. Muloqot mazmun jihatidan bir-birini boyitishga, biror nuqtayi nazardan voz kechib, ikkinchisini qabul qilishga, umumiy nuqtayi nazarni ishlab chiqishga yo’nalgan bo’lishi mumkin. Rus faylasufi V.M. Mejuyev shunday deydi: “Dialog sof yevropacha muloqot usulidir. Dastlab dialog haqida greklar gapirishgan Men Sharqda dialog mumkinligiga ishonmayman. Sharq payg’ambarlari va donishmandlari o’zaro dialogga kirishmaganlar, barcha dinlar o’z mohiyatiga ko’ra monologik xarakterga ega. Hatto provoslavlar ham xristosdagi o’z aka-ukalari – katoliklar va protistantlar bilan hozircha dialogga kirisha olmayptilar”[13].

Muloqot tomonlarining umumiy manfaati, umumiy maqsadlari mavjud bo’lganda, albatta, turli shakllarda amalga oshadi. Muloqotga asos bo’luvchi umumiy manfaatlar to’g’ri anglanilsa ko’pincha samarali xarakter kasb etadi. Hatto V.N. Mejuyev ta’kidlagan diniy yo’nalishlar sohasida ham samarali siyosiy, ma’rifiy va boshqa muloqotlarni ko’rishimiz mumkin. Xususan, shaxslararo munosabat darajasida bu yaqqol nomoyon bo’ladi. Masalan, tariximizdan ma’lumki, Turkistonda buddaviylar, xristianlar, yahudiylar, musulmonlar bir davrada o’tirib bahslashishgan. Yoki islomdagi to’rt mas’hab ham bir-birini tan oladi[14].

Yuqorida ta’kidlanganidek, globallashuv jarayoni muloqotning ham shaklan, ham mazmunan boyishiga imkoniyat yaratdi. Xalqaro bozorning shakllanishi, kapitalning mamlakatlardan mamlakatlarga erkin harakati, turli tamaddunlarga, madaniyatlarga, millatlarga, tillarga, dinlarga mansub kishilarning jug’rofiy makonda o’quv, ish, tijorat, sayohat, ilm maqsadlarida intensiv aralashuvlari, “Trans”, “Inter” – va boshqa moliyaviy, iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy, huquqiy institutlarning, xalqaro mintaqaviy tashkilotlarning vujudga kelishi, keng rivojlanishi muloqotni beqiyos darajada kengaytirdi va chuqurlashtirdi.

Muloqot qanday shaklda, mazmunda bo’lmasa-da, tomonlar haqida o’zaro ma’lumot beradi, maqsadlar, manfaatlar va boshqa ko’pgina jihatlar oydinlashadi, bir-biriga ta’sir qiladi. Har qanday muloqot ma’lum bir ma’naviy oqibatlarga ega. Uning samarali bo’lishi tomonlarning ma’naviy darajasiga, uning takomillashish xususiyatlariga, muloqotning davomiyligiga va boshqa jihatlariga bog’liqdir. Har qanday samarali muloqot iqtisodiy globallashuv tahdidlarini bartaraf etishga ham ta’sir ko’rsatadi. Chunki ma’naviyat barcha muammolarni, tahdidlarni hal qilishning asosidir.

Muloqot ziddiyatlar kuchayishining ham, ularni hal qilishning ham manbasi bo’lishi mumkin. Hamma gap ishtirokchi tomonlarning manfaatlarini ifoda etuvchi tamoyillari, dunyo qarashlari va o’zaro munosabatlarida qay darajada o’z ifodasini topishidadir. Masalan, diniy munosabatlardagi mavjud muommolarini hal qilishda ham, mislsiz adovatlarini paydo qilishda ham ma’lum darajada xizmat qilish imkoniyati va ehtimoli saqlanib qoladi. Unga sog’lom

nuqtayi nazardan, jamiyat tinchligi va barqarorligi nuqtayi nazaridan yondashilsa, konfliktlarni bartaraf qilishning muhim omiliga aylanishi mumkin. Buning uchun avvalo barcha dinlarning obyektiv mavjudligini, barcha jamiyatga tahdid solmaydigan dinlarning yashashga haqqi borligini, kimlar uchundir kerakligini tan olish, o'zaro bir-birlarini inkor qilmasliklari lozim. Ammo bunday sifatlardan mahrum yagona dindagi turli radikal harakatlar jamiyat muammolarni faqat muayyan diniy tafakkur vositasida, o'z manfaatlari nuqtayi nazardan, boshqa barcha kuchlarni inkor qilgan holda hal qilmoqchi bo'ladilar.

Birinchiidan, har bir shaxs insoniyatning kelajagi oldidagi mas'uliyatini chuqur anglamog'i lozim. Iqtisodiy globallasuv jarayoni oqibatida qaror topgan dunyo bozori milliy davlatlarning ta'siri va nazoratidan chiqib ketib, subyektlarda kishilik jamiyati istiqboli oldidagi ma'naviy mas'uliyatni so'ndirib borishga shart-sharoit tug'diradi. Shaxsning o'zligini anglashi, mustahkam e'tiqodiga va o'z nuqtayi nazariga ega bo'lishi, o'z milliy qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalanishi boshqalarni ham hurmat qilishga, butun insoniyat istiqboli oldida axloqiy mas'uliyatni his qilishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida ana shunday avlodni shakllantirishga alohida ahamiyat berilganligi bejiz emas. "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki,- deb yozadi I.Karimov, – qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa eng dolzarb masalalar o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng oqiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha-qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"[15]. Mustahkam e'tiqod, ijodiy, tanqidiy, ratsional fikrlash, mas'uliyatni anglash ijtimoiy gumanitar va tabiiy fanlarni yaxshi o'zlashtirib, yosh avlod dunyoqarashining asoslarini tashkil qilgandagina erkin, tanqidiy fikrlash muhiti shakllanishi mumkin.

Ikkinchiidan, milliy o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda hozirgi zamon fanini, texnikasini, texnologiyasini barcha mamlakatlar va xalqlar tomonidan o'zlashtirib olinishiga zamin yaratilishi lozim. Ayrim mamlakatlar va davlatlar o'zlarini zamonaviy texnologiyaning yaratuvchisi va ular taqdirini belgilovchi yagona xo'jayinlaridek tutsalar, boshqa mamlakatlar bu jihatlardan ularga qaram bo'lib qolar ekan, insoniyat istiqboli ham xavf ostida qolishi, pirovardida esa subyektlar o'rtasida kutilgan muloqotga imkon bermaydi.

Uchinchiidan, erkin bozor iqtisodiyoti shunday rivojlanish yo'lidan borish kerakki, ayrim davlatlarning qoloqligi va kambag'alligini bartaraf qilib, har bir subyektning mustaqilligini, tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash lozim. Bozor barcha sohalarida milliy o'ziga xosligini saqlab qolsa, tafovutlarning buyuk qadriyat ekanligiga asoslansa, u global muammolarni hal qilishda samarali omil bo'la olishi mumkin, Bizda bo'lmagan narsa boshqalarda bor, bizda ham boshqalar uchun qimmatli, qiziqarli narsalar mavjudligini kishilarning ongiga singdiradi. Bozor iqtisodiyotining ana shunday rivojlanishi, bunday e'tiqodning shakllanishi uchun barcha ilmiy, diniy, dunyoviy omillar muhim rol o'ynashi zarur. Siyosat bozordan (moddiy manfaatlardan) kelib chiqmasligi, balki insoniyat kelajagi istiqboli manfaatlaridan kelib chiqmog'i zarur.

Xulosa. Muloqot va uning barcha namoyon bo'lish shakllarning samarali, konstruktiv xarakter kasb etishi globallasuv jarayonlarining salbiy oqibatlarini o'z vaqtida anglashga, bartaraf etishga imkon tug'diradi. Globallasuv jarayonining salbiy oqibatlariga, kishilik jamiyati istiqboliga bo'lgan tahdidlariga qarshi bo'lgan yangicha tafakkur uslubi qadriyatlarni xolisona moddiy va ma'naviy taraqqiyot talablariga mos saralashni taqozo qiladi. Globallasuv sharoitida shaxslar, turli millat va dinlar vakillari, madaniyatlar o'rtasidagi barqaror muloqot ishtirokchi tomonlarining har biri uchun qimmatli bo'lgan qadriyatlarni saralab olishga yordam beradi. Yevropalashuv jarayoni bir tomonlama bo'lmay, Yevropa boshqa sivilizatsiyalardan, madaniyatlardan o'zi uchun hayotiy zarur bo'lgan narsalarni topa oladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy globallasuv sharoitida muloqot jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda, chunki u global ziddiyatlarni yumshatish, iqtisodiy nomutanosibliklarni qayta ko'rib chiqish, madaniyatlar o'rtasida o'zaro hurmat muhitini shakllantirish hamda insoniyatning umumiy kelajagi uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Samarali muloqot faqat ma'naviy yetuklik, bag'rikenglik va

tanqidiy tafakkur asosida rivojlanishi mumkin. Demak, globallashuv davrida ma'naviy tarbiya va sivilizatsiyalararo muloqotni uyg'un rivojlantirish insoniyat barqaror taraqqiyotining strategik sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. П.Ганчев. Глобализация цивилизации и необходимость новой формы философии.- Вопросы философии, 2007, №8. - С.162.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч Тошкент, Маънавият, 2008. 113-бет
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 115-116 бетлар.
4. Межуев В. М. *Диалог культур и современная цивилизация.* – Москва: РОССПЭН, 1999. – 320 с.
5. Культурология как наука: за и против (матриалы обсуждения) – Вопросы философии. 2008, №11. – С. 15.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 116-бет.
7. Wallerstein I. *World-Systems Analysis: An Introduction.* – Durham: Duke University Press, 2004. – 128 p.
8. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 115-116 бетлар.
9. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008, 113 бет.
10. Межуев В. М. *Диалог культур и современная цивилизация.* – Москва: РОССПЭН, 1999. – 320 с.

JAMIYAT DEMOKRATLASHUVI SHAROITIDA HUQUQIY MADANIYAT TAKOMILLASHUVINING MOTIVLARI

Dilbar Shuxratovna Sagdullayeva

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti dotsenti
falsafa fanlari nomzodi

sagdullaevadilbar14@gmail.com

ORCID 0000-0003-0847-9901

UDK 340.114.5

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda har bir jabhada amalga oshirilayotgan yangilanishlar sharoitida huquqiy madaniyatning aholi ijtimoiy faolligini oshirish omili ekanligiga urg'u berilib, u jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omil sifatida tadqiq etildi.

Huquqiy borliq takomillashuvining omillari tizimli va aksiologik yondashuvlar asosida o'rganilib, uning huquqiy ehtiyoj, huquqiy manfaat, huquqiy faoliyat, huquqiy e'tiqod, huquqiy maqsad, huquqiy mas'uliyat kabi motivlari falsafiy tahlil etildi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning takomillashuvida, shuningdek, sog'lom huquqiy ehtiyoj uchun zamin bo'ladigan irodaviy va g'oyaviy ko'rsatmalar, axloqiy mezonlarning ahamiyati katta ekanligiga urg'u berilib, insondagi ma'naviy ehtiyojning ruhiy kechinmalar bilan bog'liqligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: demokratik islohotlar, ijtimoiy faollik, huquqiy ong, axloqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy borliq, huquqiy ehtiyoj, huquqiy manfaat, huquqiy e'tiqod.

MOTIVES FOR IMPROVING LEGAL CULTURE IN THE CONDITIONS OF DEMOCRATIZATION OF SOCIETY

Abstract. This provision emphasizes that proper culture is a factor in increasing the social activity of the population in the context of reforms and is studied as a factor actively influencing various vital processes in society, promoting the unity of the city and all social groups, ensuring and strengthening the integrity and order of the community.

Factors for improving legal existence are studied based on a systematic and axiological approach, and a philosophical analysis of such motives as legal need, legal interest, legal activity, legal crossings, legal villages, and legal responsibility is conducted.

The importance of will and ideological instructions, moral criteria that form the basis of health and legal requisites, and the connection between a person's spiritual needs and spiritual experience in the process of improving legal consciousness and legal culture are also emphasized.

Keywords: democratic reforms, social activism, legal consciousness, moral consciousness, legal culture, legal existence, legal necessity, legal interest, legal beliefs.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish maqsadi yo‘lida amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida fuqarolarning huquqiy madaniyatini takomillashtirib borishga zarurat yanada ortib bormoqda. Huquqiy madaniyat shaxsning siyosiy faolligi, demokratik islohotlarga intiluvchanligi, chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ko‘rsatkichidir, jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta’minlovchi va mustahkamlovchi omildir.

Jamiyat hayotini demokratlashtirish sharoitida fuqarolar huquqiy madaniyatini, huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya vositalari, usullari bilan birgalikda takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-sonli farmoni hamda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarni [1] ro‘yobga chiqarishning muvaffaqiyati, bir tomondan, jamiyatning har bir a‘zosi huquqiy bilimlarning muayyan darajasini o‘zlashtirib olishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratishga, ikkinchi tomondan esa, turli ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy maorifni tabaqalashtirish bilan bog‘liq muammolarni ijtimoiy-amaliy jihatdan ilmiy asosda o‘rganishga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy munosabatlar va raqamli transformatsiya ta’sirida turmush tarzining keskin o‘zgarishi sharoitida aholini huquqiy bilimlar bilan shunchaki qurollantirish orqali huquqiy ongni o‘stirish jamiyat uchun samarali aks ta’sir ko‘rsatmaydi. Bunda fuqarolarda, avvalo, mavjud huquq tizimiga nisbatan ijobiy munosabatni, huquqqa – inson va jamiyat erkinligining asosini tashkil qiluvchi unsur sifatidagi qarashni shakllantirish muhimdir. Akademik A. Saidov ta’kidlaganidek, yuksak huquqiy madaniyatsiz konstitutsiyaning boy salohiyatini ham to‘liq amalga oshirish mumkin emas. “Ammo Konstitutsiyani bilishning o‘zi bilan ham kifoyalanib bo‘lmaydi. Shu bois jamiyatda konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi” [2].

Mazkur maqolada har bir fuqaroning bugungi yangilanish jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylanishi uchun zamin bo‘lgan huquqiy madaniyatni takomillashtirishning motivlari o‘rganildi. Zero, Taraqqiyot strategiyamizning asosiy mazmuni – qonun ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish, adolatli va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Falsafada huquqiy ong va huquqiy madaniyat turli mezonlar asosida talqin etilgan. Bir guruh mutaxassislar huquqiy ong, madaniyatni ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida tadqiq etadilar. Ular fikricha, huquqiy ong hayotni ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etayotgan kishilarning huquqlari va majburiyatlari nuqtayi nazaridan aks ettiradi. Huquqiy ong aql-zakovat, odob, axloqiy baholarga tayanadi [3].

Ikkinchi guruh olimlari huquqiy ong va huquqiy madaniyatni inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar. Ular fikricha, huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g‘oyalarida namoyon bo‘lgan huquqdir. Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdagi e’tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg‘ular va ma’naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir [4].

Yuqorida ko‘rilgan nuqtayi-nazarning birida huquqiy ongning darajasi jamiyatning iqtisodiy ahvoriga taqalsa, ikkinchisida huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni insonning ichki dunyosi belgilashiga urg‘u beriladi. Bizningcha, huquqiy ong va huquqiy madaniyat subyekti bo‘lgan inson (fuqaro) iqtisodiy munosabatlar ta’siriga berilmay qolmasligidan kelib chiqib, bu ikki ijtimoiy fenomenning mohiyatini faqat inson ma’naviyatiga olib borib taqash mumkin emas.

Uchinchi nuqtayi nazarga ko‘ra, huquqiy taraqqiyotni madaniy borliqning birgina elementi – xo‘jalik madaniyatidan qidirish iqtisodiy materializmga, yoki uni faqat ma’naviyatga bog‘lab qo‘yish subyektivizmga olib kelishi ta’kidlanib, jamiyatning rivojlanish

(xususan, huquqiy kamolot) mezoni sifatida madaniy borliqning sifat darajasi ko'rsatiladi [5].

Demak, o'rganilgan asarlarda huquqiy madaniyat huquqiy voqelikka daxldor ham ma'naviy, ham moddiy qadriyatlarni qamrab oluvchi umumiy madaniyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida talqin etilgan. Huquqiy madaniyat huquqning amal qilishi, uning inson tafakkuri va xatti-harakatida aks etishini ifodalashiga urg'u berilgan. Huquqiy madaniyat o'z vazifalarini to'liq bajarishi, fuqaroda qonun doirasidagi xulq-atvorning shakllantirilishi uchun faqat huquqiy ongning o'zi emas, balki huquqiy va axloqiy ongning uyg'unligiga erishish lozim. Zero, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarini liberallashtirish sharoitida huquqiy ong va huquqiy madaniyat takomillashuvining motivlari, mexanizmlarini tahlil etishda falsafiy tafakkurning qiyoslash, umumlashtirish, dialektik, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi ilmiy usullariga tayanildi.

Tahlil va natijalar. Yangi O'zbekistonda jamiyat hayotini liberallashtirish va demokratlashtirish vositasida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari fuqarolik jamiyatiga xos tashkiliy tuzilmalarning, tamoyillarning qaror topishiga xizmat qilmoqda. Fuqarolik jamiyati siyosiy tashkilotlarning, mafkura va fikrlarning turli-tumanligi asosiga qurilib, davlat va jamiyatni boshqarishda fuqarolarning keng ishtirokini ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyatining muhim belgilari sifatida inson huquqlarining ustuvorligi hamda aholining yuqori ijtimoiy faolligini ko'rsatish mumkin. Ushbu belgilar uzviy bog'liqligi shunda namoyon bo'ladi, fuqaro o'z majburiyatlari, huquq va erkinliklarini to'liq anglagan, amalda ulardan foydalana olgan taqdirda qonun ustuvor bo'lgan makonda o'z manfaatlarini ro'yobi yo'lida faollik bilan harakat qilib, o'zi va atrofida uchun foyda keltira oladi.

Aynan demokratiya sharoitida qonunning obro'si oshib boradi hamda u hayotiy zaruratga aylanadi. Inson amaldagi qonunlarda, hukumat qarorlarida belgilangan huquq va imtiyozlarini yaxshi bilsa, unda da'vogarlik hissi o'tkirlashadi. Atrofida ro'y berayotgan jarayonlarga loqaydlik, bepisandlik kayfiyati o'rnini daxldorlik hissi egallab boradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fuqaro qabul qilingan qonunlar, mavjud huquqiy mezonlarni bilmay turib, ma'naviy-axloqiy yetuklikka erisha olmaydi. Huquqiy madaniyat va savodxonlik millat yetukligi, inson barkamolligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Mamlakatimiz ijtimoiy voqeligini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyat takomillashuviga olib keluvchi motivlar bilan ijtimoiy faollikning o'sib borishi o'rtasidagi o'zaro dialektik aloqadorlikni tahlil etish bu borada mavjud muammolar yechimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demokratik jamiyatda xalq hamda har bir fuqaro manfaatlarini ifodalash, himoyalash jarayonlari huquq va ularni belgilab beruvchi qonunlar vositasidagina amalga oshiriladi. Inson huquqiy ongining darajasi uning manbai bo'lgan huquqiy ehtiyoj va uni o'zlashtirish holatiga bog'liq. Huquqiy ehtiyoj – huquqiy borliqning anglangan ichki motivi, qo'zg'atuvchisi, insonning huquqiy holati, faolligining manbayidir. Insonning huquqiy ehtiyoji uning qonuniy mustahkamlangan huquq va erkinliklari daxlsizligini ta'minlashga bo'lgan talab sifatida yuzaga keladi. Har qanday huquqiy ehtiyoj huquqiy manfaat asosida yuzaga keladi, ya'ni bularning ikkalasi ham bir biri uchun determinantlik rolini bajaradi. Huquqiy manfaat huquqiy ehtiyojni qondirish uchun ehtiyoj subyektini obyektga tomon yo'naltiradi, huquqiy manfaat huquq va erkinliklardan foydalanish va qo'llashda namoyon bo'ladi.

Bizningcha, huquqiy manfaat – har bir insonning o'z-o'zini anglash darajasi bilan bog'liq. Ma'lumki, o'z-o'zini anglash keng va chuqur ma'noli hodisa sifatida – insonning o'z tarixiy o'tmishini, nasl-nasabini bilib, chuqur anglashi, shu asosda hayotining mazmun, mohiyatini belgilashidir. Insonning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy maqsad va manfaatlarini idrok etishi uning o'z-o'zini anglash mohiyatidan kelib chiqadi. Demak, o'z-o'zini anglash – insonning manfaatlarini, xususan, huquqiy manfaatlarini nimadan iborat ekanligini tushunib yetishidir. O'z-o'zini anglash va huquqiy manfaatlarini anglash biri-biriga sababchi bo'lib, huquqiy manfaat va maqsadlar uyg'unligi asosida jamiyat a'zolarining birlashishiga olib keladi.

Ijtimoiy manfaatlarining ko'rinishi bo'lgan huquqda aks etadigan manfaat, obyektiv

xususiyatga ega bo'lsa-da, lekin real mavjud manfaat bilan uning huquqiy ong va huquq me'yorlaridagi ifodasini farqlash muhim ahamiyatga ega. Huquqda mustahkamlangan manfaat hamda obyektiv manfaat o'xshash, bir xil tushunchalar emas, ular o'rtasida ijtimoiy taraqqiyotdagi obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro ta'siri dialektikasi bilan belgilanuvchi farqlar va hatto ziddiyatlar ham mavjud.

Huquqiy ehtiyojlar huquqiy borliqqa ishlov berish, ya'ni huquqiy faoliyat orqali qondiriladi. O'z navbatida, huquqiy faoliyat darajasi huquqiy ehtiyojni qondirish vositalarini ko'rsatuvchi anglangan huquqiy manfaatdan kelib chiqadi. Huquqiy manfaat faoliyatning o'ziga xos yo'nalishini, vosita va shakllarini, maqsadini keltirib chiqaradi. Huquqiy faoliyat huquqiy munosabatlarga ta'sir etishning turli shakllarini taqozo etib, huquqiy hayotni tashkil etishning vositalarini ta'jira va jarayonini qamrab oladi.

Huquqiy faoliyat gnoseologik, nazariy va amaliy, ijobiy va salbiy faoliyatlarga bo'linadi. Huquqiy faoliyat jarayon sifatida, ikkita bosqich - yaratuvchilik, ya'ni huquq ijodkorligi va huquq ijodkorligining natijalarini amaliyotda qo'llash bosqichlaridan iboratdir.

Huquqiy ehtiyojni qondirish bosqichida huquqiy g'oya, huquqiy me'yor va ularni amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlari yaratiladi hamda huquqiy ong takomillashib boradi. Huquqiy faoliyatning ikkinchi bosqichida esa, huquqni amaliyotda qo'llash bilan huquqiy ehtiyoj qondiriladi va inson, uning birliklari huquq subyektlari sifatida nafaqat saqlab qolinadi, balki shu bilan birga takomillashtiriladi ham. Shu ma'noda huquqiy faoliyat huquqiy madaniyatning ham tarkibiy qismi, ham yashash usulini tashkil etadi [6].

Darhaqiqat, huquqiy faoliyatning ikkinchi bosqichi har bir fuqaroga o'z huquqiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida huquqiy savodxonligiga tayanib, mustaqil harakat qilish mas'uliyatini yuklab, subyektning huquqni qo'llash ko'nikmasi, undan erkin foydalana olish mahorati o'sib borishiga olib keladi. Bunda huquqiy ong odamlarning moddiy dunyoni o'zgartirishga qaratilgan faoliyatining zarur jihati ekanligi namoyon bo'ladi.

Bizningcha, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning takomillashuvi huquqiy borliq rivojining tabiiy-tarixiy asosidan kelib chiqib, uning o'zi madaniy borliq rivojlanish dialektikasini in'ikos ettiradi. Huquqiy borliq taraqqiyoti nafaqat huquqiy ehtiyoj, manfaat va ularni qondirish vositalarigagina emas, balki huquqiy ehtiyoj tabiatini belgilab beruvchi insonning umumiy ma'naviy darajasiga ham bog'liqdir. Shaxsiy ichki ma'naviy tajriba har bir kishining tarbiyasiga asosan voqelikka munosabati natijasida shakllangan e'tiqodlar tizimidir. Aynan bu shaxsiy ichki ma'naviy dastur yoki e'tiqod tizimi kishining huquqiy xabardorligi darajasidan qat'i nazar shaxs hayotiy nuqtayi nazarlarini belgilab, huquqiy ong qadriyatlariga asoslanishi yoki bu omil buzilishining sababi hisoblanadi. Ushbu ma'naviy dasturning sifat ko'rinishi insonning o'z-o'zini anglash darajasiga borib taqaladi [7].

Huquqiy e'tiqod inson dunyoqarashining eng barqaror unsuri bo'lib, insonning huquqiy hayotdagi pozitsiyasi, uning turmush tarzining mazmuni xuddi shu komponentning mustahkamligiga, barqarorligiga bog'liq. Huquqiy e'tiqod ham bilish, baholash, boshqarish kabi vazifalarni bajaradi. Bilish vazifasi asosida huquqiy voqelikning turli hodisalari, unda sodir bo'ladigan jarayonlarga doir bilimlar yotsa, baholash vazifasi inson egallagan bilimlarga tayanib, sodir bo'layotgan o'zgarishlar ma'nosi va mohiyatini tushunib olish bilan bog'liq bo'ladi. Huquqiy e'tiqodning boshqarish funksiyasi huquq subyektlarining o'z huquqiy xulq-atvori, xatti-harakatiga ko'rsatayotgan ta'siri, uni aniq maqsad sari yo'naltira olish qobiliyati, malakasi bilan bog'lanib ketadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, huquqiy e'tiqod – huquq subyektlarining huquqiy bilimi, huquqiy dunyoqarashi asosida unda amaldagi huquqiy voqelikka nisbatan qaror topadigan munosabati hamda o'zlashtirilgan huquqiy bilimlarni o'z xatti-harakatiga tatbiq etib, xohish-iroda bilan uni boshqarish qobiliyatidir.

Huquqiy ong asosan anglangan ma'naviy omillarga tayanadi. Ularga huquqiy

maqsad, huquqiy burch, huquqiy mas'uliyat kabilarni kiritish mumkin. Huquqiy maqsad obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida shakllanib, kishilar hayotiy dasturi, yo'nalganligi, moyilligi asosida namoyon bo'luvchi, uni huquqiy borliqqa olib boruvchi manbadir.

Ijtimoiy-huquqiy maqsadlar fuqarolarning xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Aynan huquqiy maqsadlar fuqaro hayoti davomida shakllanib, yangilanib turuvchi huquqiy ehtiyojlar mazmun-mohiyatini tashkil etib, uning huquqiy borliqdagi o'rnini belgilab, shaxsning huquqqa, amaldagi qonunchilik tizimiga bo'lgan munosabatini uning xatti-harakatlari orqali ifodalaydi. Demak, insonning ichki huquqiy moyilligi, huquqiy tarbiyalanganlik darajasi ularning xulq-atvorini belgilab beradi.

Huquqiy maqsadlar ham subyektning ruhiy-ma'naviy dunyosini in'ikos etuvchi huquqiy dastur mazmuniga muvofiq, ijobiy va salbiy ko'rinishlarda bo'ladi. Mutaxassislar ijobiy huquqiy maqsadni jamiyat huquqiy madaniyatining qadriyatlarga yo'naltirilganligi sifatida tavsiflab, uni huquqiy faollikning muhim ichki manbasi ekanligini asoslaydilar [8]. Aksincha, salbiy huquqiy maqsadlar alohida kishi, qatlam yoki ijtimoiy guruh manfaatlarigagina xizmat qilishda namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar huquqiy maqsadlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat hayotini demokratlashtirish sharoitidagina huquqiy maqsadlar xalq manfaatlarini himoya qilish hamda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Yuqori darajadagi huquqiy savodxonlik, huquqiy ong ijobiy huquqiy maqsad asosida shakllanadi.

Huquqiy maqsadlarni shakllantirishga huquqiy burch va majburiyatlarga rioya qilish kabilarni ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy burch, avvalo, Konstitutsiyani o'qib-o'rganishdan boshlanadi. Bosh qonunning ma'no-mazmunini anglamaydigan fuqaro jamiyatda o'z haqqini bilmaydigan, huquqiy ongsiz tomoshabinga aylanib qolishi mumkin.

Demokratik islohotlar izchilligi va samaradorligi fuqarolar huquqiy ongi darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Huquqiy ongni mustahkamlash va takomillashtirish jarayoni doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim. Agar jamiyat a'zolari huquqiy ongi takomillashtirishda u holda demokratik tuzum suiiste'molliklar va jinoyatlar g'alviriga aylanadi. Beburd va suloh odamlar sotqin bo'ladilar, bir-birlarining bu kamchiliklarini biladilar va bir-birlarining ayblarini yashiradilar, odamlar xoinlik qilib, shu yo'l bilan boylik orttiradilar va buni "demokratiya" deb ataydilar [9].

Huquqiy burch va vijdon tushunchalari o'zaro dialektik birlikni tashkil etadi. Vijdon insonning axloqiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qila olishi, huquqiy hayotda esa huquqiy burchni ado etishni talab qilishi, o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi. Vijdonning mohiyati ijtimoiy muhit bilan belgilanadi.

Huquqiy munosabatlar doirasida yoki ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida vijdonan bajarilayotgan faoliyat, uning adolatlilik ko'rsatkichini aks ettirib, kishilarda o'ziga ishonch, ichki ko'tarinkilik kayfiyati, ulug'vorlik hislari uyg'onishiga, barcha kuch va imkoniyatlarini huquqiy maqsadlar yo'lida safarbar etib, jamiyatda hamisha haqiqatga intilib, qonun ustuvorligi ta'minlanishi yo'lida kurashib yashashiga sabab bo'ladi. Agar inson o'z huquqiy burchini to'g'ri anglasa, unga vijdonan yondashsa, u mashg'ul bo'lgan faoliyat turiga oid muayyan huquqiy me'yorlar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'ladi hamda qonunga itoat qiladi.

Huquqiy mas'uliyat – huquqning obyektiv mohiyatini anglagan holda, amaldagi qonunlarga shunchaki hurmat bilan munosabatda bo'lishgina emas, balki ularda bayon qilingan ko'rsatmalarga ongli ravishda amal qilishni, har bir xatti-harakatning huquqiy oqibatini inobatga olib ongli yondashuvni talab qiladi. Shaxsning to'laqonli kamoli huquq, majburiyat va burchning uyg'unligini ta'minlash orqali insonning jamiyatga, madaniyatga bevosita integratsiyalashuvi ro'y beradi [10].

Demak, jamiyat har bir a'zosi huquqiy ong, huquqiy madaniyatini takomillashtirishning asosini, avvalo, insonning o'z-o'zini anglashi, qadr-qimmatini bilishi kabi ma'naviy omillar tashkil etadi. Aynan shular insonga o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, o'z-o'ziga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish, sog'lom huquqiy ong shakllanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning takomillashuviga xizmat qiluvchi motivlar obyektiv va subyektiv huquqiy ehtiyoj va manfaatlarning muvozanatigina emas, balki sog'lom huquqiy ehtiyoj uchun zamin bo'luvchi irodaviy va g'oyaviy ko'rsatmalar, axloqiy mezonlar hamdir. Insondagi ma'naviy ehtiyoj, albatta, uning ruhiy-psixologik kechinmalari bilan ham bog'liqdir. Ehtiyoj, xususan, huquqiy ehtiyoj insonda zarur ichki ruhiy va tashqi real hodisalarning birligi asosida paydo bo'ladi.

Bizningcha, fuqaroda huquqqa muvofiq xulq-atvorni bir vaqtning o'zida ham axloqiy ong, ham huquqiy ong orqali ta'minlash mumkin. Huquq hech qachon axloqdan xoli, undan ayri holda bo'lishi mumkin emas. Aksincha, tartibga solishda axloqning ta'siri keng va samaraliroq ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Chunki axloq inson qalbi, ichki dunyosining asosini tashkil etadi. "Fuqarolarimizning, huquqbuzarlikka qarshi ichki imkoniyatlari va yuksak darajadagi axloqi jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga olib kiradigan yemirilishdan eng yaxshi himoyadir".

Demak, yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, aholi huquqiy madaniyatining takomillashuviga erishish omili bu - sog'lom huquqiy ehtiyoj va uni qondirishga bo'lgan intilish bo'lib, uning o'zi faqat sog'lom axloqiy ong asosidagina yuzaga keladi. Demak, huquqiy madaniyatni takomillashtirish uning barcha tarkibiy qismlarini kompleks isloh qilish asosida kechadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning tarixiy rivojlanishini axloqiy barkamollik, huquqiy amaliyot, huquqiy erkinlik darajasi ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni 09.01.2019 yildagi PF-5618-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019-y., 06/19/5618/2452-son, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)
2. Saidov A. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi: yaratilishi, qabul qilinishi va ijro etilishi// <https://parliament.gov.uz/articles/2144>
3. Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat: nazariy-qiyosiy tadqiqot. - Toshkent: O'zR IIV Akademiyasi, 2004. 166-bet; Xalilov E. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. - 12-bet. ("Huquqiy ong huquqni anglash demakdir, odamlarning ham amaldagi huquqqa, ham ularning o'zlari istagan huquqqa munosabatini ifoda etadigan tasavvur va his-tuyg'ularning mujassamidir"); Karimov I. Falsafadan va'z matnlari. - Toshkent: Kamalak, 1995. - 234-235-betlar ("Huquqiy ong huquqiy munosabatlar, normalar va organlar, tashkilotlarning mohiyati, vazifalariga qonunlar, sud, prokuratura muassasalari va h.k. huquqiy qarashlar, nazariyalar va his-tuyg'ularning majmuidir").
4. Otamurodov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. - Toshkent, 2000.-199-bet.
5. Abduxoliqov S. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqining metodologik muammolari: Fals.fan.dok. ... diss. avtoreferati. - Toshkent, 2002. - 25-bet.
6. Abduxoliqov S. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqining metodologik muammolari: Fals.fan.dok.diss. ... avtoref. - Toshkent, 2002. - 30-bet.
7. Sagdullayeva D. Sh. Jamiyat demokratlashuvi sharoitida fuqarolar huquqiy madaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari: Fal. fan. nom. ...diss.. 84-85-betlar.
8. Исламов З.Общество. Государство. Право.-Ташкент: Адолат, 2001. - С.410.
9. Ильин И.А. О грядущей России. – М.: Телекс, 1993. - С.31-32.
10. Islomov Z.M. Islohotlar samarasi huquqiy ong darajasiga bog'liq // Huquqiy madaniyat-demokratik istiqbol omili. - Toshkent: Adolat, 1999. - 50-bet.

**JAMIYATDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI OSHIRISHDA
XALQ TABOBATINING AHAMIYATI****Isaxova Shaxlo Muxtarovna**

Guliston davlat pedagogika

instituti dotsenti(PhD)

ORCID 0000-0002-1114-2798

shaxloisaxova55@gmail.com

UDK 181:577(575:1)

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda sog‘lom turmush tarzi madaniyati va tibbiy madaniyat masalalariga oid bilimlarni oshirish, inson va butun tiriklikni asrash, uzoq yashab qolishida Sharq an‘anaviy xalq tabobatining ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan. Maqolada “Sog‘lom turmush tarzi” fenomeni tibbiy nuqtayi nazardan qaraganda, asosan insonning jismoniy salomatligiga, shu bilan birga, tashqi muhit omillari – iqlim, tuproq, suv, kishilarning hayot yo‘cini, mamlakat qonunlari va boshqalarning odamga, unda jismoniy va ruhiy xususiyatlarining ta‘siriga bog‘liq ekanligi ifodalangan. Insondagi mavjud bo‘lgan ijobiy energiya uning tanovul qilgan taomi orqali hamda shu taomning hazm bo‘lishi uchun qilingan harakati orqali olinadi. Maqolada har narsani ozi va me‘yori yaxshi bo‘lganidek taomda ham me‘yor saqlansa va nafsni tiya bilish inson organizmidagi biologik salbiy o‘zgarishlarni yuzaga kelishini oldini olinishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, xalq tabobati, inson, sog‘lik, tabib, inson hayoti.

**THE IMPORTANCE OF FOLK MEDICINE IN ENHANCING A HEALTHY
LIFESTYLE CULTURE IN SOCIETY.**

Abstract. This article talks about the importance of traditional folk medicine of the East in the development of a healthy lifestyle culture and medical culture in society, preserving human life and longevity. The phenomenon of a “Healthy Lifestyle” is described in the article from a medical perspective primarily as being related to a person’s physical health, as well as to the influence of external environmental factors such as climate, soil, water, people’s way of life, state laws, and other conditions on an individual and on the manifestation of their physical and spiritual characteristics. The positive energy present in a person is obtained through the food they consume, as well as through the physical activity that helps the body digest and absorb this food. The article also explains that, just as moderation and balance are beneficial in everything, maintaining moderation in food and being able to control one’s desires help prevent the emergence of negative biological changes in the human body.

Keywords: healthy lifestyle, traditional medicine, person, health, healer, human life.

Kirish. Biz yashayotgan jamiyat va uning iqtisodiy jihatdan o‘sishi, siyosiy jihatdan rivojlanishi shu yerda o‘sayotgan barkamol avlodning dunyoqarashiga bog‘liqdir. Avlodlar barkamolligida davomiyligini ta‘minlashda Sharq an‘anaviy xalq tabobatida sog‘lom turmush tarzi madaniyati va tibbiy madaniyat masalalariga oid bilimlar katta o‘rin tutadi. Chunki o‘shish va rivojlanish yoshlik, go‘zallik, sog‘lomlik bor ekan, unga qarama-qarshi turg‘unlik, qarilik, xunuklik, nosog‘lomlik mavjud. Shu qarama-qarshi dialektik qonuniyatlar ichida faqatgina ezgu tushunchalarni saqlab qolish, barqarorligini taminlash Yaratganni oliy mavjudoti insonga va uning vorislari yosh avlodga bog‘liqdir. Sog‘lom turmush tarziga insonlar tomonidan amal qilinishi, inson va butun tiriklikni uzoq yashab qolishiga imkon beradi. Bu holat bioetika maqsadlarini sog‘lom turmush tarzi paradigmasi doirasida amalga oshishini tezlashtiradi. Sog‘lom turmush tarzining negizlari haqidagi tasavvurlar antik zamon yunon falsafasida ko‘proq uchraydi. Gippokrat “Sog‘lom turmush tarzi haqida” nomli risolasida bu fenomenni tibbiy nuqtayi nazardan qarab chiqadi, uni asosan insonning jismoniy salomatligiga, shu bilan birga tashqi muhit omillari – iqlim, tuproq, suv, kishilarning hayot yo‘cini, mamlakat qonunlari va boshqalarni odamga, unda jismoniy va ruhiy xususiyatlarining ta‘siriga bog‘lab tushuntiradi[1.28]. Darhaqiqat, insonlardagi sog‘lom turmush tarzi madaniyatining oshishida hayot tarzini va iqlim birlamchi omil bo‘lsa, bu borada ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan qonunlar ikkilamchi omil hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Qadimgi xitoylik mutafakkirlar: “sog‘lom turmush tarzi haqida so‘z yuritganda inson tanasida yuz beradigan nosozlikka ruhiy nomutanosiblik sabab bo‘ladi deb, hisoblashgan. Shu ma‘noda ular, jizzakilik, ma‘yuslik, g‘am-g‘ussa, xavotirlanish, sertashvishlik kabi besh dardchil kayfiyat haqidagi g‘oyani ilgari surganlar”[2.20-21]. Bu fikrlardan ko‘rinadiki, insonning

ruhiy va jismoniy birligi, jismoniy va ma'naviy holati o'rtasidagi mutanosiblik masalasi sharq falsafasida alohida o'rin tutadi.

Insonlarning sog'lom hayot kechirishi va avlodlar barkamolligini ta'minlashda an'anaviy xalq tabobati o'z o'rniga ega. Etnik madaniyatning empirik bilimlar rivoji oqibatida yuzaga kelgan turlaridan biri – xalq tabobatidir. Xalq tabobati an'analarining mintaqaviy xususiyatlaridan ham ushbu omillar o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Shuningdek, xalq tabobati mintaqalardagi diniy qarashlari bilan aralash holatda shakllangan. Masalan hind, tibet tabobati buddaviylik diniga, xitoy tabobati esa dao va konfutsiylik qarashlariga tayanadi [3.226]. Markaziy Osiyoda o'zbek xalqining tabobat an'analari ko'zdan kechirilsa, tozalik, poklik, bemorlar bilan muomala qilish, to'g'ri ovqatlanish kabi aqidalar zardushtiylik va boshqa mahalliy dinlar asosida yuzaga kelgan. Shuningdek, "Avesto" da inson suv, havo, yer va tuproqni asrash kerakligi aytilgan[4.21]. Keyinchalik kirib kelgan Islom dini o'z qoidalari bilan bu qarashlarni mustahkamlagan.

Tabobat insonlarning amaliy faoliyati va hayotiy zarurat natijasida paydo bo'lgan. Tabobat bashariyat madaniyatining muhim bo'lagi bo'lib, jamiyat rivoji bilan yonma-yon taraqqiy etadi [5.76]. Ibadatxona va cherkovlar qoshida tibbiy muassasalarning vujudga kelishiga qadar ham xalq tabobat an'alaridan keng foydalanishgan. Insonlar o'zini, tabiatni, hayvonot olami va o'simlik dunyosini tadqiq qilish natijasida empirik bilimlar vujudga kelib, bu bilimlar ayrim kishilar qo'lida to'plangan. Shu asosida aytish mumkinki, tabobat an'analari – odamlarning sog'liqqa oid tajribalari asosida bilim, ko'nikma va malakaning hosil bo'lishidir [6.5]. An'anaviy xalq tabobati ilmini egallagan va amaliy faoliyat yurita oladigan shaxslar xalq orasida tabiblar deb atalib kelingan. Tabiblarning kasbiy madaniyati tabobatning rivoji bilan birgalikda shakllangan. Tabibning mustaqil ish boshlashi uchun qo'yilgan talablar bemorlar bilan muomala madaniyati va xushfe'l xarakter ushbu me'yorlarning asosidir. "Avesto"da yozilishicha, tabib ma'naviy va ruhiy jihatdan pok bo'lmog'i, e'tiqodi mustahkam, libosi-yu asboblari pokiza suyuqlikda tozalangan, o'zi bir necha amaliy tajribalardan, sinovlardan o'tgan bo'lishi kerak [7.24]. Alisher Navoiyning tabiblar va tabobat haqidagi fikrlari asosan uning mashhur asari "Mahbub ul- qulub"da bayon etilgan. Navoiy bu faslni bayon etishga kirishar ekan, avvalo tabibning o'zi qanday kishi va qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerakligi haqida to'xtaladi. Navoiy: "tabib o'z fanining mohir bilimdoni bo'lishi lozim, muloyim so'z va bemor ko'nglini ko'taruvchi, andishali, xushfe'l bo'lmog'i kerak", deb yozadi [8.20]. Tarixiy manba va asarlarda keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, tib ilmini egallagan tabib o'z shaxsiyatiga ega bo'lishi kerak. Har bir tabib o'z shaxsiy sifatida axloq me'yorlarini milliy qadriyatlar va diniy qoidalar asosida shakllantirishi zarur. U o'z xatti-harakatlari, davolash vositalari, muloqot etikasi kabi masalalarda diniy va jamoaviy qarashlarni inobatga oladi. Shu kabi omillar musulmon tabiblarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Sababi bemor tabibga murojaat etganda, o'zi bilan e'tiqodi bir bo'lgan tabibni xizmatini afzal biladi. Yana bir tabibning shaxsiy sifati shirin muomalasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda analiz, sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tabibning yaratgan kasbiy va shaxsiy me'yorlari, o'ziga xos davolash usullari, bemor kasalligiga individual yondashishi nafaqat tabobatda, balki uning barcha sohalari uchun insoniy majburiyat darajasi ekanligi yuqoridagi ilmiy usullari orqali ochib berildi.

Tahlillar va natijalar. Vorisiy bilimlarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, jonning ham, ruhning ham asosi va kuchi tibbiy bilimdir. Tibbiy madaniyatni rivojlantirishimiz va uni doimiy ravishda amalda saqlab qolishimizda shu haqda ko'proq to'plagan bilimlarimiz, shakllantirgan dunyoqarashimizga bog'liqdir. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Har qanday millatning ravnaqi umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqeyi va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liqdir"[9.98], deb ta'kidlagan. O'sib kelayotgan avlodni dunyoqarashi va ongini tibbiy madaniyat masalasi yuzasidan shakllantirish va amalda qo'llashni o'rgatish barkamol avlodni har davrda uzviy ravishda o'sishini ta'minlaydi. Inson kunni har bir davrida ovqatlanishi, qo'l yuzini yuvishi shartli refleks hisoblansa, har bir avlodni o'rgangan tibbiy madaniyatga oid bilimi keyingi avlod uchun bir biriga o'tuvchi

qonuniyat sifatida uzviy bog'langan zanjirsifat bilim bo'lib o'tadi. Bu maqsadga erishish ketmaketligini Sharq axloq ilmi mutafakkirlari asarlarida o'z aksini topganligini ko'rish mumkin. Insondagi mavjud bo'lgan ijobiy energiya uning tanovul qilgan taomi orqali hamda shu taomni hazm bo'lishi uchun qilingan harakati orqali olinadi. Har narsani ozi va me'yori yaxshi bo'lganidek taomda ham me'yor saqlansa va nafsni tiya bilish inson organizmidagi biologik salbiy o'zgarishlarning yuzaga kelishining oldini oladi. Sharqning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida: "Ovqatni me'yor bilan ye, ko'p ovqat yema. Dard tamog'dan kiradi, nafsni ehtiyot qil"[10.675]. Bu yuqoridagi fikrlarga hamohangdir. Inson ongidagi barcha yaxshi narsalar – yaxshi, barcha yomon narsalar va holatlar yomon degan tushunchada shakllangan. Aslida ba'zida yaxshi deb tan olingan holatlarimizni yomon tarafi ham bo'lishini va aksincha yomon deb hisoblangan holatlarni yaxshi tomoni ham bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida aytilgan mutafakkirni fikrlarida shu narsa izohlangan. Zero axloqning oltin qoidasi bo'lgan "me'yor" tushunchasini yaxshilab anglab olishimiz zarur. Shundagina fikrlarimizda yaxshi deb hisoblangan, aslida "nafs quli" degan illatni oldini olgan bo'lamiz.

Insonning tabiati va mijozni asosini Sharq va G'arb falsafasi to'rt unsurga bog'laydi. Sharqda bu unsurlar olov, suv, havo va tuproq. G'arbda esa balg'am, sariq o't, qora o't va qon deb qaraladi. Shaxs mijozining biologik holati mana shu to'rt unurning turli nisbatdagi aralashmasi bilan o'lchanadi. Yusuf Xos Hojib o'z asarida shu masala xususida quyidagi fikrni bildiradi. "Avval mijozni bilish shart, shunga yarasha ovqat yesa bo'ladi. Issiqlik oshsa, darhol o'zingni sovuqlik ichib yengillat"[11.690]. Bizning bilib olingan va bildirilgan bilimlarimiz doimo biz uchun qaysidir holatlarda asqotadi. Ba'zida esa bilmasdan, mohiyatiga tushunib yetmasdan, o'zimizga va atrofdagilarga jabr qilamiz. Xuddi shuningdek biologik organizm uchun kerakli bo'lgan insonni o'z mijozni haqida bilimga ega bo'lmaslik juda ham ko'p organizm uchun zararli oqibatlarini keltirib chiqaradi. Zero, tibbiy madaniyat bilimiga doir me'yor, foydalilik –zararlilik, sabab va oqibat kabi mezoniy tushunchalarini anglab yetishimiz, o'sib kelayotgan avlodning barkamolligini ta'minlash uchun ongiga to'g'ri yetkaza olishimiz kerak.

Mutafakkir yana shuni ta'kidlaydiki, "Nafs jon vujudini ta'bini men ta'riflab aytayin. U qizil, sariq, oq va qoralardan iboratdir. Bular bir-biriga dushmanidir. Dushman dushmanga yaqinlashsa ular bir-birini ayiradi"[12.691]. Darhaqiqat, ba'zida inson o'zini irodasini mustahkamlash uchun tarbiyalab borolmaganligi o'z jismining nafsiga egilganligi iroda nomustahkamligining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda inson jismidagi o'z-o'ziga do'st deb hisoblangan holat ba'zida o'z-o'ziga dushman bo'lib qolishi mumkin, qachonki ularni o'zlariga yaqinlashtiradigan holatlarni moslashtirsa. Bunga yetkazuvchi asosiy omil tibbiy axloq yuzasidan ziyraklik, o'z kasbiga muhabbat va eng asosiysi tibbiy axloqiy bilim ko'nikmasidir. Insonlar tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarziga oid bilimlarga ega bo'lgan inson har qanday jarayonlarni ziyraklik bilan anglab yetadi. Insonlar o'z sog'ligining yaxshilanishida mijozning xususiyatlarini to'g'ri tushunib yetsa, avlodlar barkamolligi va hayot, umr, ruhiy boqiylikni bir qadar ta'minlagan bo'ladi. Mutafakkir bu yerda ta'kidlagani: qizil – qon, sariq – safro, oq – balg'am, qora – qora o't. Bularning bir-biriga dushmanligi shunda ko'rinadiki, organizmni ritmik muvozanatini buzadi va ba'zida insonda o'zi anglamagan holda xulq-atvorida ayrim illatlar: hasadgo'ylik, o'jarlik, tajavuzkorlik, qo'pollik kabilar namoyon bo'lib boradi. Yana asar yuqorida aytilgan fikrlariga yakdil so'zlar bilan tugatilgan.

"Tabib so'zini bunga o'xshatadi ko'r

Mijozni biluvchi, ko'ngli, bilimni keng qil"[13.695].

Jism ya'ni tanning tozaligi xususida Kaykovus "Qobusnoma" asarida: "Ey farzand bilg'ilkim, agar hammomga borish niyating bo'lsa, qorning to'q vaqtida bormag'il, bu bila o'zingga ziyon yetkurursan. Hammomga har kun borishning foydasi yo'qdir, balki ziyoni bordir, chunki hammom moddani suyaklari va badanlarini muloyim qilib qattiqligini yo'qotadi. Agar bir kun bormasa, kishi o'zini bemordek sezadi, barcha badanlarni qotib qolg'ondek his etadi"[14.79], deya jism tozaligining bosh asosi hammomni foydali va zararli tomonlari haqida fikrlarni keltiradi. Bu fikrlarni o'ziga dasturamal qilgan insonda tibbiy

madaniyatning tushunchasi bo'lgan foydalilik fazilati shakllanadi. Bunda foydalilik to'g'risidagi barcha bilimlar shu jarayonga tez yetkazuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Inson vujudi doimiy harakat talab qiladi. Salomatlik inson vujudidagi biologik tizimning barqaror va tartibli ishlashi bilan bog'liq. Harakat inson vujudining asosiy xususiyatlaridan biri. Hozirda kishilarning organizmida quvvat mexanizmlarining faoliyati sezilarli darajada kamaygan. Bunga asosiy sabab insondagi asosiy illat tanballikdir. Shunday ekan, bir illat orqasidan yana boshqa illatni keltirib chiqaradi. Kaykovus "Qobusnoma" asarida: "Tanning bir holdin ikkinchi holg'a aylanishi zaruriy sabab deb ataladi. Bu olti xildan iborat: birinchi – havo, ikkinchi – taom, uchinchi – harakat, to'rtinchi – uyqu, beshinchi – kishi tabiatining xushnudligi va ma'yusligi, tandagi – o'zgarishlar, masalan, g'am, g'azab, xavf va shunga o'xshash ruhiy holat"[15.136], deya fikr bildirgan. Fikrimizcha, bularni zaruriy deyishiga sabab, odam bulardan xoli bo'la olmaydi, bulardan har biri inson tanasida o'z o'rniga ega bo'ladi. Shu fikrlardan harakatni oladigan bo'lsak, harakatsizlik keltirib chiqargan oqibatlar ko'p holatini tashkil qiladi. Harakatning esa bir qancha foydalilik jihatlari mavjud.

- Harakatlarda faollikning ortishi.
- Kasallikning oldini olish yoki rivojlanishni susaytiradi.
- Harakatsiz hayot natijasida kelib chiqadigan muammolar oldi olinib biologik qobiliyati va xususiyatlarni o'stiradi.

Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy inson ruhiy quvvatlarini tahlil etib, so'zlash quvvati, harakatlanuvchi quvvat, xayol quvvati va sezish quvvatiga ajratgan. Alloma "Shakl va aksidensiyalarning ibtidosi haqida" asarida inson quvvatini quyidagicha tasnif qiladi. So'zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida kishi hunar egallaydi, xatti-harakat va xulq-atvordagi go'zal narsalarni amalga oshiradi, foydali narsalarni zararli narsalardan farqlaydi. Abu Nasr Forobiy: "Kasallik (organizmni) o'limga olib keladi. U qon, o't, qora jigar va shilliqning (turli holati) natijasida paydo bo'ladi, mazkur to'rt elementning (holati) esa o'z navbatida ovqatlanishga bog'liq. Ovqatlanish esa o'simlik (tarkibiga), tuproq tarkibiga, shunday qilib hammasi yerga bog'liq"[16.211], degan fikrni ta'kidlaydi. Fikrimizcha, Forobiy hodisalarning sababiy bog'lanishini chuqur tushungan va birinchi qarashda go'yo bir-biridan juda uzoq bo'lgan jarayonlar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlagandan dalolat beradi. Yuqoridagi fikrlarga biroz o'zgartirish kiritgan holda talqin qilib ko'raylik. To'g'ri, kasallik nafsilambirda insonni o'limga olib keladi. Kasallik albatta, insonning hayot tarziga, ovqatlanishga, uning asab tizimiga so'zsiz bog'liqdir. Lekin bemor o'zini qanday his qilishi uning ruhiy-fiziologik holatiga ham bog'liqdir. Xususan, insonga salbiy ruhiy omil ta'sir etganda, albatta, kasallik rivoji tezlashadi. Yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, shifokor va bemor muloqoti ma'lum tibbiy ma'naviy asoslari bo'lmog'i darkor.

Jismni tozaligi ruhga nur beradi. Bu insonda doimo tozalikka, beg'uborlikka intilishni kuchaytiradi. Jadid mutafakkiri A. Avloniy: "Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa choponni ustini qo'yib, astarini yuvib o'vora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur"[17.15], deb "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida yozadi. Avloniy tarbiya xususida fikr yuritib, jism bilan ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi. Jism bilan ruh, shakl bilan mazmunning uzviy birligi va ularning o'zaro bir-biriga ta'siri masalasi juda muhim va murakkabdir. Tashqi go'zallik va axloq, shakl bilan mazmunning uzviy birligi va bog'liqligini talab qilganidek, jism va ruh bir-birini to'ldirib turuvchi holatdir. Bemorning ruhiy madadkori shifokordir. Shunday ekan, shifokor bemorning salbiy, zohiriy va botiniy, tashqi va ichki ta'sirlardan saqlashga intilishi yaxshi natijalar beradi. Shu sabab har bir shifokor bemorni alohida betakror individ sifatida qabul qilmog'i va uni hech bir takrorlanmas ruhiyat namunasi sifatida o'rganishi, muloqot qilishi, nihoyat tuzatishi zarur.

Insonlardagi dunyoqarash va axloq o'zi yashab turgan muhitni ta'sirida shakllanib boradi. Inson shaxs bo'lib shakllangan vaqtda o'zi o'rgangan bilimlar, orttirilgan tajribalar

orqali jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan munosabat bildirish boshlanadi. Jamiyatdagi bir soha vakillari, ya'ni tibbiyot xodimlari o'z kasbini bilimdoni va ustasi bo'lib yetishishi uchun, albatta, ulardan yuqori darajadagi bilim hamda bemor sog'lig'ini tiklash va uning jonini saqlab qolish uchun uning oldidagi axloqiy mas'uliyatni his qilish, barcha narsalarni shu mas'uliyatdan keyinga qo'yish, bir so'z bilan aytganda, o'zida tibbiy madaniyatini shakllantirgan bo'lishi zarur. Shifokor albatta Sharq tibbiyoti allomalari merosi orqali egallanajak tibbiy madaniyatga oid fikrlarini dasturilamal qilib ongiga o'zlashtirish, amaliga tatbiq qilishi lozimdir. Ba'zida e'tibor berilsa, tibbiy axloqdan yetarlicha bilimga ega bo'lmagan yoki ega bo'lsa ham faoliyatida amal qilmaydigan uchrab turadi. Tibbiyot xodimi bo'lib insonlarning ijtimoiy mavqeyiga qarab davo choralarini ko'rishi ba'zida vaqtida berilmagan tibbiy yordam oqibatini o'lim bilan tugashigacha yetib boradi. Bu esa yuqoridagi aytganimiz shifokorning insonlarning ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har bir bemorga kuch-g'ayrati va vaqtini ayamay tibbiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi qasamyodini bilib turib buzishi, shu soha xodimining eng katta axloqsizligi bo'ladi. Tibbiy axloq tibbiyot xodimlarining bemorlar oldidagi har qanday vaziyatda ham bajarishi va amal qilish kerak bo'lgan ma'naviy majburiyati hisoblanadi.

Xulosalar. Xulosa tarzida aytadigan bo'lsak, inson sog'ligi, umri, hayoti, o'limini qadriyat sifatida e'zozlash insonlarda yuqoridagi keltirilgan paradigmalar doirasida bilimlar, qarashlar shakllansagina boshlanadi. Insonlarda bu rivojlanish bioetika ta'limini, sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirish orqali erishadi. Sog'lom turmush tarzi, ma'naviy majburiyat, tibbiy madaniyatga doir qarashlar turli ommaviy axborot vositalari orqali yetkazib berilishi, sog'lom tafakkurli avlodlarni tarbiya topishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Тошкент: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 3-жилд. 2002, -Б. 28.
2. Человек. Мыслители прошлого и настоящего о его жизни, смерти и бессмертии. – М.: Политиздат, 1991, -С. 20-21.
3. Кызыл- оол М. Народная медицина Тувы: современное состояние и перспективы развития// НИИ медико социальных проблем и управления Республики Тыва.- Кызыл, 2015. - №1. – С. 226.
4. Абдуллаев Ш, Ҳақимов Д. Авесто ва тиббиёт”// Шарқ ва Ғарб: зардуштийлик ва “Авесто” нинг Ғарб дунёқарашига таъсири: Халқаро илмий-амалий семинар материаллари. – Наманган, 2001. - Б. 21.
5. Епифанцева А, Епифанцев А. Народная медицина- культурный слой истории общества// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2011. -№5. -С. 76.
6. Nyiegwen A. Modernity in traditional medicine: Teses fnd dissertations, - Umea: International scholl of public health, 2011. -P.5.
7. Ҳомидий Х, Дўсчанов Б. “Авесто” ва тиббиёт. –Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2001. -Б. 24.
8. Алишер Навоий. Махбуб ул- кулуб . XX томлик мукаммал асарлар тўплами. XIV- том. - Тошкент:1998 . -Б. 20-21.
9. Каримов И. Баркамол авлод орзуси. -Тошкент: Шарқ, 1999. -Б. 98.
10. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг. -Тошкент: Фан. 1972. –Б. 675
11. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг. -Тошкент: Фан, 1972. -Б. 690.
12. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг. -Тошкент: Фан, 1972. -Б. 691.
13. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг. -Тошкент: Фан, 1972. -Б. 695.
14. Кайковус. Қобуснома. -Тошкент: Ўқитувчи, 2006. 16 боб. -Б.79.
15. Кайковус. Қобуснома. -Тошкент: Ўқитувчи, 2006. 33 боб. -Б.136.
16. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1971. - Б. 211.
17. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992. -Б.15.

MA'NAVYI DESTRUKTIV TENDENSIYALAR: SABABLARI VA OQIBATLARI**Bekmurodova Gulshoda Xayitovna**

Qarshi davlat universiteti professori

Falsafa fanlari doktori (DSc)

Bekmurodovagulshoda77@gmail.com

ORCID 0009-0005-2610-8292)

UDK 155.7:101.5:145.2 (045)

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti jarayonida globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi hamda ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi natijasida ma'naviy sohada turli destruktiv tendensiyalar yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolada ushbu jarayonlarning shaxs ma'naviy qiyofasi, hayotiy pozitsiyasi va qadriyatlar tizimiga ko'rsatayotgan ta'sirining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilingan. Xususan, individualizmning kuchayishi, iste'molchilik kayfiyatining ustuvorlashuvi, virtual muloqotning real ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga befarqlikning ortishi kabi omillar ma'naviy inqirozning asosiy sabablari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, yoshlar ongiga salbiy axborot oqimlarining ta'siri, ma'naviy bo'shliq va ijtimoiy begonalashuv muammolari ham yoritilgan. Tadqiqot davomida destruktiv jarayonlarning jamiyat barqarorligi va shaxs kamolotiga salbiy oqibatlari umumlashtirilib, ularni neytrallashtirishning muhim yo'nalishlari sifatida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani kuchaytirish, milliy qadriyatlarni asrash, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish hamda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish zarurligi ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat ma'naviy sohasi, tendensiya, konstruktiv jarayonlar, destruktiv jarayonlar, ma'naviy ishlab chiqarish, ma'naviyat, ma'naviy bilimlar, axloqiy befarqlik.

SPIRITUALLY DESTRUCTIVE TRENDS: CAUSES AND CONSEQUENCES

Abstract. In the process of modern societal development, various destructive tendencies are emerging in the spiritual sphere as a result of globalization, the rapid advancement of information technologies, the widespread dissemination of mass culture, and the transformation of social relations. This article scientifically analyzes the socio-philosophical aspects of the influence of these processes on an individual's spiritual image, life position, and system of values. In particular, such factors as the strengthening of individualism, the dominance of consumerist attitudes, the weakening of real social relations due to virtual communication, and the growing indifference toward national and universal values are identified as the main causes of spiritual crisis. Furthermore, the study highlights the impact of negative information flows on the consciousness of young people, as well as the problems of spiritual emptiness and social alienation. During the research, the negative consequences of destructive processes on social stability and personal development were generalized. The necessity of strengthening spiritual and educational upbringing, preserving national values, developing critical thinking, and creating a healthy social environment as important directions for neutralizing these processes was scientifically and philosophically substantiated.

Keywords: spiritual sphere of society, tendency, constructive processes, destructive processes, spiritual production, spirituality, spiritual knowledge, moral indifference.

Kirish. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy sohalarida vujudga kelgan konstruktiv va destruktiv jarayonlar jamiyat a'zolarining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy voqelikka munosabatini o'zgartirdi. Inson ma'naviy olamidagi bunday o'zgarishlar qonuniy ravishda jamiyat ma'naviy sohasining tubdan yangilanishiga olib keldi. Zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni ham, ijtimoiy ong shakllari xarakteri ham, ijtimoiy psixologiya tabiati ham, mafkuraviy vaziyat ham keskin o'zgarimoqda. Barcha sohalarda bo'lgani kabi mazkur yangilanishlarda qator konstruktiv va destruktiv jihatlar, jarayonlar, holatlar ko'zga tashlanadi.

Avvalo, XX asrning ikkinchi yarmi va yangi asrning dastlabki choragida zamonaviy jamiyat ma'naviy sohasida ko'plab konstruktiv jarayonlar yuz berganini qayd qilmoq kerak. Bu jarayonlar o'zining turli-tumanligi bilan tavsiflanadi, albatta. Jumladan, keyingi yarim asr mobaynida:

- ma'naviy ishlab chiqarish sifati o'zgardi; xususan, bugungi kunda ushbu jarayon mutlaqo yangicha normalar, tamoyillar, resurslar asosida amalga oshirilmoqda. Bilimlar, g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar, qadriyatlarni yaratish jarayoni texnik va texnologik jihatdan ham takomillashdi. Oqibatda ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni tom ma'noda jamiyat

hayotining turli sohalarini rivojlantiruvchi, kishilar ma'naviy ehtiyojlarini to'laqonli qondiruvchi omilga aylandi;

- ijtimoiy ong shakllari boyidi; xususan, ijtimoiy ahamiyatga molik yangi va yangi siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, ilmiy, falsafiy va boshqa tasavvur, bilim, g'oya, nazariya, ta'limot, qadriyatlar vujudga keldi. Bu bilim va tasavvurlarning ijtimoiy borliqqa ta'siri ko'lami nihoyatda kengaydi;

- ijtimoiy psixologiya ratsionallashti; xususan, uning tarkibidagi aql va mantiqqa asoslangan bilim, odat, an'analar miqdori oshib, mistik va irratsional elementlar ulushi kamayib bormoqda. To'g'ri, ushbu jarayon turli jamiyatlarda turli maromda va miqyosda sodir bo'layapti. Lekin mistik dunyoqarash o'rnini ratsional dunyoqarash egallayotganini bugungi kunning eng maibul tendensiyalaridan biri sifatida e'tirof etmoq lozim;

mafkuraviy plyuralizm yuzaga keldi; xususan, umumsayyoraviy kontekstda fikrlaganda, kishilik jamiyati yakka mafkura hukmronligidan qutuldi. Yakka mafkura hukmi ostida qolgan hududlar borgan sari kamayib bormoqda, boz ustiga, bu hududlarda ham muqobil g'oya va mafkuralarning shakllanayotganini ko'rish mumkin. Bunday mafkuraviy plyuralizmni shak-shubhasiz kishilik jamiyatining yutug'i sifatida qabul qilmoq darkor.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jamiyat hayotida ma'naviy dekadans belgilarining paydo bo'la boshlaganini ilk bor O. Shpengler o'zining "Yevropa quyoshining botishi" nomli asarida ta'kidlab o'tgandi [4;402]. Mutafakkirlar buning sabablarini turli sohalaridan izlaydilar. Masalan, nemis faylasufi va sotsiologi, mashhur Frankfurt maktabining yorqin namoyandalari biri E. Fromm axloqsizlikning asosiy sababini hayotning mazmunini tashkil etuvchi mo'ljal va qadriyatlarining o'zgarishidan izlaydi [5;119]. Rus faylasufi A.A. Zinoviyevning fikriga ko'ra esa, inson shaxsining yemirilishi, uning ijtimoiy mexanizmining murvatiga aylanishi pirovardida axloqsizlikning yoyilishiga sabab bo'ldi [6]. Lekin chuqurroq o'ylab qarasa, qadriyatlarining o'zgarishi sabablari ham, inson shaxsining yemirilishi sabablari ham moddiylik ustuvorligi, uning oqibati o'laroq ma'naviy ishlab chiqarishning tijoratlashuviga borib taqaladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojining ta'siri o'laroq ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida ham tijoratga xos bo'lgan xususiyatlar paydo bo'la boshladi. Jumladan, bugungi kunda muayyan talab mavjud bo'lgan va ularni qondirishga xizmat qiladigan bilim va g'oyalar, ta'limot va nazariyalarni ishlab chiqarishga e'tibor qaratilayotir, xolos. Ma'naviy ishlab chiqarishning tijoratlashuvi fan, ta'lim, adabiyot va san'atda xavfli tendensiyalarga sabab bo'lmoqda. Masalan, barcha mamlakatlar ilm-fanida birinchi navbatda daromad keltirishi va moddiy ishlab chiqarishga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan ilmiy izlanishlarni moliyalashtirishga intilish ko'zga tashlanadi. Vaholanki, ilm-fan faqat ishlab chiqaruvchi kuch funksiyasini emas, kishilar dunyoqarashini yuksaltirish, ularga ma'rifat tarqatish, olamdagi obyektlarni tasvirlab berish, kelajakni bashorat qilish funksiyalarini ham bajarmog'i darkor [3]. Ilmning tijoratlashuvi, nuqul daromad keltirishi mumkin bo'lgan ixtiro va kashfiyotlarga e'tiborning jamlanishi bu funksiyalar ijrosi uchun o'rin qoldirmayapti. San'atda kechayotgan jarayonlar xususida ham shunday deyish mumkin. Bugungi kunda san'at asarining qadr-qimmatini uning sotiluvchanligi bilan belgilanmoqda. Ketgan xarajatlarni qoplagan, jiddiy daromad keltirgan film, asar, ko'rsatuv va shu kabilargina qadrli, ahamiyatli sanalmoqda. Asarning g'oyasi, uning syujeti, tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati esa daromad soyasida qolib ketdi. Buning natijasida san'at asari o'zining eng asosiy funksiyasi–kishilarning estetik tuyg'ulari va didini shakllantirish vazifasini bajarolmay qolayapti.

Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonining tijoratlashuvi ikkinchi destruktiv jarayon – ma'naviy bilimlar rivojining sekinlashuviga sabab bo'ldi. V.G. Torosyan va N.Y. Drobyazkolar maqolasida ma'naviy bilimlar tabiati, tarkibi va rivojlanish xususiyatlari ayniqsa yorqin ochib beriladi. Mutaxassislar antik davrda "otium" va "negotium" tushunchalari muomalada bo'lganini eslaydilar. Ularning ta'kidlashicha, "negotium" iqtisodiy faoliyatning har qanday turini o'z ichiga olsa, "otium" ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyatdan emas, insonning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladigan faoliyat turlaridan tarkib topgan. Bu turlarga, masalan, mutolaa, musiqa, falsafa, nazm, matematika, astronomiya kiritilgan. Mazkur sohalariga doir bilimlar jamiyat va inson borlig'ini tavsiflashga, jamiyatdagi

voqea hamda jarayonlarning sabab va oqibatlarini aniqlashga, shuningdek, insonning shaxs sifatida shakllanishini, uning ma'naviy yuksalishini ta'minlashga xizmat qilgan. Intellektuallik, estetiklik va axloqiylikni o'zida jamlagan bu ma'naviy bilimlar ozod fuqaroni shakllantiruvchi markaziy omil sifatida tavsiflangan[1;188]. Ular o'tgan asrning ikkinchi yarmiga qadar hatto shaxs ijtimoiy maqomini belgilovchi manba vazifasini o'tagan.

Lekin XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab vaziyat tubdan o'zgara boshladi. Biz ta'kidlab o'tganimizdek, bozor iqtisodiyoti asoslarining qaror topishi amaliy ahamiyatga molik, qisqa muddatda daromad keltirishga qodir bilimlarni yaratishga e'tiborni kuchaytirdi. Buning natijasida shaxs dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan ma'naviy bilimlar soyada qolib ketdi. Amaliy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladigan tadqiqot loyihalariga ajratmalar hajmi borgan sari ortib, ma'naviy bilimlar yaratuvchi ijtimoiy-gumanitar fanlarga doir izlanishlarni moliyalashtirish muttasil kamaydi. Buni mamlakatlarning ilm-fan rivojiga ajratgan investitsiyalari tarkibidan ham ko'rish mumkin. Masalan, rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, AQShda 2019-yilda ilmiy tadqiqotlar uchun 118 milliard dollar ajratilgan. Xitoyda xuddi shu yili ilm-fan uchun 322 milliard dollar sarflangan. Eurostat taqdim qilgan ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa Ittifoqi 2019-yilda bu maqsadlarga 306 milliard yevro mablag' yo'naltirgan. Rossiyada esa ilmiy izlanishlar uchun xarajatlar 6 milliard dollarni tashkil qilgan[2]. E'tiborli jihati shundaki, mazkur ajratmalarning arziyas foizigina ma'naviy bilimlar yaratuvchisi - ijtimoiy-gumanitar fanlarni moliyalashtirishga sarflangan, xolos. Masalan, Rossiyada 2007-yilda tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'ning 2,3 foizi ijtimoiy fanlarga, 1,3 foizi gumanitar fanlarga to'g'ri kelgan[3;227]. Bu ko'rsatkich keyingi yillarda ham sezilarli darajada o'zgargani yo'q. Boshqa mamlakatlarda ham xuddi shunday vaziyatni ko'rish mumkin. Noproporsional moliyaviy ta'minot, mablag'lar taqsimotida daromad tamoyili ustuvorligi aniq va texnik fanlar gurkirab rivojlanayotgan bir sharoitda ijtimoiy va gumanitar fanlar rivoji, ma'naviy bilimlar taraqqiyotining sekinlashuviga olib keldi. Keyingi yillarda ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida jahonshumul ahamiyatga molik ta'limot va nazariyalar vujudga kelmaganining asl sabablaridan biri ham shunda. [7;98].

Tadqiqot metodologiyasi. Global ma'naviy konstruktiv va destruktiv tendensiyalar, jarayonlar holatlarning mamlakatimiz aholisi ma'naviy qiyofasiga, xususan, yoshlarning dunyoqarashiga, qadriyatlar sistemasiga ta'siri xarakterini o'rganishda analiz, sintez, kuzatish, abstraksiya, deduksiya, induksiya mantiqiy usul va uslublardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi konstruktiv va destruktiv tendensiyalar, nafaqat ma'naviy sohaga, balki shaxs dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasiga ham ta'sirini o'tkazmoqda. Ma'naviy ishlab chiqarish sifati o'zgardi, ijtimoiy ong shakllari boyidi; siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, ilmiy, falsafiy va boshqa tasavvur, bilim, g'oya, nazariya, ta'limot, qadriyatlar sistemasi shakllandi. Ayni paytda zamonaviy jamiyatning ma'naviy sohasida konstruktiv jarayonlarga muqobil ravishda destruktiv jarayonlar ham kechmoqda. Bunday jarayonlarning eng ahamiyatlisi ma'naviy ishlab chiqarishning tijoratlashayotgani bilan bog'liq. Ma'naviy madaniyat mahsullari, masalan, badiiy asarlar, filmlar, multfilmlar, suratlar, ko'rsatuvlar, maqolalar va shu kabilar moddiy mahsulot kabi sotiladigan va xarid qilinadigan obyekt bo'lib qoldi. Uchinchidan, ma'naviy madaniyat artefaktlarini saqlash, targ'ib qilish va bo'lg'usi avlodlarga yetkazish funksiyalarini bajarmog'i lozim bo'lgan institutlar xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga aylandi. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni ham moddiy ishlab chiqarishga xos mahsulotlarni sotish va yetkazish, ularni saqlash, savdoga tayyorlash bilan bog'liq bosqichlardan tarkib topadigan bo'ldi. Ma'naviy ishlab chiqarishning asosiy maqsadi daromad topish bilan bog'liq bo'lib qoldi. Bu holat zamonaviy jamiyatda jiddiy ijtimoiy oqibatlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, ma'naviy bilimlar rivojining sekinlashuvi kishilik jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlarni tasvirlash, tavsiflash, tasniflash, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash, kelajakdagi rivojiga doir bashoratlarni bayon etish, ijtimoiy voqealarni ilmiy asosda boshqarish imkoniyatlarini kamaytirmoqda. Ma'naviy bilimlar tanqisligi inson ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash va ifodalash, ularni bartaraf etish yo'llarini topishga ham xalal bermoqda. Sirasini aytganda, ko'pgina mutaxassislar tomonidan jamiyat va shaxs ma'naviy degradatsiyasi alomatlari sifatida qayd etilayotgan

holatlarning sabablaridan biri ham ma'naviy bilimlar rivojining sekinlashuviga borib taqaladi.

Ma'naviy ishlab chiqarish tijoratlashuvi oqibatida ma'naviy bilimlar rivojining sekinlashuvi jamiyatda axloqiy befarqlik muhitini shakllantirdi. U barcha davrlarda ijtimoiy barqarorlikni, shaxslararo hamjihatlikni, shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unligini, insonparvarlik va adolatparvarlik tamoyillari ustuvorligini ta'minlovchi omil vazifasini o'tagan. Shu boisdan axloq va uning mazmuni va ijtimoiy ahamiyatiga doir ilmiy mavzularni maxsus tadqiq etgan barcha mutaxassislar uni ma'naviyatning birlamchi negizlaridan biri sifatida e'tirof etadilar.

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida axloqiy normalar va qadriyatlar rivojlanishi, yuksalishi bilan bir vaqtda, unga muqobil ravishda axloqsizlik ham shakllana borgan. Shu nuqtayi nazardan fikrlaganda, axloqsizlik axloq kabi insoniyatning mudom yo'ldoshi bo'lib kelgan. Biroq XX asrda axloq olamida tub o'zgarishlar sodir bo'la boshladi: axloq va axloqsizlik o'rtasidagi muvozanat buzildi, axloqsizlik tizimli tus ola boshladi. Jamiyatida ahloqsizlik hollari tizimli tus olgani sayin unga bo'lgan tolerantlik, befarqlik kayfiyati qaror topmoqda. Axloqiy befarqlik yangi asrning eng destruktiv jarayonlaridan biri darajasiga ko'tarildi.

Ma'naviy bilimlarni rivojlantirishga e'tiborning kamligi barcha jamiyatlarda mafkuraviy befarqlik muhitini vujudga keltirmoqda. Mutaxassislar zamonaviy vayronkor g'oyalarning aksariyat qismi turli bazaviy manbalarning buzib talqin qilinishi oqibatida yuzaga kelayotganini qayd qiladilar [7;141]. Masalan, pravoslaviyeda ma'naviy qadriyatlar, jamoaviylik va vatanparvarlik tamoyillari ulug'lanadi. "Oq birodarlik", "So'nggi ahd cherkovi" kabi sektalar esa pravoslaviyening asosiy tushunchalari va g'oyalarni qo'llasalarda, amalda ularni o'ta buzib talqin qiladilar. Xuddi shunday holatni islom olamida ham kuzatish mumkin. Masalan, bugungi kunda "jahonning turli mamlakatlarida "Al-Qoida", "Al-Murabitun", "Ansor ul-islom", "Asoib Ahli al-Haq", "Asbat al-Ansor", "At-Takfir val-Hijra", "Ahror ash-Shom", "Musulmon birodarlar", "Jamoat Ansor as-Sunna", "Jamoat at-Tavhid val-Jihad", "Dog'iston islom SHo'rosi", "Ajnad ash-Shom islom ittifoqi", "Islom davlati", "Sharqiy Turkiston islom harakati", "Falastin islom jihodi", "Islom jihodi ittifoqi", "Fatx-ul-islom", "Xazzm", "Hayot Tahrir ash-Shom", "Xamas", "Xizbolloh", "Hizb ut-Tahrir al-Islomiya" kabi yuzlab guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda." [8;70]. Ularning barchasi o'z mulohazalarida islomning asosiy g'oya va tushunchalariga murojaat qiladi, biroq mazkur g'oyalar mazmunan buzib, muayyan doiralar manfaatlariga moslashtirib tavsiflanadi.

Zamonaviy vayronkor g'oyalarga xos bo'lgan yana bir xususiyat shundaki, ularning barchasi jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy norma va tamoyillarning ijtimoiy adolat prinsiplariga zid ekanini qayd qiladi, jamiyat a'zolari ongi va faoliyatini eng nomaqbul uslublar yordamida nazorat qilishga chaqiradi, muxoliflarni dushman sifatida talqin etadi va ularni yo'q qilish zaruriyatini nazariy jihatdan asoslab beradi. Buni, masalan, pravoslaviye g'oyalarning buzib talqin qilinishi natijasida yuzaga kelgan "Oq birodarlar" sektasi, protestantizm g'oyalarning noto'g'ri tavsifi mahsuli bo'lgan "Iso cherkovi" sektasi, marksizm g'oyalarning radikal ifodasi natijasida paydo bo'lgan "Qizil kxmerlar" guruhi, islom g'oyalarning ekstremistik bayoni tarafdorlari hisoblangan "Islom davlati" guruhi mafkurasida ko'rish mumkin [9;142].

Xulosa. Vayronkor g'oyalar tarqalishining destruktiv oqibatlari shundaki, u global hamjamiyatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini barbod qiladi. Moddiy-iqtisodiy, moliyaviy, intellektual resurslarning besamar sarflanishiga sabab bo'ladi, katta hajmdagi mintaqalarni, mamlakatlarni halokatga, tanazzulga olib kelishiga sabab bo'ladi, ming-minglab insonlar taqdirini izdan chiqarib yuboradi, baxtsizlik, jaholat girdobiga otadi [10;189].

Vayronkor g'oyalarning yoshlar orasida keng targ'ib va tashviq qilinayotgani esa insoniyat kelajagini ham jiddiy xavf ostida qoldirmoqda.

Mafkura olamidagi tub o'zgarishlar, ayniqsa vayronkor g'oyalar tarqalishining jadallashuvi axborot olamiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bu o'rinda ayniqsa dezinformatsiyalar tarqalishining tendensiyaviy tus olayotgani ko'zga tashlanadi. Umuman olganda, dezinformatsiya – yolg'on yoki voqelikni buzib talqin qiluvchi ma'lumotning vujudga kelishi sabablari talaygina. Goho ijtimoiy, goho iqtisodiy, goho siyosiy yoxud

mafkuraviy maqsadlar manfaatdor subyektni dezinformatsiya tarqatishga undaydi. Shu boisdan turli davrlarda dezinformatsiya jamiyatdagi barcha axborotlar majmuida muayyan o'ringa ega bo'lib kelgan. Lekin aynan yangi asr arafasiga kelib, mafkuraviy maqsadlarni ko'zda tutuvchi dezinformatsiyalar salmog'i nihoyatda ortdi. Manfaatdor davralar u yoki bu mafkurani kishilar ongiga singdirish, maqbul mafkuraviy tasavvurlarni shakllantirish, obyektning muayyan xatti-harakatlarga undash maqsadida tobora ko'proq dezinformatsiyaga murojaat qilmoqdalar. Mafkuraviy makonda turli g'oya va mafkuralarning ko'payotgani, ayniqsa, vayronkor g'oyalar va ulardan manfaatdor kuchlarning paydo bo'layotgani dezinformatsiyalar sonini oshishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda mazkur dezinformatsiyalar tarqatish texnologiyasi yanada takomillashdi. Bu borada zamonaviy axborot uzatish vositalaridan, ijtimoiy tarmoqlardan, feyk-xabarlar tarqatishga moslashtirilgan maxsus saytlardan foydalanilmoqda. Dezinformatsiyadan manfaatdor davralarning ko'payotgani, jamiyat a'zolarining mafkuraviy befarqligi kuchayotgani esa bu texnologiyani bugungi davrning eng destruktiv omillaridan biriga aylantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Торосьян В.Г., Дробязко Н.Е. Кризис науки или Наука в кризисном социуме?// Наука и современность, 2014, №30.- 188 с.
2. Сколько тратят на науку Россия, США, Китай и страны Евросоюза.//zen.yandex.ru,2020,1 декабря.
3. Полетаев А.В. Показатели развития общественных и гуманитарных наук в России в период экономического подъема.// Управление наукой и наукометрия, 2009, №8.- 227 с.
4. Шпенглер О. Закат Европы.// Соч. в 2-х томах. Т.1.- М.: Мысль, 1998. – 402 с.
5. Фромм Э. «Иметь» или «Быть». – М.: АСТ, 2007, - 229 с.
6. Зиновьев А. А. Глобальный человек. - М.: Эксмо, 2006, 302-с.
7. Калинин Л.А. К вопросу о типологизации деструктивных идеологий.// Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2006, №1.- 141-с.
8. Rahmatova D. Geosiyosiy raqobat sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalari.- T.: Lesson Press, 2021.- B.70.
9. Калинин Л.А. К вопросу о типологизации деструктивных идеологий.// Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2006, №1.- 142-с.
10. Liquid Modernity – Cambridge, 2000,189-с.

JINOYATCHILIKNING JAMIYAT HAYOTI SOHALARIGA ZIDDIYATLI TA'SIRI VA UNING OQIBATLARI

Safarov Nurbek Abdivaliyevich,

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Falsafa doktori (PhD), dotsent

safarovnurbek78@gmail.com

ORCID 0000-0013-4352-3456

UDK: 101:0007.01.4(11:14-1)

Annotatsiya. Jinoyatchilik jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. U nafaqat huquqiy tartibni izdan chiqaradi, balki inson ongi, qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlarga ham jiddiy ta'sir etadi. Jinoyatchilikning ortishi jamiyatda qo'rquv, ishonchsizlik va adolatsizlik muhitini shakllantirib, fuqarolarning davlat va qonunga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Falsafiy nuqtayi nazardan, jinoyatchilik axloqiy inqiroz, ijtimoiy tengsizlik va ma'naviy qadriyatlarining zaiflashuvi bilan bog'liqdir. Shuningdek, u iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qilib, investitsiya muhitini yomonlashtiradi hamda ijtimoiy resurslarning samarasiz sarflanishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar orasida jinoyatchilikning kuchayishi kelajak avlod tarbiyasi va milliy xavfsizlik uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqiy choralar bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy adolat va fuqarolik madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Jinoyatchilik, jamiyat, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy tartib, axloqiy inqiroz, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik, ijtimoiy tengsizlik, fuqarolik madaniyati, yoshlar tarbiyasi, milliy xavfsizlik

THE CONTRADICTIONARY IMPACT OF CRIME ON VARIOUS SPHERES OF SOCIAL LIFE AND ITS CONSEQUENCES

Abstract. Crime is a complex socio-philosophical phenomenon that negatively affects the social, moral, and economic stability of society. It not only disrupts the legal order but also seriously influences human consciousness, values, and social relations. The increase in crime creates an atmosphere of fear, distrust, and injustice in society, reducing citizens' confidence in the state and the rule of law. From a philosophical perspective, crime is associated with moral crisis, social inequality, and the weakening of spiritual and ethical values. Furthermore, it hinders economic development, worsens the investment climate, and leads to the inefficient use of social resources. In particular, the growth of crime among young people poses a serious threat to the upbringing of future generations and national security. Therefore, along with legal measures, the development of moral education, social justice, and civic culture plays an important role in combating crime.

Keywords: Crime, society, social stability, legal order, moral crisis, spiritual values, social relations, justice, rule of law, security, social inequality, civic culture, youth education, national security.

Kirish. Barcha davrlarda har qanday kishilik jamiyatida uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, ravnaqini sekinlashtiradigan omillar, hodisalar, jarayonlar mavjud bo'ladi. Ularga e'tiborsizlik, ularni bartaraf etishdagi qat'iyatsizlik jamiyat uchun tom ma'noda "qimmatga tushishi" aniq. Chunki mazkur salbiy omil va hodisalar pirovardida jamiyatni parokanda qiladi, uning yorug' kelajakka bo'lgan imkoniyatlarini behuda sovurib yuboradi. Lekin hech bir salbiy omil barqarorlik va taraqqiyotga jinoyatchilik hodisasichalik putur yetkazmaydi. Uning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri keng ko'lamligi, davomiyligi va xatarliligi bilan xarakterlanadi.

Jinoyatchilik ta'siriga eng sezgir sohalaridan biri jamiyatning moddiy poydevori bo'lmish iqtisodiy tizimdir. Chunki jinoyatchilik ta'sirida birinchi navbatda shikast ko'radigan, barqaror faoliyat ko'rsatishdan mosuvo bo'ladigan soha aynan iqtisodiyotdir. Jinoyatchilik darajasi oshishi iqtisodiy munosabatlarning izchil rivojini buzadi, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlariga izdan chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jamiyatda jinoyatchilik darajasining o'sishi undagi ishbilarmonlik muhitini zaiflashtiradi. Jinoyatlar muttasil ravishda ko'payib borayotgan, mol-mulk hamda moliyaviy resurslarni muhofaza qilish imkoniyatlari cheklanayotgan bir vaziyatda tadbirkorlar va investorlarning iqtisodiy faolligi susayadi, iqtisodiyotning turli sohalariga ichki va xorijiy sarmoyalar oqimi qisqaradi. Buning oqibati o'laroq turfa sektorlarda ishlab chiqarish samaradorligi pasaya boradi, iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashadi. Aynan shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi tashkilotlar jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan yurtlarda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari sekinlashganini qayd qilmoqdalar. Ularning ma'lumotlariga qaraganda, rivojlanayotgan mamlakatlar jinoyatchilik oshishi ortidan yiliga 40 milliard dollar yo'qotmoqdalar[1].

Jinoyatchilik darajasi nafaqat ishbilarmonlik muhitiga, balki mamlakatdagi mehnat bozoriga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, mansabning suiiste'mol qilinishi, mulkning noqonuniy egallab olinishi, iqtisodiy firibgarlik kabi jinoyatlar sonining ko'payishi ortidan ishlab chiqarish resurslarining noto'g'ri taqsimoti keskinlashaveradi. Bu esa ko'plab jamiyat a'zolarining mazkur taqsimotdan chetda qolishiga, ishsizligiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatdan birinchi navbatda yoshlar aziyat chekadilar, albatta. Ularning ijtimoiy tuzumdan, mavjud realiyalardan noroziligi oshib boradi[2;57-66].

Jinoyatchilikning ayrim turlari muqarrar ravishda yashirin iqtisodiyotning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, qaysiki jamiyatda kontrabanda, noqonuniy pul aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlar avj olsa, o'sha jamiyatda yashirin iqtisodiyot ko'lami katta bo'ladi. Yashirin iqtisodiyot ko'lami kengaygani sayin jamiyat a'zolarining rasmiy iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki zaiflashadi. Buning natijasi o'laroq davlat budjetiga soliq tushumlari keskin kamayadi, hukumat tomonidan ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlari cheklanadi[3;1-7].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada jinoyatchilikning jamiyat hayotiga ta'siri ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, jinoyatchilikning ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy oqibatlarini yoritishda falsafiy tafakkur, sotsiologik kuzatuv hamda ilmiy manbalarni o'rganish usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, jinoyatchilikning jamiyat barqarorligiga ta'siri ilmiy asosda yoritib berildi.

Tahlil va natijalar. Jinoyatchilik jamiyatning siyosiy barqarorligi va davlat boshqaruvining samaradorligiga tahdid soluvchi muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Chunki har qanday davlatning barqaror faoliyati qonun ustuvorligi, fuqarolarning davlat idoralari bo'lgan ishonchi va adolat tamoyillarining ta'minlanishiga bog'liq. Jinoyatchilik darajasi oshgani sayin fuqarolar huquq va erkinliklari poymol etilishi holatlari ko'payib, huquqiy me'yorlar hayotda amal qilmaydigan holat vujudga keladi. Bunday vaziyatda jamiyatda qonun va huquq ustuvorligiga nisbatan ishonch so'nadi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samarasiz deb baholanadi. Natijada fuqarolar davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi imkoniyatlariga ishonmay qo'yadilar, bu esa jamiyatdagi umumiy siyosiy muhitni beqarorlashtiradi. Vaholanki, davlat institutlariga bo'lgan ishonchsizlik har qanday siyosiy tizim uchun eng xavfli ijtimoiy holatlardan biridir. Chunki bu ishonchsizlik fuqarolar siyosiy faolligini benihoya pasaytiradi, ularni davlat ishlaridan chetlashtiradi. Ishonchsizlik kuchaygan sharoitda aholi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan siyosiy jarayonlarda ishtirok etmay qo'yadi: saylovlarda qatnashish, ijtimoiy dasturlarga ko'mak berish, islohotlarni qo'llab-quvvatlash kabi faoliyatlar susayadi. Bu esa davlatning ichki resurslarini safarbar qilish imkoniyatlarini cheklab, demokratik jarayonlarning izchil rivojiga to'sqinlik qiladi.

Agar davlat jinoyatchilik darajasi oshgan sharoitda ham unga qarshi samarali choralar ko'rmasa, bu holat nafaqat huquqiy tizimdagi beqarorlikni, balki davlat boshqaruvi tizimidagi boshboshdoqlikni ham keltirib chiqaradi. Jinoyatchilikning ayrim turlari davlatning ichki tuzilmalariga qadar singib borish xususiyatiga ega. Davlat o'z vaqtida ta'sirchan choralar ko'rmagan taqdirda jinoiy guruhlar va korrupsiyaviy elementlar davlat boshqaruv organlariga kirib boradi. Bunday vaziyatda korrupsiya va mansabni suiiste'mol qilish hollari tobora kuchayadi. Davlat lavozimlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish, davlat resurslarini noqonuniy ravishda talon-taroj qilish, tanish-bilishchilik va manfaatdorlik asosida qarorlar qabul qilish holatlari avj oladi. Bu esa jamiyat ko'z o'ngida davlat institutlari obro'sini keskin pasaytiradi[4;15-19].

Jinoyatchilik elementlarining Bosh prokuratura tarkibiga kirib qolishi davlat boshqaruvi mohiyatini ham o'zgartiradi. Bunday sharoitda davlat qarorlari umummilliy yoki umuminsoniy manfaatlardan kelib chiqib emas, balki ma'lum tor guruhlar yoki manfaatdor doiralar foydasi yo'lida qabul qilina boshlaydi. Bu jarayon siyosiy elitaning jamiyatdan uzilib qolishiga, hokimiyat legitimligining yo'qolishiga, davlat boshqaruvida ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga olib keladi[4;15-19].

Jinoyatchilik darajasi jamiyatda avj pallasiga yetganidan so'nggina unga qarshi kurash choralari tashkil etilishi ko'p hollarda samarali natija bermaydi. Chunki bunday vaziyatlarda jinoyatchilik faqat ayrim shaxs yoki guruhlarning ongu-shuuriga emas, butun ijtimoiy tuzumga singib ulguradi. Shu boisdan davlat aholi ishonchini tiklash va ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun tez va keskin choralar ko'rishga majbur bo'ladi. Lekin tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu yo'lda ko'rilgan qat'iy choralar ko'p hollarda huquq ustuvorligi tamoyilini zaiflashtiradi. Davlat qonuniy yo'llar bilan emas, balki kuch ishlatish, jazolash va repressiv siyosat orqali tartib o'rnatishga harakat qila boshlaydi. Natijada qonun ustuvorligi tamoyili o'rnini kuch ustuvorligi prinsipi egallaydi. Boshqacha aytganda, jinoyatchilikka qarshi kurash ilinjida inson huquq va erkinliklari cheklanadi, huquqni muhofaza qilish organlariga ortiqcha vakolatlar beriladi. Mazkur choralar ta'sirida huquqiy tizimning asosiy mohiyati inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdan emas, davlatning nazorat mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat bo'lib qoladi. Qat'iy choralar qisqa muddatli natijalar berishi ham mumkin: yuzaki qaraganda, jamiyatdagi tartib-intizom, huquq me'yorlariga itoatkorlik tiklangandek, jinoyat darajasi pasaygandek ko'rinadi. Biroq kengroq fikrlaganda, bunday xarakterdagi choralar jamiyatda qo'rquv muhitining shakllanishiga,

fuqarolar siyosiy va ijtimoiy faolligining pasayishiga olib keladi. Shu sababdan jinoyatchilikka qarshi kurash muttasil ravishda olib borilishi, kompleks yondashuvga tayanishi, faqat jazo choralari emas, balki ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ta'lim va tarbiya samarasini oshirish choralari ham asoslanmog'i darkor.

Jinoyatchilik har qanday jamiyatning ijtimoiy sohasiga, uning barqaror va uyg'un ravnaqiga ham jiddiy tahdid soladi. Ma'lumki, jamiyatning ijtimoiy sohasi alohida shaxslar, turfa guruhlar va institutlar o'rtasidagi munosabatlar yig'indisidan tarkib topadi[5;518]. Uning uyg'un faoliyati esa jamiyatdagi ijtimoiy adolat, fuqarolararo hamjihatlik, hamkorlik darajasiga bog'liq. Jinoyatchilik ijtimoiy sohaning aynan ana shu zaminlarini yemirishi bilan xavfli.

Jinoyatchilik darajasi oshib borayotgan jamiyatlarda turli ijtimoiy tabaqalar, sinflar, guruhlar o'rtasidagi tengsizlik o'tkirlasha boradi. Ayniqsa, firibgarlik, korrupsiya va moliyaviy manipulyatsiyalar kabi jinoyatlar sonining ko'payishi natijasida muayyan guruhlar (mansabdorlar, biznes elitasi vakillari, davlat hokimiyatiga ta'sir ko'rsatishga qodir kishilar) qo'lida qonunga xilof yo'llar bilan topilgan moliyaviy resurslar jamlanib qoladi. Bu holat jamiyatdagi boylikning adolatsiz taqsimotiga olib keladi hamda iqtisodiy iyerarxiyani keskinlashtiradi. Natijada, mehnatkash va qonunga itoatkor aholi qatlamining turmush darajasi pasayadi, ularning mehnat orqali hayot sifatini yaxshilash, kundalik ehtiyojarini qondirish imkoniyatlari cheklanadi. Huquqiy me'yorlar va qonunlarga amal qilishga odatlangan, o'z hayotini shu me'yorlar asosida tashkil etishga ko'nikkan fuqarolar o'zlarini go'yoki "jazolangandek", muayyan imkoniyatlardan mahrum qilingandek his eta boshlaydilar[6;43].

Jinoyatchilik darajasining oshishi ortidan yuzaga kelgan tengsizlik ijtimoiy antagonizmni benihoya kuchaytiradi. Turli tabaqalar o'rtasidagi ishonchsizlik va raqobat ruhi jamiyat ichida ichki segregatsiyani keltirib chiqaradi, ya'ni odamlar o'zlariga o'xshash iqtisodiy yoki madaniy qatlam vakillari bilangina muloqot qilishni afzal ko'ra boshlaydilar. Tabiiyki, bunday nomaqbul vaziyat kishilardagi ijtimoiy mas'uliyatni, faol fuqarolik pozitsiyasini zaiflashtiradi, ijtimoiy hamjihatlik va fuqarolararo hamkorlikni yemiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro huquq komissiyasi turli mamlakatlarning ushbu ko'rinishdagi jinoyatlarga qarshi kurashini muvofiqlashtirish maqsadida 1991-yilda "Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi Kodeks" loyihasini ishlab chiqdi va birinchi o'qishda qabul qildi. Unda quyidagilar tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sifatida belgilab qo'yildi: 1) tajovuz; 2) tajovuz tahdidi; 3) boshqa davlatning ichki va tashqi ishlariga aralashish; 4) mustamlakachilik hukmronligi va boshqa turdagi xorijiy hukmronlik; 5) genotsid; 6) aparteid; 7) inson huquqlarini tizimli va ommaviy ravishda buzish; 8) o'ta og'ir harbiy jinoyatlar; 9) yollanma jangchilarni jalb qilish, ulardan foydalanish, moliyalashtirish va tayyorlash; 10) xalqaro terrorizm; 11) giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi; 12) atrof-muhitga qasddan va jiddiy zarar yetkazish[8;61]. Jahonning yetakchi mintaqalarida ham tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikni kamaytirish vazifalariga alohida e'tibor berila boshlandi. Tahlillar ko'rsatadiki, bu boradagi sa'y-harakatlar huquqni muhofaza qilish institutlarini modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, profilaktik dasturlarni amaliyotga tatbiq qilish yordamida amalga oshirilmoqda[9;144-150]. Jumladan, AQShda shu maqsadda 2021-2025-yillarga mo'ljallangan maxsus dastur qabul qilinib, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni sodir etayotgan guruhlarga qarshi kurash kuchaytirildi[53-79]. Yevropa Ittifoqida 2020-yilda qabul qilingan xavfsizlik strategiyasida tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatchilikni kamaytirish vazifalari alohida e'tirof etildi. Bu borada turli mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, tashqi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish, yetakchi mamlakatlar bilan strategik maslahatlarni yo'lga qo'yish masalalariga diqqat jamlanmoqda[11;1-8].

Xulosa. Jinoyatchilik darajasining oshishi ortidan yuzaga kelgan ishonchsizlik muhitida ijtimoiy mobillik ham zaiflashadi. Jamiyat a'zolari o'z halol mehnati, zaruriy bilimlari, tashabbuskorligi orqali yuqori ijtimoiy maqomga erishish imkoniyatiga ishonmay qo'yadilar. Bu hol jamiyatda stagnatsiya holatini keltirib chiqaradi[7;86-89]. Jamiyatda jinoyatchilik darajasining oshib ketishi yosh avlod faoliyatiga ayniqsa jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'zlangan hayotiy maqsadlarga qonuniy yo'llar bilan erishish imkonsizligiga amin bo'lgan

yigit va qizlar halol mehnat va bilim orqali muvaffaqiyatga yetishishga oshiqmay qo'yadilar. Bunday muhitda ular qonuniy yo'llar bilan yuqori maqomga yetishishga emas, tez boyishning noqonuniy usullariga moyil bo'lib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ООН: международная преступность зарабатывает \$870 млрд в год.// www.bfm.ru, 2012, 16 июля.
2. Подольный Н.А., Подольная Н.Н. Взаимосвязь уровня преступности и экономической пассивности населения на рынке труда.// Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки, 2018, №1.- 57-66-с.
3. Муминов Н.Г. Яширин иктисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари: назарий ёндашув.// Иқтисод ва молия, 2016, №8.- 1-7-б.
4. Злотникова Е.В. Влияние организованной преступности на политическую безопасность Российской Федерации: Автореф. на соиск. уч. степ. канд. полит. н.- М.: МГОУ, 2011.- С.15-19.
5. Спиркин А.Г. Философия.- М.:Гардарики, 2006.- С.518.
6. Anser, M.K., Yousaf, Z., Nassani, A.A. et al. Dynamic linkages between poverty, inequality, crime, and social expenditures in a panel of 16 countries: two-step GMM estimates.// Economic Structures 2020, №9, P. 43.
7. Гриненко И. Влияние организованной преступности на социальную структуру общества.// Закон и жизнь, 2013, №10/2.- С. 86-89.
8. Новичков В.Е. Преступления против мира и безопасности человечества: проблемы конфликта российского, зарубежного и международного права.// Таврический научный обозреватель, 2016, №4.- С. 61.
9. Воробьев А.В. Основные направления и формы сотрудничества государств по предотвращению преступлений против мира.// Аграрное и земельное право, 2017, №12.- С. 144-150.
10. Манойло А.В. Современные подходы США к борьбе с терроризмом.// Актуальные проблемы Европы, 2021, №4.- С. 53-79.
11. Потемкина О.Ю. Новая стратегия Союза Безопасности ЕС.// Аналитическая записка, 2020, №32.- С.1-8.

**O‘ZBEK TILI TUPROQSHUNOSLIK TERMINLARINING AFFIKSATSIYA USULI
BILAN YASALISHI****Hamidova Mohlarbegim Hamid qizi**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Filologiya fakulteti o‘qituvchisi

hmohlarbegim@gmail.com

ORCID.0009-0007-25-1391

UDK 636:413.164.(045)

Annotasiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili tuproqshunoslik terminologiyasida so‘z yasaliş jarayonlari, xususan, affiksatsiya usuli orqali termin hosil qilish masalalari keng qamrovda tahlil etilgan. Tadqiqotda affikslar yordamida kasb-hunarni, turli jarayonlarni, obyektlarni, belgi va harakatlarni ifodalovchi tuproqshunoslikka oid terminlarning yasaliş mexanizmlari ilmiy asosda o‘rganilgan.

Maqolada terminlarning qaysi so‘z turkumlari asosida yuzaga kelishi, ularning morfologik tuzilishi hamda semantik xususiyatlari aniq misollar orqali izohlangan. Bu jarayonda affikslarning derivatsion imkoniyatlari, ularning so‘z turkumlari bilan o‘zaro munosabati va termin hosil qilishdagi modellari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Shuningdek, tadqiqot doirasida tuproqshunoslik terminlarining yasalişida ishtirok etuvchi affikslarning funksional o‘rni, ularning mahsuldorlik darajasi hamda faol va nofaol affikslar tasnifi aniqlangan. Mazkur affikslarning terminologik tizimni boyitish, tartibga solish va tizimlashtirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Natijada, affiksatsiya usulining soha terminologiyasini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi ilmiy jihatdan dalillangan.

Kalit so‘zlar: tuproqshunoslik, tilshunoslik, so‘z yasaliş, usul, affiks, affiksatsiya, yasaliş, usul, termin, yasama so‘z, yasalma, faol.

**FORMATION OF UZBEK SOIL SCIENCE TERMS USING THE AFFIXATION
METHOD**

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of word-formation processes in the terminological system of soil science in the Uzbek language, with particular emphasis on term formation through affixation. The study examines, on a scientific basis, the mechanisms of forming soil science terms that denote professions, various processes, objects, qualities, and actions by means of affixes.

The paper explains, with specific examples, the parts of speech from which terms are derived, as well as their morphological structures and semantic features. In this context, the derivational potential of affixes, their interaction with different word classes, and the models of term formation are analyzed from a linguistic perspective.

Furthermore, the research identifies the functional role of affixes involved in the formation of soil science terminology, evaluates their degree of productivity, and classifies them into productive and non-productive affixes. The significance of these affixes in enriching, organizing, and systematizing the terminological system is substantiated. As a result, affixation is demonstrated to be an important means of developing domain-specific terminology.

Keywords: soil science, linguistics, word formation, method, affix, affixation, derivation, term, derived word, derivative unit, productivity.

Kirish. Tilshunoslikda so‘z yasaliş, to‘g‘rirog‘i, yasaliş usullarini belgilash borasidagi fikrlar, qarashlar turlicha. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, tilshunoslikning bir necha ming yillik tarixi davomida so‘z yasash usullariga e‘tibor doimo tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. M.Koshg‘ariydan boshlab, to XXI asrning boshlariga qadar yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda so‘z va terminlar ikkita faol usulda yasaliş haqida so‘z boradi. Bu deyarli barcha tilshunoslar tomonidan yakdillik bilan qabul qilingan. Lekin boshqa holatlar qayd etilgan o‘rinlarda ham dastlab ana shu ikki: affiksatsiya va kompozitsiya usulidan foydalanib ish ko‘riladi. Ayniqsa, affiksatsiya orqali yasalgan terminlarni tahlil qilish tilshunoslikda semasiologiya, morfologiya va so‘z yasaliş sohalari uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z yasalişining asosiy usuli affiksatsiya usuli ekanligi ma‘lum. Tuproqshunoslik terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalişining roli beqiyos. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, bu usul bilan so‘z yasaliş boshqa soha terminologiyasida bo‘lganidek, bu sohada ham eng faol va mahsuldordir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Maqolada A. Hojiyevning “O‘zbek tili so‘z yasaliş” (1980), “O‘zbek tili so‘z yasaliş tizimi” (2007), N. Mahmudovning “O‘zbek tili

soʻz yasashiga doir” (1987) kabi ishlarga tayanib ish koʻrildi. Mualliflarning mazkur ishlarida soʻz yasalishi har bir tilda, avvalo, shu tilning ichki imkoniyati asosida terminlar yasalishi, manbalarda tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi termin hosil qilishning quyidagi yoʻllari koʻrsatiladi: a) tilda mavjud, tayyor soʻzlardagi yangi narsa-predmet va tushunchalarni ifodalashda foydalanish; b) oʻzbek adabiy tili soʻz yasash imkoniyatlari ishtirokida yangi terminlar yaratish. Terminologik leksika taraqqiyotida affiksatsiya usul bilan termin hosil qilish muhim ahamiyatga ega, negaki terminologik leksika ham xalq tabiiy tilining soʻz yasash vositalaridan foydalanadi. Mazkur holat terminologiyada yangi terminlarning yuzaga kelishiga oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda. Botanika terminlarini oʻzbek tilida sistemaga solgan Q. Zokirov va H. Jamolxonovlar affikslar haqida shunday yozganlar: “Affikslardan terminologiyada foydalanish, bir tomondan terminlarni va ular anglatgan tushunchalarni differensiyalash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, yangi-yangi termin yasash usulini ham boyitadi”. Terminologik tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, affiksatsiya usulida yasash biror terminologik tizimda bir qadar faol boʻlsa, boshqasida esa bu usul imkoniyati cheklanadi.

Tahlil metodologiyasi. Maqolada tuproqshunoslik terminologik tizimiga oid terminlarning affiksatsiya usuli bilan soʻz yasashining turli affikslar vositasida yasama terminlar hosil boʻlishi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, ularning yasashida -lik, -chi, -chilik, -shunos, -ma, -kor, -xoʻr, -gich, -li, -dor, -ser, -la kabi qoʻshimchalar ancha faolliq aniqlandi. Tarixiy va zamonaviy tuproqshunoslik sohasi bilan bogʻliq: *yerdor, amlodkor, zamindor, bogʻdor, oʻgʻitdor, shoʻrdor, namdor, tuproqshunos, tuproqli, unumdor (tuproq), mahsuldor (yer)* kabi yasama terminlar affikslar yordamida yasalgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: hozirgi oʻzbek tili terminologiyasida maxsus bir terminologik sistema – tuproqshunoslikka oid terminologik sistema yuzaga kelgan va u amaliyotda qoʻllanilmoqda. Bu soha terminlarining lingvistik xususiyatlarini oʻrganilishi tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Ushbu asosiy boʻlimda, avvalo, tuproqshunoslik termini va lugʻaviy maʼnosiga eʼtibor qaratamiz, soʻng mavzuni yoritishga harakat qilamiz. *Tuproqshunoslik – tuproq haqidagi fan boʻlib, tabiiy jism va ishlab chiqarish vositasi hisoblangan tuproqning kelib chiqishi, tarkibi va xossalari, taraqqiyoti, geografik tarqalish qonunlari, unumli foydalanish usullari va unumdorligini oshirish yoʻllarini oʻrganadi.* [7]. Afsuski, oʻzbek tilshunosligida mana shunday insonning yashashi va hayoti uchun muhim boʻlgan soha terminologiyasining lingvistik xususiyatlari, xususan, bu soha terminlarining affiksatsiya usuli bilan soʻz yasalishi oʻrganilmagan.

Affiksatsiya usuli bilan soʻz yasalishi haqida gap borganida affikslar soʻz yasash miqdori, hozirgi kunda yangi soʻzlar yasashi yoki yasamasligi va shu kabilarga koʻra turlicha tasnif qilinadi va turlicha nomlar bilan ataladi. Masalan, koʻp yoki kam miqdorda soʻz yasashiga koʻra unumli va unumsiz affikslar; hozirgi soʻz yasalishidagi faol yoki nafaolligiga koʻra faol affikslar va nafaol affikslar farqlanadi. Hozirgi zamon oʻzbek tilida soʻz yasashning keng qoʻllaniladigan, eng unumli, yetakchi tiplari affiksali yoʻl va kompozitsiya - soʻz qoʻshish yoʻlidir... Hamma tipdagi soʻz yasalish uchun umumiy belgi yangi leksema hosil qilishdir.

Affiksatsiya – soʻz yasashning mahsuldor usullaridan biri boʻlib, unda soʻzga affikslar qoʻshilishi orqali yangi maʼnoli soʻz yasaladi. Oʻzbek tilida soʻz yasash usullari ichida affiksatsiya alohida oʻrin tutadi.

Maʼlumki, “oʻzbek tilida soʻz yasashining bir necha usuli boʻlib, ulardan faqat affiksatsiya va kompozitsiya usullaridagina sinxron (hozirgi) soʻz yasalishi bor. Fonetik, semantik, leksikalizatsiya usullari bilan soʻz yasalishi diaxron (tarixiy) yasashga oid soʻzlardir. Hozirgi oʻzbek adabiy tili leksikasining soʻz yasash yoʻli bilan boyishi deganda faqat affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan soʻz yasalishini nazarda tutish mumkin”. [9].

Demak, oʻzbek tilida soʻz va terminlar qanday yoʻllar bilan yuzaga keladigan boʻlsa, ularning hammasi soʻz yasash usuli deb qaralyapti va har bir “usul” soʻzning yuzaga kelish yoʻli bilan atalyapti. Boshqa ishlarda ham xuddi shunday.

Oʻzbek tili terminologik tizimining lugʻat tarkibida har bir fan sohasiga tegishli terminlar alohida oʻrin tutadi. Ana shunday sohaga tegishli terminlar majmuini tashkil etuvchi

terminologiya bu o'zbek tilining tuproqshunoslik terminologiyasidir. Tuproqshunoslik terminologiyasi – til va tabiat fanlarining tutashish nuqtasida vujudga kelgan muhim ilmiy terminologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada qo'llaniladigan terminlar o'zining lug'aviy, morfologik va semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbek tili tuproqshunoslik terminlarining affiksatsiya usuli vositasida termin yaratishning asosiy maqsadi – tuproq turlari, uning xususiyatlari, tuzilishi, tarkibi va bosqichlarini o'z ma'nosida aniq ifoda etadigan milliy o'zbekona terminlar hosil qilishdan iborat. Mazkur jarayonda qo'llaniladigan affikslar asosan, egalik, xoslik, xususiyat, mansublik, nisbat, harakat, miqdor, holat va jarayonni ifoda etadigan ma'nolarni ifodalaydi.

Tuproqshunoslik terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida affiksatsiya usuli bilan quyidagi affikslar vositasida terminlar yasalishi o'rganildi. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. **-shunos affiksi.** Bu affiks aslida tojik tilida qo'shma so'z yasovchi "shinos" bo'lib, o'zbek tiliga so'z yasovchi affiks sifatida o'zlashgan emas, balki tojik tilidan o'zlashgan zarshinos, javohirshinos, she'rshinos kabi so'zlar tarkibida bo'lgan. U ("shinos") tojikcha shinixtan ("bilmoq") fe'lining asosi bo'lib, "biluvchi", "o'rganuvchi" ma'nosiga ega bo'lgan. [2]. –shunos qo'shimchasi vositasida so'z yasalish asosi anglatgan ilm-fan bilan shug'ullanuvchi shaxs va so'z yasalish asosidan anglashilgan narsani o'rganish bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'noli otlar yasaydi: tuproqshunos, yershunos kabi.

2. **-kor affiksi.** A. Hojiyevning qayd etishicha, "bu qo'shimcha aslida fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida bo'lgan. Boshqacha aytganda, dastlab tojik tilidan shu element bilan yasalgan so'zlar o'zlashgan. Tojik tilida kor „ekmoq“, „sepmoq“ ma'noli koridan fe'lining sifat-dosh shakli - „ekuvchi“ ma'nosini bildiradi". [2]. Qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan asosiy mahsulotlarni, ya'ni qishloq xo'jaligining tarmog'i, sohasini ko'rsatuvchi mahsulotlarni bildiradigan so'zlarga qo'shib, asosdan anglashilgan mahsulotni yetishtiruvchi shaxs ma'noli otlar yasaydi: *zaminkor, yerkor, g'allakor, sholikor, polizkor* kabi.

3. **-dor affiksi.** Bu affiks asosdan anglashilgan ma'noga egalikni ifodalaydi. Bu qo'shimcha ayrim otlarga qo'shib, shaxs yoki predmetning so'z yasalish asosidan anglashilgan narsaga me'yordan ortiq (yuqori) darajada egaligini bildiruvchi sifat yasaydi: yerdor, amlokdor, zamindor, bog'dor, o'g'itdor, sho'rdor, namdor, unumdor (tuproq), mahsuldor (yer), hosildor (maydon) kabi.

4. **-ser affiksi.** Bu qo'shimchaning ma'nosida „ko'p“ unsuri (semasi) bor. Uning yordamida yasalgan sifatlarda ana shu sema („ma'no“) o'z ifodasini topadi: sertuproq (yer) - tuprog'i ko'p yer, sermahsul (tuproqli yer) - ko'p hosil beradigan tuproqli yer.

5. **-siz affiksi.** Bu qo'shimcha shaxs yoki predmetning so'z yasalishi asosidan anglashilgan narsaga ega emasligi, unda shunday narsaning yo'qlik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi: tuproqsiz, sho'rsiz, yersiz, zaxsiz, qarovsiz(yer), ekuvsiz (maydon), sifatsiz tuproq, unumsiz tuproq suvsiz, toshsiz, qumsiz, loysiz kabi.

6. **-xo'r affiksi.** Bu affiks so'z yasalish asosidan anglashilgan narsani yeyuvchi, ichuvchi, shu narsani iste'mol etishni yaxshi ko'ruvchi jism, narsa ma'noli qo'shma otlar yasaydi: suvxo'r, namxo'r, sho'rxo'r va boshqalar.

7. **-ma affiksi.** Bu affiks fe'ldan anglashilgan ish-harakat uchun mo'ljallangan, shunga belgilangan narsani bildiruvchi otlar: qoplama, tirkama, sochma (tuproq), ko'rgazma, bosma, cho'kma (yer) kabi.

8. **-gich affiksi.** Bu qo'shimcha tuproqshunoslikka oid asbob-qurol ma'noli birikma terminlar yasaydi va ular tuproq termini vositasida yasaladi: (tuproq) ko'targich, (yer) tekislagich, (tuproq) kavlagich, (tuproq) ortgich, (tuproq) solgich kabi

9. **-li affiksi.** Bu affiks shaxs yoki narsa-predmetning asosdan anglashilgan narsaga egaligi, unda shunday narsa borligi bilan bog'liq bo'lgan belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi: tuproqli (yer), boshqli (ekin), qumli, loyli, toshli, sho'rli (yer), sho'rli (tuproq) changli (yer), botqoqli (yer)

10. **-lik affiksi.** Bu qo'shimcha o'zbek tilidagi ot yasovchi eng mahsul affikslardan biri hisoblanadi. Lingvistik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, ushbu qo'shimcha predmet yoki belgi

ma'nosini ifoda etuvchi so'z asoslaridan ot yasashda faol qo'llaniladi. Bu qo'shimchanning semantik va derivatsion salohiyati terminlar yaratish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. – lik qo'shimchasi yordamida nafaqat sof turkiy, balki o'zlashma so'zlardan ham turli tipdagi ot terminlar hosil qilinadi. -lik qo'shimchali so'z bog'lanib kelgan so'z bildirgan narsaning so'z yasash asosidan anglashilgan narsa-predmet uchun belgilanganligini, shunga oidlik, xoslik belgisini bildiradi: namlik, toshloqlik, tuproqlik, changlik, suvsizlik, yorilganlik, bug'doylik, bog'dorlik, bog'bonlik, botqoqlik, agronomlik, tuproqshunoslik.

11. **-la affiksi.** Bu affiks belgi (holat) bildiruvchi so'zlardan shaxs yoki narsani, so'z yasash asosidan anglashilgan belgi-holatli qilish ma'nosidagi fe'llar yasaydi: tekisla, tozala, shudgorla kabi

12. **-chan/-gar/-mon/-qor qo'shimchalari.** Bunday affikslar vositasida ham quyidagicha terminlar yasaladi: namchan - nam + chan → namga moyil, namlikni saqlovchi tuproq; o'g'itgar - o'g'it + gar → o'g'it bilan ishlov beriladigan tuproq; sho'rqor - sho'r + qor → sho'r moddalar ko'p miqdorda to'plangan yer.

13. **-vchi/-uvchi affiksi.** Bu affiks vositasida so'z yasash asosidan anglashilgan ish-harakat bajaruvchi subyektini anglatadi: o'g'itlovchi, namlovchi, tozalovchi, sho'rlantiruvchi kabi.

Tuproqshunoslik terminologiyasida yuqoridagi so'z yasovchi qo'shimchalardan tashqari quyidagi qo'shimchalar ham qatnashishi aniqlandi:

-loq: qumloq, o'tloq, suvloq; -lov: namlov, suvlov, damlov; -ma: singma, qaynama, sug'orma; -bon: ariqbon, tarozibon, bog'bon; --li: suvli, moyli, arpali; -dosh: uvatdosh, musobaqadosh, qo'shdosh; -kash: nag'orkash, zaxkash, namkash, obkash; -gi, -qi, -ki: kuzgi (shudgor), bahorgi (ekin); -iq, -ik: ayriq, kechik; -sh, -ash, -lash: suvlash, shudgorlash, bandlash, tarash; -lat, -lot: suvlot, ko'llat; -avto: avtosug'orgich, avtogreyder, avtomashina; -agro, agrokultura, agroirrigatsiya, agromeliorsiya, agrotexnika; -ish: ishlash, haydash, sug'orish; -qa: loyqa, quyqa; -iy, -viy: agrotexnikaviy, gidrotexnikaviy; -no: novegatatsion sug'orish, noqoratuproq, nostandart va boshqalar.

Ko'rinadiki, tuproqshunoslikda affiksatsiya usulida so'z yasalishi ancha mahsuldir. **-lik, -chilik, -gich, -li, -la** kabi qo'shimchalar yordamida ot, fe'l turkumiga doir so'zlardan yasalgan terminlar ancha ko'p, -g'in, -lov, -sin, -kash kabi qo'shimchalar ishtirokida yasalgan so'zlar katta miqdorni tashkil etmaydi.

O'zbek tilida old qo'shimcha (prefiks) lar, ya'ni so'z boshida keluvchi qo'shimchalar) orqali yaratilgan so'zlar soni suffikslarga nisbatan ancha kam, chunki o'zbek tili agglyutinatip tipdagi til sifatida asosan suffiksatsiya usulini qo'llaydi. Ammo shunday bo'lsa-da, o'zbek tilidagi prefiks xususiyatiga ega bo'lgan elementlar yoki aralash (qo'shma) so'zlar orqali ham tuproqshunoslikka oid ba'zi terminlar yaratiladi: o'rtaqum, quyio'g'itli, sizuvchanlik, superfosfat, makroqatlam, gipersho'rlik, mikroelement, bo'ztuproq, rekultivatsiya (zararlangan yerlarni qayta tiklash jarayoni), degummifikatsiya (tuproqning gumusdan xoli bo'lishi).

Xulosa va takliflar. Demak, o'zbek tilidagi tuproqshunoslik terminlarini tadqiq etish, xususan, affiksatsiya usuli bilan yasashini o'rganish nafaqat til taraqqiyoti, balki dehqonchilik, xususan, tuproqshunoslik sohasida mehnat qilayotgan kishilarning o'zaro muloqoti va murojaati jarayonida bir-birini tushunishda, tuproqshunoslik bo'yicha amaliy muammolarni hal qilishda, ish jarayonlarini to'g'ri tashkil etishda ham katta ahamiyatga ega.

Affiksatsiya – termin yaratishdagi eng samarali so'z yasash usullaridan biri sifatida tuproqshunoslik terminlarining yasashida ham fal ishtirok etadi. Tahlillardan ko'rinishicha, ushbu usul orqali yaratilgan terminlar semantik jihatdan aniq va fanga mos tushunchalarni ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eltazarov J. So'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa va ko'chish holatlari. – Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2006. – 150 b.
2. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 6, 69b.
3. Qosimov N. Texnikaviy terminlar yasashida affikslarning ishtiroki // O'zbek tili va adabiyoti. – 1974. – № 2. -124 b.

4. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 3 tomlik. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1960–1963. – 428 b.
5. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 383 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
7. Sulaymonov I. va boshqalar. Tuproqshunoslik va agrokimyo. – Samarqand, 2021. – 6–7-b.
8. Tursunov N. Tuproqshunoslik. – Toshkent: Universitet, 2017. – 166 b.
9. Ayub G'ulomov ilmiy merosi (2-kitob). – Toshkent: Universitet, 2006. – 17–18-b.
10. Raupova N., Sodiqova G. Tuproqshunoslik asoslari. O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 20-b.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MOBIL ALOQA TERMINLARINING SINONIMIK VA VARIANTLILIK XUSUSIYATLARI

Arzimurodova E'zoza Berdimurod qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktorant
kizgaldakkizzz@gmail.com
ORCID 0009-0006-4561-1018
UDK 81'373.46:004.738.5

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi mobil aloqa terminlarining sinonimik va variantlilik xususiyatlari qiyosiy-semantik jihatdan keng tahlil qilinadi. Tadqiqot terminologiya nazariyasining klassik va zamonaviy yondashuvlari, jumladan, Wuster, Cabre, Sager konsepsiyalari hamda o'zbek tilshunosligi vakillari qarashlari asosida olib borildi. Ishda mobil aloqa sohasiga oid terminlarning o'zlashma va milliy variantlari, qisqartma va to'liq shakllari, shuningdek, gibrid birliklar aniqlanib, ularning semantik differensiyasi va funksional qo'llanishi ochib berildi. Natijalar sinonimiya va variantlilikning til tizimidagi dinamik xususiyatini, ularning globalizatsiya va til kontaktlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, terminologik birliklarni standartlash zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mobil aloqa terminologiyasi, sinonimiya, variantlilik, terminologik tizim, o'zlashma terminlar, qiyosiy tahlil.

SYNONYMY AND VARIATION IN MOBILE COMMUNICATION TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract. This article presents an in-depth comparative semantic analysis of synonymy and variation in mobile communication terminology in English and Uzbek. The study is grounded in both classical and contemporary terminology theories, including those of Wuster, Cabre, and Sager, as well as Uzbek linguistic research. It identifies borrowed and native variants, abbreviated and full forms, and hybrid units within mobile communication terminology. Special attention is given to semantic differentiation and functional usage across different communicative contexts. The findings demonstrate that synonymy and variation are dynamic and inherent features of terminological systems, shaped by globalization and language contact. The study also highlights the necessity of standardization of terms.

Keywords: mobile communication terminology, synonymy, variation, terminological system, borrowing, comparative analysis.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xususan, mobil aloqa tizimlarining keng ommalashuvi til tizimida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Mobil kommunikatsiya nafaqat texnik jarayon sifatida, balki global ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham shakllanib, uning terminologik bazasi muntazam ravishda yangilanib bormoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, tilshunoslikda, ayniqsa terminologiya sohasida yangi ilmiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mobil aloqa terminologiyasi bugungi kunda, asosan, ingliz tili asosida shakllanayotgani sir emas. Texnologik innovatsiyalarning aksariyati ingliz tilida yaratilgani sababli yangi terminlar ham aynan shu til orqali global miqyosda tarqalmoqda. Natijada, boshqa tillarda, jumladan, o'zbek tilida ushbu terminlarning o'zlashuvi, tarjima qilinishi yoki muqobil variantlarda qo'llanishi jarayoni kuzatilmoqda. Bu esa bir tushunchaning bir nechta nom bilan ifodalanishiga, ya'ni sinonimiya va variantlilik hodisalarining kengayishiga olib keladi.

Terminologiya nazariyasida har bir konseptga bitta termin mos kelishi zarurligi ta'kidlanadi. Biroq real lingvistik amaliyotda, ayniqsa, mobil aloqa kabi tez rivojlanayotgan

sohalarda, bu prinsip, ko‘pincha, buziladi. Bir tushuncha uchun bir nechta terminlarning parallel qo‘llanishi, turli shakldagi variantlarning mavjudligi ilmiy aniqlik va terminologik barqarorlikka ta‘sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan sinonimiya va variantlilik nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida mobil aloqa terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida bir qator xususiyatlar kuzatiladi. Xususan, ingliz tilidan o‘zlashgan terminlar (smartfon, router, data), ularning tarjima variantlari (aqlli telefon, yo‘naltirgich, ma‘lumotlar) hamda gibrid shakllar (mobil data, internet paket) bir vaqtning o‘zida qo‘llanmoqda. Bu holat terminologik tizimda sinonimik qatlamning kengayishiga va variantlilikning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o‘zbek tillarida mobil aloqa terminlarining sinonimik va variantlilik xususiyatlarini qiyosiy-semantik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu muammoni kompleks yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi – ingliz va o‘zbek tillarida mobil aloqa terminlarining sinonimik qatlamini va variantlilik xususiyatlarini aniqlash, ularning semantik va funksional tafovutlarini ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

mobil aloqa terminologiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish;

sinonimiya va variantlilik tushunchalarini terminologiya nuqtayi nazaridan aniqlashtirish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi mobil aloqa terminlarini qiyosiy tahlil qilish;

sinonimik birliklarning semantik va funksional xususiyatlarini aniqlash;

Tadqiqotning obyekti – ingliz va o‘zbek tillaridagi mobil aloqa terminlari, predmeti esa ushbu terminlarning sinonimik va variantlilik xususiyatlaridir.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Terminologiya nazariyasining asoschisi hisoblangan Eugen Wuster fikricha, terminologik tizimning asosiy talabi – monosemiya (bir ma‘nolilik) va bir termin – bir konsept prinsipidir [1]. U sinonimiyani terminologiya uchun salbiy hodisa sifatida baholaydi, chunki u ilmiy aniqlikka putur yetkazadi.

Biroq keyingi tadqiqotchilar bu masalaga nisbatan yanada moslashuvchan yondashuvni taklif etadilar. Jumladan, Mariya Tereza Cabre o‘zining kommunikativ terminologiya nazariyasida terminlar turli kontekstlarda turli shakllarda qo‘llanishi mumkinligini ta‘kidlaydi [2]. Uning fikricha, sinonimiya kommunikativ ehtiyoj mahsuli bo‘lib, uni to‘liq inkor etish mumkin emas.

Shuningdek, Jon Sager terminologiyada sinonimiyaning mavjudligini tabiiy holat sifatida ko‘radi va uni tizimlashtirish zarurligini ta‘kidlaydi [3].

David Cristal esa sinonimiyani umumtil hodisasi sifatida izohlaydi va terminologiyada ham u funksional jihatdan mavjud bo‘lishini qayd etadi [4].

Variantlilik tushunchasi terminologiyada keng qamrovli hodisa bo‘lib, turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan.

Cabre variantlilikni quyidagi omillar bilan bog‘laydi:

kommunikativ vaziyat;

foydalanuvchi guruhi;

funksional uslub [2].

Sager esa variantlilikni terminning formal shakllari o‘zgarishi sifatida talqin qilib, uni quyidagi turlarga ajratadi:

ortografik (grafemik) variantlar;

morfologik variantlar;

qisqartma va to‘liq shakllar [3].

Rita Temmerman terminologiya nazariyasida tub burilish yasagan olimlardan biri bo‘lib, u klassik Wuster modelidan farqli ravishda terminlarni qat‘iy va yopiq tizim emas, balki kognitiv va dinamik birliklar sifatida talqin qiladi. Temmermanga ko‘ra, ilmiy tushunchalar inson tafakkurida kategoriyalar orqali shakllanadi va bu kategoriyalar doimo o‘zgaruvchan bo‘ladi. U sinonimiyani terminologiyada xato emas, balki kognitiv

modellarning xilma-xilligi natijasi deb izohlaydi. Masalan, bir tushuncha turli bilim darajasiga ega foydalanuvchilar tomonidan turlicha nomlanishi mumkin. Shuningdek, Temmerman variantlilikni ham konseptual tuzilmaning aks etishi sifatida ko‘radi. Temmerman yondashuvi terminologiyada sinonimiya va variantlilikni tabiiy va zarur hodisa sifatida asoslab beradi, bu esa mobil aloqa terminlarining ko‘p variantlilikini izohlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [5].

Syu Atkins va Maykl Rundel leksikografiya nazariyasida sinonimiya va variantlilikni foydalanuvchi markazli yondashuv asosida tahlil qiladilar. Ularning fikricha, lug‘at tuzishda sinonimlar semantik yaqinlik darajasi, qo‘llanish chastotasi, uslubiy xususiyatlari asosida tartiblanishi kerak. Atkins va Rundel sinonimiya va variantlilikni leksikografik tizimlashtirish zarurligini asoslab, terminologik lug‘atlar sifatini oshirishda muhim metodologik yondashuvni taklif etadi [6].

Jon Layons umumtil semantikasi doirasida sinonimiyani chuqur tahlil qilgan olimlardan biridir. U sinonimlarni quyidagicha tavsiflaydi: ular ma‘no jihatdan yaqin, ammo to‘liq teng emas, har doim konnotativ yoki funksional farqga ega [7].

Masalan, terminologiyada: *data va information, smartphone va mobile device* to‘liq sinonim emas, balki semantik jihatdan qisman mos keladi.

Lynne Bowker va Jennifer Pearson terminologiyada sinonimiya va variantlilikni korpus lingvistikasi asosida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi [8]. Ularning fikricha, terminologik variantlar real matnlarda aniqlanadi, sinonimiya faqat nazariy emas, balki empirik hodisa, variantlar qo‘llanish chastotasi orqali aniqlanishi kerak. Ular quyidagilarni taklif etadi:

- terminlar korpusda tekshirilishi;
- variantlar chastotasi aniqlanishi;
- eng ko‘p ishlatiladigan shakl asosiy deb olinishi.

Aytaylik: *internet vs data, router vs yo‘naltirgich*. Ulardan qaysi biri ko‘proq ishlatilsa, o‘sha dominant termin hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham sinonimiya masalasi chuqur o‘rganilgan bo‘lib, u terminologiya bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilingan.

A. Hojiyev o‘zbek tilida sinonimiyani “ma‘nodosh birliklarning tizimi” sifatida izohlaydi va ularning uslubiy hamda semantik farqlanishini ko‘rsatadi [9]. Uning ta’kidlashicha, sinonimlar mutlaq teng emas, balki, uslubiy rang, qo‘llanish sohasi, emotsional-ekspressiv yuklama bilan farqlanadi.

Bu fikr mobil aloqa terminlariga ham to‘liq tatbiq etiladi:

- data (sohaviy)
- mobil internet (umumxalq).

Sh. Rahmatullayev terminologiyada sinonimiya mavjudligini inkor etmaydi, ammo uni tartibga solish zarurligini ta’kidlaydi [10]. Uning fikricha, terminologiyada sinonimlar quyidagi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi:

- turli manbalardan o‘zlashuv;
- tarjima va transliteratsiya;
- milliyashtirish jarayoni.

Bu aynan mobil aloqa terminologiyasida kuzatiladi:

- router / yo‘naltirgich
- smartfon / aqlli telefon.

Z. Sharipov terminologiyada variantlilikni “terminning shakliy parallel mavjudligi” sifatida izohlaydi va uni quyidagicha tasniflaydi [11]:

- fonetik variantlar;
- grafemik variantlar;
- morfologik variantlar.

Bu olim variantlilikni tilning rivojlanish bosqichi bilan bog‘laydi.

O‘zbek terminologiya maktabida normativlik muhim o‘rin tutadi. Rahmatullayev va boshqa olimlar fikricha, har bir termin tizimda barqaror bo‘lishi kerak, sinonimik ortiqchalik kamaytirilishi lozim va afzal variant tanlanishi zarur [10].

Xorijiy va o'zbek olimlari qarashlarini umumlashtirgan holda quyidagilarni aytish mumkin:

Sinonimiya – turli leksik birliklar orqali ifodalangan ma'nodoshlik;

Variantlilik – bir terminning shakliy modifikatsiyasi.

Har ikki hodisa ham terminologik tizimning rivojlanish bosqichini aks ettiradi.

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

- qiyosiy-semantik tahlil
- terminologik modellashtirish
- korpus asosida misol tahlili

Natijalar va muhokama. *O'zlashma va milliy variantlar o'rtasidagi sinonimiya*

1-misol: *smartphone*

smartfon (o'zlashma)

aqlli telefon (tarjima)

“Smartfon” varianti qisqa, iqtisodiy va global termin sifatida ustun. “Aqlli telefon” esa semantik jihatdan to'liqroq, ammo nutqda kam qo'llanadi. Bu holat terminologiyada iqtisodiylik prinsipi ustunligini ko'rsatadi.

2-misol: *network*

network

tarmoq

Texnik mutaxassislar nutqida “network” ishlatiladi, rasmiy hujjatlarda esa “tarmoq”. Bu yerda sinonimiya funksional differensiyalangan.

Termin va izohli birliklar

3-misol: *roaming*

roaming

xalqaro tarmoqdan foydalanish xizmati

Bu holatda izohli variant semantik jihatdan kengroq, lekin termin sifatida noqulay.

Natijada qisqa shakl ustunlik qiladi.

Qisqartma va to'liq shakl

4-misol: SMS

SMS

qisqa xabar xizmati

Qisqartma xalqaro standart sifatida dominant. To'liq shakl esa faqat izohlashda ishlatiladi.

Variantlilikning tahlili

A. Grafemik variantlilik

Wi-Fi / WiFi / вай-фай

Bu variantlar yozuv tizimi va transliteratsiya bilan bog'liq.

B. Morfologik variantlilik

router / yo'naltirgich

“Router” qisqa va qulay, “yo'naltirgich” esa semantik jihatdan to'liq.

C. Gibril variantlar

mobil data

internet paket

Bu yerda inglizcha va o'zbekcha elementlar aralashgan.

Diskursiv tahlil (real nutq misollari)

“Data paket tugadi”

“Internet tezligi pasaydi”

“Wi-Fi ulanmayapti”

Tahlil:

“data” - professional/slang

“internet” - umumxalq

“Wi-Fi” - global standart

Tadqiqot natijalari mobil aloqa terminologiyasida sinonimiya va variantlilikning tizimli va kompleks hodisa ekanligini ko'rsatadi. Bu hodisa bir nechta omillar ta'sirida

shakllanadi.

Birinchidan, globalizatsiya jarayoni ingliz tilining terminologik dominantligini ta'minlaydi. Natijada, yangi tushunchalar bevosita ingliz tilidan kirib keladi va milliy tilga moslashish jarayonida parallel shakllar paydo bo'ladi. Bu jarayon Weinreich tomonidan "til kontaktlari" nazariyasida batafsil yoritilgan.

Ikkinchidan, terminologik siyosat muhim rol o'ynaydi. Agar til siyosati milliy termin yaratishga yo'naltirilgan bo'lsa, sinonimik qatlam kengayadi. Aks holda, o'zlashmalar ustunlik qiladi.

Uchinchidan, foydalanuvchi omili ham muhim. Mutaxassislar ko'proq inglizcha variantlarni qo'llasa, oddiy foydalanuvchilar tarjima variantlarga murojaat qiladi. Bu esa terminlarning funksional differensiyasini yuzaga keltiradi.

Nazariy jihatdan, Wuster sinonimiyani cheklash tarafdori bo'lsa-da, zamonaviy yondashuvlar (Cabre) uning kommunikativ zarurligini tan oladi. Bu esa terminologiyani faqat qat'iy tizim emas, balki dinamik tizim sifatida ko'rishni talab etadi.

Leksikografik jihatdan esa sinonimiya va variantlilik muhim muammolarni keltirib chiqaradi. Lug'at tuzishda:

qaysi variant asosiy?

sinonimlar qanday tartibda beriladi?

foydalanuvchi ehtiyoji qanday hisobga olinadi? kabi savollar hal qilinishi kerak.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi mobil aloqa terminologiyasida sinonimiya va variantlilikning kompleks lingvistik hodisa ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, bu hodisalar til tizimining kamchiligi emas, balki uning rivojlanish mexanizmlaridan biridir.

Birinchidan, sinonimiya terminologiyada konseptual parallelizm natijasi bo'lib, u turli nomlash strategiyalarining mavjudligini aks ettiradi. Ayniqsa, o'zlashma va milliy variantlarning bir vaqtda mavjudligi tilning moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, variantlilik terminlarning shakliy dinamikasini ifodalaydi. U yozuv, talaffuz va morfologik moslashuv jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, terminning til tizimiga integratsiya darajasini aks ettiradi.

Uchinchidan, ingliz tilining global roli mobil aloqa terminologiyasida ustunlikni ta'minlaydi. Natijada, o'zbek tilida ko'plab terminlar o'zlashma shaklda qo'llanmoqda va bu sinonimik qatlamni kengaytirmoqda.

To'rtinchidan, leksikografik amaliyotda sinonimik va variant birliklarni tizimlashtirish zarur. Har bir konsept uchun afzal termin tanlash, sinonimlarni tartiblash va ularning qo'llanish sohasini ko'rsatish ilmiy lug'atlarning sifatini oshiradi.

Shu bois kelajakdagi tadqiqotlarda terminlarni standartlash, korpus asosida chastota tahlili, leksikografik modellashtirish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wüster E. Introduction to the General Theory of Terminology and Terminological Lexicography. – Vienna: Springer, 1979. – 275 p.
2. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p.
3. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990. – 256 p.
4. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – 6th ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008. – 529 p.
5. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2000. – 258 p.
6. Atkins B. T. S., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 552 p.
7. Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
8. Bowker L., Pearson J. Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora. – London; New York: Routledge, 2002. – 184 p.
9. Hojiyev A. O'zbek tilining sinonimlar lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – 320 b.

10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.

11. Sharipov Z. Terminologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2015. – 180 b.

ЯЗЫКОВАЯ ВАРИАТИВНОСТЬ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЛИТЕРАТУРНОЙ НОРМЫ

Муштарий Аликулова

преподаватель – ассистент
кафедры русского языка и литературы
университета экономики и педагогики

sadiyaxon2709@gmail.com

ORCID 0009-0001-7721-7465

UDK 81.362

Аннотация. В данной статье исследуется проблема соотношения вариативности и норм литературного языка в контексте современного языкознания. Вариативность рассматривается как закономерное свойство языковой системы, отражающее её историческую изменчивость, внутреннюю динамику и способность адаптироваться к различным коммуникативным условиям. Анализируются основные формы проявления вариативности на фонетическом, морфологическом, лексическом и синтаксическом уровнях языка. Особое внимание уделяется регулирующей функции языковой нормы, обеспечивающей устойчивость, целостность и общепонятность литературного языка. В статье обосновывается положение о том, что вариативность не разрушает языковую норму, а функционирует в её пределах как естественный механизм языкового развития. На основе анализа научной литературы и современных лингвистических подходов делается вывод о взаимодополняющем характере вариативности и нормативности, обеспечивающем гармоничное сочетание стабильности и динамики языка.

Ключевые слова: вариативность, языковая норма, литературный язык, вариант, инвариант, языковая система, нормативность, языковое развитие.

LANGUAGE VARIABILITY AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF LITERARY NORMS

Abstract. This article examines the relationship between variability and norms of literary language in the context of modern linguistics. Variability is viewed as a natural property of the language system, reflecting its historical variability, internal dynamics, and ability to adapt to various communicative conditions. The main forms of variability at the phonetic, morphological, lexical, and syntactic levels of language are analyzed. Particular attention is paid to the regulatory function of the linguistic norm, which ensures the stability, integrity, and universal comprehensibility of the literary language. The article substantiates the proposition that variability does not destroy the linguistic norm, but functions within it as a natural mechanism of language development. Based on an analysis of scientific literature and modern linguistic approaches, a conclusion is drawn about the complementary nature of variability and normativity, ensuring a harmonious combination of stability and dynamism in language.

Keywords: variability, language norm, literary language, variant, invariant, language system, normativity, language development.

Введение. Язык представляет собой многокомпонентную и исторически подвижную систему, функционирование которой обусловлено взаимодействием внутренних законов языкового развития и внешних общественно-культурных факторов [3, 15]. Эволюция языка отражается не только в пополнении его словарного состава и расширении семантических возможностей единиц, но и в трансформации уже существующих способов выражения мысли.

В этом контексте особое значение приобретает явление вариативности, характеризующееся сосуществованием нескольких языковых форм или средств, способных передавать тождественное либо близкое содержание. Вариативность выступает одним из закономерных признаков развития языковой системы, демонстрируя её гибкость, адаптивность и способность реагировать на изменения коммуникативной среды [4, 27].

Явление вариативности охватывает практически все уровни языковой системы. Оно может проявляться в фонетике в виде колебаний произношения, в акцентологии – в различиях постановки ударения, в морфологии – в параллельном употреблении

грамматических форм, в лексике – в сосуществовании синонимических или дублетных единиц, а также в синтаксисе – в возможности разных конструктивных способов оформления одной и той же мысли. Подобная множественность языковых средств свидетельствует не о хаотичности языка, а, напротив, о его богатстве, гибкости и способности адаптироваться к разнообразным условиям общения.

Вместе с тем вариативность не должна пониматься как абсолютная свобода выбора языковых средств. Несмотря на существование нескольких возможных форм, их употребление подчиняется определённым правилам, закреплённым в системе литературного языка. Эти правила формируют языковую норму, которая выступает важнейшим условием устойчивости, общепонятности и культурной ценности национального языка [5, 18].

Норма обеспечивает единство литературного языка, регулирует употребление языковых средств и служит ориентиром для речевой практики носителей языка. Как отмечает К. С. Горбачевич, литературный язык представляет собой исторически сложившуюся высшую, обработанную форму национального языка, обладающую богатым лексическим фондом, упорядоченной грамматической структурой и развитой системой стилей, а норма выступает объединяющим и цементирующим звеном этой системы [1, 36].

Именно поэтому особую научную значимость приобретает проблема соотношения вариативности и нормы. С одной стороны, язык не может существовать и развиваться без вариативности, поскольку она отражает его внутреннюю подвижность, способность к изменению и обновлению. С другой стороны, чрезмерная неупорядоченность языковых форм могла бы привести к нарушению взаимопонимания и дестабилизации литературного стандарта.

Следовательно, вариативность и норма находятся не в отношениях противопоставления, а в сложном взаимодействии, где норма упорядочивает вариативные проявления, а вариативность, в свою очередь, отражает живое движение языка в пределах этой нормы.

Актуальность исследования обусловлена тем, что в современной лингвистике вопрос о пределах допустимой вариативности, о статусе параллельных форм и об их нормативной оценке остаётся одним из наиболее дискуссионных. Особенно это важно в условиях активного развития языковой практики, усиления межкультурных контактов, расширения сферы массовой коммуникации и повышения роли разговорных и медийных форм речи.

В таких условиях возрастает необходимость теоретического осмысления природы вариативности, определения её места в системе литературного языка и уточнения критериев разграничения нормативных и ненормативных вариантов.

Научный интерес к данной проблеме связан также с необходимостью более глубокого понимания соотношения понятий *инварианта* и *варианта*. Инвариант выступает как абстрактная, обобщённая сущность языковой единицы, сохраняющая своё тождество при различных формах реализации, тогда как вариант представляет собой конкретное проявление этой сущности в речи или языковой системе. Такое понимание позволяет рассматривать вариативность не как случайное отклонение, а как закономерную форму существования языковых единиц.

Анализ литературы по теме исследования. Проблема вариативности языка и её соотношения с нормами литературного языка занимает важное место в современной лингвистике. Исследование данного явления связано с развитием представлений о языке как динамической системе, в которой сочетаются устойчивость и изменчивость.

Значительный вклад в формирование теоретических основ изучения вариативности внес Фердинанд де Соссюр. В его концепции язык рассматривается как система взаимосвязанных элементов, функционирующих в рамках противопоставления «язык» и «речь». Язык выступает как социально закреплённая система знаков, тогда как речь представляет собой индивидуальную реализацию этой системы. Именно такое разграничение позволило по-новому осмыслить соотношение инварианта и варианта:

инвариант понимается как абстрактная единица языковой системы, а вариант – как конкретная форма её реализации в речи [8, 27]. Следует подчеркнуть, что данная концепция сыграла важную роль в дальнейшем развитии теории вариативности. Разграничение языка как устойчивой системы и речи как подвижной сферы её функционирования позволило объяснить причины существования различных языковых вариантов. Поскольку речевая деятельность непосредственно связана с коммуникативной ситуацией, социальными условиями и индивидуальными особенностями носителей языка, языковые единицы могут реализовываться в нескольких формах, не утрачивая при этом своего основного значения. В этом проявляется системный характер вариативности: изменения затрагивают внешнюю форму языковой единицы, однако её инвариантная сущность остаётся относительно стабильной. Такое понимание позволяет рассматривать вариативность не как нарушение языковой системы, а как закономерный результат её функционирования и исторического развития.

Дальнейшее развитие теория вариативности получила в трудах русских лингвистов. Так, В. В. Виноградов рассматривал литературный язык как исторически сложившуюся систему нормированных средств общения. Учёный подчёркивал, что языковая норма играет важнейшую роль в обеспечении стабильности литературного языка, его функциональной целостности и культурной значимости. По мнению исследователя, норма не только ограничивает возможные языковые колебания, но и направляет развитие языка, закрепляя наиболее устойчивые и общественно признанные формы [2, 25].

Следует отметить, что устойчивость литературного языка обеспечивается не механическим устранением всех вариантов, а их постепенным функциональным и стилистическим упорядочением. В этом проявляется регулирующая природа языковой нормы: она сохраняет традиционные элементы языковой системы и одновременно допускает те изменения, которые соответствуют внутренним закономерностям развития языка и коммуникативным потребностям общества. Именно поэтому вариативность и норма не противопоставляются друг другу, а находятся в тесной взаимосвязи. Вариативные формы выступают своеобразным источником языкового обновления, тогда как норма осуществляет их отбор, кодификацию и закрепление в литературной практике. Такой процесс обеспечивает одновременно стабильность и динамичность литературного языка, что является одним из важнейших признаков его исторического развития.

Особое внимание проблеме вариативности уделял Константин Сергеевич Горбачевич, который рассматривал вариативность как естественное свойство языковой системы. В его работах подчёркивается, что наличие вариантов не противоречит норме, а представляет собой одну из форм её функционирования. Учёный отмечал, что в пределах литературного языка могут сосуществовать несколько равноправных форм, однако в процессе языкового развития одна из них нередко становится доминантной [1, 27].

Важное место в разработке теории вариантности занимает также концепция В. Н. Немченко. Исследователь определяет варианты слова как такие его видоизменения, которые сохраняют общность значения, но различаются отдельными формальными признаками. Учёный подчёркивает, что вариативность может проявляться не только на фонетическом или грамматическом уровнях, но и в формально-семантическом аспекте. По мнению В. Н. Немченко, существование нескольких вариантов одной языковой единицы отражает закономерный характер функционирования языка и связано с его историческим развитием [9, 647–648].

Кроме того, в лингвистической литературе широко обсуждается вопрос о типологии языковых вариантов. Исследователи выделяют фонетические, акцентологические, морфологические, лексические и синтаксические варианты [6, 48]. Подобная классификация позволяет более точно определить место вариативности в системе языка и выявить закономерности её функционирования.

Методология исследования. Теоретическую основу исследования составили современные лингвистические представления о системном и динамическом характере языка. В процессе изучения взаимосвязи вариативности и норм литературного языка были использованы описательный, сравнительный и функциональный методы анализа.

Описательный метод позволил определить основные типы языковых вариантов и особенности их функционирования на разных уровнях языковой системы. С помощью сравнительного метода были выявлены сходства и различия между параллельными языковыми формами, а также установлены условия их нормативного употребления.

Функциональный метод дал возможность рассмотреть варианты с точки зрения их коммуникативной роли, стилистической уместности и соответствия литературной норме. Комплексное применение данных методов обеспечило всесторонний анализ проблемы вариативности и её взаимодействия с языковой нормой.

Результаты и обсуждение. Проведённый анализ позволил выявить ряд закономерностей, характеризующих функционирование вариативности в системе литературного языка.

Во-первых, установлено, что вариативность является естественным свойством языка, связанным с его историческим развитием и изменением речевой практики. Это подтверждается существованием акцентологических вариантов *рэку – реку́, августовская жарá – августовская жарá*, отражающих подвижность орфоэпической нормы. Разговорная речь способствует появлению фонетических вариантов типа *сейчас – шас, тысяча – тышчь*, возникших вследствие редукции и упрощения звукового состава слова. На морфологическом уровне вариативность проявляется в параллельном употреблении форм *мышление – мышленье, плавление – плавленье*, различающихся стилистической окраской. Подобные примеры показывают, что вариативность представляет собой закономерную форму существования языковой системы [1, 22].

Во-вторых, выявлено, что вариативность проявляется на всех уровнях языка. На фонетическом уровне она выражается в различиях произношения: *снеток – сниток – сняток*. На морфологическом уровне функционируют параллельные формы *повидло–повидла, мочало–мочала*. На лексическом уровне наблюдается сосуществование дублетов *лингвистика – языкознание, орфография – правописание*. Синтаксическая вариативность проявляется в возможности различного построения высказывания: «Я прочитал книгу вчера» – «Вчера я прочитал книгу» [1, 20–21].

В-третьих, установлено, что часть вариантов функционирует в пределах литературной нормы как допустимые формы. Например, варианты *твóрог – творóг, догóвор – дóговор* длительное время сосуществуют в речевой практике, хотя один из них постепенно закрепляется как предпочтительный [1, 20].

В-четвёртых, некоторые варианты приобретают доминантный статус и воспринимаются как более нормативные. Так, формы *мышление, плавление* употребляются значительно чаще, чем варианты *мышленье, плавленье* [1, 21–22].

Например, формы *шас, тышчь*, активно употребляются в бытовом общении, однако не относятся к нейтральной литературной норме.

Полученные результаты подтверждают, что вариативность не разрушает языковую норму, а обеспечивает гибкость и развитие литературного языка.

Заключение. Проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что вариативность является закономерным и объективным результатом исторического развития языка. Она отражает внутреннюю динамику языковой системы и свидетельствует о её способности адаптироваться к изменяющимся условиям коммуникации.

В то же время функционирование вариативности невозможно вне системы норм литературного языка. Норма выполняет регулирующую функцию, обеспечивая устойчивость и упорядоченность языковой системы. Она закрепляет наиболее распространённые и общественно признанные формы, тем самым поддерживая единообразие литературной речи.

Следовательно, вариативность и нормативность следует рассматривать не как противоположные, а как взаимосвязанные и взаимодополняющие явления. Их взаимодействие обеспечивает гармоничное сочетание устойчивости и изменчивости языка, что является важнейшим условием его полноценного функционирования и дальнейшего развития.

Список использованной литературы

1. Горбачевич К.С. Вариантность слова и языковая норма: На материале современного русского языка. – М., 2009. – 237 с.
2. Виноградов В.В. Избранные труды. История русского литературного языка. – М.: Наука, 1978. – С. 65–72.
3. Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – М.: Высшая школа, 1986. – 640 с.
4. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: ЛКИ, 2008. – 427 с.
5. Аванесов Р.И. Русское литературное произношение. – М.: Просвещение, 1984. – 287 с.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: МГУ, 2025. – 608 с.
7. Крысин Л.П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. – М.: Наука, 1989. – 186 с.
8. Фердинанд де Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. – Екатеринбург. 1999. – 432 с.
9. Немченко В. Н. Спорные вопросы теории вариантности слова // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского. – 2010. – № 4(2). – С. 647–649.
10. Жигарина Е. Современное бытование пословиц: вариативность и полифункциональность текстов: автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 2006. – 25 с.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FITONIMIK KOMPONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING TARJIMA USULLARI VA MUAMMOLARI

Tursunboyev Bektosh Norbo‘tayeich

Teacher, Karshi state university

bektosh.tursunboev@gmail.com

ORCID 0000-0003-0227-3929

UDK 1751

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi fitonimik komponentli frazeologik birliklarni, ya‘ni tarkibida o‘simlik, daraxt, gul, meva hamda sabzavot nomlari qatnashgan iboralarni tarjima qilishning asosiy usullari va tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik hamda madaniy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida jami 106 ta frazeologik birlik o‘rganilib, ularning semantik, uslubiy va milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqildi. Tahlillar natijasida birliklarning 55,6 foizi qisman yoki to‘liq ekvivalentlikka ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, milliy mentalitet va obrazlilikka asoslangan ayrim iboralarni tarjima qilishda muqobil almashtirish, kalkalash, tavsifiy tarjima hamda lakunarlik kabi hodisalarning muhim o‘rin tutishi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari frazeologiya, tarjimashunoslik va ikki tilli leksikografiya sohalaridagi ilmiy-amaliy ishlarda foydalanish uchun ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: fitonim, frazeologik birlik, tarjima usuli, ekvivalentlik, kalkalash, lakunarlik, semantik tahlil, qiyosiy tilshunoslik, o‘zbek tili, ingliz tili.

TRANSLATION METHODS AND PROBLEMS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH PHYTONYMIC COMPONENTS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract. The article examines the main methods used to translate phraseological units with phytonymic components – that is, idioms containing names of plants, trees, flowers, or fruit and vegetables – from English into Uzbek and vice versa, along with the specific difficulties translators encounter in this process. The study is based on a corpus of 106 units. Analysis reveals that 55.6% of the items show partial or full semantic equivalence; however, the remaining portion – particularly expressions rooted in culturally specific plant imagery – presents considerable translation challenges. Equivalent substitution, calquing, descriptive translation and lacunarity are examined through concrete examples. The findings are intended to assist practical work in phraseology, translation studies, and bilingual lexicography.

Keywords: phytonym, phraseological unit, translation method, equivalence, calque, lacunarity, semantic analysis, contrastive linguistics, Uzbek language, English language.

Kirish. Har qanday tilning lug‘at boyligini o‘rganayotganda frazeologizmlar, ayniqsa, ko‘zga tashlanadi – ular oddiy so‘zlar singari izohlangan kitoblarda emas, balki xalqning turmushi, urf-odati va tabiatga munosabatida “yashab” keladi. Shularning ichida o‘simlik

nomlari bilan bog'liq iboralar – fitonimik frazeologizmlar – alohida o'rin egallaydi. O'zbek tilida “gul yuzli”, “tikan ustida o'tirmoq”, “gul kabi yashnamoq” kabi iboralar bor; ingliz tilida esa “a bed of roses”, “barking up the wrong tree”, “shrinking violet” singari ko'plab idiomalar mavjud. Bu iboralarning barchasi o'simlik obraziga tayanadi, ammo har ikki xalq ularni turlicha tushunadi va his qiladi.

Mana shu farq tarjimonni qiyin ahvolga soladi. O'zbek o'quvchisi uchun “shrinking violet” iborasini qanday yetkazish kerak? Binafsha gulini uyatchanlik timsoli sifatida tasavvur qiladigan o'zbek uchun bu obraz tabiiy tuyulmasligi aniq. Bunday holatlarda to'g'ri tarjima usulini tanlash – bu faqat texnik masala emas, balki madaniy-lingvistik ko'prik qurishdir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi aynan shu muammoni – o'zbek va ingliz tillaridagi fitonimik komponentli frazeologik birliklarni tarjimada berish usullarini – izchil va misollar asosida tahlil qilishdan iborat. Biz “qaysi usul to'g'riroq?” degan savolga universal javob izlamaymiz; aksincha, har bir usulning qachon va qay holatda qo'llanilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatishga harakat qilamiz.

O'zbek va ingliz tillarining fitonimik frazeologizmlarini qiyosiy-tarjima nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlangan maxsus izlanishlar hali yetarli emasligi ushbu mavzuning dolzarbligiga ishoradir. Ko'pchilik ishlar yo bitta tilning frazeologizmlarini tasvirlash bilan, yoki bo'lmasa umumiy tarjima nazariyasi bilan cheklanadi. Ikkisini birlashtirgan, ya'ni qiyosiy tahlil bilan tarjima amaliyotini o'zida jamlagan tadqiqot kamdan-kam uchraydi.

Adabiyotlar sharhi. Frazeologiya sohasida V.V.Vinogradov (1947) ishlab chiqqan tasnif – birliklarni “frazeologik qo'shilmalar”, “frazeologik birliklar” va “frazeologik tutashuvlar” deb ajratish – keyingi yarim asrlik tadqiqotlar uchun poydevor bo'ldi. Bu tasnif hozir ham ishlatiladi, garchi bir qator olimlar uni kengaytirish yoki qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa-da [Vinogradov, 1947].

Ingliz tilidagi fitonimik iboralarni N.N.Amosova (1963) o'z tadqiqotida alohida o'rgangan; u bu iboralarning semantik jihatdan yaxlitligi va matn ichida tutgan o'rniga e'tibor qaratgan [Amosova, 1963]. A.V.Kuninning mashhur inglizcha-ruscha frazeologik lug'ati (1984) esa amaliy jihatdan hamon o'z qimmatini yo'qotmagan manba sifatida qolmoqda [Kunin, 1984].

O'zbek frazeologiyasini Sh.Rahmatullayev (1978, 2004) ko'p yillik mehnat bilan o'rgandi va o'zbek tilidagi frazeologizmlarning izohli lug'atini tuzdi – bu lug'at bizning tadqiqotimizda ham asosiy manba bo'lib xizmat qildi [Rahmatullayev, 2004]. A.Mamatovning ishlari esa o'zbek tilidagi obrazli iboralarning semantik shakllanishiga bag'ishlangan [Mamatov, 1990].

Tarjimada frazeologizmlar masalasi S.Vlaxov va S.Florin (1986) tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Ular “tarjimasizlik” (непереводимость) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi va frazeologizmlar tarjimasizligi uchun ekvivalent, analogiya, tavsif va kalkalash usullarini tavsiflab berdi [Vlaxov, Florin, 1986]. V.N.Komissarov (1990) esa tarjima ekvivalentligining turli darajalarini nazariy jihatdan asoslab chiqdi [Komissarov, 1990].

Biroq yuqorida ko'rsatib o'tilgan ishlarning birortasi ham o'zbek va ingliz tillarining fitonimik iboralari tarjimasini alohida va keng miqyosda o'rganishga bag'ishlangan emas. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqola mavjud tadqiqotlardagi bo'shliqni to'ldirishga da'vo qiladi.

Material va metodologiya. Tadqiqot materiallari bir necha manbadan to'plandi: Sh.Rahmatullayevning frazeologik lug'ati (2004), Kuninning to'rt jildlik inglizcha-ruscha lug'ati (1984), Cambridge Idioms Dictionary (2006), Oxford Dictionary of Idioms (2010), shuningdek, ikki tildagi badiiy asarlar va ularning tarjimalari. Turli manbalardan foydalanish bir jihatdan zarur edi – aks holda faqat lug'at ma'lumotlariga tayanib, tirik nutqdagi iboralarni e'tibordan chetda qoldirish xavfi bo'lar edi.

Jami 106 ta fitonimik komponentli frazeologik birlik ajratib olindi: 54 tasi o'zbek tilida, 52 tasi ingliz tilida. Barcha birliklar tarkibidagi o'simlik turiga ko'ra to'rt guruhga bo'lindi: (1) daraxt va buta nomlari – tol, terak, oak, bush va hokazo; (2) gul nomlari – lola, atirgul, rose, violet, daisy; (3) meva-sabzavot nomlari – olma, uzum, apple, straw, grape; (4) boshqa o'simlik nomlari – o't, giyoh, barg, grass, leaf, weed.

Asosiy tahlil usullari: qiyosiy-tipologik tahlil – ikki til o'rtasidagi o'xshashlik va

farqlarni aniqlash maqsadida; komponentsial tahlil – frazeologizmlarning ichki semantik tuzilishini ochib berish uchun; kontekstual tahlil – iboralarning turli matnlardagi qoʻllanilishini kuzatish uchun; miqdoriy tahlil – tarjima usullari taqsimotini ifodalash uchun. Tarjima usullarini tasniflashda Vlixov-Florin va Komissarov sxemasiga tayanildi.

Tahlil va muhokama. Oʻsimlik nomlari frazeologizmlar tarkibiga tasodifan kirib qolmaydi. Bu jarayon uzoq tarixiy va madaniy ildizlarga ega. Oʻzbek dehqonchilik sivilizatsiyasida meva-sabzavotlar nafaqat ozuqa, balki ramzlar tizimining bir qismi ham boʻlgan: olma – goʻzallik va yonoq qizilligi, lola – aziz jon va vatan, tikan – ogʻriq va toʻsiq maʼnolarini ifodalagan. Ingliz madaniyatida esa yomgʻirli iqlim sharoitida oʻsuvchi oʻsimliklar – bush (buta), grass (oʻt), weed (yovvoyi giyoh) – ogʻir mehnat va hayotiy toʻsiqlar bilan uygʻunlashgan.

Mana shu madaniy ildiz farqi tarjimini murakkablashtiradi. Bir tilda tabiiy tuyulgan obraz boshqa tilda gʻalati yoki maʼnosiz boʻlib qolishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “shrinking violet” iborasida binafsha guli “uyatchan, oʻzini namoyon qilishdan qoʻrqadigan odam” maʼnosini beradi. Ammo oʻzbek madaniyatida binafsha (violet) bunday ramziy maʼnoga ega emas. Demak, soʻzma-soʻz tarjima bu holatda ishlamaydi.

Muqobil almashtirish – tarjimon ikki tildagi semantik jihatdan yaqin frazeologik birlik topib, birini ikkinchisi bilan almashtiradigan usul. Bu holat tadqiqotimizda 28 ta birlikda (26,4%) kuzatildi. Uning afzalligi shunda: tarjimada birlik ekspressivligini, stilistik boʻyogʻini va idiomatik xarakterini saqlab qolish mumkin.

“*The grass is always greener on the other side*” iborasini koʻraylik. Ingliz tiliga xos bu matal – boshqa joyda hayot yaxshiroq koʻrinishi haqidagi umumbashariy his-tuygʻuni ifodalaydi. Oʻzbek tilida esa “Oʻzga yurt – oltin yurt” yoki “Narigi tomondagi maysa doim yashilroq koʻrinadi” kabi iboralar shu maʼnoni beradi. Ikkisi ham uy-yurt va oʻzga mamlakat haqidagi nostalgiya va notoʻgʻri tasavvurni bir xil quvvat bilan ifodalaydi.

“*A rolling stone gathers no moss*” iborasining oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz tarjimasi (“koʻchib yurgan tosh oʻt oʻstirmaydi” “Dumalab yurgan toshga mox yopishmaydi”) ham toʻgʻri, ham idiomatik tuyuladi – chunki “tosh” va “oʻt” obrazlari ikkala madaniyatda ham tanish. Bu noyob holat: kalkalash va muqobil almashtirish bir vaqtda mos keladi.

Tadqiqotimizdagi eng koʻp sonli guruh – 31 ta birlik (29,2%) – qisman ekvivalentlik koʻrsatdi. Bu shuni anglatadiki, ikki tildagi frazeologik birlik maʼno jihatdan yaqin, lekin tarkibiy komponent, uslub yoki qoʻllanish doirasi bir-biridan farq qiladi. Bunday holatlarda tarjimon doimiy bir ikkilanish oldida qoladi: shaklga sadoqatmi yoki maʼnoga?

“*Turn over a new leaf*” iborasi “hayotda yangi barg ochmoq” maʼnosini beradi. Oʻzbek tilidagi “yangi sahifa ochmoq” iborasi semantik jihatdan juda yaqin, lekin inglizchada “leaf” (barg/varaq) metaforasi kitob varagʻini koʻz oldimizga keltiradi – bu obraz oʻzbek tilidagidan birmuncha farqli. Shunda ham bu tarjima toʻgʻri va tabiiy.

“*Oʻzbekcha “olma yonoqli”* iborasini inglizga “apple-cheeked” deb tarjima qilish mumkin – va bu ibora ingliz tilida ham mavjud. Lekin amalda ingliz mualliflari koʻproq “rosy-cheeked” (qizil yonoqli) ifodasini ishlatadi. Demak, tarjima toʻgʻri boʻlsa-da, stilistik jihatdan biroz sunʼiy tuyulishi mumkin.

Kalkalash – frazeologik birlikni soʻzma-soʻz tarjima qilish usuli. Tadqiqotimizdagi 19 ta birlik (17,9%) shu yoʻl bilan tarjima qilindi. Bu usulning foydali tomoni: asl ibora tuzilishi saqlanadi va oʻquvchi manba madaniyatiga bilan tanishish imkonini oladi. Ayni vaqtda xatari ham bor: agar obraz maqsad madaniyatida tanish boʻlmasa, natijada hosil boʻlgan ibora sunʼiy yoki maʼnosiz tuyuladi.

«*Nip in the bud*» iborasini «kurtakligida yoʻqotmoq» deb tarjima qilsak, oʻzbek oʻquvchisi uchun bu obraz tushuniladi – chunki kurtak va gulning boʻgʻilishi haqidagi tasvir umumiy. Demak, bu holda kalkalash samarali.

Ammo «*beat around the bush*» iborasini «buta atrofida aylanmoq» deb kalkalasak, oʻzbek tilidagi nutq uchun bu ibora gʻalati tuyuladi. Ov itining buta atrofida aylanishi – ingliz madaniyatiga xos obraz; oʻzbek oʻquvchisi bu tasvir orqali “aylanib oʻtish, toʻgʻri aytmaslik” maʼnosini darrov anglamaydi. Bunday holatlarda kalkalash oʻrniga tavsifiy tarjima afzalroq.

Xullas, kalkalash – koʻr-koʻrona qoʻllash mumkin boʻlmagan usul. U faqat fitonimik

obraz ikki madaniyatda ham tanish va bir xil yoʻnalishdagi maʼnoni ifodalagan holatlarda samarali.

Tavsifiy tarjima – tarjimon frazeologik birlik maʼnosini toʻgʻridan-toʻgʻri soʻz bilan tushuntiradigan usul. Biz oʻrganilgan 106 ta birlikning 24 tasida (22,6%) shu usulga murojaat qilindi. Bir qarashda bu “yutqiziq” usul boʻlib koʻrinadi: ibora oʻz goʻzalligini, obrazlilikini yoʻqotadi. Ammo baʼzi hollarda boshqa chora yoʻq.

“*Shrinking violet*” iborasi oʻzbek tiliga “uyatchan, oʻzini namoyon qila olmaydigan odam” deb tarjima qilinadi. Binafsha gulining ingliz madaniyatidagi ramziy maʼnosi oʻzbek tiliga bevosita oʻtkazilmaydi – shuning uchun tavsifiy tarjima muqarrar boʻladi.

Oʻzbekcha “*gul yuzli*” iborasi inglizga “rosy-faced” yoki “with a beautiful complexion” deb tarjima qilinadi. Aslida “gul” oʻzbek madaniyatida goʻzallik timsoli, lekin ingliz tilidagi “tulip” soʻzida bunday kuchli hissiy maʼno yoʻq. Demak, toʻgʻri tarjima qilish uchun iboraning asl maʼnosiga murojaat qilish lozim boʻladi.

Bu usulni ishlatganda tarjimon qarorni ikki yoʻl bilan qabul qilishi mumkin: (a) matn ichida qisqacha izoh berish – ayniqsa badiiy tarjimada qulay; (b) izohli lugʻat uchun alohida taʼrif yozish – leksikografik ishda zarur. Ikkinchi yoʻl ushbu tadqiqotning keng maqsadi – leksikografik talqin – bilan toʻgʻridan toʻgʻri bogʻliq.

Lakunarlik – bir tildagi frazeologik birlikning boshqa tilda mutlaqo ekvivalentsiz qolishi. Tadqiqotimizda 4 ta bunday birlik (3,8%) aniqlandi. Kamdan kam uchraydigan holat boʻlsa-da, lakunar birliklar tarjimon uchun eng ogʻir sinovdir. Bunday holatlarda tarjimon odatda tavsifiy tarjima va kontekstual izoh kombinatsiyasiga murojaat qiladi. Ilmiy matnlar va lugʻatlar uchun esa lakunar birlikni alohida eslatma sifatida qayd etish maqsadga muvofiq.

1-jadval. Tarjima usullari taqsimoti (n=106)

Tarjima usuli	Soni (106 ta FB dan)	Foizi
Muqobil almashtirish	28	26,4%
Qisman ekvivalent tarjima	31	29,2%
Kalkalash	19	17,9%
Tavsifiy tarjima	24	22,6%
Lakunar (tarjimasiz qolgan)	4	3,8%
Jami	106	100%

1-jadvaldan koʻrinib turibdiki, tadqiqotimizda birorta usul mutlaq yetakchilik qilmaydi – qisman ekvivalentlik (29,2%) va muqobil almashtirish (26,4%) yaqin raqobatda turadi. Bu, oʻz navbatida, oʻzbek va ingliz madaniyati oʻrtasida ham umumiylik, ham farq bir vaqtda mavjud ekanligining koʻrsatkichidir.

2-jadval. Fitonimik komponentli FBlar tarjimasini: namunaviy misollar

№	Inglizcha FB	Oʻzbekcha tarjimasini	Qoʻllangan usul	Semantik moslik darajasi
1	<i>a bed of roses</i>	oson, tashvishsiz hayot	Muqobil almashtirish	Toʻliq moslik
2	<i>beat around the bush</i>	aylanib oʻtmoq; toʻgʻri aytmaslik	Tavsifiy tarjima	Qisman moslik
3	<i>turn over a new leaf</i>	yangi sahifa ochmoq	Qisman ekvivalent	Qisman moslik
4	<i>shrinking violet</i>	uyatchan, tortinchoq odam	Tavsifiy tarjima	Lakunar birlik
5	<i>the grass is always greener</i>	oʻzga yurt – oltin yurt	Muqobil almashtirish	Toʻliq moslik

6	<i>barking up the wrong tree</i>	noto'g'ri joydan izlamoq	Tavsifiy tarjima	Lakunar birlik
7	<i>grasp at straws</i>	umidsiz holatda biror narsaga yopishmoq	Kalkalash + tavsif	Qisman moslik
8	<i>pushing up daisies</i>	yerga kirmoq; vafot etmoq	Muqobil almashtirish	Qisman moslik
9	<i>a rolling stone gathers no moss</i>	ko'chib yurgan tosh o't o'stirmaydi	To'liq kalkalash	To'liq moslik
10	<i>tikan ustida o'tirmoq (o'zbek)</i>	to sit on thorns / be on tenterhooks	Qisman ekvivalent	Qisman moslik

2-jadvalda keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, tarjima usulining tanlovi ko'p jihatdan fitonimik obrazning ikki madaniyatda qanday idrok etilishiga bog'liq. Bir xil o'simlik – masalan, tol – ikki tilda ham “g'am” ma'nosini berishi mumkin; biroq bu mos kelish har doim ham frazeologik darajaga ko'tarilmaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot bir necha muhim natijani ko'rsatdi. Birinchidan, o'zbek va ingliz tillaridagi fitonimik komponentli frazeologik birliklarning yarmidan ko'pi – 55,6 foizi – qisman yoki to'liq ekvivalentlik ko'rsatadi. Bunday mos kelish tasodifiy emas: ikkala xalqning o'simliklar dunyosi bilan bog'liq umumbashariy tajribasi – yashil mavsumning kelishi, o'simlikning gullashi va so'lishi, dehqon mehnati – umumiy obrazli fikrlash platformasini yaratadi.

Ikkinchidan, fitonimik obrazning madaniy-milliy o'ziga xosligi qanchalik kuchli bo'lsa, tarjima shunchalik murakkablashadi. Lola – o'zbek uchun milliy ramz; violet – ingliz uchun uyatchanlik timsoli. Bu ramzlar bir-biriga o'tmaydi va tarjimon ularga duch kelganda tavsifiy tarjima yoki izohdan boshqa chora topa olmaydi.

Uchinchidan, kalkalash usuli nozik muomala talab qiladi. Uni har qanday holatda qo'llashga urinish matnni sun'iy va g'alati qilishi mumkin. Bu usul faqat ikki madaniyatda ham bir xil ramziy yukka ega bo'lgan fitonimik obrazlar uchun samarali.

To'rtinchidan, lakunar birliklar soni nisbatan kichik bo'lsa-da (3,8%), ular tarjimashunoslik va leksikografiya uchun alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Aynan lakunar birliklarning to'g'ri talqin qilinishi ikki tilli lug'atlar sifatini belgilaydi.

Ushbu tadqiqot, albatta, barcha savollarni hal etmaydi. Kelajakdagi izlanishlarda fitonimik frazeologik birliklarning kognitiv asoslari – ya'ni qaysi mental modellar bu iboralarga zamin yaratishi – alohida o'rganilishi zarur. Bundan tashqari, mazkur maqolada qo'llanilgan usullarni boshqa til juftliklariga tatbiq etish ham qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1963. – 208 с.
2. Cambridge Idioms Dictionary.–2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.–505 p.
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 с.
4. Кунин А.В. Английско-русский фразеологический словарь. – 4-е изд. – Москва: Русский язык, 1984. – 944 с.
5. Mamatov A.E. O'zbek tilining frazeologik birliklari. – Toshkent: Fan, 1990. – 136 b.
6. Oxford Dictionary of Idioms. – 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 408 p.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1978. – 95 b.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 544 b.

**BADIIY MATNLARDA HURMAT SEMALI LEKSEMALARINING
LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI****Tojiyeva Shahlo Otabek qizi**

QDU magistratura Lingvistikada 1-kurs talabasi

shahlotojiyeva2002@gmail.com

ORCID 0009-0003-2813-0165

UDK 82

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek badiiy matnlarida qo'llaniladigan hurmat semali leksemalarning lingvokulturologik talqinini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot dolzarbligi badiiy matnlarda milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlarni aks ettiruvchi til birliklarini chuqur tahlil qilish zaruriyatidan kelib chiqadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida badiiy matnlarni lingvistik tahlil, leksik-semantik klassifikatsiya va kontekstual kuzatish ishlatilgan. Masalan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va O'tkir Hoshimov asarlaridagi qarindoshlik atamalari, murojaat shakllari va baholovchi leksik birliklar o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hurmat semali leksemalar qahramonlarning ijtimoiy mavqeini ochib berish, ularning o'zaro munosabatlarini belgilash va badiiy matnga estetik hamda madaniy mazmun berishda muhim rol o'ynaydi. Maqola natijalari o'zbek badiiy matnlari lingvistikasi va lingvokulturologiya sohalarida ilmiy izlanishlarni boyitadi hamda hurmat semasi tadqiqotining nazariy va amaliy jihatlari yoritadi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, hurmat kategoriyasi, leksema, badiiy matn, semantika, milliy mentalitet, til va madaniyat.

**LINGUOCULTURAL INTERPRETATION OF RESPECT-RELATED LEXEMES IN
LITERARY TEXTS**

Abstract. This article investigates the linguocultural interpretation of respect-related lexemes in Uzbek literary texts. The relevance of the study arises from the need to analyze linguistic units reflecting national culture and moral values in literary works. The research methodology includes linguistic analysis of literary texts, lexical-semantic classification, and contextual observation. Examples from the works of Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, and O'tkir Hoshimov are examined, focusing on kinship terms, forms of address, and evaluative lexemes. The results indicate that respect-related lexemes play a key role in revealing characters' social status, defining interpersonal relations, and enriching the aesthetic and cultural content of literary texts. The findings contribute to the study of Uzbek literary linguistics and linguoculturology, highlighting both theoretical and practical aspects of investigating the semantics of respect in language.

Keywords: Linguoculturology, category of respect, lexeme, literary text, semantics, national mentality, language and culture.

Kirish. Til insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, u nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Har bir millatning tilida uning madaniy merosi, urf-odatlarini hamda ijtimoiy munosabatlari o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan qaraganda, til birliklarini faqat grammatik yoki semantik nuqtayi nazardan emas, balki madaniy kontekst bilan bog'liq holda o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Til va madaniyat o'rtasidagi ana shunday uzviy aloqalarni tadqiq etishda lingvokulturologiya yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologik yondashuv til birliklari orqali xalqning mentaliteti, qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarini aniqlash imkonini beradi. Bu borada ko'plab tilshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, V. V. Vorobyov lingvokulturologiyani til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida izohlaydi hamda til birliklari orqali xalqning tarixiy tajribasi va madaniy qarashlari namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [1]. V. A. Maslova esa til tizimida madaniy mazmuni aks ettiruvchi birliklarni o'rganishda konsept tushunchasi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishini qayd etadi [2]. Olimning fikricha, til birliklari orqali jamiyatda muhim hisoblangan qadriyatlar, jumladan hurmat, ehtirom va izzat kabi tushunchalar ifodalanadi.

O'zbek tilshunosligida ham til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. N. Mahmudov o'z ilmiy ishlarida til birliklari milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarning ifodachisi ekanligini ta'kidlab, ayniqsa badiiy matnlarni bu jihatdan o'rganish muhimligini qayd etadi [3]. Shuningdek, A. Nurmonov til tizimining rivojlanish jarayonida ijtimoiy va madaniy omillar muhim rol o'ynashini ko'rsatib, ayrim leksik birliklar jamiyatdagi axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda

shakllanishini ta'kidlaydi [4].

Badiiy matn tilshunoslik tadqiqotlari uchun boy material hisoblanadi. Chunki adabiy asarlarda tilning ifodaviy imkoniyatlari keng namoyon bo'ladi va muallif o'z fikrini turli stilistik vositalar orqali tasvirlaydi. B. Yo'ldoshev badiiy matn lingvistikasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida badiiy asar tilida qo'llaniladigan leksik birliklar obraz yaratish hamda qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [5].

O'zbek xalqining madaniy an'analarida hurmat, izzat va ehtirom tushunchalari alohida o'rin egallaydi. Kattalarni ulug'lash, ustozni qadrlash, ota-onaga ehtirom ko'rsatish kabi qadriyatlar nafaqat ijtimoiy hayotda, balki til tizimida ham o'z aksini topgan. Ayniqsa, badiiy matnlarda hurmat semali leksemalar qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatish, ularning maqomi va o'zaro aloqalarini ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hurmat semantikasi ko'pincha murojaat shakllari, qarindoshlik atamaları hamda baholovchi leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bunday til birliklari lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, ular orqali jamiyatdagi axloqiy me'yorlar va milliy mentalitet haqida muhim ma'lumotlar olish mumkin. Badiiy matnlarda uchraydigan hurmat semali leksemalar muallifning individual uslubini namoyon etish bilan birga, milliy madaniyatning muhim unsurlarini ham aks ettiradi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy tadqiqotlar til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganishda lingvokulturologik yondashuv muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Biroq badiiy matnlarda hurmat semali leksemalarning lingvokulturologik talqini masalasi hali yetarli darajada keng o'rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot o'zbek badiiy matnlarida qo'llaniladigan hurmat semali leksemalarni aniqlash, ularning semantik xususiyatlarini tahlil qilish hamda lingvokulturologik jihatdan talqin etishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi, Tadqiqotda quyidagi:

leksik-semantik tahlil metodi – hurmat semali leksemalarning ma'nosini aniqlash uchun;

lingvokulturologik tahlil metodi – til birliklari orqali madaniy qadriyatlarni aniqlash uchun;

kontekstual tahlil metodi – badiiy matnlarda leksemalarning qo'llanish xususiyatlarini o'rganish uchun.

Natijalar va muhokama. Badiiy matnlarda hurmat semali leksemalar turli semantik guruhlarda namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ularni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin.

Bunday birliklar nutqda ijtimoiy munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: ustoz, hazrat, janob, ota, ona.

Masalan, badiiy matnda "ustoz" leksemasining qo'llanishi qahramonning bilim manbayi sifatida e'zozlanishini bildiradi.

Badiiy matnlarda hurmat ma'nosi ko'pincha fe'llar orqali ham ifodalanadi. Masalan: e'zozlamoq, qadrlamoq, ulug'lamoq

Bu fe'llar orqali qahramonlar o'rtasidagi munosabat va muallifning baholovchi pozitsiyasi ifodalanadi.

O'zbek tilida hurmat tushunchasini ifodalovchi ko'plab frazeologik birliklar mavjud. Masalan: boshiga ko'tarmoq, izzat-ikrom qilmoq, ehtirom ko'rsatmoq

Bunday birliklar badiiy matnda obrazlilik va ekspressivlikni kuchaytiradi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaralganda, hurmat semali leksemalar o'zbek xalqining katta-kichikka hurmat, ustozga ehtirom va ota-onani ulug'lash kabi qadriyatlarini aks ettiradi. Bu esa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Badiiy matnlarda qo'llaniladigan hurmat semali leksemalar nafaqat nutqning ifodaviyligini kuchaytiradi, balki qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, yosh farqi hamda madaniy qadriyatlarni ham ifodalaydi. O'zbek adabiyotida yaratilgan ko'plab asarlarda hurmat ifodalovchi leksik birliklar obraz yaratish hamda milliy mentalitetni ko'rsatishda muhim vosita sifatida qo'llanadi.

O'zbek badiiy adabiyotida hurmat semantikasi ko'pincha qarindoshlik atamaları,

murojaat shakllari va baholovchi leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bunday birliklar matn tarkibida qahramonlarning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi hamda muallifning estetik maqsadiga xizmat qiladi.

Masalan, Abdulla Qodiriy asarlarida qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa katta-kichik o‘rtasidagi hurmat aloqalari til birliklari orqali ifodalanadi. Yozuvchi badiiy matnda hurmat semantikasi bilan bog‘liq leksemalardan keng foydalanadi. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida quyidagi jumla uchraydi:

“Otabek ota-onasining oldida bosh egib, muloyimlik bilan so‘z boshladi.”

Mazkur misolda “ota-ona” leksemasi nafaqat qarindoshlik munosabatini, balki hurmat semasini ham ifodalaydi. O‘zbek madaniyatida ota-onaga hurmat qilish muhim axloqiy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun bunday leksemalar badiiy matnda milliy mentalitetni aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, romanda “ustoz”, “hazrat” kabi murojaat birliklari ham uchraydi. Bu leksemalar orqali qahramonlarning ijtimoiy mavqei va o‘zaro munosabatlari ifodalanadi.

Cho‘lpon asarlarida ham hurmat semali leksemalar obraz yaratishda muhim stilistik vosita sifatida qo‘llaniladi. Masalan, “Kecha va kunduz” romanida qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashda hurmat ifodalovchi murojaat shakllari qo‘llanadi.

Masalan: “Zebi onasining gaplarini hurmat bilan tinglab turardi.”

Bu jumlada “ona” leksemasi orqali nafaqat qarindoshlik munosabati, balki hurmat va ehtirom ma‘nosi ham ifodalangan. Lingvokulturologik jihatdan qaralganda, bu birlik o‘zbek xalqining kattalarni ulug‘lash va ota-onaga hurmat ko‘rsatish kabi madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida milliy qadriyatlar, ayniqsa insonlar o‘rtasidagi hurmat munosabatlari keng yoritiladi. Masalan, “Dunyoning ishlari” asarida quyidagi jumlaning uchratish mumkin: “Onamni hamma mahallada hurmat qilishardi.”

Bu misolda “onam” leksemasi nafaqat shaxsiy munosabatni, balki jamiyatdagi hurmat va e‘zozni ham ifodalaydi. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan bu birlik o‘zbek jamiyatida ona obrazining muqaddasligi va e‘zozlanishini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnlarda qo‘llaniladigan hurmat semali leksemalar o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Ular orqali quyidagi lingvokulturologik xususiyatlar namoyon bo‘ladi:

1. Kattalarni ulug‘lash an‘anasi O‘zbek madaniyatida katta yoshdagi insonlarga hurmat bilan murojaat qilish muhim ijtimoiy norma hisoblanadi.

2. Ustozga ehtirom ko‘rsatish “Ustoz”, “domla” kabi leksemalar bilim beruvchi shaxsga nisbatan hurmatni ifodalaydi.

3. Oila qadriyatlari “Ota”, “ona”, “aka”, “opa” kabi birliklar nafaqat qarindoshlikni, balki hurmat va ehtiromni ham bildiradi.

Badiiy matnlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hurmat semali leksemalar bir necha guruhlariga ajratilishi mumkin: Birinchi guruhga qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi leksemalar kiradi. “Ota”, “ona”, “aka”, “opa”, “bobo”, “ustoz” kabi birliklar nafaqat qarindoshlik aloqasini, balki hurmat ma‘nosini ham ifodalaydi.

Ikkinchi guruhga murojaat shakllari kiradi. “Hazrat”, “janob”, “domla” kabi birliklar orqali suhbat jarayonida hurmat va ehtirom ifodalanadi.

Uchinchi guruhga baholovchi leksik birliklar kiradi. “Hurmatli”, “muhtaram”, “aziz” kabi so‘zlar nutqda suhbatdoshga nisbatan ijobiy munosabatni bildiradi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaralganda, bunday leksemalar o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa kattalarga hurmat ko‘rsatish, ustozni e‘zozlash va ota-onani ulug‘lash kabi qadriyatlar til tizimida mustahkam o‘rin egallagan. Shu sababli badiiy matnlarda hurmat semali leksemalar milliy mentalitetni ifodalovchi muhim til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, badiiy matnlarda hurmat semantikasi nafaqat leksik darajada, balki pragmatik va stilistik darajada ham namoyon bo‘ladi. Mualliflar bunday birliklardan foydalanish orqali qahramonlarning xarakterini ochib beradi, ularning

ijtimoiy mavqei va o'zaro munosabatlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, hurmat semali leksemalar badiiy matnning estetik ta'sirini kuchaytiruvchi muhim stilistik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Natijada badiiy asarlarda qo'llaniladigan hurmat semali leksemalar o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklar ekanligi aniqlanadi. Ularni tahlil qilish orqali til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq anglash mumkin.

Xulosa. Badiiy matnlar tilning estetik va semantik imkoniyatlarini keng namoyon etuvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida o'zbek badiiy adabiyotida qo'llaniladigan hurmat semali leksemalar lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bunday til birliklari nafaqat nutq jarayonida hurmat va ehtiromni ifodalashga xizmat qiladi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, milliy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni ham aks ettiradi.

Badiiy asarlarda hurmat semantikasi ko'pincha qarindoshlik atamalari, murojaat shakllari hamda baholovchi leksik birliklar orqali namoyon bo'lishi aniqlanadi. Ushbu leksemalar matn tarkibida qahramonlarning o'zaro munosabatlarini ifodalash, ularning ijtimoiy mavqeini ko'rsatish hamda muallifning baholovchi munosabatini bildiruvchi vosita sifatida qo'llanadi. Shu bilan birga, ular milliy mentalitetning muhim unsurlarini ifodalovchi lingvokulturologik birliklar sifatida ham namoyon bo'ladi.

Tahlillar natijasida badiiy matnlarda hurmat semali leksemalar nafaqat leksik darajada, balki stilistik va pragmatik jihatdan ham muhim funksiyani bajarishi kuzatildi. Mualliflar bunday birliklardan foydalanish orqali qahramonlarning xarakterini ochib berish, ularning ijtimoiy mavqei va o'zaro munosabatlarini tasvirlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa badiiy matnning ifodaviyligini oshirib, o'quvchiga ma'naviy va estetik ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, badiiy matnlarda qo'llaniladigan hurmat semali leksemalarni lingvokulturologik jihatdan o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek badiiy matn lingvistikasi hamda lingvokulturologiya yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. *O'tkan kunlar*. –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1926, 1–320 bet.
2. Cho'lpon. *Kecha va kunduz*. –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1934, 1–280 bet.
3. O'tkir Hoshimov. *Dunyoning ishlari*. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005, 1–256 bet.
4. Vorobyov V. V. *Lingvokulturologiya asoslari*. –Moskva: Nauka, 2015, 1–240 bet.
5. Maslova V. A. *Lingvokulturologiya va til konseptlari*. –Moskva: Flinta, 2017, 1–312 bet.
6. Mahmudov N. *O'zbek badiiy matnlari lingvistikasi*. –Toshkent: Fan, 2016, 1–210 bet.
7. Nurmonov A. *O'zbek tili va madaniyat*. –Toshkent: Akademnashr, 2018, 1–198 bet.
8. Yo'ldoshev B. *Badiiy matn lingvistikasi*. –Toshkent: Sharq, 2019, 1–230 bet.
9. Islomova D. *Til va madaniyat o'rtasidagi lingvokulturologik bog'liqlik*. –Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021, 1–176 bet.
10. Qodirov S. *O'zbek tilidagi ijtimoiy leksika*. Toshkent: Akademnashr, 2017, 1–198 bet.
11. Karimov M. *Badiiy matnda til va obraz*. –Toshkent: Yangi asr, 2018, 1–220 bet.
12. Sulonov A. *Lingvistik va madaniy tadqiqotlar*. –Toshkent: Fan, 2019, 1–205 bet.
13. Rahmonova L. *O'zbek tilida hurmat semasi*. –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2020, 1–160 bet.
14. Hamidov T. *Badiiy asarlar va lingvokulturologiya*. –Toshkent: Akademnashr, 2021, 1–185 bet.
15. Ahmedov R. *Til, madaniyat va jamiyat: lingvokulturologik tahlil*. –Toshkent: Sharq, 2019, 1–210 bet.

**LINGVOMADANIY KODLARNING MATN INTERPRETATSIYASI VA
DEKODLANISHIDAGI LINGVOSEMIOTIK ROLI****Xolova Madina Boboqulovna**

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

xolova.madina@bsmi.uz

UDK 811.111'37:008+811.512.133'37:008

ORCID 0009-0002-3331-8958

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvomadaniy kodlarning matn interpretatsiyasi va dekodlanishidagi lingvosemiotik roli tahlil qilinadi. Tadqiqot lingvomadaniyatshunoslik, semiotika va kognitiv lingvistika metodologiyasiga asoslanadi. Lingvomadaniy kodlar matnda madaniy ma'nolarni shakllantiruvchi, saqlovchi va uzatuvchi semiotik mexanizm sifatida o'rganiladi. O'zbek va ingliz badiiy matnlari asosida lingvomadaniy kodlarning nominativ, konnotativ, aksiologik va pragmatik funksiyalari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari lingvomadaniy kodlar matnning chuqur semantik qatlamini shakllantirishi va interpretatsiya jarayonining asosiy mexanizmi ekanligini ko'rsatadi. Lingvomadaniy kodlar matnni adekvat tushunish, madaniy ma'nolarni dekodlash va madaniyatlararo kommunikatsiyani ta'minlashda muhim lingvosemiotik vosita hisoblanadi hamda ularning interpretativ funksiyasi lingvokognitiv va semiotik mexanizmlar asosida amalga oshishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniy kod, interpretatsiya, dekodlash, semiotika, lingvokultura, badiiy matn

**LINGUOSEMIOTIC ROLE OF LINGUOCULTURAL CODES IN TEXT
INTERPRETATION AND DECODING**

Abstract. This article analyzes the linguosemiotical role of linguocultural codes in text interpretation and decoding. The research is based on linguocultural, semiotic, and cognitive linguistic approaches. Linguocultural codes are examined as semiotic mechanisms that shape, preserve, and transmit cultural meanings in texts. Examples from Uzbek and English literary works reveal nominative, connotative, axiological, and pragmatic functions of linguocultural codes. The findings demonstrate that linguocultural codes form the deep semantic structure of texts and serve as key mechanisms of interpretation. They ensure adequate decoding of cultural meanings and facilitate intercultural communication. Their interpretative function operates through cognitive, semiotic, and cultural knowledge systems within discourse and textual comprehension processes.

Keywords: linguocultural code, interpretation, decoding, semiotics, linguoculture, literary text

Kirish. Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslik va semiotika fanlarida madaniyat belgi tizimlari majmui sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, madaniyat inson tomonidan yaratilgan va avloddan avlodga uzatiladigan ma'no tizimlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab semiotik makon hisoblanadi [1; 45–52-b.]. Madaniy ma'nolarni shakllantirish, saqlash va uzatish jarayoni esa madaniy kodlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli madaniy kod tushunchasi lingvokultural tadqiqotlarning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Madaniy kod deganda, odatda, muayyan madaniyat doirasida shakllangan va borliq hodisalarini konseptualashtirish, tasniflash va interpretatsiya qilishga xizmat qiluvchi belgilar, obrazlar va ramzlar tizimi tushuniladi. V.N. Teliya madaniy kodni jamiyatning dunyoqarashini shakllantiruvchi va unda mavjud tabiiy obyektlar, artefaktlar hamda ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarni aks ettiruvchi semiotik tizim sifatida talqin qiladi [1; 78-84-b.]. Olimning ta'kidlashicha, madaniy kodlar insonning borliq haqidagi bilimlarini strukturalashtirish va ularni belgi shaklida ifodalash imkonini beradi. Shu ma'noda madaniy kodlar insonning madaniy tajribasini saqlovchi va uzatuvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Y.S. Stepanov madaniyatni turli kodlar tizimidan tashkil topgan ko'p qatlamli semiotik makon sifatida tavsiflab, madaniy kodlarni madaniyatning asosiy strukturaviy birliklari sifatida ko'rsatadi [2; 135–140-b.]. Uning fikriga ko'ra, madaniy kodlar borliq elementlarini belgilash, ularni ma'no bilan to'ldirish va interpretatsiya qilishga xizmat qiladi. N.D. Arutyunova va V.V. Vorobyev ham madaniy kodlarni insonning kognitiv va madaniy faoliyatining mahsuli sifatida baholab, ularning milliy dunyoqarashni shakllantirishdagi rolini alohida ta'kidlaydilar [3; 96-101-b.]. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, madaniy kodlar orqali inson borliqni nafaqat idrok etadi, balki uni madaniy jihatdan talqin qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot lingvosemiotik, lingvomadaniy va

lingvokognitiv yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida lingvosemiotik tahlil metodi, kontekstual va interpretativ tahlil, lingvokognitiv tahlil, lingvomadaniy tahlil, badiiy matnlarni diskursiv tahlil qilish metodidan foydalanildi.

Empirik material sifatida O'tkir Hoshimov va Charlz Dikkens asarlaridan olingan fragmentlar tanlandi. Ushbu metodlar lingvomadaniy kodlarning matn semantikasi va interpretatsiyasidagi rolini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Matnni tushunish jarayoni zamonaviy lingvistika, semiotika va lingvomadaniyatshunoslikda murakkab interpretativ faoliyat sifatida talqin qilinadi. Ushbu jarayon faqat til birliklarining lug'aviy ma'nolarini anglash bilan cheklanmay, balki matnda mujassamlangan madaniy, kognitiv va aksiologik ma'nolarni dekodlashni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, lingvomadaniy kodlar matnni interpretatsiya qilishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi, chunki ular til birliklari orqali madaniy ma'nolarni uzatadi va qabul qiluvchi tomonidan ushbu ma'nolarni anglash imkonini beradi.

Semiotik yondashuvga ko'ra, har qanday matn muayyan kodlar asosida yaratiladi va uni tushunish ushbu kodlarni dekodlash jarayoni bilan bog'liq. Dekodlash jarayoni til belgilarida kodlangan axborotni qabul qiluvchining kognitiv va madaniy tizimi asosida interpretatsiya qilishni anglatadi. I.V. Arnold matnni tushunishni dekodlash jarayoni sifatida talqin qilib, unda lingvistik va ekstralingvistik omillar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [5; 54-60-b.]. Ushbu jarayonda lingvomadaniy kodlar muhim interpretativ vosita sifatida xizmat qiladi, chunki ular matnning chuqur semantik qatlamini tashkil etadi.

Lingvomadaniy kodlarning dekodlanishi qabul qiluvchining madaniy kompetensiyasi bilan bevosita bog'liq. Madaniy kompetensiya shaxsning muayyan madaniyatga oid bilimlari, qadriyatlarini, stereotiplari va konseptual tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Agar qabul qiluvchi matnda ifodalangan lingvomadaniy kodni tashkil etuvchi madaniy ma'nolar tizimiga ega bo'lsa, u matnni to'liq va adekvat interpretatsiya qila oladi. Aks holda, matnning asl ma'nosi to'liq anglanmasligi yoki noto'g'ri interpretatsiya qilinishi mumkin. Shu sababli lingvomadaniy kodlar matnni tushunish jarayonida semantik ko'prik vazifasini bajaradi.

Y.M. Lotmanning semiotik konsepsiyasiga ko'ra, tushunish jarayoni bir kod tizimidan boshqa kod tizimiga o'tish, ya'ni qayta kodlash jarayoni bilan bog'liq [4; 34-41-b.]. Olimning ta'kidlashicha, matnda ifodalangan ma'no qabul qiluvchi tomonidan uning individual va madaniy tajribasi asosida qayta interpretatsiya qilinadi. Ushbu jarayonda lingvomadaniy kodlar muhim rol o'ynaydi, chunki ular madaniy ma'nolarni bir madaniy tizimdan boshqasiga uzatish imkonini beradi. Natijada tushunish jarayoni faqat dekodlash emas, balki qayta kodlash, ya'ni madaniy ma'nolarni qabul qiluvchining kognitiv tizimi asosida rekonstruksiya qilish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvomadaniy kodlarning interpretativ funksiyasi, ayniqsa, badiiy matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy matn murakkab semiotik tizim sifatida turli lingvomadaniy kodlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu kodlar orqali muallif nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki muayyan madaniy ma'nolarni ham uzatadi. Masalan, frazeologik birliklar, metaforalar va ramziy ifodalar orqali muallif milliy mentalitet, qadriyatlar va madaniy stereotiplarni ifodalaydi. Ushbu birliklarning adekvat interpretatsiyasi esa faqat lingvomadaniy kodlarni to'g'ri dekodlash orqali amalga oshiriladi.

D.I. Dubrovskiyning axborot nazariyasiga ko'ra, har qanday axborot muayyan kod orqali mavjud bo'ladi va uni tushunish ushbu kodni dekodlash jarayoni bilan bog'liq [6; 122-129-b.]. Ushbu nuqtayi nazardan, lingvomadaniy kodlar madaniy axborotning asosiy tashuvchisi hisoblanadi. Matnda ifodalangan madaniy ma'nolar lingvomadaniy kodlar orqali uzatiladi va qabul qiluvchi tomonidan dekodlanadi. Ushbu jarayon davomida qabul qiluvchi matnda mujassamlangan madaniy ma'nolarni o'zining kognitiv va madaniy tizimi asosida interpretatsiya qiladi. Lingvomadaniy kodlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning implicit xarakterga egaligidir. Ko'pincha madaniy ma'nolar matnda bevosita ifodalanmaydi, balki lingvomadaniy kodlar orqali yashirin shaklda uzatiladi. Shu sababli matnni to'liq tushunish uchun nafaqat lingvistik bilim, balki madaniy bilim ham zarur bo'ladi. Lingvomadaniy kodlar matnning chuqur semantik qatlamini tashkil etib, uning to'liq interpretatsiyasini ta'minlaydi.

Lingvomadaniy kodlarning dekodlanish jarayoni lingvokognitiv mexanizmlar bilan ham bog'liq. Ushbu jarayonda qabul qiluvchi o'zining konseptual tizimi, fon bilimlari va madaniy tajribasiga tayanadi. Natijada lingvistik belgilar orqali ifodalangan madaniy ma'nolar qabul qiluvchining ongida rekonstruksiya qilinadi. Bu esa lingvomadaniy kodlarning matn interpretatsiyasidagi kognitiv asosini tashkil etadi.

Shunday qilib, lingvomadaniy kodlar matnni dekodlash va interpretatsiya qilish jarayonining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular matnda mujassamlangan madaniy ma'nolarni uzatish, saqlash va interpretatsiya qilish funksiyasini bajaradi. Lingvomadaniy kodlar orqali matnning chuqur semantik qatlamlari ochiladi va uning to'liq interpretatsiyasi ta'minlanadi. Shu sababli lingvomadaniy kodlar matn semantikasi va interpretatsiyasini shakllantiruvchi muhim lingvosemiotik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama. Lingvomadaniy kodlarning matnda namoyon bo'lishini aniq ko'rsatish uchun badiiy matnlar muhim empirik material hisoblanadi. Chunki badiiy matn milliy madaniyat, mentalitet va aksiologik tizimning eng to'liq verbal ifodasidir. Badiiy matnda lingvomadaniy kodlar nafaqat nominativ, balki konnotativ, aksiologik va pragmatik funksiyalarni ham bajaradi.

O'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning asarlarida o'zbek xalqining milliy mentaliteti, qadriyatları va madaniy stereotiplari lingvomadaniy kodlar orqali ifodalanadi: *"Ota duosi bilan odam kam bo'lmaydi."* [8; 214-b.]

Ushbu jumlada bir nechta lingvomadaniy kodlar mujassamlashgan:

Birinchidan, **"ota"** leksemasi o'zbek lingvomadaniyatida nafaqat biologik ota, balki oilaning ma'naviy tayanchi, autoritet va baraka manbai sifatida konseptuallashtiriladi. Bu yerda "ota" komponenti genealogik kod bilan bir qatorda aksiologik kodni ham ifodalaydi.

Ikkinchidan, **"duo"** leksemasi diniy-madaniy kodni ifodalaydi. O'zbek madaniyatida duo ilohiy baraka, himoya va muvaffaqiyat manbai sifatida talqin qilinadi. Shu sababli "ota duosi" birikmasi biologik harakat emas, balki metafizik himoya va madaniy-aksiologik qo'llab-quvvatlash ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, "kam bo'lmaydi" konstruksiyasi aksiologik va pragmatik kodni ifodalaydi. Bu yerda "kam bo'lmaslik" moddiy emas, balki ijtimoiy va ma'naviy muvaffaqiyatni anglatadi. Mazkur lingvomadaniy kodlar o'zaro integratsiyalashib, o'zbek xalqining quyidagi madaniy konseptini ifodalaydi:

OTA DUOSI → BARAKA → HAYOTIY MUVAFFAQIYAT

Bu yerda diniy kod, oilaviy kod va aksiologik kod o'zaro ta'sirlashib, kompleks lingvomadaniy kodni shakllantiradi. Ushbu birlikni tushunish jarayoni dekodlash mexanizmi orqali amalga oshiriladi. O'zbek lingvomadaniyatiga mansub bo'lgan subyekt ushbu birlikni to'liq dekodlay oladi, chunki ushbu kod uning kollektiv ongida mavjud. Boshqa madaniyat vakili uchun esa ushbu birlik qo'shimcha interpretatsiyani talab qiladi.

Ingliz adabiyotida ham lingvomadaniy kodlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, Charlz Dikens asarida quyidagi jumla uchraydi: *"He was the breadwinner of the family."* [7; 87-b.]

Ushbu jumlada "breadwinner" leksemasi alimental lingvomadaniy kodni ifodalaydi.

Denotativ jihatdan "breadwinner" non topuvchi shaxsni anglatadi, biroq lingvomadaniy jihatdan ushbu birlik quyidagi madaniy ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi:

- iqtisodiy mas'uliyat kodi
- gender kodi
- oilaviy ijtimoiy rol kodi

Ingliz lingvomadaniyatida "bread" konsepti hayotiy zarurat, yashash vositasi va iqtisodiy barqarorlik ramzi sifatida konseptuallashtirilgan. Shu sababli "breadwinner" leksemasi oddiy nominativ birlik emas, balki madaniy stereotipni ifodalovchi lingvomadaniy kod hisoblanadi. Bu yerda quyidagi konseptual model kuzatiladi:

BREAD → LIFE SUPPORT → ECONOMIC RESPONSIBILITY → SOCIAL STATUS

Mazkur lingvomadaniy kod alimental kod, ijtimoiy kod va aksiologik kodning integratsiyasi natijasida yuzaga keladi. Ushbu birlikni dekodlash jarayonida subyekt lingvistik ma'nodan tashqari madaniy ma'noni ham interpretatsiya qiladi. Bu esa lingvomadaniy

kodlarning matn interpretatsiyasidagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi misollar lingvomadaniy kodlarning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatadi:

- lingvomadaniy kodlar til birliklarida madaniy ma'nolarni mujassamlashtiradi;
- ular matnda integrativ semiotik birlik sifatida namoyon bo'ladi;
- lingvomadaniy kodlar turli madaniy kodlarning (diniy, alimantal, aksiologik, ijtimoiy) o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi;
- lingvomadaniy kodlarning interpretatsiyasi dekodlash va qayta kodlash jarayonlari orqali amalga oshiriladi;
- lingvomadaniy kodlar matn semantikasi va pragmatikasini shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari lingvomadaniy kodlar matn semantikasi va interpretatsiyasini shakllantiruvchi muhim lingvosemiotik mexanizm ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Телия В.Н. Семиотика культуры. – Москва: Наука, 2019. – 312 с. – С. 45–52.
2. Степанов Ю.С. Лингвокультура и семиотика. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – 368 с. – С. 112–140.
3. Арутюнова Н.Д., Воробьев В.В. Когнитивные основы лингвокультуры. – М.: Гнозис, 2018. – 256 с. – С. 96–101.
4. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Таллин: Александра, 1996. – 384 с. – С. 34–41.
5. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. – М.: Высшая школа, 2021. – 295 с. – С. 54–60.
6. Дубровский Д.И. Теория информации и семиотика текста. – М.: URSS, 2017. – 320 с. – С. 122–129.
7. Dickens Charles. Oliver Twist. – London: Penguin Books, 2003. – 489 p. – P. 87–89.
8. Hoshimov O'tkir. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2005. – 520 b. – B. 214–218.
9. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с. – С. 67–74.
10. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с. – С. 98–105.

OMON MATJON IJODIDA TABIAT VA INSON UYG'UNLIGI G'OYASINING BADIY TALQINI

Karimova Mavlyuda Samadovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchi

mavluda2557@gmail.com

ORCID 0009-0000-1420-2875

UDK 821.512.133.0

Annotatsiya. Maqolada Omon Matjonning tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik aks etgan asarlarida tabiat va inson, shoirning tabiat va inson uyg'unligi masalasini badiiy ifodalashda o'zbek mumtoz adabiyoti an'analariidan ijodiy foydalanish mahorati badiiy talqin etiladi. Omon Matjon ijodida tabiat va inson uyg'unligi masalasi qay darajada muhim ekanligini "Ochiq derazalar", "Yonayotgan daraxt", "Daraxtlar va giyohlar kitobi", "Yarador chaqmoq", "Quyosh soati", "Erkin havolarda", "O'rtamizda birgina olma", "Odamning soyasi quyoshga tushdi" kabi kitoblari, "Ikki gul", "Muallaq to'rg'ay", "Arslon va qafas", "Ajdar quduq" kabi doston va "Mezon", "Tunda oqargan daraxtlar", "Dinozavrlar qabristoni", "Sahro" kabi she'r nomlari misolida ham kuzatish mumkin. Shoir turli janrdagi asarlarida kitobxonga millatimizning har bir vakili tabiatni asrab-avaylashi, uni kelajak avlodga bezavol, bus-butun yetkazishi zarurligini badiiy obrazlar, hissiy-ta'siriy bo'yoqdorlik asosida singdiradi va ayrim muammolar yuzasidan o'z qalb tug'yonlarini, iztiroblarini tinglovchi aql va tuyg'u hukmiga havola etadi. Shoir tabiat va inson uyg'unligi qalamga olingan barcha asarlarida ularning mushtaraklik ildizlanirini topishga va kitobxonni jamiyat hamda kelajak avlod taqdiri uchun mas'ul bo'lishga da'vat etishiga oid muammolar ilmiy asosda tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: badiiylik, global muammo, ekologik muammo, tabiat va inson uyg'unligi, mumtoz adabiyot an'analari, ijodkor mahorati.

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE ISSUE OF HARMONY BETWEEN NATURE AND HUMANITY IN THE WORK OF OMON MATJON

Abstract. One of the global problems of the time we live in is the ecological problem. Omon Matjon took this issue seriously in his work. It is appropriate to study the poet's works, which reflect the harmony between nature and man, by dividing them into three groups:

1. Nature and man in his poetic works. 2. Artistic interpretation of the relationship between nature and man in the book "the cry of the hawk". 3. Works in which the poet creatively used the traditions of Uzbek classical literature to artistically express the issue of the harmony between nature and man. The importance of the issue of the harmony between nature and man in the work of Omon Matjon can also be understood from the titles of his works: "open windows" "burning tree" "the book of trees and plants" "wounded lightning" "sundial" "in the free air" "only one apple among us" "the shadow of man fell to the sun" epics such as "two flowers" "hanging torgay" "the lion and the cage" "dragon's well" and poems such as "the benchmark" "trees that turn white in the night" "dinosaur cemetery" "desert" are proof of our idea. In his works of various genres, the poet instills in the reader the need for every representative of our nation to preserve nature and pass it on to future generations in its entirety, based on artistic images and emotional and affective coloring, and refers to the judgement of the mind and heart that listen to the emotions and sufferings of his own soul on certain problems. In all his works, the poet writes about the harmony of nature and man. It encourages readers to find their roots in common and to take responsibility for the fate of society and future generations.

Keywords: Global problem, ecological problem, harmony between nature and man, the epic poem "the cry of the true bird", Uzbek classical literature, classical literary traditions, the work "the path of the bird", society, future generation.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida globallashib borayotgan ekologik muammolar yechimida xalqaro tashkilotlarning o'rni va faoliyati tobora rivojlanib bormoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, YUNISEFga a'zo bo'ldi va hamkorlik o'rnatdi. Bu xalqaro tashkilot mamlakatimizga maktab o'quvchilarini oziq-ovqat mahsulotlari, toza ichimlik suvi va turli vaksinalar bilan ta'minlashda uzoq muddatli dasturlar yaratdi. Orolbo'yi aholisiga ko'mak uchun maxsus dastur, "Orol dengizi: mintaqaviy va ekologik yordam loyihasi"[1] ishlab chiqilgan. Tabiyat va inson muammosining badiiy ijodda tasvirlanishi, ayniqsa, ijodkor idealida qayta sintez qilinishi va qator badiiy obrazlarning asar g'oyasiya umumlashtirilishdagi o'rni Omon Matjon ijodi misolida tahlilga tortiladi. Ayniqsa, shoirning "Ochiq derazalar", "Yonayotgan daraxt", "Daraxtlar va giyohlar kitobi", "Yarador chaqmoq", "Quyosh soati", "Erkin havolarda", "O'rtamizda birgina olma", "Odamning soyasi quyoshga tushdi" kabi kitoblari, "Ikki gul", "Muallaq to'rg'ay", "Arslon va qafas", "Ajdar quduq" kabi doston va "Mezon", "Tunda oqargan daraxtlar", "Dinozavrlar qabristoni", "Sahro" kabi asarlarida badiiy mukammallik ko'zga yaqqol tashlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda butun jahon miqyosida global muammolar paydo bo'lmoqda. Ular davrma-davr murakkablashib, jamiyat taraqqiyoti va inson salomatligiga zarar yetkazmoqda. Ekologik muammolar tobora chuqurlashib, ko'p sohalarni qamrab olmoqda. "Inson sivilizatsiyasining butun tarixi taassuf bilan qayd etish lozimki, urushlar tarixidan iborat. Ommaviy qing'in qurollari turlarining rivojlantirilishi shunga olib keldiki, bugungi kunda to'plangan qurol-yarog'lar zahirasi insoniyat va sayyoramizni bir necha marta yo'q qilishga yetarlidir. Urush va tinchlik muammosi bu – "zamonaning tarixiy jihatdan birinchi global muammosidir va hozirga qadar global muammolar ro'yxatida birinchi o'rinda turuvchi eng xavfli va orqaga surib bo'lmaydigan muammo bo'lib qolmoqda" [3]. Shuningdek, energetik muammolar, xom ashyo va oziq-ovqat muammosi, demografik muammo, terrorizm hozirgi zamon global muammolari sifatida insoniyatga xavf tug'dirib kelmoqda.

Badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi insonning ma'naviy kamoloti, dunyoviy muammolarga yechim topishida to'g'ri yo'l ko'rsatishdan iboratdir. Har bir shoir shu asosda o'z ijodiy pozitsiyasini belgilaydi. Jumladan, shoir Omon Matjon adabiy merosining qariyb yarmini yuqorida tilga olingan muammolar, ularning oqibatlarini sabab yuz bergan fojialar aks ettirilgan badiiy asarlar tashkil etadi. Ijodkorning "Ochiq derazalar", "Haqqush qichqirig'i",

“Daraxtlar va giyohlar kitobi”, “Qush yo‘li”, “Yarador chaqmoq”, “Yonayotgan daraxt” va boshqa asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi uzviylikning tub ildizlarini anglash, inson hayoti hamda borliq abadiyligining asl mohiyatini tushunish g‘oyasi talqin etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot manbahunoslik va matnshunoslik tahlil asosida shoirning nashr etilgan asarlari asosida tahlil qilinadi. Struktur-semantik tahlil asosida Omon Matjon asarlarining tuzilishiga ko‘ra janr xususiyatlari, mazmuniy farqlar o‘rganildi. Germenevtik tahlilda badiiy asar va lirik she‘rlari g‘oyaviy mazmuni nazarda tutilgan holda tahlil qilindi. Komparativ (qiyosiy) tahlilda Navoiyning “Lison ut-tayr” asari va afsonalar xalq og‘zaki ijodidagi variantlari bilan solishtirilgan holda o‘rganildi. Tarixiy-tipologik tahlilda shoir asarlarining davr tarixida tutgan o‘rni va ahamiyati tahlilga olindi.

Natijalar va muhokama. Shoir Omon Matjon adabiy merosidan o‘rin olgan millat va tabiat g‘oyalari uyg‘unligi talqin etilgan asarlarning yaratilish xususiyatiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Tabiat va inson mavzusidagi lirik asarlar.
2. “Haqqush qichqirig‘i” afsonalar turkumida inson va tabiat munosabatining badiiy talqini.
3. “Qush yo‘li” dostonida ekologik muammolarning ifodalanishi.

Omon Matjon ijodida tabiat va inson uyg‘unligi masalasi qay darajada muhim ekanligini badiiy asarlari nomlaridan ham anglash mumkin: “Ochiq derazalar”, “Yonayotgan daraxt”, “Daraxtlar va giyohlar kitobi”, “Yarador chaqmoq”, “Quyosh soati”, “Erkin havolarda”, “O‘rtamizda birgina olma”, “Odamning soyasi quyoshga tushdi” kabi kitoblari va “Mezon”, “Tunda oqargan daraxtlar”, “Dinozavrlar qabristoni”, “Sahro” kabi she‘r nomlari fikrimizning dalilidir. Shoir barcha ijod namunalarida o‘quvchiga millatimizning har bir kishisi atrof-muhitni ehtiyotlashi, uni kelajak avlodga asrab-avaylab yetkazishi muhimligini badiiy vositalar, tasviriy bo‘yoqdorlik asosida o‘z asarlariga singdiradi. Ba‘zi o‘rinlarda yurak tug‘yonlarini, iztiroblarini tinglovchi aql va tuyg‘u hukmiga havola etadi. Shoir tabiat va inson uyg‘unligi qalamga olingan barcha asarlarida ularning mushtaraklik ildizlarini topishga va kitobxonni jamiyat va kelajak avlod taqdiri uchun mas‘ul bo‘lishga da‘vat etadi.

Omon Matjon o‘z ijodiy pozitsiyasini ifodalashda inson va tabiat uyg‘unligi g‘oyasining o‘rni va ahamiyatini “Yonayotgan daraxt” she‘rida quyidagi misralar orqali yorqin ifodalab bergan:

Daraxtlar yonmoqda bugun dunyoda
Yonib o‘zgalarni uyg‘otmoq, ne baxt!
Do‘stlarimdir barcha yonayotganlar,
Do‘stlarimdir- YONAYOTGAN DARAXT!

Adabiyotshunos olim filologiya fanlari doktori, professor U. Normatovning “Yonib, o‘zgalarni uyg‘otmoq ne baxt” nomli maqolasida bu haqda shunday fikr bildirilgan: “O‘t-olov bo‘lib odamlar ko‘ngliga olov solish, odamlarni bedor etib, o‘zligini; o‘zi yashayotgan dunyoni, zamoni anglashga undash, xavotirlardan ogoh etish - shoirning ijoddagi bosh muddaosiga aylanadi”, degan fikrlari ham ushbu masala mohiyatiga qaratiladi [4].

Millat kelajagi, mamlakat ravnaqi, gullab-yashnashi insonning tabiatga bo‘lgan munosabati orqali ayon bo‘lishini shoir har bir she‘rida kitobxon shuuriga singdirib boradi. Tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbat zamirida milliy insoniy qadriyatlar yashiringanini “Qo‘shjonov domlaning uyida...” deb boshlanuvchi she‘rida keltirilgan quyidagi yakuniy bahddan anglash mumkin:

Ha, bugun ul o‘rik komil, cho‘ng,
Boqsang ko‘z shukuhga to‘ladi.
Endi huv tepaga tortilgan
Simlarni qirqsa ham bo‘ladi! [5]

Ma'lumki, komillik insonga xos fazilat hisoblanadi. O'rik shoxining mehr va parvarish tufayli unib-o'sib, mustahkam hamda serhosil novdaga aylanishi, aslida, ustoz shogirdlarining mukammallik darajasiga yetishiga ishoradir. Shogirdning kamolotida ustozning rag'bat va mehnatining hissasi beqiyosdir.

“Hamid Olimjon haqida qo'shiq” she'ri milliy adabiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan fidoyi shoir haqida bitilgan jasoratni kuylovchi mungli afsonaga o'xshaydi. H.Olimjonning o'zi yozgan dostonidagi Semurg' bilan uchrashuvi va qush unga Vatan taqdiri xavf ostida qolgani, qutqazish uchun yo'lga otlangani hikoya qilinadi. Ammo mashaqqatli va uzoq yo'lda qush ochlikdan sillasi quriganini aytib, dam olishga undaydi. Biroq jonkuyar shoir Semurg'ga o'z tanasini burdalab, oxirgi bo'lagigacha beradi. Eng song'ida yuragini yulib uzatadi, ilojsiz qush uni ham yeb, Vatan tuprog'iga qo'nadi:Yelkasida esa jonsiz shoiri hayhot...

Omon Matjon bu she'rni Vatan va xalq uchun jon fido etgan qahramonlarni olqishlash bilan shunday yakunlaydi:

She'r tugadi.
Davom etar lekin olamda
Oq va yashil g'ulg'ulali bahor ayyomi,
Bor bo'lsinlar yerda doim fidoyi jonlar,
Bor bo'l,davrim,shular hayotining davomi![6]

Shoirning “Qushlar”, “Tuyalar”, “Karvonlar”, “Dinozavrlar qabristoni”, “Orolga yordam”, “Qirchumoli” va boshqa ko'plab she'rlari tabiat, jamiyat va inson uchligini birlashtiruvchi milliyat tushunchasini ifoda etadi.

Xalqning o'lmas xazinasini bo'lgan folklor namunalari murojaat etish Omon Matjon ijodini mavzu va mazmun jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Bu jihatdan 40 afsonadan iborat “Haqqush qichqirig'i” turkumi xarakterlidir. Aslida, turkumdagi afsonalar soni o'ttiz to'qqizta. Shoir qirqinchi afsonani turkumga qo'shishni kitobxonga havola etgan: xohlang, o'zingiz yozing; xohlang, eshitganingizni qo'shib qo'ying, deb asarni o'zgacha xotimalaydi. Bu usul ham o'ziga xos ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, har bir inson xalq og'zaki ijodini qadrlashi va bilishi, o'z asari bilan uni boyitishi lozimligini eslatib turadi.

Omon Matjon ijodida inson va tabiat o'rtasidagi yaxlitlik, ruhiy hamda jismoniy bog'lanish folklor namunalari asosida yaratilgan “Haqqush qichqirig'i” turkumiga kiruvchi “Tabiatning ikkinchi siri” afsonasida yoritib berilgan: “Nega yashil tabiat bizga bolalikning mas'um va pokiza, hayotshukuh va uchqunli, beg'araz va orzumand paytlarini eslatadi?!

Bu – tabiatning ikkinchi siri! “Ushbu sirni bilish uchun afsonani oxirigacha o'qish va uqish lozim. Unda hikoya qilinishicha, bir qishloq o'rtasidan oqib o'tgan soy tufayli ikkiga bo'lingan. Eng muhimi, qishloq aholisi bir-biri bilan ahil emas. Ammo bolalar hamisha birga o'ynashadi. Bir kuni ular kechqurun qirdan qaytib, qishloq ham, tabiat ham kattalar tomonidan yakson qilinganini ko'ribdilar. Yaldo kechada qo'rqan bolalar ota-onasini ko'rish uchun o'z tilaklariga ko'ra bolakay soyga, qizaloq qizil gulga, qolganlari chinor, uylar, bog'lar va qushlarga aylanibdi. Bir oz o'tgach, qishloq ahli yig'ila boshlabdi. Avvalgi hayot iziga tushibdi. Afsona bayoni so'ngida shoir nega tabiat insonni o'z bag'riga chorlab, unga orom berishi haqida o'ylashga undaydi: – Nega shunday?! Nega bizni ona yer tabiati hadeb o'z bag'riga chorlab turadi?![7].

Shoirning ushbu kitobga kirgan deyarli barcha afsonalarni millat va milliyat tushunchasining biror jihati ularni bir-biri bilan uzviy bog'lab turadi. Jumladan, “Eng so'nggi xazina” afsonasida milliy g'urur hech qachon o'lmasligi, uni zo'ravonlik bilan yo'qotish mumkin emasligi badiiy-estetik jihatdan asoslab beriladi. Bu xususiyat esa asarga davriy va g'oyaviy hayotbaxshlik bergan. “Ikki gul”, “Muallaq to'rg'ay”, “Arslon va qafas”, “Ajdar quduq”, “Amudaryo iztirobi”, “Samandar” kabi afsonalarda tabiat va inson dueti badiiy talqin etilgan.

Omon Matjon ijodida o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari asosida yaratilgan ko'plab asarlar uchraydi. Tabiat va insonni o'zaro bog'lab turuvchi hamohanglik yorqin aks etgan asarlardan biri “Qush yo'li”dostonidir. Doston mutafakkir shoir Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoniga shakliy o'xshatma usulida yaratilgan. “Lison ut-tayr” murakkab irfoniy

doston bo‘lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlatini bayon etadi.”[8]

“Qush yo‘li” dostoni, 1990- yilning 1–27- dekabr sanalarida zamonaviy mavzuda bitilgan asardir. Dostonda majoziy obrazlar qushlar timsolida ifodalanadi. Asarga kiritilgan Alisher Navoiy va muallif obrazlari g‘oya va davrni bog‘lash vazifasini bajargan. Doston voqealari qushlarning shoir Alisher Navoiy tavalludiga munosib sovg‘a tayyorlash uchun O‘zbekistonning turli joylaridan uchib kelib, Navro‘z kunlarida G‘allaorol cho‘llari yaqinida-Baxmal tog‘lari pinjida yig‘ilib, o‘z ko‘rgan-kechirganlarini so‘zlashgani, sobiq rus istibdodi sabab ularning hayot kechirishi tobora og‘irlashib borayotgani haqidagi qushlar tilidan aytilgan iztiroblar badiiy ifoda etilgan. An‘anaga ko‘ra Hudhud qush ularni to‘plovchi va hasratlarini tinglovchi guruhboshi vazifasini bajargan.

Qushlar tomonidan aytilgan barcha mulohazalardan ayon bo‘ladiki, olaqarg‘a, kelganiga yuz yil bo‘lsa ham, ayyorligi bois davraning to‘ri hamisha uniki. Chumchuq ertaklarda aytilganidek, chaqimchiligi sabab olaqarg‘aning o‘ng qo‘liga aylangan. To‘ti esa taqlid zaboni sabab qafasda yashashga mahkum. Qirg‘ovul, Shunqor, Bulbul, Chag‘alay, Laylak va boshqa qushlar bog‘-rog‘lar yo‘qolib, paxtazorlar ko‘paygani, turli zaharli dorilar paxtazorga sepilgani bois ko‘p qushlar, hatto davlat yetakchilari chiqargan qushlarni otib tashlash haqidagi qaror ijrosiga ko‘ra qirilib ketayotgani haqidagi hasratlarini bayon etishadi. Jumladan, beozor Laylak shunday mulohaza qiladi:

Qarg‘a kelganiga yuz yildan oshdi,
Keldi-yu, Vatandan baraka qochdi.
Bizning boy o‘lkada qolay deb yashab,
Sovuq, och yerlarni qochdilar tashlab.
Ular bor-sig‘maymiz o‘z yurtimizga[9].

Asarda majoziy obrazlar vositasida badiiy ifoda etilgan g‘oya va voqealar silsilasi tuzumning yurt va millat boshiga solgan fojialarning kuchaygani va tuzumning barham topishi muqarrar ekanligiga ishoradir.

Xulosa va takliflar. Omon Matjon o‘zbek adabiyotida lirik she‘rlar, lirik-epik dostonlar, she‘riy qissa, doston-xronika, dramatik va ma‘rifiy doston, drama va fojia kabi turli lirik va epik janrlarda ijod qilgan shoir hisoblanadi. U qaysi turda qalam yuritganidan qat‘iy nazar, badiiy asarlarida millat va milliyatchilik g‘oyalarini, ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy sohalaridagi noxush holatlarga o‘z ijodiy pozitsiyasi asosida yondashdi. Tabiat va jamiyat, tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarda hamisha adolatli va muvozanat doirasidan chetga chiqmaslikka o‘z asarlari orqali da‘vat etdi. Ayniqsa, tabiatda me‘yoriylik o‘lchovining buzilishi global ekologik muammolarga olib kelayotganidan kitobxonni ogoh etdi. Buning isboti sifatida birgina 1990-yilda, ya‘ni bundan o‘ttiz besh yil avval yozilgan “Qush yo‘li” dostonini tilga olish kifoyadir. Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, Omon Matjon ijodida tabiat va inson uyg‘unligi muammosi badiiy asosda talqin etilgani bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg‘armasi” O‘zME,B-harfi. Birinchi jild. – Toshkent: Fan, 2000.
2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘z. Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning asarlari va ma‘ruzalaridan olingan fikrlar. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 154-bet.
3. Axmedova.M.A. Falsafa. Darslik. –Toshkent: Ta‘lim: 2018. -614-625-bet.
4. Matjon, O. Imon yog‘dusi. She‘rlar, dostonlar. Saylanma. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomli adab.va san.nash., 1995.-371-bet.
5. Matjon, O. Turkiy adabiyot durdonalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. -38-bet.
6. Matjon, O. Seni yaxshi ko‘raman. She‘rlar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomli adab. va san. nash., 1983.-186-bet.
7. Matjon, O. Haqqush qichqirig‘i (Qirq afsona). –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomli adab.va san.nash.,1979. 5-9-betlar.
8. Sirojiddinov Sh. Navoiyshunoslik. –Toshkent: Tamaddun, 2019.-170-bet.
9. Matjon,O. Qush yo‘li. She‘rlar va doston. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993.-42-bet.
10. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomli adab.va san.nash.,1989.-327-bet.

QORAQALPOQ ADABIYOTIDA EKOLOGIYA MAVZUSINING YORITLISHI**Marziyayev Janabay Kalibayevich**

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD

j.marziyayev@gmail.com

ORCID 0000-0001-6837-0102

UDK 82-2.82-32

Annotatsiya. Ushbu maqola qoraqalpoq adabiyotida ekologiya mavzusining badiiy talqini va uning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tadqiq etishga bag'ishlanadi. Maqolada badiiy asarning mazmuniy strukturasi – mavzu, muammo va g'oya uchligining o'zaro bog'liqligi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Muallif yozuvchining ijtimoiy voqelikka yondashuvi, xususan, Orol dengizi fojiasi va uning atrofidagi ekologik inqirozning inson taqdiriga ta'sirini badiiy obrazlar orqali ochib berish mahoratini tahlil qiladi. Ishning asosiy mazmuni quyidagilarni qamrab oladi. Ekologik muammolarning shunchaki tabiat tasviri emas, balki "hayotiy material" sifatida asar syujetiga ko'chishi. Inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga kelgan ma'naviy va ijtimoiy inqirozlarning badiiy asar markaziga olib chiqilishi. Yozuvchining ekologik halokat orqali insoniyatni hushyorlikka chorlashi va o'z qahramonlari harakati orqali ilgari surgan yechimlari.

Tadqiqot jarayonida qoraqalpoq adiblarning asarlari misolida ekologik tafakkur va badiiy mahorat masalalari qiyosiy o'rganilgan. Xususan, asar qahramonlarining tabiatga bo'lgan munosabati orqali ularning ichki dunyosi va estetik prinsiplari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, badiiy asar, mavzu, badiiy muammo, g'oya, qoraqalpoq adabiyoti, inson va tabiat, Orol fojiasi, badiiy obraz, syujet materiallari.

EXPLANATION OF THE THEME OF ECOLOGY IN KARAKALPAK LITERATURE

Abstract. This article is devoted to the study of the artistic interpretation of the topic of ecology in Karakalpak literature and its socio-philosophical foundations. The article theoretically substantiates the interconnection of the content structure of a work of art - the triad of theme, problem, and idea. The author analyzes the writer's approach to social reality, in particular, his skill in revealing the impact of the Aral Sea tragedy and the environmental crisis around it on human destiny through artistic images. The main content of the work includes the following. The transition of environmental problems into the plot of the work not just as a description of nature, but as "vital material". Bringing to the center of the work of art the spiritual and social crises caused by the disruption of the balance between man and nature. The writer's call to humanity to vigilance through ecological disaster and the solutions he promotes through the actions of his characters.

In the research process, issues of ecological thinking and artistic skill were comparatively studied using the example of the works of Karakalpak writers. In particular, the inner world and aesthetic principles of the characters of the work are analyzed through their attitude towards nature.

Keywords: ecology, work of art, theme, artistic problem, idea, Karakalpak literature, man and nature, Aral tragedy, artistic image, plot materials.

Kirish. Badiiy asarda yozuvchi ijtimoiy turmushdagi, inson taqdiridagi qandaydir masalalarni, muammolarni ko'taradi. Shu muammolarni ko'tarish orqali o'zining aytmoqchi bo'lgan fikrini, boshqacha aytganda g'oyasini beradi. Shuningdek, yozuvchi badiiy asar yaratish jarayonida muayyan yondashuvlar, tamoyillarni qo'llab-quvvatlaydi. Ularni o'zi yaratgan obrazlarga singdiradi. Demak, badiiy asarning mazmuni mavzudan, muammodan va g'oyadan iborat ekan. Mavzu – bu badiiy asarning aks ettiradigan hayotiy materiali, syujet materiallari [7: 20].

“Adabiyotshunoslik atamalarining ruscha-qoraqalpoqcha izohli lug'ati”da esa (Nukus, Bilim. 1994) bu terminga quyidagicha ta'rif beriladi: “Mavzu (yunoncha thema – bir narsa, predmet so'zidan). Badiiy asarning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi va muammosi. Badiiy asarning mavzusi nimalar haqida va qanday masalalar haqida fikr yuritishni aniqlab olishdir. Bularsiz sof badiiy asar yuzaga kelishi mumkin emas. Shuning uchun ham V.Katayev: “Barchadan ham oldin mavzu paydo bo'ladi, paydo bo'ladi-da yozuvchini azobga soladi” desa, R.Hamzatov esa “Mavzu deganing o'lgan baliq singari qornini yuqori qaratib hayotning betida yurmaydi. Mavzu chuqurda, oqim orasida” deb yozgan. Demak, davrning dolzarb masalalarini topa bilish badiiy asarga mavzu tanlashning asosiy shartlaridan biri va u g'oya bilan ham chambarchas bog'liq. Bularning barchasi yozuvchi mahoratidan, hayotiy va ijodiy tajribalaridan kelib chiqadi [1: 210].

XX asr adabiyotining rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, ekologiya muammosiga shu asrning birinchi yarmida yozuvchi-shoirilar ijodida deyarli maxsus soʻz yuritilmagan. Aksincha, bu oraliqdagi asarlarda Amudaryo va Orol toʻlqinlari togʻday, asov daryo, yoki “Bulqiysan, Amuvim, zuvlab bulqiysan, Pomir togʻlaridan bizga shoʻngʻiysan“ deb koʻtarinki ruhda kuylangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiy jarayondagi bu koʻtarinki ruhdagi tasvirlash 80-yillarning oʻrtalarigacha davom etgan. Amudaryoning suvi tortilib, Orolning qurib ketishi, uning oʻrniga hozirgidek sahro, choʻlistonlarning paydo boʻlishi hech kimning xayoliga ham kelmagan. 70-yillarning oxiri 80-yillarning boshida ekologik ofat umumxalq muammosiga aylangani kabi, shu davrlardan boshlab adabiyotning ham asosiy mavzularidan biriga aylana boshlaydi. Shoirlarimizning “Qaytarib ber mening Amudaryomni“ kabi elegiyali-yoʻqlov ruhi eng avval “Orol – yerning moviy koʻzi“, “Orolim – dardim mening“, “Dala sozlari“ kabi badiiy publitsistikada, ocherklarda oʻz aksini topgan.

Shunday qilib publitsistikada boshlangan ekologiya mavzusi keyinchalik T.Qayipbergenovning “Koʻzning qorachigʻi“, “U dunyodagi otamga xatlar” romanlarining, K.Allambergenovning “Yer monologi“, “Kuchuk va bola” hikoyalari bilan “Qushlar qaytgan kun” qissasi va “Daryo tortilgan yillar” romanining, Oʻ.Oʻteviyevning “Dengizning jini” qissasining va h.k. asarlarning asosiy mavzusiga aylandi.

Natija va muhokama. Qoraqalpogʻiston va Oʻzbekiston xalq yozuvchisi, Oʻzbekiston Qahramoni T.Qayipbergenov Orol, ekologiya muammosiga mustaqillik davridan oldinroq eʼtibor qaratgan badiiy soʻz ustasi. U oʻzining “Bir piyola sut“, “Orol – yerning moviy koʻzi“, “Umumiy dardimiz” nomli ocherk, esselari bilan Orol fojiasi muammosini butun dunyo miqyosiga olib chiqdi, hatto Moskvada syezd minbarlaridan chiqib soʻzlaydi.

T.Qayipbergenovning ocherk, esselaridagi ekologik muammo “Koʻz qorachigʻi” romanida keng epik masshtabda haqiqiy badiiy ifodasini topgan. “Koʻz qorachigʻi” romanida tasvirlanayotgan davrning kun tartibida turgan kadrlar siyosati, qoʻshib yozish va koʻzboʻyamachilikka, poraxoʻrlikka, odamlar turmushidagi yot odatlarga, ularning ongidagi eskilik sarqitlariga qarshi kurash masalasi soʻz etiladi. Romandagi voqealar oʻsha davrning, shuningdek bugungi kunning ham dolzarb masalasi, yer-suv, ekologiya masalalari bilan bevosita bogʻliq holda rivojlanib boradi. Halollik, pok vijdon – “Koʻz qorachigʻi”ning asosiy gʻoyaviy yoʻnalishi hisoblanadi.

Toʻgʻri, vijdon sofliqi uchun kurash 80-yillardagi ittifoqdagi xalqlar adabiyotining bosh mavzusi boʻldi. Oʻsha davrda yozuvchilar mamlakat hayotida avj olayotgan ayrim salbiy hodisalarni oʻz ijodida tasvirlab bera oldi. Masalan, mashhur qirgʻiz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Boʻronli bandargoh” (“Asrga tatigulik kun”), Nodar Dumbadzening “Abadiy qonun“, “Yuriy Bondarevning “Oʻyin” romanlari va shularga yaqin ruhda bir qancha gʻoyaviy-badiiy barkamol asarlar yaratilgan. Agar bu maʼlumotlarni qoraqalpoq adabiyotining misollari bilan toʻldiradigan boʻlsak, qoraqalpoq yozuvchilarining ham, xususan, O. Abdirahmanovning “Boʻsagʻa“, K. Mambetovning “Vijdon” romanlarini va bir qancha lirik asarlarini aytib oʻtish mumkin.

Tabiat, ekologiya muammosi mashhur yozuvchi T.Qayipbergenovning “Olamdan oʻtgan otamga xatlar” romanida ham oʻz aksini topgan. Yozuvchi Kenesbay Allambergenovning ijodida ham 70-yillardan beri inson va tabiat bosh mavzulardan biriga aylanib kelyapti. Masalan, uning qoraqalpoq va oʻzbek tilida nashr etilgan “Yer monologi“, “Kuchuk va bola“, “Qushlar qaytgan kun” qissa va hikoyalari shu mavzuga bagʻishlangan asarlardir. Yozuvchining “Yer monologi” hikoyasida inson va tabiat oʻrtasidagi murakkab va sirli munosabatning nozik jihatlari ochib beriladi. Hikoyadagi Ona-yer (Oq tepa), Oq qoʻzi, Xoʻjaboy obrazlari orqali yozuvchi inson va tabiat birligining, uygʻunligining qudratli kuchini koʻrsatishga intilgan. “Kuchuk va bola” (1976) hikoyasida esa bu birlikning buzilish oqibatlari, fojiaiy holatda koʻrsatilgan. “Qushlar qaytgan kun” (1979) qissasi yozuvchining ekologiya mavzusida bolalar hayotidan olib yozilgan eng muvaffaqiyatli qissasi hisoblanadi. Muallif qissada stixiyali tarzda tabiatning ashaddiy dushmani boʻlib olgan brakonyer Paraxat degan bolaning obrazini yaratish orqali yozuvchi inson va tabiatning oʻzaro aloqasi masalasini umumxalq, umuminsoniyatni, tinchlikni himoya qilish masalasi bilan mohirona uygʻunlashtira

olgan. Muallifning 1992-yili nashrdan chiqqan “Daryo tortilgan yillar” romanida ham ekologiya mavzusi yoritilib, unda daryo suvining qaytishi, tortilishiga katta poetik ma’no yuklagan. Bu orqali u o’tgan asrning so’nggi 20-30 yili ichidagi xo’jalikni boshqarishdagi buyruqbozlik, o’z holiga tashlab qo’yish, oqibatini o’ylamay rejalashtirishlarning oqibatida ekologik vaziyatning kelib chiqishi, odamlar ongining o’zgarishini, ya’ni ekologik vaziyatning ma’naviy hayotimizga ta’sirini ochib ko’rsatishni niyat qilgan. Muallifning bu niyati bosh qahramon Jalg’as Nazarovning obrazi orqali ochib beriladi.

Yozuvchi O.O’tevliyevning “Dengizning jini” qissasida (“Erkin Qoraqalpog’iston”, 2000-yil, №118-130) yosh o’smir Darmanboy, uning otasi O’ljaboy chol, kampir opasi obrazlari juda mohirona yozilgan. Ularning faqat o’ziga xos yurish-turishi, psixologiyasi, dunyoqarashi, intilish va istaklari, shunga mos uslubi, harakat va imkoniyatlari bor. Qissada tahqirlangan, odamlar tomonidan xo’rlangan tabiat, Orol dengizining ramzi sifatida tasvirlangan mifologik obraz – chol obrazi juda mohirona yaratilgan. Bola Darmanboy har qanday qiyin holatga tushganda yonida hozir bo’ladigan rivoyatlardagi Xizr ota kabi harakat qiladigan bu obraz povestning badiiy dunyosiga romantik va mifologik xususiyatlarni singdirib turadi.

Badiiy publitsistika va nasrdagi kabi ekologiya mavzusi she’riyatda ham bosh mavzuga aylandi. Bu muammo haqida she’r yaratmagan shoir kamdan kam desak mubolag’a bo’lmaydi. O’zbekiston va Qoraqalpog’iston xalq shoiri, O’zbekiston Qahramoni I.Yusupovning xalqqa keng tanilgan “Orol elegiyalari“, “Kemalar qabristonidagi arvo“, “Anemiya“, “Yaramaslar, sotdilar seni” va h.k. she’rlarini aytib o’tish mumkin. Shuningdek bir qancha poemalar ham shu mavzuga bag’ishlab yozilgan. Masalan, I.Yusupovning “Poseydonning g’azabi“, “Bulbul uyasi“, “Mangu buloq“, M.Seytniyazovning “Amudaryo – Orol mening umrimda“, Sh.Seytovning “Xayol oroli“, Sh.Ayapovning “Jon holati“, J.O’teniyazovning “So’loq yoyin“, O.Satbayevning “Orol dardlari“, B.Imanovning “O’lib borayotgan yarimjon Orol haqida” kabi poemalari paydo bo’ldi.

Bu mavzuda qalam tebratgan shoir Shovdirboy Seyitovning eng mashhur asari “Qoraqalpoq cholining xudoga qo’l yoyib yolvorishi” (yoki ko’pincha bu she’r “Qaytarib ber mening Amudaryomni” deb atalib yuribdi). Shoirning deyarli ko’pchilik publitsistik she’rlarining asosiy mavzusi – ekologiya masalasiga bag’ishlangan.

Sh.Seytov iste’dodli lirik shoir bo’lish bilan bir qatorda, syujetli she’rlar bilan birga keng ko’lamli, o’tkir konflikt va murakkab syujetli motivlarga ega “Sarkarda va tuyaga aylangan arxarlar haqida qo’biz bilan kuylanadigan ertak-doston..”, “Xayol oroli” kabi asarlarning ham muallifi bo’ldi. Bu asarlarda bizning o’tmish tariximiz bilan bugungi ekologik ayanchli ahvolimiz manzarasi keng tarzda aks etdi. Bu asarlarning dastlabkisi o’z teranligi, tarixiy voqelikni ertak-doston tarzida tasvirlash manerasi bilan ajralib tursa-da, keyingisi ham muallifning shaxsiy ijodiy tasavvurida pishib yetilgan xayoliy syujetlarga boy bo’lib kelib, ularning ikkisi ham bugungi Qoraqalpog’iston tabiatining xo’rlanishini, suvsizlik va cho’llik hukmron bo’lib borayotganligi ochiq tasvirlagan.

Shoir “Sarkarda va tuyaga aylangan arxarlar haqida qo’biz bilan kuylanadigan ertak-doston” poemasini o’zi Kavkaz tomonga borganida baland jar boshida turgan arxarga qo’yilgan haykalni ko’rib, u haqida mashina haydovchi yigitning hikoya-suhbatini eshitishdan, o’sha ertak-suhbatni poemaning syujeti qilib oladi. Bu afsonaga, ertakka ham o’xshash hikoyada haydovchi yigit bu faqat arxarga emas, balki bizning tariximizga, Kavkaz xalqlari bilan, umuman O’rta Osiyo, turkiy xalqlariga qo’yilgan yodgorlik ekanligini aytadi. Sababi, bu arxar no’g’aylar va yana boshqa birlashmalarda yashovchi turkiylarning bobolari bilan sirdosh bo’lgan. Ularning podasida turli-turli hayvonlar, goh ayyorligi ustun tulki, goh kuchli yo’lbars bilan arslon va yana boshqalar kun ko’rmay, baxtini ochmagan ko’rinadi. O’sha vaqtlari ular Quyoshni Xudo deb tushunib, o’sha Xudo baland cho’qqida tog’ boshida yasharmish. Shunda sarkarda (komandir, ko’chboshi, odanboshi arxar) arxar o’sha Kunga-Xudoga yetishning g’amiga kirib, necha-necha cho’qqilarni oshib, qorli chuqurlarni sakrab o’tsa ham, Kunga yeta olmagan. U yo’l bo’yi g’azabi kelganidan endi men baribir Kunga yetmay qo’ymayman, aytganimni qilmasa, o’sha Kun-Xudoning o’zini shoxiga ilib uloqtiraman, degan vatanparvarlik tashabbusiga urinadi. Poema-ertakda sarkarda arxarning

shu harakatlari juda jonli va tabiiy tarzda haqiqatga yaqinlashtirib tasvirlangan. Bunda eng birinchi o'rinda, albatta, sarkarda arxarning halollik, tenglik uchun olib borgan harakatlari yuqori turadi. Masalan:

Nege bunsha Kún-Quday,
 Bizdi qorlap oynaydi,
 ...Annan quwdiq, shıdadiq,
 Minnan quwdı – shıdadiq.
 ...Shıńǵa shapshıp baraman,
 Aytaman da arzımdı:
 “Dúze,-deymen-Barısıńdı!
 Quyash bolsań, Qudaylıq
 O'te,-deymen-Parızıńdı!
 Ań patshası Arıslan,
 Qay jurtqıstan qalısqan ?!
 Baz wáziri Túlki
 Jurday İnsap, Namıstan!
 Qazı etti qasqırdı,
 Sonman kórdik: “Bas! Qır!..”dı [10: 56].

Mana, bular, haqiqatan ham hayvon, jonivorlar orqali timsollab tasvirlangan haqiqiy insoniyat turmushining sirlari ekanligi birdan sezilib tursa-da, shoir uni to'g'ri tanlab topib, bularni o'zicha ritm va arxar tilidan tabiiy tarzda ko'rsatib yoritgani katta poetik vazifa bajarimoqda. Bularga qo'shimcha shoir arxarni, o'z vatanparvarlik vazifasini bajarish yo'lidagi oldinga intilishlari bilan ish-harakat, qimir-qimirlarini ham bunday tarzda jonlantirib bergan:

Ushqın atıp tuyaqtan,
 Minaw arxar kiyatqan,
 Tuqıllandı tuyaǵı,
 Almas qırlı qıyaqtan.
 ...Qarǵıp barar larlardan,
 Orǵıp barar jarlardan,
 Omırawdan ombalap,
 Irǵıp barar qarlardan.
 ...Kewli tasıp baratır,
 Hádden asıp baratır,
 Qıyadashtı bawırǵa
 Búklep basıp baratır...
 ...Kún joq bunda qarasa,
 Shıńnıń bası aq shatır.
 Appaq bolıp qar jatır,
 Otawı joq Quyashtıń.
 Qardıń ústi tap-taqır!
 ... “Kóz jasımdı kórmeseń.
 Quday atıń qurısın!”
 ...Shıqqan shıńı bipbiyik,
 Shaqı qara bult kiyip,
 Qudayına tullanıp,
 Páske qarar bultıyıp...
 “Jetsem dal-dal qılaman,
 Bunday nahaq Qudaydı...
 Taxtın emes, Quyashtı,
 Ildiremen shaxıma!..” [10: 85].

Mana, shu fikri bilan u Xudoning-Quyoshning qarq'ishiga uchrab, o'zi yashab turgan yerlardan – Kavkaz cho'qqilaridan ham quvilib, O'rta Osiyo haydab yuborilgan tuyalarga aylanib ketgan ko'rinadi. Bu, albatta, folklor ertak syujeti bo'lsa-da, insonni chuqur o'yg'a yetaklaydigan va vatanparvarlikka to'la, qolaversa, bizning xalqimiz tarixiga juda yaqin

yondosh haqiqat bo‘lib, o‘quvchilarga alohida ta‘sir etadi.

Asarning realistik syujetida shu ertak syujetni aytib bergan yigit shoirga qarata bunday deyishi ham o‘rinli tuyuladi:

Arqar emesdur,-
 Estelikdur bul ornatilgan argi babaña!
 Sen Qırımniñ qoshqarı ediñ,
 Turanniñ tüyesine aylanmasıñnan burın!..
 Endi bul jerlerge kurortqa keleseñ,
 Shólde óleseñ!
 Men ushın – tuwılğan jer,
 Sen ushın Kurort – Qırım!
 Sen bunı saǵımbaysañ, meni saǵınasañ,
 Men shóldi saǵınbayman, seni saǵınaman!
 Sebep men shólde tuwılmaǵanman, al sen Kavkazda,
 Qolǵa qol alısıp kórissek bazda,
 Biotok arqalı tanır qandı qan,
 Bildiñ be, tuwısqañ?! [10: 106-107].

Bu dialog tarzida aytilgan so‘zlar muallifning xayolidan topilsa-da, haqiqati ustun fikrlar bo‘lib, shoir yana ularni tog‘- toshlarni, hattoki bobolar mozoristonlarini gumburlatib o‘tirib, chuqur tebranishlar, o‘y to‘lg‘ovlari bilan qo‘biz ohangiga yaqin ohanglarda kuylagan, shuning uchun ham asar poetik salmog‘i ustun asar sifatida yuzaga kelgan. Asarda shoir tuya va bo‘talog‘ini yo‘qlagan arvona bilan bo‘taloqlarning bo‘zlagan ovozlari orqali bugungi cho‘llarning og‘ir holatlarini juda obrazli qilib tasvirlagan va ularning barchasining zamirida bugungi ekologik muammolar yotadi.

Bu poema ham lirik she‘r satrlari bilan yozilgan bo‘lib unda xayoliy voqealar tasvirlanadi. Shoir asarda folklorik tasvirlardan mohirona foydalanadi. Masalan, Sh.Seytov o‘z ijodida ko‘plab badiiy tasvir vositalari va troplardan foydalangan. Folklordagi kabi alliteratsiya, anafora, epifora, metaforik tasvirlar qo‘llanilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq adabiyotida ekologiya mavzusi shunchaki tabiat manzaralarini tasvirlash emas, balki milliy fojia va insoniyat taqdirini badiiy mushohada qilish darajasiga ko‘tarilgan. Sh. Seytov kabi ijodkorlar asarlarida qo‘biz ohanglari, folklorik an‘analar va metaforik obrazlar (masalan, bo‘zlagan arvona va bo‘taloq) orqali cho‘llarning bugungi og‘ir holati chuqur dard bilan ifodalangan. Muallifning badiiy xayoli va real hayot haqiqati uyg‘unlashgan ushbu asarlar, ekologik inqirozni nafaqat tashqi muhit buzilishi, balki inson ma‘naviyatining yemirilishi sifatida ham talqin etadi. Alliteratsiya, anafora va boshqa troplarning mahorat bilan qo‘llanilishi asarning poetik salmog‘ini oshirib, o‘quvchida tabiatga nisbatan mas‘uliyat hissini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ахметов С., Есенов Ж., Жәримбетов Қ. Әдебиеттаның атамаларының орысша-қарақалпақша түсіндірме сөзлігі. – Нөкіс: Билим, 1994, - 240 б.
- 2.Ахметов.С Қарақалпақ совет поэзиясы.– Нөкіс: Қарақалпақстан, 1988. – 300 б.
3. Ахметов.С Қарақалпақстан Республикасының жазыўшылары.–Нөкіс: Билим, 1995 – 276 б.
4. Аяпов А. Ш.Сейитовтың публицистикалық лирикасында лирикалық қаҳарман хәм оның руўхый дүньясы. // ӨзРИАҚБ хабаршысы, №1, 2009. – 116 б.
5. Бекбергенова З. Қарақалпақстан Республикасы жазыўшылары. -Ташкент: Экстремумпресс, 2011. - 240 б.
6. Досымбетова А. Ш.Сейитов лирикасында көркем форма. Канд.дисс. Нөкіс, 2008. – 176 б.
7. Жәримбетов Қ. Әдебиеттаныўдан сабақлар. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2012. – 116 б.
8. Сейитов Ш. Жоллар. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1987. – 156 б.
9. Сейитов Ш. Қарақалпақ ғаррысының кудайға қол жайып жалбарыныўы. // Әмиўдәрья. - Нөкіс, 1990. -№5, -Б. 6.
10. Сейитов Ш. Қыял атаўы. – Нөкіс: Қарақалпақстан,1995. – 86 б.
12. Сейитов Ш. Таўлардан саза. -Нөкіс, Қарақалпақстан, 1970. – 115 б.

**EKOLOGIK DISKURS MATNLARINI TIPOLOGIZATSIYALASHNING
METODOLOGIK ASOSLARI****Shahlo Naraliyeva,**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Qozog'iston Respublikasi, Jumabek Tashenev nomidagi universitet,
Xalqaro hamkorlik va akademik mobillik markazi boshlig'i.naraliev04@gmail.com

ORCID 0000-0002-5064-2605

UDK 81'42:81'22:504

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan ekolinguistika doirasida ekologik diskurs matnlari korpusini tipologiyalashning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Ishda "tipologiya" va "klassifikatsiya" tushunchalarining lingvistik maqomi o'zaro qiyoslanib, ularning funksional chegaralari tizimli belgilab berilgan. Tadqiqot jarayonida X. Isenbergning matn tipliligi nazariyasi va V.I. Karasikning institutsional diskurs konsepsiyasiga tayanilgan. Shunga ko'ra, o'zbek tilidagi ekologik yozma matnlar korpusi ilk bor kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, adresat ko'lam va abstraktsiya darajasiga ko'ra to'rtta asosiy tipga ajratilgan: normativ-huquqiy, ilmiy-taraqqiyotga yo'naltirilgan, instruktiv-didaktik va axborotni umumlashtiruvchi matnlar. Maqolada ushbu tiplarning har biriga xos lingvopragmatik xususiyatlar va ularning ekolinguistik tizimda tutgan o'rni batafsil yoritilgan. Tadqiqotda olingan natijalar ekologik bilimlarni jamiyatga to'g'ri transformatsiya qilish mexanizmlarini chuqur tushunishga hamda oliy ta'lim tizimining filologik kurslarida matn tahlilini konseptual modellashtirishga xizmat qiladi. Ishning xulosalari va amaliy takliflari sohaviy yashil lug'atlar tuzish hamda ekologik media-matnlarni tahrir qilish amaliyotida keng qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ekolinguistika, ekologik diskurs, matn lingvistikasi, tipologiya, klassifikatsiya, tipologik dilemma, normativ-huquqiy matn, ilmiy-taraqqiyot matni, instruktiv-didaktik matn.

Abstract. This article investigates the theoretical and methodological foundations of typologizing ecological discourse texts within the framework of ecolinguistics, one of the modern directions in linguistics. The paper compares the linguistic status of the concepts "typography" and "classification" and defines their functional distinctions. The research relies on H. Isenberg's theory of text typability and V.I. Karasik's concept of institutional discourse. Accordingly, for the first time, the corpus of ecological written texts in the Uzbek language has been categorized into four main types based on their communicative-pragmatic features, audience scope, and level of abstraction: normative-legal, scientific-developmental, instructive-didactic, and information-summarizing texts. The article thoroughly explains the linguo-pragmatic characteristics inherent in each of these types and their role in the ecolinguistic system. The results obtained contribute to understanding the mechanisms of transforming ecological knowledge into society and serve to conceptually model text analysis in philological courses. The conclusions and practical recommendations can be widely used in composing specialized green dictionaries and editing environmental media texts.

Key words: ecolinguistics, ecological discourse, text linguistics, typology, classification, typological dilemma, normative-legal text, scientific-developmental text, instructive-didactic text.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik o'zining antropotsentrik va kognitiv paradigmalari doirasida til va atrof-muhit, inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yangicha tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi. Ana shunday konseptual yo'nalishlardan biri – ekolinguistikadir. Ekologik diskurs matnlari insoniyatning ekologik xavfsizlik, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga oid tafakkurini lisoniy vositalar orqali namoyon etadi. Biroq ushbu sohadagi matnlarning haddan tashqari xilmaxilligi va tartibsiz majmuasi ularni izchil tizimga solish, ya'ni tipologizatsiyalash muammosini keltirib chiqarmoqda.

Inson turli tillarni eshitganda yoki o'zlashtirish jarayonida, avvalo, ularda tashqi o'xshashliklarga hamda so'zlarning grammatik tuzilishi, asos (negiz) yaralishi va gapda so'zlarning o'zaro bog'lanish usullariga e'tibor qaratadi. Ana shu belgilar tillarni hamda ular tarkibidagi matn shakllarini tipologik jihatdan o'rganishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tillarni va matnlarni tasniflash jarayonida, odatda, genetik, morfologik va struktur tasniflash tamoyillariga tayaniladi. Tillar o'rtasidagi genetik munosabatdan qat'i nazar, ularni yaqinlashtiruvchi yoki, aksincha, farqlovchi lisoniy omillarni o'rganish bilan lingvistik tipologiya shug'ullanadi.

Zamonaviy lingvistik manbalarda qayd etilishicha, tillar tipologiyasi ilmiy yo'nalish sifatida, avvalo, G'arb tilshunosligida F. Schlegel asarlari bilan bog'liq holda shakllangan. Keyinchalik A.W. Schlegel, W. Humboldt, H. Steintal, A. Schleicher, E. Sapir, V. Skalička,

A. Martinet, F.F. Fortunatov, I.I. Meshaninov, B. Uspenskiy, Y.V. Rojdestvenskiy, V.N. Yarseva kabi olimlar tomonidan tipologik tadqiqotlar rivojlantirilgan [1].

Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlarining tilshunoslikka oid merosi tahlil etilganda, ularning ko‘plab asarlarida lingvistik tipologiyaga daxldor qator ilmiy g‘oyalar mavjud ekani kuzatiladi. Xususan, IX–XV asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod qilgan Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning dastlabki unsurlari namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari xam lingvistik tipologiyaga tegishli fundamental manba bo‘lib, unda genetik jihatdan bir-biridan farqlanuvchi tillardagi semantika va qisman fonetika tizimli ravishda qiyoslangan [2].

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda A. Abduazizov, J. Bo‘ronov, Q. Toymetov, M. Irisqulov kabi olimlar tipologiya masalalari ustida fundamental ilmiy izlanishlar olib borganlar [1]. Bugungi kunda ushbu boy nazariy tajribani ekologik diskurs matnlari korpusini tizimlashtirishga tatbiq etish, sohaning lingvistik qonuniyatlarini ochib berish tadqiqotning bosh maqsadini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ekologik diskurs matnlarini tizimlashtirish uchun, eng avvalo, “tipologiya” va “klassifikatsiya” tushunchalarining funksional chegaralari metodologik asos sifatida belgilab olindi. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu atamalarning sinonim sifatida ishlatilishi metodologik noaniqlikka olib keladi.

Falsafiy va umumilmiy manbalarda “klassifikatsiya” atamasi bilimni tizimlashtirishning umummetodologik shakli sifatida talqin qilinadi [3]. Klassifikatsiya – bu til birliklarini muayyan formal yoki semantik belgilar asosida guruhlash jarayoni bo‘lib, u mantiqiy bo‘lish qonunlariga (bo‘lish asosining yagonaligi, sinf a‘zolarining o‘zaro istisnoligi va kesishmasligi tamoyillari) tayanadi.

“Tipologiya” esa falsafiy adabiyotlarda obyektlar tizimini tip, ya’ni umumlashtirilgan va ideallashtirilgan model asosida guruhlashga tayanadigan ilmiy bilish usuli sifatida qaraladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu atama ham obyektlarni umumlashma model yordamida guruhlashtiruvchi ilmiy metod, ham tillarni har tomonlama taqqoslash asosida aniqlovchi tilshunoslik bo‘limi sifatida izohlanadi [4].

M.S. Kagan tipologizatsiyani klassifikatsiyaning mantiqiy davomi sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, klassifikatsiya geterogen (turli jinsli) obyektlar majmuasini sifat jihatdan bir xillik darajasiga olib kelsa, tipologizatsiya aynan shu darajada obyekt boshliqlarining modifikatsion qatorlarini shakllantiradi [5]. Shu sababli, tadqiqotda bayonning aniqligini ta‘minlash maqsadida:

- “**Tipologizatsiya**” atamasi obyektlarni ajratish va guruhlash jarayonini;
- “**Tipologiya**” atamasi esa aynan o‘sha tipologik tahlil natijalarini anglatish uchun qo‘llanildi.

Metodologik asos sifatida A.Y. Moskvitinning “tipologiyani tilni bilish jarayonida shakllanadigan, mustaqil ontologik maqomga ega bo‘lgan ilmiy model” sifatida tan olish tamoyiliga tayanildi [6]. Shuningdek, I.A. Golosenko [7] va A.G. Shubakovning [8] tipologiyani interdissiplinar metod va universal bilish modeli sifatida tushunish haqidagi qarashlari integratsiya qilindi.

Tillarni va diskurslarni chog‘ishtirma o‘rganish jarayonida o‘rganuvchi ongida ona tili va o‘zlashtirilayotgan til tizimlari o‘zaro to‘qnashadi. Bunda til o‘zlashtirishni yengillashtiruvchi *fasilitatsiya* [9] hamda lisoniy tizimlar o‘rtasidagi muntazam ta’sirdan tug‘iluvchi *interferensiya* [10] hodisalari ekologik matnlarni sotsiopragmatik modellashtirishning quyi parametrlari sifatida qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda “diskurs” tushunchasining ta’rifi va uni tipologik jihatdan tasniflash masalasida yagona va umumiy yondashuv mavjud emas. L.M. Bondareva diskurslarning tipologiyasini dioxotomik mezonlar (og‘zaki/yo‘zma, dialogik/monologik, fiksional/nofiksional, obyektiv/subyektiv) asosida shakllantirgan [11]. T.A. van Dijk esa diskurslarni kognitiv va ijtimoiy kontekst asosida tahlil qilib, ularning mafkuraviy va madaniy funksiyalarini ochib berdi [12].

O'zbek tilshunosligida diskurs matnlari tipologiyasi masalalarini ilmiy tadqiq etish Sh. Safarov nomi bilan bog'liq bo'lib, u diskursning sotsiopragmatik va kognitiv tabiatini tizimli asoslab berdi [13]. Dialogik diskurs doirasidagi sotsiopragmatik jihatlar L.R. Raupova [14], monologik diskurs Sh. Gulyamova [15], mediadiskurs D.M. Teshaboyeva va N.M. Ibragimova, yuridik diskurs N. Jumaniyozova [16] tomonidan muvaffaqiyatli o'rganildi. N. Turniyozov diskurs aksariyat hollarda murakkab sintaktik qurilmalarning o'zaro bog'lanishidan tashkil topishini va u tilning amaliy voqelanishi ekanini ta'kidlaydi [17]. G'. Mirsanov [18] va U. Bo'riyeva [19] tadqiqotlari ham diskursiv tahlilning o'zbek tilshunosligidagi modellarini boyitdi.

Ekologik diskurs matnlarini tipologlashtirish va ularning lingvopragmatik tasnifi

Ekologik diskurs matnlarini tipologizatsiyalash bevosita matn tilshunosligi va uning mezonlari bilan bog'liq murakkab jarayondir. Matn – inson fikrining og'zaki yoki yozma shakldagi eng universal voqelanishi bo'lib, u mazmuniy va strukturaviy jihatdan tugallangan yaxlitlikni anglatadi. M. Qurbonova va M. Yo'ldoshevlar g'oyalariga ko'ra, matnlar hajmiga ko'ra minimal (masalan, konseptual mazmun tashuvchi "Bahor..." so'zining bir o'zi) va maksimal (keng ko'lamli voqealarni qamrab oluvchi makromatnlar) tiplarga bo'linadi [22].

O'zbek tilshunosligida matnning sintagmatik, pragmatik va antropotsentrik tabiati A. Mamajonov [24], M. Toxsanov, M. Hakimov [25], E. Qilichev [26] va D. Xudoyberganova [27] kabi olimlar tomonidan tizimli o'rganilgan bo'lib, matnni axborot uzatuvchi statik birlik emas, balki so'zlovchining kognitiv-semantik va kommunikativ strategiyasi mahsuli sifatida talqin etish asoslangan.

Ekologik matnlar tipologizatsiyalanayotganda nemis tadqiqotchisi H. Isenberg tomonidan ilgari surilgan "tipologik dilemma" va matn tipliligiga qo'yiladigan to'rtta asosiy nazariy talabga tayanish ilmiy izchillikni ta'minlaydi [23]:

Bir xillik (Homogeneity): Matn tiplari faqat bitta klassifikatsion belgi asosida aniqlanishi lozim.

Monotipiklik (Monotypy): Bitta matnning bir vaqtning o'zida kesishuvchi turli guruhlarga kiritilmasligi.

Tipologik qat'iylik (Rigidity): Ikkiyoqlamalikka faqat matn ko'p qatlamli pragmatik talqinga ega bo'lgan holatdagina yo'l qo'yilishi.

To'liqlik (Completeness): Belgilangan sohadagi (bizning holatda ekolingvistikadagi) barcha matnlar korpusini qamrab olish.

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekistondagi ekologik va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid yozma matnlar manba sifatida tanlab olindi. Olib borilgan kommunikativ-pragmatik tahlillar natijasida, ekologik diskurs matnlari kasbiy yo'naltirilganlik darajasi, abstraksiya ko'lemi va adresatlar xarakteriga ko'ra to'rtta asosiy tipga ajratildi.



1-chizma. Ekologik diskurs matnlarining tasnifiy modeli.

Aniqlangan matn tiplarining tavsifi va lingvistik xususiyatlari:

1. **Normativ-huquqiy ekologik matnlar:** Ekologik diskursning huquqiy va institutsional asosini tashkil etadi. Bu turga ekologiyaga oid qonunlar, kodekslar, davlat dasturlari, xalqaro konvensiyalar, kelishuvlar va texnik me'yoriy hujjatlar kiradi. Tili rasmiy, qat'iy reglamentlangan va imperativ xarakterga ega.

2. **Ilmiy-taraqqiyotga yo'naltirilgan ekologik matnlar:** Ekologiya sohasidagi yangi ilmiy yutuqlarni, innovatsiyalarni aktualizatsiya qiladi. Ular sof ilmiy (monografiyalar, dissertatsiyalar, akademik ma'ruzalar) hamda ilmiy-ommabop (maxsus jurnallardagi tahliliy

maqolalar) quyi tiplariga bo‘linadi. Bu matnlar chizmalar, formulalar va terminologik tizimning murakkabligi bilan farqlanadi.

3. **Instruktiv-didaktik ekologik matnlar:** Bir tomondan, ekologik bilimlarni yosh avlodga uzatishga xizmat qilsa (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari), ikkinchi tomondan, inson va tabiat (yoki texnika) o‘rtasidagi amaliy munosabatni tartibga soladi (ekologik xavfsizlik bo‘yicha yo‘riqnomalar, foydalanish tavsiyalari).

4. **Axborotni umumlashtiruvchi ekologik matnlar:** Nazariy va amaliy ekologik bilimlarni kalit so‘zlar, grafiklar, jadvallar shaklida ixcham taqdim etadi. Bunga ekologik ensiklopediyalar, sohaviy lug‘atlar, ekologik kataloglar va davlat ekologik reyestrlari kiradi.

Muhim qonuniyat: Ushbu to‘rttala maxsus matn tipi iyerarxik zanjirni tashkil etadi: kasbiy yo‘naltirilganlik va abstraktsiyalashuv darajasi yuqoridan pastga qarab kamayib borsa, adresatlar (kitobxonlar) ko‘lami aksincha ortib boradi. Masalan, ilmiy-taraqqiyot matnlari faqat soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, axborot-umumlashtiruvchi va didaktik matnlar keng omma uchun ochiq va tushunarlidir.

Sotsiologik tahlil nuqtayi nazaridan V.I. Karasik diskursni ikki yirik turga ajratadi: shaxsga yo‘naltirilgan (personal) va statusga yo‘naltirilgan (institutsonal) diskurs [20]. Shaxsga yo‘naltirilgan diskursda muloqot kodi qisqa va kontekstga bog‘langan bo‘ladi (*restricted code*). Statusga yo‘naltirilgan diskursda esa muloqot ishtirokchilari belgilangan ijtimoiy institut qoidalari doirasida harakat qiladilar va fikr to‘liq, aniq ifodalanadigan kengaytirilgan koddan (*elaborated code*) foydalanadilar.

M.N. Kojina va M.P. Kotyurovalarning funksional uslublar (ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik va h.k.) haqidagi nazariyalari hamda L.M. Alekseyeva va S.L. Mishlanovalarning bilim darajasiga ko‘ra (naiv, amaliy, kasbiy, ilmiy) tasniflari [21] shuni ko‘rsatadiki, diskurs turlari o‘rtasidagi chegaralar shartlidir. Ekologik diskurs o‘z mohiyatiga ko‘ra ham personal (insonning tabiatga individual munosabati), ham institutsonal (ekologik qonunchilik, xalqaro dasturlar) xususiyatga ega gibriddir.

Xulosa va takliflar. Ekologik diskurs matnlarini tipologizatsiyalashning metodologik asoslarini o‘rganish natijasida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Linguistik tadqiqotlarda “tipologiya” va “klassifikatsiya” atamalarini qat‘iy farqlash lozim. Klassifikatsiya matnlarni tashqi formal belgilari bo‘yicha statik guruhlashtirsa, tipologizatsiya ularning sotsiopragmatik, kognitiv va funksional tabiati hamda “ideal model” tamoyillariga tayanuvchi dinamik tadqiqot metodidir.

2. Ekologik diskurs o‘z mohiyatiga ko‘ra universal va gibriddir xarakterga ega bo‘lib, unda ham personal, ham institutsonal muloqot qonuniyatlari amal qiladi. Bu esa ekologik matnlarni faqat bitta lingvistik sathda emas, balki kutubxona-informatsion va kognitiv modellar asosida baholashni taqozo etadi.

3. X. Isenbergning matn lingvistikasi prinsiplari asosida ilk bor o‘zbek tilidagi ekologik yozma matnlar tizimlashtirilib, to‘rtta konseptual tipga ajratildi hamda ularning lisoniy va funksional xususiyatlari belgilandi.

Amaliy takliflar: Tadqiqotda ishlab chiqilgan ekologik matnlar tipologiyasi modelidan oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida “Ekolinguistika”, “Diskurs tahlili” va “Matn lingvistikasi” fanlarini o‘qitishda o‘quv-uslubiy manba sifatida, shuningdek, ekologik media-matnlarni tahrir qilish hamda maxsus sohaviy “yashil” lug‘atlarni tuzish amaliyotida keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasi. – T.: O‘qituvchi, 1973. – B. 283.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent: O‘zME, 2000. – B. 735.
3. Klassifikatsiya nima? Klassifikatsiya tushunchasi va uning turlari. URL: <https://uz.wikipedia.org/>
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tipologiya. URL: <https://izoh.uz/word/tipologiya>
5. Kagan M. S. Sistemnoye rassmotreniye osnovnix sposobov gruppirovki // Filosofskiy i sotsiologicheskiye issledovaniya. – Vip. XVII. – L.: Izd-vo LGU, 1977. – S. 24–35.
6. Moskvitin A. Yu. Tipologiya v sotsialnom poznanii: filosofsko-metodologicheskiy analiz. – Vladivostok: Izd-vo Dalnevost. un-ta, 2001. – S. 139.

7. Golosenko I. A. Konstruktivnaya tipologiya v sovremennoy burjuaznoy sotsiologii // Problemi metodologii sotsialnogo poznaniya / pod red. V. A. Shtoffa. – L.: Izdatelstvo LGU, 1985. – S. 166–180.
8. Shubakov A. G. O naznachenii tipologii // Voprosi metodologii sovremennogo nauchnogo znaniya. Obshchiye voprosi metodologii nauki. – M.: Misl, 1974. – Vip. 1. – S. 45–66.
9. Ashurova Z. Pedagogning fasilitatorlik faoliyati ta'lim sifatini kafolatlash garovi // Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar. – 2021. – B. 223-225.
10. Haydarov J.B. Koreys tilshunosligida interferensiya tushunchasi va uning xususiyatlari // Journal of Education, Ethics and Value. Vol. 3, No. 12, 2024.
11. Bondareva L. M. K probleme tipologii diskursa // Osnovniye problemi sovremennogo yazikoznaniya. – Astraxan: Izd-vo SRV, 2007. – S. 6–9.
12. Deyk T. A. van. Diskurs i vlast: Reprezentatsiya dominirovaniya v yazike i kommunikatsii. – Moskva: Librokom, 2015. – S. 352.
13. Safarov Sh. Pragmalinguistika. – Toshkent: O'zME, 2008. – B. 318.
14. Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri... diss. avtoref. – T.: 2012.
15. Gulyamova Sh. Monologik diskursdagi qo'shma gaplarning sotsiopragmatik talqini: Filol. fan. falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2022. – B. 58.
16. Jumaniyozova N. Yuridik diskurs lingvistik tadqiqot obyekti sifatida // "So'z san'ati" xalqaro jurnali. 4-jild, 1-son. – T., 2021. – B. 184-187.
17. Turniyozov N. Sintagmatik munosabat va diskurs shakllanishiga doir ba'zi qaydlar // Xorijiy filologiya. – № 4, 2016. – B. 10-13.
18. Mirsanov G'. O'zbekistonda pragmalinguistika taraqqiyoti // Xorijiy filologiya. – T., 2016. № 3. – B. 78.
19. Bo'riyeva U. Diskursiv tahlilda voqelangan to'liqsiz gaplar va ularining sotsiopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. falsafa d-ri diss. – T., 2022. – B. 148.
20. Karasik V.I. O tipax diskursa // Yazikovaya lichnost: institutsionalniy i personalniy diskurs. – Volgograd: Peremena, 2000. – S. 5–20.
21. Alekseyeva L. M., Mishlanova S. L. Meditsinskiy diskurs: teoreticheskiye osnovi i prinsipi analiza. – Perm: Izd-vo Permskogo universiteta, 2002. – S. 200.
22. Kurbanova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – T.: Universitet, 2014. – B. 114.
23. Isenberg X. O predmete lingvisticheskoy teorii teksta // Novoye v zarubejnoj lingvistike. – M.: Progress, 1978. – Vip. 7. – S. 43–56.
24. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent: ToshDPI nashri, 1989. – B. 62.
25. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1994. – B. 168.
26. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2004. – B. 97.
27. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 132.
28. Bozorov O. O'zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Farg'ona, 2004. – B. 12.

IKKI TILLI O'QUV LUG'ATLARIDA MAQOLLAR TALQINI

Nashirova Shaxnoza Buriyevna

Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti (PhD) dotsenti

shakhnozka08@gmail.com

ORCID 0009-0002-1998-2879

UDK 413.232:398.9(045)

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ikki tilli o'quv lug'atlarining eng nozik va murakkab qatlami maqollar talqini masalalarini tahlil qilishga qaratilgan. Maqollar shunchaki so'zlar jamlanmasi emas, balki millatning ma'naviy xazinasi va o'ziga xos "madaniy kodi"dir. Shu bois ularni xorijiy til o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan lug'atlarda aks ettirish oddiy tarjimadan ko'ra ko'proq mahorat talab qiladi. Maqolada ingliz-o'zbek lug'atshunosligi tajribasiga tayanilgan holda, paremiologik birliklarni berishning eng maqbul yo'llari izlanadi. Shuningdek, maqollarni lug'atda berishda faqatgina ekvivalent yoki analog tanlash bilan cheklanib qolmaslikni taklif etiladi. Tadqiqotda madaniy tafovutlar tufayli yuzaga keladigan "ma'no bo'shliqlari"ni to'ldirishda tavsifiy (deskriptiv) usullarning o'rni va samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, o'quvchi maqolning nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki uning zamiridagi ijtimoiy kontekstni ham his qilishi uchun lug'at maqolalarini shakllantirishning yangicha yondashuvi ilgari suriladi.

Tayanch so'zlar: paremiologiya, o'quv lug'atshunosligi, madaniy kod, leksikografik interpretatsiya, semantik analogiya, konnotatsiya.

**INTERPRETATION OF PROVERBS IN BILINGUAL EDUCATIONAL
DICTIONARIES**

Abstract. This study is aimed at analyzing the issues of interpreting proverbs, the most delicate and complex layer of bilingual educational dictionaries. Proverbs are not just a collection of words, but a spiritual treasure of the nation and a unique “cultural code”. Therefore, their reflection in dictionaries intended for foreign language learners requires more skill than simple translation. The article seeks the most optimal ways of presenting paremiological units, based on the experience of English-Uzbek lexicography. It is also proposed not to be limited to choosing only equivalents or analogs when presenting proverbs in dictionaries. The study scientifically substantiates the role and effectiveness of descriptive methods in filling the “meaning gaps” that arise due to cultural differences. Also, a new approach to the formation of dictionary entries is put forward so that the reader can feel not only the lexical meaning of the proverb, but also the social context underlying it.

Keywords: paremiology, educational lexicography, cultural code, lexicographic interpretation, semantic analogy, connotation.

Kirish. Xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy tajribasidan kelib chiqqan hikmatli soʻzlar oʻzbek tilida “maqol”, tojiklarda “zarbulmasal”, ruslarda “пословица”, arablarda “naql”, turklarda “atasoʻzu” deb nomlanadi. Hajman qisqa, ammo mazmunan kengtushunchani anglatuvchi hikmatli soʻzlar turli mavzularni qamrab oladi. Maqol atamasi arabcha “qavlun” gapirmoq, aytmoq soʻzidan olingan, u aytib yuriladigan ibora, ifodalardir. Maqol har bir xalqning ogʻzaki ijodida uchraydigan janrdir. Doston, ertak, afsona va rivoyatlar voqelikni hikoya tarzida aks ettirsa, maqollar xalqning dono tajribasini xulosalar, hukmlar orqali ifodalaydi. Hajman ixcham boʻlgan maqolda bayoni dostonlarga teng boʻlgan voqealar mujassamlangan. Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, loʻnda hukm tarzida ifodalanadi”[1].

Adabiyotlar tahlili. M. Murodovaning “Folklor va etnografiya” asarida taʼkidlanishicha: “Til, falsafa va badiiy ijodning oʻziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega boʻlgan bir janridir. Maqol xalqning koʻp asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda toʻplagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega boʻlgan ogʻzaki ijro janrlaridan biridir.

Oʻzbek olimasi B. Joʻrayeva “Oʻzbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lugʻati” ning Kirish qismida shunday deydi: “Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrlil, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir”. [2]

T. Mirzayev har bir kishining nutqida 800 tagacha maqol borligini, biroq soʻralganda 800 ta maqolni ketma-ket yoddan aytib berolmasligimiz mumkinligini taʼkidlaydi. Ammo u faoliyatimiz davomida maqollarni turli munosabatlarda nutqimizda koʻp qoʻllashimizni” ham qayd qiladi. [3]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, deskriptiv, tasnifiy, shuningdek, qiyosiy-chogʻishtirma metodlariga murojaat qilindi.

Natilar va muhokama. Oʻzbek tilidagi maqollar xalq falsafiy va badiiy ijodining oʻziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan ixcham shaklli, ammo teran mazmunga ega boʻlgan alohida janrdir. Har biri til koʻrkini, nutq nafosatini, aql-farosat va tafakkur mantigʻini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari oʻzbek xalqining koʻp asrluk hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamosoli bir oynasidir. [4] Bu badiiy oynada insonning hayotga, tabiatga, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy, axloqiy estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, oʻzi va oʻzligi toʻla namoyon boʻlgandir. [5]

Shuning uchun ham maqollar gʻoyatda keng tarqalgan boʻlib, asrlar davomida jonli soʻzlashuv va oʻzaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qoʻllanib kelgan va qoʻllanmoqda. Ammo ularning muayyan qismi unutilib ham ketgan. Chunki oʻzbek xalqining bunday ulkan folklor merosi folkloristik nuqtayi nazardan keyingi asrlargacha deyarli toʻplanmay va oʻrganilmay kelgan. Lekin bundan xalq maqollari oʻtmish adiblari, shoirlari, tarixchilari eʼtiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz kerak. Oʻzbek tilidagi maqollar yashovchanligi, asrlar davomida shakllanib, sayqal topganligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Turli ifoda usullariga ko'ra maqollarni ikki toifaga bo'lish mumkin: bir turida maqolning asl ma'nosi "gap" bo'lib, "ijtimoiy bilimni to'g'ridan to'g'ri beruvchi, ijtimoiy tajribani umumlashtiruvchi, nasihat va undash ma'nolariga ega bo'lgan falsafiy qofiya"ni anglatadi. Bunday maqollar sodda va xalqchil so'zlardan iborat bo'lib, tajriba va bilimni hamda dunyo haqiqatlarini tushuntiradi; boshqa turi esa obrazli bo'lib, uning asl ma'nosi "o'xshatish" yoki "metafora" asosida shakllanadi. Ikkinchi turida "ma'lum bir haqiqatni ifodalash uchun metafora, jonlantirish, qiyoslash, mubolag'a va boshqa vositalardan foydalaniladi.

O'zbek tilidagi maqollar mazmuniga ko'ra yaxlit ma'noni ifodalaydi. Grammatik tarkibi jihatidan turg'un bo'lib, foydalanilayotganda ularning tarkibiy qismi xohishga ko'ra o'zgartirilishi mumkin emas.

Maqollarda xalq o'zining hayoti va tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini ifoda etadi. O'zbek maqollari mavzusi jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Maqollardan asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun foydalaniladi. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlarini sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, ularning asarlari tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan o'zgartirilgan holda mavjudligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ayni chog'da ushbu asarlar yaratilishi jihatdan juda qadimiy zamonlarda yashagan ajdodlarimiz ijodini tashkil etadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida uch yuzga yaqin xalq maqollari berilganki, turkiy xalqlarning madaniy merosiga voris sifatida har bir o'zbek ular bilan g'ururlansa arziydi. "Devoni lug'otit-turk" dagi ba'zi maqollar bugungi kunda ham ishlatilmoqdaki, ular biroz o'zgartirilgan shaklda nutqimizda namoyon bo'ladi. Bu namunalar qatorida biroz o'zgarish bilan mavjud bo'lgan quyidagi maqollarni uchratishimiz mumkin:[6]

"Otug' uzguch birla o'churmas" – O't alanga bilan o'chirilmas;

"Tog' toqqa qavushmas, kishi kishiga qavushar" – tog' tog' bilan uchrashmas, odam odam bilan uchrashar;

"Vataniga tosh otgan vatangado bo'ladi" degan maqollar ham bor.

O'zbek olimasi B. Jo'rayeva "O'zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug'ati" ning Kirish qismida shunday deydi: "Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrlil, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir."[7]

O'zbek tilida maqollar so'zi ikki ma'noda qo'llaniladi. 1. Umuman so'z, kalima, nutq ma'nosida. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, 80-yillarning oxirida o'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mingga yaqin maqollar alifbo bo'yicha tartiblashtirilgan holda nashr ettirildi. Bu – o'zbek xalqining naqadar ulkan va bebaho madaniy merosga ega ekanligini dalillaydi. Hech ikkilanmasdan alohida ta'kidlash joizki, bunday ulkan xazinaga dunyodagi kamdan kam xalqlar ega bo'lishi mumkin. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, birorta shoirtabiat inson qattiq ehtirosga berilgan paytda o'nlab qo'shiq to'qib tashlashi mumkin. Ammo bitta maqolning badiiy jihatdan mukammal tarzda shakllanishi va xalqlar qalbidan joy olishi uchun o'nlab yillar, uzoq vaqtlar zarur bo'ladi. Ana endi Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning lug'ati yo'nalishida keltirgan uch yuz maqolga va 13 mingdan ortiq bu janr namunalariga baho berib ko'raylik. Ma'lum bo'ladiki, bu qadar soni ko'p va badiiy mukammal xalq hikmatli so'zlarini ijod qilish faqat dono, zukko, har bir hayot voqeasini mulohaza laboratoriyasidan o'tkaza olgan ajdodlarimizgagina nasib etishi mumkin.

2. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli so'zlar majmuasi hisoblanadi. Maqollarda ifodalanishi lozim bo'lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo'ladi. Maqol va matallar xalq og'zaki ijodining muhim qismi bo'lib, ular ko'plab asrlar davomida shakllanib, xalq tajribasini o'zida aks ettiradi. Maqol bu qisqa, aniq va ko'pincha axloqiy yoki hayotiy saboq beruvchi bayonot hisoblanadi. Maqollar ko'pincha oson esda qolishi va boshqalar tomonidan tezda qabul qilinishi uchun yaratilgan. Maqol bu oddiy voqea yoki tafakkur asosida shakllangan, ko'pincha xalqning tajribasi va hikmatini o'zida aks ettiradi. Insonlar o'rtasida do'stlik, mehr-muruvvat, sadoqat, yuksak axloqiylik kabi hayotiy saboqlarni o'rganishlarga yordam beradi. Ular xalqning tajribasi, hikmati va urf-

odatlarini o'zida aks ettiradi.

O'zbek maqollarida kollektivizm, oilaviy qadriyatlar va diniy e'tiqodlar muhim o'rin tutadi. Masalan, "Ota-onangni rizo qil, Xudo rizo bo'lur" maqoli oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiladi. Ingliz maqollarida esa shaxsiy erkinlik, mustaqillik va pragmatik yondashuvlar ko'proq uchraydi, masalan, "God helps those who help themselves" (Xudo o'ziga yordam berganlarga yordam beradi) maqoli shaxsiy tashabbusni rag'batlantiradi.[8]

Maqol va iboralarni tarjima qilish. Eng ommalashgan usullar quyidagilar:

1) so'zma-so'z tarjima; (Maqol va iboralardagi so'zlar qanday bo'lsa shu holda tarjima qilinsa, bu so'zma-so'z tarjima hisoblanadi.)

2) monand (analog) tarjima; (Maqol va iboraning tarjima qilinayotgan tildagi shu ma'noga mos ekvivalentini topish.)

3) tasviriy tarjima. (So'zma-so'z yoki analog tarjima qilish imkoni bo'lmaganda tarjima qilinayotgan maqol va iboraning ma'nosini tasvirlash usuli orqali tarjima qilish.)

Bu usullar hozirgacha tarjimonlar tomonidan samarali qo'llanilib kelinmoqda. Maqol va iboralarning tarjimasida Y. Nida [9]ning shakliy va dinamik ekvivalentlik nazariyasi ham bu borada amalga oshirilgan mashhur ilmiy ishlardan biridir. Shakliy ekvivalentlik bu so'zma-so'z tarjima singari sintaktik so'z tanlash va idiomatik birikmalarni saqlab qolishni maqsad qiladi. Va asosan asliyat matn strukturasi, grammatik jihatdan so'zlarning qo'llanilishi va original matnga eng mos tushadigan tarjima chiqarib beradi. Bundan tarjimaning tarjima qilinayotgan tilda tabiiy bo'lmagan yoki g'aliz bo'lishi e'tiborga olinmaydi. Bunga teskari ravishda, dinamik ekvivalentlikda bir xil ma'no va mazmunni tarjima bag'ishlangan auditoriyaga yetkazib berish maqsad qilinadi. Bunda maqol va iboralar tarkibida sintaktik va grammatik o'zgarishlar bo'lishi kuzatiladi. Quyida ana shu usulda tarjima qilingan ba'zi maqollar tahlili bilan tanishsak:

Birds of a feather flock together

Shakliy ekvivalentlik: Bir qanotli qushlar birga uchadilar.

Dinamik ekvivalentlik: Teng tengi bilan, tezak qopi bilan.

Yuqoridagi tarjimalar orasida asliyat tildagi ma'noni tushunarli va aniq qilib yetkazib berayotgan usul – bu dinamik ekvivalentlikdir.

Let sleeping dogs lie.

Shakliy ekvivalentlik: Uxlayotgan itlarni uyg'otma.

Dinamik ekvivalentlik: Yopiqlik qozon yopiqligicha qolsin.

O'zbek tili maqollari orasida shakliy ekvivalentlik usulida qilingan tarjimadagi ibora yoki maqol bo'lmaganligi uchun bu usulda tarjima qilish xato, ammo dinamik ekvivalent o'zbek auditoriyasi uchun tushunarli bo'ladi.

A friend in need is a friend indeed.

Shakliy ekvivalentlik: Qiyinchilikdagi do'st haqiqiy do'st.

Dinamik ekvivalentlik: Chin do'st mashaqqatda bilinadi.

Ikki tarjima usuli ham ma'noga ega va o'quvchi tomonidan anglashilishiga qaramasdan dinamik usuldagi tarjima, asosan ko'proq qo'llaniladi.

Out of sight, out of mind.

Shakliy ekvivalentlik: Ko'zdan yiroq, esdan ham yiroq.

Dinamik ekvivalentlik: Ko'zdan yiroq, ko'ngildan yiroq.

Bu maqolda ham yuqoridagi kabi ikki tarjima ham tushunarli va asliyat ma'noni yoritib bergan, ammo dinamik ekvivalent omma orasida keng tarqagan.

Look before you leap.

Shakliy ekvivalentlik: Sakrashdan oldin qara.

Dinamik ekvivalentlik: Yetti o'lchab bir kes.

Bu maqolda esa shakliy ekvivalentdagi kabi ibora yoki maqol o'zbek tilida mavjud bo'lmaganidan yanglish tushunilishi xavfi bor, shu bois dinamik ekvivalentlik usulida tarjima qilgan ma'quldir. Maqol va iboralarni tarjima qilishda ekvivalentlik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tarjima nazariyasida shakliy va kommunikativ yondashuvlar o'rtasidagi farq keng tahlil qilingan bo'lib, maqollar tarjimasida funksional moslikni saqlash muhim omil hisoblanadi [10].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek xalq maqollari bu xalqlarning madaniy merosidir. Ularda ingliz va o‘zbek xalqning barcha o‘y-fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe‘l-atvori va e‘tiqodi aks etadi. Har bir millat o‘ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta‘sir etmay qolmaydi. Hatto ayrim ingliz va o‘zbek maqollardagi mavzular o‘xshash bo‘lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo‘yoqdorlikni ta‘minlaydi. O‘zbek va ingliz maqollari har ikki xalqning madaniyati, dunyoqarashi va hayotiy tajribasini aks ettiradi. Ularning semantik, stilistik va madaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida muhim ahamiyatga ega. Maqollarni tarjima qilishda ularning madaniy konteksti va stilistik xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Makhsudova N.A., Bakirova Kh.B., Demirbilek M. Comparative and Contrastive Analysis of the Peculiarities of the National Character in English and Uzbek Proverbs // Pubmedia Jurnal Pendidikan Bahasa Inggris. – 2024. – Vol. 1, No. 4. – P. 9.
2. Nida E.A. Toward a science of translating: with special reference to principles and procedures involved in Bible translating. – Leiden: Brill Archive, 1964. – 331 p.
3. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2019. – 230 б.
4. Қошғарий М. Девону луғотит турк / Таржимон: С. Муталибов. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 480 б.
5. Мирзаев Т. Сўздан сўзнинг фарқи бор // Ўзбек халқ мақоллари [Электрон ресурс]. – URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbek-xalq-maqollari.html> (мурожаат санаси: 13.02.2026).
6. Муродова М. Фольклор ва этнография: электрон ўқув қўлланма. – Самарқанд, 2006 [Электрон ресурс]. – URL: <https://library.samdu.uz/files/> (мурожаат санаси: 13.02.2026).
7. Makhsudova N.A., Bakirova Kh.B., Demirbilek M. (2024). Comparative and Contrastive Analysis of the Peculiarities of the National Character in English and Uzbek Proverbs. Pubmedia Jurnal Pendidikan Bahasa Inggris, 1(4), 9.
8. Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating: with special reference to principles and procedures involved in Bible translating. Brill Archive
9. Mieder Wolfgang. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004. – 305
10. Newmark Peter. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292

“MAHBUB UL- QULUB” ASARINING PSIXOANALITIK TAHLILI

Yarmatov Isamidin

Filologiya fanlari doktori

Angren universiteti Tillar va ularni o‘qitish metodikasi kafedrası professori

auni1975as@gmail.com

UDK 82-131

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning 1500-yilning oxirida yozib tugatgan “Mahbub ul-qulub” asarida turli xil kasb egalari haqida bildirilgan mulohazalari misolida ijodkor ko‘nglidan kechgan ziddiyatli fikrlarning psixoanalitik sabablari bilan bog‘liq ijtimoiy va maishiy omillar germeneyvtik tekshiruv usuli vositasida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida germeneyvtik tekshiruv usuli yetakchi metod sifatida qo‘llanilib, matnning ichki ma‘no qatlamlari, ramziy ifodalari va muallif ongida kechgan ruhiy jarayonlar talqin etiladi. Xususan, Navoiyning muayyan kasb egalari nisbatan bildirgan tanqidiy yoki e‘tirofiy munosabati uning shaxsiy hayotiy tajribasi, davr muhitidan kelib chiqqan ijtimoiy ziddiyatlar hamda ma‘naviy-axloqiy idealari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Shu orqali adibning ichki kechinmalari, jamiyatdagi adolatsizlik va ma‘naviy tanazzulga bo‘lgan munosabati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub” asari, dinamik psixologiya, nevroz terapiyasi, Freyd, Yung, psixoanalitik tahlil, interpretator, retsepsiya, kategorial hukm, maktab ahli, imomlik, Mirzo Ulug‘bek, usturlub, “Ziji Ko‘ragoniy”

A PSYCHOANALITICAL ANALYSIS OF THE WORK “BELOVED OF SOULS”

Abstract. The article uses the hermeneutic method of investigation to examine the social and everyday factors related to the psychoanalytic causes of the contradictory thoughts that the writer was disappointed with, using the example of the comments about astrologers by the great Uzbek poet Alisher Navoi in his work "Mahbub ul-qulub" written at the end of 1500. The method of psychoanalytic analysis has already firmly established itself in world literary criticism of the 20th century and has created the basis for

certain achievements in understanding the relationship between the recipient and the creator of the art of speech. During the research process, the hermeneutic method is employed as the leading analytical approach, through which the inner layers of meaning, symbolic expressions, and the psychological processes taking place in the author's consciousness are interpreted. In particular, Navoi's critical or appreciative attitudes toward certain professions are analyzed in connection with his personal life experience, the social contradictions shaped by the historical context of the period, and his moral and ethical ideals. Through this approach, the writer's inner emotional experiences, as well as his attitude toward social injustice and moral decline, are revealed.

Keywords. Alisher Navoi, the work "Mahbub ul-qulub", dynamic psychology, neurosis therapy, Freud, Jung, psychoanalytic analysis, interpreter, reception, categorical judgment, Mirzo Ulug'bek, usturlob, "Zizhi Ko'ragoniy".

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikning psixanalitik metodi aslida nemis faylasuf-psixolog olimlaridan Zigmunt Freydning dinamik psixologiya va Karl Yungning nevroz terapiyasi usullarini badiiy ijod jarayoniga tatbiq etish orqali paydo bo'lgan¹. Z. Freyd badiiy asarga taalluqli psixanalitik tahlilning quyidagi ikki ko'rinishini tavsiya qilgan:

1) ijodkor shaxsiyatiga oid patologiya diagnostikasini matn – material ko'lamida olib o'rganish,

2) muallif badiiy matnning interpretator-analitigi maqomida namoyon bo'lishini tadqiq etish².

So'nggi yillar dunyo adabiyotshunosligida psixanalitik tahlil metodi ijodkor shaxsiyatini badiiy matn mazmuniga omixta holda interpretator tuyg'ulari (matn retsepsiyasi) tariqasida keng o'rganadigan bo'ldi. Biz ushbu maqolada psixanalitik tahlil metodini Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asariga tatbiqan "qanday natija berar ekan", degan maqsadda tajriba o'tkazishga urindik.

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy adabiyotshunoslik, xususan psixologiya fanining badiiy ijod namunalari ko'rsatadigan ruhiy ta'siri masalasida akademik N.I.Konrad adabiy ta'sir va adabiy aloqalar, prof. D.Dyuishin adabiy ta'sirning mohiyatini aniqlash, akademik V.M. Jirmunskiy Sharq va G'arb adabiy aloqalari, prof. A.Qosimov tipologik o'xshashliklar va o'zaro ta'sir muammolariga munosabat bildirishgan³. Bevosita biz o'rganayotgan masala xususida dunyo adabiyotshunosligida ingliz olimlaridan V.Massining "Hovsron Melvil va Keyt Chopinlar ijodida yolg'izlik", B.Midltonning "Ketrin Mensfild hayoti va ijodida begonlashuv mavzusi", A.Vorsleyning "Romantizmga she'riyatda yolg'izlik", H.Gibson, P.Lasletlarning yolg'izlikning falsafa, sotsiologiya va adabiyotdagi shakllari haqidagi ilmiy ishlari e'lon qilingan⁴.

Postsovet hududi adabiyotshunosligida psixanalitik tahlil metodi asosan rus olimlari tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, V.R. Toporov⁵, S.A. Zelinskiy⁶, L.V. Yaroshenko⁷, S. Zimovets⁸ va boshqalarning tadqiqotlari fikrimizni tasdiqlaydi. Bu yangi metod o'zbek adabiyotshunosligining istiqbolini belgilaydigan tekshiruv tamoyillaridan biri sifatida o'z o'rni topib bormoqda.

XXI asr o'zbek adabiyotshunosligida psixanalitik tahlil metodiga qisman taalluqli bo'lgan badiiy obrazlarning ijtimoiy psixologik asoslari xususida dots. R.Saidova monografiya e'lon qilgan⁹, H. Umurov o'zbek romanlarida ruhiy holat tahlili muammosiga bag'ishlangan doktorlik, dots. A. Xolmurodov yozuvchi O. Yoqubov romanlarida psixologizm, dots. P. Kenjayeva "Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari", dots. M.R. Qilicheva ingliz va o'zbek adabiyotlarida psixologik holatlar talqini masalalariga bag'ishlangan PhD darajali dissertatsiyalarni himoya qildilar¹⁰.

Tadqiqot natijasi. Ma'lumki, Navoiy hazratlari "Mahbub ul-qulub" ("Qalblar sevgilisi") nomli nasriy asarini vafotidan ikki-uch oy avval (1500-yilning) oxirida yozib tugatgan. U ulug' mutafakkirdan qolgan so'nggi falsafiy-ma'rifiy yodgorlik sanaladi. Muqaddima va ichki fasllarga bo'lingan uchta asosiy qismdan tarkib topgan mazkur risolada shoirning qir-qir besh yillar mobaynida hayot va uning murakkab so'qmoqlarida inson qismatining o'zgarishlari, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlar xilmaxilligi hamda odamiylik xislatlari haqidagi xulosalari bitilgan. Risolaning umumiy ruhidan ko'p ulug' insonlarning ajoyib fazilatlarini ta'riflash barobarida betob va saroy ahlining subutsizligidan zada bo'lgan kasalmand shoirning bir qator kasb egalarining faoliyatiga nisbatan negativ

munosabati anglashilib turadi. Uning avval yozgan doston va nasriy asarlaridan farqli o'laroq, "Mahbub ul-qulub"da fikriy keskinlik, kategorial hukm ustuvorligiga, jamiyatdan bezgan, undan kutgan orzu-umidlariga erishmagan mutafakkirning tushkun kechinmalariga guvoh bo'lamiz.

Muhokama. Chunonchi, mazkur asar birinchi qismning "Maktab ahli zikrida" deb nomlangan o'n sakkizinchi fasli biz doimo ulug'laydigan ustozlarni qoralovshi quyidagi jumlar bilan boshlanadi: "Maktabdor domla begunoh, ma'sum bolalarga jafo qiluvchidir. U bolalarga azob berishga moyil va kaltaklashga o'rgangan. Zotida rahmsizlik bor, dimog'i po'lat, ko'ngli tosh kabidir. G'azabdan qoshi chimirilgan, odati gunohsizlar bilan adovat qilishdir. Ko'pchiligida ko'ngil qattiqligi va ta'ma illati bor va aql pastligiga giriftor. Ular qo'rqitish yoli bilan bolalar ko'nglini rom qilmoqchi va kichkintoylarni shu yo'l bilan tartibga solmoqchi bo'ladi. Ammo qo'polliklari ayon bo'lsa ham, bu fe'llari bolalardagi nuqsonni egovlovghi qo'pol egovdir..."¹¹

Shoirning bu fikrlarida zamonaviy pedagogikaning ayrim hodisadan umumiy xulosa chiqarish (induktiv yondashuv) hamda tezis-antitezis (o'qituvchi – "bolalardagi nuqsonni egovlovghi qo'pol egov") tamoyillari namoyon bo'lmoqda. Holbuki, yosh Nizomiddinning idroki va ko'nikmalarini mutafakkirlik istiqboliga yo'llagan shaxslar, eng avvalo, maktabdor domlalar bo'lishgan.

"Mahbub ul-qulub" asarining navbatlagi o'n to'qqizinchi fasli imomlar zikriga bag'ishlangan bo'lib, bu fasl ham imomlik kasbi egalarining keskin negativ bahosi bilan boshlanadi: "Imomlik qiluvchi o'z qiroatining oshig'idir va o'z namozining maftunidir. Xayolida o'zini yaxshi inson deb tasavvur qiladi va yaxshi bo'lib ko'rinadi, lekin qalbida kibr bor. O'z namozini, albatta qabul etiladi, deb xayol qiladi va jamoatning ham namozi albatta qabul etiladi, deb kafolat beradi. Chiroyli qiroatini elga yoqimli bo'lish deb biladi, uning jamoat ichida xudbinlik qilishi ayni rasvolikdir, nafs xalqqa peshvolikni va elni o'ziga iqtido qilish (ergashtirishni) istaydi... Ibodat odobini aynan shariat qoidasiga binoan o'rgatmog'i munosibdir. Ammo topshiriq bermoq va ulufa (maosh) emak va o'zini peshvo deb bilishi, bunday kishilarni odamiy fazilatli deb bo'lmaydi. Va ahli ma'nilar bunday kishini odam deb bilmaydilar". (Ko'rsatilgan nashr, b.35-36)

Alisher Navoiyning besh vaqt namozini kanda qilmay, some'larini Qur'oni Karimda belgilangan shariat ahkomlari yo'lga yetaklashdek savobli va xayrli ishlarni amalga oshiruvchi ruhoniylarga bo'lgan bu qadar g'azabining ildizi qayerda ekan?

Kitobning o'ttizinchi sahifasida bitilgan quyidagi nafratli so'zlar maktabdor va imomlarnikidan ham oshib tushadi: "Shahar hokimi, mirshab va qorovul o'g'ri va kallakesarlarning himoyachisi va xaloskoridir. Zindondagilar go'yoki do'zaxga tashlanganlar, zindon posbonlari esa go'yoki azob farishtalaridirlar... Mirshablar bozor va qimorxonalaridagi kissaburlardan cho'tal oladilar... Bunday dahshatli voqealar beaded va bu kabi ajabtovur voqealar behisob. Amalga hirs qo'ygan mirshab gunohkorni tutishga harakat qiladi, ammo istagi hosil bo'lgach, uning qutulmog'i uchun duo qiladi. Dunyoda bu joy qiyomatga o'xshaydi va mahshargohdan bir ko'rinish sanaladi". (Ko'rsatilgan nashr, b.46-47.)

Navoiyning bu tarzidagi haqiqatgo'yiligi zaminida Husayn Boyqaroning Xuroson hokimiyatini eplay olmay qolib, mamlakat ichkarisida ro'y berayotgan ma'naviy, iqtisodiy va huquqiy inqirozlar alomatlariga yaqqol seziladi.

Yoki yana boshqa bir misolni olib ko'raylik. "Mahbub ul-qulub" asarining yigirma ikkinchi faslida yozilgan munajjimlar to'g'risidagi fikrlarga e'tibor bering:

"Sayyora va yulduzlarni kuzatib, hukm chiqaradigan munajjimlar nuqtalarni hisoblab, lof uradigan folbinga o'xshaydi. Uning o'lchov jadvali - bo'lmagan narsa. Tushuntirishlari va osmon jismlari harakatiga oid gaplarining hammasi xato. Usturlobi (Quyosh va yulduzlarning fazoda joylashuv traektoriyasini o'lchaydigan asbobi – I.Yo.) uzoqroqqa uloqtirilishi kerak.

Oyni kuzatuvchi anjomi butunlay befoyda, natija bermaydigandir. Bu asbob-anjomlarga asoslanib so'z yurituvchi munajjimlar haqning qazo va taqdir haqidagi so'zini unutgan g'ofillardir"¹¹.

Bu so'zlarni o'qigan kishida bir qarashda Navoiyning Ulug'bek yaratgan "Ziji Ko'ragoniy" asaridan, unda berilgan astronomik o'lchov jadvallaridan xabari bo'lmaganmi

yoki 146–1468-yillarda Samarqandda tahsil olayotganida rasadxonani, undagi usturlobni ko‘rib, ilmiy ahamiyatini tushunmaganmi, degan savol tug‘ilishi tabiiydir.

Yigirma besh - yigirma olti yashar Nizomiddin Alisher Samarqandga kelib ustozi Xoja Jaloliddin Fazlulloh Abulays madrasasida ta‘lim olar ekan, yarim chaqirim naridagi Ulug‘bek rasadxonasini borib ko‘rmasligi, “Ziji Ko‘ragoniy”ni o‘qib chiqmasligi mumkin emas edi. Madrasa talabasi bo‘lgan yosh Navoiy Mirzo Ulug‘bek asos solgan Samarqand falakiyot maktabining hayratomuz yutuqlaridan ilhomlangani uchun bo‘lsa kerak, “Farhod va Shirin” dostonida (1483-yilda) shunday yozadi:

“Shaxskim ilm nurin topti zoti,
 Aning to xashr qoldi yaxshi oti
 Skandar topti chun ilmu hunarni,
 Ne yanglig oldi ko‘rgil bahru barni.
 Aningdek saltanat ahli ko‘p erdi,
 Qayu birga bu nav ish dast berdi?
 Ikki ming yil o‘tub yuz ming xiradmand,
 Bo‘lub hikmatlari birla borumand.
 Temurxon naslidan sulton Ulug‘bek,
 Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.
 Aning adlolti jinsi bo‘ldi barbod,
 Ki davr ahli biridin aylamas yod.
 Va lek ul ilm sari topti chun dast,
 Ko‘zi olinda bo‘ldi osmon past.
 Bilib bu nav ilmi osmoniy,
 Ki andin yozdi “Zichi Ko‘ragoniy”.
 Qiyomatga dekincha ahli ayyom,
 Yozalar oning ahkomidin ahkom”¹².

Falakiyot ilmining buyuk tadqiqotchisi sharafiga bildirilgan badiiy olqishni qarangu, “Mahbub ul-qulub” asarida munajjimlar mehnatining behudaligi haqida aytilgan xulosaga e‘tibor bering.

Yohud yana bir misol. Navoiy 1491-yili yozib tugatgan “Majolis un-nafois” asarida ham Mirzo Ulug‘bek ilmini ulug‘laydi: “Ulug‘bek Mirzo donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat birla Qur‘oni majid yodida erdi. Hay‘at (astronomiya ilmi -muh.) va riyoziyotni (matematikani -muh.) xo‘b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi va xolo aning ziji aroda shoe‘dur”¹³.

Ulug‘bekning olimlik iste‘dodi va u tuzgan “Zij”ning olamshumul ahamiyatini faxr bilan ta‘kidlagan Navoiy “Mahbub ul-qulub”ning “Munajjimlar to‘g‘risida” degan yuqoridagi faslida o‘z fikrini quyidagicha davom ettiradi: “Bu munajjimlar shunday kishilarki, qo‘lida bitta anor bo‘lsa, uning po‘sti ichida nechta parda, nechta xona bor va har parda va xonada nechta anor donasi borligini bilmaydilar: u donalar achchiqligi, nordonligi, chuchukli ekanini ayta olmaydilar. Bovujudki, odamlar necha martalab anorni suyib egan, xosiyati qanaqaligini aytib ham bergan, dumaloq osmon, undagi yulduzlar va burjlar haqida afsona aytadilar hamda ularning sharofatli, xosiyatsiz ta‘sirlari haqida safsata sotadilar. Holbuki, bularning o‘n so‘zidan bittasi tasodifan ham to‘g‘ri chiqmaydi. Ishlarning qabohat ekanini ular yo tushunmaydi va yoki tushunishni istamaydi. “Munajjim – kazzob” degandek, bularning so‘zi yolg‘ondir. O‘zlari rostlik dunyosidan yiroq tushgandir, o‘tkir ko‘zlarini g‘aflat pardasi o‘rab olgandir.

Bayt: Emas aflok-u anjum qoli benafgu zarar, lekin

Ani tengri bilur, ermas munajjim bilmagi mumkin”¹⁴.

Nega bunday? Nega Ulug‘bek va uning shogirdlari mehnatiga 1483-yilda va 1491-yilda yozgan asarlarida tahsin aytgan Navoiy qariyb o‘n yetti yildan so‘ng yozilgan “Mahbub ul-qulub” risolasida munajjimlar to‘g‘risida bunchalik keskin fikrlarni bayon etgan? Ulug‘bek munajjim emas-ku, demoqchimisiz? Mirzo Ulug‘bek yozgan “Ziji Ko‘ragoniy” asari to‘rt qismdan tashkil topgan bo‘lsa, uning ikki bobdan iborat “Yulduzlarning doimiy harakati deb nomlangan to‘rtinchi qismi aynan ilmi nujunga bag‘ishlangandir. Demak, Navoiyning

munajjimlar to‘g‘risidagi salbiy fikrlari Mirzo Ulug‘bekka, uning ustozlari Qozizoda Rumiya, shogirdlari G‘iyosuddin al-Koshiy va Alouddin Muhammad Ali Qushchiga tegishli bo‘lib chiqadi. Yana o‘sha savol miyada charx uraveradi. Ulug‘ shoir nega bunday qilgan? Navoiy nima uchun boshqa asarlarida falakiyotshunoslarga maqto‘v ayta turib, “Mahbub ul-qulub”da ular faoliyatining besamarligi haqida so‘z yuritgan?

Bu savollarga qayerdan javob topsa bo‘ladi?

Bizningcha, bu masalaning mantiqiy echimini Navoiy hayotining so‘nggi yillarida kechirgan ruhiy iztiroblar sababidan qidirmoq kerak.

Ma‘lumki, Alisher Navoiy 1487-yilda o‘zining roziligisiz Husayn Boyqaro farmoni bilan chekka (Kaspiy dengizining janubiy tomonidagi) Astrobod viloyatiga hokim etib tayinlanadi. Natijada payt poylab yurgan Xoja Majdiddin Muhammad hammaslamlari bilan birga Xoja Afzaliddin va Xoja Nizomulmulklarni ham saroydan chetlashtirib, Sulton Husayn Boyqaroning eng ishonchli vaziri martabasiga erishadi. U Navoiyga fikrdosh bo‘lgan boshqa amaldorlarni ham saroydan uzoqlashtirib yoki zindonband qilib, mol-mulklarini tortib oladi. Bu hol Navoiyning adolatpeshaligidan baha olgan kishilarni sarosimaga soladi, uning o‘zini og‘ir o‘yga toldiradi. Inson aqliy-ruhiy tabiatining sajiyasi o‘zi shunday: lavozimdan chetlatilsa, atrofida gilarining o‘zgargan munosabatini ko‘riboq ich-etini kemiraveradi. Buning ustiga-ustak 1492-yilda bir tug‘ishgan ukasi – Balx hokimi Darvesh Ali Husayn Boyqaroga qarshi bosh ko‘tardi. O‘sha yili ustozlari Abdurahmon Jomiyning vafot etishi esa Navoiyni yanada og‘ir qayg‘uga soldi. Mo‘min Mirzoning o‘ldirilishi (1497-yilda) va o‘gay ukasi Haydarning davlatga qarshi qo‘poruvchilikda ayblanib, Sulton Husayn Boyqaro farmoniga ko‘ra qatl etilishi (1499-yilda), temuriylar poytaxti bo‘lib kelgan Samarqandning Shayboniyxon tomonidan tortib olinishi (1500-yilda), do‘sti Husayn Boyqaroning davlat boshqaruvini ko‘proq Xadichabegim va Xoja Majdiddin Muhammadning qo‘llariga tashlab qo‘yishi voqealari mutafakkir Navoiyning adolatli shoh va erkin jamiyat haqidagi orzularini yo‘qqa chiqardi. Akademik Izzat Sulton yozganlaridek: “Mamlakatda davom etayotgan nizolar Navoiyning shaxsiy hayotiga ham yangidan yangi azoblar kirgizar edi. Navoiy allaqachon orzu qilgan tinchlik, “dunyo g‘alvalaridan xolilik” hech qachon amalga oshmaganidek, endi bo‘lishi ham mumkin emas edi”¹⁵.

Shoir hayotining so‘nggi yil va oylarida barqaror turgan mana shu umidsizlik va ishonchsizlik holatlari yozilajak asarlarida aks etmasdan qolmadi. Jumladan, 1499-yilda yozilgan “Lison ut-tayr” asaridan “Inson o‘z hayotiga oid hamma muammolarni shoh yoki amaldorlaridan umid qilmay, o‘zi hal etishi lozim va bunga qodir”,- degan xulosa kelib chiqsa, so‘nggi –“Mahbub ul-qulub” asarida “Aslida vaqt emas, bizlar o‘tamiz. Abadiyat oldida inson umri hech narsa. Faqat ezgu amal abadiyatga doxil”,- degan g‘oya ilgari surilgan.

Ko‘rinyaptiki, o‘tkinchi dunyo g‘alvalaridan to‘ygan, yolg‘iz va betob shoir yozmoqqa niyatlangan ezgu fikrlarini tezroq qog‘ozga tushirish g‘amida bo‘lgan. Bundan “Mahbub ul-qulub” shoshib yozilgan, avvalgilariga nisbatan sayoz asar, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Gap shundaki, mazkur asarni yozib tugatish chog‘ida shoir xususan munajjimlar haqida o‘n yoki o‘n yetti yil avvalgi asarlarida nima deb yozganligini taftish qilib chiqish quvvatida bo‘lmagan. Xastalik azob berib turganiga qaramay, shu qadar teran badiiy-falsafiy asarni yozishning o‘zi ijodiy va jismoniy jasorat edi.

Xulosa. Demak, biz ustoz allomalar izidan borib, buyuk ajdodimiz nomini xotirlar ekanmiz, uning asarlarini o‘sha davr murakkabliklari bilan uyg‘un holda chuqur anglashga, satrlar qatida yashiringan ma‘noni to‘g‘ri talqin qilishga intilmog‘imiz lozim. Zero, Navoiy ijodiyoti hali yana ko‘p avlodlarga keng mulohaza uchun mavzu berishga qodir bo‘lgan ulkan va serjilo adabiy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фрейд З., Юнг К. Опасные желания. Что движет человеком?- Серия «Философский поединок». - М., 2017.
2. Психоанализ и литература / Психотерапевтическая энциклопедия // [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_psychotherapeutic/281/
3. Конрад Н.И. Литература и театр. – Москва: Наука, 1978. – С.32-33; Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – 318 с. Жирмунский В.М.

Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. – Москва: Наука, 1979. – 495 с.; Қосимов А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпери ва А.Камю ижоди мисолида): Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

4. Massie V.Z. Solitary blessings: solitude in the fiction of Hawthorne, Melville, and Kate Chopin. A Dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. – Louisiana, 2005. – 183 p.; Middleton B. S. Alienation in the life and works of Katherine Mansfield. A thesis submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Master of Arts. – Texas, 1966. – 139 p.; Worsley A. The poetry of loneliness from Romance to Romanticism. – Princeton: Princeton University, 2014. – 251 p.; Gibson H., Laslett P. Loneliness in later life. – London: Macmillan Press Ltd. 2000. – 165 p.

5. Топоров В.Р. О «поэтическом» комплексе моря и его психофизиологических основах / В.Н.Топоров // Миф. Ритуал. Символ. Образ. Исследования в области мифопоэтического / В.Н.Топоров. – М.: Прогресс-Культура, 1995. – С. 578–605.

6. Зелинский С.А. Творчество и психоанализ // [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://lit.lib.ru/z/zelinskij_s_a/text_0390-1.shtml

7. Ярошенко Л.В. Мифологическая критика и психоанализ. Миф и архетип // Неомифологизм в литературе XX века: Учеб.-метод. пособие / Л.В.Ярошенко. – Гродно: ГрГУ, 2002. – С. 10–19.

8. Зимовец С. Пушкин: толкование сновидений / С.Зимовец // Архетип. – 1996. – №2. – С. 98–107.

9. Saidova P. Aql va ruh baҳsi. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 112 б.

10. Умуров Х.И. Проблема психологизма и узбекский роман: Дисс. на соиск. учен. степ. д-ра филол. наук. – Ташкент, 1983. – 363с.; Умуров Х. Ўзбек романчилигида бадий психологизм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 22-40; Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 148 б.; Холмуродов А. Одил Ёқубов романларида психологизм: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1991. – 53 б.; Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон рухиятини тасвирлаш тамойиллари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 23 б., Қиличева М.Р. Инглиз ва ўзбек адабиётларида психологик ҳолатлар талқинида адабий таъсир муаммоси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Бухоро. 2020.

11. Алишер Навоий. Маҳбуб ул- қулуб. Тошкент, 1983.-Б.32. Иноят Маҳсумов насрий баёни;

12. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдлик. VII жилд. –Б.403-404;

13. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдлик. XII жилд. –Б.172;

14. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдлик. VII жилд. –Б. 32-33;

15. Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. Тошкент. 1969. –Б.382-383.

RAUF PARFI VA FAXRIYOR SHE'RLARIDA MENTALLIK VA IRRATSIONALLIK XUSUSIYATLARI

Muminova Saodat Aralovna

Qarshi davlat universiteti dotsenti

filologiya fanlari nomzodi

muminovasaodat1968@gmail.com

ORCID 0000-0001-5441-0767

UDK 821.512.133-1.09

Аннотация. Ushbu maqolada modern she'riyatda mentallik (ong, tafakkur, ichki psixologik holatlar) va irratsionallik (mantiqdan tashqari, intuitiv va irreal ifoda shakllari)ning o'zaro munosabati tahlil qilinadi. Rauf Parfi va Faxriyor she'rlaridagi ijodkorning ichki dunyosi, ong oqimi, ramziy tafakkur va irratsional obrazlar orqali zamonaviy she'riyatning badiiy xususiyatlari yoritiladi.

Shuningdek, Rauf Parfi she'riyatining ijtimoiy-falsafiy tabiati, unda tasvirlangan inson ruhiyati talqinlari masalalari, Rauf Parfining hayotni badiiy-estetik idrok va ifoda etish prinsiplari asosida she'riy tafakkur tabiati, mahorati qirralari, ilmiy-nazariy umumlashtirishdan iborat talqinlar, Faxriyor she'rlarining mavzu-mundariyasi, ularni birlashtirib turuvchi narsa shoirning voqelikka bezovta va kuyunchak munosabati, ana shu munosabatlarini yangi shakllarda ifoda etishi kabilar haqida so'z yuritiladi.

Калит со'злар: modern she'riyat, mentallik, irratsionallik, ong oqimi, ramz, intuitiv tafakkur, poetik obraz.

THE CHARACTERISTICS OF MENTALITY AND IRRATIONALITY IN MODERN POETRY

Abstract. This article analyzes the relationship between mentality (consciousness, thinking, internal psychological states) and irrationality (in addition to logic, intuitive and unreal forms of expression) in modern poetry. The artistic features of modern poetry are highlighted through the inner world of the creator, stream of consciousness, symbolic thinking and irrational images in the poems of Rauf Parfi and Fakhriyor.

It also discusses the socio-philosophical nature of Rauf Parfi's poetry, issues of interpretation of the human psyche depicted in it, the nature of Rauf Parfi's poetic thinking based on the principles of artistic and aesthetic perception and expression of life, aspects of his skill, interpretations consisting of scientific and theoretical generalizations, the theme and content of Fakhriyor's poems, what unites them is the poet's restless and joyful attitude to reality, and the expression of these attitudes in new forms.

Keywords: modern poetry, mentality, irrationality, stream of consciousness, symbol intuitive thinking, poetic image.

Kirish. Modern she'riyat XX asr boshlaridan boshlab inson tafakkurining murakkablashuvi, psixologik teranlikning ortishi hamda an'anaviy badiiy shakllarning yemirilishi natijasida yuzaga kelgan yangi estetik hodisadir. Bu davr she'riyatida tashqi voqelikdan ko'ra ichki dunyo – inson ongidagi jarayonlar, sezgi va intuitiv kechinmalar markaziy o'rinda chiqadi. Shu sababli mentallik va irratsionallik modern she'riyatning asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mentallik she'riyatda insonning ichki ruhiy olami, fikrlash jarayoni, xotira, tasavvur va ong osti holatlarini aks ettiradi. Modern shoirlar uchun voqelikni tasvirlash emas, balki uni qanday qabul qilish muhimroqdir. Mentallik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: ong oqimi (fikrlarning tartibsiz, tabiiy oqimda berilishi); ichki monolog (lirik qahramonning o'z-o'zi bilan suhbatlashishi); psixologik detallar (mayda, ammo chuqur hissiy kechinmalarni ifodalash) kabilar. Bu jarayonda vaqt va makon chegaralari buziladi. O'tmish, hozirgi va kelajak bir nuqtada jamlanadi. Natijada she'r mantiqiy ketmaketlikdan ko'ra psixologik izchillikka asoslanadi.

Irratsionallik esa mantiqiy tushuntirishga bo'ysunmaydigan, ko'proq sezgi, intuitsiya va ong osti bilan bog'liq holatlarni ifodalaydi. Modern she'riyatda irratsionallik turli ramzlar, g'ayrioddiy metaforalar va tushga o'xshash obrazlar orqali namoyon bo'ladi. Bunday ifodalar, ko'pincha, bir qarashda mantiqsizdek tuyuladi, ammo ularning ichida chuqur ma'no yashiringan bo'ladi. Shoir shu yo'l bilan inson ruhiyatining murakkab va noaniq jihatlarini ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili. Rauf Parfi ijodi o'z davridayoq adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslikning diqqat-e'tiborida bo'ldi, ushbu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Shoir she'rlari va, umuman, ijodining o'rganilishini obyekt qamroviga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga 60-yillar avlodining asarlariga o'z vaqtida e'lon qilingan adabiy tanqid yo'nalishidagi maqolalarni va ushbu davrga xos muammolar tadqiq etilgan monografiyalar, dissertatsiyalarni kiritish mumkin. Ularda bu avlod ijodini XX asr o'zbek she'riyatining bir bosqichi sifatida olib qaragan mualliflar Rauf Parfi she'riyatini g'oyaviy-tematik, poetik nuqtayi nazardan o'rganib, yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib o'tganlar. Ikkinchi guruhni S.Mamajonov, B.Nazarov, N.Rahimjonov, I.Haqqulov, I.G'afurov, I.G'aniyev, Q.Yo'ldoshev, U.Azim, A.A'zam, U.Hamdov, A.Mahkamov, N.Otaxonov, T.Adashboyev, O.Abdullayev, N.Boqiy, N.Eshonqul, Q.Rahimboyeva, Z.Isomiddinov, R.Qo'chqorov, M.Namozov, X.Ismoilov, Z.Mirzayeva, D.Rajabov, H.Ahmedova, V.Fayzullo, N.Jonuzoqov kabi olim va ijodkorlarning bevosita shoirning muayyan she'rlari, to'plamlari, umuman, ijodi va hayoti obyekt bo'lgan taqriz, maqolalari hamda esselari tashkil etadi.

Faxriyor "Dardning shakli", "Ayolg'u", "Geometrik bahor" kabi she'riy to'plamlarni nashr ettirgan. Uning ijodi haqida adabiyotshunos olim U.Normatov, Q. Yo'ldoshev, Nazar Eshonqul, Sh. Hasanov singari olimlar o'z fikrlari bildirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mentallik va irratsionallik o'zaro chambarchas bog'liqdir. Inson ongidagi murakkab va tartibsiz fikrlar, ko'pincha, irratsional shakllarda ifodalanadi. Masalan, ichki iztirob yoki qo'rquv aniq tasvir bilan emas, balki noaniq, ramziy yoki fantastik obrazlar orqali berilishi mumkin. Bu esa she'rning ta'sir kuchini oshiradi va uni ko'p qatlamli ma'noga ega qiladi.

Rauf Parfi va Faxriyor she'rlarida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Rauf Parfining ijodida vaqt va makon chegaralari buzilib, turli fikrlar va obrazlar bir-biriga ulanib ketadi. Uning she'rlari ko'proq falsafiy va psixologik yo'nalishga ega. Qozoqboy Yo'ldoshevning e'tiroficha: "Rauf Parfi aytilmoqchi bo'lgan fikr oppa-ochiq ko'rinib turgan she'rlarni kam yozadi. Odatda, uning bitganlari o'quvchini o'yga toldiradigan, satrlar zamiridagi

ma'noni izlab topishga undaydigan bo'ladi". [1]

Men uzoq uxladim.

Bir asr uxladim, nega meni –

Nega siz yashinni uyg'otmadingiz.

Mazkur misralar keskin emotsional kechinmalarni ifodalashga, murakkab va ziddiyatli ruhiy holatlarning rang-barang manzarasini tasvirlashga yo'naltirilgani kuzatiladi. Ushbu jarayonda "uyg'oq so'z" badiiy timsol sifatida talqin etilib, u haqiqatning teran va keskin mohiyatini ochib beruvchi vositaga aylanadi. ("Uxlama sen, Haqiqat"). Lirik qahramon ana tiyrak va keskinlashgan so'zga murojaat qilib, uni haqiqatni ifodalovchi kuch sifatida qadrlaydi. Shuningdek, she'rda so'zning ijtimoiy va ma'naviy uyg'otuvchilik funksiyasi alohida ta'kidlanadi. Lirik subyekt tomonidan "mudroqlik" ruhiy holati, ma'naviy sustlik va idroksizlik ("basirlik" tanqid qilinib, ularni uyg'otish zarurati ilgari suriladi. Bu yerda nafaqat alohida shaxslar, balki makon va zamon kategoriyalarini ham uyg'otish g'oyasi ilgari surilib, badiiy umumlashma darajasiga ko'tariladi.

Bundan tashqari, matnda haqiqatni ifodalash yo'lida qat'iyat va fidoyilik motivi ham mavjud.

So'zlarningning quyoshi

Achchiq yoshga aylansin.

Botirlarning ko'zyoshi

Bir kun toshga aylansin.

"Turkiston yodi", "Og'riq" singari vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan o'nlab she'rlarida milliy birlik g'oyasining rangin qirralari yoritiladi. ("Uyg'on, uyg'on bolam, uyg'ongil, ey dil"; "O, sabr daraxti, qutlug' Turkiston"). Ko'ngil hur tug'ilgan edi. Ruhning omonligi, erki "azal go'zallikning sham'ini yoqadi". Shoir estetikasida vijdon erkinligi masalasi alohida o'rin tutadi. Ruh va ko'ngil hurriyati, erk fenomeni R.Parfi estetikasida ijtimoiy-falsafiy kategoriya darajasida badiiy tadqiq etiladi. Xususan, ong-shuurimizdagi ko'rinmas, sezilmas temirdek qo'pol va qattiq bir kuch bizni metin iplari bilan bog'lab turadi. Yurish-turishimizdan tortib, gap-so'zlarimizgacha, xatti-harakatimiz o'y-fikrlarimizgacha, bir so'z bilan aytganda, izimiz so'zimizni, ko'rar ko'zimizni boshqaradi.

Faxriyor ijodida esa irratsional obrazlar, kutilmagan metaforalar va erkin ifoda usuli ustunlik qiladi. Bu shoirlar orqali o'zbek she'riyatida ham modernistik tafakkur shakllanganini ko'rish mumkin.

SHAKLSIZ XAYOL

Hislar go'yo daryo.

G'ir-g'ir

Shamol.

Hasrat kabi yaproqda

Mudrar bir tomchi yomg'ir. [2]

Modern she'riyatning yana bir xususiyati – uning shakliy erkinligidir. An'anaviy vazn va qofiya cheklovlari kamayib, erkin she'r keng qo'llanila boshladi. Bu esa shoirlarga o'z fikrini yanada erkin va tabiiy ifodalash imkonini berdi. Til ham oddiy tasvir vositasidan ko'ra murakkab ramziy tizimga aylandi. Modern she'riyatda mentallik va irratsionallik inson ruhiyatini chuqur va ko'p qirrali aks ettirishga xizmat qiladi. Mentallik orqali ichki kechinmalar ifodalansa, irratsionallik orqali bu kechinmalar badiiy jihatdan boyitiladi. Ularning uyg'unligi zamonaviy she'riyatning asosiy estetik belgilaridan biri hisoblanadi.

so'z

bir so'z bor qamalgan ichingda

qo'yib yubormaysan hech qachon

umrbod qamaysan shu so'zni ichga

odam o'ldirmagan

vatanni sotmagan

jamoat oldida o'zingni

sharmanda qilmagan bo'lsa ham garchi

mangu hibsdagi so'z

ichingda jaranglar
 bag‘ring toshlariga urilib
 hech kim eshitmaydi lekin bu so‘zni
 shar misol
 botiningga to‘lib qolgan so‘z
 ko‘tara boshlaydi osmonga
 bir kun shu so‘zni
 gullab qo‘ymasang bo‘ldi
 senga hech kimning qo‘li yetmaydi
 yerga toblab urmoqlik uchun
 yorib tashlamasa bo‘ldi bir kuni
 seni o‘sha so‘z [2.]

Faxriyor she‘riyatida mentallik modernistik ruhda namoyon bo‘lib, u an’anaviy tafakkurni inkor etuvchi, irratsional va assotsiativ fikrlashga asoslangan, parchalangan ong va ko‘p qatlamli ma’no tizimi orqali ifodalanadi. So‘z – ilohiy hodisa. So‘z ichki psixologik bosim, ongosti jarayonlari va insonning o‘zini anglashdagi murakkabliklarini juda obrazli tarzda ko‘rsatadi. Uni mentallik va irratsionallik nuqtayi nazaridan ko‘rsak, bir nechta chuqur qatlamlar ochiladi. Avvalo, “qamalgan so‘z” – bu oddiy so‘z emas. U ichki kechinma, aytilmagan haqiqat, ehtimol travma yoki ijtimoiy bosim tufayli bostirilgan fikrni anglatadi. Psixologik jihatdan bu repressiya (bostirish) hodisasiga o‘xshaydi: inson o‘zi ayta olmaydigan, lekin ichida saqlaydigan sir. She‘rda bu so‘z jinoyat emas (“odam o‘ldirmagan, vatanni sotmagan”), ya’ni u obyektiv yomon emas, lekin subyektiv ravishda “taqiqlangan”. Bu irratsionallikning boshlanish nuqtasi – inson ba‘zan aytish mumkin bo‘lmagan, aytoilmagan sirlarini ham ichida sir saqlaydi, hech kimga oshkor qilmaydi. Keyin she‘r ichki rezonansni tasvirlaydi: “ichingda jaranglar”, “bag‘ring toshlariga urilib”. Bu – ong va ong osti o‘rtasidagi konflikt. Inson uni chiqarolmaydi, lekin u yo‘qolmaydi ham. Irratsional jihati shundaki, bu “so‘z” tashqi dunyoda mavjud emas, lekin ichki tajribada juda real va hatto jismoniy og‘irlikka ega (“shar misol... ko‘tara boshlaydi osmonga”). Bu yerda metafora orqali psixik yuk jismoniy kuchga aylantirilgan – bu irratsional transformatsiya. Ya’ni ozodlikning o‘zi ham ichki bosimga aylangan. Bu paradoks – irratsional fikrlashning klassik ko‘rinishi: ozodlik berishi kerak bo‘lgan narsa asoratga aylanadi. Eng keskin nuqta oxirida: “yorib tashlamasa bo‘ldi bir kuni seni o‘sha so‘z”. Bu ichki portlash xavfi. Psixologik talqinda bu – ichki bosimning nazoratdan chiqishi. Inson o‘zini ushlab turgan narsa aslida uni yemirayotgan bo‘lishi mumkin. Bu ham irratsional holat: himoya mexanizmi so‘z (dard, iztirob, sir, aybni yashirish) o‘ziga qarshi ishlay boshlaydi. Mentallik inson ichki dunyosi tashqi axloqiy mezonlardan mustaqil ishlaydi, aytilmagan fikrlar yo‘qolmaydi, aksincha, kuchayadi, ong osti obrazlar orqali (tosh, shar, jarang) o‘zini ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, “ichga qamalgan so‘z” – bu oddiy so‘z emas. U aytilmagan haqiqat, sir, ehtimol tan olinmagan tuyg‘u yoki vijdon og‘rig‘i bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, she‘r ichki bosimni “bag‘ring toshlariga urilib”, “hech kim eshitmaydi”, “shar misol botiningga to‘lib qolgan” singari juda obrazli bergan. Qamalgan so‘z tashqariga chiqmasa, insonni yemira boshlaydi va axiyri bir kun uni yeb bitiradi. Uchinchidan, agar bu so‘zni “gullab qo‘ymasang”, ya’ni aytib yuborsang, seni hech kim yenga olmaydi. Lekin aytilmasa, u bir kun insonni yorib tashlaydi, sindiradi. Demak, insonning oldida doimgidek tanlov turadi: yoki ichingdagi dardni boshqalar bilan bo‘lishish, ya’ni yengillashish; yoki uni ichingda saqlab, o‘sha so‘z (sir)ning o‘ziga asir bo‘lib qolish. Faxriyorning mazkur she‘ridan aytilmagan haqiqat insonni ichidan yemiradi, degan haqiqat ustuvor.

Modern o‘zbek she‘riyatida mentallik va irratsionallik badiiy tafakkurning muhim estetik kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Rauf Parfi va Faxriyor ijodi misolida insonning ichki ruhiy olami, ong osti jarayonlari, intuitiv tafakkur hamda ramziy obrazlar orqali zamonaviy she‘riyatning yangi poetik qirralari ochib beriladi. Ushbu shoirlar ijodida voqelikni oddiy tasvirlash emas, balki uni inson qalbi va tafakkuri orqali qayta idrok etish tamoyili ustuvorlik qiladi.

Xulosa. Rauf Parfi she‘riyatida ruhiy uyg‘oqlik, vijdon erkinligi, inson va jamiyat

munosabatlari falsaiy-estetik ruhda talqin qilinsa, Faxriyor ijodida ichki iztirob, aytilmagan haqiqat, ong va ong osti ziddiyatlari irratsional obrazlar hamda erkin assotsiativ tafakkur, psixologik teranlik va ko'p qatlamli ma'no tizimi modernistic poetikaning asosiy belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, mentallik va irratsionallikning uyg'unligi she'riy matnning ta'sir kuchini oshirib, inson ruhiyatining murakkab va noaniq jihatlarini badiiy jihatdan teran yoritishga xizmat qiladi. Natijada modern she'riyat nafaqat estetik hodisa, balki insonning ichki "men"ini anglashga qaratilgan falsafiy-psixologik izlanish maydoniga aylanadi. Shu bois Rauf parfi va Faxriyor ijodi o'zbek modern she'riy tafakkurining yuksak namunasi sifatida alohida ilmiy va badiiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев Қ. Туйғулар ҳайкириғи. // Гулистон, 2010. № 4.
2. Фахриёр. Дарднинг шакли. Шеърлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1997.– 41 б.
3. Парфи Р. Сайланма. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.432.
4. Парфи Р. Сайланма. Биринчи жилд. – Тошкент: Мухаррир, 2022. – 390 б.
5. Парфи Р. Сайланма. Иккинчи жилд.–Тошкент: Мухаррир”, 2022. – 265 б.
6. Шарафиддинов Озод. Ижодни англаш бахти.– Тошкент: ШАРҚ, 2004. - 640 б.
7. Фахриёр. Аёлғу. – Тошкент: ШАРҚ, 2000. – 262 б.
8. Фахриёр. Излам. Тошкент: Академнашр. 2017. – 224 б.
9. Фахриёр. Геометрик баҳор. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 192 б.
10. Норматов Умарали. Ижод сеҳри.– Тошкент: ШАРҚ, 2007. – 352 б.
11. Фахриёр. Метаҳикоялар оралаб. Мақолалар. Эсселар. Интервьюлар. Таржималар.– Тошкент: Академнашр. 2020. – 288 б.

O'ZBEK ADABIYOTIDA HAVVO OBRAZINING BADIY TALQINLARI

Shomurodova Dilorom Husanmurotovna
Qarshi davlat universiteti tayanch doktorant
diloromshomurodovamagistr92@gmail.com
ORCID 0009-0006-5037-8134
UDK 821.512.133.09

Annotatsiya. Badiiy adabiyotga har bir obraz kiritilar ekan, u ijodkorning ma'lum bir g'oyasini, ijodiy maqsadini o'zida aks ettiradi, ma'lum bir ma'no tashiydi. Ayniqsa, bu obrazlar barcha uchun tanish bo'lgan, e'tiqodiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lsa asarning badiiy-estetik ta'sirchanligi oshishiga xizmat qilgan. Shu jihatdan islomiy obrazlar o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Jumladan, Hazrati Havvo shunday obrazlardan biridir. U haqida barcha monoteistik dinlarda, shuningdek, qadimgi miflarda farqli qarashlar mavjud. Bu tushunchalarning adabiyotdagi talqinlari ham turfa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada Havvo obrazining diniy manbalardagi talqinlariga tayangan holda uning badiiy adabiyotga qanday maqsad va mazmun uchun olib kiritilganini, uning qay yo'sinda ifoda etilganini tahlilga olindi. Tahlil jarayonida Navoiy, Nodira, Mashrab, Abdulla Avloniy ijodiy merosidan namunalar keltirildi.

Kalit so'zlar: Qissa, islom, Odam alayhissalom, ilk gunoh, Havvo.

ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE IMAGE OF EVE IN UZBEKISTAN LITERATURE

Abstract. Whenever a character is introduced in a work of fiction, it reflects the author's specific idea or creative purpose, and conveys a particular meaning. In particular, when these images are familiar to all and linked to religious beliefs, they serve to enhance the work's artistic and aesthetic impact. In this respect, Islamic imagery occupies a special place in Uzbek literature. In particular, Sacred Eve is one such image. There are differing views about her in all monotheistic religions, as well as in ancient myths. The literary interpretations of these concepts also manifest in various forms. In this article, drawing on the interpretations of the figure of Eve in religious sources, we analyse how she has been introduced into literary works for specific purposes and meanings, and how she has been portrayed. During the analysis, examples were drawn from the creative heritage of Navoiy, Nodira, Mashrab and Abdulla Avloniy.

Keywords: Story, Islam, Adam, first sin, Eve.

Kirish. Adabiyotimizda mumtoz ijodkorlar o'zlari mansub bo'lgan jamiyatning bir qismi sifatida o'z asarlarini Islom madaniyati va tafakkuri atrofida shakllantirganlar. Shoirlar Qur'oniy mavzular va nabaviy hikmatlar mazmunini badiiy asarlarga singdirish uchun katta imkoniyat va vosita bo'la oladigan talmeh, metafora, ishora va tarjima kabi san'atlardan ham

keng foydalanlar. Shu boisdan Islomiy obrazlar mumtoz adabiyotimizda faol qo'llanadi. Ana shunday diniy obrazlardan biri Hazrati Havvodir. Hazrati Havvo ilk inson Odam alayhissalomning rafiqasi va hamrohi sifatida yaratilgan, odamzod naslining ilk onasidir. Uning yaratilishi bilan insoniyat bu dunyoda mavjudlik maydoniga kirdi. U haqidagi qissalar ko'plab asarlardan o'ziga xos tarzda badiiy ifodasini topdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, germenevtik, tarixiy-madaniy metodlardan va badiiy-estetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Havvoni barcha diniy manbalarda ilk ayol sifatida tilga olinadi. Ammo uning haqidagi ba'zi qarashlar bir-biridan tubdan farq qiladi. Xususan, yahudiy urf-odatlarida Havvo vasvasa va yovuz mavjudot sifatida qaralsa, xristian an'analarida esa u asl gunohning sababi sifatida ko'riladi. Biroq boshqa diniy manbalarda farqli o'laroq Qur'oni Karimda bu siymoning mohiyatiga o'zgacha munosabat kuzatiladi.

Qur'oni Karimda Havvo ismi uchramaydi. Birgina o'rinda – "A'rof" surasining 19-oyatida Odamning jufti deya ataladi. Ammo islom manbalarida, jumladan "Qisasul-anbiyo"larda Havvo ismi zikr etiladi. Malaklar Odam alayhissalomdan nima sababdan unga Havvo ismi berilganini so'rganlarida u zot: "Chunki u tirik moddadan yaratilgan" deya javob beradilar [10; 47].

Ko'plab diniy manbalarda Hazrati Havvoni Odam alayhissalomning chap qovurg'asidan yaratilganligi ta'kidlanadi. Qur'on ham bu fikrlarni quvvatlaydi. Ba'zi olimlar, "Sizlarni bitta jondan yaratgan va o'sha undan uning juftini yaratgan" [Niso,1] oyatiga tayanib, Havvo Odam Atodan, Odam Atoning tanasining bir qismidan yaratilgan deb da'vo qilishgan va buni qo'llab-quvvatlovchi ba'zi hadislarini keltirishgan.

Mumtoz she'riyatimizda Hazrati Havvoning Odam alayhissalomga juft o'laroq yaratilishi, ularning jannatdan quvilishlari, yer yuzida qayta topishib, odamzod naslini barpo etishlarining badiiy in'ikosini ko'plab uchratish mumkin.

*Hazrati Odamni avval jumladin a'lo qilib,
Posi sultonni bag'ishlab jannat ichra shoh qilib,
Hazrati Havvoni ul Odam bilan hamroh qilib,
Kulli maloiklar ichida jumladin a'lo qilib,
Oxiri vaqtida jannatdin sivo qildi falak. [3:291]*

Mashrab qalamiga mansub ushbu misralarda Odam alayhissalomning barcha farishtalardan ustun qilganligini va uni jannatga kiritib yuksak martaba egasiga aylantirgani keltiriladi. Ammo Odam u yerda zerikadi. O'ziga o'xshash bir hamroh istaydi. Shunda Alloh unga juft sifatida Havvoni yaratadi. Ularni jannatda barchadan a'lo maqomda tutdi, ammo bir xato uchun ularni bu ne'matlardan mosuvo qildi. Shoir Allohning buyuk qudratini Odam alayhissalom va Hazrati Havvo voqeasi orqali dalillaydi.

Hazrati Havvo va Odam alayhissalom ishq bu ilk ishq hikoyasi hamdir. Inson zotining yolg'iz yashay olmasligi, unga doim bir hamroh lozim ekanligi ularning taqdiri orqali ochib beriladi. "Qur'oni Karimda Havvoning yaratilish sababi "Odamga hamroh bo'lishi va uning bilan huzur topishi" deb bayon etilgan. Inson zotining erkak vakili bo'lgan Odam uchun hamroh ham shu inson zotidan, lekin ayol jinsidan yaratilgan"[10;47-b.]. Darhaqiqat, Havvo ilk insonga hamroh bo'lish uchun u bilan birgalikda tinch-farovon hayot kechirish, bir-birining kamchiliklarini to'ldirish uchun yaratilganlar.

Ibn Abbos va Ibn Mas'ud r.a.dan kelgan bir rivoyatga ko'ra shayton jannatdan quvilgandan va Odam alayhissalom u yerga kiritilgandan so'ng yolg'izlikda zerikadi. Jannatdagi mislsiz ne'matlarga qaramasdan o'ziga bir hamroh istaydi. Bir kun Odam chuqur uyga ketadi va Alloh uning chap qovurg'asidan ayolni yaratadi. Ko'pchilik diniy manbalarda shu ma'lumot keltiriladi. Xususan, Qur'oni Karimda "(U) sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratdi, so'ngra undan juftini (Havvoni paydo) qildi..." (Zumar surasi, 6-oyat) [1, 459] ushbu oyatdan ko'rinadiki, Odam s.s.ning yakka inson sifatida yaratilganligi va undan Havvo onamizni yaratganligi ochiqchasiga ifoda etilgan. Qur'onda aytilishicha Havvo eri Odam (alayhissalom) o'zida xotirjamlik topishi uchun yaratilgan. Bu nuqta nikohning maqsadini ochib berish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Unda inson yolg'iz hayotida topa olmaydigan xotirjamlikka faqat nikoh orqali erishish mumkinligi ta'kidlangan. Tabiatan, erkaklar va

ayollar nikohsiz to'ldira olmaydigan bo'shliqlar mavjud. Bu bo'shliqlarni boshqa hech narsa to'ldira olmaydi. Shu sababdan ularning nomlari ko'pincha birga tilga olinadi.

Menga irshod bersang, Odamu Havvoni hozir qil,

G'aribu xastaman, Nuhi nabiyulloni hozir qil. [4: 66]

Badiiy asarlarda Odam va Havvoning ilk gunohi haqidagi voqea alohida e'tiborga molikdir. Chunki bu voqea boshqa dinlarda o'zgacha talqinga ega. Xususan, yahudiylikda aynan bu gunoh Havvo sababli ro'y bergan, ya'ni ilonning vasvasasi ta'sirida mevadan birinchi Havvo yegan va Odamga ham yedirgan deya qaraladi. Havvoni ilk gunohkor sifatida ayblaydilar. Xristianlik Tavrotdagi Havvoning gunohi haqidagi ma'lumotlarni qabul qiladi va uni Maryam bilan taqqoslaydi. Maryam va Havvoni taqqoslagan cherkov rohiblaridan birinchisi Justinning so'zlariga ko'ra, Maryam hayot va sadoqat ramzi, Havvo esa xiyonat va o'lim ramzidir. Cherkov ruhoniylarining fikriga ko'ra, bokira qiz (Havvo) tufayli halokatga mahkum bo'lgan insoniyat boshqa bokira qiz (Maryam) orqali najot topadi. Xristian tushunchasiga ko'ra, ayol Odam Atoga taqiqlangan mevani berib, jannatdan chiqarib yuborilgan va shu tariqa insoniyatning gunohkor bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ammo Qur'oni Karim bu voqeaga o'zgacha yondashadi. Ya'ni insoniyatning jannatdan quvilishiga sabab bo'lgan taqiqlangan mevani yeyishda har ikkalasini ham teng aybdor deya baholanadi. Tavrot va Injildan farqli ravishda Qur'onda ilk gunoh Havvoning tashviqi bilan qilinganligi borasida hech bir ma'lumot yo'q.

Atomiz Odam-u Havvoni qo'ydi jannatiga,

Tushirdi yer yuziga, aylab erdilarki xato. [9:92-b.]

Abdulla Avloniy Qur'ondagi fikrlarni ayni quvvatlovchi ushbu misralarda har ikkalasining gunoh qilganligini va shuning uchun jannatdan yer yuziga tushirilganliklarini qalamga olgan.

Ammo o'zbek adabiyotidagi "Qisas ul-anbiyo"larda bu voqea bilan bog'liq farqli holatlar ko'zga tashlanadi. Xususan, "Qisasi Rabg'uziy"da bu voqea quyidagicha keltiriladi: "Yilon Odam va Havvoning taxtinda o'tru kelib to'ruqdi, og'zining tili oltinda Iblis so'zladi. Odam yilon so'zin tinglamadi ersa Havvog'a uvurdi. "Tishi ko'ngli yumshoq bo'lur", teb Havvog'a so'zladi: "Hech bilurmisen, bu bug'doy yig'ochindin sizni tengri ne uchun yig'di?" Havvo aydi: "Bilmazmen". Iblis aydi: Aning uchun yig'di kim ul yig'ochdin yesa ujmohda mangu qolur, o'lum ko'rmaz taqi ujmoh mulkindin arzilmas teb. Xal adullukaj ala shajaratal-xuldi va mulkin la yabla.(iz.(Ey Odam) senga mevasini yesa abadiy boqiy qoladurgan daraxtni va foniy bo'lmaydurgan podshohlikni ko'rsataymi?) Havvoning ul so'zga ko'ngli mayli bo'ldi, qo'bdi. O'n mankim, yig'oching'a tegdi. Bir butoq sidi, Odam kelturdi, aydi: "Bu butog' totlig' ermish, man yedim bosh qilmadi, sanma yegil", tedi. Ul soatda ahdni unutdi...Ul uvunni og'zing'a soldi, chaynadi, bo'g'zing'a tiqilmishda ul ahdni angdi." [5:26] Ushbu talqin Tavrotdagi voqea bilan ayni bir xildir. Ya'ni Havvo bosh aybdor va Odamni ham gunohga boshlagan ayol sifatida qaraladi.

Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida esa bu voqea biroz farqli ko'rinishda berilgan: "Iblis bu xusumatdin yilon vositasi bila bihishtga kirib, Odam alayhissalom bug'doy yemak vasvasasin qilib, chun irodatulloh munga joriy bo'lub erdikim, olam yuzin Odam avlodi tutqay." [6:98] Navoiy asarida ilon Odam alayhissalomni vasvasa qilib, gunohga chorlaydi. Navoiy talqini qur'onga aynan mos keladi. Bunga ko'ra Odam alayhissalom vahiyini olgani uchun, shayton unga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilgani aytiladi, chunki asosiy mas'uliyat Odam alayhissalomga tegishli va uning Havvoga qilgan murojaati tilga olinmagan. Yahudiy-nasroniy an'alarida Havvoni vasvasaga soluvchi va yo'ldan ozdiruvchi sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, Qur'onda birinchi inson juflligining jannatdan quvib chiqarilishiga olib kelgan vaziyat uchun erkak ham, ayol ham teng javobgar deb ko'rsatilgan.

Navoiy Odam a.s. qissasini davom ettirar ekan, u va Havvoning jannatdan chiqarilishi, ularni ayro holda yerga tushirilganliklarini keltiradi. "Odam va Havvoni bihishtdan chiqardilar. Va Hindiston mulkida bir-biridan ayru tushtilar. Odam a.s. Makkaga kelib, Arofat yonida Havvog'a uchradi. Andin Arofat ul yerga laqab qoldi" [6:98] diniy manbalarga ko'ra Odam va Havvo jannatdan chiqarilgach, Odam a.s. Hindistonda Seylon oroliga, Havvo esa

Jiddaya tushirildilar. Ular 200 yil (ba'zi manbalarda 130 yil)yig'lab, Allohga tavba qiladilar. Ularning mana shu uzoq yillik ayriliqlari, hijronda bir-birini izlab yurganliklari holati adabiyotimizda badiiy ifodasiga ega.

*Mendin ayirdi davron ul yori hamdamimni,
Qaydin toparman emdi shohi mukarramimni,
Havvo sifat jahonda izlarman Odamimni,
Yorimdin ayrilibman kimga deyin g'amimni,
Dushvor ekan jahonda tanholig' ibtidosi. [7:256]*

Nodira qalamiga mansub ushbu muxammasda shoira o'zini Hazrati Havvoga o'xshatgan holda o'zining yorini izlashini, g'amda chekayotgan azoblarini, inson uchun yolg'izlikda yashash naqadar og'ir ekanligini bayon etadi.

Uzoq ayriliqdan so'ng ularning iltijo va duolari qabul bo'lib, Makkada Arofat tog'ida uchrashdilar. "So'ngra Parvardigori uni poklab, tavbasini qabul etdi va hidoyatga yo'lladi." (Toha surasi, 122) Ular uchrashganlaridan so'ng yer yuzida hayot kechira boshlaydilar. Birlikda yashadilar. Insoniyat naslini boshi bo'ldilar, ko'plab farzandlar dunyoga keltirib, ularni Allohga iymon bilan tarbiya qildilar. Hazrat Havvo eriga namunali sadoqat ko'rsatdi, unga hayot kechirishida, uning payg'ambarlik vazifalarini bajarishda va farzandlarini tarbiyalashda eng katta yordam berdi. Shuningdek, u onalikning eng go'zal namunasini ko'rsatdi va undan keyin keladigan barcha ayollar uchun o'rnak bo'ldi.

*Ilohiy tashnalarni mavj ul daryoga yetkurgil,
Hamon sarmanzili ul Odamu Havvoga yetkurgil. [3:347]*

Mashrab misralarida aynan insoniyat naslining boshlovchilari ilk ota-onasi Odam alayhissalom va Hazrati Havvoni e'tirof etib, o'zining Allohga bo'lgan ishqini, unga tashnaligini ularga yetkazishni so'raydi. Umuman, bu muxammasda to'lig'icha payg'ambarlar nomi va sifatleri tilga olinib, ular orqali Allohga bo'lgan ilohiy muhabbatini yetkazishni so'raydi. Hamda buning birinchisi sifatida Odam va Havvo nomlarini zikr qiladi. Chunki Hazrati Havvo ilk onalik sharafiga yetishgan va jamiki payg'ambarlar naslini chiqargan ayoldir. Odam alayhissalom bilan birlikda inson naslining boshlovchisidirlar. Shoir payg'ambarlarni Allohning elchisi, u bilan so'zlashadigan, sinovlarida toblangan insonlar ekanligini ta'kidlagan holda ular orqali Allohga o'zining iztirobdagi holidan xabar beradi.

Shu onalik maqomiga yetishish barobarida dunyoda o'g'illarining o'rtasidagi nizolarini va uning ortidan keluvchi iztiroblarini-da totgan, farzand dog'ini ko'rgan ilk ayol ham hazrati Havvodir. Qur'onda keltirilgan Hobil va Qobil qissasida ikki aka-ukaning nizolari, Qobilning shayton vasvasida o'z ukasi Hobilni o'ldirishi Hazrati Havvoga qattiq ta'sir qiladi. Farzandining o'limi va Qobilni Odam alayhissalom haydab yuborishi bilan bir kunda ikki o'g'ildan ayriladi. "Qisasi Rabg'uziy"da Odam bilan Havvo bu g'amdan uzoq yig'ladilar va motam tuttilar deb keltiriladi. Ularning uzoq yillik Hobilning firoqidagi iztiroblaridan so'ng Shis alayhissalom tug'ildi. "Qisasi Rabg'uziy"da bu voqea haqida shunday deyiladi: "Qobilda kezin yuz o'tuz yil kechdi, Shis tug'urdi. Shis sarboniy tilincha "hibatulloh" temak bo'lur, ya'ni Tengri atosi. "Hobilni oldim ersa aning o'rning'a Shisni berdim.", tedi." [5:40] Shu tarzda Alloh ularga hadya sifatida Shis alayhissalomni beradi va ularning g'amlari biroz yengillashadi.

Xulosa qilib aytganda, Odam alayhissalom va Hazrati Havvoning yaratilishi insoniyat uchun juda muhim. Ularning yaratilishi bilan insoniyat bu dunyoda mavjudlik olamiga kirdi. Ular bir necha og'ir sinovlardan o'tdilar, cheksiz azoblar, uqubatlar ostida qoldilar. Ammo bularning barchasiga sabr qilib, chin qalbdan qilgan tavbalari, duo va iltijolari bilan Allohning marhamatiga sazovor bo'ldilar. Odam alayhissalom va Hazrati Havvo insoniyat uchun nihoyatda muhim ufqni ochdi. Ular haqidagi qissa necha zamonlardan o'tib badiiy adabiyotimiz uchun ibratli o'rnak bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tuzuvchi Shayx Abdulaziz Mansur. –T.: Toshkent islom universiteti, 2016. 459-b.
2. Muqaddas kitob. –Toshkent, 2020. 42-b.

3. Boborahim Mashrab. Mehribonim, qaydasan. G‘azallar, muxammaslar. –Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1996. 391-b.,347-b.
4. Boborahim Mashrab. Agar oshiqlik‘im aytsam. G‘azallar. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. 66-b.
5. Rabg‘uziy, Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg‘uziy. –Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 40-b.
6. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Mukammal asarlar to‘plami.(20 tomlik) 16-jild. T.: Fan, 2000. 98-b.
7. Nodira. Asarlar. II jildlik. J. I. Devon. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1968. 256-b.
8. TDV Islam Ansiklopedisi. 16-jild. Istanbul: 1997 542-545-b.
9. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: II jildlik. I j. –T.: Ma‘naviyat, 2009. 92-b.
10. Kur‘an’daki Kadim Şahsiyetlerin Klâsik Türk Şiirine Yansıması / Doç. Dr. Şevkiye KAZAN NAS. – DÜŞÜNCE DÜNYASINDA TÜRKİZ SİYASET VE KÜLTÜR DERGİSİ Yıl: 7 / Sayı: 39 / Mayıs - Haziran 2016 / . 47-b.

MAHMATMUROT BAXSHI – TERMA VA DOSTONCHILIK AN‘ANALARINING DAVOMCHISI

Akramov Sherzod Xalmirzayevich

Qarshi DU PhD, dotsent,

akramovsherzod05@gmail.com

ORCID 0009-0006-7483-4800

UDK 398.2(045)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan dostonchilik san‘ati hamda uning yorqin namoyandalaridan biri Maxmatmurot baxshi Rajabovning hayoti va ijodiy faoliyati ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida baxshichilik an‘analarining tarixiy ildizlari, ustoz-shogird tizimi, Sherobod dostonchilik maktabining o‘ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy davrdagi rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, baxshining epik repertuari, termalari va doston ijrochiligi badiiy-estetik jihatdan baholanadi. Maxmatmurot baxshining yo‘qolib borayotgan dostonlarni tiklash va ularni keng jamoatchilikka yetkazishdagi xizmatlari alohida e‘tirof etiladi. Tadqiqot natijalari milliy folklor merosini asrash, rivojlantirish hamda yosh avlodga yetkazishda baxshilar faoliyatining muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: baxshichilik, dostonchilik, folklor, epik meros, Sherobod maktabi, termalar, xalq ijodi, ustoz-shogird an‘anasi, milliy qadriyatlar, baxshi.

Abstract. This article scientifically analyzes the art of epic poetry, which is an important component of Uzbek folk oral art, and the life and creative activity of one of its bright representatives, Makhmatmurot Bakhshi Rajabov. In the course of the research, the historical roots of the Bakhshi traditions, the master-disciple system, the specific features of the Sherabad school of epic poetry, and the development trends in the modern era are highlighted. Also, the epic repertoire, terms, and performance of the Bakhshi are evaluated from an artistic and aesthetic point of view. Makhmatmurot Bakhshi's services in restoring the disappearing epics and bringing them to the general public are especially recognized. The results of the research show that the activities of the Bakhshis play an important role in preserving, developing, and conveying the national folklore heritage to the younger generation.

Keywords: bakhshi, epic poetry, folklore, epic heritage, Sherabad school, terms, folk art, master-disciple tradition, national values, Bakhshi.

Kirish. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xususan, dostonchilik san‘ati milliy madaniyatimizning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy qarashlari, estetik didi va ma‘naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan noyob badiiy meros hisoblanadi. Baxshichilik san‘ati esa ushbu merosni avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy vosita bo‘lib, u nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Mustaqillik yillarida milliy folklorga bo‘lgan e‘tiborning ortishi natijasida ko‘plab baxshilar va dostonlar qayta kashf etildi, ilmiy jihatdan o‘rganila boshlandi. Mazkur maqolaning maqsadi – o‘zbek dostonchilik an‘analarida muhim o‘rin tutgan baxshilardan biri Mahmatmurot baxshi Rajabovning hayoti, ijodi hamda uning epik merosni saqlashdagi o‘rnini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavjud ilmiy adabiyotlar, folklor to‘plamlari va baxshilar ijodiy merosiga oid manbalar o‘rganildi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy metod (dostonchilik an‘analarini tahlil qilishda); biografik metod (baxshi hayoti va ijodini

o'rganishda); folklorshunoslik tahlili (doston va termalarning badiiy xususiyatlarini aniqlashda); empirik kuzatish va suhbatlar asosidagi materiallar (zamonaviy baxshilar faoliyatini yoritishda) kabi ilmiy metodlardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Ildizlari juda qadimga borib taqaladigan ko'p qirrali o'zbek eposi xalqimiz ma'naviy madaniyati taraqqiyotida asosiy o'rin tutadi. Qayta qurish davrida o'zbek xalqi dostonlari haqida ma'lumotlar savodli kishilar tomonidan qayta tuzilgan "Hikoyati Go'ro'g'li sultoni", "Yusuf bilan Ahmad", "Sanobar" kabi kitoblar asosidagina juda kam va chalkash tasavvurlarga ega edilar. O'zbek eposining maqtovlarga sazovor boy badiiy merosigina emas, hatto uning ajoyib jonli og'zaki an'anasi ham, bu an'anani davom ettirayotgan talantli dostonchilar ham noma'lum edi.

"Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlil" [1] ekani e'tiborga olinsa, insoniyatning nasl-u nasabi, turli millat va elatlarning tarixiy ildizlari milliy folklorimizning dolzarb ilmiy muammolaridandir. Mustaqillik tufayli o'zbek folklori qisqa bir davrda katta-katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Fanda ma'lum bo'lmagan juda ko'p baxshilar aniqlandi, folklorida katta to'plovchilik ishlari olib borildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, XIX asrning 1-yarmi va XX asr boshlarida o'zbek xalq baxshilari repertuarida yuzdan ortiq dostonlar bo'lgan, bularning oltmishdan ko'prog'i yozib olindi, bir qancha asarlar variantlari bilan yig'ildiki, ularning soni uch yuzga borib qoladi. Mustaqillik davrida ikki yuzdan ortiq baxshilar aniqlandi. Bular ichida Tilla kampir, Sulton kampir, Xonimjon xalifa, Bibi shoir, Xolmurod, Yo'ldoshbulbul, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Amin baxshi, Bo'ron shoir, Sultonmurod, Xidir shoir, Jumanbulbul, Jossoq baxshi, kabi epik ijodiyotning juda ham mashhurlari borki, ularning talant va qobiliyatlari, sha'n va shuhratlari yuz yillar davomida xalq orasida maqtovlarga sazovor bo'lib boraveradi.

Jonli og'zaki epik an'anani davom ettirib, bizgacha olib kelgan o'zbek xalq shoirlari mustaqillikni juda katta quvonch bilan kutib oldilar. Bu o'zbek xalqi va xalq bag'rida o'sgan xalq shoirlari uchun cheksiz baxt va saodat bo'ldi. Uzoq asrlar mobaynida xalq ommasi kechirgan falokatli kunlarni, dard va alamlarni, nafrat va g'azabni, baxt va saodat orzulari bilan to'lgan xayollarini kuylab kelgan xalq shoirlari mustaqillikni ko'tarinki kayfiyatda kutib oldi. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Safar baxshi, Rajab baxshi, Qodir baxshilar mana shunday o'zbek xalq shoirlarining peshqadamlaridan sanaladilar. Mustaqillik tufayli xalq ijodiga katta e'tibor bilan qarash, undan to'g'ri foydalanish va uni rivojlantirish yo'lidagi qimmatli ko'rsatmalari va g'amxo'rliklari o'zbek xalqining ham ming yillar mobaynida yaratgan og'zaki badiiy ijod xazinasini yuzaga chiqarishga yordam berdi. Ajoyib talant egalari bo'lgan xalq shoirlarining erkin kuylashiga keng yo'l ochib, ularni hech bir zamonda ko'rilmagan umumxalq va davlat hurmatiga sazovor qildi. Ijodiy faoliyatlarining gullab-yashashini uchun sharoit yaratib bermoqda.

Bir vaqtlar tor doiralarda, ma'lum darajada chegaralangan jug'rofiy territoriyadagina ma'lum bo'lgan bu xalq shoirlari nainki butun O'zbekiston yoki O'rta Osiyoda, balki butun dunyo xalqlari orasida ham tanildilar. So'z san'atini sevib qadrllovchi o'zbek xalqlarining hurmat, e'tiboriga sazovor bo'lib kelmoqda. Ana shunday xalq baxshilarimizdan biri Mahmatmurot baxshi Rajabovdir. Uning hayoti va ijodiy yo'li ko'p baxshilarimiz uchun xarakterli.

Radjabov Mahmatmurot Ismoyilovich – 1971-yilning 12-dekabr kuni Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani To'dacharbog' qishlog'ida oddiy shofyor oilasida tug'ilgan. Ilk tarbiyani otasi Ismoyil baxshidan, so'ng bobosi Rajab baxshidan tarbiyat topib, baxshichilik sirlarini o'rgangan. Ta'kidlashicha yetti pushti baxshi o'tgan. Hozirgi kunda Nishon tumani Oq oltin - 7 jamoa xo'jaligida 1985-yildan buyon yashab kelmoqda. Oilali, 5 nafar farzandi bor. 2 o'g'il, 3 nafar qizning suyuqli otasi. 2006-yildan boshlab Madaniyat sohasida faoliyat yurita boshlagan. 2017-yildan boshlab, Nishon tumani Oq oltin -7 madaniyat markazi direktori lavozimida xizmat faoliyatini olib bormoqda. 2013-yilda O'zbekiston xalq baxshisi

unvoni bilan taqdirlangan. 20 dan ortiq dostonlar ijrochisi, 40 dan ortiq termalari xalq ichida mashhur. 2022-yilda “Madaniyat va san’at fidokori” ko’krak nishoni bilan mukofotlangan. Tuman, viloyat, Respublikada bo’lib o’tadigan davlat tadbirlari Mustaqillik bayrami, Navro’z bayramlarida faol ishtirokchisi. Respublika baxshichilik festivallarida 1, 2-o’rinlarga loyiq topilgan. 20 dan ortiq shogirdlari bo’lib, bir nechtasi katta davralarda termalar aytib, xalq ko’nglidan joy olib kelmoqda.

U yosh vaqtidan san’atga qiziqdi. Mol boqib yurgan paytlarida do’mbira chertishni o’rgandi, mehnat qo’shiqlarini yodlab, bularni kuy bilan aytadigan bo’ldi. O’z holini, o’ziga o’xshagan cho’ponlarning dard va alamli hayotini tasvir etadigan qisqa va kichik qo’shiqlar yaratishga o’rgandi.

Dehqonobod tevaragida bir necha dostonchilar bor edi. Mahmatmurot baxshi xalq shoirlarining dostonlarini havas bilan tinglar, ayrim qo’shiqlarini o’rganib olib, cho’pon do’stlarining orasida kuylab, mashq qilardi. Bu vaqtlar unda xalq dostonlariga qiziqish kuchaydi va dostonchi shoir bo’lish havasi uyg’ondi. Shunday qilib, Mahmatmurot baxshining dastlabki ijodiy faoliyati qishloqda boshlandi. Uning ijodiy ishidagi dastlabki urinishlarida hamkorlik qiluvchilar, unga ijobiy, tarbiyaviy, ma’naviy ta’sir qiluvchilar og’ir turmushning azob va uqubutlarini ko’p chekkan haqiqiy mehnat kishilari bo’lgan.

Uning badiiy adabiyotga bo’lgan zavqi yanada oshgan, ijodiy faoliyati kundan-kunga yuzaga chiqqa boshlagan, endi uni o’stiruvchi ustod kerak bo’lgan bir payt edi. Bu jihatdan Maxmatmurot baxshi bo’ldi. Qishloqda otasi Ismoyil baxshi, bobosi dongdor dostonchilardan Rajab baxshi To’dacharbog’ qishlog’ida hali barhayot bo’lib, dostonchilikni izchil davom qildirar edilar.

Bu o’rinda dostonchilar va dostonchilik maktablari haqida bir necha so’z aytishga to’g’ri keladi. Avvalo, shuni aytish kerakki, o’zbek dostonlari va uning ijrochilari ustidagi uzoq yillik kuzatuvlar hamda yig’ilgan faktik materiallar Sherobod dostonchilik maktabi chuqur ilmiy asoslarga ega ekanligini batamom tasdiqlaydi. Har bir baxshiga nisbatan haqiqiy ilmiy munosabat shuni ko’rsatadiki, og’zaki dostonning yaratuvchi va ijrochilari o’zlarining dunyoqarashlari, repertuarlarining g’oyaviy yo’nalishlari jihatidan bir-birlaridan keskin farq qilib, ikki guruhga bo’linadi. Chunki o’tmishda har bir baxshining o’ziga xos repertuari bo’lgan.

Ayrim tarixiy ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, o’zbek dostonchilari orasida maxsus saroy baxshilari [2] bo’lgan. Chingizxon huzuridagi Ulug’ jirchi, To’xtamishxon saroyidagi Kamolzoda va Jahon Mirza, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II saroyidagi Riza baxshi, Buxoro amiri Nasrulla saroyidagi Ernazar kabilar shunday baxshilardan bo’lganlar. Yana shunday baxshilar borki, ular epik asarlar ijro etish bilan birga shamanlik, duoxonlik ham qiladilar. Bu dostonchilikning nisbatan qadimiy-sinkretik bosqichining qoldig’i bo’lib, o’zbeklarda baxshi so’zining ikki ma’noda ishlatilishi ham shu bilan izohlanadi.

Ikkinchi guruh baxshilar bevosita mehnatkash omma orasidan yetishib chiqqan, uning manfaatlarini himoya qilgan xalq kuychilari bo’lib, xalq yaratgan og’zaki badiiy ijodning eng yaxshi namunalarini saqlagan va demokratik g’oyalarni oldinga surgan dostonchilardir. G’oyaviy yo’nalish va sinfiy mansubiyatda bir bo’lgan bu shoirlar repertuarlari, poetik mahoratlari, ijro usullari jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Xalq baxshilarining o’zlariga xos poetik yo’llar bilan bir-birlaridan ajralishlarini men fanda dostonchilik maktablari deb ataganman. Ana shunday maktablardan biri Sherobod dostonchilik maktabidir. Mahmatmurot baxshi ana shu maktabning talantli vakillaridandir. U qadriyatlar – har bir millatning ma’naviy qiyofasini namoyon etadi. Buyuk mutafakkirlar ham qadriyatlar millat ma’naviyatining ko’zgusi deb bejiz e’tirof etmagan. Milliy qadriyatlar har bir millatning tili, urf-odatlarini, tarixi, madaniyati, an’analari, barcha moddiy va ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini o’z ichiga qamrab oladi. Shunday ekan Maxmatmurot baxshi Yigit bo’lsanga yoronlar,

Har joyga egma-ya boshingni.
Bir nomardga-ya bermagin,
Hattoki, soydagi toshingni.
Nariroq tur deb itarmagin,

Ey, yaqin qarindoshingni.
 Nariroq tur deb itarganing,
 Bir kun orqa-ya bo'lmas-ey.
 Nariroq tur deb itarganing-a,
 Bir kun suyanch-a bo'lmas-ey.

deb 20-25-yoshlarida termalarni jo'shib kuylay boshlagan. Hozirda "Rajab bxshi xotirasiga bag'ishlab" xotira-termasi, "Ravshanxon", "Go'ro'g'lining bolalaigi", "Murodxon" dostonlar ijrochisi hamdir. 2025-yilda "Nuralining sardor bo'lishi" (Avazxonning o'g'li) kitobi Samarqand shahrida "Noshir" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan chop etilgan. Ota-bobosining shuhratini yoygan bu maktabning bugungi kunda ham kuchli sur'atda davom etayotgani, biz bu maktabga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lgan o'nlab folklorshunos olim va xalq baxshilarining nomlarini bilamiz. Shulardan bir nechasini tilga olib o'tishga to'g'ri keladi.

Abdimo'min Qahhorov (1929-1997). Janubiy O'zbekiston epik an'alarining tadqiq etib dunyoga tanitgan folklorshunos olim, xalq og'zaki ijodi xazinaboni Abdumo'min Qahhorov 1929-yilning 10-mayida Qashqadaryo viloyatining Tovash qishlog'i dehqon oilasida dunyoga kelgan. U 1946-1952-yillarda Samarqand davlat universitetining Filologiya fakultetida, 1970-1971-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetining aspiranturasida o'qigan. 1952-1957-yillarda Qarshi o'qituvchilar instituti (keyinchalik pedagogika institutiga aylantirilgan, hozirgi Qarshi davlat universiteti)da o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, bo'lim mudiri, 1957-1958-yillarda Qarshi tumanidagi 21-o'rta maktabda o'qituvchi va ilmiy bo'lim mudiri, 11-o'rta maktab direktori, 1958-1959-yillarda Qarshi tuman "Paxtakor" gazetasining muharriri bo'lib ishlagan. 1962-1973-yillar Qarshi davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida o'qituvchi, 1964-1965-yillar Filologiya fakultetining dekani, 1973-1978-yillar dekan muovini, 1979-1985-yillar Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida mudiri, 1985-1997-yillar O'zbek adabiyoti kafedrasining dotsenti vazifalarida mehnat qilgan.

A.Qahhorov Qashqadaryo va Surxondaryo dostonchilik maktablarining an'alarini, baxshilarning epik repertuari, zamonaviy dostonlar badiiyatini o'rgangan. Janubiy O'zbekistonda yashab ijod qiluvchi baxshilar repertuariga xos bo'lgan "Kelinoy" turkumi dostonlari genezisi, mazmuni, tarqalish doirasi, dostonchi repertuaridagi o'rni, variantlari va badiiy xususiyatlarini chuqur tadqiq etgan. 1972-yilda "Kelinoy" turkumi dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ko'p yillik mehnati, izlanishlari natijasida Qashqadaryo-Surxondaryo xalq baxshilarining 100 yillik ustoz-shogird shajarasini tuzib ilmiy-jamoaga taqdim etgan.

Olimning ilmiy izlanishlari bilan bir qatorda folklor matnshunosligi – xalq badiiy ijodi namunalarini to'lash va nashr ettirish sohasida ham qilgan xizmatlari tahsinga loyiq. Zahmatkash olim 1953-1990-yillarda yakka holda, Qarshi davlat pedagogika instituti (hozirgi Qarshi davlat universiteti) filolog-talabalarining an'anaviy jamoaviy folklor ekspeditsiyalariga rahbarlik qilgan. Sherna baxshi, Umir shoir Safarov, Qodir Rahim o'g'li kabi 100dan ortiq xalq baxshilari ijodiy merosini yozib olgan. "Oychinor" (1984), "Nuralining bandi bo'lishi" (1993), "Sohibqironning tug'ilishi" (1993), "Ollonazar-Olchinbek" (2002) dostonlarini nashrga tayyorlab, chop ettirgan. Folklorshunos Abdimo'min Qahhorovning fidokorona mehnati davlatimiz tomonidan 1989-yili "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan. Folklorshunos olim 1997-yil vafot etgan.

Shavkat Bobomurod baxshi-shoir – 1976-yil 27-mayda Samarqand viloyatining Nurobod tumaniga qarashli G'allakor qishlog'ida tug'ilgan. Shu qishloqning 26- umumiy o'rta ta'lim maktabida 9-sinf gacha a'lo baholarga o'qidi. Undan keyin esa to shu kungacha ota-bobolarining kasbi bo'lgan cho'ponchilik bilan shug'ullanib kelmoqda. Besh farzandning otasi Shavkat Bobomurod she'rlar, hikoyalar yozish bilan birgalikda baxshichilik yo'nalishida ham ijod qiladi. Baxshi-shoirning hozirgacha "Kel do'mbiram, yurtim madhin kuylaylik", "Onajonginam", "Yana bahor keladi", "Dardlarim she'rdada qoldi" kabi she'riy to'plamlari va "Sohibqiron Temurbek" hamda "Fozil Yo'ldosh" nomli dostonlari nashrdan chiqqan. Keyingi yillarda baxshi-shoir "Sulton Jaloliddin Manguberdi", "Buyuk kurash", "Taqdir", "Baxshing bor-da, O'zbekim", "Tohir va Zuhra", "Buyuk Qodir baxshi" va "Do'styor shoir" nomli

dostonlarni hamda “Bahrinnoma” nomli tarixiy shajara kitobini shuningdek to‘rtta she‘r va termalardan iborat to‘plamlarini yozib tugatdi. Baxshi-shoir ayni kunlarda “Ergash Jumanbulbul”, “O‘zbekistonim”, “Ochil Mahsum” va “Shavkat shoir aytadi” kabi dostonlar ustida ishlamoqda. Hozirgacha uning o‘ttizga yaqin she‘rlari respublikamiz xonandalari tomonidan va bir qancha termalari baxshi-oqinlar ijrosida kuylanmoqda. Baxshi-shoir Shavkat Bobomurod ijod bilan birgalikda do‘mbira chertib doston va termalar ham ijro qilib turadi. Ajdodlarimizning ulug‘ merosi “Alpomish”, “Ravshanxon”, “Rustamxon” “Tohir-Zuhra” va “Avazxon” kabi dostonlarni ham o‘rganib chiqdi. Baxshi-shoir Shavkat Bobomurod 2019-yilda Termiz shahrida o‘tkazilgan “Birinchi Xalqaro Baxshichilik san‘ati festivali”da ham qatnashdi. 2020-yilda Samarqand viloyati ijodkorlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Uyda qoling tanlovida 2-o‘rin va “Eng aziz va eng ulug‘” respublika ko‘rik-tanlovining Samarqand viloyati bosqichida “Sohibqiron Temurbek” dostoni bilan “Eng yaxshi she‘riy asar” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Shavkat Bobomurod 2021-yil mart oyida Xorazm viloyatining barcha tumanlarida bo‘lib o‘tgan “Jaloliddin - yurt qalqoni” deb nomlangan tadbirlarda ham qatnashdi. Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazining va Xorazm viloyati ma‘naviyat markazining hamda “Jaloliddin Manguberdi” fondining qimmatbaho sovg‘alari bilan mukofotlandi. Shuningdek u 2021-yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan “Yangi O‘zbekiston - dillarda doston” ko‘rik- konkursining respublika bosqichida ham qatnashdi. Qolaversa, u 2021-yil 17-21- sentyabr kunlari Nukus shahrida bo‘lib o‘tgan Ikkinchi Xalqaro Baxshichilik san‘ati festivalida ham qatnashib keldi. 2022-yil 27-29-oktyabr kunlari Termiz shahrida o‘tgan Respublika baxshi-oqin va jirovlar festivalida qatnashib “Samarali ijodkor” nominatsiyasini qo‘lga kiritdi. 2022-yil 15-dekabrda Bulung‘ur tumanida bo‘lib o‘tgan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining 150 yillik yubileyi munosabati bilan o‘tkazilgan Samarqand viloyat baxshilari o‘rtasidagi ko‘rik-tanlovida 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Baxshi-shoir Shavkat Bobomurod 2022-yil 8-dekabr kuni “Konstitutsiyaning 30 yilligi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. “Nuralining sardor bo‘lishi” dostonini O‘zbekiston xalq baxshisi Mahmatmurot Radjabovning og‘zidan bevosita yozib olgan. 2024-yilda Shavkat Bobomurod bulung‘urlik ijodkor Hasan hoji Aliyev bilan hammualliflikda “Usta do‘styor shoir” nomli dostonni ham yozib nashrdan chiqardi. Qolaversa joriy yilda baxshi-shoir yana bir ijodga qo‘l urdi. U bolalar bop dostonlar yaratishga kirishdi va “Qilich botir”, “muqbil toshotar” va “Oltin baliq” nomli ertak-dostonlar yaratdi. Bu dostonlar “Baxshi bolam, doston bil” degan umumiy nom bilan nashr etildi. Baxshi-shoir hozir qizg‘in ijodda. Kim nima desa desin-u mana shu Maxmatmurot baxshi katta bir xazina. Xazina deganimning sababi bir paytlari Rajab baxshi aytgan lekin bugungi kunda unutilgan dostonlarni qaytadan xalqqa yetkazayapti. “Nuralining sardor bo‘lishi” dostoni bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mana bu videoda aytayotgan dostonni ham ana shunday noyob dostonlar sirasiga kiradi. Bu dostondagi asosiy voqea Hazor mamlakatida bandi bo‘lib qolgan Avazxonni o‘g‘li Nurali borib qutqarib kelishi. “zar qadrini zargar biladi” deganlaridek kuni kecha “Madaniyat va ma‘rifat” telekanali “Go‘ro‘g‘li” dostoni turkumiga kiruvchi bu an‘anaviy dostonni besh soat davomida to‘g‘ridan to‘g‘ri Mahmatmurot baxshining og‘zidan yozib olibdi. Eshitib xursand bo‘ldim. Chunki yana bitta unutilib borayotgan ma‘naviy merosimiz, boyligimiz Mahmatmurot baxshining fidoiyligi sabab saqlab qolindi. Nashr bo‘lgan dostonlarni o‘rganib ijro qilish ham oson ish emas. Buning uchun ham baxshiga kuchli xotira va katta tajriba kerak. Lekin yo‘qolib borayotgan dostonlarni asrab qolish bu bugungi kunda chinakam qahramonlik. Buning uchun jonkuyar baxshimiz Mahmatmurot akaga qancha rahmatlar aytsek ham oz.

Gulboy baxshi Mirzayev – 1958-yil 27-oktabrda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani Xo‘jamaxmud qishlog‘ida ya‘ni hozirgi Qodir baxshi mahallasida tug‘ilganman. Men sizlarga buyuk sulola Rajab baxshi hamda Ismoyil baxshi haqida ma‘lumot bermoqchiman. Ustozim Qodir baxshi bilan birgalikda To‘dacharbog‘ qishlog‘iga ustoz Rajab baxshining yoniga birga bordik. Bizni ustoz Ismoyil baxshi kutib oldi. Ustoz Rajab baxshi bilan uchrashdik. Rajab baxshi Qodir baxshining ham ustoz bo‘lgan. Rajab baxshining o‘g‘li Ismoyil baxshi bo‘lib, uning davomchisi O‘zbekiston xalq baxshisi Maxmatmurot baxshini izlanuvchan dostonchi-baxshi deb ta‘kidlaydi. Men ustoz sifatida Maxmatmurot baxshidan ko‘pgina dostonlar ijrochisi, ota-bobo kasbining davomchisi. U bir e‘lonida assalomu alaykum hurmatli hamkasibim ya‘ni baxshilar! Mana Ochil baxshi bir-ikki oydan beri o‘n soatlab doston aytadigan baxshilar kelib ovozi tasмага yozdirsin deb telegram kanaliga e‘lon yozib tashlayabdi. Hurmatli baxshilar mard bo‘lsangiz o‘n emas, yigirma soatlab doston ayting! Bu gapim ayrim baxshilarga taalluqli. Mahmatmurot baxshi buyiklar avlodi. U o‘n bir soat doston aytdi. Shogirdimga yanada uzoq

soatlab doston aytishiga Allohdan kuch-quvvat tilayman. U yana o'z so'zida... Ey shundaylar bulbul o'tdi. Ey do'stlarim Qashqadaryo elida Rajab baxshi degan bulbul o'tdi. Do'mbirasiga qarang, dostonlardan o'ttiz ikki noma chertdi. Qirqdan oshiq dostonlarni El to'yida aytib o'tdi. Qashqadaryo elida ey do'stlarim, ustoz Rajab baxshi o'tdi. Shogirdlarga saboq berib, so'z boyligini ko'rib, chechanligini bilib, yosh shogirdga o'git berib, ey do'stlarim, To'dacharboqdan buyuk ustoz Rajab o'tdi. Buyikligini ellar bilib, vataniga xizmat qilib, ustoz Qodir ta'lim olib, doston aytdi jo'shib tolib, termalari ham quyilib, ey do'stlarim Qashqadaryo elidan buyuk ustoz Rajab o'tdi. Farzandiga qo'llar berib, ota sozin qo'lga olib, davralarda jo'shib aytib, ustoz baxshi Ismoyilday ustoz o'gli aytib o'tdi. Qashqadaryo elidan ey do'stlarim buyuk ustoz Rajab o'tdi. Qancha doston termalarni meros qilib, siz-u bizga buyuk ustoz tashlab ketdi. Bobo meros sumbul sozni xalq baxshisi Mahmatmurot chertib joshib, terma bilan doston ayta, ey do'stlarim Dehqonoboddan ustoz buyuk Rajab baxshi o'tdi. Men esladim ustozimni, oxirati obod bo'lsin, shogirdlarga madad bo'lsin!

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Mahmatmurot baxshi Rajabov o'zbek dostonchilik san'atining yetuk vakillaridan biri hisoblanadi. U nafaqat ijrochi, balki milliy merosni asrab-avaylovchi va rivojlantiruvchi ijodkordir. Uning faoliyati natijasida ko'plab dostonlar qayta tiklanib, xalq ma'naviy hayotiga qaytarildi. Bu esa o'zbek folklorining uzluksiz davom etishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 400 B.
2. Alaviya M., Afzalov M., Mirzayev T. *O'zbek xalq ijodi*. – Toshkent: O'zbekiston, 1967. 196 B.
3. Jo'rayev M. *Folklorshunoslik asoslari*. – Toshkent: Fan, 2009. 192 B.
4. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilovov A. *O'zbek folklori*. – Toshkent: MALIK PRINT CO., 2021. 238 B.
5. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. "Alpomish" dostoni. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi Mahmud Zaripov, nashrga tayyorlovchi Hodi Zaripov va To'ra Mirzayev, 509 B. 39, 43, 278 B. T. 2022. 1-tom, "Shirin bilan Shakar" dostoni. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi Abdurahmon mulla Toji o'g'li, ilk bor nashrga tayyorlovchi Maqsud Shayxzoda. To'ldirib, nashrga qayta tayyorlovchi Mamatqul Jo'rayev va Munisa Jo'rayeva. 538 B. 31 B. T. 2023. 5-tom, "Kuntug'mish" dostoni. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. Yozib oluvchi Muhammad Isa Ernazar o'g'li, ilk bor nashrga tayyorlovchi Hodi Zaripov. To'ldirib, nashrga qayta tayyorlovchi Mamatqul Jo'rayev. 573 B. 19-105 B. T. 2022. 9-tom, "Yodgor" dostoni. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi Hodi Zaripov, nashrga tayyorlovchilar Hodi Zaripov va To'ra Mirzayev, 599 B. 208 B. T. 2022. 16-tom, "Balogardon" dostoni. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi Buyuk Karimov, ilk bor nashrga tayyorlovchi Hodi Zaripov. To'ldirib, nashrga qayta tayyorlovchi Jabbor Eshonqul. 476 B. 315B. T. 2023. 29-tom, "Ravshan" dostoni. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. Yozib oluvchi Hodi Zaripov, ilk bor nashrga tayyorlovchi Hodi Zaripov. To'ldirib, nashrga qayta tayyorlovchi Jabbor Eshonqul. 549 B. 343-344 B. T. G'.G'ulom, 2023. 30-tom.
6. Rajabov M. *Nuralining sardor bo'lishi*. – Samarqand: Mahorat, 2023. 119 B.
7. Rahimov Q. *Ko'hna karvon sadolari*. – Toshkent: MASHHUR PRESS, 2022. 189 B.
8. Rahimov Q. *Mangulik javohirlari*. – Toshkent: Nasaf, 2013. 98 B.
9. Sarimsoqov B. *O'zbek marosim folklori*. – Toshkent: Fan, 1986. 213 B.
10. Turdimov Sh. *"Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari*. – Toshkent: Fan, 2011. 239 B.

SAID AHMAD HAJVIYOTIDA ABDULLA QAHHOR SATIRASI AN'ANALARINING DAVOM ETTIRILISHI

Rizayev Baxtiyor Xalliyevich

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti dekani
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

baxtirizo_64@mail.ru

ORCID 0009-0004-8902-4013

UDK 821.512.133.09

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy hajviyot maktabining monumental asoschisi Abdulla Qahhor yaratgan satira an'alarining uning munosib davomchisi Said Ahmad ijodidagi o'rni va badiiy transformatsiyasi tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ikki buyuk so'z san'atkorining asarlari qiyosiy-badiiy, tipologik va tekstologik metodlar yordamida tadqiq etildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Said Ahmad o'z ustozining fosh etuvchi, murosasiz satira an'alarini yangi davr talablari va xalq hayotining

o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijodiy qayta ishlagan. Qahhorona o'tkir satira va ijtimoiy og'riq nuqtalari Said Ahmad hikoyachiligida lirik pafos va hayotbaxsh xalqona yumor bilan boyitilib, yangicha badiiy tahlil doirasida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yozuvchining "Sobiq" va "Mening do'stim Boboyev" kabi hajviy hikoyalardagi detallar va xarakterlar tahlili orqali an'analarning ijodiy o'zlashtirilishi chuqur ochib berilgan. Maqolada har ikki adibning qahramonlar yaratish prinsiplari, tili, uslubi va detaldan unumli foydalanish mahorati aniq misollar va qiyosiy jadval yordamida yoritilgan. Tadqiqot xulosalari o'zbek realistik hajviyotining evolyutsion taraqqiyoti hamda adabiy vorislik qonuniyatlarini o'rganishda muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor, Said Ahmad, satira va yumor, hajviyot, badiiy detal, adabiy an'ana, vorislik va o'ziga xoslik, milliy xarakter, realistik nasr.

THE CONTINUATION OF ABDULLA QAHHOR'S SATIRICAL TRADITIONS IN THE HUMOROUS WORKS OF SAID AHMAD

Abstract. This article systematically analyzes the role and artistic transformation of the satirical traditions established by Abdulla Qahhor, the monumental founder of the Uzbek national school of humor, in the works of his worthy successor, Said Ahmad. Within the framework of the study, the works of these two great master writers were analyzed using comparative-historical, typological, and textual methods. The analysis indicates that Said Ahmad creatively reworked the exposing and uncompromising satirical traditions of his mentor based on the requirements of the new era and the unique characteristics of national life. Qahhor's sharp satire and social pain points are enriched in Said Ahmad's stories with lyrical pathos and life-giving folk humor, manifesting within a new artistic dimension. In particular, the creative adoption of traditions is deeply revealed through the analysis of details and characters in the author's humorous stories such as "Sobiq" and "Mening do'stim Boboyev". The article highlights the character-creation principles, language, style, and effective use of artistic details through concrete examples and a comparative table. The research findings hold significant theoretical and practical value for studying the evolutionary development of Uzbek realistic humor and the laws of literary succession.

Keywords: Abdulla Qahhor, Said Ahmad, satire and humor, comedy, artistic detail, literary tradition, succession and originality, national character, realistic prose.

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligida satira va hajviyot milliy tafakkurni uyg'otish, jamiyat hayotidagi turli illatlar, qusurlar hamda odamlarning ruhiyatidagi ma'naviy qashshoqlikni fosh etishda doimo eng qudratli estetik qurol bo'lib xizmat qilgan. Ushbu o'ziga xos milliy hajviy maktabning yorqin va monumental asoschisi, shubhasiz, ulkan so'z san'atkori Abdulla Qahhor hisoblanadi. Qahhor o'zining betakror uslubi, mislsiz so'z tejankorligi hamda qat'iy badiiy-g'oyaviy mezonlari orqali o'zbek satirasini jahon adabiyoti andozalari darajasiga ko'tardi. Uning qisqa va lo'nda hikoyalardagi har bir personaj jamiyatdagi ma'lum bir guruh yoki toifa kishilarining dardi, xarakteri hamda ma'naviy inqirozini butun murakkabligi bilan ochib beradi [9.26]. Adabiyotshunoslikda chuqur e'tirof etilishicha, Qahhorona satira shunchaki vaqtinchalik kulgi yaratish emas, balki chuqur ijtimoiy fojialarni, inson tabiati va ijtimoiy hayot ziddiyatlarini badiiy tahlil qilish mahoratidir [4.58]. Bu an'ana o'zbek realistik hajviyotining fundamental badiiy-estetik tamoyillarini belgilab berdi va keyingi avlod ijodkorlari uchun o'ziga xos mahorat maktabiga aylandi [7.12]. Qahhor yaratgan maktab darsliklardagi sxematik qoidalardan xoli bo'lib, o'zining hayotiyliigi, xalqona tili va ijtimoiy o'tkirligi bilan milliy proza taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi, bu esa o'z-o'zidan adabiy jarayonda ushbu an'analarning izchil davom ettirilishi muammosini tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltiradi [5.24].

Adabiyotlar tahlili. O'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor hajviyoti va satira maktabining ilmiy-nazariy asoslari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan fundamental ravishda o'rganib kelingan. Xususan, adabiyotshunos olim Naim Karimov yozuvchi satirasini tahlil qilgan ekan, Qahhorning jamiyatdagi qusurlarni fosh etishda tilning badiiy imkoniyatlaridan va betakror detal yaratish mahoratidan qanday foydalanganini alohida ta'kidlaydi [4.72]. Uning fikricha, qahhorona satira inson tabiatidagi ma'naviy illatlarni ko'rsatib berish orqali milliy o'zlikni uyg'otishga xizmat qilgan qudratli estetik kuchdir. Shuningdek, adabiyotshunos B. Nazarov o'zining tadqiqotlarida Qahhor hajviyotining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochib berib, uning asarlaridagi qahramonlar shunchaki kulgi obekti emas, balki jamiyatning ma'lum bir davrdagi dardi va murakkab taqdirini ifodalovchi real xarakterlar ekanligini ilmiy asoslab berdi [9.28]. Realistik satira san'atining o'zbek nasridagi o'rni va badiiy taraqqiyoti masalalari ustida to'xtalgan A. Erkinov esa Qahhor yaratgan hajviy maktab keyingi avlod ijodkorlari uchun realistik an'analarni davom ettirishda bosh omil bo'lganini asoslaydi [7.45]. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qahhor satirasi milliy prozada voqelikni badiiy aks ettirishning yangi o'lchovlarini belgilab berdi va hajviyot janrining badiiy yuksalishini ta'minladi. Bu

boradagi izlanishlar Qahhorona ijodiy an'analarning keyingi adabiy jarayonda, xususan, uning eng munosib izdoshlaridan biri bo'lgan Said Ahmad ijodida qanday aks etganini qiyosiy-tahliliy o'rganish uchun keng nazariy zamin hozirlaydi.

Said Ahmadning ijodiy faoliyati, uning hikoyachilik va dramaturgiyadagi mahorati ham adabiyotshunoslikda izchil tadqiq etilgan muammolardan biridir. Atoqli munaqqid Umarali Normatov yozuvchining adabiy portretini yaratar ekan, Said Ahmad ijodining boshlanish davrida Abdulla Qahhor hikoyachiligi qanday katta maktab vazifasini o'taganini, uning uslubidagi lo'ndalik va xalqona yumor Said Ahmad tomonidan qanday ijodiy o'zlashtirilganini batafsil tahlil qiladi [3.45]. Shuningdek, munaqqid Ibrohim G'afurov yozuvchi nasridagi betakror lirizm va kulgining uyg'unligini o'rganib, Said Ahmadni shunchaki satirik emas, balki "prozaning shoiri" deb ataydi va uning kulgisi inson qalbini davolovchi hayotbaxsh xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [6.120]. Ozod Sharafiddinov esa o'zining adabiy-tanqidiy maqolalarida Said Ahmad ijodining xalqchilligi, uning qahramonlari tilidagi samimiylilik va hayotiylik Qahhor an'analarning eng go'zal davomi ekanligini, ammo bu davom ettirish aslo taqlid darajasida qolmay, balki milliy kulgining yangi qirralarini kashf etgani bilan ahamiyatli ekanini ta'kidlaydi [10.152]. Ushbu olimlarning fikrlariga tayanib aytish mumkinki, Said Ahmad o'z salohiyati bilan Qahhorona satira bilan milliy yumorni muvaffaqiyatli sintez qila oldi. Shunga qaramay, mazkur ikki adib asarlaridagi badiiy-uslubiy aloqalarni, detaldan foydalanish mahorati va xarakter yaratish tamoyillarini aynan qiyosiy jihatdan, yaxlit tizim sifatida o'rganish bugungi kun adabiyotshunosligi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodlari. Ushbu tadqiqotda Abdulla Qahhor satira maktabi an'analarning Said Ahmad hajviyotida davom ettirilishi va uning ijodiy transformatsiyasini aniqlash maqsadida asosan qiyosiy-tarixiy, tipologik hamda badiiy-uslubiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida o'zbek realistik hajviyoti taraqqiyoti, satira va yumorning janr xususiyatlari, adabiy an'ana va o'ziga xoslik munosabatlariga doir nazariy qarashlar hamda konseptual yondashuvlar tanlab olindi [7.52; 8.14]. Ikki buyuk so'z san'atkorining ijodiy merosini o'rganishda, eng avvalo, matnlar ustida tizimli ishlashga, ya'ni Abdulla Qahhorning besh jildlik hamda Said Ahmadning uch jildlik asarlar to'plamidagi hikoya, feleton va komediyalarni bevosita qiyosiy-tekstologik tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi [1.120; 2.85]. Har bir adibning badiiy olami, obrazlar tizimi va til xususiyatlarini qiyosiy o'rganishda tizimli-struktural yondashuv qo'llanilib, ularning hajviyotdagi o'xshash va o'ziga xos bo'lgan farqli jihatlari ilmiy tahlil etildi. Qahhorona satirik detaldan unumli foydalanish, dialoglarning g'oyatda lo'nda hamda lakonik shakli, qahramonlar xarakteridagi ichki ma'naviy inqirozni o'tkir kulgi ostiga olish mahorati Said Ahmad asarlarining o'ziga xos jozibador lirik pafosi bilan qiyoslanib, adabiy ta'sir va badiiy o'zlashtirish chegaralari aniqlandi [5.36]. Mazkur jarayonda o'zbek adabiy tanqidi va adabiyotshunosligida har ikki yozuvchining ijodiy uslubiyoti, o'zbek nasridagi kulgi evolyutsiyasi borasida bildirilgan fundamental ilmiy xulosalar va qarashlar tadqiqotimiz uchun tayanch metodologik ko'rsatkich bo'lib xizmat qildi [3.54; 10.160]. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qo'llanilgan metodologik asboblar majmuasi tadqiqot mavzusining mohiyatini nafaqat umumiy nazariy planda, balki aniq tahliliy materiallar va badiiy matnlar misolida izchil, tizimli hamda har tomonlama obektiv yoritib berish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Abdulla Qahhor va Said Ahmad ijodidagi badiiy-uslubiy aloqadorlikni qiyosiy tadqiq etish natijalari shuni ko'rsatadiki, Said Ahmad o'z ustozining fosh etuvchi, murosasiz satira an'analari yangi davr talablari va xalq hayotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijodiy qayta ishlagan. Qahhor darsliklardagi quruq qoidalardan voz kechib, jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy qusurlarni o'tkir satira tig'i bilan fosh etishda o'zbek nasrida yangi davrni boshlab berdi [1.145]. Said Ahmad esa o'z ijodiy faoliyatida Qahhorning mana shu o'tkir satirasini yumshatib, uni yanada hayotbaxsh va xalqchil yumor bilan boyitdi. Ayniqsa, Qahhor hikoyalaridagi ijtimoiy og'riq nuqtalari Said Ahmad ijodida inson qalbini davolovchi lirik va hazil-mutoyibaga yo'g'rilgan proza shaklini oldi [2.112]. Tadqiqotlarimiz davomida ma'lum bo'ldiki, Qahhorning qahramonlar xarakterini ochib berishdagi keskinlik va fojiviylilik Said Ahmad hikoyalarida ma'lum darajada lirik pafos va yengil kinoya orqali kompensatsiya qilinadi. Bu holat ikki adibning dunyoqarashidagi mushtaraklik va shu bilan birga badiiy tafakkuridagi o'ziga xoslik chegaralarini yaqqol ko'rsatib beradi [5.44]. Said Ahmad ustozining milliy xarakter yaratish borasidagi prinsiplarini izchil davom ettirgan holda, personajlar ruhiyatidagi ma'naviy evrilishlarni ancha yumshoqroq va hayotiy bo'yoqlarda tasvirlashga erishdi.

Badiiy detal yaratish va undan g'oyaviy maqsad yo'lida unumli foydalanish borasida

har ikki yozuvchining mahorati o'zbek adabiyotshunosligida alohida mavzu hisoblanadi. Ma'lumki, Qahhor o'z hikoyalarida ("O'g'ri", "Anor") bitta kichik detal (masalan, kosa, pichoq yoki amaldorning papkasi) orqali butun bir davr fojiasini va ijtimoiy munosabatlarni bor murakkabligi bilan ochib beradi [4.88]. Said Ahmad ham ushbu an'anani mukammal o'zlashtirgan holda, o'zining hajviy asarlarida ("Mening do'stim Boboyev", "Sobiq") detallarning badiiy vazifasini sezilarli darajada kengaytirdi. Misol uchun, "Sobiq" hikoyasida qahramonning o'z mansabi va kreslosiga bo'lgan cheksiz muhabbatini, uning ruhiy inqirozini tasvirlovchi "qora papka" va "eski stol" detallari bevosita qahhorona badiiy uslubning yorqin hosilasidir [3.62]. Biroq, Said Ahmad bu detaldan shunchaki fosh etuvchi vosita sifatida emas, balki qahramonning ichki kechinmalarini, uning fojiali va ayni paytda kulgili taqdirini ochib beruvchi psixologik ko'prik sifatida foydalanadi. Shu bois ham uning hikoyalaridagi detallar kitobxonda nafrat emas, balki samimiy achinish va istehzo tuyg'usini uyg'otadi, bu esa uning lirik-hajviy uslubining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Yozuvchilar yaratgan obrazlar tipologiyasini qiyosiy tahlil qilish jarayonida Qahhorona ma'naviy qashshoq, laganbardor va byurokrat obrazlarining Said Ahmad ijodida yangicha ijtimoiy sharoitda transformatsiya qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Qahhor o'zining "Sinchalak" qissasida Qalandarov kabi byurokrlarni, tilyog'ama amaldorlarni ayovsiz fosh qilgan bo'lsa, Said Ahmad bu tipdagi kimsalarning \$\$\$ asrning ikkinchi yarmi sovet hayotidagi yangi qiyofalarini kashf etdi [9.25]. Adibning "Luning" yoki "Mening do'stim Boboyev" hikoyalaridagi personajlar o'zlarining mohiyati bilan Qahhor qahramonlarining bevosita vorislari hisoblanadi. Biroq, Said Ahmad ularni tasvirlashda qat'iy sinfiy yoki g'oyaviy cheklovlardan xoli bo'lib, inson tabiatidagi zaifliklar va xatolarni xalqona donishmandlik va yumor prizmasi orqali kuzatadi [10.158]. Bu holat Said Ahmadning o'z ustozidan farqli ravishda, insonga nisbatan ancha kechirimli va uning ma'naviy poklanishiga ko'proq ishonch bilan yondashganligini ko'rsatadi. Uning satirik qahramonlari burchakka qisilgan dushmanlar emas, balki hayotda adashgan, tarbiyalash va to'g'ri yo'lga solish mumkin bo'lgan real insonlar sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot doirasida har ikki adibning hajviy asarlaridagi badiiy-g'oyaviy farqlarni, satira va yumorning qo'llanilish xususiyatlarini tizimlashtirish maqsadida quyidagi qiyosiy jadval ishlab chiqildi:

1-jadval. Qahhor satirasi va Said Ahmad yumori o'rtasidagi uslubiy farqlar

Satirik mezonlar	Abdulla Qahhor satirasi	Said Ahmad hajviyoti (yumori)
Estetik pafos	Fosh etuvchi, murosasiz, achchiq, fojiviy kulgi [4.72]	Lirik, hayotbaxsh, kechirimli va xalqona kulgi [6.120]
Detaldan foydalanish	Ixcham, ramziy, ijtimoiy fojiani ochuvchi kuchli detal [9.28]	Jonli, obrazli, qahramon ruhiyatini tasvirlovchi detal [3.45]
Til va uslub	Keskin lo'nda, mislsiz darajada so'z tejash, lakonizm [1.120]	Rang-barang frazeologizmlar, sheva va jonli til [2.85]
Komizm tabiati	Grotesk, satirik kinoya va sotsial ayblov [7.45]	Dramatik ironiya, komik situatsiya va hazil-mutoyiba [8.18]

Har ikki adibning ijodiy merosidagi uslubiy vorislik, an'analarning izchilligi va transformatsiya parametrlarini modellashtirish hamda vizual tarzda tahlil qilish maqsadida quyidagi interaktiv simulyator loyihalashtirildi:

Yozuvchilarning tili va dialog qurish mahoratini o'rganish natijasida ularning o'zbek nutq madaniyati va badiiy tasvir imkoniyatlarini qay darajada rivojlantirganini tushunish mumkin. Abdulla Qahhor o'zbek nasrida lakonizm va so'z ustida zargardek ishlash san'atini eng yuqori cho'qqiga olib chiqdi, uning hikoyalaridabitta ham ortiqcha gap yoki keraksiz so'zni uchratmaysiz [1.120]. Said Ahmad esa o'z ijodida bu lakonizmni saqlagan holda, dialoglarni g'oyatda hayotiy, xalqona qochirimlar va xushchaqchaq Toshkent shevasi elementlari bilan boyitdi [6.134]. Uning sahna asarlari va hikoyalaridagi suhbatlar shu qadar jonliki, go'yo qahramonlar kitob sahifasidan chiqib, kitobxon bilan bevosita gaplashayotgandek taassurot qoldiradi. Adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, Qahhorning tili o'tkir jarrohlik pichog'iga o'xshasa, Said Ahmadning tili inson qalbini yumshatuvchi, unga iliqlik va quvonch baxsh etuvchi malham vazifasini o'taydi [8.48]. Ushbu til o'ziga xosligi ikki ijodkorning badiiy maqsadlaridagi farqni hamda ularning o'zbek hajviy prozasiga qo'shgan betakror hissalarini yorqin dalolatlaydi.

Faqat hikoyachilikda emas, balki o'zbek dramaturgiyasida ham Said Ahmad o'z

ustozining eng yaxshi an'analari davom ettirgani tadqiqotimiz davomida atroflicha tahlil qilindi. Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" va "Og'riq tishlar" komediyalari o'zbek satirik teatri uchun yangi davr poydevorini qo'ygan bo'lsa, Said Ahmadning mashhur "Kelinlar qo'zg'oloni" va "Kuyov" komediyalari bu sohani yangi bosqichga ko'tardi [7.68]. "Kelinlar qo'zg'oloni" asaridagi Farmon bibi obrazi shunchaki komik yoki satirik qahramon emas, balki ichki ziddiyatlari va milliy xarakteri bilan to'laqonli badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan. Said Ahmad ushbu asarida qahhorona dramatik keskinlik va konfliktlar yaratish mahoratini o'zining lirik va psixologik yumori bilan muvaffaqiyatli sintez qildi [10.165]. Bu esa dramaturgiyada satirik fosh etish an'anasidan oilaviy-maishiy munosabatlardagi insoniy qadriyatlarni himoya qilish va ularni komik tahlil etish an'anasiga o'tilganini ko'rsatadi.

Said Ahmad hajviyoti Abdulla Qahhor satira maktabidan oziqlangan bo'lsa-da, mutlaqo mustaqil, yangicha va milliy adabiyot taraqqiyotini ta'minlagan o'ziga xos estetik hodisadir. Said Ahmad ustozining darslaridan to'g'ri xulosa chiqarib, taqlid yo'lidan bormadi, balki qahhorona o'tkir ijodiy an'analarni o'zining jozibali dunyoqarashi va uslubiyoti orqali transformatsiya qildi [5.82]. Uning ijodi XX asr o'zbek adabiyotida satira va yumor o'rtasidagi bog'lovchi halqa bo'lib xizmat qildi va o'zbek kitobxoniga og'riqli ijtimoiy haqiqatlarni ham kulgi, ham samimiyat orqali qabul qilish imkonini berdi. Adabiy meroslarning ushbu tizimli hamkorligi va vorisligi milliy nasrimizning nafaqat g'oyaviy jihatdan yuksalishiga, balki uning shaklan va mazmunan boyishiga ham xizmat qildi [3.94]. Ushbu natijalar keyingi avlod ijodkorlari uchun va vorislik va o'ziga xoslik munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda ulkan mahorat maktabi bo'lib qolaveradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor asos solgan realistlik satira maktabi XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida g'oyatda qudratli estetik tayanch bo'lib xizmat qilgan va uning eng munosib davomchisi bo'lgan Said Ahmad ijodida o'zining yuksak badiiy tadrijini topgan. Said Ahmad o'z ustozining fosh etuvchi pafosini, detaldan foydalanish hamda lakonik matn yaratish mahoratini shunchaki mexanik ravishda takrorlamasdan, balki ularni lirik kulgi va xalqona donishmandlik unsurlari bilan boyitdi va badiiy jihatdan transformatsiya qildi. Uning hikoyachiligi va dramaturgiyasi milliy hajviyotimizni yangi lirik-realistik bosqichga olib chiqib, kulgi vositasida inson qalbini davolash, ma'naviy qadriyatlarni himoya qilishning go'zal andozasiga aylandi. Ikki buyuk adibning ijodiy munosabatlari va uslubiy vorisligini qiyosiy o'rganish o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi an'ana va o'ziga xoslik muammolarini tizimli tahlil etish uchun boy ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. Asarlar to'plami. 5 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011.
2. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Sharq, 2000.
3. Normatov U. Said Ahmad: adabiy portret. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 132 b.
4. Karimov N. Abdulla Qahhor satirasi va badiiy tafakkuri. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2006. – 158 b.
5. Sharipov N. O'zbek hikoyachiligi taraqqiyoti: Qahhor an'analari. – Toshkent: Fan, 2009. – 192 b.
6. G'afurov I. Prozaning shoiri. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 160 b.
7. Erkinov A. Satira san'ati va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2003. – 142 b.
8. Yo'ldoshev A. Adabiyotda kulgi va haqiqat. – Toshkent: Yozuvchi, 1995. – 112 b.
9. Nazarov B. Qahhor satirasi: jamiyat va shaxs obrazida // Adabiyotshunoslik. – 2008. – № 2. – B. 24–29.
10. Sharafiddinov O. Adabiyot va hayot. – Toshkent: Yozuvchi, 1987. – 210 b.

**LEGAL EDUCATION IN A GLOBALIZED CONTEXT: NORMATIVITY,
PROFESSIONAL FORMATION, AND LANGUAGE COMPETENCE****Nodira Salimjonova**Tashkent Institute of Irrigation
and Agricultural Mechanization Engineers
National Research University, PhD student
n.salimjonova@tiame.uz**B.R.Samatova**Scientific supervisor: associate professor, PhD
ORCID 0009-0001-1792-7350
UDK 340.113 : 378

Abstract. Legal education occupies a unique position within higher education due to its normative orientation, specialized modes of reasoning, professional regulation, and distinctive discourse practices. In the context of globalization, this distinct disciplinary structure increasingly incorporates foreign language competence as a core component of professional legal training. Unlike other academic disciplines that prioritize empirical inquiry or theoretical abstraction, legal education is structured around the interpretation and application of authoritative legal texts, the development of professional judgment, intercultural legal communication, and the socialization of students into the legal profession. This article examines why and how legal education has developed a distinct disciplinary structure and argues that professional, educational, and psychological needs related to foreign language competence have become integral to that structure.

Keywords: legal education, disciplinary structure, legal reasoning, globalization, intercultural communication, foreign language competence, legal discourse

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA YURIDIK TA'LIM: NORMATIVLIK, KASBIY
SHAKLLANISH VA TIL KOMPETENSIYASI**

Annotatsiya. Yuridik ta'lim oliy ta'lim tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi, chunki u normativ yo'nalganligi, maxsus mantiqiy fikrlash usullari, kasbiy tartibga solish mexanizmlari va o'ziga xos diskursiv amaliyotlari bilan ajralib turadi. Globallashuv sharoitida ushbu alohida fanlararo tuzilma tobora ko'proq chet tilini bilish kompetensiyasini professional yuridik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida o'z ichiga olmoqda. Empirik tadqiqot yoki nazariy abstraksiyani ustuvor qo'yadigan boshqa akademik fanlardan farqli o'laroq, yuridik ta'lim vakolatli huquqiy matnlarni talqin qilish va qo'llash, kasbiy hukmni shakllantirish, madaniyatlararo yuridik kommunikatsiya hamda talabalarni yuridik kasbga ijtimoiylashtirishga asoslanadi. Mazkur maqolada yuridik ta'limning nega va qanday qilib o'ziga xos fanlararo tuzilma sifatida shakllangani tahlil qilinadi hamda chet tilini bilishga oid kasbiy, ta'limiy va psixologik ehtiyojlar ushbu tuzilmaning ajralmas qismiga aylanganligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: yuridik ta'lim, fanlararo tuzilma, yuridik tafakkur, globallashuv, madaniyatlararo muloqot, chet tilini bilish kompetensiyasi, yuridik diskurs

Introduction. Legal education has long been recognized as distinct in structure, purpose, and pedagogy from other fields of higher education. Traditionally, this distinctiveness has been explained through law's normative foundations, case-based reasoning, professional regulation, and specialized discourse. In the contemporary globalized legal environment, however, lawyers are increasingly required to operate across linguistic, cultural, and jurisdictional boundaries.

As a result, foreign language competence has emerged as a critical element of legal training, closely intertwined with the disciplinary structure of legal education itself. Lawyers are no longer trained solely for domestic legal systems but for participation in transnational legal processes involving international contracts, arbitration, migration law, and human rights protection. This article argues that legal education's distinct disciplinary structure not only accommodates but necessitates the integration of foreign language competence to meet professional, educational, and psychological demands.

Theoretical framework and literature review. Scholars from legal theory, education, and linguistics have contributed to understanding the uniqueness of legal education. Hart's theory of law emphasizes the rule-governed and institutional nature of legal systems, distinguishing legal reasoning from moral or empirical reasoning [1]. Langdell's conception of law as a science laid the foundation for case-based legal education, shaping curricula worldwide. More recently, Sullivan et al. highlighted the multi-dimensional nature of legal education as a process of professional formation [2].

From a linguistic perspective, Bhatia's work on legal discourse underscores the role of genre and professional communication in structuring legal knowledge [3]. Twining's scholarship on global legal education further demonstrates how legal education maintains disciplinary integrity despite increasing interdisciplinarity. Together, these perspectives provide a framework for analyzing legal education as a distinct discipline [4].

Normativity as the Core of Legal Education. One of the defining features of legal education is its normative orientation. Law does not merely describe social reality; it prescribes standards of behavior and allocates rights and obligations. As Hart (1961) explains, legal systems consist of primary and secondary rules that derive authority from institutional recognition rather than empirical validation. Legal education, therefore, trains students to interpret and apply norms rather than to test hypotheses.

This normative focus shapes the disciplinary structure of legal curricula. Courses are organized around branches of law—constitutional, criminal, civil, administrative—each defined by a specific set of norms and interpretive principles. Unlike disciplines that progress through cumulative empirical findings, legal education emphasizes continuity, precedent, and authoritative interpretation. This explains why statutory texts and judicial decisions remain central teaching materials across jurisdictions.

Case-Based Reasoning and Pedagogical Structure. The pedagogical structure of legal education further reinforces its disciplinary distinctiveness. The case method, institutionalized by Langdell in the late nineteenth century, treats judicial decisions as the primary source of legal knowledge. Through close reading of cases, students learn to identify legal issues, extract rules, analyze reasoning, and apply precedent to new factual situations [5].

This method cultivates a specific cognitive style often described as “thinking like a lawyer.” It prioritizes analogical reasoning, argumentative clarity, and doctrinal coherence over memorization. The Socratic method, frequently used in law classrooms, reinforces this approach by requiring students to articulate and defend legal positions orally. Such pedagogical practices are rare outside legal education and contribute to its distinct disciplinary identity.

Integration of Theory, Practice, Professional Ethics, and Foreign Language Competence. Another defining characteristic of legal education is the integration of academic learning with professional training. The Carnegie Report identifies three apprenticeships that structure legal education: intellectual, practical, and ethical. In a globalized legal environment, foreign language competence increasingly functions as a cross-cutting element within all three apprenticeships.

Intellectually, foreign languages enable access to international legal scholarship, treaties, conventions, and comparative legal sources that are often unavailable or limited in translation. Practically, lawyering skills such as drafting contracts, negotiating settlements, advocacy in international forums, and client counseling in multicultural contexts require precise foreign language use. Ethically, the ability to communicate effectively with foreign clients, migrants, and international institutions supports fairness, access to justice, and professional responsibility [6].

Clinical programs, moot courts, international competitions, and cross-border internships increasingly involve multilingual settings, reinforcing the view that foreign language competence is inseparable from professional legal formation rather than a supplementary skill acquired after graduation.

Legal Language, Foreign Languages, and Disciplinary Discourse. Legal education is characterized by a highly specialized discourse that functions as a professional code enabling precise communication within institutional contexts. Legal language operates as a form of Language for Specific Purposes (LSP), marked by technical terminology, complex syntactic structures, and genre-specific conventions such as contracts, judgments, briefs, and treaties. As Bhatia emphasizes, legal discourse is inseparable from professional practice and institutional goals [3].

In a globalized legal environment, this disciplinary discourse extends beyond national languages. Many authoritative legal texts—including international conventions, EU regulations,

WTO rules, arbitration awards, and transnational contracts—are drafted primarily in foreign languages, particularly English. Legal education therefore increasingly incorporates Legal English and other foreign languages as essential tools for disciplinary literacy.

Mastery of foreign legal languages enhances students' ability to engage in intercultural legal communication, understand culturally embedded legal concepts, and navigate different legal traditions. Rather than weakening disciplinary boundaries, this linguistic expansion reinforces them by enabling lawyers to participate competently in the global legal discourse community.

Globalization, Intercultural Competence, and Professional Needs. Globalization has intensified not only the professional and educational demands placed on lawyers but also the need for well-developed intercultural competence. Intercultural competence is generally understood as the ability to communicate effectively and appropriately with individuals from different cultural backgrounds, integrating attitudes, knowledge, skills, and critical awareness [7] [8]. In legal contexts, this competence is essential because law itself is culturally embedded, reflecting specific social values, historical traditions, and institutional practices.

Professionally, lawyers increasingly engage in cross-border legal practice involving international contracts, arbitration, migration law, human rights litigation, and multinational clients. These contexts require not only linguistic accuracy but also sensitivity to culturally shaped legal concepts, argumentation styles, negotiation practices, and expectations of professional behavior. Intercultural competence enables lawyers to avoid misunderstandings, manage conflict, and build trust in multicultural legal settings, thereby enhancing professional effectiveness and ethical responsibility.

Educationally, the development of intercultural competence supports comparative and international legal studies. Understanding foreign legal systems requires more than translating legal texts; it involves interpreting norms within their cultural and institutional contexts. Integrating intercultural competence into legal education allows students to critically compare legal traditions, recognize cultural bias in legal reasoning, and engage reflexively with their own legal culture. This aligns with Bennett's developmental model, which emphasizes the progression from ethnocentric to ethnorelative orientations [9].

Psychologically, intercultural competence contributes to professional confidence, emotional resilience, and identity formation. Lawyers who possess intercultural awareness experience reduced communication anxiety and greater cognitive flexibility when working in unfamiliar legal and cultural environments. As Deardorff notes, intercultural competence fosters attitudes of openness, respect, and adaptability—qualities that are particularly important in mediation, negotiation, and human rights advocacy. Consequently, intercultural competence becomes a key component of the psychological readiness required for modern legal practice.

From a disciplinary perspective, the integration of intercultural competence reinforces rather than weakens the structure of legal education. It complements normative legal reasoning, professional socialization, and specialized discourse by preparing students to apply legal knowledge appropriately across cultural boundaries. In this sense, intercultural competence functions as a transversal competence that connects foreign language education, legal ethics, and professional skills within the distinct disciplinary framework of legal education.

Research methodology. This study adopts a *qualitative, conceptual, and interdisciplinary research design* aimed at examining the distinctive disciplinary structure of legal education and the role of foreign language and intercultural communicative competence within it. Rather than relying on empirical data collection, the research is grounded in theoretical analysis and interpretive synthesis of existing scholarship from legal theory, applied linguistics, and educational studies.

The methodological framework is based on a systematic literature review of key academic sources, including foundational works in legal theory (e.g., Hart's concept of normativity), legal pedagogy (Langdell's case method; Sullivan et al.'s professional formation model), and legal discourse analysis (Bhatia's genre theory). In addition, the study draws on established models of intercultural communicative competence, particularly Byram's

framework and Deardorff's process model, to analyze the integration of intercultural and linguistic competencies into legal education.

The research employs a comparative and analytical approach to examine how legal education functions as a distinct academic discipline. This involves identifying core structural elements—normativity, case-based reasoning, professional socialization, and specialized discourse—and analyzing how these elements interact with globalizing influences such as foreign language education and intercultural competence. Particular attention is given to the alignment between Byram's five components of intercultural communicative competence and the intellectual, practical, and ethical dimensions of legal training.

To contextualize the analysis, the study incorporates illustrative examples from the Uzbek legal education system, including ongoing reforms, the introduction of Legal English, and the expansion of international academic cooperation. These examples are not treated as empirical case studies but as contextual applications that demonstrate how theoretical principles operate within a specific national setting.

Methodologically, the study also applies conceptual mapping, linking key constructs—such as legal normativity, disciplinary discourse, and intercultural competence—to reveal their interdependence within legal education. This approach enables a deeper understanding of how foreign language competence functions not as an external addition but as an integrated component of professional legal formation.

The research is interpretive in nature and follows a deductive logic, beginning with established theoretical frameworks and applying them to the domain of legal education in a globalized context. While the study does not include quantitative measurement or experimental validation, its strength lies in theoretical integration, critical analysis, and contextual relevance, offering a coherent framework for understanding contemporary developments in legal education.

Analysis and Results. The analysis above demonstrates that legal education's distinct disciplinary structure emerges from the dynamic interaction of normative foundations, specialized reasoning, professional orientation, and discourse practices. Unlike disciplines driven primarily by empirical investigation or theoretical abstraction, law is prescriptive: it establishes standards of behavior, allocates rights and obligations, and derives authority from institutional recognition rather than empirical validation (Hart, 1961). Consequently, legal curricula prioritize interpretive skills, doctrinal understanding, and professional judgment. Courses are organized around discrete branches of law, and teaching methods such as the case and Socratic methods cultivate a “lawyerly” cognitive style that emphasizes analogical reasoning, argumentative clarity, and doctrinal coherence (Weaver, 1991). These pedagogical and cognitive characteristics are integral to professional socialization, ensuring that students internalize the norms, interpretive strategies, and ethical responsibilities that define the legal profession.

This disciplinary distinctiveness has practical implications for legal education reform, particularly in post-Soviet or developing contexts such as Uzbekistan. Alignment with international standards—through the adoption of comparative law courses, international human rights law, and transnational legal instruments—must be balanced with domestic legal traditions and procedural conventions. Reform efforts that ignore the normative logic of law risk producing graduates who may be linguistically competent or knowledgeable about foreign statutes but unable to reason effectively within the domestic legal framework. Evidence from Uzbek pilot programs demonstrates that integrating Legal English, comparative law exercises, and cross-border moot courts enhances both foreign language proficiency and professional readiness, illustrating that global competencies can be developed without compromising disciplinary identity [10].

Foreign language competence also intersects closely with intercultural communicative competence (ICC), reinforcing the distinctive disciplinary and professional logic of legal education. Byram's (1997, 2008) five ICC components—attitudes, knowledge, skills of interpreting and relating, skills of discovery and interaction, and critical cultural awareness—align directly with the intellectual, practical, and ethical apprenticeships of legal training [7].

For instance, cultivating openness and curiosity (attitudes) enables students to approach foreign legal systems constructively; acquiring knowledge of international treaties and foreign procedural norms expands comparative legal literacy; interpreting and relating foreign texts to domestic law strengthens analytical reasoning; discovery and interaction skills develop through negotiation simulations or moot courts; and critical cultural awareness fosters ethical reflection on the alignment of domestic law with global norms. Together, these competencies enhance professional performance while reinforcing the normative, cognitive, and ethical pillars of the discipline.

Legal discourse itself constitutes another key element of disciplinary distinctiveness. Legal language functions as a highly specialized professional code, characterized by technical terminology, complex syntax, and genre-specific conventions, including contracts, judgments, and arbitration awards (Bhatia, 1993, 2004). Mastery of this discourse—both in the native language and in foreign languages such as Legal English—enables students to participate effectively in international legal contexts while maintaining proficiency in domestic law. In Uzbekistan, graduates trained in multilingual legal communication are better equipped to engage in international arbitration, transnational contracts, and treaty implementation, illustrating how disciplinary identity and global competence can be mutually reinforcing.

Finally, legal education remains distinct because of its integration of normative reasoning, professional socialization, and ethical development with cognitive, linguistic, and intercultural skills. Reform initiatives must therefore engage with the discipline's internal logic rather than treating law as a generic academic field. Incorporating foreign language and intercultural competencies within the normative and pedagogical frameworks strengthens graduates' professional readiness and ensures that disciplinary integrity is preserved even as globalization reshapes legal practice. This dual focus—on global preparedness and disciplinary coherence—underscores why legal education, despite increasing internationalization, continues to maintain a unique identity within higher education [11].

The integration of foreign language competence and intercultural communicative skills has emerged as a critical dimension of contemporary legal education. Mastery of Legal English and other foreign languages enables access to international scholarship, treaties, and arbitration frameworks while facilitating communication with diverse clients, institutions, and international partners. Embedding Byram's intercultural communicative competence model into legal curricula further enhances students' ability to interpret culturally embedded legal concepts, adapt professional interactions, and engage ethically across legal traditions. In Uzbekistan and similar post-Soviet or developing legal systems, this integration strengthens both professional preparedness and disciplinary coherence.

Recommendations and conclusion. The following recommendations are proposed to enhance the effectiveness of legal education in a globalized context. They aim to support the integration of international perspectives, intercultural competence, and professional skills while preserving the normative and disciplinary foundations of legal training.

Curriculum Design. Foreign language education, comparative law, and intercultural competence should be integrated into the core curriculum rather than treated as elective components. This integration must remain consistent with the normative foundations and case-based methods that define legal education, ensuring disciplinary integrity.

Pedagogical Approaches. Greater emphasis should be placed on experiential learning through activities such as moot courts, international internships, negotiation simulations, and case-based tasks that combine domestic and global legal contexts. Reflective learning practices should also be incorporated to enhance students' critical cultural awareness and ethical reasoning.

Faculty Development. Instructors should receive targeted professional training in intercultural teaching methods, Legal English, and comparative law. This will support the effective incorporation of global competencies into traditionally normative legal instruction.

Assessment Strategies. Evaluation methods should extend beyond doctrinal knowledge and analytical ability to include students' language proficiency, intercultural competence, and capacity for ethical decision-making within legal contexts.

Institutional Support. Universities should strengthen collaboration with international academic institutions, organizations, and professional networks. Such partnerships can provide students with meaningful exposure to global legal systems while maintaining strong grounding in national legal traditions.

Policy Alignment. Educational reforms at both national and institutional levels should strike a balance between adopting international standards and preserving local legal traditions, thereby preparing graduates to function effectively in both domestic and international legal environments.

The preservation and strategic evolution of legal education's disciplinary structure are essential for producing competent, ethically grounded, and globally capable legal professionals. By integrating foreign language proficiency and intercultural communicative competence into normative and case-based frameworks, legal education can respond to globalization while maintaining its unique disciplinary identity. Such a holistic approach ensures that graduates are not only legally knowledgeable but also professionally adaptable, culturally sensitive, and capable of contributing meaningfully to transnational legal practice.

References

1. S. M. Brown and H. L. A. Hart, "The Concept of Law.," *Philos. Rev.*, vol. 72, no. 2, p. 250, Apr. 1963, doi: 10.2307/2183110.
2. L. D. Bilionis and N. W. Hamilton, "Professional Identity Formation As Theory and As Practice for the Education of a Lawyer," 2025, *SSRN*. doi: 10.2139/ssrn.5387750.
3. V. K. Bhatia and A. Bhatia, "Legal discourse across cultures and socio-pragmatic contexts," *World Englishes*, vol. 30, no. 4, pp. 481–495, Dec. 2011, doi: 10.1111/j.1467-971X.2011.01727.x.
4. M. Amiri and A. H. Fatemi, "The Impact of Content-based Instruction on Students' Achievement in ESP Courses and Their Language Learning Orientation," *Theory Pract. Lang. Stud.*, vol. 4, no. 10, pp. 2157–2167, Oct. 2014, doi: 10.4304/tpls.4.10.2157-2167.
5. R. L. Weaver, "Some reflections on the case method," *Leg. Stud.*, vol. 11, no. 2, pp. 155–171, Jul. 1991, doi: 10.1111/j.1748-121X.1991.tb00554.x.
6. J. R. Maxeiner, "Educating Lawyers Now and Then: Two Carnegie Critiques of the Common Law and the Case Method," *Int. J. Leg. Inf.*, vol. 35, no. 1, pp. 1–46, 2007, doi: 10.1017/S0731126500001955.
7. M. Byram, *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*, 2nd ed. Multilingual Matters, 2020. doi: 10.21832/BYRAM0244.
8. D. K. Deardorff, "Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization," *J. Stud. Int. Educ.*, vol. 10, no. 3, pp. 241–266, Sep. 2006, doi: 10.1177/1028315306287002.
9. M. J. Bennett, Ed., *Basic concepts of intercultural communication: selected readings*, Nachdr. Boston: Intercultural Press, 2011.
10. D. B. Axmedjanova, "APPLYING AUTHENTIC MATERIALS FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING," Nov. 2023, doi: 10.5281/ZENODO.10198608.
11. O. A. Kalugina, "Development of students' professional communicative competence in an economic higher school," *XLinguae*, vol. 9, no. 4, pp. 37–45, Oct. 2016, doi: 10.18355/XL.2016.09.04.37-45.

PEDAGOGIKA O'QUV YURTLARI TARMOG'INING KENGAYISHI VA ULARNING MODDIY BAZASINI YARATISH MUAMMOLARI

Salohiddin Usmonov Dushan o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universitetining Urgut filiali

Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

usmonovsalohoddin1@gmail.com

ORCID 0009-0001-8725-2766

UDK 37.014

Anontatsiya. Mazkur ishda pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining kengayishi hamda ular uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazani shakllantirish masalalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. XX asrning 20-yillarida xalq maorifini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, aholi savodxonligini oshirish, maktablar tarmog'ini kengaytirish va ularning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Tadqiqotda mazkur davrda yuzaga kelgan iqtisodiy

qiyinchiliklar, markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining ta'lim sohasidagi faoliyati hamda maktablarni moddiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, byudjet mablag'larining yetishmasligi sharoitida qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish yo'llari, maktablarni saqlash va rivojlantirishda aholi zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar ham tahlil qilingan.

Ishda 1922–1923-yillarda Samarqand uyezdi misolida maktablarning toifalarga ajratilishi, ularning moliyalashtirish manbalari, boshqaruv tizimi hamda faoliyatini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan islohotlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida pedagogika o'quv yurtlari va maktablar tarmog'ini rivojlantirishda moddiy-texnik bazani yaratish muhim omil bo'lgani, ushbu jarayonga ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy omillar bevosita ta'sir ko'rsatgani aniqlangan. Umuman olganda, ish yakunida pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining shakllanishi va rivojlanishida davlat siyosati, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati hamda aholi ishtirokining o'rni umumlashtirilib, ta'lim muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq maorifi, Samarqand uyezdi, pedagog, maktab, iqtisodiy sharoit, o'qitish to'lovi.

EXPANSION OF THE NETWORK OF PEDAGOGICAL SCHOOLS AND PROBLEMS OF CREATING THEIR MATERIAL BASE

Abstract. This study analyzes, on the basis of historical sources, the expansion of the network of pedagogical educational institutions and the issues related to creating the necessary material and technical infrastructure for them. In the 1920s, the development of public education became a priority of state policy, and ensuring mass literacy, increasing the number of schools, and guaranteeing their stable functioning were identified as urgent tasks. The research also highlights the economic difficulties that emerged during this period, the responsibilities of local and central government bodies, and the decisions adopted to provide material support for schools. In addition, it provides information on the obligations imposed on the population to maintain schools and on the search for additional resources due to the insufficiency of budgetary allocations. Using the example of Samarkand Uyezd in 1922–1923, the study examines the classification of schools, their financial sources, and the reforms implemented to regulate their activities. In conclusion, the social, economic, and organizational factors involved in creating a material base for strengthening the network of pedagogical educational institutions are summarized.

Keywords: Public education, Samarkand Uyezd, pedagogue, school, economic conditions, tuition fee.

Kirish. Mamlakat taraqqiyotida ta'lim tizimining o'rni beqiyos bo'lib, uning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan moddiy-texnik bazaning mustahkamligiga bog'liqdir. Ayniqsa, pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining kengayishi va ularni zamon talablariga mos ravishda jihozlash masalasi har bir davrda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. XX asrning 20-yillarida O'rta Osiyo hududlarida xalq maorifini rivojlantirish, yangi maktablar tashkil etish hamda mavjud ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish ishlari murakkab iqtisodiy sharoitlarda amalga oshirilgan.

Xalq maorifining moddiy bazasini mustahkamlash maqsadida qishloq va ovul maktablariga majburiy tartibda 6 desyatina yer maydoni ajratilib, ushbu yerlarni jamoaviy asosda ishlatish belgilangan. Mazkur jarayon mahalliy ijroiya komitetlari nazorati ostida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

1922–1923-yillarda Samarqand uyezdi qishloqlarida xalq ta'limi faoliyati to'g'risidagi hisobotda Xalq maorifi bo'limi muassasalari quyidagi to'rt toifaga ajratilgani qayd etilgan:

1. Davlat mablag'lari hisobidan saqlanadigan muassasalar;
2. Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan saqlanadigan muassasalar;
3. Qishloq aholisi mablag'lari hisobidan faoliyat yuritadigan muassasalar;
4. Kasaba uyushmalari va boshqa ixtiyoriy jamg'armalar hisobidan ta'minlanadigan muassasalar.

1924-yil aprel oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan shahar va uyezd musulmon o'qituvchilari konferensiyasida qabul qilingan rezolyutsiyalarda maorif organlari faoliyati qoniqarsiz deb baholangan. Konferensiya delegatlari tomonidan quyidagi takliflar ilgari surilgan:[1]

1. Qisqa muddat ichida eski shahar va uyezdlardagi eski usuldagi maktablarni qayta tiklash hamda ularga yangi usulda ta'lim beruvchi o'qituvchilarni yuborish;
2. Diniy va madaniy marosimlardan tushadigan daromadlarning 50 foizini xalq ta'limi ehtiyojlariga yo'naltirish;

3. Hozirga qadar o'z maktab binosiga ega bo'lmagan mahalliy aholi uchun diniy marosimlardan ajratiladigan mablag'lar hisobidan yoz mavsumida 8 sinfli namunaviy maktab binosini qurish;

4. Ta'lim bo'limi tomonidan ajratiladigan o'quv qo'llanmalari va qurollarning vaqf mablag'lari hisobidan muntazam ta'minlanishini yo'lga qo'yish.

Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining 1921-yil 21-oktyabrdagi qaroriga muvofiq maktab xo'jalik sovetlari tashkil etilgan. Qarorda maktab va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarga ega bo'lgan barcha qishloq va ovullarda mahalliy sovetlar hamda ularning ijroiya komitetlari huzurida maktab xo'jalik sovetlarini tuzish belgilangan.[2] Turkistonning ko'plab hududlarida qishloq jamoalari xalq maorifi inspeksiyalari bilan maktablar va o'qituvchilarni aholi mablag'lari hisobidan saqlash to'g'risida shartnomalar tuzganlar.[3] Ushbu shartnomalar maktablar faoliyatining davomiyligini ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa-da, ayrim chekka qishloqlardagi dehqonlar bunday kelishuvlarga qo'shilmagan. Shuningdek, ayrim qishloq jamoalari shartnoma tuzgan bo'lsalar-da, uning shartlarini to'liq bajarmaganlar. Bu holat xalq ta'limi tizimini moddiy jihatdan ta'minlashda mavjud qiyinchiliklar va muammolarni yaqqol namoyon etadi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining shakllanishi va ularning moddiy bazasini yaratish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, tarixiy hujjatlar va arxiv materiallari mazkur masalaning murakkab hamda ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi. Xususan, XX asr boshlarida xalq maorifi tizimi taraqqiyoti haqida ma'lumot beruvchi o'sha davr hukumat qarorlari, Xalq Maorifi Komissarligi bayonnomalari, uyezdlar bo'yicha tuzilgan hisobotlar va statistik ma'lumotlar asosiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbalarda maktab qurilishi, moddiy imkoniyatlar yetishmasligi, mahalliy aholi zimmasiga yuklangan majburiyatlar, byudjet mablag'larining taqsimlanishi hamda tarmoqning kengayishiga ta'sir qilgan siyosiy omillar yoritilgan. Samarqand davlat arxividan olingan ma'lumotlar, shuningdek, mustaqillikdan keyingi tarixchilar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, monografiyalari va dissertatsiyalarda XX asrning 20-yillaridagi ta'lim siyosati, xalq maorifini tashkil etish va uni boshqarish jarayonlari chuqur tahlil qilingan. Chet ellik tadqiqotchilar tomonidan O'rta Osiyodagi sovet maorif siyosati haqidagi izlanishlar esa mazkur masalani yanada keng ko'lamda ko'rib chiqishga yordam beradi. Ularning tadqiqotlarida ta'lim tizimining iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligi, ayniqsa moddiy baza yetishmovchiligining ta'lim sifatiga ta'siri alohida ta'kidlanadi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik o'quv yurtlari tarmog'ining rivoji nafaqat ta'lim siyosati, balki iqtisodiy sharoit, aholi ishtiroki, byudjet siyosati va boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shu bois mazkur mavzuni chuqur o'rganish ko'p manbali tahlilni talab etadi.

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-tahliliy, tizimli yondashuv, solishtirma va statistik metodlar tashkil etadi. Tarixiy-tahliliy yondashuv pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining shakllanish jarayonini davriy ketmaketlikda o'rganish, o'sha davr siyosiy va iqtisodiy sharoitlarini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur metod yordamida 1920–1930-yillarga oid rasmiy qarorlar, hukumat topshiriqlari, mahalliy hokimiyatlar faoliyati hamda maktablar faoliyati haqidagi hujjatlar izchil o'rganildi. Tizimli yondashuv esa ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini shakllantirishda ta'sir ko'rsatgan barcha omillar iqtisodiy resurslar, boshqaruv tizimi, mahalliy aholi ishtiroki, markaziy siyosat talablari kabi jihatlarni bir butun tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Solishtirma metod yordamida Samarqand uyezdi misolida olingan ma'lumotlar boshqa uyezdlar bilan taqqoslandi, maktablarni moliyalashtirishdagi farqlar va umumiy qonuniyatlar aniqlab chiqildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar tahlili orqali maktablar sonining o'sishi, byudjet mablag'larining taqsimlanishi, aholi tomonidan bajarilgan majburiy mehnat va resurs ajratmalarining miqdori o'rganildi. Arxiv manbalari, davriy nashrlar va hukumat hisobotlari asosiy empirik materialni tashkil etdi. Metodlarning uyg'un qo'llanishi mavzuni chuqur, ishonchli va ilmiy asosda yoritishga xizmat qildi.

Natija. Bu maktablarda o'qituvchilar maoshi to'lanmaydi, natijada maktab og'ir ahvolga tushib qola boshlaydi. 1923-yil 27-yanvardagi Turkiston markaziy ijroiya

komitetining №18 qaroriga muvofiq sovet maktablarini tugatgan mahalliy aholiga imtiyozlar berish to'g'risida qishloq ovul maktablarini mustahkamlash maqsadida quyidagilar joriy etiladi.

1. Sovet maktabi kursini bitirganlar sovet maktabi bo'lmagan maktab yoki uyda ma'lumot olganlar keyin oliy sikldagi pog'onali maktablarga qabul qilinadi.[4]

2. Davlat xizmatiga kirish vaqtida Sovet maktabi kurslarini bitirganlarga imtiyoz berish. Shu tarzda Turkiston respublikasi hukumati raspublika xalq ta'limining mastahkamlashda qaratilgan bir qator qarorlar qabul qiladi.

Samarqand uyezd va shahar ijroiya komitetining 1922–1923-o'quv yili bo'yicha xalq ta'limi haqidagi hisobotida qayd etilishicha, Yangi shaharda maktab binolarini ta'mirlash va isitish vositalari bilan ta'minlash maqsadida o'quvchilarning ota-onalari tomonidan o'quv yili davomida 5 foizlik to'lov joriy etilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, isitish vositalari tayyorlangan.

Eski shaharda esa musulmon maktablari foydasiga targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilgan bo'lib, natijada barcha musulmon maktablarida ta'mirlash ishlari o'tkazilgan. Bundan tashqari, tashviqot kampaniyasi yordamida uyezd bo'yicha maktab xodimlari uchun pul mablag'lari va bug'doy ko'rinishidagi xayriya yordamlari to'plangan. [5]

Samarqand viloyat va shahar inspeksiyasining 1923-yil 1-sentyabrdan 1924-yil 1-aprelgacha bo'lgan davrda Samarqand viloyati xalq maorifining ahvoli to'g'risidagi ma'ruzasida qayd etilishicha, Samarqand uyezdidagi 10 ta maktab o'qituvchilarining ish haqi mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan to'langan. Shu bilan birga, qishloq maktablarining faoliyati mahalliy aholi bilan tuzilgan shartnomalar asosida qo'llab-quvvatlangan. Maktablar aholi tomonidan natura shaklidagi yordam bilan ta'minlangan.

O'zbek maktablariga ko'rsatiladigan yordam maxsus rayon komissiyalari orqali amalga oshirilgan. Ushbu komissiyalar ko'magida maktab binolari ta'mirlangan, o'tin zaxiralari tayyorlangan hamda maktablar kanselyariya buyumlari va o'quv qurollari bilan ta'minlangan.

1924-yil 1-fevraldan boshlab yevropaliklar ta'lim beradigan maktablarda pullik ta'lim joriy etilgan. Mazkur sanagacha majburiy o'qish to'lovi mavjud bo'lmay, mablag'lar o'quvchilarning ota-onalari tomonidan ixtiyoriy badallar shaklida yig'ilgan. Shu sababli maktablarning o'quv yilini me'yoriy sharoitda yakunlashida ota-onalar tomonidan ko'rsatilgan moddiy yordam muhim ahamiyat kasb etgan.

Yevropaviy maktablarning pullik ta'lim tizimiga o'tishi ijobiy natijalar bergan. Yarim yil davomida barcha maktablarda jami 21 ming so'm mablag' yig'ilgan bo'lib, o'qish uchun to'langan to'lovlar maktablar byudjetining qariyb 50 foizini tashkil etgan.

Samarqand viloyatidagi mahalliy milliy maktablarda esa pullik ta'lim joriy etilmagan. Ota-onalar badali asosidagi tizim faqat ayrim yevropaviy va kichik milliy maktablarda qo'llanilgan. To'lov miqdori 1 chervondan 10 chervongacha belgilangan bo'lsa-da, kambag'al oilalar farzandlari ushbu to'lovlardan ozod etilgan. [6]

1922-yil 1-sentyabrdan 1923-yil fevraligacha bo'lgan davrda Samarqand maktablarida o'quvchilar ota-onalaridan yig'ilgan to'lovlar hisobidan 10 888 so'm 15 tiyin mablag' tushgan. 1923-yil 1-fevraldan 1-aprelgacha bo'lgan davrda esa ushbu ko'rsatkich 5 488 so'm 48 tiyinni tashkil etgan. [7]

Aholi tomonidan ko'rsatilgan moddiy yordam natijasida 1924-yilda Samarqand shahrida 2 ta, Xo'jandda 1 ta va Kattaqo'rg'onda 2 ta yangi maktab binosi qurilgan.

Aholi mablag'lari hisobidan Kattaqo'rg'on uyezdida 1924-yilda Payshanba qishlog'ida 1 ta, Yangiqo'rg'onda 1 ta, Metan qishlog'ida 1 ta hamda boshqa qishloqlarda yana 13 ta maktab qurildi.[8] Shuningdek, shahar va uyezdlardagi maktab binolari aholi mablag'lari hisobidan ta'mirlanib, partalar va doskalar tayyorlandi. Maktablarni isitish xarajatlari ham aholi tomonidan qoplandi.[9]

Xo'jand uyezdi shahar ijroiya komitetining ma'ruzasida qayd etilishicha, Xo'jand shahrida 8 ta maktab va 5 ta kichik maktab, Xo'jand uyezdida esa 12 ta maktab faoliyat yuritgan. Ular Xalq maorifi bo'limi va aholi o'rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq, xalq mablag'lari hisobidan saqlangan.[10]

Maktablarga moddiy yordam ko'rsatishni kuchaytirish maqsadida Maorifga ko'maklashish byurolari tashkil etildi. Turkiston Markaziy Ijroiya Komitetining 1923-yil 27-noyabrdagi Xalq ta'limi soveti bilan qo'shma majlisi qaroriga muvofiq, o'lka, viloyat, uyezd va volost miqyosida Maorifga ko'maklashish byurolari faoliyatini tartibga soluvchi yo'riqnoma tasdiqlandi. Byuroning asosiy maqsadi maorif ishlariga doimiy va har tomonlama yordam ko'rsatish, mavjud mablag'larni safarbar etish hamda rejalashtirilgan maorif fondlarini shakllantirishdan iborat edi.

Tashkil etilgan maorif fondlari quyidagi yo'nalishlarga sarflanishi belgilandi:

- a) qishloq va ovul maktablari tarmog'ini kengaytirish va mustahkamlash;
- b) mahalliy aholi vakillaridan o'qituvchi va texnik xodimlar tayyorlash maqsadida sovet-partiya maktablari hamda turli kurslarni tashkil etish;
- d) Toshkent va federatsiyaning boshqa markazlaridagi o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga yordam ko'rsatish.

Maorifga ko'maklashish byurolarining vazifalaridan biri maktablarni otaliqqa olgan shahar organlari, qishloq jamoalari va ovul tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat bo'lgan. Bundan tashqari, ular maktab binolarini ta'mirlash, oziq-ovqat va moddiy mablag'lar bilan ta'minlash, ixtiyoriy yordam kompaniyalarini tashkil etish kabi ishlarni ham amalga oshirgan. Yo'riqnomaga ko'ra, o'lka byurosi tarkibiga Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti raisi, Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti vakillari, kasaba uyushmalari, Xalq maorifi komissarligi, komsomol tashkilotlari hamda mahalliy millatlar vakillari kiritilgan.

Viloyat byurolari viloyat ijroiya komiteti raisi boshchiligida tashkil etilib, ularning tarkibiga partiya, maorif, kasaba uyushmalari, komsomol va aholi vakillari kiritilgan. Uyezd va volost byurolari ham shunga o'xshash tartibda shakllantirilgan. Har bir qishloq va ovulda byuro faoliyatiga ko'maklashuvchi yacheykalar tashkil etilgan bo'lib, ular qishloq sovetlari vakillari hamda mahalliy obro'li kishilardan tuzilgan.

Viloyat, uyezd va volost byurolarining asosiy majburiyatlari maorif fondlariga xayriyalar yig'ish, qishloq va ovul yacheykalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ularning ishiga moddiy va tashkiliy yordam ko'rsatishdan iborat edi. Shuningdek, maorif fondlariga mablag' jalb qilish maqsadida og'zaki va yozma targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilgan. Maorifga ko'maklashish byurolarining tashkil etilishi Turkiston Respublikasining qishloq va ovullarida, jumladan, Samarqand viloyatida maktablar moddiy bazasini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.[11] Byuro faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri maorif sohasidagi ishlarni targ'ib qilish bo'lib, shu sababli maktablar uchun bino qurish va ularni ta'mirlash ishlari aholi bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilgan.

Muhokama. Pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining kengayishi va ularning moddiy-texnik bazasini shakllantirish jarayoni tahlili shuni ko'rsatadiki, XX asrning 20-yillarida ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar murakkab siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda kechgan. Ushbu davrda kuzatilgan iqtisodiy inqiroz, moddiy resurslar tanqisligi hamda davlat byudjeti imkoniyatlarining cheklanganligi pedagogik ta'lim muassasalari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, xalq maorifini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan va bu yo'nalishda muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari maktablar va pedagogik o'quv yurtlari tarmog'ini kengaytirishda nafaqat markaziy hokimiyat organlari, balki mahalliy boshqaruv tizimlari ham muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Xususan, mahalliy aholini maktablar qurilishi va ularni moddiy ta'minlash ishlariga jalb etish amaliyoti ta'lim muassasalarini saqlab qolish va rivojlantirishning muhim omillaridan biri bo'lgan. Biroq bunday yondashuv ayrim hollarda aholiga qo'shimcha iqtisodiy yuklama yuklagan hamda ayrim hududlarda norozilik kayfiyatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Samarqand uyezdi misolida o'rganilgan materiallar maktablarning muayyan toifalarga ajratilgani, ularning moliyalashtirish manbalari va boshqaruv tizimi ma'lum darajada tartibga solinganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, moddiy-texnik bazaning zaifligi va moliyaviy resurslarning yetishmasligi ko'plab ta'lim muassasalari faoliyatida qiyinchiliklar keltirib

chiqargan. Biroq qabul qilingan qarorlar, mavjud mablag'larni qayta taqsimlash siyosati hamda aholining faol ko'magi ta'lim tizimining bosqichma-bosqich barqarorlashishiga imkon yaratgan. Umuman olganda, pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda tashkiliy omillar o'zaro ta'siri natijasida kechgan murakkab tarixiy jarayon hisoblanadi. Moddiy-texnik bazaning zaifligi ushbu tizimning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolgan bo'lsa-da, davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va mahalliy tashabbuslar ta'lim tizimining rivojlanishiga sezilarli turtki bergan. Ushbu tarixiy tajriba bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning moddiy bazasini mustahkamlash masalalarini hal etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. Tadqiqot natijalari pedagogika o'quv yurtlari tarmog'ining kengayishi va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish jarayoni murakkab, ko'p qirrali va uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lganligini ko'rsatadi. XX asrning 20-yillarida iqtisodiy qiyinchiliklar, byudjet mablag'larining cheklanganligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ta'lim muassasalari faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq xalq maorifini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati ta'lim tizimining tiklanishi va keyingi rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik ta'lim muassasalari faoliyati markaziy hukumat qarorlari bilan bir qatorda mahalliy boshqaruv organlari va aholi ko'magi asosida ham rivojlangan. Samarqand uyezdi misolida maktablarning tashkiliy tuzilishi, moliyalashtirish manbalari va boshqaruv tizimi ma'lum darajada shakllangan bo'lsa-da, moddiy baza yetishmovchiligi ta'lim sifati va o'quv jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilgan qo'llab-quvvatlash choralari, mavjud resurslarni oqilona taqsimlash siyosati hamda aholining faol ishtiroki ta'lim tizimining barqarorlashuvi va rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari pedagogika o'quv yurtlari taraqqiyotida iqtisodiy va ijtimoiy omillarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur tarixiy tajriba bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ta'lim sifatini oshirish masalalarini hal etishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samarqand viloyati arxivi ar 74: ar1: d 46: 890 bet va ar 151 ar 1:d 29: 84-85 varaqlar
2. Samarqand viloyati arxivi ar 74 ar 1 : d 253: 448-449 betlar
3. Samarqand viloyati arxivi -152 ar-1 d-6 104-bet
4. Samarqand viloyati arxivi ar 152: ar1: d-18: 240-bet 81-bet
5. Samarqand viloyati arxivi ar 65: d-15: 75-bet.
6. Samarqand viloyati arxivi ar-74; ar-1; d-39 279- bet
7. Samarqand viloyati arxivi ar-74 ar-1; d-253; 437- bet
8. Samarqand viloyati arxivi ar-74;ok-1; d-48; 1967-1968- betlar
9. Samarqand viloyati arxivi ar-74;ok-1; d-48; 1967-1968- betlar
10. Samarqand viloyati arxivi -74 ; ar – 1; d- 48; 20-28- bet
11. Samarqand viloyati arxivi ar-152; ok-1; d-107; 11 – bet

TYUTORLAR BOSHQARUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MENEJMENT PARADIGMALARI: AN'ANAVIY VA INNOVATSION YONDASHUVLAR TAHLILI

Kudratov Kozim Karimovich

Guliston davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
birinchi prorektor, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

kudratov_kozim@guldu.uz

ORCID 0009-0004-1958-9457

UDK 378.014.6:005

Annotatsiya. Mazkur maqolada tyutorlik faoliyatining boshqaruv paradigmatlari chuqur tahlil qilinib, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar o'rtasidagi asosiy farqlar ochib beriladi. An'anaviy paradigma doirasida tyutor faoliyati asosan nazorat qilish, hisobot yuritish, intizomni ta'minlash hamda topshiriqlar ijrosini monitoring qilish bilan cheklanadi. Bunday yondashuvda tyutor ko'proq boshqaruvning ma'muriy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion paradigma esa tyutorlik faoliyatini yangi bosqichga

olib chiqib, uni talabanning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi muhim boshqaruv subyekti sifatida talqin etadi. Bu yondashuvda tyutor ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qiladi, raqamli platformalar va analitik vositalardan samarali foydalanadi hamda talaba bilan hamkorlikka asoslangan kommunikativ muhitni yaratadi. Maqolada shuningdek, so'nggi xalqaro ilmiy tadqiqotlar tahlili orqali tutoring va mentoring dasturlarining talabalarning o'quv jarayonidagi faolligi, akademik natijalari, o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, qoniqish darajasi hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'siri yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi va oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatini takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: tyutorlik faoliyati, boshqaruv paradigmasi, innovatsion yondashuv, talaba markazli ta'lim, raqamli transformatsiya, individual trayektoriya, mentorlik

MANAGEMENT PARADIGMS IN DEVELOPING THE MANAGEMENT ACTIVITY OF TUTORS: ANALYSIS OF TRADITIONAL AND INNOVATIVE APPROACHES

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the management paradigms of tutoring activities, focusing on the differences between traditional and innovative approaches. Within the traditional paradigm, tutoring is primarily viewed as a control-oriented model that emphasizes supervision, reporting, discipline, and monitoring of task completion. In this context, the tutor functions mainly as an administrative agent with limited engagement in the student's personal academic development. In contrast, the innovative paradigm redefines the tutor's role as a key participant in the educational process, acting as a coordinator of the student's individual learning trajectory, a data-driven decision-maker, and a facilitator of effective communication and collaboration. This approach highlights the importance of digital technologies, learning analytics, and adaptive educational environments in enhancing the quality of tutoring. Furthermore, the article reviews recent international research findings that demonstrate the positive impact of tutoring and mentoring programs on student engagement, academic performance, satisfaction, motivation, and socio-emotional development. The findings indicate that students involved in such programs tend to achieve better academic outcomes and demonstrate higher levels of engagement. Overall, the study substantiates the effectiveness and growing importance of innovative tutoring practices in modern higher education systems.

Keywords: tutoring activity, management paradigm, innovative approach, student-centered learning, digital transformation, individual trajectory, mentoring

Kirish. Bugungi oliy ta'lim tizimi boshqaruvning mazmuni va usullarini tubdan yangilash bosqichiga kirgan. Ta'limning ommaviylashuvi, talabalar ehtiyojlarining diversifikatsiyalashuvi, kredit-modul tizimi, akademik mobillik, raqamli platformalar va sun'iy intellekt vositalarining kirib kelishi universitet ichki boshqaruvini an'anaviy ma'muriy modeldan ko'ra ancha murakkab, tezkor va moslashuvchan tizimga aylantirmoqda. UNESCO ta'limdagi raqamli transformatsiya texnologiyalarni inson resurslari bilan uyg'unlashtirish, ta'lim va o'rganishni boshqarish tizimlarini kuchaytirish hamda monitoring jarayonlarini takomillashtirishni talab qilishini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan tyutorlik instituti talaba bilan eng yaqin ishlovchi, uning rivojlanishini kuzatuvchi va boshqaruv qarorlarini mikro darajada amalga oshiruvchi subyekt sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, amaliyotda tyutorlik faoliyati mavjud bo'lsa-da, uni boshqarishda qaysi menejment paradigmasi ustuvor bo'lishi kerakligi masalasi yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Ko'plab oliy ta'lim muassasalarida tyutor faoliyati hali ham hisobot yuritish, davomatni nazorat qilish, topshiriqlar ijrosini kuzatish va ma'muriy ko'rsatmalarni uzatish bilan cheklanadi. Bunday model ma'lum darajada tartib-intizomni ta'minlasa-da, talabalar ehtiyojlarining murakkablashuvi, individual trayektoriyalarning ko'payishi va talabani ushlab qolish bilan bog'liq muammolar sharoitida yetarli emas. So'nggi yirik tadqiqotlar universitet tutoring dasturlari talabalar qoniqishi va akademik natijalari bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatadi, biroq bu samaradorlik tutor kompetensiyalari, dastur tuzilmasi va kontekst omillariga bog'liq ekanini ham qayd etadi. Bu esa tyutorlikni oddiy ma'muriy bo'g'in emas, boshqaruv paradigmasi bilan belgilanadigan tizim sifatida ko'rish zarurligini anglatadi.

Mavzuning jahon miqyosidagi dolzarbligi tyutorlikning talaba muvaffaqiyati, moslashuvi va engagementiga ta'siri bilan belgilanadi. 2024-yilda *Frontiers in Education*'da e'lon qilingan eksperimental tadqiqotda collaborative learning, peer tutoring va academic supervision kombinatsiyasi talabalar engagementi, qiziqishi va o'qishga bag'ishlanishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. 2025-yilda mentorlarni tayyorlash va ulardan

foydalanishga bag'ishlangan tadqiqot esa mentorlar tayyorlov dasturi bilim, self-regulated learning va socio-emotional skills ko'rsatkichlarini yaxshilaganini ko'rsatdi. 2026-yilda Peru universiteti misolidagi katta hajmli tadqiqotda 5 930 nafar talaba ma'lumotlari asosida tutoringda qatnashgan talabalar sezilarli yuqori qoniqish va yaxshiroq akademik natijalarni ko'rsatgani aniqlangan. Bu dalillar innovatsion boshqaruv paradigmasida tyutorlikning rolini kuchaytiradi.

Mavzuning respublikamiz miqyosidagi dolzarbligi ham yuqori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi boshqaruv samaradorligi, sifat va raqobatbardoshlikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. 2025-yil 17-oktabrdagi 656-son qaror bilan tasdiqlangan tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi esa tyutorlik institutini normativ jihatdan mustahkamlab, uning vazifalari, tashkil etish tartibi va boshqaruv doirasini belgilab berdi. Bu hujjatlar tyutorlikni tasodifiy yoki ikkilamchi faoliyat emas, balki oliy ta'lim boshqaruvining amaliy bo'g'ini sifatida ko'rsatadi.

Ilmiy ahamiyati shundaki, mazkur maqola tyutorlikni pedagogik hamrohlik doirasidan chiqarib, uni menejment paradigmalari nuqtayi nazaridan talqin qiladi. Amaliy ahamiyati esa tyutorlar faoliyatini baholash, tayyorlash, vazifalarni qayta taqsimlash, raqamli vositalarni joriy etish va universitet ichki boshqaruvini talaba markazli modelga yaqinlashtirish bo'yicha asos yaratishidir. Shu sababli mazkur mavzu ta'lim menejmenti, pedagogik innovatsiya va oliy ta'limni raqamli transformatsiya qilishning tutashgan nuqtasida joylashgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi pragmatik va konseptual-tahliliy yondashuv asosida qurildi. Tadqiqot falsafasi sifatida pragmatizm tanlanishining sababi shundaki, tyutorlar boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda menejment paradigmalari masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy boshqaruv muammosidir. Shu bois tadqiqot faqat abstrakt nazariyalarga emas, zamonaviy ilmiy maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar va universitet boshqaruvi bilan bog'liq dalillarga tayandi. UNESCO materiallari ham ta'limdagi raqamli transformatsiyani texnologik, insoniy va boshqaruviy omillar birligida ko'rish lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot yo'nalishi asosan deduktiv xarakterga ega bo'ldi. Dastlab menejment paradigmalari haqidagi umumiy nazariy qarashlar va tyutorlikning amaliy roli bilan bog'liq ilmiy manbalar o'rganildi, so'ng ular asosida an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning xususiyatlari ajratildi. Shu bilan birga, ayrim xulosalar induktiv kuzatuvlar asosida boyitildi: masalan, so'nggi maqolalarda takror-takror uchraydigan student engagement, tutor competencies, satisfaction, socio-emotional skills va digital support kabi tushunchalar umumlashtirilib, innovatsion paradigma tarkibiy elementlari sifatida talqin qilindi.

Ma'lumot manbalari ikki guruhga ajratildi. Birlamchi manbalarga milliy normativ-huquqiy hujjatlar – PF-5847-son Farmon va 656-son qaror kiritildi. Ikkilamchi manbalar sifatida esa UNESCOning rasmiy materiallari, Frontiers'dagi empirik maqolalar va oliy ta'limda texnologik integratsiya masalalariga oid ilmiy adabiyotlar olindi. Ushbu tanlov muallifga milliy boshqaruv talablari bilan xalqaro ilmiy tendensiyalarni birgalikda tahlil qilish imkonini berdi.

Sampling jarayonida maqsadli saralash usuli qo'llanildi. Faqat oliy ta'lim, tutoring, mentoring, student support, educational technology, digital transformation, tutor competencies va university tutoring program kabi tushunchalarni markazga qo'ygan manbalar tanlab olindi. Bundan tashqari, imkon qadar 2024–2026-yillardagi eng yangi materiallar tanlandi, chunki mavzu boshqaruvning zamonaviy paradigmalari bilan bog'liq. Bu yondashuv maqolaning dolzarbligini oshirdi va eskirgan yoki mavzuga bilvosita aloqador materiallarni kamaytirdi.

Tadqiqot strategiyasi nazariy qiyosiy-tahlil va konseptual modellashtirishdan iborat bo'ldi. Avval an'anaviy paradigma indikatorlari – normativlik, nazorat, vertikal boshqaruv, hisobotlilik, intizom va standartlashuv ajratildi. Keyin innovatsion paradigma indikatorlari – shaxsga yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, kompetensiyaviylik, ma'lumotga tayangan boshqaruv, raqamli vositalardan foydalanish, kommunikativ hamkorlik va natijadorlik tahlil qilindi. So'ng bu ikki paradigma qiyoslanib, ularning o'zaro raqobatlashuvchi emas, balki ma'lum darajada izchil rivojlanish bosqichlari ekani asoslandi.

Tadqiqot etikasiga rioya qilindi: barcha manbalar ochiq va rasmiy resurslardan olindi, ma'lumotlar selektiv ravishda buzib talqin qilinmadi, normativ hujjatlarning amaldagi holati tekshirildi va shaxsiy yoki maxfiy ma'lumotlardan foydalanilmadi. Shu sababli tadqiqot akademik halollik va verifikatsiya tamoyillariga mos ravishda olib borildi.

So'nggi xalqaro adabiyotlarda tyutorlik ko'proq student support, engagement va academic success nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda. Dumitru va hammualliflar tadqiqotida tutoring, peer cooperation va academic supervisionning kombinatsiyasi talabalar engagementi va qiziqishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu ish innovatsion paradigma uchun muhim, chunki u boshqaruvni faqat nazorat emas, hamkorlik va qo'llab-quvvatlash orqali ham tashkil etish mumkinligini ko'rsatadi. Ammo unda tyutorlik boshqaruvining institutsional modeli chuqur ishlab chiqilmagan.

"Gonçalves" va hammualliflar "mentors' training" dasturi bo'yicha olib borgan ishida mentorlar uchun tayyorlov well-being, belonging, self-regulated learning va socio-emotional skills kabi ko'rsatkichlarga qaratilganini ko'rsatadi. Bu yondashuv innovatsion menejment paradigmasining insoniy va psixologik komponentini kuchaytiradi. An'anaviy paradigmasida bunday omillar ko'pincha ikkinchi darajali deb qaralgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlar ularni markaziy natijaviy ko'rsatkich sifatida ilgari surmoqda.

Chirinos va hammualliflarning 5 930 talaba ma'lumotlariga tayangan tadqiqoti university tutoringni inclusive higher education strategiyasi sifatida ko'rsatadi. Ular tutoring samaradorligi tutor kompetensiyalari, dastur tuzilmasi va talabalar kontekstiga bog'liq ekanini aniqladi; tutoringda qatnashgan talabalar qoniqishi yuqori va natijalari yaxshiroq bo'lgan. Bu topilmalar innovatsion paradigma uchun kuchli empirik asosdir, lekin ular bir vaqtning o'zida an'anaviy paradigmaning ayrim tarkibiy jihatlari – ya'ni tartibli dastur, aniq rol va strukturani ham zarur deb ko'rsatadi.

UNESCO materiallari esa makro darajadagi boshqaruv paradigmasi o'zgarishini ifodalaydi. 2024-yilgi sahifada UNESCO texnologiyalar va inson resurslarini birlashtirish, ta'limni boshqarish tizimlarini mustahkamlash va monitoringni rivojlantirishni ta'kidlaydi. 2025-yilgi so'rovda esa ko'plab oliy ta'lim muassasalari AI bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqayotgani ko'rsatiladi. Bu tyutorlik boshqaruvi endi faqat insoniy tajriba emas, balki raqamli vositalar bilan kuchaytirilgan boshqaruv modeli bo'lishi kerakligini ko'rsatadi [5, 4 bet].

Milliy normativ hujjatlar ham adabiyotlar sharhining muhim qismidir. PF-5847-son Farmon oliy ta'limni modernizatsiya qilish va boshqaruv samaradorligini oshirishni strategik vazifa sifatida qo'ygan bo'lsa [6, 4-9 bet], 656-son qaror tyutorlik institutini alohida reglament bilan rasmiylashtirdi. Demak, respublikamiz sharoitida innovatsion paradigma abstrakt g'oya emas, normativ ehtiyojga ega bo'lgan amaliy yo'nalishdir [7, 2-5 bet].

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalari tyutorlar boshqaruv faoliyatida ikki asosiy paradigma mavjudligini ko'rsatdi. Birinchisi, an'anaviy paradigma. Bu modelda boshqaruv vertikal xarakterga ega: rahbariyat ko'rsatma beradi, tyutor uni ijro etadi, talaba esa kuzatuv va nazorat obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu paradigmasida ustuvor indikatorlar – davomat, intizom, hisobot, topshiriq bajarilishi, hujjatlashtirish va tezkor ma'muriy nazoratdir. An'anaviy modelning kuchli tomoni uning tartibni saqlashi, mas'uliyatni aniq belgilashi va boshqaruvni standartlashtirishga xizmat qilishidir. Milliy normativ hujjatlar doirasida ham bunday elementlar zarur, chunki har qanday institut, jumladan tyutorlik ham, vazifalar va javobgarlik bo'lmasa samarasiz bo'lib qoladi.

Biroq tahlil shuni ko'rsatdiki, an'anaviy paradigma zamonaviy oliy ta'limning murakkab ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Talabalar ehtiyojlari turlicha, akademik xavf omillari dinamik, psixologik moslashuv muammolari esa ko'proq individual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli innovatsion paradigma shakllanmoqda. Bu paradigmasida tyutor nazorat qiluvchi emas, balki koordinator, fasilitator, mediator va ma'lumotga tayangan qaror qabul qiluvchi subyektga aylanadi. Dumitru tadqiqoti tutoring va hamkorlikning o'quv jarayoniga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, Gonçalves tadqiqoti esa socio-emotional skills va belonging kabi omillarni markazga qo'yadi. Bu holat innovatsion yondashuvning faqat pedagogik emas, boshqaruviy ustunligini ham anglatadi.

Innovatsion paradigma doirasida bir nechta muhim yo'nalish ajratildi. Birinchisi – talaba markazli boshqaruv. Bu yerda tyutorning asosiy vazifasi talabani universitet tizimiga moslashtirish, uning individual trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash va xavf omillarini erta aniqlashdir. Ikkinchisi – kompetensiyaviy boshqaruv. Chirinos tadqiqotida tutoring samaradorligi bevosita tutor kompetensiyalari va dastur tuzilmasiga bog'liq ekani qayd etiladi. Uchinchi yo'nalish – raqamli va data-driven boshqaruv. UNESCOning AI va raqamli transformatsiya haqidagi materiallari oliy ta'limda qarorlar tobora ma'lumotga tayangan holda qabul qilinayotganini ko'rsatadi. Bu esa tyutor uchun analitik va raqamli kompetensiyalarni majburiy darajaga ko'taradi [3, 4-6 bet].

Muhokama natijasida shunday xulosaga kelindi: an'anaviy va innovatsion paradigmalar bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, samarali tyutorlik boshqaruvi uchun normativlik, tartib va javobgarlikni saqlagan holda moslashuvchanlik, kommunikativ hamkorlik, individual yondashuv va raqamli vositalarni qo'shish zarur. Ya'ni, eng maqbul model “nazorat + qo'llab-quvvatlash”, “hisobot + analitika”, “standart + moslashuvchanlik” tamoyillariga asoslangan integrativ paradigmadir. O'zbekiston sharoitida aynan shunday model amaliy jihatdan asosli ko'rinadi, chunki normativ baza allaqachon mavjud, endi esa uni innovatsion boshqaruv vositalari bilan boyitish zarur [2, 1-7 bet].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tyutorlar boshqaruv faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi konseptual formula taklif etiladi: institutsional aniqlik + professional kompetensiya + talaba markazli yondashuv + raqamli monitoring + kommunikativ hamkorlik + natijaviy baholash. Mazkur formula tyutorlikni ikkilamchi pedagogik yordam emas, strategik boshqaruv vositasi darajasiga ko'taradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tyutorlar boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda menejment paradigmalari masalasi zamonaviy oliy ta'limning markaziy nazariy-amaliy yo'nalishlaridan biridir. Tahlil natijalari an'anaviy paradigma tartib, nazorat, hisobot va javobgarlikni ta'minlashda muhim bo'lsa-da, innovatsion paradigma student engagement, individual yondashuv, tutor kompetensiyalari, socio-emotional support va raqamli boshqaruv kabi zamonaviy ehtiyojlarga ko'proq mos kelishini ko'rsatdi. Xalqaro empirik tadqiqotlar tutoring va mentoring dasturlari qoniqish, akademik natija va jalb etilishga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, eng maqbul yechim an'anaviy va innovatsion paradigmalarning integratsiyasidir. Normativlik va institutsional aniqlik saqlanib qolishi, biroq tyutorlik faoliyati talaba markazli, moslashuvchan, kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar bilan boyitilishi zarur. O'zbekistonning amaldagi normativ bazasi bunday o'zgarish uchun huquqiy zamin yaratib bergan; endi bu zaminni ilmiy asoslangan va zamonaviy menejment yondashuvlari bilan to'ldirish kerak. Mazkur maqola ana shu yo'nalishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dumitru, C., Boianuiu, C.-A. et al. Academic support through tutoring, guided learning, and learning diaries in the context of the COVID-19 pandemic: an experimental model for master's students // *Frontiers in Education*. – 2024. – Vol. 9. – Article 1256960. ([Frontiers in Public Pages](#))
2. Gonçaves, J. C. et al. Mentoring for well-being, engagement and academic achievement in higher education students // *Frontiers in Education*. – 2025. – Vol. 10. – Article 1606103. ([Frontiers](#))
3. Chirinos, J. M. et al. Perception and impact of university tutoring on academic performance: a case study at a Peruvian university // *Frontiers in Psychology*. – 2026. – Vol. 17. – Article 1745043. ([Frontiers](#))
4. UNESCO. Digital learning and transformation of education: what you need to know // UNESCO. – 2024. – 17-sentabr. ([UNESCO](#))
5. UNESCO. Two-thirds of higher education institutions have or are developing guidance on AI use // UNESCO. – 2025. – 2-sentabr. ([UNESCO](#))
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida // *Lex.uz*. – 2019. – 8-oktabr. ([LEX.UZ](#))
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 656-son qarori. Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida // *Lex.uz*. – 2025. – 17-oktabr. ([LEX.UZ](#))

A STAGE-BASED MODEL FOR DEVELOPING SOCIOCULTURAL COMPETENCE THROUGH AI TOOLS IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS

Umarova Zebiniso Nizom qizi

Bukhara State University

zebijurayeva@gmail.com

ORCID 0009-0001-5141-0996

UDK 37.016:811.111'243:316.7:004.8

Abstract. The study investigates the development of sociocultural competence in FL classrooms through AI tools. It is aimed to explore how structured use of AI-supported stage-based model can develop learners' intercultural awareness and communicative skills.

The research involved B1-B2 level learners divided into experimental and control groups. The experimental group was exposed to an AI-supported approach based on informational, interpretative and interactive stages. Data were collected through pre- and post-tests, classroom observations and learner feedback.

According to the findings, learners in the experimental group demonstrated higher improvement in sociocultural competence compared to those in the control one. The results show increased learner engagement, participation and motivation.

It is concluded that integrating AI tools into a stage-based learning model can effectively support the development of sociocultural competence in FL classrooms. The proposed model offers practical implications for language educators and contributes to the advancement of technology-enhanced language learning.

Keywords: sociocultural competence, AI, FL learners, interactive learning, stage-based model, intercultural communication, foreign language teaching.

**CHET TILI DARSLARIDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARI ORQALI
SOTSIOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING
BOSQICHLI MODELI**

Annotatsiya. Ushbu maqola chet tili darslarida sun'iy intellekt vositalari orqali sotsiokulturologik kompetensiyani rivojlantirish masalasini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sun'iy intellektga asoslangan bosqichma-bosqich modeldan tizimli foydalanish talabalarning madaniyatlararo ongini va kommunikativ ko'nikmalarini qanday rivojlantirishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda B1-B2 darajadagi talabalar ishtirok etib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhi informatsion, interpretativ va interaktiv bosqichlardan iborat sun'iy intellektga asoslangan yondashuv asosida ta'lim oldi. Ma'lumotlar dastlabki hamda yakuniy test, darslarni kuzatish va talabalar fikrlarini so'rash orqali to'plandi.

Natijalarga ko'ra, tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhiga nisbatan sotsiokulturologik kompetensiya bo'yicha yuqori o'sish ko'rsatkichlarini namoyon etdi. Shuningdek, talablarning dars jarayonidagi faolligi, ishtiroki va motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Sun'iy intellekt vositalarini bosqichma-bosqich o'qitish modeli bilan integratsiyalash chet tilini o'qitish jarayonida sotsiokulturologik kompetensiyani samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan model chet tili o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, texnologiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: sotsiokulturologik kompetensiya, sun'iy intellekt, chet tili o'rganuvchilari, interaktiv ta'lim, bosqichli model, madaniyatlararo kommunikatsiya, chet tilini o'qitish jarayoni.

Introduction. In recent years, the development of artificial intelligence (AI) has significantly transformed educational practices, particularly in foreign language education. AI-based tools, such as ChatGPT, Duolingo and TED-Ed provide new opportunities for interactive and context-aware learning environments. While these technologies have been widely used to develop linguistic skills, their capacity in enhancing sociocultural competence remains insufficiently explored.

Sociocultural competence is considered as a component of communicative competence in language teaching. As M. Byram highlights, sociocultural competence includes skills, knowledge and attitudes requiring successful intercultural communication [1]. According to R.P. Milrud, sociocultural competence was interpreted as an activity-based based component of communicative competence [8]. From another perspective, L. Vygotsky emphasizes the role of social interaction in cognitive development, which supports in the integration of sociocultural elements into language learning process [3]. So, most studies have focused primarily on the development of sociocultural competence.

Even there is some researches in AI in education, mostly studies have done on linguistic competence and there is a lack of stage-based pedagogical models that systematically guide learners from acquiring cultural knowledge to applying it in real-life communicative contexts.

Therefore, this research aims to propose an AI-powered stage-based model for developing sociocultural competence in EFL learners. By integrating artificial intelligence into a structured framework, this study investigates to contribute to both theoretical understanding and practical implementation of sociocultural competence development in foreign language education.

Literature review. Sociocultural competence has been widely recognized as a key component of communicative competence in foreign language education. Intercultural communicative competence includes a combination of attitudes and knowledge that learners can interact effectively and appropriately across cultures [1]. According to this model, emphasizes components such as interpreting, relating and critical cultural awareness, which are significant for developing learners' sociocultural understanding.

According to L. Vygotsky, a foundational framework for understanding the role of social interaction in cognitive development [3]. Learning foreign language occurs through interaction, which supports the integration of cultural elements into language learning. This sociocultural theory underlines the importance of guided interaction and contextualized learning environments in developing sociocultural competence.

Several scholars have the contribution to the understanding of sociocultural competence as a complex construct. For instance, G.A. Vorobyov defines sociocultural competence as a complex phenomenon [6], while R.P. Milrud interprets it as an activity-related component of communicative competence [8]. Because sociocultural competence includes a set of components belonging to different categories and emphasizes functional role in language use.

Moreover, the social nature of the language extends beyond a purely linguistic phenomenon and a sociocultural process. From this perspective, language serves not only as a means of communication but also as a carrier of cultural identity. Uzbek scholars, such as D.O. Hasanova, emphasizes that linguistic analysis should not overlook social and cultural factors, as these elements play a crucial role in shaping meaning and communication [2]. This approach reinforces the need to consider sociocultural dimensions in FL education.

The integration of artificial intelligence (AI) into education has opened new possibilities for language learning. AI-based tools such as ChatGPT, Duolingo and TED-ed provide adaptive and interactive learning environments that can support learner participation and engagement. It is clear that AI can develop language skills, vocabulary acquisition and other integrated skills, but in fostering sociocultural competence remains underexplored. Particularly, there is a lack of structured, stage-based approaches that can integrate AI tools to develop intercultural awareness and communicative behavior. So, it is needed for pedagogically grounded models that combine technological innovation with sociocultural learning objectives.

Methodology. This study employs a mixed-methods research design combining quantitative and qualitative approaches. The methodology includes participants, data collection instruments and a procedure based on an AI-based model. In the following table, we try to explain the research methodology:

Table 1: Research methodology overview

Component	Description
Research design	Mixes-methods approach
Participants	25 EFL learners (B1-B2), divided into control and experimental groups
Instruments	Pre-test, post-test, questionnaire, observation
Procedure	5-week intervention using AI-supported activities
AI tools	ChatGPT
Model	Informational, interpretative, interactive stages
Data analysis	Descriptive statistics and thematic analysis

Proposed model. The study proposes a stage-based model for developing sociocultural competence in EFL learners through the use of artificial intelligence tools. Our model is structured into three stages: informational, interpretative and interactive. Each of them contributes various aspects of sociocultural development.

In an informational stage, learners are introduced to cultural knowledge through AI-supported input. AI tools are used to provide examples, explanations and cultural content. It is focused on developing learners' cultural awareness and communication patterns.

In an interpretative stage, learners engage in analyzing and interpreting cultural information. AI tools facilitate discussions, comparisons and critical reflection on cultural differences. This stage helps learners develop deeper understanding and the ability to relate cultural concepts.

The final stage emphasizes practical application through communication. Learners participate in role-plays, simulations and dialogue-based tasks supported by AI. This stage aims to develop learners' ability to use language appropriately in real-life intercultural situations.

Results. The results of the study demonstrate the effectiveness of AI-supported stage-based model in developing learners' sociocultural competence. Both experimental and control groups were assessed using pre- and post-tests.

Table 2: Pre-test and post-test results:

Group	Pre-test mean score	Post-test mean score	Improvement
Experimental group	62	84	+22
Control group	63	70	+7

In table 2, both groups demonstrated progress, however, the experimental group showed a greater improvement compared to the control group. The mean score of the experimental group increased from 62 to 84, representing a gain of 22 points. In contrast, the control group showed a more modest increase from 63 to 70, with a gain of 7 points.

Data obtained from classroom observations revealed that learners in the experimental group participated more actively in communicative tasks. Questionnaire responses indicated that learners exposed to AI-supported instruction reported higher levels of motivation and interest in the learning process.

Discussion. The findings demonstrate that AI-supported stage-based model has a significant positive effect on the development of learners' sociocultural competence. The improvement observed in the experimental group suggests that integrating artificial intelligence into language learning enhances not only engagement but also the depth of cultural understanding.

The theoretical perspectives of M.Byram shows the importance of developing intercultural skills [1], while R.P. Milrud highlights sociocultural competence as an activity-related component of communicative competence [8]. Furthermore, the use of AI tools, such as ChatGPT contributed to increase students' involvement and participation.

Overall, the results suggest that a stage-based approach with AI technologies can improve the development of sociocultural competence in FL learners.

Conclusion. This research explored the development of sociocultural competence in EFL classrooms through an AI-supported stage-based model. The findings show that integrating AI tools can enhance learners' sociocultural awareness and communicative skills. The model, consisting of 3 stages, contributed to different aspects of learning, which allow for a systematic development of sociocultural competence.

The results indicate the pedagogical value of AI tools in creating interactive learning environments. These tools facilitated meaningful engagement and authentic communication scenarios. Stage-based approaches can improve the effectiveness of foreign language instruction.

However, the study is limited by its relatively small sample duration. Future research may focus on long-term implementation of the model and explore its applicability through

different educational settings and levels.

Reference

1. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence: Revisited. *Multilingual Matters*. 2021. – 177 p. URL: <https://doi.org/10.21832/9781800410251>
2. Hasanova D.O. Nutqning ijtimoiy-madaniy xoslanishi // *World of philology*, 4(5), 2005. – B. 75–78.
3. Vygotsky L.S. *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press. 1978. – 178 p.
4. Аджиева Э.М. Этнопедагогические и этнопсихологические условия воспитания толерантности // *Толерантное сознание и формирование толерантных отношений (теория и практика)*. – 2003. – № 2. – С. 92.
5. Асташова Н.А. Проблема формирования толерантности в системе образовательных учреждений // *Толерантное сознание и формирование толерантных отношений (теория и практика)*. – 2003. – № 2. – С. 80–85.
6. Воробьев Г.А. Развитие социокультурной компетенции // *Иностранные языки в школе*. – 2003. – № 2. – С. 30–35.
7. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А. *Психологические проблемы готовности к деятельности*. – Минск: Изд-во Белорусского университета, 1976.
8. Мильруд В.П. Компетентность в обучении языку // *Иностранные языки в школе*. – 2004. – № 7. – С. 31–35.
9. Сафонова В.В. *Культуроведение в системе современного языкового образования // Иностранные языки в школе*. – 2001. – № 3. – С. 17–22.
10. Степанов П.П. Толерантная личность: как её воспитать // *Народное образование*. – 2001. – № 6. – С. 152–156.
11. https://methodological_terms.academic.ru/
12. <https://socialjusticeandeducation.org/2021/06/28/what-is-sociocultural-competence-how-does-identity-fit-into-it/>

ТРЕХМЕРНАЯ ТАКСОНОМИЯ БЛУМА ПРИ СОЗДАНИИ НОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

И.В.Баймуратова

д.ф.ф.н. (PhD), Ташкентский государственный технический университет им.

И.Каримова

xerson2681@gmail.com

ORCID 0009-0009-5026-3064

УДК 378

Аннотация. В данной статье рассматривается применение трехмерной таксономии Блума, показана связь между предшествующей и современной таксономией, а также различия и пути применения в преподавании. Подчеркивается важность Таксономии в условиях дистанционного и совместного обучения, а также ее эволюция с включением аффективных и психомоторных аспектов. Статья отражает анализ трансформации образовательных процессов в условиях мировой цифровизации, показывает связь с социумом. Раскрывается интеграция образовательного взаимодействия, как сложная коллаборативная интеграция инновационных компетенций. В центре исследования лежит сравнительный анализ таксономии Б. Блума и её пересмотренной Л. Андерсоном и Д. Кратволем. В работе отмечается переход от статистической категории существительных к динамическим глаголам, которые раскрывают специфику поколения «Z» в инновационной среде. В работе обоснована необходимость адаптации таксономии к дистанционному обучению, где когнитивные уровни дополняются аффективными и психомоторными аспектами. Представлены результаты эффективности. Подчеркивается важность использования трехмерной иерархии целей в структурировании образовательной среды, которая помогает развивать критическое мышление и социальные навыки студентов, а также, раскрывает возможности интеграции таксономии Блума в виртуальное пространство, что является ключевым рычагом повышения качества современного высшего образования.

Ключевые слова: Коллаборативное обучение, образовательные цели, когнитивные теории, поколение.

THREE-DIMENSIONAL BLOOM'S TAXONOMY IN THE CREATION OF NEW EDUCATIONAL TECHNOLOGIES.

Abstract. This article discusses the application of Bloom's three-dimensional taxonomy, shows the connection between the previous and modern taxonomies, as well as the differences and ways of application

in teaching. The importance of taxonomy in distance and collaborative learning is emphasized, as well as its evolution with the inclusion of affective and psychomotor aspects. The article reflects an analysis of the transformation of educational processes in the context of global digitalization and shows the connection with society. It reveals the integration of educational interaction as a complex collaborative integration of innovative competencies. The study focuses on a comparative analysis of Bloom's taxonomy and its revision by Anderson and Krathwohl. The paper notes the transition from the statistical category of nouns to dynamic verbs, which reveal the specifics of Generation Z in an innovative environment. The paper substantiates the need to adapt the taxonomy to distance learning, where cognitive levels are complemented by affective and psychomotor aspects. The results of effectiveness are presented. The importance of using a three-dimensional hierarchy of goals in structuring the educational environment is emphasized, which helps to develop students' critical thinking and social skills, as well as reveals the possibilities of integrating Bloom's taxonomy into virtual space, which is a key lever for improving the quality of modern higher education.

Keywords: Collaborative learning, educational goals, cognitive theories, Generation Z

Введение. Основами получения новых знаний является вызванный интерес к обучению. Если рассматривать, что обучение подразумевает суть всех социальных процессов, то отсюда вытекает определение данной структуры.

Совместное обучение – социальный процесс, представляющий собой коллаборацию преподавания и обучения, где участники данного процесса взаимодействуют между собой для получения и решения образовательных целей. Такая концепция заложена в когнитивных теориях, где обучение является процессом получения новых компетенций и идет взаимосвязь новых и существующих проблем с ранее уже решенными. В связи с этими концепциями можно рассматривать таксономию Блума рычагом построения более качественных знаний.

Обзор литературы по теме. Рассматривая таксономию Блума предложенную её создателем Б. Блумом в 1956 году, а именно его классификацию идей по когнитивным уровням: знание, понимание, применение, анализ, синтез и оценка, можно сделать вывод, что восходящая иерархическая структура, позволяет определить цели, мероприятия обучения для развития критического мышления студентов, а также рефлексивную сторону образовательного процесса.

Но так как развитие науки не стоит на месте, так и технических процесс, также стремительно набирает обороты. Поэтому 2001 году педагогами- психологами Дэвидом Картвелом и Лориной Андерсон была пересмотрена таксономия Блума. Таксономия, которая основывалась только на когнитивном аспекте никак не вписывается в мир информационных технологий. В мире нового поколения «Z» (зумеров). Данное поколение, возникшее на стыке 20 и 21 веков, никак не вписывалось в иерархию Блума. Поколение, которое зависит от информационных коммуникативных технологий имеет другую специфику обучения. В работе Богачевой Е. В., Сивак Е. В. Мифы о «поколении Z» раскрывается суть данного поколения [1], его сходство и различие с предыдущим, также Яу Дж. К. и Райх С. М. в своей работе «Сохраняются ли в цифровом взаимодействии качества подростковых дружеских отношений, присущие общению вне сети?» объясняют специфику информационного поколения и возможность его обучения[2], Тёрчик М., Шуч К. в труде «Как мыслят поколения: исследование поколения Z» указывает о новых возможностях и изменениях при обучении[3].

Методология исследования.

В связи с этим были предложены новые уровни отображения интеллектуальных навыков и критического мышления. Произошел переход от существительного к глаголу таблицей 1:

Таблица 1. Сравнение таксономий.

№	Таксономия 1956	Таксономия 2001
1	Знание	Запомнить
2	Понимание	Понять
3	Применение	Применить
4	Анализ	Анализировать
5	Синтез	Оценить
6	Оценка	Создать

Не только произошла замена существительных на глаголы, но и этапы уровне

таких как синтез и оценка поменялись местами рисунок 1:




Рисунок 1. Этапы уровней таксономий

Привычная таксономия начинает выходить за рамки когнитивности, включая аффективные и психомоторные аспекты. Эта эволюция была крайне важна для сохранения актуальности таксономии в условиях преобразований в сфере образования. В 2009 году она была обновлена с целью адаптации к цифровым методологиям, с использованием преимуществ технологий дистанционного обучения для улучшения построения знаний [4]. Коллаборация включающая обновленную таксономию становится многообещающей областью исследований, которая включает в себя педагогическую структуру способную развивать приобретённые знания вместе с социальными навыками посредством взаимообучения [5].

Рассматривая новые веяния в образовании нельзя не сказать о дистанционном обучении. В данном обучении Таксономия Блума играет одну из важных ролей, учитывая нюансы виртуальной среды и специфические требования совместного обучения. Так как образовательные цели, которые рассматриваются в дистанционном обучении не могут быть выполнены, если не определять их по уровням таксономии Блума. Работая дистанционно студентам необходимо сотрудничать друг с другом для достижения общих учебных целей, они вынуждены эффективно общаться, что способствует формулированию идей и совместному решению проблем. Этот интерактивный процесс способствует совершенствованию важнейших навыков, таких как умение активно слушать, ясно выражать свои мысли и эффективно разрешать конфликты, что, в свою очередь, обеспечивает целостное формирование личности [6]. В условиях постепенного усложнения когнитивных задач таксономия Блума выступает важным инструментом организации педагогической практики и обеспечивает структурированный подход к достижению образовательных целей. Рассмотрим первую категорию таксономии Блума – «Знание» («Запоминание»), которая фокусируется на способности обучающегося воспроизводить конкретную информацию и факты, а также осуществлять процессы хранения и извлечения информации. Эта ранняя стадия представляет собой фундаментальную [7,8].

Результаты и обсуждение.

Для этого был проведен опрос среди студентов. В опросе участвовало 92 студента. Опрос проводился при помощи Google forms.

Вопрос: как вам лучше запоминается информация?

1. когда вы работаете индивидуально
2. Когда вы работаете совместно с кем- то
3. Когда вы работаете коллаборативно

По результатам опроса были получены следующие результаты диаграмма 1, таблица 2:




Таблица 2 результатов опроса.

Ответы	Кол-во
1	25
2	29
3	38

Из результатов видно, что студенты запоминают информацию работая совместно, в группах, что выводит коллаборативное обучение как новый уровень восприятия знаний.

Академическое образование не должно включать только когнитивные уровни таксономии, также важна аффективная сфера и психомоторная [9]. В условиях развития современных технологий таксономия Блума и её практическое применение требуют адаптации к условиям совместного и дистанционного обучения. Такой подход создаёт основу для развития более высоких когнитивных способностей и формирует фундамент для глубокого понимания изучаемого материала. Вторая категория, «Понимание», выходит за рамки простого запоминания информации и требует от студента умения интерпретировать и объяснять скрытый смысл. В этом контексте акцент делается на понимании взаимосвязей между информацией и ее применением в различных контекстах [10]. Например, способность объяснить сложное понятие или резюмировать текст требует эффективного понимания, выходящего за рамки поверхностного запоминания. Другими словами, эта категория связана со способностью интерпретировать и понимать информацию и концепции и имеет основополагающее значение для совместного обучения, поскольку студенты должны понимать информацию, чтобы обсуждать ее и сотрудничать со своими коллегами. Отсюда вытекает, что использование трехмерной таксономии при создании новых технологий обучения, является необходимой задачей педагогов, для получения лучшего результата в процессе обучения.

Выводы и предложения. Таксономия Блума трехмерной структуры помогает не только в построении учебного процесса, но и служит инструментом для классификации целей, выступает в качестве структурирующего рычага, который направляет педагогическую практику, обеспечивая постепенное усложнение когнитивных задач и развивая необходимые социальные навыки, что делает ее незаменимой основой для проектирования качественного и современного образовательного процесса. В условиях информационного трансформирования современного поколения необходима адаптация средств обучения в разрезе с интересами студентов. Это изменение влечет за собой прогрессивность в сфере образования и воспитания будущего поколения, основанного на информационном потоке.

Список использованной литературы:

1. Богачева Е. В., Сивак Е. В. Мифы о «поколении Z»/ Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования. – М.: НИУ ВШЭ, 2019. – 64 с.
2. Yau J.C., Reich S.M. Are the Qualities of Adolescents' Offline Friendships Present in Digital Interactions? // Adolescent Research Review. 2018. Vol. 3. Issue 3. P. 339–355.
3. Töröcsik, M., Szucs K. How Generations Think: Research on Generation Z. // Acta Universitatis Sapientiae, Communicatio. 2014. Vol 1. P. 23–45.
4. TORRES, V. L. T.; DAL FORNO, L. F.; MITIE MASSUDA, E. A Taxonomie Bloom: um

estudo sobre o conhecimento e o processo de aprendizagem. Anais do Congresso Internacional de Conhecimento e Inovação, [S. l.], v. 1, n. 1, 2022. Disponível em <https://doi.org/10.48090/ciki.v1i1.1215>. Acesso em 23 out. 2023.

5. ROCHA, E. P.; RODRIGUES, M. S.; SANTOS, C. M. R.; FAGUNDES, D. G.; TOSCANO, T. S. B.; ROSA, L. S.; ROSSI, N.; MAÇALAI, G. Aprendizagem colaborativa e a “Taxonomia de Bloom”. *Contribuciones a Las Ciencias Sociales*, São José dos Pinhais, v. 16, n. 9, p. 14302-14310, 2023. Disponível em https://www.researchgate.net/publication/373721813_Aprendizagem_colaborativa_e_a_taxonomia_de_Bloom. Acesso em 19 out. 2023

6. BORSSOI, Adriana H.; SILVA, Karina A. P.; FERRUZZI, E. C. Aprendizagem colaborativa no contexto de uma atividade de modelagem matemática. *Boletim de Educação Matemática*, v. 35, n. 70, ago. 2021. Disponível em <https://doi.org/10.1590/1980-4415v35n70a17>. Acesso em 18 set. 2023.

7. Кларин М. В. Инновационные модели обучения: Исследование мирового опыта. - М.: Луч, 2016. - 640 с.

8. Кларин М. В. Инновации в обучении: метафоры и модели: Анализ зарубежного опыта. М.: Наука, 1997. - 223 с.

9. Улмбеков Э. Г. Большой энциклопедический словарь медицинских терминов. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2012. - 2263 с.

10. Anderson J. W, Krathwhol D. R., Airasia P. W. A Taxonomy for learning, teaching and assessing: a revision of Bloom's taxonomy of education. New York: Person Education, 2003. 336 p.

TALABALARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MAJBURIY FANLARNING O'RNI

Qurbonov G'ulomjon G'afurovich

Buxoro davlat pedagogika instituti, p.f.f.d. (PhD), professor

gulomjonqurbonov0880@gmail.com

ORCID 0000-0002-9508-5056

UDK 378.091.33

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida majburiy fanlarning pedagogik ahamiyati va amaliy roli ilmiylik asosida yondashib tahlil qilinadi. Tadqiqotlar davomida zamonaviy ta'lim tizimida raqamli savodxonlikni shakllantirish masalalari, xalqaro tajribalar hamda ilg'or konseptual yondashuvlar o'rganildi. Xususan, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DigComp raqamli kompetensiyalar modeli hamda UNESCO tashkilotining raqamli ta'limga oid tavsiyalari asosida talabalarda zarur ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari to'liq ko'rib chiqildi. Ayniqsa, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari, ta'lim muhitini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari majburiy fanlar tarkibiga axborot texnologiyalari, raqamli pedagogika, ma'lumotlar bilan ishlash hamda raqamli xavfsizlikka oid modullarni kiritish talabalarning raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish bilan birga, zamonaviy mehnat bozorining talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli kompetensiya, majburiy fanlar, raqamli ta'lim muhiti, raqamli xavfsizlik, raqamli kontent, raqamli kommunikatsiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, DigComp modeli, ta'lim tizimi, raqamli pedagogika.

THE ROLE OF COMPULSORY SUBJECTS IN FORMING STUDENTS' DIGITAL COMPETENCES

Abstract. This article analyzes the pedagogical significance and practical role of compulsory subjects in the process of developing digital competencies of students studying in higher education institutions on a scientific basis. During the research, issues of forming digital literacy in the modern education system, international experiences and advanced conceptual approaches were studied. In particular, the mechanisms for forming the necessary skills in students based on the DigComp digital competencies model developed by the European Union and UNESCO recommendations on digital education were fully considered. In particular, the processes of digital transformation in the higher education system of Uzbekistan, the reforms being implemented to digitize the educational environment were also analyzed in detail. The results of the study showed that the inclusion of modules on information technology, digital pedagogy, data processing and digital security in compulsory subjects significantly develops students' skills to effectively operate in a digital environment. This approach, while strengthening the professional training of students, serves to form competencies that meet the requirements of the modern labor market.

Keywords: digital competence, compulsory subjects, digital learning environment, digital security, digital content, digital communication, digital educational technologies, DigComp model, education system,

digital pedagogy.

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi iqtisodiyot, boshqaruv, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda ta‘lim tizimining mazmuni va tashkil etilishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xususan, ta‘lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish o‘qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish, bilimlarni tezkor uzatish hamda ta‘lim oluvchilarning mustaqil ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunning mehnat bozori sharoitida mutaxassisdan faqatgina kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash yetarli bo‘libgina qolmasdan, yangi rivojlangan kunda mutaxassislarning raqamli muhitda ishlay olish qobiliyati, axborot bilan samarali ishlash ko‘nikmalari hamda raqamli texnologiyalardan foydalana olish darajasi muhim kompetensiyalar qatoriga kiradi. Shu sababli oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlash jarayonida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli kompetensiya tushunchasi xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan ham keng o‘rganilmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan Digital Competence Framework (DigComp) modeli fuqarolarning raqamli kompetensiyalarini tizimli ravishda tavsiflab beruvchi muhim metodologik asos hisoblanadi. Mazkur modelga ta‘kidlanganidek, raqamli kompetensiya bir nechta asosiy yo‘nalishlardan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, axborot va ma‘lumotlarni qidirish, tahlil qilish hamda ulardan samarali foydalanish; ikkinchidan, raqamli kommunikatsiya vositalari orqali samarali muloqot qilish; uchinchidan, turli xildagi raqamli kontentlarni yaratish va tahrirlash; to‘rtinchidan, axborot xavfsizligi hamda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish; beshinchidan esa raqamli texnologiyalar yordamida turli muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyalar zamonaviy jamiyatda faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar sifatida qaraladi [1].

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositalaridan biri bu o‘quv rejasida mavjud bo‘lgan majburiy fanlar hisoblanadi. Majburiy fanlar barcha talabalar uchun bir xil darajada o‘qitilishi sababli ular orqali raqamli savodxonlikni tizimli ravishda rivojlantirish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, raqamli pedagogika, ma‘lumotlar bilan ishlash metodlari kabi fanlar talabalarda raqamli muhitda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham ta‘lim tizimini raqamlashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar bilan bir qatorda ta‘lim tizimiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, elektron ta‘lim resurslarini yaratish hamda raqamli ta‘lim muhitini rivojlantirish muhim vazifalar qatorida belgilangan. Ushbu strategiya doirasida oliy ta‘lim muassasalarida masofaviy ta‘lim tizimlarini rivojlantirish, elektron platformalarni joriy etish hamda raqamli o‘quv resurslarini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda [2].

So‘nggi yillarda ta‘lim tizimining raqamlashtirilishi natijasida talabalarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish masalasi pedagogika va ta‘lim texnologiyalari sohasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Mazkur masala bo‘yicha ko‘plab xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Raqamli kompetensiya tushunchasini ilmiy jihatdan asoslash jarayonida Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DigComp (Digital Competence Framework) modeli muhim ahamiyatga ega. Ushbu modelga ko‘ra raqamli kompetensiya besh asosiy komponentdan iborat: axborot bilan ishlash, raqamli kommunikatsiya, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik hamda muammolarni raqamli muhitda hal qilish. Ushbu model bugungi kunda ko‘plab davlatlarning ta‘lim tizimida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda metodologik asos sifatida qo‘llanilmoqda [3].

UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatib

o'tilgan. UNESCO ekspertlarining fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarda mustaqil ta'lim olish, axborotni tahlil qilish hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi [4].

OECD tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda esa raqamli kompetensiyalar XXI asr ko'nikmalarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan yuqori darajadagi raqamli savodxonlikni talab qiladi. Shu sababli oliy ta'lim tizimida majburiy fanlar orqali raqamli kompetensiyalarni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi [5].

Mahalliy olimlarimiz tomonidan ham raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish va talabalarining raqamli kompetensiyalarini shakllantirish masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, N.A.Muslimov o'z tadqiqotlarida pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida raqamli kompetensiyani alohida ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha, zamonaviy pedagoglar va talabalar axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur [6].

O'zbekistonlik olimlar O.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik texnologiyalar bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida raqamli ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayonidagi samaradorligini ilmiy asoslab berganlar. Ularning fikriga ko'ra, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi [7].

Shuningdek, A.Abduqodirov va N.Begmatova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan [8].

T.Rasulov va G.Kurbonovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari keng yoritilgan. Mualliflar zamonaviy ta'lim muhitida elektron platformalar, onlayn resurslar hamda interaktiv raqamli vositalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishini ta'kidlaydilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, axborot bilan ishlash kompetensiyasini kuchaytiradi hamda bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Shuningdek, mualliflar raqamli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda muhim omillardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berishgan [9].

Z.Rasulova o'z tadqiqotida oliy ta'lim muassasalarida texnologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari hamda imkoniyatlarini tahlil qilgan. Unda, talabalarining mustaqil faoliyatini samarali tashkil etish ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash hamda kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda mustaqil ijodiy topshiriqlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda innovatsion metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, muallif talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun qulay pedagogik muhit yaratish zarurligini alohida ta'kidlaydi [10].

G.Kurbonov va D.Mirzoyevlar tomonidan olib borilgan tadqiqotda funksiyalar nazariyasini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning matematik modeli ishlab chiqilgan. Mualliflar ta'lim jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quv materiallarini vizuallashtirish, murakkab matematik tushunchalarni tushunarli shaklda ifodalash hamda talabalar tomonidan bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikriga ko'ra, matematik fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini integratsiya qilish zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi [11].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini raqamlashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron ta'lim resurslarini yaratish hamda talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim

vazifalar sifatida belgilangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, talabalarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda majburiy fanlarning o'rni yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Shu sababli mazkur masalani ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola talabalarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida majburiy fanlarning o'rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning ilmiy asoslangan natijalarini ta'minlash maqsadida bir qator nazariy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar tadqiqot muammosini turli jihatdan o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish hamda samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida avvalo xalqaro ilmiy manbalar, ta'lim sohasiga oid konseptual hujjatlar hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlar chuqur o'rganildi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, adabiyotlar tahlili, taqqoslash (komparativ) metodi, tahliliy metod, modellashtirish (model yaratish) metodlari orqali tahlil qilindi. Natijada talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda majburiy fanlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida oliy ta'lim muassasalarida majburiy fanlar orqali talabalarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligi aniqlashtirildi. Barcha tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv rejasida mavjud majburiy fanlar talabalarda raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid fanlarning o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi talabalarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari majburiy fanlar orqali talabalarda bir qator muhim raqamli kompetensiyalarni shakllantirish mumkinligini ko'rsatdi:

Birinchidan, *axborot bilan ishlash kompetensiyasi* rivojlanadi. O'quv rejasida axborot texnologiyalariga oid fanlarning mavjudligi talabalarga turli elektron manbalardan axborot izlash, uni saralash, tahlil qilish hamda qayta ishlash ko'nikmalarini egallab olish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar ilmiy ma'lumotlar bazalari, elektron kutubxonalar hamda internet resurslari bilan ishlash orqali axborotdan samarali foydalanish malakasini shakllantiradilar. Bu esa ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, *raqamli kommunikatsiya kompetensiyasi* shakllanadi. Ta'lim jarayonida turli elektron ta'lim platformalari va onlayn muloqot vositalaridan foydalanish talabalarning masofaviy hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jumladan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar orqali talabalar o'qituvchilar va guruhdoshlari bilan tezkor aloqa o'rnatish, elektron muhitda fikr almashish hamda guruhli loyihalar ustida ishlash tajribasini orttiradilar. Ushbu jarayon talabalarda raqamli kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Uchinchidan, *raqamli kontent yaratish kompetensiyasi* rivojlanadi. Majburiy fanlar doirasida talabalarga turli xil raqamli mahsulotlar yaratish bilan bog'liq topshiriqlar berilishi ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Masalan, taqdimotlar tayyorlash, multimedia materiallar yaratish, elektron portfellar tuzish yoki turli raqamli loyihalarni ishlab chiqish jarayonida talabalar raqamli kontent yaratishning amaliy ko'nikmalarini egallaydilar. Natijada ularning kelajak kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.

To'rtinchidan, *raqamli xavfsizlik kompetensiyasi* shakllantiriladi, unda zamonaviy axborot muhitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internet tarmoqlarida xavfsiz ishlash hamda axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Majburiy fanlar doirasida axborot xavfsizligi bo'yicha beriladigan bilimlar talabalarni kiberxavfsizlik asoslari bilan tanishtiradi hamda ularni raqamli muhitdagi xavf-xatarlardan himoyalashga o'rgatadi.

Beshinchidan, *raqamli muhitda muammolarni hal qilish kompetensiyasi* rivojlanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida turli vazifalarni bajarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni innovatsion yondashuv asosida hal qilish talabalarda analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, turli dasturiy vositalar va raqamli platformalardan foydalanish vositasida talabalar murakkab vazifalarni samarali hal qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Tadqiqot natijalari shuni asoslagan holda ko'rsatildiki, majburiy fanlar orqali raqamli kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligi bir qator pedagogik va tashkiliy omillarga bog'liq ekan. Avvalam bor, oliy ta'lim muassasasida rivojlangan *raqamli ta'lim muhitining mavjudligi* muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy texnik infratuzilma, internet tarmog'i hamda elektron ta'lim platformalarining mavjudligi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini berishini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, *pedagoglarning raqamli kompetensiyasi darajasi* ham muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olgan taqdirdagina talabalarda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish mumkindir. Shu sababli pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish masalasi ham muhim hisoblanadi.

Shuningdek, *o'quv dasturlarining zamonaviyligi* ham muhim rol o'ynaydi. O'quv dasturlariga raqamli texnologiyalar bilan ishlashga oid modullarni kiritish talabalarining zamonaviy kompetensiyalarni egallashiga yordam beradi.

Yana bir muhim omil – *ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish* hisoblanadi. Interaktiv metodlar, loyihaviy o'qitish, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarining faolligini oshiradi hamda ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirilishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari majburiy fanlar talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini aniq ko'rsatdi. Ushbu fanlarni zamonaviy talabalar asosida takomillashtirish orqali oliy ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlik darajasini yanada oshirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, majburiy fanlar orqali talabalarda quyidagi raqamli kompetensiyalarni shakllantiriladi:

1. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi. Majburiy fanlar tarkibiga axborot texnologiyalari fanining kiritilishi talabalarni raqamli axborotni qidirish, tahlil qilish va qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Raqamli kommunikatsiya kompetensiyasi. Onlayn platformalar, elektron ta'lim tizimlari (Moodle, Google Classroom va boshqalar) orqali talabalar masofaviy muloqot ko'nikmalarini egallaydi.

3. Raqamli kontent yaratish kompetensiyasi. Prezentsiyalar, multimedia materiallar, elektron portfellar yaratish orqali talabalar raqamli kontent ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Raqamli xavfsizlik kompetensiyasi. Majburiy fanlar doirasida axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlar berilishi talabalarni internet xavfsizligiga oid bilimlar bilan ta'minlaydi.

5. Muammolarni raqamli muhitda hal qilish kompetensiyasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar yordamida turli muammolarni hal qilish talabalarda analitik fikrlashni rivojlantiradi. Natijalarga ko'ra, majburiy fanlar orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi raqamli ta'lim muhitining mavjudligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, o'quv dasturlarining zamonaviyligi, ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish kabi omillarga bog'liq.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida majburiy fanlar talabalarining raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, o'quv dasturlarida raqamli savodxonlik, ma'lumotlar bilan ishlash, raqamli pedagogika hamda axborot xavfsizligi kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish va zamonaviy o'quv resurslarini yaratish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. European Commission. DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 48 p.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida: Farmon. – Toshkent, 2020.
3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
4. UNESCO. Digital Skills for Life and Work. – Paris: UNESCO Publishing, 2019. – 72 p.
5. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 180 p.
6. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 240 b.
7. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2015. – 208 b.
8. Abduqodirov A., Begmatova N. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 180 b.
9. Rasulov, T., & Kurbonov, G. (2023, December). Effective use of digital learning technologies in the educational process. AIP Conference Proceedings. 2901, 030007 (2023) DOI: <https://doi.org/10.1063/5.0178574>.
10. Rasulova, Z. Conditions and opportunities of organizing independent creative works of students of the direction technology in higher education. International Journal of Scientific and Technology, 9:3 (2020), pp. 5060–5062.
11. Kurbonov G., Mirzoev D., Jumayev A., Nurov H., Ergashev Z. Construction of a mathematical model of the use of IT technologies in Theory of Functions // E3S Web of Conferences 587, 01002 (2024). Scopus). – Pp. 1-9. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202458702024>.

PEDAGOGICAL MODELLING OF LEXICAL-COLLOCATIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN CORPUS-INFORMED DIGITAL EFL LEARNING ENVIRONMENTS

Radjabova Khilola Abdurasulovna

PhD researcher

“TIIAME” National Research University, Tashkent.

Kheelola15@gmail.com

h.radjabova@tiiame.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-1234-237X>

UDK: 372.881.111.1.

Abstract. This study examines the development of lexical-collocational competence among English philology students through corpus-informed and AI-mediated instruction. Grounded in the lexical approach and corpus linguistics, it explores how exposure to authentic collocational patterns enhances academic writing and discourse organization. A quasi-experimental design with control and experimental groups was employed, using pre- and post-test argumentative essays as data. The intervention integrated corpus platforms and AI-based feedback tools to support reflective learning and targeted practice. Results indicate statistically significant improvement in collocational accuracy, contextual appropriateness, and rhetorical distribution in the experimental group. Learners demonstrated increased use of discipline-specific verb–noun and adjective–noun combinations for evidential framing and argumentation. Error analysis revealed fewer distributional violations. The study highlights the effectiveness of digital linguistic resources in improving phraseological competence in higher education.

Keywords: lexical collocational competence, corpus-informed instruction, AI-mediated learning, academic writing, pedagogy.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ingliz filologiyasi talabalarida leksik-kollokatsion kompetensiyani korpusga asoslangan va sun’iy intellekt vositalari orqali rivojlantirishni o‘rganadi. Nazariy asos sifatida leksik yondashuv va korpus lingvistikasi tamoyillari qo‘llanildi. Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida amalga oshirilib, nazorat va tajriba guruhlarida o‘rtasida oldingi va yakuniy argumentativ insholar tahlil qilindi. Pedagogik aralashuvda korpus platformalari hamda AI asosidagi teskari aloqa tizimlari ishlatildi. Natijalar tajriba guruhida kollokatsiyalarni aniqlik bilan, kontekstga mos va diskursning turli bosqichlarida qo‘llash ko‘nikmasi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, fe‘l–ot va sifat–ot birikmalaridan foydalanish kuchaydi. Xatolar tahlili noto‘g‘ri va noan’anaviy birikmalar kamayganini ko‘rsatdi. Tadqiqot oliy ta’limda raqamli lingvistik vositalarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: leksik-kollokatsion kompetensiya, korpusga asoslangan ta’lim, sun’iy intellekt,

akademik yozuv, pedagogika.

Introduction. Within contemporary second language acquisition research, lexical-collocational competence is increasingly conceptualised as a structurally constitutive dimension of advanced discourse proficiency rather than as a peripheral component of vocabulary knowledge. Analysing learner corpus data, Paquot demonstrates that phraseological sophistication significantly predicts expert ratings of academic writing quality, thereby positioning collocational patterning as a key indicator of rhetorical maturity and discourse alignment [1; 36]. Building on multidimensional approaches to phraseological complexity, Spina further argues that the density, diversity, and distributional dispersion of lexical combinations jointly contribute to the development of interlanguage complexity in advanced learners' written production [2; 38].

Corpus-based investigations of academic registers reveal that recurrent lexical bundles perform organisational and evaluative functions that shape the epistemic architecture of research discourse. Examining variation across disciplinary writing, Biber and Gray show that phraseological patterning contributes directly to textual cohesion and stance construction, suggesting that the internalisation of distributionally conventionalised combinations is central to participation in specialised communicative practices [3; 82]. From this perspective, collocational competence operates not merely as a lexical resource but as a mechanism through which writers regulate argumentative progression and disciplinary positioning.

Learner corpus research consistently identifies collocational instability as a structural source of discourse imprecision in advanced foreign language writing. Investigating phraseological behaviour across proficiency levels, Granger and Bestgen demonstrate that learners often rely on semantically transparent but distributionally incongruent combinations, resulting in texts that appear grammatically accurate yet pragmatically misaligned with genre expectations [4; 231]. Such findings suggest that phraseological development involves gradual integration of probabilistic lexical knowledge into discourse-level planning processes rather than simple accumulation of lexical items.

Pedagogical responses to these challenges increasingly draw on corpus-informed instructional models designed to foster learners' interpretative engagement with authentic usage data. Synthesising classroom-based research, Boulton and Cobb argue that guided concordance consultation can support the development of collocational awareness when embedded within communicatively meaningful tasks requiring hypothesis testing and iterative revision [5; 357]. However, the pedagogical effectiveness of such approaches remains contingent upon instructional mediation, as unguided exposure to frequency evidence may encourage superficial noticing rather than durable restructuring of lexical representations.

Psycholinguistic investigations into formulaic language processing further illuminate the mechanisms underlying collocational learning. Analysing eye-tracking and reaction-time data, Siyanova-Chanturia and Martinez demonstrate that frequent multiword sequences are processed more efficiently than novel constructions due to strengthened associative links within the mental lexicon, thereby supporting fluency and reducing cognitive load during discourse production [6; 64]. Complementing this perspective, Webb emphasises that repeated contextualised encounters with lexical combinations contribute to long-term retention and productive flexibility, particularly when learners mobilise phraseological knowledge across varied communicative contexts [7; 45].

Recent developments in digitally mediated language learning environments have introduced new opportunities for operationalising these insights pedagogically. Investigating technology-enhanced corrective feedback in L2 writing, Li conceptualises automated feedback systems as environments enabling learners to refine lexical selection through iterative drafting and reflective engagement with usage constraints [8; 309]. In parallel, Pérez-Paredes redefines corpus literacy as an interpretative competence involving learners' ability to evaluate distributional evidence critically and transfer corpus-derived insights into authentic discourse production [9; 205]. These perspectives converge in suggesting that lexical-collocational competence emerges through the interaction of cognitive automatisisation, discourse socialisation, and structured pedagogical mediation.

In response to these theoretical and methodological challenges, the present study aims to design and empirically validate a pedagogical model for developing lexical-collocational competence among English philology students in digitally mediated academic learning environments. By integrating guided corpus exploration, scaffolded academic writing practice, and technology-enhanced feedback mechanisms, the research seeks to contribute to a more coherent understanding of how distributional lexical knowledge can be transformed into functional discourse competence.

Methods. The methodology of the present study is based on a quasi-experimental mixed-methods design aimed at evaluating the effectiveness of a corpus-informed instructional model in developing lexical-collocational competence in academic writing among English philology students. The framework draws on usage-based theories, which interpret phraseological acquisition as a result of frequency exposure, contextualised use, and cognitive entrenchment of lexical patterns. Instruction is conceptualised as a progression from recognition to productive control of collocations.

The study involved 182 undergraduate students divided into experimental and control groups. Both groups followed the same syllabus; however, the experimental group received corpus-informed instruction incorporating concordance analysis and technology-mediated feedback, while the control group followed a traditional vocabulary-oriented approach focusing on meaning and grammar. This design enabled comparison of collocational development under different instructional conditions.

The instructional treatment consisted of three components. First, guided corpus tasks enhanced learners' awareness of collocational variation and contextual appropriateness through hypothesis-testing activities (Boulton and Cobb [5; 361]). Second, iterative writing cycles were supported by technology-enhanced feedback encouraging reflection on lexical choice rather than simple correction (Li [8; 312]). Third, classroom discussions promoted metalinguistic awareness of distributional constraints.

Assessment combined quantitative and qualitative measures. Learner texts were analysed in terms of collocational density, diversity, and variability, reflecting multidimensional approaches to phraseological complexity (Spina [2; 42]). In addition, draft revisions were examined to capture underlying cognitive processes.

Statistical analysis employed ANCOVA to control for initial differences and determine instructional effects. Effect sizes and correlation analyses were also calculated, confirming the relationship between collocational sophistication and writing quality (Paquot [1; 39]).

To ensure ecological validity, classroom observations and learner questionnaires were included. These provided insights into learner engagement and attitudes towards corpus tools. As noted by Pérez-Paredes [9; 207], corpus literacy involves both technical competence and evolving learner perceptions.

Overall, the methodology offers a comprehensive framework for examining how corpus-informed instruction facilitates the development of lexical-collocational competence as a key component of academic writing proficiency.


Results. ANCOVA results show that the experimental group produced significantly more context-appropriate lexical collocations in post-test argumentative essays than the control group ($p < .01$). The increase was observed specifically in discipline-relevant verb–noun combinations used to introduce claims (e.g., *pose a challenge*, *establish a correlation*) and adjective–noun combinations used to calibrate evaluation (e.g., *substantial evidence*, *plausible explanation*). No comparable growth was observed in the control group, whose writing remained dominated by high-frequency semantically general collocations with low discourse specificity.

Collocational development in the experimental group was not limited to frequency increase. Learners demonstrated higher positional dispersion of collocations across rhetorical stages of texts. Collocational combinations previously concentrated in introductory paragraphs were redistributed into evidence presentation and counter-argument sections. This

redistribution indicates integration of lexical-collocational competence into discourse structuring processes rather than isolated lexical enrichment.

Graph 1. Development of lexical-collocation competence indicators

Error analysis further shows reduction in distributional violations (Graph 1.). The experimental group decreased use of semantically acceptable but non-conventional collocations (strong rain argument, high discussion importance) by 37%, while the control group showed no statistically meaningful change. This pattern corresponds to increased sensitivity to probabilistic co-occurrence constraints described in learner corpus research by Paquot [1; 41].



Revision-log analysis reveals proceduralisation of collocational selection. During post-intervention drafting, experimental group learners replaced single lexical items with collocational units in 62% of revision episodes involving content modification. In the control group, lexical revision remained predominantly substitutional (synonym replacement without structural change). Technology-mediated feedback cycles contributed to this shift by directing attention to collocational alternatives during text restructuring, a mechanism discussed in digital feedback research by Li [8; 314].

Correlation analysis shows that collocational density and positional dispersion jointly predicted gains in holistic writing scores ($r = .54$). This supports corpus-based claims that distributionally conventionalised lexical combinations function as organisational resources in academic discourse, as demonstrated in register research by Biber and Gray [3; 85]. The findings therefore indicate that development of lexical-collocational competence contributed directly to learners' ability to manage argumentative progression.

Learner questionnaire data confirm increased metalinguistic awareness of collocational constraints. 78% of participants in the experimental group reported deliberate evaluation of lexical combinations during planning stages of writing tasks, compared to 29% in the control group. Such shifts reflect emergence of corpus literacy as an interpretative competence enabling strategic engagement with distributional evidence, as conceptualised by Pérez-Paredes [9; 209].

Overall, the intervention produced measurable restructuring of learners' lexical-collocational behaviour: increased contextual appropriateness, wider rhetorical distribution, reduced distributional violations, and greater proceduralisation of collocational selection during discourse production.

Discussion. The findings suggest that the development of lexical-collocational competence extends beyond local lexical accuracy and reshapes the overall organisation of academic discourse. The increased distribution of functionally distinct collocations across rhetorical stages indicates that learners began integrating collocational knowledge into higher-level discourse planning. Collocations thus functioned not merely as lexical items but as structuring devices guiding argumentation and epistemic positioning. This supports the view that lexical-collocational competence should be treated as a procedural component of discourse competence rather than simple vocabulary enrichment.

From a usage-based perspective, the observed reduction in distributional errors and the emergence of context-sensitive collocation use reflect the entrenchment of probabilistic co-occurrence patterns. Learners appear to shift from isolated lexical retrieval to pattern-governed

selection shaped by discourse function. As noted in learner corpus research, advanced writers often exhibit lexical adequacy alongside phraseological instability due to incomplete internalisation of combinatorial constraints (Paquot [1; 41]). The present results indicate that corpus interaction accelerates this internalisation by foregrounding distributional regularities during rhetorical decision-making.

Methodologically, the study demonstrates that corpus-informed pedagogy can proceduralise collocational use when embedded in iterative writing cycles. Unlike traditional concordance-based noticing, corpus work here was integrated into extended discourse construction tasks requiring reformulation of lexical choices. Technology-mediated feedback further supported this process by directing attention to alternative collocational options during revision rather than isolated correction (Li [8; 314]).

The results also highlight that collocational development is linked to functional distribution across discourse stages rather than mere frequency growth. Improvements were associated with the ability to deploy collocations differently in claims, evidence, and evaluation. This supports multidimensional models of phraseological competence, where collocational sophistication emerges from the interaction between distributional knowledge and rhetorical intention.

Pedagogically, the findings emphasise the importance of corpus literacy in advanced EFL writing. Learners increasingly treated collocations as tools for meaning construction, aligning with the notion of corpus literacy as interpretative competence (Pérez-Paredes [9; 4]). Recent studies further show that integrating corpus tools with AI feedback enhances collocational precision and rhetorical control (Cheung & Crosthwaite [10; 2]). Such environments promote deeper engagement with phraseological patterns as functional discourse resources. Overall, the study supports a usage-based interpretation of collocational development as discourse-functional restructuring rather than incremental vocabulary accumulation. This aligns with models proposed by Nick C. Ellis [11; 23], where linguistic knowledge emerges through exposure to distributional patterns. AI-enhanced corpus environments further facilitate the transition from awareness to discourse-level control (Cheung & Crosthwaite [10; 7]).

Conclusion. The study demonstrates that lexical-collocational competence is a central mechanism in advanced academic writing, not a peripheral lexical skill. Corpus-informed instruction enabled learners to integrate collocational knowledge into discourse planning, resulting in more context-appropriate and functionally differentiated use of lexical combinations across argumentative structures. This indicates that collocational development involves proceduralisation of lexical decision-making guided by rhetorical goals.

The findings refine usage-based models by showing that sustained engagement with corpus data supports the entrenchment of discourse-functional collocational repertoires. Learners increasingly used collocations as organisational tools regulating argumentation and stance, rather than as isolated vocabulary units. This highlights the need to conceptualise advanced vocabulary instruction as coordination between probabilistic lexical knowledge and discourse demands.

Methodologically, the study confirms that combining corpus exploration with iterative, technology-mediated writing practice facilitates the transformation of collocational awareness into operational competence. Integrating corpus literacy into academic curricula can therefore enhance learners' ability to critically engage with authentic language data and apply it in extended discourse. Lexical-collocational competence should be reconceptualised as an interface construct linking cognitive entrenchment of lexical patterns with rhetorical structuring of discourse. By demonstrating that corpus-informed pedagogy can influence this interface, the study advances both theoretical understanding and instructional practice in second language academic writing.

References

1. Paquot M. Phraseological competence: What is it and how can it be assessed? In: Siyanova-Chanturia A., Pellicer-Sánchez A. (eds.). *Understanding formulaic language*. – London: Routledge, 2018. – pp. 29–49. – <https://doi.org/10.4324/9781315105196>

2. Spina S. Measuring phraseological complexity in learner language: A multidimensional perspective. *International Journal of Learner Corpus Research*. – 2019. – Vol. 5, No. 1. – pp. 35–58. – <https://doi.org/10.1075/ijlcr.17014.spi>
3. Biber D., Gray B. *Grammatical complexity in academic English: Linguistic change in writing*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – <https://doi.org/10.1017/CBO9780511920770>
4. Granger S., Bestgen Y. The use of collocations by intermediate vs. advanced non-native writers: A bigram-based study. *International Review of Applied Linguistics in Language Teaching*. – 2014. – Vol. 52, No. 3. – pp. 229–252. – <https://doi.org/10.1515/iral-2014-0011>
5. Boulton A., Cobb T. Corpus use in language learning: A meta-analysis. *Language Learning*. – 2017. – Vol. 67, No. 2. – pp. 348–393. – <https://doi.org/10.1111/lang.12224>
6. Siyanova-Chanturia A., Martinez R. The idiom principle revisited. *Applied Linguistics*. – 2015. – Vol. 36, No. 5. – pp. 549–569. – <https://doi.org/10.1093/applin/amt054>
7. Webb S. *The Routledge handbook of vocabulary studies*. – London: Routledge, 2020. – <https://doi.org/10.4324/9780429291580>
8. Li J. Automated writing evaluation and feedback in L2 writing: A systematic review. *Computer Assisted Language Learning*. – 2022. – Vol. 35, No. 7. – pp. 1545–1573. – <https://doi.org/10.1080/09588221.2020.1744663>
9. Pérez-Paredes P. Corpus-informed language pedagogy and corpus literacy. *Language Teaching*. – 2022. – Vol. 55, No. 3. – pp. 335–349. – <https://doi.org/10.1017/S0261444821000036>
10. Cheung L., Crosthwaite P. CorpusChat: integrating corpus linguistics and generative AI for academic writing development. *Computer Assisted Language Learning*. – 2025. – pp. 1–28. – <https://doi.org/10.1080/09588221.2025.2506480>
11. Ellis N. C., Simpson-Vlach R., Maynard C. Formulaic language in native and second language speakers: Psycholinguistics, corpus linguistics, and TESOL. *TESOL Quarterly*. – 2008. – Vol. 42, No. 3. – pp. 375–396. – <https://doi.org/10.1002/j.1545-7249.2008.tb00137.x>

MUAMMOLI TA'LIM ORQALI TALABALARDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Boqiyev G'ulomjon Ochilovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika va o'qitish metodikasi

kafedrası professori v.b

Boqiev@mail.ru

ORCID 0009-0006-5994-5115

UDK 378.147

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida pedagogik fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish hamda bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda muammoli ta'limning nazariy-metodologik asoslari yoritilib, talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, nostandart yechimlar ishlab chiqish hamda ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuv taklif etilgan. Tadqiqot jarayonida muammoli vaziyatlarga asoslangan o'quv mashg'ulotlari loyihalashtirilib, ularning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali baholangan. Olingan natijalar muammoli ta'lim texnologiyalaridan tizimli foydalanish talabalarning refleksiv fikrlashi, kasbiy kompetensiyasi, kreativ yondashuvi va innovatsion faoliyatga tayyorligini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Shuningdek, mazkur texnologiyalar pedagogik ta'lim sifatini oshirish, talabalarning bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash hamda kasbiy muammolarni samarali hal etish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim didaktik vosita ekanligi ilmiy asoslandi.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, kreativ kompetentlik, pedagogik fanlar, muammoli vaziyat, evristik yondashuv, oliy ta'lim, refleksiv fikrlash, innovatsion faoliyat.

DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE COMPETENCE THROUGH PROBLEM-BASED LEARNING

Abstract. This article examines the pedagogical potential of problem-based learning technologies in improving the effectiveness of teaching pedagogical disciplines in higher education and fostering the creative competence of prospective teachers. The study explores the theoretical and methodological foundations of problem-based learning and proposes an instructional approach aimed at developing students' independent and critical thinking, problem-analysis skills, ability to generate innovative solutions, and creative engagement. Within the research framework, learning activities based on authentic problem situations were designed and implemented, and their effectiveness was evaluated through an experimental study. The findings demonstrate that the systematic integration of problem-based learning significantly

enhances students' reflective thinking, professional competence, creative potential, and readiness for innovative educational practice compared with traditional instructional methods. Furthermore, the study confirms that problem-based learning serves as an effective pedagogical tool for improving the quality of teacher education, integrating theoretical knowledge with practical application, and developing the competencies required for solving professional problems in contemporary educational settings.

Keywords: problem-based learning, creative competence, pedagogical disciplines, problem situation, heuristic approach, higher education, reflective thinking, innovative practice.

Kirish. Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan axborot asrida oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida faqatgina nazariy bilimlarni yod olgan an'anaviy ijrochi-o'qituvchini emas, balki kutilmagan professional vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan ijodkor shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Oliy maktab amaliyotida pedagogik turkum fanlarini o'qitish jarayoni o'zining serqirraligi va dinamikligi bilan ajralib turadi, chunki bu sohada har qanday muammoning mutloq yagona to'g'ri yechimi mavjud emas. Aynan shu sababli bo'lajak pedagoqlarning kasbiy shakllanishida kreativ kompetentlik markaziy o'rinni egallaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik tushunchasi shunchaki quruq ma'lumotlar to'plamiga ega bo'lish emas, balki murakkab va kutilmagan pedagogik situatsiyalarda nostandart modellar hamda o'ziga xos strategiyalar yarata olish ko'nikmasi sifatida talqin qilinmoqda [1.42]. Kreativlik tabiatan insonga berilgan tug'ma iqtidor sanalsa-da, u to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muhit, tizimli yondashuv va maqsadli metodologiya yordamida oliy ta'lim bosqichida samarali rivojlantirilishi mumkin bo'lgan integrativ sifattir [10.225]. Biroq, amaldagi ko'plab o'quv dasturlarida hali ham axborotni shunchaki uzatish va qayta takrorlashga asoslangan reproduktiv metodlar ustunlik qilmoqda. Natijada talabalarda olingan nazariy bilimlarni real maktab hayotidagi muammolarni hal qilishga adaptatsiya qilish va moslashtirish ko'nikmasi oqsaydi [2.84]. Kompetentlikka yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim paradigmasida esa asosiy diqqat-e'tibor bilimlarning umumiy hajmiga emas, balki ularni amaliyotda, ayniqsa pedagogik konfliktlar va kognitiv qiyinchiliklarni yengib o'tishda ijodiy qo'llay olish qobiliyatiga qaratilishi lozim [7.36].

Ushbu muammolarni bartaraf etish va talabalarning ijodiy salohiyatini faollashtirishda muammoli ta'lim (*Problem-Based Learning*) texnologiyasi eng samarali va sinalgan didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi. Muammoli o'qitishning tub mohiyati talabalarga tayyor qoidalar, formulalar yoki darslikdagi qat'iy xulosalarni berish emas, balki ularni ziddiyatli va yechimi bir qarashda aniq bo'lmagan evristik vaziyatlar qarshisiga qo'yishdan iboratdir [6.45]. Zero, inson tafakkuri va mustaqil izlanish faolligi faqat tizimli ravishda muammoli vaziyat yuzaga kelganda hamda shaxs ongida "bilish" va "bilmaslik" o'rtasida kognitiv dissonans (ichki ziddiyat) paydo bo'lgandagina harakatga keladi [6.112]. Pedagogik fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim usullaridan unumli foydalanish talabaning shaxsiy va kasbiy mustaqilligini oshirib, darsni interaktiv loyihalashtirish orqali o'quv motivatsiyasini tubdan o'zgartiradi [3.112]. Mahalliy metodik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda muammoli ma'ruzalar va texnologik xaritalarning o'rni beqiyos bo'lib, ular talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlash zaminini yaratadi [5.58]. Global ta'lim makonida ham muammoli yondashuv nafaqat muayyan fan mazmunini o'zlashtirish, balki talabaning umumiy muammolarni yechish ko'nikmalarini (*problem-solving skills*) hamda har qanday vaziyatga moslashuvchanligini oshiruvchi eng fundamental va universal strategiya sifatida e'tirof etilmoqda [9.5]. Shunga qaramay, amaliyotda talabalarning kreativ kompetentlik komponentlarini tizimli tashxis qilish, muammoli vaziyatlarni muayyan mavzular kesimida bosqichma-bosqich loyihalash metodikasi hali ham yaxlit tizim holatiga keltirilmagan va qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi [4.46].

Adabiyotlar tahlili. Muammoli o'qitish va kreativ kompetentlik tushunchalarining nazariy asoslari jahon va mahalliy pedagogika fanida uzoq yillardan beri turli rakurslardan tadqiq etib kelinmoqda. Muammoli ta'lim kontsepsiyasining fundamental asosi inson tafakkurining tabiatan muammoli xarakterga ega ekanligi to'g'risidagi psixologik qoidaga tayanadi. Ushbu yondashuvning xalqaro miqyosdagi eng yetakchi namoyandalarining tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bilish jarayoni faqatgina inson o'z odatiy tajribasi doirasida yechib bo'lmaydigan to'siqqa yoki ziddiyatga duch kelgandagina faollashadi [6.45]. Ya'ni,

talabada ichki intellektual ehtiyoj shakllanishi uchun u muayyan noaniqlik muhitiga tushishi lozim. Global oliy ta'lim amaliyotida ushbu metodologiya uzoq yillar davomida talabalarning shunchaki axborot jamlovchisi bo'lib qolmasdan, balki fanning real keyslari ustida ishlovchi tadqiqotchiga aylanishini ta'minlab kelmoqda [9.5]. Shu bilan birga, kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim paradigmasida kreativlik tushunchasi shunchaki san'at yoki estetika bilan cheklanib qolmay, balki kasbiy faoliyatning eng muhim ko'rsatkichi sifatida baholanadi. Olimlarning fikricha, o'quv jarayonida kompetentlik asosini shakllantirish talabaning o'zlashtirgan bilimlarini kutilmagan vaziyatlarda mobilizatsiya qila olish (ishga sola bilish) qobiliyati bilan o'lchanadi [7.36]. Mazkur jarayonda kreativlik shaxsning intellektual moslashuvchanligini ta'minlovchi hamda unga o'z kasbiy faoliyatida mutlaqo yangi, original g'oyalar va modellar ishlab chiqish imkonini beruvchi integral xususiyat sifatida namoyon bo'ladi [10.225].

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham talabalarning kreativ salohiyatini va kasbiy tayyorgarligini oshirish muammosiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida pedagogik texnologiyalar tizimidan to'g'ri foydalanish, ularda mustaqil loyihalash va refleksiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi amaliy jihatdan isbotlangan [1.42]. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunini modernizatsiyalash sharoitida talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish muammoli ma'ruzalar, seminarlar va maxsus texnologik xaritalar tizimi orqali amalga oshirilishi lozimligi asoslangan [5.58]. Biroq, ko'plab olimlarning e'tirof etishicha, oliy maktab amaliyotida muammoli ta'lim usullarini pedagogik fanlar tarkibiga integratsiya qilish ko'pincha tizimli emas, balki epizodik (vaqti-vaqti bilan) xarakterga ega bo'lib qolmoqda [4.46]. Vaholanki, bo'lajak o'qituvchilar darsni interaktiv loyihalashtirish va pedagogik jarayonni ijodiy tashkil etish mahoratini aynan oliy ta'lim devorlari orasida shakllantirishlari shart [3.112]. Pedagogik turkum fanlarini zamonaviy metodologiya asosida o'qitish uslubiyotini takomillashtirish zarurati talabalarda nafaqat tayyor metodik andozalarni yodlashni, balki har bir dars ssenariysiga kreativ elementlarni kirita olish ko'nikmasini rivojlantirishni taqozo etadi [2.84]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, garchi har ikkala yo'nalish (muammoli ta'lim va kreativlik) alohida-alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularning pedagogik turkum fanlar misolidagi sintezi va kreativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha yaxlit metodik modelni yaratish masalasi hamon o'z yechimini kutmoqda.

Tadqiqot metodlari. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida muammoli o'qitish va kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim prinsiplari tanlab olindi hamda tadqiqot jarayoni uch bosqichda (aniqlovchi, shakllantiruvchi va tekshiruvchi) tashkil etildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Qarshi davlat universitetining Filologiya va Pedagogika fakultetlari talabalari (jami 142 nafar) ishtirokida olib borildi. Talabalar an'anaviy o'qitish usullari qo'llanilgan nazorat guruhlariga hamda o'quv jarayoniga muammoli keyslar va evristik topshiriqlar tizimi integratsiya qilingan tajriba guruhlariga ajratildi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida darsni interaktiv loyihalashtirish va pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalanish muhim bo'lganligi sababli, darslar maxsus texnologik xaritalar asosida qurildi [1.42; 3.112; 5.58]. Talabalarning kreativ kompetentlik darajasini va shaxsiy intellektual moslashuvchanligini obektiv baholash maqsadida pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan standartlashtirilgan uslubiyotlar – Torrensning kreativ fikrlash testi (*Torrance Tests of Creative Thinking*) hamda pedagogik fanlarni o'zlashtirish samaradorligini o'lchovchi maxsus kriterial testlardan foydalanildi [10.225]. Muammoli vaziyatlarni yaratishda esa talabalarda "bilish" va "bilmaslik" o'rtasidagi ziddiyatlarni yuzaga keltiruvchi psixologik-didaktik modellar va kognitiv topshiriqlar asos qilib olindi [6.45]. Olingan barcha miqdoriy ko'rsatkichlar va tajriba natijalari pedagogik eksperiment talablariga mos ravishda, matematik-statistika (Styudentning t-kriteriyasi) metodlari yordamida qayta ishlandi hamda guruhlararo farqning ishonchligi tekshirildi.

Natijalar va muhokama. Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida olingan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari muammoli o'qitish texnologiyalarining talabalar kreativ kompetentligini oshirishda juda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Eksperiment boshida o'tkazilgan dastlabki aniqlovchi diagnostika natijalariga ko'ra, har ikkala guruhda ham (nazorat va tajriba) talabalarning ijodiy fikrlash darajasi, original g'oyalar berish ko'rsatkichlari hamda pedagogik muammolarni yechishga bo'lgan moslashuvchanligi deyarli bir xil, ya'ni quyi va o'rta darajada edi. Bu holat oliy ta'lim tizimida pedagogik turkum fanlarini o'qitishda hamon reproduktiv, ya'ni tayyor ma'ruzalarni konspekt qilish va seminarlarda ularni shunchaki qayta


gapirib berish metodologiyasi ustunlik qilayotganidan dalolat berar edi [2.84]. An'anaviy dars o'tish shakllari talabalarni faol intellektual izlanishga undamaydi, natijada bo'lajak o'qituvchilar maktab hayotida uchraydigan real muammoli vaziyatlar qarshisida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Ammo shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhlarida darslar muammoli ma'ruzalar, evristik suhbatlar va konfliktli pedagogik keyslar tizimi asosida loyihalashtirilgach, vaziyat tubdan o'zgardi [5.58]. Talabalarning kognitiv motivatsiyasi uyg'onishi hisobiga ularda nafaqat fanga bo'lgan qiziqish, balki topshiriqlarga mutlaqo yangicha, nostandart yechimlar taklif qilish madaniyati ham shakllana boshladi.

Olingan yakuniy natijalarni tizimli tahlil qilish maqsadida talabalarning kreativ kompetentlik darajalari (past, o'rta, yuqori) o'quv yili yakunida qayta tashxis qilindi. Quyidagi 1-jadvalda nazorat va tajriba guruhlarining talabalarining eksperimentdan keyingi ko'rsatkichlari qiyosiy aks ettirilgan.

1-jadval. Eksperiment yakunida talabalarning kreativ kompetentlik darajasi ko'rsatkichlari

Guruhlar	Ishtirokchilar soni (nafar)	Past daraja (%)	O'rta daraja (%)	Yuqori daraja (%)
Nazorat guruhi	70	42.8	44.3	12.9
Tajriba guruhi	72	11.1	51.4	37.5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, an'anaviy metodlar asosida tahsil olgan nazorat guruhida yuqori ko'rsatkich bor-yo'g'i 12.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, muammoli ta'lim komponentlari joriy etilgan tajriba guruhida bu ko'rsatkich 37.5 foizga yetdi. Shu bilan birga, tajriba guruhida past ko'rsatkichga ega talabalar salmog'i 42.8 foizdan 11.1 foizga qadar kamaydi. Bu raqamlar shuni isbotlaydiki, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni tizimli ravishda yaratish talabalarning intellektual va ijodiy salohiyatini barqaror harakatga keltiruvchi trigger vazifasini bajaradi [6.112].



Natijalarning psixologik-pedagogik mexanizmlarini muhokama qilar ekanmiz, muammoli o'qitish talaba ongida qanday qilib kreativlikni yuzaga chiqarishi ustida to'xtalish lozim. Inson ongida muammoli vaziyat paydo bo'lganda, darslikdagi tayyor andozalar o'z samarasini bermay qoladi va talaba kognitiv qiyinchilikka uchraydi. Aynan mana shu nuqtada subyektning reflektiv mexanizmlari ishga tushadi: u o'z bilimlaridagi bo'shliqlarni tahlil qiladi, gipotezalar (tahlillar) tuzadi va nostandart yechimlar qidira boshlaydi [6.45]. Biz amaliyotda qo'llagan evristik topshiriqlar talabalarni stereotipik (bir qolipdagi) fikrlashdan uzoqlashtirib, ularda Torrens mezonlari bo'yicha fikrning ravonligi, moslashuvchanligi va originalligini sezilarli darajada oshirdi [10.234]. Bu jarayonda kreativlik shunchaki nazariy mavzu emas, balki real pedagogik konfliktlarni hal qilish quroliga aylandi.

Olingan natijalar xalqaro miqyosda muammoli ta'lim (PBL) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar xulosalari bilan ham to'liq hamohangdir. Jahon tajribasida isbotlanganidek, talabalarga muammolarni mustaqil yechish imkoniyati berilganda, ularning adaptiv moslashuvchanligi va kasbiy muammolarni hal qilish ko'nikmalari an'anaviy ma'ruza tinglovchilariga qaraganda bir necha barobar yuqori bo'ladi [9.12]. Kompetentlik yondashuvining yetakchi nazariyotchilari ta'kidlaganidek, oliy maktabdagi ta'lim sifati talabaning qancha ma'lumotni eslab qolgani bilan emas, balki kutilmagan vaziyatlarda bilimlarni qanchalik mobilizatsiya qila olishi bilan o'lchanadi [7.36]. Bizning metodikamiz

ham aynan shu maqsaddan kelib chiqib, talabalarning shaxsiy tajribasi va kreativ salohiyatini sintez qilishga qaratildi, bu esa ularning pedagogik fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ham ijobiy tomonga o'zgartirdi.

Shunga qaramay, muhokama jarayonida muammoli o'qitishni joriy etishda yuzaga keladigan ayrim qiyinchiliklar va metodik cheklovlarni ham qayd etish joiz. Pedagogik tajriba davomida ma'lum bo'ldiki, darslarda muammoli vaziyatlarni loyihalash o'qituvchidan juda yuqori kasbiy mahorat, dars ssenariysini mukammal tuzish va eng muhimi – vaqt resursini talab etadi [1.42]. Ayrim hollarda, akademik o'quv dasturlaridagi mavzular ko'p va soatlar hajmi cheklanganligi sababli, har bir darsda muammoli keyslarni to'liq tahlil qilishga vaqt yetishmasligi kuzatildi [4.46]. Shuningdek, talabalarning dastlabki tayyorgarlik darajasi past bo'lgan guruhlarda muammoli vaziyat birdaniga ijodiy impuls bermasdan, aksincha, ularda o'ziga bo'lgan ishonchsizlik yoki intellektual charchoqni keltirib chiqarish xavfi ham mavjud bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, aniqlangan kamchilik va cheklovlarga qaramasdan, muammoli o'qitish texnologiyalari bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy ta'lim tizimidan ko'ra bir necha barobar afzalliklarga ega. Tadqiqotimiz doirasida sinovdan o'tgan metodika talabalarda nafaqat pedagogik fanlar bo'yicha chuqur nazariy tushunchalarni shakllantiradi, balki ularni zamonaviy maktab muhitida innovatsion g'oyalar yaratishga qodir ijodkor pedagog sifatida tayyorlaydi. Olingan natijalar ushbu metodik modelni kengroq miqyosda, boshqa gumanitar va ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayoniga ham adaptatsiya qilish va joriy etish uchun to'liq asos bo'la oladi.

Xulosa. Oliy pedagogik ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyalarini tizimli qo'llash talabalarning faqatgina ma'lumotlarni qabul qiluvchi subyektdan mustaqil tadqiqotchi va ijodkor mutaxassis darajasiga ko'tarilishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, dars jarayoniga evristik vaziyatlar va pedagogik keyslarni integratsiya qilish an'anaviy o'qitish metodikasiga nisbatan talabalarning kreativ kompetentligini deyarli uch barobar samaraliroq oshirish imkonini berdi. Kreativ kompetentlikning shakllanishi bevosita kognitiv qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan aqliy faoliyat hamda refleksiv jarayonlarning faollashishi bilan bog'liqdir.

Ishlab chiqilgan metodika va amaliy tavsiyalar pedagogika oliygohlarida o'quv jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni muammoli ta'lim texnologiyalarini raqamli ta'lim platformalari (elektron o'quv muhiti) va sun'iy intellekt tizimlari bilan integratsiyalash orqali yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. va boshqalar. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 120 b.
2. Yuzlikaeva E.R. Pedagogik turkum fanlarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020. – 160 b.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2018. – 240 b.
4. Turdiyeva M. Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalarining o'rni // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – 2022. – № 5(2). – B. 45-51.
5. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. – 180 b.
6. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – Москва: Директ-Медиа, 2008. – 392 с.
7. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // Высшее образование сегодня. – 2004. – № 5. – С. 34-42.
8. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно-методическое пособие. – Москва: Издательство «Эйдос», 2013. – 73 с.
9. Barrows H.S. Problem-based learning in medicine and beyond: A brief overview // New Directions for Teaching and Learning. – 1996. – No. 68. – P. 3-12.
10. Torrance E.P. Understanding creativity: Where to start? // The Journal of Creative Behavior. – 1993. – Vol. 27(4). – P. 223-234.

QarDU XABARLARI

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17.

Indeks: 4071

Terishga 2026-yil 27.06.da berildi.

Bosishga 2026-yil 29.06. da ruxsat etildi.

2026-yil 30.06.da bosildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garnituras. Nashriyot hisob tabog'i 22,35.

Buyurtma raqami: № 35.

Adadi 50 nusxa. Erkin narxda.